Jamiyatda madaniy va ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda tez suratlarda rivojlanib borayotgan o‘zgarishlar, innovatsion islohotlar uzluksiz ta’lim tizimiga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda. Yosh avlod jahoning eng rivojlangan ta’lim tizimi va milliy ruh, milliy tarbiya uyg‘unligida ta’lim olishi uzluksiz ta’lim, xususan oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini yanada oshirishni talab etadi. Bugungi jamiyat vakillari tanqidiy va mantiqiy fikrlash salohiyatiga ega bo‘lib rivojlanishmoqda. Ma’lumki, shaxsning shaxsiyati zamon taraqqiyoti bilan hamohanglikda rivojlanib borishi kerak. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki talabalar bilan noan’anaviy darslarni ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish natijasida innovatsion, yangicha yondashuvlar zamonaviy pedagogika uchun kun tartibiga aylandi. O‘quv jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish nafaqat zamonaviy sharoitda oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan yangi vazifalar bilan bog‘liq holda alohida ahamiyatga ega. Yetuk mutaxassisga yo‘naltirilgan pedagogikada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari zamonaviy jamiyatning rivojlanishiga va shaxsning ichki dunyosiga e'tiborning ortishiga mos kelishi kerak. Tanqidiylik nafaqat insonning xatti-harakati va bilimiga, balki uni o‘zlashtirish va o‘zlashtirish usullariga nisbatan ham rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash darajasi insonning bilim va ko‘nikmalari, malakasi bilan emas, balki uning shaxsiy fazilatlari, tafakkur munosabatlari va axloqiy qarashlari, qadriyatlari shu jumladan o‘zining “men”ga nisbatan aks ettiruvchi munosabati bilan ham belgilanadi. Anglashiladiki, ta’lim-tarbiya tizimi yangi ijtimoiy tartibni talab qilmoqda. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining zamonaviy ta;lim texnologiyalaridan unumli foydalanib, dars mashg‘ulotlarini tashkil etishiga hamda ularda mustaqil ta’lim olishlari uchun qulay shat-sharoitlar yaratishga ham bevosita bog‘liq.

Bugungi zamonaviy pedagoglarimiz hamda ota-onalarimiz yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor bilan qarashlari, ular bilan ko‘proq suhbat olib borishlari hamda shu bilan bir vaqtda ularning tanqidiy fikrlashlariga undashlari lozim. Buning uchun professor-o‘qituvchilar, qolaversa, ota-onalar ham zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo‘lishlari muhimdir.

Bugungi kunda professor-o‘qituvchilarning kreativ va kognitiv kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlash birinchi navbatda kreativlikni talab etadi. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Bugun O‘zbekistonda “shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi” siyosati muhim omil bo‘lmoqda. Bu esa mustaqil mamlakatimizning rivojlanayotgan mamlakatdan rivojlangan mamlakatlar safiga qo‘shilishida muhim omil bo‘ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim usullarini to‘g‘ri tanlash orqali yuksak natijalarga erishish imkoniyati tez va tizimli bo‘ladi.

Ma’lumki tanqidiy fikrlash texnologiyasi 1980-yillarda Amerikada vujudga kela boshlagan bo‘lib, Rossiyada o‘tgan asrning 90-yillarida tadqiq etila boshlandi. Bu sohada L.S.Vigotskiy, K.Pokker, R.Rol, E.Barun, I.Bek kabi tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashning ilmiy asoslar bilan taraqqiy etishiga katta hissa qo‘shishdi. Xususan, E.Braun metakongnitiv ta’lim, Charlz Templ pedagogik texnologiyalarning umumiy tasnifi haqida tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu tadqiqotlar XXI asrga kelib jadallashdi, va yangi innovatsion iliy tadqiqotlar vujudga keldi.

Umuman olganda ta’lim jarayoniga tanqidiy fikrlashni tizimli ravishda kiritish alohida fikrlash va kognitiv faoliyat uslubini shakllantirish kerak. Ushbu pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati shundaki, o‘quv jarayonida talaba bu jarayonni o‘zi quradi, aniq va rejali maqsadlarga asoslanadi, uning rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilib, kuzatib boradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, innovatsion texnologiyalar asosiga qurilgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar zarur. Sun’iy intellekt, raqamli ta’lim platformalari va axborot tahlili vositalari inson tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi, bu esa jamiyatning intellektual-kognitiv salohiyatini oshirishda yordam beradi. Tanqidiy fikrlash bugungi taraqqiy etayotgan zamonda insonning hayotiy zaruriyati bo‘lib, unga turli manbalardan olingan ma’lumotlarni filtrlash, muhim bo‘lmagan ma’lumotlardan saqlanish, shaxsiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsiyeva M. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalansihning ahamiyati. “Science and Education” Jurnal/ Impact Factor 3.848 April. 2023/ Volume 4 Issue 4. – P. 78-91.
2. Yuldasheva D. Methods of Development of Communicative Competence of Students of the Tourism Direction in English Classes. InInternational Conference of Education, Research and Innovation. 2023. Vol. 1, No. 5. – P.19-26.
3. Shaykhislamov, N. The Role of Lingvoculturology in Speech Culture. O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqodlar va metodlar. 2020. – P.136-140.
4. Raxmatova D. Talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslar. “Modern trends of teaching in the context of innovative and digital technologies in higher education: prospects, problems and solutions” international scientific and practical conference. – Toshkent. 2024. – B.610-613.
5. M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.

© Norqulova Ma’mura Oybek qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Norqulova Ma’mura Oybek qizi

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINING SEMANTIK TEG TIZIMI VA MODELLARI

СЕМАНТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ТЕГОВ И МОДЕЛИ КОРПУСА ПОЛНОМОЧИЙ АЛИШЕРА НАВАИ

SEMANTIC TAG SYSTEM AND MODELS OF THE CORPS OF ALISHER NAVAI;S AUTHORSHIP

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna

Filologiya fanlari doktori (DSc), dots v/b.

Navoiy innovatsiyalar universiteti

E-pochta: nargizagulomova099@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7716-1799

Annotatasiya: Takomillashib borayotgan kompyuter lingvistikasi sohasida matnlarni avtomatik tarjima qilish sifatini oshirish, tilni lingvistik modellashtirish, har bir tilga oid so‘zlarni lemmalash nazariyasi, axborot-qidiruv tizimi, avtomatik tarjima, tezaurus, elektron lug‘atlardan foydalanish imkoniyati kengaydi. Sun’iy intellektning matnni avtomatik tarzda qayta ishlash sohalarining rivojlanishi tilni tadqiq etish, lingvodidaktika, leksikografiya, tarjimonlik borasidagi tadqiqotlarda kompyuter lingvistikasi yutuqlaridan keng foydalanishga ehtiyoj paydo qildi. Buning natijasida korpus lingvistikasi sohasining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi va amaliyotga joriy etildi, til korpuslarining maqsadiga ko‘ra farq qiluvchi ko‘plab turlari paydo bo‘ldi. Tilning ko‘p asrlik milliy merosidan foydalanish imkonini oshirish maqsadida ularni elektronlashtirish jahon tilshunosligida dolzarb masalaga aylandi.

Annotation: In the field of computer linguistics, which is improving, the possibilities of using automatic text translation, linguistic modeling of language, the theory of lemma of words for each language, information search systems, automatic translation, thesaurus, and electronic dictionaries have expanded. The development of artificial intelligence in the field of automatic text processing has created a need for the widespread use of the achievements of computer linguistics in research on language research, linguistic didactics, lexicography, and translation. As a result, the scientific and theoretical foundations of the field of corpus linguistics have been created and put into practice, and many types of language corpora have appeared, differing in purpose. In

order to increase the availability of the centuries-old national heritage of the language, their electronicization has become a pressing issue in world linguistics.

Аннотация: Повышение качества автоматического перевода текстов, лингвистическое моделирование языка, теория лемминговых слов для любого языка, информационно-поисковая система, автоматический перевод, тезаурус, электронные словари и приобретение компьютерной лингвистики. Результатом является создание внутренних и практических научно-теоретических фундаментальных областей корпусной лингвистики, появление большого количества типов языковых корпусов, различающихся по определению. В целиак повышения возможности использования многовекового национального наследия языка іх электрония стала актуальной проблемы мирового языка.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, korpus, model, leingvistik tahlil, reprezentatsiya, avtomatik tarjima.

Key words: classic literature, poetic art, talmeh, tazod, tashbih, corpus, semantic tag, bayt.

Ключевые слова: классическая литература, корпус, модель, лингвистический анализ, представление, автоматический перевод.

KIRISH

Jahon tilshunosligi taraqqiyotida har bir xalq o‘z tilining milliy mavqeyini oshirish, uning asl holatini saqlash hamda kelajak avlodga butunligicha yetkazish maqsadida milliy til korpuslarini yaratishga asosiy masala sifatida qarashmoqda. Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblangan kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi rivojlanib, bu soha doirasida olib borilgan tadqiqotlarda milliy til va uning sofligini saqlashga keng e’tibor qaratilmoqda[1]. Shuningdek, milliy til korpusining dasturiy ta’minotini yaratish, uni internet tarmog‘ida ishlashini ta’minlash, milliy tilni kompyuter yordamida lingvistik aspektda tadqiq etish muhim masala hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida tilning axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi, uni qayta ishlash, raqamlashtirish, elektron shaklda saqlash va turli tadqiqotlar olib borishda milliy til korpuslaridan samarali foydalanilmoqda. Chunonchi, til korpuslari nafaqat elektron jamlanma, balki til o‘rganuvchilarga, turli lingvistik tadqiqotlarni olib boruvchilarga qo‘llanma hamda leksikografik manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til korpusi elektron holda saqlanadigan til birliklari majmuasi bo‘lib, tilshunoslar uchun turli muammolarni hal etish manbasi, foydalanuvchilar uchun esa lingvodidaktik va ta’limiy ahamiyatga ega tizimdir. Korpus tilshunosligi kompyuter lingvistikasi zamirida

shakllangan soha bo'lib, uning obyekti tabiiy tildagi matnlar, predmeti esa til korpuslari va ularni yaratishning nazariy hamda amaliy asoslari hisoblanadi [2]. Ma'lum bir tilning deyarli barcha tipdagi matnlari bazasidan iborat, turli maqsadlar uchun lingvistik izohlar asosida qayta ishlangan korpus turi Milliy til korpusi deyiladi. Muayyan maqsadga mo'ljallangan maxsus korpuslar esa uning xususiy / tarkibiy turi hisoblanadi. Bunday korpuslarga aksentologik korpus, parallel korpus, mualliflik korpusi, gazetalar korpusi, ta'limiy korpus, badiiy matnlar korpuslari kiradi.

Mualliflik korpusi muayyan bir muallif qalamiga mansub matnlar majmuasidan iborat tizim bo'lib, asosan, yozuvchining yozish uslubi, asarlaridagi til, matn xususiyatlarini axborot texnologiyalari yordamida semantik tasniflab, tadqiq etishga asoslangan elektron shakldagi ma'lumotlar bazasi sanaladi. Mualliflik korpusining boshqa korpuslardan farqi uning bazasida muayyan bir muallif asarlari jamlanadi, matnlar qayta ishlanadi, grammatik va semantik teglanadi, qidiruv tizimi orqali muallifga tegishli materiallardan zaruriy ma'lumotlar, lingvistik ifodalar aniqlanadi[3], matnlar asosida statistik ma'lumotlar taqdim etiladi, metama'lumotlar aniq beriladi. Shunday qilib, mualliflik korpusi keng imkoniyatli qidiruv tizimiga ega bo'lib, muallif ijod qilgan barcha tur va janrdagi asarlar qamrab olinadigan, maxsus parametrlar asosida ham qidiruv imkoniyatiga ega, hajmi chegaralanmagan, muallif va uning ijodi bilan bog'liq manbalarni qulay hamda tezkor olish mumkin bo'lgan elektron ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Zamonaviy ulkan hajmli korpuslarni yaxlit bir ko'rinishga keltirish mashaqqatli jarayon hisoblanadi[4].

Bugungi kunda mualliflik korpuslarini yaratish, rivojlantirish zamonaviy korpus lingvistikasining eng ilg'or yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mualliflik korpuslari yordamida hatto anonim ijod mahsullari mualliflarini aniqlash mumkin. Ingliz korpusshunosligida Shekspir MK[5] shu turdagi korpuslar ichida mukammal tuzilgan elektron model hisoblanadi[6]. Rus korpus lingvistikasida A.P.Chexov, A.S.Pushkin, F.M.Dostoyevskiylarning korpuslarini tuzish prinsiplari nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Ayni damda MKning elektron modeli tarzida Anton Chexov korpusini yaratish ustida ish olib borilmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Alisher Navoiyning "Badoye ul-vasat" devoni asosida yaratilgan semantik baza yordamida ilk prototipi yuzaga kelgan va 2022-yil 22-aprelda foydalanishga qo'yilgan Alisher Navoiy MK turkiy xalqlarning daho yozuvchisi bo'yicha dastlabki elektron model hisoblanadi.

Jahon adabiyotshunosligida va axborot texnologiyalari sohasida Alisher Navoiyning hayoti va ijodi yoritilgan ma'lumotlar[7] sayt sahifalarida yoritilgan. Biroq hozirgacha jahon tilshunosligida ham, adabiyotshunosligida ham Alisher Navoiy mualliflik korpusini

yaratishga bo'lgan ishlanmalar qilinmagan. Shu jihati bilan ham ushbu[8] korpus innovatsion va amaliy ishlanmalardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy mualliflik korpusi ta'limiy, tarixiy, lingvistik, ijtimoiy, tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu korpusni yaratish natijasida quyidagi imkoniyatlar yuzaga keladi:

- Alisher Navoiy shaxsini o'rganish;
- adib uslubini tadqiq etish;
- shoir ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
- ijodkorning so'z qo'llash imkoniyati va mahoratini tadqiq etish;
- mualliflik lug'atlarini yaratish;
- mualliflik iboralarini jamlash;
    - ▪ MKdagi ijodkor shaxsi va uslubini namoyon etuvchi parametrlar orqali anonim asarlar muallifini topish;
    - ▪ mualliflik parafraza, parema, hikmatlarini jamlash; tasviriy ifodalarning qo'llanilish ko'lamini ijodkor kontekstidan aniqlash mumkin bo'ladi[9].

Ayni damda "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi devonidagi 2600 g'azal, unda keltirilgan maqollar, iboralar, arxaizm, tarixiy so'zlar, telmeh, tashbih, tanosub, irsoli masal kabi she'riy san'atlar semantik teglari asosida yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi takomillashtirildi va foydalanuvchilarga qulaylik uchun korpusda qidiruv interfeysi ham ishlab chiqildi:



1-rasm. Alisher Navoiy MKning qidiruv interfeysi.

Buning natijasida foydalanuvchilarda Navoiy ijodi, umuman, XV asr manbalari bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'sha davr so'zligini tushunish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Alisher Navoiy g'azallarida uchraydigan izohtalab so'zlarning semantik bazasi yaratilib, mualliflik korpusiga kiritilishi mumtoz adabiyotimizning nodir namunalarini puxta o'rganishda, milliy ma'naviyatimizning rivojlanishida muhim o'rin tutadi[10]. G'azallarni semantik tenglash jarayonida ayrim so'zlarning o'ndan ortiq ma'nolarini ifodalab kelishiga guvoh bo'lamiz:

2-rasm. G'azallarda ucragan band leksemasining ko'p ma'nolilik xususiyati.

Bun kabi ko'p ma'noli so'zlar semantik izohlanib, korpus bazasiga kiritilishi foydalanuvchiga g'azal ma'nosini, qolaversa Navoiyning so'z qo'llash uslubini bilishiga asos bo'ladi va yordam beradi.Navoiy g'azallarining ma'no ko'lamini to'laligicha his qilish, anglash, tushunish uchun g'azal tarkibidagi har bir bayt va unda qo'llangan har bir so'zni ilmiy va badiiy tahlil qilish muhim, sun'iy intellekt rivojlanib borayotgan bugungi tezkor davrda Alisher Navoiy mualliflik korpusi muallif tilini kompyuter dasturlari yordamida tez va qulay anglashda yordam beradi, uning o'qishliligini ta'minlaydi:



3-rasm. Korpusda izohtalab so'zlarning g'azallar tartibi bo'yicha saralanishi.

Hozirda o'zbek korpusshunosligida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Linguistic Prossecing – NLP), xususan, korpus matnlarini sintaktik va semantik teglash bo'yicha ilmiybv va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Korpusni oddiy elektron to'plam yoki virtual kutubxonadan farqlovchi omil matnning ekstralingvistik va lingvistik izohi (annotatsiyasi) hisoblanadi[11]. Lingvistik annotatsiya uchun kiritilgan leksik birliklarning grammatik, sintaktik va semantik teglari matn ustida turli lingvistik topshiriq / amallarni bajarishga xizmat qiladi.

Teglashning boshqa turlarida bo'lgani kabi semantik tegning ham yagona shakli bo'lmaydi. So'zlarni semantik teglash jarayonida harf va raqamlardan iborat ramzlardan foydalaniladi.

Dunyo korpusshunosligida teglash uchun umumiy standart belgilar mavjud emas, har bir korpusda grammatik va semantik teglar korpus mansub bo‘lgan til qonuniyatlari va leksik-semantik xususiyatlari asosida shakllantiriladi. Ammo turli tilga mansub korpuslarni muvofiqlashtirish, korpusning amaliy ahamiyatini oshirish, parallel korpuslar integratsiyasiga erishish maqsadida lingvistik teglar universaliyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Semantik teglash (rus., razmetka) – til korpuslaridagi so‘z yoki so‘z birikmasining ma’lum bir semantik kategoriya yoki undan ham kichikroq semantik guruh (LSG, semantik maydon va to‘da)ga mansubligini bildiruvchi, ma’noni maxsuslashtiruvchi belgi, izohlar majmui[3]. Bugungi davrda semantik teglash uchun ko‘plab bazalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan rus tili manbalari asosida ishlangan bir qancha lingvistik ta’minot bazalarini, yoki dunyo tillari uchun keng qo‘llash imkoni bo‘lgan WordNet tizimini, ingliz fe’llarining online lug‘ati VerbNetni, fe’llar ustida amallar bajarish uchun mo‘ljallangan VerbOcean bazasini, “Leksikograf” hamda USAS tizimini misol qilishimiz mumkin.

XULOSA

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan asarlardagi she’riy san’atlarni o‘rganishda ham, Navoiyning ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy-tarbiyaviy, falsafiy-axloqiy qarashlarini anglashimizda ham “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Korpusda g‘azallarni semantik teglagan holda aks ettirish, she’riy san’atlar bazasini berish foydalanuvchilarning ma’naviy va mental tafakkurini kengaytirib, tarixga oid bilimlarini oshiradi, Navoiy ijodini o‘qib o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Zamonaviy korpuslar – bu ma’lum bir tilda, elektron shakldagi matnlar to‘plamiga asoslangan axborot-ma’lumot tizimidir[12]. Har bir korpus filologik yondashuv bilan matnlar ustida ishlash uchun, albatta, lingvistik apparat va dasturiy ta’minot bilan ta’minlanishi lozim. Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotda badiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu masalaga innovatsion yondashgan holda zamonaviy imkoniyatlardan foydalanib, mualliflik korpuslarini yaratish zamon talabi hisoblanadi. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yanada takomillashtirish uchun Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi 16 ta janrini semantik teglab yaxlit ko‘rinishda korpus bazasiga jamlash, qolaversa Navoiyning nasriy asarlarini ham semantik teglash korpusshunoslar oldida turgan dolzarb masaladir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

2. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences.
3. Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика. – СПб.: Изд-во Санкт Петерб. ун-та, 2020. – С. 34.
4. Abjalova M., Gulomova N. Создание лингвистической базы данных для авторского корпуса Алишера Навои. Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков "Turklang2023" – Buxoro, 2023 – B. 659-669.
5. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Navodur ush-shabob" devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. – Тошкент. ISSN 2181-732472-752024. №1/3/1.– Б.72-76.
6. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
7. M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.
8. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
9. Биксалиева Р.Р. Словообразовательные инновации как средство сатиры в произведениях Виктора Пелевина // Вестник ТГГПУ. 2025. №2 (80). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/slovoobrazovatelnye-innovatsii-kak-sredstvo-satiry-v-proizvedeniyah-viktora-pelevina (дата обращения: 15.04.2026).
10. Yuldasheva Dilnoza Khasan Kizi, Mukhammadkhon Soliev, Herman, LiesnaAndriany "The Social Role of the Java Deli Community in Shaping the Language and Cultural Identity of Java Descendants Born in Sumatra" Forum for Linguistic Studies https://journals.bilpubgroup.com/index.php/fl Volume 07, Issue 07, July 2025. 257-269.

© G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TALQINI: DISKURSIV VA PRAGMALINGVISTIK YONDASHUV

O‘ljaboyeva Marjona

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

I bosqich magistranti

oljaboyevamarjona32@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy g‘azallarida qo‘llangan frazeologik birliklarning lingvomadaniy mazmuni hamda ularning diskurs va pragmatika doirasidagi funksional xususiyatlari o‘rganiladi. Tahlil natijasida frazeologizmlarning poetik matndagi semantik yuklamasi, milliy tafakkur bilan bog‘liqligi va kommunikativ ta’sir kuchi aniqlanadi. Shuningdek, ushbu birliklarning badiiy nutqni shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, lingvomadaniyat, poetik diskurs, pragmatika, g‘azal, semantik struktura.

LINGUISTIC AND CULTURAL INTERPRETATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ALISHER NAVOI’S GHAZALS: DISCURSIVE AND PRAGMALINGUISTIC APPROACHES

Abstract: This study studies the linguistic and cultural content of phraseological units used in Alisher Navoi’s ghazals and their functional properties within the framework of discourse and pragmatics. As a result of the analysis, the semantic load of phraseologisms in the poetic text, their connection with national thinking, and the power of communicative influence are determined. The role of these units in the formation of artistic speech is also substantiated.

Key words: phraseological unit, linguistic and cultural, poetic discourse, pragmatics, ghazal, semantic structure.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВОИ: ДИСКУРСИВНЫЙ И ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ

Аннотация: В данном исследовании изучается лингвистическое и культурное содержание фразеологических единиц, используемых в газелях Алишера Навои, и их функциональные свойства в рамках дискурсивной и прагматической теории. В результате анализа определяется семантическая нагрузка фразеологизмов в поэтическом тексте, их связь с национальным мышлением и сила коммуникативного влияния. Также обосновывается роль этих единиц в формировании художественной речи.

Ключевые слова: фразеологическая единица, лингвистическое и культурное содержание, поэтический дискурс, прагматика, газель, семантическая структура.

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Alisher Navoiy ijodi yuksak ilmiy va estetik ahamiyatga ega. Uning g'azallari badiiy mukammalligi, chuqur falsafiy mazmuni hamda serqatlam semantik tuzilishi bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarda frazeologik birliklar nafaqat ifoda vositasi, balki muhim madaniy-ma'naviy axborot tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologizmlar til tizimining murakkab qatlamlaridan biri bo'lib, xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiradi. Shu bois ularni lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matnda ular obrazlilik, emotsional-ekspressivlik va ko'p qatlamli ma'no bilan ajraladi. Zamonaviy tilshunoslikda diskursiv va pragmalingvistik yondashuvlarning rivoji frazeologik birliklarni ularning kommunikativ vazifasi va ta'sir mexanizmlari asosida tahlil qilish imkonini bermoqda. Bu jihatdan Navoiy g'azallaridagi frazeologizmlar alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Ular orqali shoir o'zining poetik uslubini, davrning ijtimoiy-madaniy qarashlarini va estetik idealini ifodalaydi. Mazkur tadqiqotda frazeologik birliklar lingvomadaniy, diskursiv va pragmalingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinib, ularning poetik nutqdagi o'rni hamda kommunikativ ahamiyati yoritiladi.

Alisher Navoiyning "G'arayib us-sigar" devonidan joy olgan ushbu g'azalda frazeologik birliklarning livomadaniy, diskursiv hamda pragmalingvistik tahlili olib boriladi:

Ul malohat ganji hajrida buzug' maskan manga,

Uyladurkim, jondin ayru yuz yaralig' tan manga.

Mehr ila mah partavidin ko'zni ravshan qilmadim,

Bo'lg'ali mehri ruhung mohiyyati ravshan manga.

Bo'ldi ravzan-ravzan ul qotil xadangidin ko'ngul,

Jon qushi chiqmoqqa bir yo'l angla har ravzan manga…

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATI. FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TIL TIZIMIDA BARQAROR, QAYTA ISHLATISHGA TAYYOR VA SEMANTIK JIHATDAN YAXLIT BO'LGAN BIRLIKLAR SIFATIDA MILLIY TAFAKKUR, MADANIYAT HAMDA TARIXIY TAJRIBANING MUHIM KO'RSATKICHLARIDAN BIRI HISOBLANADI. ULAR KO'PINCHA KO'CHMA MA'NODA QO'LLANIB, MUAYYAN ETNOSGA XOS KONSEPTUAL DUNYOQARASHNI IFODALAYDI. SHU JIHATDAN, ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA UCHRAYDIGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR NAFAQAT POETIK TASVIR VOSITASI, BALKI SHARQ MUMTOZ TAFAKKURI, XUSUSAN, TASAVVUFIY-FALSAFIY QARASHLARNING LINGVISTIK IFODASI SIFATIDA NAMOYON BO'LADI. XUSUSAN, *"KO'NGIL YARASI", "JON QUSHI", "HIJRON O'QI"* KABI FRAZEOLOGIZMLAR SEMANTIK JIHATDAN KO'P QATLAMLI BO'LIB, ULAR ORQALI ISHQ, HIJRON, RUHIY IZTIROB KABI KONSEPTLAR IFODALANADI. MASALAN, *"JON QUSHI"* FRAZEOLOGIZMI LINGVOMADANIY JIHATDAN INSON RUHINING JISMDAN AJRALISH, ILOHIY MANBAGA QAYTISH HAMDA METAFIZIK ERKINLIKKA INTILISH G'OYALARINI IFODALAYDI. BU ESA O'Z NAVBATIDA O'RTA ASR SHARQ TAFAKKURIDA KENG TARQALGAN TASAVVUFIY KONSEPSIYALAR BILAN UZVIY BOG'LIQDIR.

DISKURSIV YONDASHUV. DISKURSIV TAHLIL FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI ULARNING MATN TARKIBIDAGI FUNKSIONAL-SEMANTIK ROLI, KOMMUNIKATIV VAZIFASI HAMDA KONTEKSTUAL QO'LLANISH XUSUSIYATLARI ASOSIDA O'RGANISHNI NAZARDA TUTADI. ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA FRAZEOLOGIZMLAR ASOSAN ISHQIY DISKURS DOIRASIDA AKTUALIZATSIYALANIB, OSHIQ VA MA'SHUQA O'RTASIDAGI MURAKKAB PSIXOLOGIK HAMDA EMOTSIONAL MUNOSABATLARNI IFODALASHGA XIZMAT QILADI. MASALAN, *"KO'NGIL RAVZAN-RAVZAN BO'LDI"* FRAZEOLOGIK BIRLIGI DISKURSIV JIHATDAN OSHIQ QALBINING IZDAN CHIQQAN, PARCHALANIB KETGAN HOLATINI HIPERBOLIK TASVIR ORQALI IFODALAYDI. USHBU BIRLIK MATN ICHIDA YUQORI DARAJADAGI EKSPRESSIVLIKNI TA'MINLAB, G'AZALNING UMUMIY SEMANTIK VA EMOTSIONAL YO'NALISHINI BELGILOVCHI ASOSIY KOMPONENTLARDAN BIRIGA AYLANADI.

PRAGMALINGVISTIK YONDASHUV. PRAGMALINGVISTIKA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI NUTQ SUBYEKTI MUALLIFNING KOMMUNIKATIV NIYATI, MAQSADI VA ADRESATGA KOʻRSATADIGAN TAʼSIRI NUQTAYI NAZARIDAN TAHLIL QILADI. ALISHER NAVOIY OʻZ GʻAZALLARIDA FRAZEOLOGIZMLARDAN FOYDALANISH ORQALI OʻQUVCHINING EMOTSIONAL HOLATIGA TAʼSIR KOʻRSATADI HAMDA UNI MUAYYAN ESTETIK-IDROKIY JARAYONGA JALB ETADI. XUSUSAN, "YUZ YARALIGʻ TAN" FRAZEOLOGIK BIRLIGI PRAGMATIK JIHATDAN KUCHLI AFFEKTIV TAʼSIRGA EGA BOʻLIB, OʻQUVCHIDA ACHINISH, HAMDARDLIK VA RUHIY HAMJIHATLIK HISSINI UYGʻOTADI. BU ORQALI SHOIRNING ASOSIY KOMMUNIKATIV STRATEGIYASI ISHQIY IZTIROBNI MAKSIMAL DARAJADA INTENSIV HIS QILDIRISH AMALGA OSHIRILADI.

LINGVOMADANIY TALQIN. ALISHER NAVOIY GʻAZALLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR MILLIY-MADANIY KODLAR TIZIMINI OʻZIDA MUJASSAM ETGAN HOLDA, BIR VAQTNING OʻZIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI HAM IFODALAYDI. ULAR ORQALI ASOSIY KONSEPTUAL KATEGORIYALAR QUYIDAGICHA TALQIN ETILADI: ISHQ – *ILOHIY MOHIYATGA EGA BOʻLGAN OLIY RUHIY TAJRIBA SIFATIDA;* SABR – *INSONNING MAʼNAVIY KAMOLOTGA ERISHISHIDAGI ZARURIY FAZILAT SIFATIDA;* HIJRON – *RUHIY POKLANISH VA KOMILLIKKA YETAKLOVCHI BOSQICH SIFATIDA.*

Mazkur frazeologik birliklar nafaqat estetik vazifa bajaradi, balki oʻquvchini chuqur falsafiy-mushohadaviy tafakkurga undovchi semantik mexanizm sifatida ham namoyon boʻladi.

Xulosa. Alisher Navoiy gʻazallarida frazeologik birliklar koʻp qatlamli maʼnoga ega boʻlib, ularning lingvomadaniy talqini shoir ijodining chuqur mohiyatini anglashga yordam beradi. Diskursiv va pragmalingvistik yondashuvlar ushbu birliklarning matndagi funksiyasini, muallif niyatini hamda oʻquvchiga koʻrsatadigan taʼsirini ochib berishda samarali metod hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev.Sh, Mahmudov.N, Xolmanova.Z, Oʻrazova., I.Rixsiyeva K. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2022. – 636 b.

2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: – Tamaddun, 2019. – 520 b.

4. Abjalova M., Gʻulomova N. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti. Oʻzbekiston: til va maʼnaviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B.14-32.

5. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

7. Abjalova M.A. and Gulomova N.S. Corpus of Alisher Navoi – Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words, 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.

1. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
2. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallarining tanlanishi. O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.

© O‘ljaboyeva Marjona, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

O‘ljaboyeva Marjona

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSIDA IBORA VA MAQOLLAR SEMANTIKASINING ANIQLANISHI

(kulliyotdagi ruboiylar misolida)

DETERMINING THE SEMANTICS OF IDIOMS AND PROVERBS IN THE AUTHORIAL CORPUS OF ALISHER NAVOI

(based on the rubaiyat in his kulliyat)

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СЕМАНТИКИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ПОСЛОВИЦ В АВТОРСКОМ КОРПУСЕ АЛИШЕР НАВОИ

(на примере рубаи из куллията)

Maftuna Mamatova Nabi qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi

I bosqich magistranti

maftunamamatova010@gmail.com.

ORCID: 0009-0001-5107-4646

+99894-858-09-01

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ruboiylarining lingvistik xususiyatlari, ayniqsa ibora va maqollarning semantik jihatlari mualliflik korpusi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiruvchi “G'aroyib us-sig'ar” devonidagi ruboiylar misolida frazeologik birliklarning badiiy matndagi o'rni, ularning ko'chma va ramziy ma'no ifodalash xususiyatlari keng yoritiladi. Shuningdek, iboralarning nutqqa emotsional ta'siri, mazmunni chuqurlashtirishdagi roli hamda ularning zamonaviy tilimizdagi muqobillari bilan aloqasi ko'rsatib beriladi. Maqolada mualliflik korpusi yordamida amalga oshirilayotgan semantik teglash jarayoni, uning ilmiy-amaliy ahamiyati va yosh avlod uchun qulay o'quv manbai yaratishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari Navoiy tilining boyligi, ifoda imkoniyatlari va frazeologik birliklarning badiiy-estetik vazifasini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Navoiy, ruboiy, ibora, maqol, semantika, korpus, frazeologiya, tahlil.

Annotation: This study examines the linguistic features of the rubaiyat of Alisher Navoiy, with a particular focus on the semantic analysis of idioms and proverbs based on an authorial corpus approach. The research investigates the rubaiyat included in the

“G‘aroyib us-sig‘ar” divan, which forms part of the “Xazoyin ul-maoniy” collection, and explores the functional-semantic properties of phraseological units within poetic discourse. Special attention is given to the role of idioms and proverbs in expressing figurative, metaphorical, and culturally specific meanings, as well as their pragmatic and stylistic functions in the text. Furthermore, the study addresses the continuity between historical and contemporary usage of these linguistic units, demonstrating their semantic stability and relevance in the modern Uzbek language. It also analyzes the process of semantic annotation within an authorial corpus framework, emphasizing its methodological significance for linguistic research, digital humanities, and computational text analysis. In addition, the pedagogical potential of corpus-based resources is highlighted in facilitating the interpretation and comprehension of classical literary texts for contemporary readers. The findings indicate that Navoi’s poetic language is characterized by a systematic and context-sensitive use of phraseological expressions, which contribute substantially to the aesthetic coherence, semantic depth, and expressive richness of his poetic discourse.

Key words: Navoi, rubai, phrase, proverb, semantics, corpus, phraseology, analysis.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические особенности рубаи Алишер Навои, в частности семантические аспекты фразеологических единиц и пословиц на основе авторского корпуса. В исследовании на примере рубаи дивана «Гаройиб ус-сигар», входящего в состав «Хазойин ул-маоний», подробно освещается роль фразеологических единиц в художественном тексте, а также их способность выражать переносные и символические значения. Кроме того, рассматривается эмоциональное воздействие фразеологизмов на речь, их роль в углублении содержания и связь с их современными эквивалентами в языке. В статье также обосновывается процесс семантической разметки, осуществляемой с помощью авторского корпуса, его научно-практическое значение, а также роль в создании удобного образовательного ресурса для молодого поколения.

Ключевые слова: Алишер Навои, рубаи, фразеологизм, пословица, семантика, корпус, фразеология, анализ.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili bo‘lgan Alisher Navoiy ijodi tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Tilshunosligimiz rivojiga hissa qo‘shgan asarlari XV asrdan buyon o‘rganilib kelinmoqda. Uning kulliyotidagi ruboiylar qisqa shaklda chuqur ma’no ifodalashi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy “Xazayin-ul maoniy” kulliyotida “G‘aroyib us- sig‘ar” devoniga 133ta ruboiy kiritgan. Ushbu ruboiylarda turli mavzularni yoritish orqali o‘quvchiga badiiy zavq ulashibgina qolmay, ilm va tarbiyaga ham ahamiyat qaratilgan. Ruboiylar hajman kichik, mazmunan esa kuchli ta’sirga ega asardir. Unda ota-onaga itoat, mehr, vatanga sadoqat, odob kabi insoniy

mavzular ilgari surilgan. Qolaversa, Grammatik tuzilishi ham, so‘z qo‘llash mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy tilimizni naqadar boy va beqiyos ekanini frazialogik birliklar va maqollar orqali 4 satrda o‘z fikrini mukammal shakIda yetkazib bergan. Bu jarayonda ibora va maqollar muhim semantik vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi – Navoiy ruboiylarida uchraydigan ibora va maqollarning semantik xususiyatlarini mualliflik korpusi asosida aniqlash va ularning badiiy matndagi funksiyasini tahlil qilishdan iborat. Iboralar har bir tilda bo‘lgani kabi tilimizni ravon qilib, sayqallaydi va insonga emotsianal ta’sir ham ko‘rsatadi. Ibora kamida ikkita so‘zdan tashkil topgan,ko‘chma ma’noga ega va bir butun ma’noni ifodalovchi turg‘un birikmadir. “G‘aroyib-us sig‘ar”ning oltinchi ruboiysida quyidagilarni kuztish mumkin.

Bu sa’b xabar ichimni qon ayladilo,

Bu qonlig‘ ichim haloki jon ayladilo.

Mazkur baydda*“ichimni qon aylamoq”* jumlasi iborani yuzaga keltirgan bo‘lib ushbu jumlaga monand fikr bugungi kunimizda *“qattiq iztirob chekmoq”* mazmunida ishlatiladi. Ikkinchi misradagi *“ohu fig‘on aylamoq”* birikmasi *“zorlanmoq*” ma’nosini ifodalamoqda. Ko‘rinib turibdiki davrlar o‘tishi bilan milliy qadriyatlarinimizni anglatuvchi til birliklari o‘z o‘rnini yo‘qotmaydi. Bu kabi iborlarni Navoiy ko‘plab rubiylarda keltirgan bo‘lib, ularning har biri bir qancha ma’no kasb etadi. Navoiy ruboiylarida iboralar ko‘chma ma’no, ramziy ifoda, kontekstga bog‘liq holda turli mazmun ifodalagan.

1. jadval. “G‘aroyib-us sig‘ar”devonidan olingan ruboiylarning semantik taklili.

T/R	Ibora uchragan bayt	Ruboiy raqami	Bayti	Iborani yuzaga keltiruvchi vosita
1	Ko‘k po‘yavu sayr ila talabgor sanga, Kun sorg‘oribon *ishqda bemor* sanga.	2	1`	*ishqda bemor* *(sevgi azobida qolgan)*
2	Yo rabki, inoyatingni yor ayla manga, Yo‘qluqqa hidoyatingni bor ayla manga,	3	1	*“yo‘qluqqa bor aylamoq”* *(yo‘qni bor qilish)*

3	Koʻz ikki yuzungdin olmasam suhbat aro, Ikki taboningdin oʻylakim xilvat aro.	9	2	*“koʻz uzmaslik”juda sevib qaramoq*
4	Koʻp toʻlgʻanib ashk ichra oʻzumdin bordim, Ul navʼki, su ichiga tushkay maktub.	11	2	*“oʻzumdin bordim” (oʻzini yoʻqotmoq)*
5	Vasling boʻlubon jongʻa muyassar, yo Rab Chehrang qilibon koʻzni munavvar, yo Rab,	15	1	*“koʻzni munavvar qilmoq”* *(quvontirmoq)*

Navoiy ruboiylarinining tahlilida maqollarning oʻrni beqiyos. Chunki maqollarda milliy madaniyatimiz, maʼnaviyatimiz, tariximizdan bugungacha boʻlgan davrdini aks ettirish bilan pand-nasihat beruvchi vosita hamdir. Maqollar oʻquvchiga estetik zavq va tarbiyaviy taʼsir oʻtkazuvchi kommunikativ birikma sifatida aks etgan. Maqollarni qoʻllash koʻlami ham ancha keng. Masalan, 19- ruboiyda *“Oʻtkan gar erur yomon taassufni unut”* jumlasi orqali Navoiy *“Oʻtgan ishga salovat”*maqolidan foydalangan. *“Oʻtgan ishga salovat”*ushbu maqolning zamirida yotgan maʼnolar ajoyib*, “oʻtgan ish”* kosepti bajarib boʻlingan ish-harakatni bildirish bilan birga, “salovat” konsepti orqali diniy salohiyatni ham namoyan qilib qilmoqda. “Salovat” arabcha soʻz boʻlib “duo qilish”degan maʼnoni anglatadi. Salovat paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) ga aytiladi va bu kunlik odatimizga aylanib qolgan. Lingvokulturologik jihatdan nazar soladigan boʻlsak, kechirish, xotirjamlik maʼnosini yoritmoqda. Semantik maʼnosi esa oʻtib ketgan ishni oʻzgartirib boʻlmaslik, oʻtgan voqeani oʻzgartirib boʻlmasligini tan olish, behudaga afsus va pushaymonlikdan voz kechish maʼnolarini bildirgan.

Bugungi kunda Navoiyni oʻrganish va tushunish yosh avlod uchun qiyin. Bu borada yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlari asosida yaratilgan korpus tizimi va undagi tarixiy soʻzlarning avtomatik semantik teglash

(semantic descriptor) usullari yoritilgan. Tadqiqotda Navoiy matnlaridagi leksik birliklarni raqamli tahlil qilish, ularning ma'nolarini avtomatik aniqlash hamda korpus lingvistikasi yordamida tizimlashtirish masalalari ko'rib chiqish Shuningdek, tarixiy matnlardagi so'zlarning zamonaviy til bilan bog'liqligini aniqlash va ularni semantik jihatdan izohlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Ushbu yondashuv Navoiy merosini raqamlashtirish va lingvistik tahlil qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Asarlarni yosh avlodga yetkazish, barcha o'quvchilarga manfaatli manba tayyirlash, yoshlar ilmini kengaytirish maqsadida yurtmizda Alisher Navoiy mualliflik korpusi yartilgan bo'lib ushbu korpusda Navoiy qalamiga mansub bir qancha minglab g'azallar semantik teglangan. Mualliflik korpusida muallif tilini keng, obyektiv ko'rsatish imkoniyati bor, shuning uchun bunday korpuslar boshqa axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi. Korpus turli xildagi tadqiqot uchun asos, manba, vosita vazifasini o'tay oladi. Bunday korpuslarning afzalligi yana shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so'z yoki jumlaning, balki butun boshli asar tilini bilish imkoniyati mavjud. Ushbu loyihani kengaytirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "G'aroyib-us sig'ar" devoning ruboiylari semantik teglanmoqda. Bunda ruboiylarning mavzu ko'lami, she'riy san'atlar|,grammatik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, semantic teglash orqali har bir so'z va gap mazmunini topish imkoni mavjud. Bu imkoniyat orqali tezkorlik va ilm olish samarasi yanada oshadi. Masalan,78 - ruboiyda:

Berahmdurur olam-u zolim aflok,

Bemehrdurur anjum-u davron bebok.

Ushbu baytda "aflok" bugungi davr kitobxoni uchun notanish, "falak", "osmon" degan ma'noni anglatadi. "anjum" – "yulduz", "bebok" – "beparvo", "shafqatsiz" kabi ma'noni bildiradi. Shu kabi ko'plab so'zlarning izohlari korpusda aniq va lo'nda qilib berib qo'yilgan. Mazkur ruboiyning zamirida har bir daqiqaning qadrini naqadar beqiyos ekanligi, dunyoning o'tkinchi ekanligi ta'kidlanmoqda. She'riy san'atlar she'riy asarlarga o'zgacha ruh va joziba bergani uchun ham *she'riyatni usiz* tasavvur etib bo'lmaydi. Navoiy ham asarlarining hajmidan qat'iy nazar she'riy san'atlardan mohirona foydalangan. Yuqorida keltirilgan baytda ham*; berahm olam – bemehr anjum, zolim aflok – davron bebok* tazod she'riy san'atini yuzaga keltirgan. Dunyo va falak juda shafqatsiz va mehrsiz qilib tasviri bilan mubolag'a san'ati keltirilgan. Alisher Navoiy ijodida she'riy san'atlar faqat badiiy bezak emas, balki chuqur **semantik yuk tashuvchi lingvistik birliklar** sifatida namoyon bo'ladi. Korpus lingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda, she'riy san'atlar matn ichida takrorlanuvchi, tizimli va kontekstga bog'liq naqshlar sifatida tahlil qilinishi mumkin. Korpus lingvistika yondashuvi shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy she'riy san'atlari faqat estetik vosita emas, balki murakkab **semantik tizim**dir. Ular matnda ma'no qatlamlarini yaratadi va ibora hamda maqollar bilan birgalikda Navoiy tilining boyligini ochib beradi. Shuningdek, Alisher Navoiyning ushbu bayti tarbiyaviy

jihatdan oʻquvchini hayotga real qarashga, sabrli va chidamli boʻlishga undaydi. Baytda dunyo, falak va zamonning beqaror hamda mehrsiz ekani tasvirlanadi, bu esa insonni haddan tashqari dunyoga berilib ketmaslikka chaqiradi. Oʻquvchi bu orqali hayotda qiyinchiliklar, adolatsizliklar va sinovlar boʻlishini tushunadi va ularga bardosh bilan yondashishni oʻrganadi. Shuningdek, bayt insonni maʼnaviy qadriyatlarga tayanishga, ezgulik va sabrni asosiy tayanch sifatida koʻrishga oʻrgatadi. Umuman olganda, ushbu bayt yosh avlodni hayot sinovlariga tayyor boʻlish, ruhiy barqarorlikni saqlash va dunyoning oʻtkinchi tabiatini anglashga chorlaydi.

“Ul tutsa mugʻona lahn ila har dam ayogʻ,

Bosh olsam oyogʻidin kerak boshima dogʻ.”

Mazkur baytda til birliklari faqat maʼno emas, balki **madaniy tafakkur modeli**ni ham ifodalaydi. *“Mugʻ”, “lahn”, “ayogʻ”, “bosh”, “dogʻ”* kabi soʻzlar tasavvufiy va sharqona madaniyatda ramziy maʼnoga ega:

- **“mugʻ”** → pir, ustoz yoki maʼnaviy yoʻl koʻrsatuvchi;
- **“ayogʻ (qadah)”** → ishq va maʼrifat ramzi;
- **“bosh”** → inson gʻururi, mavjudlik timsoli;
- **“dogʻ”** → sadoqat belgisi, muhabbat izlari.

Bu bayt madaniy jihatdan **tasavvufiy sevgi modeli**ni ifodalash bilan birga, Baytda Sharq mumtoz madaniyatiga xos kodlar mavjud: Ishq – taslimlik, may – maʼnaviy holat, piyola – ilohiy ilhom, dogʻ – sadoqat belgisi. Qolaversa, Alisher Navoiyning mazkur bayti tarbiyaviy jihatdan insonni kamtarlik, sadoqat va fidoyilikka chorlaydi. Unda oshiqning mahbub yoki pir oldidagi toʻliq taslimligi ifodalanadi, bu esa insonning oʻz nafsini tiyishi va maʼnaviy yuksalishga intilishini anglatadi. Baytdagi “boshima dogʻ” kabi ifoda sevgi yoki eʼtiqod yoʻlida chekkan mashaqqat va sadoqat izini qadrlash gʻoyasini beradi. Bu esa yosh avlodni har bir maqsad yoʻlida sabrli boʻlishga, qiyinchiliklardan qoʻrqmaslikka undaydi. Shu bilan birga, asarda ustozga hurmat, maʼnaviy yetakchiga itoat qilish kabi qadriyatlar ham ilgari suriladi. Umuman olganda, bayt insonni ichki poklikka, vafodorlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega boʻlishga chaqiradi. Alisher Navoiyning ushbu bayti oʻquvchini tarbiyaviy jihatdan kamtarlik, sadoqat va fidoyilikka undaydi. Unda inson oʻz maqsadi yoki eʼtiqodi yoʻlida sabrli boʻlishi, qiyinchiliklardan qoʻrqmasligi kerakligi gʻoyasi ilgari suriladi. Bayt mazmuni oʻquvchiga ustozga hurmat, maʼnaviy yoʻl koʻrsatuvchiga itoat qilish va ilm yoʻlida oʻzini bagʻishlash kabi qadriyatlarni singdiradi. Shuningdek, unda insonning nafsini tiyishi va yuksak maʼnaviyat sari intilishi kerakligi taʼkidlanadi. Umuman olganda, bu bayt oʻquvchini yuksak axloqiy fazilatlarga ega boʻlishga, sabrli va vafodor inson boʻlib kamol topishga chorlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Alisher Navoiy ruboiylaridagi ibora va maqollar nafaqat badiiy, balki semantik jihatdan ham chuqur mazmunga ega. Korpus lingvistika esa bu birliklarni zamonaviy ilmiy usulda tahlil qilish imkonini beradi. Navoiy ijodi oʻzbek tilining frazeologik boyligini shakllantirishda muhim manba boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 3 жилд. – Тошкент: Фан, 1984.

1. Abjalova M.A. and Gulomova N.S. Corpus of Alisher Navoi – Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words, 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp.1820-1825, doi: 10.1109/ PIERE62470.2024.10805014
2. Rahimoy A. Kompyuter lingvistikasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 201 1. – B. 156:
3. S.Sirojiddinov, M.Abjalova, S.Normamatov and N.Gulomova, The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
4. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences
5. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.
6. Gʻulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Navodir ush-shabob" devonidagi gʻazallarni grammatik teglash xususiyatlari. OʻzMU xabarlari // Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
7. Gʻulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti gʻazallarining tanlanishi. OʻzMU xabarlari // Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.

© Mamatova Maftuna Nabi qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Mamatova Maftuna Nabi qizi

CLASSIFICATION OF PROVERBS AS A NATIONAL CULTURAL CODE

MAKOLLARNING MILLIY MADANIY QODLAR TANIFI

КЛАССИФИКАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО КОДЕКСА ПОСЛОВИЦ

Shirinova Gulnoza,

Teacher of School № 2, Navoi city

ORCID ID: 0009-0004-0427-1606

Email: Shirinovag700@gmail.com

Abstract

Annotation. This article analyzes the semantic and pragmatic features of proverbs used in the stories of Abdulla Qahhor. Proverbs, as an important element of folklore, serve to express deep meaning in literary texts, enhance imagery, and increase the impact of speech. In the course of the research, the denotative and connotative meanings of proverbs, their metaphorical nature, and their context-dependent pragmatic functions are examined. In addition, the role of proverbs in individualizing characters' speech, creating national color, and expressing the author's ideas is highlighted. As a result, it is substantiated that proverbs in Abdulla Qahhor's stories are an important artistic-aesthetic and communicative tool.

Keywords. Proverb, semantics, pragmatics, denotative meaning, connotative meaning, metaphoricality, literary text, communicative impact, stylistics, satire.

СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ В РАССКАЗАХ АБДУЛЛА КАХХАР

Аннотация. В данной статье анализируются семантические и прагматические особенности пословиц, использованных в рассказах Abdulla Qahhor. Пословицы как важный элемент устного народного творчества выполняют функцию выражения глубокого смысла в художественном тексте, усиливают образность и повышают речевое воздействие. В ходе исследования рассматриваются денотативные и коннотативные значения пословиц, их метафорическая природа, а также прагматические функции, проявляющиеся в зависимости от контекста. Также освещается роль пословиц в индивидуализации речи персонажей, создании национального колорита и выражении авторской идеи. В результате обосновывается, что пословицы в рассказах Абдуллы Каххара являются важным художественно-эстетическим и коммуникативным средством.

Ключевые слова: пословица, семантика, прагматика, денотативное значение, коннотативное значение, метафоричность.

Oʻzbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qahhor hikoyalarida xalq ogʻzaki ijodiga xos birliklar — ayniqsa maqollar keng qoʻllanadi. Maqollar nafaqat badiiy bezak, qahramon xarakterini shakllantiruvchi unsur, balki muallif gʻoyasini chuqurlashtiruvchi semantik va pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Oʻzbek yozuvchilik sohasida hikoya janrini yuksak pogʻonaga olib chiqqan ijodkorlardan biri Abdulla Qahhor hisoblanadi. Uning hikoyalarida xalq ogʻzaki ijodi namunalari, xususan maqollar, oʻziga xos uslubiy vosita sifatida keng qoʻllanadi. Maqollar – xalqning koʻp asrlik tajribasi, hayotiy kuzatuvlari va ijtimoiy xulosalarining jamlangan shakldagi ifodasidir. Shu sababli ular badiiy matnda nafaqat bezak, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi, teranlashtiruvchi semantik va kommunikativ vosita sifatida namoyon boʻladi. Abdulla Qahhor maqollardan foydalanganda ularning lugʻaviy maʼnosini kontekstga shunday holatda singdiradiki, natijada yangi maʼno qirralari hosil boʻladi. Pragmatika nuqtai nazaridan, maqollar matnda maʼlum bir vazifani bajarish uchun “soʻzlovchi – tinglovchi” munosabatiga xizmat qiladi. Xarakterologik jihatdan qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi va saviyasini koʻrsatadi.

Satirik va Yumoristik maqollar orqali salbiy illatlarni kulgi ostiga olish uchun qoʻllangan. Jumladan, Qahhorning, “Oʻgʻri” hikoyasida qoʻllangan misollar orqali buni koʻrib chiqishimiz mumkin. *Dehqonning uyi kuysa kuysin, hoʻkizi yoʻqolmasin* maqolida; *Berganga bitta ham koʻp, olganga oʻnta ham oz maqolida*; *Oʻynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan* maqollarida qoʻllangan oʻrinlardagi qahramonlarning vaziyatlari, xarakterini achchiq kulgu orgali namoyon qilgan. Ayrim amaldorlar nutqida maqollar oʻz mohiyatini yoʻqotib, "shaxsiy manfaat" niqobi boʻlib xizmat qiladi. Asardagi Amin tilidan

aytilgan "*Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati*" maqoli bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Maqollarni kontestda qo'llashdan asosiy vazifa va maqsad nutqni tejash manoviy siqiqlik, uzoq tushuntirishdan ko'ra, bir jumla bilan vaziyatga yakun yasash hisoblanadi.

1. **chizma.** Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasida qo'llangan maqollar.

Qahhor hikoyalarida maqollarning pragmatik ta'sir kuchi bir qancha usullar orqali oshadi:

Dialoglardagi dinamika: Maqol qahramonlar o'rtasidagi bahsni keskinlashtiradi yoki unga nuqta qo'yadi. **Muallif pozitsiyasi:** Yozuvchi o'z qarashlarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi yoki to'g'ridan-to'g'ri aytmasdan, personaj tilida maqoldan foydalanish orqali kitobxonni xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Asardagi hikoyachi tilidan ishlatilgan maqol ham ko'pchilik o'rinlarda qaysidir personajga taalluqli ekanligi sezilib turadi. *Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi* maqoli ishlatilgan o'rinda ham ayni holatni kuzatishimiz mumkin. Asarda maqollardan jumlani aniqlashtirish, uslubiy bo'yoq yuklash, ma'noni umumlashtirish, fikrni dalillash maqsadida foydalaniladi. Avval holat yoki fikr qisqa bayon qilinadi hamda maqol bilan konkretlashtirib yakunlanadi. "O'g'ri" hikoyasining Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi maqolidan foydalanilgan o'rinda esa bu holatga teskari ish tutilgan. Avval maqol keltirib o'tilib, keyin maqolni jumla bilan dalillash holati kuzatilgan. Jumladan, bu o'rinda maqoldan keyin "Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo ham yonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi."

Lokonizm (Ixchamlik) ijodkor asrlari uchun xos xususiyatlaridan eng muhimidir. Maqollar unga minimal so'z bilan maksimal ma'no berish imkonini yaratgan.

Xulosa. Abdulla Qahhor ijodida maqollar shunchaki xalq og'zaki ijodi namunasi emas, balki psixologik tahlil qurolidir. Ularning semantik tahlili adibning so'z boyligini, pragmatik tahlili esa uning jamiyat illatlarini qanchalik mohirlik bilan fosh eta olganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. . A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 85–92-betlar.
2. . Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 320 b.
3. . Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023).

28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences

4. . Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.
5. . Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va paremiologiyasi. – Toshkent: Fan, 1998. – 133–158-betlar.
6. . G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Navodir ush-shabob" devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O'zMU xabarlari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
7. . G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti g'azallarining tanlanishi. O'zMU xabarlari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.
8. . Sh.Sirojiddinov, M.Abjalova, S.Normamatov and N.Gulomova, The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
9. . Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 210–245 b.

© Botirov Shahzodjon Pirmamat o'g'li, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Botirov Shahzodjon Pirmamat o'g'li

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING “V.B VA BOSHQALAR ” QISSASIDA GROTESK POETIKA

Ergasheva Kumush O‘tkur qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti

yo‘nalishi I kurs magistiranti

E.pochta : kumushergasheva122713@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning “V.B. va boshqalar” qissasida grotesk poetikaning badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda grotesk uslub orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, inson xarakteridagi ziddiyatlar va ma’naviy inqiroz masalalari yoritilgani ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, groteskning kulgi va fojeaviylik uyg‘unligidagi badiiy funksiyasi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida yozuvchining o‘ziga xos uslubi va groteskdan foydalanishdagi mahorati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar. grotesk, poetika, badiiy obraz, satira, kinoya, ijtimoiy tanqid, o‘zbek nasri, badiiy tafakkur.

ГРОТЕСКНАЯ ПОЭТИКА В РАССКАЗЕ АБДУКАЮМА ЙОЛДАШЕВА «В.Б. И ДРУГИЕ»

Аннотация. В данной статье анализируются художественные особенности гротескной поэтики в рассказе Абдукаюма Юлдошева «В.Б. и другие». Научно доказано, что произведение освещает социальные проблемы общества, конфликты человеческого характера и духовный кризис посредством гротескного стиля. Также раскрывается художественная функция гротеска в гармонии смеха и трагедии. В результате исследования определены уникальный стиль писателя и его мастерство в использовании гротеска.

Ключевые слова: гротеск, поэтика, художественный образ, сатира, ирония, социальная критика, узбекская проза, художественная мысль.

GROTESCOUS POETICS IN ABDUQAYUM YOLDASHEV'S STORY “V.B. AND OTHERS”

Abstract. This article analyzes the artistic features of grotesque poetics in Abdukayum Yuldoshev’s story “V.B. and Others”. It is scientifically shown that the work illuminates social problems in society, conflicts in human character, and spiritual crisis through the grotesque style. It also reveals the artistic function of the grotesque in the

harmony of laughter and tragedy. As a result of the research, the writer’s unique style and skill in using the grotesque are determined.

Key words: grotesque, poetics, artistic image, satire, irony, social criticism, Uzbek prose, artistic thought.

O‘zbek nasrida o‘ziga xos uslub va badiiy tafakkur bilan ajralib turadigan adiblardan biri Abduqayum Yo‘ldoshevdir. Uning asarlarida jamiyat hayotidagi muammolarni bevosita emas, balki ramziy, kinoyaviy hamda ba’zan grotesk shaklda ifodalashga moyillik kuchli. Ayniqsa, “V.B. va boshqalar” qissasi yozuvchining badiiy izlanishlari natijasi sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu asarda grotesk poetika orqali inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar o‘ziga xos tarzda yoritiladi.

Grotesk adabiyotshunoslikda voqelikni g‘ayrioddiy, mubolag‘ali, ba’zan kulgili va fojeaviy unsurlar uyg‘unligida tasvirlash usuli sifatida talqin qilinadi. U real hayot hodisalarini buzib ko‘rsatish orqali asl haqiqatni yanada ta’sirchanroq ochishga xizmat qiladi. Groteskda kulgi bilan dahshat, kulgili bilan achinarli holatlar yonma-yon keladi. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida groteskka shunday ta’rif beriladi: GROTESK (italyancha grotta - yer ostidagi uy) – badiiy adabiyot va san’atdagi obrazlilikning fantastika, kulgi va mubolag‘aga asoslangan bir turi, uslub, badiiy usul. Groteskda reallik va xayolot, go‘zallik va xunuklik, fojeaviylik va komiklik kabi bir-biriga zid jixatlar g‘alati, ajabtovur bir tarzda birikib ketadi. Badiiy shartlilikning boshqa turlaridan farqli ravishda, groteskda hamisha na- moyishkorona oshk oraligi bilan ajralib turadi. Grotesk asosida yaratilgan badiiy voqelik nechog‘lik g‘ayritabiiy, mantiqsiz, ajabtovur bulmasin, uning mantiqiy asoslanishi talab qilinmaydi, zero, unda real voqelik emas, ijodkor tasavvuridagi voqelik aks etadi [1].

O‘zbek adabiyotida grotesk uslublari uchrab turadi, biroq ko‘pincha satira va kinoya bilan qorishiq holda uchraydi. Bu usuldan jamiyatdagi ochib berishda qo‘llaniladi. Abduqayum Yo‘ldoshevning “V.B va boshqalar” qissasida grotesk poetika qahramonlarning nutqida, harakatlarida, fikr-u xayollarida namoyon bo‘ladi. Asarda voqealar bir korxonada “vaqtinchalik bajaruvchi” yoki “vaqtinchalik vazifasini bajaruvchi” rahbarning amalidan tushishi, o‘niga haqiqiy rahbarning tayinlanishidgi holat, ishchilarning bu holatga munosabatlari bo‘rttirilib ko‘rsatiladi. Qissada voqealar xodimlarning biri tomonidan hikoya qilinadi. Asarda har bir xodimning xarakteriga alohida urg‘u berib, voqealar g‘ayrioddiy, mubolag‘ali tarzda ochib beriladi. Munofiqlik, riyokorlik, mansabparatlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni o‘ziga kasb qilgan insonlarni asl yuzlarini fosh etadi. Bu qissa jamiyatdagi ayrim illatli vaziyatlarni ochib berishga, hayotimizning og‘riqli nuqtalari yoinki insonlar duch keladigan va ularning dilini yaralaydigan voqealarni izohlashga qaratilgan. Sobiq rahbarning ishdan ketishi kimgadir bayram bo‘ldi. Asarda personajlarning ismlari aniq aytib o‘tilmaydi ba’zi bir xodimlarnigina ismlari bilan berilganini ko‘rishimiz mumkin. Qissadagi farzandsizligi sabab 10 yildan ko‘proq vaqtini

ishga sarflagan kotiba ayol Karis xola ya’ni Lida – Latofatxonim, butun umrini kitoblarga bag‘ishlagan, bolalarining o‘qishi, ta’lim olishi uchun hamma narsaga tayyor Nitsshe xonim va Shig‘irchi nomi bilan mashhur xodimlarning hayotlari haqida so‘z boradi. Shig‘irchi ishxonada turli she’rlar, hazillar orqali hammani kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilsa ham uning hayoti oq – qora ranglardan iborat. Bu qahramonlarning hayotlari o‘tkir mubolag‘alar bilan ko‘rsatiladi.

Qissada Sobiq rahbar hammani ko‘nglini oladigan, to‘y-u marakalardan qolmaydigan, qo‘lidan kelganicha xodimlarga yordam qiladigan rahbar edi. Yaxshining qadri yomon kelganidan so‘ng bilinadi deganlaridek, yangi rahbarning kelishi hamma uchun zarba bo‘ldi. Qo‘lidan hech bir ish kelmaydigan “Bezbet” boshliqning xonasiga zir qatnay-qatnay boshliq yordamchisi lavozimi sohibiga aylandi. Hamma fojia shundan boshlandi:ish soatlari uzaytirilib, “keldi-ketdi” daftari paydo bo‘ldi. Lavozimidan foydalanib, “Bezbet” hamma narsaga aralasha boshlaydi. Hattoki, boshliqqa yoqish uchun undan so‘ng ketib, undan avval kelib xodimlarni qattiq nazorat ostiga oladi. Qattiqqo‘llik qilishda hatto ayollarni ham ayamadi. Aytish nojoiz bo‘lgan ishlarga ham qo‘l urdi. Ziqnaligidan ishchilar ishlatadigan qog‘ozni ham sanab beradigan bo‘ldi. Uning bu ishlari ko‘pga bormadi. Rahbarga yoqish uchun qilgan ishlari behuda ketdi, ‘‘kichik’’xatosi tufayli lavozimidan ozod etildi. Bezbetning bu ishlari Said Ahmadning “Qoplon”hikoyasidagi Qurbonboyni esga soladi. “Qoplon” hikoyasida kishilarda uchraydigan xushomadgo‘ylik, laganbardorlik, o‘z manfaati yo‘li hech nimadan tap tortmasdan surbertlarcha ish tutishi, insonlarning amaliga, unvoniga qarab munosabat bildirish singari illatlar qoralangan. Qurbonboy obrazi orqali yozuvchi o‘zi hali tanimagan rahbarlarning pinjiga kirishning zo‘r usullarini, uslublarini topgan, hech bir uyalishsiz o‘zining bu illatlarini oshkora namoyish etishdan charchamaydigan, hattoki g‘ururi hayvondanda pastroq bo‘lgan, hech kimga sadoqat ko‘rsatmaydigan, yangi boshliq saylansa unga ham yaltoqlanib ketaveradigan pastkash inson qiyofasi ochib beriladi [2]. Abduqayum Yo‘ldoshev esa o‘z asarida bir nechta “Qurbonboy” larni tilga oladi.

Qissada voqealar rivojida mantiqiylikdan ko‘ra ramziylik ustunlik qiladi. Bezbet, kotiba qiz personajlari ataylab mubolag‘a qilinib, hayotiy haqiqatni keskinroq ochishga xizmat qiladi. Yozuvchi xodimlar va boshliq orasidagi munosabatlarni g‘ayrioddiy tusga kiritib, shu orqali ularning asl mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Qissadasgi har bir so‘z o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga, jiddiy mushohada yuritishga majbur qiladi. Voqealarning kutilmagan burilishi, obrazlarning keskin kontrasti asarning badiiy qimmatini oshiradi.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “V.B. va boshqalar” qissasi o‘zbek nasrida grotesk poetikaning yorqin namunalaridan biri. Unda kulgi va fojea, real va g‘ayrioddiylik uyg‘unlashib, chuqur ijtimoiy mazmun hosil qiladi. Yozuvchi bu asari orqali jamiyatimizdagi muammolarni o‘ziga xos tarzda yoritib berdi.

Adabiyotlar:

Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M.Adabiyotshunoslik lug‘ati –T.: Akademnashr, 2013. – B.84-85.

Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi – T.: SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi, 2021. – B.40.

Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.

Said Ahmad. Qoplon hikoya. https://tafakkur.net, 2017.

Yo‘ldoshev A. V.B va boshqalar grotesk qissa. https://ziyo.uz 20.05.2018.

G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.

G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallarining tanlanishi. O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.

Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impact Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.

1. Gulomova N. Navoiy va Bobur ijodida talmeh san’ati va uning ijtimoiy-ta’limiy ahamiyati //Conferences. – 2026. – T. 1. – №. 01.

© Ergasheva Kumush O‘tkur qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ergasheva Kumush O‘tkur qizi

AFSUNLAR VA DUOLAR BASHORATLAR HAQIDA

ЗАКЛИНАНИЯ И МОЛИТВЫ О ПРОРОЧЕСТВАХ

SPELLS AND PRAYERS ABOUT PROPHECIES

Shaxzoda G'OPPOROVA

Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Qadim tarixdan bizgacha bo'lgan kishilik jamiyatida barcha insonlar oldindan bo'ladigan biron bir voqea va hodisalarga qiziqib kelganliklari sir emasdir. Buni tarixdan ham bilish mumkin. Bashoratchilarning aytimlari haqida barcha birdek qiziqish bildirgan. Ularning etnomadaniy muhitlar va qadimiy hayotiy asoslari, aytimlarning o'rganilishi og'izdan-og'izga ko'chishi ishonch qozonishi insonga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bashoratchilar o'zlarining umumiy bashorat aytimlarida dunyo ahlini qiziqtirgan ba'zi savollarga javob ham berganligini tarix mutloq guvohidir. Bunga yaqqol misol qilib Vanga va Nastrodamus singari bashorat aytuvchilarni atib o'tish joizdir. Xo'sh bu bashoratlarni kimlar qanday o'rgandi, hamda ulardan bizgacha yetib kelgan aytimlarning yetkazuvchilari aslida kimlar. Ularni bilish va ularning etkazuvchilari, haqida maqolada ma'lumotlar berib borilgan. Bashoratchilar yillar davomida dunyodagi diniy va dunyoviy o'zgarishlarni gapirganlar. Bu aytimlarni etkazuvchilari genezi va kultlari borligi va ular orqali bashoratchilar bizga ma'lumotlar berishi mumkinligi haqida batafsil maqolada bayon qilinadi.

Bizni o'rab turgan borliq g'aroyibotlarga to'laligicha qolmoqda. Maqolada shu mavzuda so'z yuritiladi.

Аннотация. Не секрет, что в человеческом обществе от древних времен до наших дней все люди интересовались определенными событиями и явлениями, которые произойдут заранее. Это можно узнать из истории. Все одинаково интересовались предсказаниями гадалок. Их этнокультурная среда и древние обычаи, изучение предсказаний, их достоверность — все это оказывает влияние на человека.

История является неопровержимым свидетельством того, что гадалки также отвечали на некоторые вопросы, которые интересовали людей во всем мире, своими общими предсказаниями. В качестве яркого примера можно упомянуть таких гадалок, как Ванга и Настродамус. Итак, кто и как узнал эти предсказания, и

кто являются непосредственными передатчиками предсказаний, дошедших до нас от них? В статье представлена информация об их знаниях и передатчиках. Гадалки на протяжении многих лет говорили о религиозных и светских изменениях в мире. Происхождение и культы носителей этих изречений, и через них гадалки могут передавать нам информацию, будут подробно описаны в статье.

Окружающий нас мир полон странных вещей. В этой статье будет рассмотрена данная тема.

Abstract. It is no secret that in human society from ancient times to ours, all people have been interested in certain events and phenomena that will happen in advance. This can be known from history. Everyone was equally interested in the predictions of fortune-tellers. Their ethnocultural environment and ancient life foundations, the study of predictions, their trustworthiness, have their own impact on a person.

History is an absolute witness that fortune-tellers have also answered some questions that interested the people of the world in their general predictions. As a clear example of this, it is permissible to mention fortune-tellers such as Vanga and Nastrodamus. So who learned these predictions and how, and who are the actual transmitters of the predictions that have reached us from them. The article provides information about their knowledge and their transmitters. Fortune-tellers have spoken about religious and secular changes in the world for years. The genesis and cults of the carriers of these sayings, and through them the fortune tellers can give us information, will be described in detail in the article.

The existence that surrounds us remains full of strange things. The article will discuss this topic.

Kalit so‘zlar: bashorat, fol, aytim, qur’on, iymon, Nastradamus, Vanga, folbinlik, irq bitigi, shomon.

Ключевые слова: пророчество, гадание, айтим, Коран, вера, Настрадамус, Ванга, предсказание будущего, книга скачек, шаман.

Key words: prophecy, fortune telling, aytim, Quran, faith, Nastradamus, Vanga, fortune telling, race book, shaman.

Afsunlar qadim o‘tmishdan bizgacha ma’lumdir. Zamonaning shidatli oqimi buni inkor qilgan taqdirda ham, kishilar afsun duolarni har manzilu makonlarda bor deb tushuncha xosil qilgan. Afsunlar azaliy bo‘lganmi, yoki bu shunchaki safsatami? – degan qarash haligacha kishilarni o‘ylantiradi.

Inson tanasidagi kasalliklarning hammasi ham, tanadagi darddan emas deb xulosa qilinsa, unda afsun va duolarning borligi ularning butkul yo‘q degan nazariyani ham birmuncha yo‘qqa chiqaradi. Xo‘sh afsunlar bor bo‘lsa qanday paydo bo‘lgan. Azaliy ildizlari qayerda? -degan savol tug’iladi.

Aslida duolar quroniy oyatlarni o‘qib bemorga dam solish yo‘li orqali shifo tilash, yohud uning tuzalib ketish holatlarini hayotiy tajribalarda ko‘p ko‘zatamiz.

Duolarning kuchini sezdik, aynan bemorni tibbiyot bemori yoki, unga yashirin olam vakillarining dahl qilishi oqibatida kasallikka duchor bo‘lganmi? -degan hulosa ayni javob hamma uchun ham qiziqdir. Qadimda odamlar ko‘proq nimaga ishongan ularning haqiqatlarini nima ochib bergan. Bashorat qilish oldindan voqiea hodisani bilish va shunga ko‘ra harakat qilish kabi hissiy tushunchalar bo‘lgan. Ana shunday tushunchalar rivojidan kelib chiqib bashoratlarga ishonch hissi ko‘chayib borgan. Shu kabi bashorat qilishning ham o‘ziga xos bir qancha turlari mavjud bo‘lgan. Ular muayyan bir kitob, yozuv, shaklida bo‘lganligi haqida manbalarda keltiriladi.

Irq – bashorat qilish, aytib berish, oldindan topib bilish. Bitik-yozuv, kitobi bo‘lgan. Demak, irq bitigi – bashorat qilish, kelajakni aytib berish haqidagi kitob, ya’ni folnoma bo‘lganligi sir emas. Qam irqladi – qom-shomon bashorat qildi kabi ma’lumotlar keltirilgan manbalar mavjud. Davriylikda ko‘radigan bo‘lsak, qadimgi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodida bu xildagi mavzudagi asarlar yaratilgan bo‘lib, ular «Irq bitigi» deb yuritilgan. Bu “Irq bitigi” islom davri atamashunosligida “Ta’birnoma” diya yuritilgan. Buni sirli joyi ham yo‘q. Aksincha bashoratgo‘ylik butun jahon xalqlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan an’anadir. Aynan bashorat aytuvchi kishilarga yuqtirilgan qobiliyatga ega kishilar diya tarif beriladi. Ular o‘zlarining tabiat va koinot, bilan bog’liq bilim va ko‘nikmalari, osmon jismlari orqali inson taqdirini belgilashga harakat qilganlar. Goh yulduz ko‘zatib tush ko‘rib, bashorat qilsalar goh, tildan aytib bashorat qiladilar.

Insonlarning taqdiridagi kelajakda bo‘ladigan ertangi kun voqiya-hodisalarni, oldindan taxminiy aytib berganlar. Ularning bu atganlari ayni haqiqat bo‘masada hayotida uchragan holatlar bo‘gan.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga nazar solsak, qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodida ikkita irq bitigi yaratilgani ma’lum. Bitiglarning yaratilish davrlari VIII asrning oxirlari IX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ikki asarda ham tush ko‘rish orqali insonlarning ma’lum bir vaqtga doir kelajak haqidagi voqiyalarni bayon qilish asosida quriladi. Bu Irq bitigining birinchisi moniy yozuvida bitilgan bo‘lib, bitigda13 ta voqiya-hodisa va buyumning ta’biri berilganligini ko‘ramiz.

Bizga xabar beruvchi Professor N.Rahmonov asaridagi ta’bir mazmunidan kelib chiqib, ikki guruhga ajratadi: 1. Inson faoliyati va uning ruhiy holatiga bog’liq, aloqador

boʻlgan taʼbir. Guruh toyifasiga jang qilmoq, huzur-halovat topmoq, kamaymoq, sevinmoq, qarshi kelmoq, yuz oʻgirmoq, bola tarbiyalamoq kabi tush taʼbirlari kiritadi. 2. Jism, joy, manzil tabiat va uning hodisalarining tushdagi taʼbiri esa ikkinchi guruhga mansubdir. Ikkinchi guruh yana tog', quyosh, quyosh nuri, chuqur quduq, insonlarning uchrashuvi kabi taʼbirdir.

Irq bitigiga tegishli boʻlgan bu yozuv moniy yozuvidir. «Irq bitigi»ni ilk bora oʻzbek olimi, N.Rahmonov tarjima qilgandir. Bu asarning oʻziga xos jihatlari va xususiyatlarini haqida toʻliq tushuncha va maʼlumot bergan. Manbadagi fol ochish va fol koʻrish – tush taʼbirlari shunday talqin qilinadi: Agar togʻga bog'liq tush koʻrilsa, taʼbiri qoʻyidagidek: Tog'li joyni koʻrishda yuksaklik, ulug'lik, komollik, belgisidir. Togʻli yerdan togʻdek boʻlishlik, yuksalishi, boʻrtiq paydo boʻlishi, tuproq ustida esa tuproq paydo boʻlishi, Bir tepalik oʻrtaga chiqsa. Tirmashib chiqishning eng afzal ekanligini insonning oʻzi istashi, toʻgʻridir deyilgan. Tog'dan oshmoq istagining paydo boʻlishi esa yuksakdir deb ishorat beradi. Bu tush taʼbirada insonlarning eng ulug'i – tushing orasida eng yaxshisi yaʼniy, sarasi boʻlasan degan ishoratni beradi. Yana bashoratchi taʼkidlashicha gʻavgʻodan maʼlum bir vaqt uzoq yur diya ishorat beradi. Aqli noxis kishilarga, janjal toʻpalonlarga yaqinlashmaslikni maslahat beradi. Xastalik darddan xalos boʻlasan. Demak tuzalish uchun ishonchning ortishi yuzaga kelmoqda. Mol-mulking barakang ortadi koʻpayadi deb aytadi. Senga qarshi turgan g'animlarni qum ustiga quyi tortib ket dagan ishoratni beradi.

Bashorat aytuvbchi taʼbirchilarning aksariyati bu kabi bashoratlarni ishora qilib keltiradi. Ishora berish orqali asralish imkon topish zarurati borligini nazarda tutadi. Zero tog' Allox taollo tomonidan, oʻz nomi bilan yuksak qilib yaratilganligi bilan ham ulug'liklarga daxldor ekanligi ham ayni haqligi bois tog' kabi tushlar koʻrilganda yaxshi va xosiyatli taʼbir qilinadi. Tog'ni koʻrish ulug'lik darajotdir dieya baʼzi manbalarda keltiriladi.

Taʼbirchilarning tasniflashicha, turkiy xalqlarning ogʻzaki ijodi hech Ishi bitmagan nochor kishilar kabi boʻlishi aytiladi. Tush taʼbirining ulug'lik buyuklik darajoti boʻlib, butun olamga yeru koʻkka sevinchingni mehringni ber, juda koʻp savobli xayrli ishlarni qilishda davomli boʻlib yaxshilikni boshini tutgin deb aytiladi. Ana shu ishlarni qilsang doimiy huzur-halovat topasan diya taʼkidlaydi.

Yana shunday "Irq bitigi" Urxun-Enasoy yozuvlari guruhiga mansub boʻlgan asar sanaladi. Bu bitig runiy yozuvda bitilgan. Bitig toshga emas, aksincha qogʻozga yozilgan. Bu bitig qoʻlyozmasini XIX asrning oxiriga kelib arxeolog A.Steyn Sharqiy Turkistonni Dunxuan degan manzilgohidan topganligini taʼkidlaydi. V. Tomson qoʻlyozmani ingliz tiliga tarjima qilgan., S.Ye.Malov esa rus tiliga tarjima qilgan. Eramizning IX asri boshida «Irq bitigi» moniy jamoasidagi Isig Sangun, Itechuq ismli bolalarga bagʻishlab yozilganligi maʼlumdir. Bitigda tush koʻrish haqida va taʼbirini bayon etish haqida soʻz boradi. «Irq bitigi»da aynan turkiy xalqlarning tarbiyaviy-axloqiy munosabatlari va turmush tarzini toʻla aks ettirilgandir. Asar bitigining asosiy gʻoyasi mehr, yaxshilik, yomonlik

munosabatlarini saqlash anglashga qaratilgan. Bu bitig 65 ta mustaqil she'rlardan tuzulgan turkum bo'lib, mukammal bir g'oyaga asoslanadi. «Irq bitigi»da nima yomonligi, nima yaxshiligi haqida axloqiy tarbiyaviy qarashlar mavjuddir. Shuningdek turkiylar uchun muqaddas bo'lgan bo'ri, ilon, yo'lbars, burgut, ot, jonivorlar va boshqa hayvonlar, orqali tasvirlaydi. «Irq bitigi»ga ikki nuqtai nazardan – tush ta'biri va, eng qimmatlisi, badiiy asar sifatida yondoshish kerak ekanligini ta'kidlaydi. Insonlar shunday tush ko'radi: Katta bir uy yondi, yong'inda uning tub-tubigacha hech narsa qolmadi. Devorlarigacha yonib kul bo'ldi qolmadi. Aynan bu nimaning belgisi? Bu tushning ta'biri qo'yidagichadir – yomonliklar va aynan shu inson boshiga keladigan og'ir musibatlardan darak belgidir.

"Irq bitigi" eng qadimgi turkiy adabiyotdagi boshlang'ich ilk ramziy-majoziy xususiyatli ma'noliy asar sirasidandir. Bitigda inson hayotidagi yomonlik - yaxshilik ramziy ko'rinish va obrazlar misolida berib boriladi. Qo'y va bo'ri ishtirokidagi masallar jahon adabiyotida juda ko'p uchraydigan holatdir. Bo'ri – zo'ravonlik- Qo'y – ojizlik, timsoli sifatida qaraladi. «Irq bitigi»dagi ushbu she'r ham shunday xususiyatlidir.

Boy kishining qo'ylari hurkib ketibdi,

Qo'lar bo'riga duch kelibdi.

Bo'ri qo'ylarning suti bilan og'izlanibdi

(yoki bo'rining og'zi kasallanibdi, - ya'ni og'ribdi)

Qo'ylar salomat va tugal qolibdi, deyishdi,

Bilib qo'ying: bu – yomon.

Shu bitiglar asosi bilan xalqlarimiz urush va halokatlardan butun umr cho'chib yashagan. Har qanday tuntarilish va urushning asosiy bir bahonasi bo'ladi. Ayniqsa Ikki zo'ravon kuchli kuchlarning to'qnashuvi juda katta falokatlarga olib keladi. To'ng'iz va Ayiq to'qnashuvi ifodalangan she'rda go'zal ma'no ifodalanadi:

Ayiq bilan To'ng'iz

Dovon ustida to'qnashibdi.

Ayiqning qorni yorilibdi

To'ng'izning oziq (tish)i sinibdi, deyishdi.

«Irq bitigi»da allegorik xususiyatga ega bo'lgan she'rlar anchagina. Shu sababli ham bu asarga tush ta'biri nuqtai nazaridan emas, ko'proq badiiy ijod namunasi sifatida yondoshish kerak

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. «Irq bitigi» Abdurashid Abdurahmonov. (Drevnetyurkskiy slovar, 676-bet). (DLT, III, 443-bet).

2. Zamin.o'z/ jamiyat /103466-folbin va bashoratchilarning makrlari Internet ma'lumotlari.

3. www.ziyouz.com kutubxonasi 333. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi

4. Davron Nurmuhammad malumotlari internetdan olindi.

5. Savollar islom o'z./s /237342. Bashorat aqida zikr ahlidan so'rang.

© G'OPPOROVA Shaxzoda, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

G'OPPOROVA Shaxzoda

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATNLI MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISHDA ALGORITMIK YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH

Amirov Ikrom Nurali o'g'li[1]

Abduraxmanov G'ulom Erkinovich[2]

Navoi University of Innovations,

[1,2]Senior lecturer of the Department of Social and Humanities

amirovikrom191093@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda masala va unga teskari masala tuzish hamda ularning javoblarini metodlar yordamida ifodalab, boshqa bir savolga javob berish qobilyati va ko'nikmalarini shakllantirish usullari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: metod, integratsiya, teskari masala, usul, matematik tushuncha, tenglama, didaktika, izohlash.

ФОРМИРОВАНИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ РЕШЕНИЮ ТЕКСТОВЫХ ЗАДАЧ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье широко освещены методы составления задачи и обратной ей задачи в начальных классах и выражения своих ответов с помощью методов, а также формирования умения и навыков ответа на другой вопрос.

Ключевые слова: метод, интегрирование, обратная задача, метод, математическое понятие, уравнение, дидактика, объяснение.

FORMING AN ALGORITHMICAL APPROACH TO TEACHING TEXT PROBLEM SOLVING IN PRIMARY EDUCATION

Annotation. In this article, the methods of creating a problem and its reverse problem in elementary grades and expressing their answers using methods, and forming the ability and skills to answer another question are widely covered.

Key words: method, integration, inverse problem, method, mathematical concept, equation, didactics, explanation.

So'ngi yillarda ta'lim sohasida juda katta islohatlar olib borilmoqda shu o'rinda muxtaram yurtboshimizning Boshlang'ich ta'limni sifatini oshirishdagi 2019 yil PQ-4307-

son qaroriga muvofiq “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish metodikasi xalqaro standartlar asosida takomillashtirildi. Bolalarda o‘qish, yozish va matematik bilimlarni rivojlantirish uchun zamonaviy o‘quv vositalari yaratildi.

Bundan tashqari “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-sonli farmoni ijrosini ta’minash uchun ta’lim tizimida jahon xalqaro tadqiqotlarida munosib ishtirok etish rivojlangan davlatlar ta’lim tizimini o‘rganish va samarador usullarni, shaklini o‘z faoliyatimizda qo‘llash, xalqaro baholash dasturlariga o‘quvchilarni, o‘qituvchilarni hamda ota-onalarni tayyorlash va bu xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish masalasi ko‘rsatilgan. Shuni aytib o‘tish joizki, Xalqaro baholash dasturlaridan biri PISA tadqiqotlarida “Matematik savodxonlik” yo‘nalishi ustuvor etib belgilangan bo‘lib, matematik savodxonlik: insonning matematikaning o‘zi yashayotgan olamdagi o‘rnini bilishi matematik jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq asoslay olishni tekshiradi [4].

Boshlang‘ich sinflarda matematika darsiga tayyorlash: misol va masalalar yechishda foydalaniladigan ko‘rgazmalar yoziladi.

Darsning mazmuniga ko‘ra: o‘rganiladigan materialning puxtaligi va tushunilish darajasi, ish jarayonida o‘quvchilarning yetarlicha vazifa bilan ta’minlanganligi; o‘quvchilar faoliyatini ijodiylikka yo‘naltirish o‘quv materialini, shuningdek, ish metodini va usullarini tanlash o‘quvchilarning yoshi, ulardagi bilim, malaka va ko‘nikmalar darajasini hisobga olish; yangi matematik tushuncha yangi hisoblash qisimlari, masalalar yechishning yangi usullari bilan tanishtirish, o‘tilgan materialni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ishlar; darsda qo‘llaniladigan ko‘rgazma va didaktik qo‘llanmalarning ahamiyati e’tiborga olinadi [1]. Qolaversa matematika darslarida boshqa fanlardan foydalanish masalasini dasturda aniq ko‘rsatish qiyin, buni o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi, ya’ni o‘quv materialini darsga tayyorlanish vaqtida e’tiborga olishi kerak. Masalan, tenglamalarni o‘rganish davrida fizikaga oid tenglamalarni ham yechtirish mumkin [2].

Matematika darsining o‘ziga xos tomonlari Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik qobilyatlarini, fikrlash qobilyatining tezligini, hisoblash qobilyati, raqam, son, formulalarni eslashga oid qobilyatlar, tasavvur qilish qobilyati, izohli tasvirlay olish qobilyati va boshqa ijobiy xususiyatlarini shakllantiradi [3].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida masala tuzish va unga teskari tuzib, metod orqali ifodalab, mavzudan tashqari boshqa bir savolga javob topish usullari haqida ko‘rib chiqilsa natija qanday bo‘lishi mumkinligi izohlanadi.

Masala: Azizning bobosi 80 yoshda, otasi bobosidan 35 yosh kichik. Azizning yoshi esa bobosinikidan 8 marta kichik bo‘lsa, ularni yoshining yig‘indisini toping.

Bu masalani yechishda “O‘rgimchak to‘ri” metodidan foydalanish uchun masalaga qisqa shart tuzib olinadi.

Masala sharti:

Bobosi – 80 yosh

Otasi – ? 35 yosh kichik

Aziz – ? 8 marta kichik

Ularni yoshining yig‘indisini toping?

Endi shu masalaga teskari masala tuzib, uning qisqa sharti bilan “O‘rgimchak to‘ri” metodining to‘rlariga joylashtirib chiqiladi va har bir masalaning to‘g‘ri javobi ostiga boshqa bir savolning javob harflarini joylashtirib chiqiladi.

Masalan, Qadimda forslar “*poletemet*” deb atagan daryoning nomi?

Izoh: birinchi masalaning to‘g‘ri javob soni ostiga ikkinchi savolning javobidagi bitta harfi yashiriladi.



Savol: Qadimgi forslar “poletemet” deb atagan daryo nomi nima? Savolning javobi rasmda qizil harflarda berilgan

Qolgan masala javoblari ostida ham xuddi shu tarzda javob harflari yashiriladi.

Natija: o‘quvchilar bu metod orqali masala ishlash bilan bir qatorda boshqa fanlardan ham savollarga javob topadilar, ya’ni diqqat e’tibori bir nechta misol yoki masala yechish bilan cheklanib qolmay yuqorida berilayotgan savolning javobini keltirib chiqaradi. Bu esa o‘quvchilarda fanlar uzluksizligiga integratsiyalashganlik

ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchilarning tezkorligi, ijodkorligi, bilimliligi, mantiqiy fikrlash qobilyati shakllanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, sifatli natijalarga erishish uchun, o'quv jarayonini zamonaviy texnik uskunalar, ko'rgazmali tasviriy qo'llanmalar va o'yinli rekvizitlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Multimediya elementlari orqali vizuallashtirilgan o'quv darslari o'quvchilarda samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda o'quvchilar bilimlari sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay hozirgi vaqtda boshlang'ich matematika kursini o'rganishni faqatgina ko'nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o'zlashtirish bilan amalga oshirish ham mumkin emas. O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni o'rganishda kuchlari yetadigan darajada o'zlashtirishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishni o'rganishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilardan turli metodlar orqali bir vaqtning o'zida matematika fani bilan birgalikda bir nechta fanlardan yuqori natijaga erisholsa, ta'lim sohasidagi kichkina bir masala o'z yechimini topgan bo'lar edi. Zero Qori Niyoziy aytganidek "Matematika fanlar ichra shoh, uning sirlaridan bo'lingiz ogoh".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.E. Jumayev., Z.G'.Tadjiyeva. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" /. Darslik. T.: «Fan va texnologiya», 2005yil. 312b.
2. S.Alixanov. Matematika o'qitish metodikasi /. Darslik .T.: «Cho'lpon» 2011yil. 304b.
3. B.Ungarov. / Pedagogik mahorat jurnali. 1-son, 2009 yil. 57-bet.
4. B.I.Boltayeva., D.I.Eshbekova., X.Q.Tojiboyeva. "Jahon ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limni o'qitishga xos samarali yondoshuvlar" T.: «NIFMSH», 2024yil.
5. Jumayev E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Turon iqbol" 2012 yil.
6. M.Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev "Matematika" /Darslik T.: «Turon-Iqbol» 2019y.
7. B.K.Mamadaliyev "Boshlang'ich ta'limda matematik mantiq va uning tadbiqlari" / O'quv qo'llanma T.: « Innovatsiya-Ziyo» -2022, 116b.
8. Jumaev M.E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" o'quv qo'llanma.T.: «O'qituvchi» 2004yil.
9. Jumayev M.E. "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi". T.: «Innovatsion-Ziyo», 2021-yil.
10. D.I.Yunusova "Oliy ta'limda matematika o'qitishning zamonaviy texnologoyalari" / Darslik T.: « Innovatsiya-Ziyo» -2022, 252b.
11. M.K.Mamadjanova «Matnli masalalar» /O'quv qo'llanma/ T.: «Metodist nashriyoti» -2023yil, 112b.

12. M.Ganiyeva. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik tafakkurini rivojlantirishda murakkab masalalarning ahamiyati" Scienceweb academic papers collection.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 7-may, PQ-4708-son

© Amirov Ikrom Nurali o'g'li, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Amirov Ikrom Nurali o'g'li, Abduraxmanov G'ulom Erkinovich

G'AZALLAR POREMIOLOGIK XUSUSIYATNI TAHLIL QILISHNING MA'NAVIY-IJTIMOIY AHAMIYATI

Saidbek Boltabayev

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Turkiya Respublikasi Karabuk universiteti

G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Navoiy innovatsiyalar universiteti

nargizagulomova099@gmail

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning muhim mavzusi hisoblangan tilning paremiologik boyligi haqida yozilgan. Ma'lumki, maqol va matallar xalq og'zaki ijodiyotida janr sifatida mukammal o'rganilgan. Tilshunoslik sohasida esa yangi tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanmoqda. Pragmatik nuqtai nazardan maqollarning maqsadi qorishiq xususiyatlidir. Maqollarning barchasi lingvokulturologiyaning predmeti hisoblanavermaydi. Jumladan, biror xalq madaniyatiga tegishli bo'lmagan, barcha etnoslar uchun birdek tegishli bo'lgan maqollar shu qatorga kiradi. Paremiyalar ham xuddi leksemalar kabi eskirish, arxaiklashish xususiyatlariga ega. Bunday xususiyatlarni tilga oid bo'lgan tarixiy asarlarda jumladan, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida qo'llanganligini misollar yordamida ko'rsatib o'tamiz. G'azallarida maqol va iboralar qo'llaganki, biz ularni tahlil qilish asnosida mumtoz o'zbek tilining betakrorligini anglaymiz. Maqolada Alisher Navoiy mualliflik korpusida shoir g'azallarida qo'llagan maqol va iboralar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: korpus, paremiologiya, devon, g'azal, bayt, semantik tahlil, maqol, ibora.

THE SPIRITUAL AND SOCIAL SIGNIFICANCE OF ANALYZING THE POREMILOGICAL CHARACTERISTICS OF GAZELS

Annotation: This article is about the paremiological richness of the language, which is an important topic of modern linguistics. It is known that proverbs and sayings have been studied as a genre in folk oral creativity. In the field of linguistics, they are considered an important source for new research. From a pragmatic point of view, the purpose of proverbs is mixed. Not all proverbs can be considered a subject of

linguoculturology. In particular, proverbs that do not belong to any national culture and are equally relevant for all ethnic groups are included in this category. Paremias, like lexemes, have the properties of obsolescence and archaism. We will show with examples that such properties are used in historical works on the language, including the collection “Khazoyin ul-maoniy”. He used proverbs and expressions in his ghazals, and when analyzing them, we understand the uniqueness of the classical Uzbek language. The article analyzes the proverbs and expressions used by the poet in his ghazals in the author's corpus of Alisher Navoi.

ДУХОВНОЕ И СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИЗА МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ГАЗЕЛЕЙ

Аннотатция: Данная статья посвящена паремиологическому богатству языка, что является важной темой современной лингвистики. Известно, что пословицы и поговорки изучались как жанр в народном устном творчестве. В области лингвистики они считаются важным источником для новых исследований. С прагматической точки зрения, назначение пословиц неоднозначно. Не все пословицы можно считать предметом лингвокультурологии. В частности, в эту категорию входят пословицы, не принадлежащие ни к одной национальной культуре и одинаково актуальные для всех этнических групп. Паремии, как и лексемы, обладают свойствами устаревания и архаизма. Мы покажем на примерах, что такие свойства используются в исторических трудах о языке, в том числе в сборнике «Хазоин уль-маоний». Он использовал пословицы и выражения в своих газелях, и при их анализе мы понимаем уникальность классического узбекского языка. В статье анализируются пословицы и выражения, использованные поэтом в его газелях, в творческом корпусе Алишера Навои.

Ключевые слова: корпус, паремиология, диван, газель, стих, семантический анализ, пословица, фраза.

Kirish. Turkiy xalqlar azaldan maqol-matallar to‘qishga, ulardan o‘z vaqtida va o‘z o‘rnida foydalanishga intilgan xalq sanaladi. Maqol va hikmatlar mumtoz adabiyot bo‘stonini ham boyitishga xizmat qiladi. Navoiy merosini maqol-matallarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, Navoiy ijodi hikmat va tamsillar har zamon, har davr uchun ham saboq bo‘ladigan o‘lmas g‘oyalar, fikr-qarashlar ummoni [Komilov, 2009: 3]. Navoiy uchun she’riy san’atlar falsafiy, ijtimoiy, ishqiy mavzulardagi xulosalarini yuksak so‘z mahorati va betakror so‘z san’ati bilan ifoda etish vazifasini o‘tagan. Alisher Navoiy qo‘llagan har bir she’riy san’at bevosita she’rning kompozitsiyasi va uslubi bilan aloqadorlik kasb etadi. Ayrim san’atlar g‘azallarning umumiy kompozitsiyasiga aloqador bo‘lsa, ba’zi birlari semantik-sintaktik strukturasi bilan aloqador. Umuman olganda, barcha she’riy san’atlar Navoiyning poetik tasviri doirasidagi xususiyatlar asosida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko'p jihatlari bilan farqlanadi [Sirojiddinov, Abjalova, Normamatov, G'ulomova, 2024: 5]. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusini takomillashtirishda, xususan g'azallarda uchragan parimiologiyalarni topib, korpus bazasiga joylashtirishda komponent tahlil, qiyoslash va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyoslash tamoyili asosida g'azallardagi maqol va iboralar qatnashgan baytlar izohli lug'atlar yordamida tahlil qilingan bo'lsa, komponent tahlil asosida misradagi izohtalab so'z o'zi bilan kelgan boshqa so'zlar qurshovida anglatgan ma'nosi aniqlanib, ma'lumotlar bazasida ID kodi bilan kiritildi. Ijodkor uslubini aniqlashda matnning statistik tarkibi muhim hisoblanib, korpusdagi statistik tahlil metodi yordamida yozuvchi uslubini ham qisqa vaqtda aniqlash mumkin. Matnning statistik strukturasi deyilganda, shartli ravishda, ma'lum matndagi turli so'zlar miqdori bilan shu matnda uning qaytarilish-qaytalanish chastotasi orasidagi munosabat tushuniladi.

Natijalar va muhokama. XV asr turkiy til grammatikasini Navoiy g'azallari misolida o'rganish maqsadida Alisher Navoiy mualliflik korpusi semantik bazasidan 323 ta ibora, 124 ta maqol qatnashgan leksik birliklarning o'rin olishi korpusning dolzarbligini belgilaydi.

1-chizma. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi iboralar tahlili.

Iboralar, ya'ni frazeologizmlar – ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya bo'lib, maqollardan tasviriylik, badiiylik nihoyatda kuchliligi bilan farqlanadi. Frazemaning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Masalan, to'nini teskari kiymoq frazemasining semantik tarkibida "o'chakishmoq" (frazeologik ma'no) bilan birga "qaysarlik" semasi (uslubiy bo'yoq) ham bor. To'rt tomoni qibla frazemasida "qayoqqa xohlasa ketaversin" ma'nosi bilan birga salbiy baho (uslubiy bo'yoq) ham ifodalangan. "Chehrasi ochiq" frazemasining semantik tarkibida esa "xushtabiat" ma'nosi ijobiy baho (uslubiy bo'yoq) semasi bilan qoplangan [Jamolxonov, 2005: 217]. "Qolurlar og'zin ochib ishq ahli po'yamdin" misrasida *og'zini ochmoq* iborasi "hayratda qolmoq" yoki "lol qolmoq" ma'nolarini bildirmoqda. Ko'rinib turibdiki, iboralar ma'nosi nihoyatda noziklik bilan yashirilgan. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida XX asrning 40- yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50- yillaridan boshlangan. Dunyo tilshunosligida iboralar o'rganilmagan bir davrda Navoiyning aksariyat g'azallarida turg'un birikmalarning faol tarzda qo'llanilishi daho shoirning nihoyatda teran zakovati va so'z imkoniyatlarining cheksizligidan darak beradi. Shoir turg'un birikmalardan biror tushuncha yoki fikrni ifodalashda shu gapga teng keladigan jumla orqali o'z qarashlarini ifoda etgan. Ayniqsa, misralarda inson ruhiyatidagi salbiy va ijobiy-emotsional holatlarni iboralar orqali tasvirlagan. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda, frazemalarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil frazemalardan nutqiy

ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta. Kulliyot g'azallarining badiiy xususiyatini tadqiq etish jarayonida uch yuzdan ortiq turg'un birikmalar aniqlanib, ulardagi salbiy yoki ijobiy baho semalari tasniflandi va Alisher Navoiy mualliflik korpusiga joylashtirildi:

1-jadval. Ijobiy ma'no bo'yoqdorligiga ega (integral) iboralar.

Misra	**Mazmunan mos ibora**
Qilmamish *jonin fido* jonong'a yetmas der emish	Jonni fido qilmoq
Kim, *ko'zumga to'tiyodek bo'ldi* jonondin jafo	Ko'ziga to'tiyo qilmoq
Ashkkim, andin tomar, *giryon ko'z* aning sadqasi	Kozi giryon bo'lmoq
Og'zing asru toru *ko'nglung asru keng*	Ko'ngli keng
Chu sursang tiyg'i zahrolud *ko'nglum ochilur* nevchun	Ko'ngli ochilmoq

2-jadval. Salbiy ma'no bo'yoqdorligiga ega (differensial) iboralar.

Misra	**Mazmunan mos ibora**
Qon yutsang ayog'lar to'la davrong'a ne parvo	Qon yutmoq
Ikki o'tlug' nargisingkim, qildilar *bag'rim kabob*	Bag'rini kabob qilmoq
Hajri *ko'nglumni buzub*, g'am sayli hamvor etti, voy	Ko'ngli buzulmoq
Qovay agar yana kelsa, *yuzini qora qilib*	Yuzini qora qilmoq
Qolurlar og'zin ochib ishq ahli po'yamdin	O'g'zini ochib qolmoq
Boshimg'a toshlar yog'durmakim, bor	Boshiga tosh yog'dirmoq
	Joni og'ziga kelmoq

Titrabon siymobdek ko'nglum, *yetar jon og'zima*	

Yuqoridagi misralarda uchraydigan iboralarning aksariyati polisemantik xususiyatga ega bo'lib, bir semantik tarkibda ikki yoki undan ortiq frazeologik ma'nolarni anglashimiz mumkin.

Ma'lumki, maqol ishlatish badiiy adabiyotda irsoli masal san'atini hosil qiladi. Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 500ga yaqin maqol va xalq iboralaridan unumli foydalangan [Hakimov, 1968: 84]. Ko'pgina o'rinlarda maqol yoki hikmatli so'z asarga shunday singdirib yuboriladiki, bu shoirning aytmoqchi bo'lgan g'oyasini, maqsadini ifodalashga yordam beradi. Shoir maqollarni rang-barang uslubda ishlatib, maqol yoki hikmat aytmoqchi bo'lgan g'oya va maqsadni g'oyat muxtasar bir shakldа yorqin ifoda etadi [Matyoqubova, 2009: 79]. G'azallarda maqolning go'zal namunalarini uchratish mumkin. G'azallarda irsoli masal san'ati (maqol qo'llash) uch xil holatda qo'llanilgan:

1) baytda qo'llangan maqol yoki hikmatli so'z "*masalkim*", "*masal*", "*dermishlar*", "*derlar*", "dermish" jumlalari bilan birga keladi:

Tanda ohing shu'lasin, derlar, nihon tut, ohkim,

Bir ovuch xoshok aro bo'lmas choqin pinhon qilib.

"*Bir hovuch xoshok ichida chaqinni yashirib bo'lmas*" yoki *"Kasalini yashirsang kasali oshkor qiladi"* maqollari bilan mazmunan mos keladi.

Furqat ichra sharbati la'ling visoli kam bo'lur,

Garchi derlar: talx daryoda chuchuk su ham bo'lur.

Bayt "*Suvi talx daryoda chuchuk suv ham bo'ladi*" maqoli bilan mazmunan bir xil.

2) maqol yoki matalning aynan o'zi baytlarda uchraydi. G'azallardagi ba'zi maqollar irsoli masal san'atini hosil qilsa-da, lekin mazmunan eskirgan. Masalan, quyidagi baytda qo'llanilgan maqol hozirda butunlay boshqa so'zlar bilan ifodalanadi [G'ulomova, Abjalova, 2024: 45]:

Hijron-u visolin ko'pu oz dema Navoiy,

Yuz shukr dekim, ko'pi borib, ozi qoliptur.

Baytda *"Ko'pi ketib ozi qoldi"* ma'nosi mujassam.

Ko'k tegirmon toshi aylandurmaq istar boshima,

Dema oy-u kun boshim uzra bukim sayyordur.

"*Boshida tegirmon toshini aylantirmoq*" xalq maqoliga mazmun jihatidan teng keladi.

3) maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda uning shakli biroz yoki butunlay oʻzgartiriladi. Quyida keltirilgan baytda qoʻllanilgan maqol ham mazmunan oʻzgargan boʻlsa-da, lekin undagi gʻoya hozirda ham dolzarb:

Yigitligingda qarilargʻa qilmading xidmat,

Qariligʻingda yigitlarga bermagil zahmat.

Ushbu baytdagi mazmun *"Kattaga hurmatda, kichikka izzatda boʻl"* xalq maqoliga mazmunan yaqin.

Xoʻblar tigʻi yetishmasdin burun bu zor oʻlar,

Chin emishkim, boʻlsa koʻp qassob, qoʻy murdor oʻlar.

Yuqoridagi baytda qoʻllanilgan irsoli masal "*Qassob koʻp boʻlsa, mol harom oʻladi*" ma'nosini anglatadi.

Gʻazallardagi hikmatli soʻzlarning ta'limiy-tarbiyaviy, estetik ahamiyatini inobatga olgan holda "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi maqol va hikmatlar qoʻllangan 124 ta bayt Alisher Navoiy korpusiga kiritildi [Abjalova, Gʻulomova, 2022: 183]:

A.Hayitmetov Navoiyning badiiy san'atlardan oʻz oʻrnida foydalana olish qudratini e'tirof etib: "Mabodo, Navoiy boshqa asar yozmasdan faqat "Xazoyin-ul maoniy"ni, hatto uning tarkibidagi bitta devon "Gʻaroyib us-sigʻar" yoki "Navodir ush-shabob", yoxud "Favoyid ul-kibar"ni yaratganda adabiyotimiz tarixida eng ulugʻ shoirlarimizdan boʻlib qolar edi" [Toʻxliyev, 2021: 105] – deb yozadi.

Shavkat Mirziyoyev Navoiyning turkiy til rivojiga qoʻshgan hissasiga shunday ta'rif beradi: Ulugʻ shoir oʻzining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy gʻoyalarni, ona tilimizning beqiyos soʻz boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam oʻrin egalladi. Navoiy gʻazallardagi oʻziga xos ifodaning ma'no va magʻzini toʻlaligicha his qilish, anglash, tushunish, uchun har bir baytni va unda ishlatilgan har bir soʻzni ilmiy va badiiy tahlil qilish talab etiladi. Har qanday ulugʻ san'atkorning she'rida soʻz oʻzi aks ettirishni istagan fikr va tuygʻudan bir necha hissa ortiq ma'nolarni ifodalaydi. Shuning uchun haqiqiy she'rning gʻoyaviy-badiiy tarkibida hamisha nimalardir sir boʻlib, allaqanday ma'no gavhari yashirinligicha qolaveradi. Eng zukko she'rshunosning ham tahlil imkoniyati cheklangan [Haqqulov: 45].

Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoning XV maqolotida: "Kim ma'no durining sadafidan o'ziga jom qilgan bo'lsa, so'z mayini o'sha kishi to'la simiradi. So'z shu qadar ajoyib va safoli sharobki, ko'ngulning eng qorong'i kunjlarini chiroq bo'lib yoritadi" deya so'zning qudratiga ta'rif beradi [Alisher Navoiy, 2011: 223].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni anglashimiz mumkin: davrlar o'tishi jarayonida tilning leksik qatlamida leksemalarning shakl jihatdan o'zgarishiga uchrashi, ammo ular anglatgan semalarning boshqa so'zlar orqali ifodalanishi, ya'ni arxaiklashishini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon xalqning madaniy va ma'rifiy qiyofasini ko'rsatib beradigan maqol va matallarni ham
chetlab o'tmagan. Maqol va matallarda arxaiklashish hodisasi shaklga nisbatan mazmunda ko'proq kuzatilgan [G'ulomova, 2024: 45]. Ularda qo'llanilgan so'zlarning ayrimlari hozirgi kungacha o'zgarishsiz yetib kelganligining ham guvohi bo'lamiz, lekin bu so'zlar o'sha davrda boshqa so'zlar bilan birga barqarorlik holatida anglatgan tarbiyaviy ma'nolar hozirgi kunda iste'molda bo'lgan boshqa yangi barqaror holatdagi leksemalar orqali ifodalanmoqda. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, xalqning tafakkuriga singgan, hayotni idrok etish orqali erishilgan lisoniy bilimlar davrlar silsilasida yangi-yangi leksemalarda, paremeologik birliklarda o'z ifodasini topsa-da, ma'no va mohiyat insonlar shuurida yashashda davom etaveradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022. 9919546.
2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдли. 6 жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.223.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.217.
4. Matyoqubova T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.79.
5. Sirojiddinov Sh., Abjalova M., Normamatov S., Gulomova N. "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus," 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 26-28 october, 2024. Antalya, Turkiye, – pp. 48-53.
6. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 2021. – B.105.
7. Иброҳим Ҳ. Навоий ғазалларига шарҳлар. – Б.45. https://n.ziyouz.c om/books/ alisher_navoiy_20g'azallariga%20 sharhlar.pdf.
8. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр – Ўзбекистон, 2009. – Б.3.

9. Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикасида халқ мақоллари. Адабий мерос. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги адабиёт музейи, 1968. – B.84.
10. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O'zMU xabarlari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
11. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston: til va ma'naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B.14-32.

© Boltabayev Saidbek, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Boltabayev Saidbek, G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna

MIRZO KENJABEK IJODIDA G'AZAL JANRI TAKOMILI

Ozoda Norqulova,

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) Payzullayeva R.M

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizga katta hissa qo'shgan Mirzo Kenjabekning zamonaviy o'zbek she'riyatida aruz vaznining barcha talablariga qat'iy rioya qilgan holda g'azallar yozganligi, Navoiy maktabining uslubiy sofiyasini saqlab qolishi, Vatan tuyg'usi va milliy qadriyatlarni ham aks ettirishga muvaffaq bo'lishi haqida so'z boradi.

Kalit so'z: mumtoz she'riyat, g'azal janri, aruz, o'zbek adabiyoti, Mirzo Kenjabek ijodi.

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЖАНРА ГАЗЕЛИ В ТВОРЧЕСТВЕ МИРЗО КЕНДЖАБЕКА

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что Мирзо Кенджабек, внесший огромный вклад в нашу классическую литературу, писал газели в строгом соответствии со всеми требованиями арузского метра в современной узбекской поэзии, сохранил стилистическую утонченность Навоийской школы и сумел отразить чувство родины и национальные ценности.

Ключевые слова: классическая поэзия, жанр газели, аруз, узбекская литература, творчество Мирзо Кенджабека.

IMPROVEMENT OF THE GHAZAL GENRE IN THE WORK OF MIRZO KENJABEK

Abstract: This article discusses how Mirzo Kenjabek, who made a great contribution to our classical literature, wrote ghazals in strict compliance with all the requirements of the aruz meter in modern Uzbek poetry, preserved the stylistic sophistication of the Navoi school, and managed to reflect the feeling of the homeland and national values.

Key words: classical poetry, ghazal genre, aruz, Uzbek literature, work of Mirzo Kenjabek.

O'zbek mumtoz she'riyatimizga xos yuksak g'oyaviylik va yetuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo'lmoq, har bir ijodkor qalamining badiiy salohiyatini anglab yetmoq, she'rlarga xos nafis ohanglarni ham, so'z san'atining betakror nazokat-u latofatini ham his etmoq uchun aruz she'riy o'lchov tizimining nazariy qonun-qoidalari va amaliy xususiyatlaridan atroflicha xabardor bo'lmoq talab etiladi. Aruz (arabcha-forscha vazn tizimi) asosida yuzaga kelgan bo'lib, u o'z ichiga aniq qoida- larga ega bo'lgan juda ko'p she'riy va nasriy janrlarni oladi. [1;15] Bu janrlar asrlar davomida takomillashib, lirik kechinma- lardan tortib epik voqealargacha, falsafiy mushohadalardan diniy pand-nasihatlargacha bo'lgan barcha mavzularni ifodalashga xizmat qilgan. Lirik janrlar shaxsiy kechinmalar, hissiyotlar va mushohadalarni ifodalashga qaratilgan bo'lib, mumtoz adabiyot- ning asosiy qismini tashkil etadi. Eng ko'p va keng yoyilgan g'azal janriga to'xtalib o'tsak.

G'azal (arabcha: oshiqona so'z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish) - Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr "G'azal"atamasi dastlab VIII–IX asrlarda arab she'riyatida paydo bo'lgan. [3;27] So'ng O'rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o'tib, X asrda forsiy adabiyotga, XIV asr boshlarida turkiy adabiyotga kirib kelgan. G'azalning paydo bo'lishi va rivojlanishi musiqa san'ati bilan chambarchas bog'liq. Dastlab g'azalga taxallus qo'yilmagan, bu keyinchalik an'anaga aylangan.G'azal dastlab ishqiy mavzuda yozilgan bo'lsa-da, keyinchalik uning mavzu doirasi kengayib bordi hamda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, mav'iza (pand-nasihat) va hajviy g'azallar yuzaga keldi. Fors so'z san'atida g'azal dastlab Rudakiy ijodida uchrasa-da, Sa'diy ijodida u to'la shakllanib, she'riyatning asosiy janrlaridan biriga aylandi, keyin Hofiz uni yuksak darajaga ko'tardi: u o'zigacha tasavvufiy va dunyoviy yo'nalishda rivojlanib kelgan g'azalchilikni o'zaro omuxta qildi. Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Isfahoniy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Xoju Kirmoniy, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi shoirlar g'azal taraqqiyotida katta rol o'ynaganlar. [4; 57] O'zbek adabiyotida g'azalning ilk namunalari Rabg'uziyning „Qisasi Rabg'uziy", Xorazmiyning „Muhabbatnoma"sida uchraydi. [2;43] G'azalda ishqiy mavzu yetakchilik qilishiga qaramay, g'azalnavislar bu janrning imkoniyatlaridan inson ma'naviy dunyosining, shuningdek, tabiat va jamiyatning barcha murakkab tomonlarini ifodalash uchun foydalanganlar.

XV asrdan g'azal o'zbek she'riyatida ham asosiy va yetakchi janrga aylandi. G'azal janrida eng ko`p va muvofaqqiyatli ijod qilgan buyuk shoirlar Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Boburlarni sanab o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Keyinchalik o'zbek she'riyatida Hamza, Cho'lpon, Xurshid, G'afur G'ulom, Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy, Chustiy, Vosit Sa'dulla, Jumaniyoz Jabborov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Mirzo Kenjabek va boshqalar g'azalni yangicha sharoitda davom ettirdilar va uning mavzu doirasini boyitdilar, shu bilan birga, an'anaviy ishq-u oshiqlik mavzusida ham ko'plab badiiy barkamol g'azallar yaratdilar.

Mirzo Kenjabek ijodi, ayniqsa g‘azallari, o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak cho‘qqisi bo‘lgan Alisher Navoiy ijodi bilan ma’naviy va badiiy jihatdan uzviy bog‘liqdir. Kenjabek o‘z asarlarida Navoiyning uslubiy qonuniyatlari, janr talablari va ma’naviy g‘oyalarini yangi davr ruhida davom ettiradi. Navoiy aruz vaznining barcha talablarini mukammal egallagan va uni turkiy til imkoniyatlariga moslashtirgan. Uning g‘azallari vazn nuqtayi nazaridan benuqson sanaladi. Mirzo Kenjabek ham zamonaviy she’riyatda ko‘plab shoirlar erkin vaznga o‘tgan bir paytda, aruz qoidalariga, g‘azalning qofiya va radif tizimiga qat’iy rioya qiladi. U bu qonuniyatlarni buzmasdan, ularni yangi mazmun bilan to‘ldiradi. So‘zimizning isbotini quyidagi g‘azal orqali ifodalaymiz:

Tashakkurlar zamoni bu, odamlarga tashakkur ayt,

Gahi shodlik, gahi dard-u alamlarga tashakkur ayt.

Chiqib har tong salom ayla, xushomadlig‘ kalom ayla,

To‘ramlarga tavozu’ qil, karamlarga tashakkur ayt. [5;69]

Bu misralarni aruz vazni qoidalariga asosan o‘rganib chiqsak quyidagicha bo‘ladi. **Hazaji musammani musabbag‘** vaznda bo‘lib, taqtesi quyidagicha:

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylon

V - - - / V - - - / V - - - / V - - ~

	Ta	shak	kur	lar	za	mo	ni	bu	o	dam	lar	ga	ta	shak	kur	ayt
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	~
	Ga	hi	shod	lik	ga	hi	dar	du	a	lam	lar	ga	ta	shak	kur	ayt
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	~

	Chi	qib	har	tong	sa	lo	may	la	xu	sho	mad	lig‘	ka	lo	may	la
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-
	To‘	ram	lar	ga	ta	vo	zu	qil	ka	ram	lar	ga	ta	shak	kur	ayt
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	~

Navoiy “Xamsa” va “Devon” larida, ayniqsa g‘azallarida eski o‘zbek adabiy tilining eng go‘zal va boy imkoniyatlarini namoyish etgan. Mirzo Kenjabek ham Navoiyga havas qilgan holda uning g‘azallariga muxammaslar bog‘laydi. Bu uning g‘azallariga Navoiy davri uslubining nazokatini olib kiradi.

Lablarim kunduz jaziyra dashtidin qaqroqroq,

Nolishim shom qushlarining zikridin dardnokroq,

Ko‘zlarim bemor tunidin subhida mushtoqroq,

Ko‘kragimdur subhning pirohanidin choqroq,

Kiprigim shabnam to‘qulgan sabzadin nampokroq. [5;78]

Bu misralarni aruz vazni qoidalariga asosan o‘rganib chiqsak quyidagicha bo‘ladi. **Ramali musammani maqsur** vaznda bo‘lib, taqtesi quyidagicha:

Foilotun foilotun foilotun foilon
- V - - / - V - - / - V - - / - V ~

	Lab	la	rim	kun	duz	ja	ziy	ra	dash	ti	din	qaq	roq	roq
	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-v	~
	No	li	shim	shom	qush	la	ri	ning	zik	ri	din	dard	nok	roq
	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-v	~

	Ko‘z	la	rim	be	mor	tu	ni	din	sub	hi	da	mush	toq	roq
	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-v	~
	Ko‘k	ra	gim	dur	subh	ning	pi	ro	ha	ni	din	choq	roq	
	-	v	-	-	-v	-	-	-	v	-	-	-	-v	~

	Kip	ri	gim	shab	nam	to‘	qul	gan	sab	za	din	nam	pok	roq
	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-v	~

Navoiyning g‘azallarining asosiy mag‘zi ishqi majoziy (dunyoviy sevgi) ni bahona qilib, ishqi haqiqiy (ilohiy sevgi, Allohga muhabbat) ni tarannum etishdir. Shayx, rind, zohid kabi obrazlar orqali tasavvufiy-falsafiy mushohadalar beriladi.Mirzo Kenjabekning aksariyat g‘azallari ham ushbu an’ananing bevosita davomidir. Uning g‘azallarida Iymon, bandalik, shukr, Haqqa intilish, dunyoning o‘tkinchiligi kabi tasavvufiy mavzular yangi davr insonining ruhiy izlanishlari orqali ifodalanadi. Quyidagi g‘azalimiz so‘zimizning isbotidir:

Ibodat ne? Yaratganga itoat ham ibodatdir,

Haqiqiy bandalik birlan sadoqat ham ibodatdir!

Ibodatdir, tiriklikni etolsang ma’rifat bog‘i

Mashaqqatlik ilm, san’at, qiroat ham ibodatdir. [5;75]

Bu misralarni aruz vazni qoidalariga asosan o‘rganib chiqsak quyidagicha bo‘ladi. **Hazaji musammani solim** vaznda bo‘lib, taqtesi quyidagicha:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

	I	bo	dat	ne	Ya	rat	gan	ga	i	to	at	ha	mi	bo	dat	dir
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-
	Ha	qi	qiy	ban	da	lik	bir	lan	sa	do	qat	ham	i	bo	dat	dir
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-

	I	bo	dat	dir	ti	rik	lik	ni	e	tol	sang	ma	ri	fat	bo	g‘i
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-
	ma	shaq	qat	lik	i	ilm	san	at	qi	ro	at	ha	mi	bo	dat	dir
	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-

U ham Navoiy kabi g‘azalni ma’naviy-axloqiy yo‘l-yo‘riq beruvchi vosita sifatida qabul qiladi.Navoiy asarlarining asosiy g‘oyasi insonni komillikka yetaklash, yuksak axloqiy fazilatlarni ulug‘lashdir. Mirzo Kenjabek g‘azallarida ham halollik, adolat, to‘g‘rilik, nafsoniy xatarlardan ogoh bo‘lish g‘oyalari yetakchilik qiladi. Navoiyda parvona, sham,

bulbul, gul, zohid, may kabi mumtoz obrazlar va ramzlar tizimi chuqur falsafiy ma’no tashiydi. Kenjabek ham an’anaviy ramziy tizimdan foydalanadi. Uning g‘azallarida ham shoir-oshiq va ma’shuq, Haq orasidagi murakkab munosabat, tasavvufiy tushunchalar o‘sha Navoiy an’anasidagi obrazlar vositasida ifodalanadi, ammo ularga zamon ranglari beriladi.

Mirzo Kenjabek g‘azal ijodida Navoiyga shunchaki taqlid qiluvchi shaxs emas, balki Navoiy asos solgan tasavvufiy-lirik maktabning qonuniyatlarini yangi ma’naviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtiruvchi mohir ijodkordir. Kenjabekning asarlarida shakliy mukammallik va chuqur ma’naviy mazmun jihatidan Navoiy an’analari barqaror davom etayotganini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek aruzi lug‘ati (Anvar Hojiahmedov, 1998) [1;15]
2. O‘zbek klassik she’riyati janrlari, T., 1979; [2;43]
3. Orzibekov R., O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat, T., 1976; [3;27]
4. Valixonov A., G‘azal nafosati. T., 1985. [4; 57]
5. Mirzo Kenjabek. – Toshkent. “Oltin kitob”nashriyoti – 2025.- 288 б. [5;69,78,75]

© Norqulova Ozoda, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Norqulova Ozoda

NAZAR ESHONQUL "SHARPA" HAMDA FRANS KAFKANING "MUTTAHAM" HIKOYALARIDA

RAMZIY TIMSOLLARINING BADIIY TASVIRI

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish:o'zbek tili ta'lim yo'nalishi

3-kurs 1-guruh talabasi

Mirzayeva Shaxzoda Nodirbek qizi

***Ilmiy rahbar**: Kobulova Nodira Bahodirovna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada modernizm adabiyotining ikki buyuk ijodkori bo'lgan Nazar Eshonqul hamda Frans Kafkaning "Sharpa" va "Mutahham" hikoyalaridagi ramziy timsollarning o'zaro o'xshash hamda farqli jihatlari taqqoslanib o'rganiladi. Ikkala adibning ijodiga xos nozik belgilar tahlil qilinadi. Ijodkorlarga berilgan fikr va mulohazalar bilan tanishtiriladi. Xulosa sifatida esa ikkala hikoyaning bugungi kundagi insonlarning o'zaro ichki his-tuyg'ulari bilan bog'liq masalalar hamda bularning jamiyatga ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nazar Eshonqul, Frans Kafka, ramziy timsollar, sharpa, qush, muttaham, qahramon, adabiyot, jamiyat.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИЛЛЮСТРАЦИЯ НАЗАРА ЭШАНКУЛА СИМВОЛИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В РАССКАЗАХ «ОСТРЫЙ» И «МУТТАХАМ» ФРАНЦИСКА КАФКИ

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ символических образов в рассказах «Призрак» Назара Эшонкула и «Нора» (или «Противозаконный») Франца Кафки — двух великих представителей литературы модернизма. Рассматриваются сходства и различия в использовании художественных символов, а также анализируются тонкие стилистические особенности, присущие творчеству обоих писателей. В работе приводятся мнения и отзывы критиков об их литературном наследии. В качестве заключения обсуждаются вопросы, связанные с внутренними переживаниями современного человека, и их влияние на современное общество.

Ключевые слова: Назар Эшонкул, Франц Кафка, символические образы, призрак, птица, подлец (или «Нора» — асар номи сифатида), герой, литература, общество.

NAZAR ESHANKUL'S ARTISTIC ILLUSTRATION OF SYMBOLIC ELEMENTS IN "SHARP" AND FRANCIS KAFKA'S "MUTTAHAM" STORIES

Abstract: This article explores a comparative study of symbolic imagery in the short stories "The Ghost" (Sharpa) by Nazar Eshonqul and "The Burrow" (Mutahham) by Franz Kafka, two prominent figures of modernist literature. The analysis focuses on the similarities and differences between the symbolic elements used by both authors, delving into the subtle stylistic nuances unique to their creative work. The article also reviews critical perspectives and scholarly opinions on their literary contributions. In conclusion, it discusses how these stories reflect the internal emotions of contemporary individuals and examines their impact on modern society.

Key words: Nazar Eshonqul, Franz Kafka, symbolic imagery, ghost, bird, scoundrel ("The Burrow"), protagonist, literature, society.

Adabiyot bu ko'ngillarning kalitidir. Uning qudrati cheksiz. Har bir adabiyotni o'qib o'rgangan inson o'zida katta o'zgarishlarni seza boshlaydi. Albatta adabiyotning bir qancha turlari mavjud. Shulardan biri bu modernizm adabiyoti hisoblanadi. Bu adabiyot insonning ichki o'y hamda kechinmalarini o'zaro tahlil qiladi. Bu yo'nalishga bir tushgan ijodkor yoki kitobxon boshqa yo'nalishda ijod qilishni yoki kitobxon esa boshqa janrdagi asarlarni o'qishni xohlamay qolishi hech gap emas. Dastlab, modernizm tushunchasiga izoh berib o'tadigan bo'lsak, prof. D.Quronov (va boshq.) tayyorlagan lug'atda shunday deyiladi: «MODERNIZM (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Modernizm o'tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo'nalishlar (ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm va b.) o'ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi.

Modernizm doirasidagi maktab va oqimlar nechog'lik turfa bo'lmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud.

Ana shunday murakkab bir janrda ijod qilgan ijodkorlar haqida so'z borganda o'zbek adibi Nazar Eshonqul hamda Pragalik ijodkor Frans Kafkaning ijodini eslamay o'tishning iloji yo'q, albatta.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti professori Bahodir Xoliqov ijodkor haqida shunday fikrlarini bildirgan: “Nazar Eshonqul asarlari orqali Yevropa, shuningdek, Lotin Amerikasi yozuvchilarining asarlarini ham toʻgʻri tushunish, ularning asarlarini anglash, his etish imkoniyatiga ham ega boʻlamiz”. Chindan ham, yozuvchi nafaqat o'zbek kitobxonni tafakkur kengliklarini boyitadigan adabiyot yaratdi, shuningdek o'z ijodi bilan jahon adabiyotida mavjud ramz va timsollar orqali asar mazmunini tahlil etish tamoyillarini o'zbek adabiyotiga ham ko'chirdi.

Kafka jahon modern adabiyotining eng yirik figuralaridan bo'lib, uning asarlarida voqealarning mubolagʻali va ramziy tasvirlari orqali insonning nodonlik va jaholat qarshisidagi fojiaviy ojizligi aks ettirilgan. Ularda qonun va inson, nur va zulmat mavhumlik holatida berilgan, bu holatdan qutilishning iloji topilmaydi. Ijodi 20-asr Gʻarb adabiyotiga kuchli ta'sir koʻrsatgan.

Nazar Eshonqulning “Sharpa” hikoyasida inson o'zaro ichidagi shaytoni hamda iymoni bilan kurashi tasvirlangan. Shayton – sharpa timsolida gavdalangan bo'lsa, iymon – qush obrazi orqali kitobxonga taqdim etilgan. Bu timsollar hikoya davomida qahramonning oldidan sira ham ketmaydi. Ya'ni, insonning yomon hislatlari ham yaxshi hislatlari ham doimo u bilan birga yashaydi. Insonlar paydo bo'lganda sharpaning ko'rinmay qolishida ham ma'no bor. Nima uchun sharpa aynan boshqa insonlarga emas, faqatgina qahramonning o'ziga ko'rinadi va nega hattoki eng yaqin do'stiga ham bu narsa sezilmadi? Buning javobi oddiy, aslida sharpa aynan qahramonning o'zi. Sharpaning boshqalar ko'ziga ko'rinmay faqat qahramonning o'zigagina ko'rinishi esa insonlar doimo ikki yuzli bo'lishining yaqqol ifodasidir. Insonlar boshqa insonlarning oldida sharpa ko'rinishidagi asl yuzlarini yashirishadi-yu, lekin bir o'zlari qolganda sharpalari paydo bo'ladi. To'g'ri, hikoya davomida qahramon sharpa bilan kurashish maqsadida qushning tasvirini devorlarga chizdi. Qush esa iymoni, vijdonining timsoli hisoblanadi.Lekin ming afsus bo'lsinki, bu qush sharpa bilan bo'lgan jangda yengildi. Ya'ni, shaytonga o'zi xohlamagan holda yengildi.

Frans Kafkaning “Muttaham” hikoyasi esa badiiy hayotni real tasvirlagani bilan ham ajralib turadi. Hikoyaning nomidan ham anglashimiz mumkinki, muttaham bu yaxshi inson emas. Aslida muttaham kim? Mutahham bu har birimizning ichimizda yashovchi va gunoh ishlarga undovchi shaytondir. Ushbu hikoyada aynan shu masala yuzasida gap boradi. Mutahham bosh qahramon bilan ergashib yuradi va uni tark etishni xohlamaydi va mana shu narsa shayton bizni tashlab ketishni xohlamayotganini va gunoh ishlarga chorlayverishini ko'rsatib turibdi.

Ikki hikoyani o'zaro solishtiradigan bo'lsak, ikkalasi ham juda ajoyib tarzda kitobxonlarga taqdim etilgan. Aslida shayton har birimizning ichimizda yashaydi. U har doim ham yuzaga chiqavermaydi va birozgina vijdoni bor insonning ich-etini yeya

boshlaydi. Biz ham u bilan kurashamiz va ming afsuski hikoyadagi qahramonlar kabi unga o’zimiz xohlamagan holda yengilganimizni bilmay qolamiz. Xo’sh, aslida bunga kim aybdor ? Bizmi yoki bunga majbur qiluvchi ikkiyuzlamachilar jamiyatimi? Aynan hozirgi kunga kelib insonlarning ikkiyuzlamachilik qilishlariga qaysidir ma’noda jamiyatning ham hissasi bor deb o’ylayman. Hozirgi kunga kelib, aynan laganbardor kishilar hayotda, ishda yutuqlarga ega bo’lmoqdalar. Aynan mana shuning natijasida insonlar ichidagi iymon ham yo’qolib, hayot uchun murosasiz kurashlar paydo bo’lmoqda va bu haligacha davom etmoqda. Bularning oxiri bormikan? Qachon insonlar sharpalaridan qutila olisharkan? Agar hayotimiz mana shu tarzda davom etsa, yana ko’p yillar davomida, balki umrimizning oxirigacha sharpa biz bilan qoladi. Devorga chizilgan qush misoli yengilib bormoqdamiz. Sharpa va muttahamlarimiz bizni o’z og’ushiga tortib, zulmatga qarab chorlamoqda. Bu esa achinarli holat. Bugungi kunda insonlar sharpa va muttahamlari o’zlari bilan birga yashashiga ancha o’rganib qolishgan va hattoki bundan uyalmay ham, tortinmay ham qo’yishgan. Bugungi kun haqiqatlarini bunchalik ochiqchasiga ko’rsatib berish ham hammaning qo’lidan kelmaydi. Ammo shunday jasoratga erishgan bu ijodkorlarimizning asarlarini hamda hikoyalarini kimdir achinish bilan o’qisa, yana kimdir nafrat bilan o’qiydi. Har bir kitobxonga, har bir insonga turli xil ta’sir o’tkazadi. Haliyam sharpa va muttahami bilan kelishib ketolmagan insonlar achinish, yaxshi kelishib ketgan va hattoki do’st bo’lib ketganlari esa nafrat bilan va hattoki beparvolik bilan bu hikoyalarni qabul qilishlari mumkin. Buni esa har kimning o’z ixtiyoriga qoldiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Ulug’bek Hamdam. Jahon adabiyoti. Modernizm va Postmodernizm. – Toshkent.

Akademiknashr.2020. 7-bet

2. Xoliqov B. Nazar Eshonqul asarlari tahlili: modernizm va milliy an’ana // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018-y. 45-50-bet

3. Qozoqboy Yo’ldosh. Badiiy tahlil asoslari.Kamalak.- Toshkent, 2016-y. 168-bet

4. D.Quronov. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademik nashr. – Toshkent, 2013-y.

178-bet.

© Mirzayeva Shaxzoda Nodirbek qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Mirzayeva Shaxzoda Nodirbek qizi

SHARQNING IKKI BUYUK JADIDI ASARLARIDA G'OYALAR MUSHTARAKLIGI

Suhrob Ochilov,

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

***Ilmiy rahbar:** f.f.f.d. (PhD) Payzullayeva R.M.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadidchilik g'oyalari asoschisi Ismoilbek Gaspiralining “Dorur-Rohat musulmonlari” hamda Turkiston jadidlari otasi Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramalari badiiy tahlilga tortiladi. Garchi bu ikki asar ikki janrda — biri utopik (Dorur-Rohat musulmonlari), ikkinchisi achchiq realistik mazmunda yozilgan bo'lsa-da, har ikkalasi ham ma'rifat targ'ibotida bir g'oya ostida birlashadilar. Biri musulmon ahliga taraqqiyot yo'lida dunyoviy bilimlar ham kerakligi, ikkinchisi esa bilimsiz kishining tafakkur ko'zlari so'qir bo'lishini ikki xil jamiyat timsolida bayon qiladi.

Kalit so'zlar: Qirim-tatar ma'rifatchisi, Jadidchilik harakati, Turkiston, Andaluz, hur fikr, Usuli jadid, muqaddamatul-ulum.

COMMON IDEALS IN THE WORKS OF TWO GREAT MAGICS OF THE EAST

Abstract: This article analyzes the artistic dramas "Dorur-Rohat Muslims" by Ismailbek Gaspirali, the founder of Jadidism, and "Padarkush" by Mahmudkhoj Behbudi, the father of Turkestan Jadidism. Although these two works are written in two genres - one is utopian (Dorur-Rohat Muslims), the other is bitterly realistic, both are united by the same idea of propagating enlightenment. One shows that Muslims need secular knowledge for progress, and the other shows that an ignorant person's thinking eyes are blind, representing two different societies.

Key words: Crimean Tatar enlightener, Jadid movement, Turkestan, Andalusia, free thought, Usuli Jadid, preface to theology.

ОБЩИЕ ИДЕАЛЫ В РАБОТАХ ДВУХ ВЕЛИКИХ МАГИОВ ВОСТОКА

Аннотация: В данной статье анализируются художественные драмы «Мусульмане Дорур-Рохат» Исмаилбека Гаспирали, основателя джадидизма, и «Падаркуш» Махмудхожа Бехбуди, отца туркестанского джадидизма. Хотя эти два произведения написаны в разных жанрах — одно утопическое («Мусульмане Дорур-Рохат»), другое — горько-реалистичное, — оба объединены одной и той же идеей распространения просвещения. Одно показывает, что мусульманам для прогресса необходимы светские знания, а другое — что невежественный человек слеп, представляя два разных общества.

Ключевые слова: крымскотатарский просветитель, джадидское движение, Туркестан, Андалусия, свободомыслие, Усули Джадид, мукаддаматул-улум.

Har bir xalqning adabiyotida uning madaniyati, etnografiyasi, millatning ruhi, dunyoqarashi, xalqning tarixi ham aks etadi. Turkiy xalqlar adabiyotida jadidchilik adabiyoti turkiy xalqlarning sobiq sovet Ittifoqi ta’siri ostidagi murakkab bir jarayonida shakllangan bo‘lib, unda millatning o‘zligini anglashi, milliy ruhni saqlashini istash, yurtni ma’rifatli, madaniyatli, hur fikrli, erkin va bemalol tafakkur yuritishiga undovchi g‘oyalar ilgari surilgan.

Jadidlar o‘zlarigacha bo‘lgan murakkab vaziyatlarni juda yaxshi anglagan, ularni tag mazmunini tushungan holda hukumatga qarshi ojiz xalq tomonidan ko‘tarilgan qo‘zg‘olon harakatlari samarasiz va quruqdan quruqqa qon to‘kishdan boshqa narsa emasligini anglab yetgan edi. Endi ular chetdan qaraganda nisbatan tinch, ammo puxta va samarali yo‘lni tanladilar. Ular mustamlakachilarga qarshi xalqni tafakkur va ma’rifat bilan qurollantirmoq yo‘lini tutdi. Albatta bu yo‘l ham qo‘zg‘olon va ochiqcha harakatlardan ko‘ra xatarsiz emasdi. Aksincha, bir qadar murakkab va mashaqqatli edi. Chunki mustabid tuzumning yo‘l-yo‘rig‘iga ko‘r-ko‘rona ergashadigan, fikrlab ham ko‘rmasdan itoat qiladigan jamiyat shakllanib qolgan edi. Hukumat tepasiga kelgan Stalin o‘zini go‘yo o‘zidan oldingi hukumatdan adolatliroq va oddiy xalq tarafdori qilib ko‘rsatgan bo‘lsa-da, aslida u ham o‘zigacha bo‘lgan siyosatning g‘oyaviy davomchisi edi. Stalin shunchaki o‘sha manzilga boshqa yo‘ldan borishni tanladi, xolos. Ammo maqsad Turkistonni doimiy o‘z ta’sirida ushlash va hukumat manfaatlari yo‘lida foydalanish edi. O‘ta kuchli tazyiq va bosimlardan keyin ozroq yengillikka erishgan xalq Stalinni avliyo darajasiga ko‘tardi. Muhammad Yusuf o‘zining “Qora quyosh” dostonida urushdan qaytgan otaning fikrini bayon qilar ekan:

“Sen nima bilasan, Farzandi nodon,

Urushdan yurtingni asrab qoldi kim!?” — deya Stalinni ulug‘laydi. Bunday otalar kam emasdi. Shunday vaziyatda insonlar tafakkurini uyg‘otish, ularga haqiqatni ko‘rsatish ularni yo‘ldan ozdirish bo‘lib ko‘rinardi.

“Hurmatli yurtdoshlar,

Aziz boshingizga,

Stalin — o‘zingiz topgan musibat!” — deydi Muhammad Yusuf “Qora quyosh”ning keyingi o‘rinlarida.

Jadidchilik harakati shunday murakkab vaziyatda yuzaga chiqdi. Bu jamiyat avvalo qirim-tatar xalqlari orasida ildiz ota boshlagan bo‘lsa-da, uni davom ettirish va rivojlantirish uchun yetarli harakat va ma’naviy sharoit bo‘lmagan. Ammo qirim-tatar

maʼrifatchisi Ismoilbek Gaspirali boshlab bergan bu harakat Turkiston oʻlkasida keng yoyilgan jadidchilikka gʻoyaviy ozuqa boʻlib xizmat qildi. Ismoilbek Gaspirali birinchi boʻlib “usuli jadid” maktabini tashkil qildi. 1883-yil 10-aprelidan boshlab esa Boqchasaroyda oʻzining hur fikrlik gʻoyalari bilan sugʻorilgan “Tarjumon” gazetasini joriy qildi va oʻzining jadidona gʻoyalarini yoritib borgan. (Gaspirali “Tarjumon”ga qadar ham bir nechta vaqtli oynomalar va roʻznomalar yoʻlga qoʻygan. Ammo ularning faqatgina nomlari bizga qadar yetib kelgan, xolos) Bu gazeta butun jadidchilik harakatining matbuotdagi ilk qadami edi.

Bu paytda Gaspiralining gʻoyalarini jadal davom ettirgan Turkiston jadidlari shakllandi. Jumladan, “Turkiston jadidlari otasi” nomi bilan sharaflangan Mahmudxoʻja Behbudiy Samarqandda jadidchilikning asosiy homiysi va rahnamosi boʻldi. Gaspiralining “Tarjumon”i taʼsirida Behbudiy tashabbusi bilan Samarqandda avval “Samarqand” gazetasi, keyin esa “Oyina” jurnalini yoʻlga qoʻydi.

Bundan tashqari jadidchilikning bu ikki buyuk dargʻalari badiiy asarlar ham yozib, xalqni maʼrifat sari yetaklagan. Biz ikki adibning ikki xil yoʻnalishda, ammo bir maqsadda – maʼrifatni targʻib qilish maqsadida yozilgan Ismoil Gaspiralining “Dorur-Rohat musulmonlari” hamda Behbudiyning “Padarkush” dramalarini tahlilga tortdik. Garchi bu asarlar biri utopik (“Dorur-Rohat musulmonlari”) mazmunda, yana biri achchiq realistik (“Padarkush”) gʻoyalar bilan yaratilgan boʻlsa-da, har ikkalasi ham jamiyatdagi qoloqlik va ilmsizlikning oqibatlari haqida soʻz yuritadi.

“Dorur-Rohat musulmonlari” asari Toshkentlik sayyoh yigit Mulla Abbos tilidan bayon qilinadi va Andaluz (Ispaniya) oʻlkasidagi sarguzashtlari asosida yoziladi. Ammo Mulla Abbos shunchaki badiiy toʻqima qahramon boʻlishi ham mimkin. Ismoil Gaspiraliga “Mulla Abbosning rostan ham Toshkentlikmi? Toshkentlik boʻlsa, aynan qaysi manzildan” – degan mazmunda yoʻllangan savollarga uning rostan ham Toshkentlik ekanligini yozadi, biroq uning aniq manzilini bilmasligini “Tarjumon” gazetasi orqali javob beradi. Mulla Abbos Andaluz yurtini gʻoyat yuksak taʼriflaydi. Turkiston oʻlkasida taʼlim faqatgina diniy majmualar bilan cheklanib qolib, dunyoviy rivojlanishdan ortda qolayotganini, dunyoviy ilm ham kerakligini, dunyoviy fanlar imon va eʼtiqodga putur yetkazmasligini Andaluz islomiy mamlakati qiyosida qiyoslab koʻrsatadi.

Asardagi bosh qahramonlardan biri boʻlgan Shayx Jalol biz uchun musulmonlarning koʻzini ochish vazifasini olgan ramziy obraz deyishimiz mumkin. Aynan Shayx Jalol tilidan aytilgan “Xotiringga qoʻrquv kelmasin. Qorongʻu yer ostidan nurli, yorugʻ bir diyorga chiqamiz!”– degan iqtibosi uning vazifasi “nurli diyor” sari – ilm-u maʼrifat sari yetaklash ekanligiga ishora qiladi. Yaʼniki, bu jumla ostida zulmatdan qoʻrqmay, sabr ila oldinga yurilsa, maʼrifat ziyosi birla yorishga diyorga chiqajagiga ishora qiladi goʻyo.

O‘z yurtida bir qadar yetuk va ziyoli sanalgan, Fransiyada fununi jadida (yangi ilmlar)ni o‘rganib, o‘z darajasidan mamnun bo‘lgan Mulla Abbosni Shayx Jalol Dorur-Rohatdan kelgan o‘n ikki qizga: “Mamoliki afranjiya (Yevropa mamlakatlari) kabi mamoliki islomiya (Islom mamlakatlari)da ham (zamoni hozirada g‘aflat uyqusida va daryoyi qorong‘uda bo‘lsa-da) ba’zi muqaddamatul-ulum (boshlang‘ich ma’lumot) va funun (ilm) tahsil etilib, ba’zi musulmonlar ozmi-ko‘pmi o‘qiydilar va o‘lkalarida ulug‘ ulamo va bilimli hisob qilinadilar. Ko‘rib turganingiz Abbos afandi ham Toshkentda, so‘ngra Parijda ancha tahsil olgan bir odam…” – deya Abbosning ta’biricha “…bir nodon va badaviy” sifatida…” tanishtirishining o‘ziyoq Dorur-Rohat yurtining taraqqiysi haqida yetarlicha tasavvur uyg‘otadi.

Dorur-Rohat yo‘lidagi ilk taraqqiy hayratlaridan biri elektr chiroqlari edi. Mulla Abbos hayratini yashirolmay: “Shu paytgacha diqqat qilmagan ekanman. Fonarlar o‘zlari yonardi. Pilik, sham yoki yog‘i yo‘q! Ham taralayotgan ziyo, bilgan va ko‘rgan fonarlarimizning ziyosiga o‘xshamasdi. Bu fonarlar elektr quvvatiga to‘la bo‘lib, dunyomizda hali ko‘rilmagan bir ustonmonlik bilan yasalgan narsalar emish!” – deydi. Ko‘rib turibmizki, Fransiya – Parijda hayrati bu qadar bo‘lmagan Abbos bundan ne qadar hayratga tushmoqda. Ahli Islom bo‘lgan mamlakatlarda bunday yangilik Mulla Abbos uchun haqiqatda hayratga solgulik edi. Mulla Abbosga yo‘lboshchi qilib saylangan Faridabonu Dorur-Rohat yurtining yaralishi haqida gapirib berarkan, sayyohning hayrati yanada oshadi. Faridabonuning hikoyati jannatmakon Andaluz o‘lkasining inqirozga yuz tutishi va ahli muslimning yangi, toza, sog‘lom muhit shakllangan o‘lkaga ehtiyoji haqida edi. Faridabonu: “…Talofatimizga sabab bo‘lgan og‘u va zahar ham, joni saodatimizga sabab bo‘lgan quvvayi ma’naviy ham vujudimizdadir. To‘g‘rilik va nafsoniyat, haqquniyat va zulm, marhamat va g‘addorlik, tanballik va g‘ayrat, ilmga muhabbat va jaholatga mayl, mardlik va olchoqlik, bahodirlik va qo‘rqoqlik barchasi insonga xos…”– deya Andaluzning falokatini bayon qiladi.

Insonlar qayerda va qanday sharoitda bo‘lishi uning hayotidagi asosiy muammo emas, aksincha, u o‘z olamida halovat topmasa, iymoni zaif bo‘lsa, o‘z nafsini idora eta olmasa, ana u eng og‘ir dard va bu davosizdir. Holbuki, ayni hozirgi, ya’ni, Faridabonu tasviri bayon qilgan Andaluz o‘lkasi ham Mulla Abbos nazlida “…bir muqaddas mamlakat. "Qit’ayi Andaluz" - deymiz. Yuksak madaniyatga erishgan orazi mashhura va shoyoni ziyorat…” edi. Bu o‘lkaning taraqqiysi va ma’rifatiga nafaqat sof iymon, balki dunyoviy bilimlardan ham xabardor ekanligi asosiy sabablardan edi. Yurtda xuddi Yevropa – Andaluz, Olmoniya kabi elektr chiroqlari yo‘llarni yoritib turardi. Bu paytdagi islomiy o‘lka – Turkistin bilan qiyoslash imkonsiz edi. Insonlarning bir-biriga bo‘lgan hurmati hamda ishonchi ham Rohat xalqining halovatiga sababchi edi.

Biz qisqa tahlil doirasida koʻrib chiqqanimiz Gaspiralining utopik ruhda yozilgan “Dorur-Rohat musulmonlari” asari edi. Endi esa Turkiston jadidlaridan Behbudiyning achchiq realistik dramasi – “Padarkush”ning tahliliga nazar tashlasak.

“Padarkush” dramasi 3 pardali, hajman katta boʻlmagan asar boʻlsa-da, oʻz davrining eng ogʻir ijtimoiy hayotini yoritishga bagʻishlangan. Asardagi bosyning oʻgʻli Toshmurod oʻz uyiga oʻgʻrilikka tushishi yoki oʻz otasining oʻlimida asosiy aybdorlardan biri sifatida yoritilganiga bosh muammo sifatida qarash nooʻrin. Bu muammo asarning zohiriy tugunidir. Lekin asarning asl tuguni boyning ilm-u urfon bobidagi qarashlari, qoʻlidagi mol-mulkiga eʼtimod bogʻlashi, uning oʻgʻli tarbiyasidagi loqaydlik bilan yoʻl qoʻyilgan xatolari edi. Toshmurodning otasidan tomosha uchun pul soʻraganda boyning nasihatomuz soʻzlariga nisbatan bergan qoʻrs va tarbiya doirasidan chiqqan javobi[1] bilan ham izohlash mimkin.

Boy huzuriga kelgan va uning fikrlari notoʻgʻri ekanligini aytgan Domullo obrazi esa ayni paytda jadidlarning timsoli edi deyishimiz mumkin: “Chilen va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni koʻzi ochilgungchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni boʻlsa, barcha xalq izzat qilur, yaʼni mulloni ilmi izzat qilinadur.”[2]

Boyning bilimga xato yondashuvi va maʼnaviyatsiz dunyoqarashi, farzandini hammadan ortiq darajada moddiy taʼminot qilsa-da, uning maʼnaviyasiga beeʼtibor boʻlganligi uning asl kulfatiga zamin hozirlaydi. Toshmurod boʻlsa, har narsaga oson erishgan, gapi qaytmagan gʻoʻr bola edi. Bu esa undan istagan odam foydalana olishi uchun yetarli edi. Toshmurodning ulfati boʻlgan Tangriqul aynan oʻsha imkoniyatdan foydalanadi va Toshmurodning otasi – boyning qotiliga aylanadi. Toshmurod boʻlsa ayni qotillik joyida boʻladi va bu jinoyatga sharoit yaratib bergan asosiy shaxs edi. Hali oʻsmir (15-17) yoshda boʻlgan Toshmurod mayxoʻrlik va aysh davralariga qoʻshilib qolishi, otasining nazlida uni hech kimdan kam qilmaslik uchun berayotgan pullarini nomaqbul va xarom yoʻllarga sarflashi maʼrifatga yot fikrli boyning fojiasiga olib keldi.

Xulosa qiladigan boʻlsak, jadidlar – Gaspirali hamda Behbudiyning bu ikki buyuk asarlari turkiy adabiyot maydonidagi eng yuksak asarlardir. Ismoilbek Gaspiralining “Tarjumon”i, Mahmudxoʻja Behbudiyning “Samarqand” va “Oyina”si jadidlarning gʻoyalarini xalqqa targʻibot qilishda eng asosiy vositalar edi. Ijodkorlarning ijtimoiy hayotga munosabati, maʼrifatsizlikning jamiyatdagi chuqur izlarini bilgan holda, xalqni uygʻotishga, tafakkurini rivojlantirishga turtki beruvchi gʻoyalari nafaqat bu ikki asar, balki har ikki adibning butun boshli ijodiyoti, jadidlarning barchasida shakllangan millatni maʼrifat sari yetaklovchi fikrlari oʻz ifodasini topgan. Bugungi kun jamiyati uchun “Dorur-Rohat musulmonlari” asaridagi Andaluz yurtining qismati hamda “Padarkush” asaridagi tafakkursiz boy va ilmsiz oʻgʻilning fojialari xulosa chiqarish uchun turtki boʻlmogʻi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/muhammad-yusuf-qora-quyosh-doston.html?utm_source=perplexity
2. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/ismoilbek-gasprinskiy-1851-1914-qrim
3. İSMAİL GASPIRALI, FİKİRLERİ DÜŞÜNCELERİ VE FAALİYETLERİ – Deniz DEVELİOĞLU
4. XX asrning turkiy dunyoning ikki buyuk intellektuali Ismail Gasprnskiy va Mahmudhoʻja Behbudiy - Zaynobidin ABDIRASHIDOV
5. ИСМОИЛБЕК ГАСПРИНСКИЙ (ГАСПРАЛИ) — ҲАЁТ ВА МАМОТ МАСАЛАСИ (Танланган асарлар). ТОШКЕНТ «МАЪНАВИЯТ» 2006
6. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкент «МАЪНАВИЯТ» — 1999

1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкент «МАЪНАВИЯТ» — 1999 [40-bet] ↑

2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкент «МАЪНАВИЯТ» — 1999 [41-bet] ↑

© Ochilov Suhrob, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ochilov Suhrob

YOPIQ MAKON VA TIZIM TO‘QNASHUVI ORQALI INSON FOJIASI TALQINI

(XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “JIMJITXONAGA YO‘L” VA DINO BUSATINING “YETTI QAVAT” ASARLARI MISOLIDA)

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Filologiya va tillarni o’qitish: O’zbek tili ta’lim yo’nalishi

3-kurs 1-guruh talabasi

Badiritdinova Gavhar Muhitdin qizi

Ilmiy rahbar: Kobulova Nodira Bahodirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada modernizm oqimining kelib chiqishi, uning Yevropa va o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolada o‘zbek modern adabiyotining milliy zamin va ijtimoiy-psixologik omillar negizida shakllangani, G‘arb andozalaridan farqli o‘laroq, o‘zbek insonining ruhiy olamini aks ettirishi tahlil qilingan. Tadqiqot markazida taniqli yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning "Jimjitxonaga yo‘l" hikoyasi va italyan adibi Dino Butssatining "Yetti qavat" asari o‘rtasidagi tipologik o‘xshashliklar va farqli jihatlar yoritiladi. Xususan, "yopiq makon", "tizim va shaxs to‘qnashuvi", "ruhiy evrilish" hamda "o‘limga munosabat" kabi falsafiy kategoriyalar qiyosiy tahlil etilib, Sharq va G‘arb ijodkorlarining insoniy qismatga yondashuvidagi farqlar ilmiy xulosalangan.

Kalit so’zlar: Modernizm, realizm, Xurshid Do‘stmuhammad, Dino Bussati, “Jimjitxonaga yo‘l”, “Yetti qavat”, yopiq makon, ruhiy psixologizm, ramziylik, Sharq va G‘arb falsafasi.

ОБЪЯСНЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ТРАГЕДИИ ЧЕРЕЗ СТОЛКНОВЕНИЕ ЗАМКНУТОГО ПРОСТРАНСТВА И СИСТЕМЫ

Аннотация: В данной статье исследуются истоки модернизма, его специфические проявления в европейской и узбекской литературе. Анализируется формирование узбекского модернизма на основе национальных и социально-психологических факторов, подчеркивается его самобытность в отражении духовного мира узбекского народа. Основное внимание уделяется сравнительному анализу рассказа Хуршида Достмухаммада «Путь к обители безмолвия» и произведения итальянского писателя Дино Буццати «Семь этажей». Рассматриваются такие философские категории, как «замкнутое пространство», «конфликт системы и личности», «духовная трансформация» и «отношение к

смерти». Выявляются различия в подходах восточных и западных авторов к трактовке человеческой судьбы.

Ключевые слова: Модернизм, реализм, Хуршид Достмухаммад, Дино Буццати, «Путь к обители безмолвия», «Семь этажей», замкнутое пространство, психологизм, символизм, философия Востока и Запада.

EXPLANATION OF HUMAN TRAGY THROUGH THE COLLISION OF ENCLOSED SPACE AND SYSTEM

Annotation: This article explores the origins of modernism and its specific manifestations in European and Uzbek literature. It analyzes the formation of Uzbek modern literature based on national socio-psychological factors, emphasizing its unique way of reflecting the spiritual world of the Uzbek people. The research focuses on a comparative analysis of Khurshid Dostmuhammad's story "The Path to the House of Silence" and Italian writer Dino Buzzati's "Seven Floors." Philosophical categories such as "closed space," "conflict between system and individual," "spiritual transformation," and "attitude toward death" are examined. The article concludes by highlighting the differences between Eastern and Western literary approaches to human destiny and existential crisis.

Keywords: Modernism, realism, Khurshid Dostmuhammad, Dino Buzzati, "The Path to the House of Silence", "Seven Floors", closed space, psychological analysis, symbolism, Eastern and Western philosophy.

Modernizm – dastavval insonlarning ong-u shurida, keyinchalik tasviriy san'atda va nihoyat XX asr boshlarida tom ma'noda adabiy oqim sifatida Yevropa adabiyotida vujudga keldi. Shunday bo'lsada ba'zi olimlar modernizmni paydo bo'lishi haqida turlicha fikrlarni ilgari surishadi.

O'zbek adabiyotidagi yangi (modernnoma) adabiyot kayfiyatiga Yevropa modern adabiyotining oz-moz ijodiy ta'siri (ko'proq shakliy ma'noda) bor, albatta, lekin u mohiyat-e'tibori bilan Sharq, xususan, o'zbek insoni dunyoqarashidagi ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar negizida tug'ildi. Shunga ko'ra, yangi (modern) o'zbek adabiyoti milliy zaminda ildiz otgan bo'lib, u Yevropa modern adabiyotidan ko'chirilgan nusxa yoki unga taqlid emas deyish mumkin. Adabiy shakllar asosan tashqaridan – o'zga xalqlar adabiyotlaridan qabul qilingani ham haqiqat: roman, drama va yangicha she'r shakllari shular jumlasidan. XX asr adog'i va XXI asr boshi o'zbek ijodkori badiiy-estetik tafakkur tarzidagi yangilanishlar esa bir qadar boshqacha tabiatga ega. Bunda shakl va mohiyatning o'zi ichkaridan yorib chiqdi. Demak, tashqaridagi adabiyotga ergashishning hissasi o'ta salmoqli bo'lmagan. Shunga ko'ra, uni tom ma'noda o'zbek modern adabiyoti va yoxud G'arb modernizmiga taqlidan yaratilgan adabiyot deyish anchayin bahstalab bo'lib, bu boradagi izlanishlarning asosiysi hali oldinda. Hozir anglanib turgan

haqiqat shuki, oʻzbek modern adabiyoti Gʻarbning muayyan modernistik shakllaridan ta'sirlanib, ayni paytda, oʻz hayoti ma'nolarini tushunishga, talqin qilishga urinayotgan adabiy hodisadir

Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, modernizm oʻzbek adabiyoti uchun ham yot hodisa emas, bil'aks, u ham koʻpdan koʻp yoʻnalishlar kabi yurtimiz ijodkorlari badiiy tafakkur tarziga oʻz ta'sirini koʻrsatib kelayotgan adabiy oqimlardan biridir. [1.]

Adibning “Jimjitxonaga yoʻl” asari — zamonaviy oʻzbek adabiyotida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va jamiyat bilan ziddiyatlarini chuqur tahlil qiluvchi psixologik hikoya hisoblanadi. Asarning qisqacha mazmuni haqida to'xtalsam: asarda bosh qahramonning ichki dunyosi, uning yolgʻizlik, tushunilmaslik va ruhiy bosim ostidagi holati tasvirlanadi. Asarda qahramonlar an'anaviy ma'nodagi aniq “harakat qiluvchi obrazlar”dan koʻra, koʻproq ruhiy holat, ichki kechinma va falsafiy izlanishlarni ifodalovchi obrazlar sifatida beriladi. Shu sababli asardagi qahramonlar koʻpincha umumlashtirilgan va ramziy xarakterga ega. “Jimjitxona” — bu oddiy joy emas, balki ramziy ma'noda insonning ichki sukuti, ruhiy chekinishi, jamiyatdan uzoqlashuvi ifodasi sifatida beriladi. Qahramon hayotning ma'nosi, insoniy qadriyatlar va oʻz “men”ini anglash yoʻlida izlanadi.

Asarning asosiy gʻoyasi: inson ruhiyati murakkab va koʻp qatlamli jamiyat va shaxs oʻrtasidagi ziddiyat mavjud. Yolgʻizlik ba'zan ichki haqiqatni anglashga olib keladi

Asardagi asosiy muammo: asar insonning jamiyatda oʻz oʻrnini topa olmasligi, ruhiy begonalashuv muammosini koʻtaradi. Bu jihatdan u zamonaviy adabiyotdagi global muammolar bilan hamohang.

Xulosa, “Jimjitxonaga yoʻl” — insonning ichki olamiga sayohat qiluvchi, oʻquvchini oʻylashga majbur qiladigan chuqur ma'noli asar. U faqat voqeani emas, balki ruhiy jarayonlarni tasvirlashi bilan ahamiyatlidir.

XX asr jahon hikoyachiligining betakror namoyandalaridan biri italyan adibi Dino Butssatidir.

Jahon adabiyotini puxta biladigan yozuvchilarimizdan biri, filologiya fanlari doktori Xurshid Doʻstmuhammad bir hikoyasini Dino Butstsatining “Yetti qavat” hikoyasiga tatabbu tarzida yozgani adabiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum.

Dino Butsattining “Yetti qavat”da Bemor Juzeppe Korte yetti qavatli zamonaviy shifoxonaga davolanish uchun keladi. Bu shifoxonaning oʻziga xos tartibi bor: yuqori (7-qavat) — yengil kasallar uchun, eng pastki (1-qavat) — umidsiz, oʻlim yoqasidagi bemorlar uchun. Korte dastlab yuqori qavatga yotqiziladi, ammo turli "texnik xatolar", tushunmovchiliklar va byurokratik sabablar tufayli uni qavatma-qavat pastga tushira boshlashadi. Qahramon dastlab kasalxonaga oddiy tekshiruv uchun keladi. Ammo u

asta-sekin kasalxona tartib-qoidalariga bo‘ysundiriladi. Qavatdan qavatga tushirish jarayoni go‘yoki mantiqan asoslangandek tuyuladi, lekin aslida bu jarayon ortida tushunarsiz, nazorat qilib bo‘lmaydigan tizim yashirin. Qahramon bu tizimga qarshi kurasha olmaydi, hatto uning mohiyatini to‘liq anglay ham olmaydi.Shifokorlari ham rosa tajribali deyishgandi, ana, binosidan sezilib turibdi. Jozeppe Korte malakali vrachlarning maslahatini jon qulog‘i bilan tinglaydi, nimaki tavsiya qilinsa, hammasini jon-jon deb ado etadi.

Yuqorida keltirilgan ikkala asarlarni qiyoslab solishtirsam, yopiq makon tushunchasi ikkalasida ham o’z ifodasini topgan. Ya’ni yopiq makon shunchaki sahna asari emas, balki inson taqdirini boshqaruvchi yashirin tizim sifatida namoyon bo’ladi. Keltirilgan har bir epizod, detal ham o’z ramzilikka egadir. “Yetti qavat”da: kasalxona-qatlamli tizim ya’ni taraqqiyotga emas, tanazzulga olib boruvchi tuzum, u yerdagi tartib-qoidalar rasmiyatchilik, ma’muriy buyruqbozlik tizimi. Asar zamirida keraksiz qoidalarga boy jamiyat insonlarining o’z ixtiyoridan, shaxsiy tanlovlaridan, xohish-istaklaridan ayiradi va muqarrar halokatga olib boradi degan ma’no yotadi, yuqoridan pastga tushish-hayodan o’limga yaqinlashuv, makon=nazorat+muqarrarlik kabi ramzilik bor. Qahramon qarshilik ko’rsatmayapti emas, ko’rsatyapti, ammo bu qarshilik qancha kuchaysa, jamiyat shuncha kuchsizlantirib boryapti. Jismning sog’lomligi ruhiyatga chambarchas bog’liqligi shu joyda ko’rishimiz mumkin. “Jimjitxonaga yo’l” hikoyasida ruhiy va ijtimoiy ajralish makoni, tashqi jimlik-ichki iztirob, makon-insonning ichki holatining aks-sadosi. Bu eng muhim qismi: qahramonlar tizimni tushunmaydi, qarshilik qilish imkoniyati yo’q, tizim asta sekin ularni yutadi. Adib bu asarida qahramon o’z xohishiga ko’ ra chiqib borishga urg’u beradi. Bu yerda Xurshid Do’stmuhammad xalqimizning tez taslim bo’lishga moyillik xarakterini ochib bermoqchi bo’lgan. Asarlarning yana bir farqi shundaki Korte pastga tushgani sari o’limdan qo’rqib ortiga qaytishni o’ylasa, “Jimjitxonaga yo’l”da Zohid esa yuqorilab o’limga yaqinlashgani sari suyunadi. Shu yerda turli xil e’tiqod vakillarining farqini ko’rishimiz mumkin. Biri uchun mahv etilishi tamom bo’lishini ko’rsa, undan qo’rqsa, boshqasi aynan shu o’limdan adabiy hayotni, azoblardan najot topishni murod-maqsadni ko’radi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Xurshid Do‘stmuhammad. Jimjitxonaga yo‘l. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
2. Dino Buzzati. Yetti qavat (Il deserto dei Tartari va hikoyalar to‘plamidan). – Toshkent: Jahon adabiyoti, 2010.
3. D.Quronov. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademiknashr. – Toshkent 2013 y. 178 bet
4. Ulug’bek Hamdam. Jahon adabiyoti. Modernizm va postmodernizm. – Toshkent. Akademiknashr.2020. 28-bet
5. Qozoqboy Yo’ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Kamalak.- Toshkent 2016-y. 208 bet

© Badiritdinova Gavhar Muhitdin qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Badiritdinova Gavhar Muhitdin qizi

“XAMELEON” ASARI VA BUGUNGI JAMIYAT: O‘XSHASHLIKLAR VA XULOSALAR

Shukurova Sevara

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

I bosqich magistranti

sevarashukurova2025@gnail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Anton Chexovning ijodiga mansub “Xameleon” asari o‘rganildi va bugungi jamiyatdagi o‘xshashlik jihatlari qisqacha yoritildi. Muallif bunday xatti-harakatlarni kulgili, ammo achinarli holat sifatida tasvirlab, o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Shu jihatdan, asar nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun jamiyati uchun ham dolzarb bo‘lib, insoniy fazilatlar, halollik va mustaqil fikrlashning qadrini anglashga undaydi.

Kalit so‘zlar: ikkiyuzlamachilik, mansabparastlik, qo‘rqoqlik, adolatsizlik hokimiyatga, bo‘ysunish, manfaatparastlik.

THE WORK “CHAMELEON” AND TODAY’S SOCIETY: SIMILARITIES AND CONCLUSIONS

Abstract: This article examines Anton Chekhov’s “Chameleon” and briefly highlights similarities in today’s society. The author portrays such actions as humorous but sad, inviting the reader to reflect deeply. In this regard, the work is relevant not only for its time, but also for today's society, encouraging us to understand the value of human qualities, honesty, and independent thinking.

Key words: hypocrisy, careerism, cowardice, injustice to authority, subservience, self-interest.

ПРОИЗВЕДЕНИЕ “ХАМЕЛЕОН” И СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО: СХОДСТВА И ВЫВОДЫ.

Аннотация: В данной статье анализируется пьеса Антона Чехова “Хамелеон” и кратко освещаются сходства с современным обществом. Автор изображает подобные действия как забавные, но в то же время печальные, побуждая читателя к глубоким размышлениям. В этом отношении произведение актуально не только для своего времени, но и для современного общества, призывая нас понять ценность человеческих качеств, честности и независимого мышления.

Ключевые слова: лицемерие, карьеризм, трусость, несправедливость по отношению к власти, покорность, эгоизм.

Kirish. Mazkur hikoya Anton Pavlovich Chekhov ijodining yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda muallif jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy muammolarni satira va realizm uyg'unligida tasvirlaydi. Asar XIX asr oxiridagi ijtimoiy muhitni aks ettirgan holda, insonlarning mansab va hokimiyatga munosabati, qo'rquv va manfaat tufayli o'z fikridan tez voz kechishi kabi jihatlarni ochib beradi. Oddiy voqea asosida qurilgan syujet orqali yozuvchi inson xarakterining murakkab va ziddiyatli tomonlarini yoritadi. Hikoyada ayniqsa qullik psixologiyasi, ya'ni yuqori martabali shaxslarga ko'r-ko'rona bo'ysunish, vaziyatga qarab fikrni o'zgartirish va ikkiyuzlamachilik keskin tanqid qilinadi. Muallif bunday xatti-harakatlarni kulgili, ammo achinarli holat sifatida tasvirlab, o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Shu jihatdan, asar nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun jamiyati uchun ham dolzarb bo'lib, insoniy fazilatlar, halollik va mustaqil fikrlashning qadrini anglashga undaydi.

Mavzular va muammolar. Mazkur hikoyada Anton Pavlovich Chekhov inson tabiatidagi muhim ijtimoiy-psixologik muammolarni badiiy vositalar orqali chuqur tahlil qiladi. Asarda to'g'rilik, xushomadgo'ylik va yolg'onchilik kabi qarama-qarshi axloqiy kategoriyalar o'zaro zid qo'yilib, ularning inson hayoti va jamiyat muhitiga ta'siri ochib beriladi. Muallifning ta'kidlashicha, xushomad va ikkiyuzlamachilik ustuvor bo'lgan muhitda nafaqat alohida shaxs, balki butun ijtimoiy tizim izdan chiqadi, natijada adolat va haqiqat ikkinchi darajaga tushib qoladi. Hikoyada "qullik psixologiyasi" tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Ushbu hodisa jamiyat a'zolarining ongida shu darajada mustahkam o'rnashib qoladiki, ular ko'pincha ochiq-oydin adolatsizlikni anglasalar ham, unga qarshi chiqishga jur'at eta olmaydilar. Buni asardagi olomon obrazida kuzatish mumkin: ular Ochumelovning vaziyatni adolat mezonlari asosida emas, balki yuqori martabali shaxsga yoqish istagi bilan baholayotganini anglaydi, biroq bunga nisbatan faol munosabat bildirmaydi. Bu esa ijtimoiy befarqlik va konformizmning kuchli ekanligini ko'rsatadi. Mazkur muammoning ildizlari sifatida hokimiyat oldidagi qo'rquv fenomeni alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu qo'rquv ko'pincha tarixiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanib, avloddan-avlodga o'tuvchi ijtimoiy xulq-atvor modeliga aylanadi. Natijada shaxs o'z qadr-qimmatini saqlash, mustaqil fikrlash va adolatni himoya qilish kabi muhim fazilatlardan chekinadi. Shunday ekan, muallif ilgari surgan asosiy g'oya - insonning o'ziga sodiq qolishi, axloqiy prinsiplarini yo'qotmasligi va ijtimoiy bosimlarga qaramay, adolatni ustuvor qo'yish zarurligidir.

G'oya va pafos. Anton Pavlovich Chekhovning "Xameleon" hikoyasida g'oyaviy mazmun va pafos masalasi tahlil qilinadi. Satirik pafos - bu badiiy asarda ijtimoiy illatlarni kulgi, istehzo va tanqidiy tasvir orqali ochib berishga xizmat qiluvchi estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Chexov ushbu usuldan samarali foydalanib, jamiyatdagi

axloqiy nomutanosibliklarni yoritadi. Asarda ilgari surilgan asosiy gʻoya inson tabiatidagi salbiy xususiyatlarni, xususan, manfaatparastlik, ikkiyuzlamachilik va mas'uliyatsizlikni fosh etishga qaratilgan. Ochumelov, Eldirin va Xryukin obrazlari orqali muallif shaxsiy manfaatni ustuvor qoʻyish, vaziyatga moslashib pozitsiyani tez oʻzgartirish hamda mehnatdan qochish kabi holatlarni tipik ijtimoiy hodisa sifatida koʻrsatadi. Bu obrazlar individual xarakterdan koʻra, muayyan ijtimoiy qatlamning umumlashgan modeli sifatida talqin etiladi. Hikoyaning badiiy ta'sirchanligi, avvalo, dialoglarning ixchamligi va til vositalarining aniqligida namoyon boʻladi. Muallif qahramonlarni toʻgʻridan-toʻgʻri baholamaydi, balki ularni ziddiyatli va kulgili vaziyatlarda tasvirlash orqali oʻquvchini mustaqil xulosa chiqarishga yoʻnaltiradi. Natijada yuzaga keladigan satirik effekt nafaqat estetik zavq uygʻotadi, balki chuqur ijtimoiy-tanqidiy mazmunni ham oʻzida mujassam etadi.

Bosh qahramonlar majoziy tizimda ularning oʻrni. hikoyada Anton Pavlovich Chekhov obrazlar tizimi ijtimoiy-psixologik tiplarni ifodalashga xizmat qiladi. Asarda markaziy oʻrinda turuvchi Ochumelov, Xryukin va it obrazi voqealar rivojini belgilovchi asosiy badiiy vosita sifatida namoyon boʻladi. Ochumelov obrazi ijtimoiy mansab va tashqi ta'sirga qarab oʻz pozitsiyasini oʻzgartiruvchi shaxs modeli sifatida talqin qilinadi. U adolat mezonidan koʻra, yuqori mavqedagi shaxslar bilan munosabatni saqlashni ustuvor qoʻyadi. Xryukin esa oʻz manfaatini koʻzlagan, vaziyatdan foyda olishga intiluvchi tipik obraz sifatida beriladi. It obrazi esa syujetda bevosita ijtimoiy munosabatlarni aniqlovchi "signal" funksiyasini bajaradi. Yordamchi qahramon Eldirin Ochumelov qarorlarini mustahkamlovchi, mustaqil fikrdan koʻra boʻysunuvni ifodalovchi obraz sifatida koʻrinadi. Olomon esa voqealarga faol aralashmaydigan, ammo ijtimoiy kayfiyatni aks ettiruvchi befarq guruh sifatida tasvirlanadi. Umuman olganda, obrazlar tizimi orqali muallif jamiyatdagi ijtimoiy bosim, axloqiy beqarorlik va "qullik psixologiyasi"ni umumlashtirib koʻrsatadi. Bu esa asarning satirik va tanqidiy yoʻnalishini yanada kuchaytiradi.

Asarda nutqiy xarakteristika asosiy badiiy vosita sifatida namoyon boʻladi. Ochumelovning itga munosabati vaziyatga qarab oʻzgarib turib, uning prinsipial emasligini koʻrsatadi. Olomon nutqidagi sodda ifodalar esa oddiy xalq vakillarining ijtimoiy muhitini aks ettiradi. Ochumelovning rasmiy va byurokratik nutqi uning mansabga bogʻliq tafakkurini ifodalasa, vaziyatga qarab qoʻpol iboralarga oʻtishi ichki ziddiyatini ochib beradi. Xryukin nutqi esa manfaatparastlik va oʻzini oqlashga intilish bilan ajralib turadi.

Asarda tashqi va ichki ziddiyatlar oʻzaro uygʻunlikda berilib, ijtimoiy-satirik yoʻnalishni kuchaytiradi. Tashqi konflikt it va zargar Xryukin oʻrtasidagi voqea asosida yuzaga keladi. Ushbu ziddiyat syujetni harakatga keltiruvchi boshlangʻich omil boʻlib, ijtimoiy muammoni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, markaziy qahramon Ochumelov ushbu vaziyatga aralashar ekan, unda ichki konflikt shakllanadi. Ichki konflikt

Ochumelovning kasbiy burchi -adolatni ta'minlash vazifasi bilan ijtimoiy bosim, ya'ni yuqori mansab egalaridan qo'rquv o'rtasidagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. Natijada uning qarorlari huquqiy-me'yoriy tamoyillarga emas, balki ierarxik munosabatlarga moslashgan holda o'zgarib boradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Anton Pavlovich Chekhovning ushbu hikoyasida konflikt tizimi asarning g'oyaviy-badiiy yo'nalishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Asarda tashqi konflikt it va Xryukin o'rtasidagi voqea asosida yuzaga kelib, ijtimoiy muammoni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, markaziy obraz Ochumelov faoliyati orqali ichki konflikt - kasbiy burch va yuqori mansab egalari oldidagi qo'rquv o'rtasidagi ziddiyat - yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu ikki darajali konflikt jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, mansabga bog'liq munosabatlar va axloqiy beqarorlikni ochib berishga xizmat qiladi. Natijada, muallif satirik tasvir orqali o'quvchini ijtimoiy adolat, halollik va mustaqil fikrlashning ahamiyati haqida ilmiy-tahliliy xulosaga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Masharipova Z. Ifodali o'qish praktikumi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, – 2011. – B.26.
2. Omonturdiyev A.J., Abduraimova Sh.I. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent: 2016. – B.34.
3. Traxler M. Introduction to Psycholinguistics: – Understanding Language Science. Wiley-Blackwell. 2011. – P.112.
4. Волкова Л.С. Логопедия. – Москва: Просвещение, 2015. – С.74.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2018. – С.256.
6. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 2016. – С.81.

© Shukurova Sevara, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT
QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling
Shukurova Sevara

“ҲАЙРАТУ-Л-АБРОР” ҚАҲРАМОНЛАР ОЛАМИНИНГ АСАР СЮЖЕТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

Шарипова Нигора Нуриддиновна

филология фанлари доктори (DSc)

Навоий инновациялар университети

nigora-sharipova@internet.ru

Аннотация: *Мақолада «Ҳайрату-л-аброр»нинг «Ҳамса»нинг кейинги достонларидан тубдан фарқ қилувчи ўзига хос сюжети, поэтик тузилиши, композицион-архитектоник хусусиятлари ҳамда асар сюжетини, асарнинг композицион занжирини ташкил этувчи образлар тизими таҳлилга тортилган, асардаги баъзи азиз авлиёлар образи хусусида мулоҳазалар баён этилган. Достондаги портрет ва образлар ниҳоятда хилма-хил. Ёши, мавқеи, жамиятдаги ўрни, характери нуқтаи назаридан бир-биридан тубдан фарқ қилувчи образлар танланган. Бу эса достон мавзу ва ғояси ниҳоятда ранг-баранглиги, жамиятдаги бирор бир ижтимоий тоифа вакили муаллиф назаридан четда қолмаганлиги, достон аудиторияси кўлами кенглиги, шунингдек, илк достоннинг китобхони бутун халқ эканлигини кўрсатади. Достон композициясидан келиб чиқиб, шунингдек, проф. Н.Маллаев тадқиқотларига таянган ҳолда асардаги образларни достондаги масалаларнинг ривожланишида ва асар қурилишида тутган ўрнига қараб уч гуруҳга ажратиш мумкин: биринчиси – достоннинг бош қаҳрамони Навоийнинг ўзи; иккинчиси –мақолатлар ва мақолатларгача бўлган боблардаги тавсифий образлар – портрет ва характерлар; учинчиси – ҳикоят ва масаллардаги эпик образлар. Бу ноанъанавий тартиб, асосан, асар структурасидан келиб чиқиб белгиланди. Достон таркибидаги ҳикоят ва масаллар, биринчидан, алоҳида асарлар сифатида, иккинчидан, боб ёки мақолат таркибида келтирилиш сабаблари ва достоннинг умумий ғоясига боғловчи ришталар асосида ўрганилди. Бунда Навоий тутган бадиий йўли таҳлил йўналиши сифатида асос қилиб белгиланди. Бу билан, умуман, достоннинг образлар тизими эмас, балки асар сюжети таркибида иштирок этувчи қаҳрамонлар тартиби йўсини танланди. «Ҳайрату-л-аброр»нинг образлар тизимини мукаммал тадқиқ этиш, нафақат мазкур асар, балки кейинги тўрт достоннинг моҳиятини мукаммал англаш имкониятини беради.*

Калит сўзлар: *достон, сюжет, композиция, образ, таҳлил, тасниф, мақолат, ҳикоят, жанр, бадиий маҳорат.*

THE ROLE OF EPIC IMAGES IN THE FORMATION OF THE PLOT OF "HAYRATU-L-ABROR"

Annotation: *This article analyzes the unique plot, "Khairatu-l-abror" which differs from other dastans of "Khamsa" by Alisher Navoi, its poetic structure, compositional and architectural features; as well as the system of images that make up the plot and compositional chain of the work, the images of some saints in the dastan are considered. Portraits and images of some saints in the dastan are extremely diverse. Images are selected that are radically different from each other in age, position, place in society, caracter. This shows that the theme and idea of the dastan are extremely diverse, that not a single representative of any social group in society remains outside the author's field of vision, that the audience of the dastan is wide, and that the reader of the first dastan is the entire people. Based on the composition of the dastan, as well as based on the research of prof. N.Mallaeva, the images in the work can be divided into thtee groups depending on their role in the development of issues in the dastan and the construction of the work: first, Navoi himself is the main character of the dastan; the second-descriptive images in conversations – portraits and characters; the third is epic images in stories and parables. This non-standart order was determined based mainly on the structure of the work. Stories and parables in the dastan are studied, firstly, as individual works, and secondly, on the basis of the reasons given in the general idea of the dastan. At the same time, Navoi's artistic path was chosen, but the order of the characters involved in the plot of the work. A perfect study of the system of images of "Khairatu-l-abror" makes it possible to fully undersand the essence of not only this work, but also the following four dastans.*

Key words: *the poem, plot, komposition, images, analysis, classification, proverb, story, genre, artistic skill.*

Аннотация: *В данной статье анализируется свособразный сюжет, «Хайрату-л-аброр»а, отличающегося от других дастанах "Хамсы" Алишера Навои, её поэтическая структура, композиционно-архитектонические особенности; а также система образов которая составляющих сюжет и композиционная цепочка произведения, рассматривается образы некоторых святых в дастане. Портреты и образы в дастане чрезвычайно разнообразны. Подбираются образы, кардинально отличающиеся друг от друга по возрасту, положению, месту в обществе, характеру. Это показывает, что тема и идея дастана чрезвычайно разнообразны, что ни один представитель какой-либо социальной группы в обществе не остается вне поля зрения автора, что*

аудитория дастана широка, и что читатель первого дастана – это весь народ. На основе композиции дастана, а также основываясь на исследованиях проф. Н. Маллаева, образы в произведении можно разделить на три группы в зависимости от их роли в развитии вопросов в дастане и построении произведения: первая – сам Навои является главным героем дастана; вторая – описательные образы в беседах и предварительных беседах – портреты и персонажи; третья – эпические образы в рассказах и притчах. Этот нестандартный порядок был определен, исходя, в основном, из структуры произведения. Рассказы и притчи в дастане изучаются, во-первых, как отдельные произведения, а во-вторых, на основании причин, приведенных в главе или статье, и ссылок, ведущих к общей идее дастана. При этом художественный путь Навои был определен как направление анализа. Таким образом, была выбрана не система образов дастана в целом, а порядок персонажей, задействованных в сюжете произведения. Совершенное изучение системы образов «Хайрату-л-аброра» дает возможность полностью понять суть не только этого произведения, но и следующих четырех дастанов.

Ключевые слова: *дастан, сюжет, композиция, образ, разбор, классификация, маколат, хикоят, жанр, художественное мастерство.*

«Ҳайрату-л-аброр» достони мураккаб композицияси ва образлар аудиториясининг кенглиги билан «Хамса»нинг ягона эпик сюжетга эга бўлган кейинги достонларидан ажралиб туради. Мазкур достон нафақат ғоявий-семантик балки, қурилиши жиҳатидан ҳам “бешлик”нинг кейинги тўрт достонидан тубдан фарқ қилади. Асарни учта композицион занжирга ажратиш мумкин: *a) достоннинг умумий, яхлит композицияси; b) мақолатлар композицияси; s) ҳикоятлар композицияси.* Мазкур тасниф достондаги образлар тизимини гуруҳлаш учун ҳам муҳим асос бўлади. «Ҳайрату-л-аброр»да «Хамса»нинг кейинги тўрт достонидаги каби асарнинг бошидан охиригача ҳаракат қилувчи бош қаҳрамонлар мавжуд эмас (муаллиф образидан ташқари – Н.Ш.). Илк достонда асарнинг умумий сюжетидан ташқари кўнгил сайрлари, мақолат ғояларини тасдиқловчи ҳикоятларнинг алоҳида сюжетлари мавжуд. Шу алоҳида сюжетларда қаҳрамонларнинг характерлари ҳам, муаллифнинг ахлоқий, ижтимоий, фалсафий ғоялари ҳам очилади. Даҳо ижодкорлар Низомий Ганжавий, Хусрав Деҳлавий, Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий дунёқараши кенг, тараққийпарвар, адолат ва ҳақиқат тантанаси учун курашчилар ҳисобланган. Уларнинг «Хамса»лари илк достонларида илгари сурилган ғоялар жуда юксак ва улуғвор бўлгани сабабли кейинги достонларда кенг кўламли сюжетларни ва характерларни вужудга келтиради.

Адабиётшунос Н.Маллаев «Ҳайрату-л-аброр»нинг жанр хусусиятлари унда катта эпик образлар яратиш имкониятини бермаслигини, лекин шунга қарамай, муаллиф «Ҳайрату-л-аброр»га жуда кўп ва хилма-хил образлар, турли ижтимоий

табақаларга мансуб, турли характердаги ижобий ва салбий, ҳажвий ва мажозий образларни киритганлигини ёзади [Маллаев,2015:151]. Достон таркибида катта эпик образларнинг учрамаслиги унинг композицион қурилиши билан боғлиқ. Бироқ «Ҳайрату-л-аброр»да хилма-хил юзлаб образлар мавжуд. Улар орасида пайғамбарларни, машҳур суфийларни, тариқат пирларини, шоирнинг устозларини, давлат ҳукмдорларини, оддий инсонларни, шунингдек, жониворлар образини ҳам учратиш мумкин. «Ҳайрату-л-аброр»нинг мавзу кўлами бениҳоя кенглиги достонга бир-бирига ўхшамаган кўплаб образларнинг олиб кирилиши ва шу орқали мақолат ва ҳикоятларда ифодаланган масала моҳиятининг мукаммал ечим топишида муҳим омил бўлади.

«Ҳайрату-л-аброр»да тилга олинган образлар жамиятдаги турли табақаларга мансуб шахслар. Фақат «Ростлик ҳақидаги» ўнинчи мақолатга илова қилинган масалгагина шоир жониворлардан шер ва дуррожни образ сифатида танлайди. Бу ҳол хамсачилик анъанасини бошлаб берган Низомийда сал ўзгачароқ. «Махзан ул-асрор»нинг иккинчи мақолатига «Нўширавон, унинг вазири ва икки бойқуш», олтинчи мақолатига «Сайёд, унинг ити ва тулки», еттинчи мақолатига «Фаридун ва оҳу», саккизинчи мақолатига «Мевафуруш ва тулки», йигирманчи мақолатига «Булбул ва лочин» масаллари илова қилинганидан Низомий Шарқ дидактик адабиётида бўлганидек, долзарб фикр ва муҳим хулосаларини кўпроқ мажозий образларда бериш анъанасига суянганлигини кўриш мумкин [Низомий, 2016].

Адабиётшунослигимизда «Ҳайрату-л-аброр»даги суфийлар, шоҳлар, шоирнинг устозлари, шайхлар, ҳажвий образлар хусусида баъзи фикрлар билдириб ўтилган. Бироқ мазкур достондаги барча образлар кенг миқёсда таҳлилга тортилиб, тасниф этилмаган, достон сюжетига боғлиқ ҳолда ўрганилмаган. Шу нуқтайи назардан достон ҳикоят ва масалларидаги эпик образлар тизимини (бу гуруҳга достоннинг йигирмата мақолатига илова қилинган ҳамда сўнгги бобдаги “Қул ҳикояти” билан жами йигирма бир ҳикоят ва масаллардаги эпик образлар киради – Н.Ш.) қуйидагича таснифлаш мумкин:1) *пайғамбарлар, суфийлар, азиз авлиёлар образи; 2) ҳукмдорлар образи; 3) жамиятда турли тоифадаги кишилар образи; 4) жониворлар образи.*

Биринчи гуруҳга марҳаматли Айюб, Боязид Бистомий, Иброҳим Адҳам, Робиаи Адвия, Хожа Абдуллоҳ Ансорий, Шайх Ироқий, Шайх Суҳравардий, Абдуллоҳ Муборак, Зайнул-обидин, Хожа Муҳаммад Порсо, Хожа Абу Наср Порсо сингари мутасаввиф-шайхлар ва авлиё зотлар образини киритиш мумкин.

Иккинчи тур образларга Шоҳ Ғозий (Султон Ҳусайн Бойқаро), Нўширавон, Амир Темур, Муҳаммад Хоразмшоҳ, Искандар ва Баҳром сингари тарихий ҳукмдорларни киритиш мумкин. Шунингдек, тўққизинчи мақолатга илова қилинган ҳикоятдаги Шом ҳукмдори ва шаҳзодаси, ўн саккизинчи мақолат таркибидаги Чин

ҳукмдори ва хотимадан кейинги ҳикоятдаги олижаноб шоҳ образлари афсонавий ҳукмдорлар саналади.

Учинчи гуруҳга Бистомийнинг муриди (биринчи мақолат), урушда ҳалок бўлган ўғлининг хунини талаб қилган киши (учинчи мақолат), ўтинчи чол (бешинчи мақолат), Нўширавоннинг ёри (олтинчи мақолат), Қониъ (қаноатли) ва Томиъ(қаноатсиз) (еттинчи мақолат), икки вафоли дўст (саккизинчи мақолат), Имом Фахр Розий (ўн биринчи мақолат), котиб Ёқут (ўн иккинчи мақолат), ўғри (ўн учинчи мақолат), Бани Исроилийи Ринд (ўн тўртинчи мақолат), Ҳасан ибн Рабиъ (ўн олтинчи мақолат), Зайнул-обидиннинг фарзандлари (ўн еттинчи мақолат), Чин гўзали, унинг ошиғи (ўн саккизинчи мақолат), деҳқон (ўн тўққизинчи мақолат), қул (сўнгги 63-бобдаги ҳикоят) образларини киритиш мумкин.

Тўртинчи гуруҳга достоннинг ўнинчи мақолатига илова қилинган масалдаги шер ва дуррож образлари киради.

Кўриниб турибдики, достондаги портрет ва образлар оламини шакллантиришда Ҳазрат Навоий барча қатлам вакилларини бирдек инобатга олган.

«Ҳайрату-л-аброр"нинг кўпгина образлари дину-диёнат йўлини тутган азиз авлиёлар, шайх ва суфийлардир. Адабиётшунос А.Эркинов таъкидича, «шайхларга бағишлов битиш Хусрав Деҳлавийдан бошланган. Унгача, ҳатто, Низомийда ҳам бу ҳолат учрамайди» [Эркинов, 2018:91-92]. Олим буни Низомийнинг бирор суфийлик оқимига мансуб бўлмаганлиги билан боғлайди. Тадқиқотларда «Ҳайрату-л-аброр»даги суфийлар тасаввуфдаги мавқеига кўра икки тоифага ажратилади: а) сулук тузган суфийлар; б) Нақшбандия пирлари. *Биринчи гуруҳга* Боязид Бистомий, (Тайфурия), Шайх Суҳравардий (Суҳравардия), Баҳоуддин Нақшбандий (Нақшбандия); *иккинчи гуруҳга* Хожа Аҳрор, Абдураҳмон Жомий, Порсо ва унинг ўғли киритилади [Ғаффоров, 1999:8-9]. Юқорида кўрганимиздек, ҳикоятлар қисмида ҳам бир неча суфийлар образи учрайди. Алишер Навоий «Ҳайрату-л-аброр»да ўқувчини бирор азиз авлиё ҳаётномаси билан таништиришни эмас, балки реал воқеликда дарвеш ва мусулмонларни ҳам ўйлантирувчи чигал ва муҳим масала ҳақида уларнинг фикрларини холислик билан билдиришни мақсад қилади.

Достондаги *Боязид Бистомий* ҳақидаги ҳикоятда инсон ва иймон масаласи қўзғалади. Манбаларда Бистомий тасаввуфдаги тайфурия оқимига асос солган Абўязид Тайфур Исо ўғли, Сарушон ўғли Бистомий (вафоти 874) VIII асрнинг охирги чорагида Бистомнинг Кумуш мавзеида зардуштий донишманди хонадонида таваллуд топгани таъкидланади. Фаридиддин Атторнинг «Тазкират ул-авлиё» асарида Боязид Бистомий ҳаётига доир етмишдан ортиқ катта-кичик ҳикоят ва ҳикматлар келтирилган бўлиб, жумладан, унга шундай таъриф берилади:

«Орифлар султони, ҳақиқат изловчиларнинг ҳужжати, ...ҳақиқий қутб, унинг риёзат, каромат ва айтган сўзлар беандоза, ҳақойиқ, ва дақойиқ сирларида беназир, доимо қурб мақомида ва муҳаббат дарёсида ғарқ, тани мужоҳада ва жони мушоҳада ичида, ҳадисда ровийлари олий...эди» [Фаридуддин Аттор, 2013:162-191]. Бистомий Қуръони каримнинг «Луқмон» сурасида келган Аллоҳнинг «Менга бандалик қил ва ота, онангга хизмат қил» оятини эшитиб, бундай қилса ширк бўлади, деб ўйлаб, ота-онасига хизмат қилмаслик учун улардан ризолик сўрайди. Ота-она рози бўлишади. Суфийликда бу чигал, мушкул масала. Шариатда эса, Қуръон оятида келтириган Аллоҳга бандалик, қуллик; ота-онага хизмат қилиш ширк ҳисобланмайди.

«Ҳайрату-л-аброр»да Боязид Бистомий портрети ғамли, кўзёшлари шашқатор ҳолда тасвирланган. Бу ҳикоятда Навоий қўрқув билан яшашни маъқуллаб, султон ул-орифин Боязид Бистомий кўп риёзатлар, ибодатлар қилган бўлса ҳам, Ҳақ таоло ҳузурига қайтишда имон билан бориш насиб этармикин деб ғам-ташвишда яшаганини ҳикоя қилади. Бистомий ҳолатида Н.Комилов «Тасаввуф» китобида Абу Наср Саррож томонидан таснифланган тариқат мақомларининг олтинчиси – *хавф* мақомининг таъсири сезилади. Хавф мақоми солик «қалбининг ишончдан, имон аминидан чиқиши, иккиланиш, таҳлика» си маъноларида келиб [Комилов, 2009:28], мўминнинг иймони мустаҳкамлигидан қўрқувда юриши Бистомий ҳолатида теран ифода топган.

Инсон тақдири, унинг бу оламдаги хатти-ҳаракатлари учун қайғураётган Бистомий иймоннинг асосини инсонийликда кўради:

Ким чу видоъ айлагуси жон анга,

Ҳамраҳ ўлур йўқса йўқ имон анга. [Ҳ.А. –Б.94]

Достоннинг иккинчи мақолатига илова қилинган ҳикоятда шоир Иброҳим Адҳам ва Робиаи Адвия образларига мурожаат қилади.

Иброҳим Адҳам Шарқ исломий маданият тарихида ҳақли равишда кўп асарларда қаҳрамон бўлган. Иброҳим тарихда яшаб ўтган реал шахс бўлиб, Балх вилояти подшоҳи эди. Навоий «Насойим ул-муҳаббат»да бундай ёзади: «Иброҳим Адҳам. Оти ва насаби Иброҳим Адҳам бинни Сулаймон бинни Мансур ал-Балхий. Мулукдин экани (маликлар, подшоҳлардан экани) худ машҳурдур. Иброҳим Адҳамнинг ҳолати бағоят кўпдур. Китоб битса бўлур [Навоий, 2001:38-39].

Аттор «Тазкират ул-авлиё»да Иброҳим Адҳамнинг қандай сабаблар билан ҳақ йўлга киришини аниқ-равшан тасвирлайди. Иброҳим подшоҳлик вақтида ҳаддан зиёд ҳашамат ва дабдабага берилиб кетганлиги туфайли Ҳақ таоло уни уч марта огоҳлантиргани ҳақида ёзса, Алишер Навоий «Насойим ул-муҳаббат»да фақат

*учинчи огоҳлантириш*ни қайд этган. Бертельс Иброҳим Адҳамнинг Бани Томим қабиласидан чиққанлиги, илк зоҳид суфийлар мактабини тузганлиги, бироқ Хуросонда ўз таълимоти ёйилишини кўролмай, 160//766-777 йилларда Луқа тоғида вафот этганлигини ёзади [Бертельс, 1965:63]. «Ҳайрату-л-аброр»да ҳам «Тазкират ул-авлиё», «Насойим ул-муҳаббат», «Лисон ут-тайр» асарларидаги Иброҳим Адҳам образига хос жиҳатлар қаламга олинади. Шоҳликдан орифликка юз тутиб, муқаддас Каъбатуллоҳ зиёратига отланиб, ўн тўрт йил давомида йўл босади. «Ҳайрату-л-аброр»да Иброҳим Адҳам номи Биби Робиа эътиқоди муносабати билан тилга олинади. Шоир Иброҳим Адҳамнинг тожу-тахтни тарк этишини йўқотиш ҳисобламайди. Аксинча, Аллоҳ бу иш учун уни мукофотлади: унга фано тожини насиб этди. Жоҳу-мансаб тарки Иброҳим учун улкан мақсадлар ибтидоси бўлди:

Қилди чу Адҳам халафи тарки жоҳ,

Тожи фано бошиға қўйди Илоҳ. [Ҳ.А. –Б.102]

Иккинчи мақолатга илова қилинган ҳикоятда илк сўфия аёл - *Робиаи Адвия* образини учратамиз. Бертельс таъкидича, Робиаи Адвия болалигида ўғирланиб, қул бозорида сотилгани ва умрининг аввали қулликда ўтган [Бертельс, 1965:17]. Баъзи манбаларда унинг шоира ва халқ қўшиқларини юксак маҳорат билан ижро этадиган лапарчи-хонанда бўлганлиги, шу сифатлари учун Хожаси уни озод этганлиги, шундан сўнг Робиаи бу дунё меҳридан юз ўгириб, ишқи қулга боғлангани қайд этилса, Нажмиддин Комилов сўфиёна шеърият VIII-XI асрларда Робиа Адвия, Мансур Халлож сингари улуғ суфийлар ижоди билан бошланганини ёзади. Атторнинг «Тазкират ул-авлиё»сида ҳам Робиа Адвия ҳақидаги ҳикоят учрайди. Унда Иброҳимнинг Каъбага намоз билан, Робианинг эса ниёз билан (ожизман деб ёлбориб) келганлиги таъкидланади. «Ҳайрату-л-аброр»да ҳам Аттор фикрига ҳамоҳанглик бор. Унда Робиа тилидан Иброҳимга шундай таъна қилинади:

Бўлди ишинг арзи намоз айламак,

Шева манга арзи ниёз айламак.

Санга самар берди намозу риё,

Бизга бу бар берди ниёзу фано. [Ҳ.А. –Б.103]

Достондаги Робиаи Адвия образи Иброҳим Адҳам билан суҳбати жараёнида китобхон кўз ўнгида юксак маърифат соҳибаси сифатида намоён бўлади. Навоий бу икки образ орқали иймон фалсафасининг пойдевори зоҳирий ибодат эмас, балки Ҳақ таолони таниш ва Унга қалбан алоқадор бўлиш, куллан Парвардигорга суяниш эканлигини билдиради. Бу ўринда *таваккул* мақомининг таъсири сезилади. «Таваккул – илоҳий файзга эътимодли кишининг имонидир. Бу маърифат

камолидан келадиган олий мақомдаги имондир» [Комилов, 2009:28]. Достондаги Робиаи Адвия образи қалби шундай имон билан зуҳурланган поктийнат сўфия сифатида тасвирланган.

Алишер Навоий ўзининг маънавий устозларидан бири бўлган шайхулислом *Абдуллоҳ Ансорий* образини «Насойим ул-муҳаббат»да бошқача, «Ҳайрату-л-аброр»да бошқача тасвирлайди. «Насойим ул-муҳаббат»да ёзилишича, Абдуллоҳ б. Муҳаммад Ансорий милодий 1006 йилда Ҳиротда суфий оиласида туғилган. Отаси унга болаликдан Қуръон ва ҳадислардан таълим берган тўққиз ёшида Қуръонни ёд билган, кейинроқ ўзи эслашича, унинг болалигида кўп кароматлар содир бўлган қариндоши бир сўфия аёл «Бу бола илмларининг нури билан бор олам тўлади», - деган. Чиндан ҳам, кейинроқ Ансорийнинг «Нур ул-улум», «Манозил ус-сойирин», «Табақоти-с-сўфия» асарлари жаҳонаро шуҳрат қозонади. Манбаларда Ансорийнинг устозлари сифатида Боязид Бистомийнинг издоши бўлмиш Абул-Ҳасан Ҳарақоний ва Аммор Ёсирни кўрсатадилар. Ансорий илоҳий сирларни, Аллоҳнинг зоти ва сифатларини ақл ёрдамида билиш мумкин дегувчи калом уламоларига, ашъарийларга қарши умр бўйи курашгани учун кўп марта Ҳиротдан қувғин қилинган ва халифа ал-Қойим даврида иззат-ҳурмат топган. Бертельс форс тилидаги тасаввуф тарихини Абдуллоҳ Ансорийсиз тасаввур қилиб бўлмаслигини таъкидлайди [Бертельс, 1965:302].

«Ҳайрату-л-аброр»да Абдуллоҳ Ансорий образининг талқинида Навоий унинг иймон фалсафасига доир, шариат аҳкомларидан фарқли бўлган таълимотини баён қилади. Ансорий тасаввуфдаги *хавф* ва *ражо* (умид ва қўрқув) ғоясини инкор этади. Бу билан Иброҳим Адҳамнинг замондоши бўлган сўфия аёл Робиаи Адвиянинг илоҳий ишқда бошқа ҳеч бир фойда, ғаразни кўзламаслик ҳақидаги ғоясини маъқуллайди. Навоий достоннинг йигирма тўққизинчи бобида маънавий устози, тариқат пири Ансорийнинг сулуки ҳақида ҳам ёзади. Ансорий қарашлари, эътиқоди масаласига алоҳида эътибор қаратади. Бу ўринда шоир тариқат ҳақида ҳақиқатни илмий холислик билан мухлисларга етказиш учун монологик нутқни танлайди. Бу фикрларни Ансорийнинг ўз тили билан айтган монологи дейиш мумкин. Навоий бу мисралар орқали Ансорий қандай мартабада эканлигини очиқ-ойдин айтади:

Деди буким, иш манга тоат турур,

Тенгрининг амриға итоат турур.

Дўзах ўти бийми ҳам эрмас ғараз,

Не буки, жаннат анга бўлғай эваз. [Ҳ.А. –Б.123]

Манбаларга қараганда, Абдуллоҳ Ансорий тасаввуф мавқеида туриб, калом илми уламоларига, Абул Ҳасан ал-Ашъарий етакчилигидаги мутакаллимларга

қарши аёвсиз курашади. Мутакаллимлар Ҳақни танишда ақлни биринчи ўринга қўйиган бўлсалар, Ансорий ашъарийларга қарши Абул Ҳасан Ҳарақонийнинг издоши сифатида ишқни биринчи ўринга қўяди. Ансорий ҳам Робиаи Адвия каби Ҳақ таолони дўзахдан қўрқув ва жаннат умидида севмасдан, беғараз, тамасиз севиш тарафдори эди. Навоий «Ҳайрату-л-аброр»да Абдуллоҳ Ансорийнинг қуйидаги таълимотини келтиради ва ўзи ҳам уни маъқуллашини, Ҳақ таолони беғараз, умид ва қўрқувсиз севишини айтади:

Бийм ила ким Ҳақни парастиш қилур,

Нафс нажотини кўзлаб иш қилур.

Ким чекар уммид ила фарсудалиқ,

Қасди эрур равзада осудалиқ...

Менки, ишим бўлди парастиш мудом,

Бийму умид иккиси бўлмиш ҳаром...

Қил дедиким, қилмоқ эрур варзишим,

Радду қабули ила йўқ ҳеч ишим. [Ҳ.А. –Б.123]

Навоийнинг Ансорий таълимотига ишонч билдиришига унинг тасаввуфий илмларни пухта эгаллаб, «Пири Ҳирот» лақаби билан шуҳрат қозонганлиги асосий сабабдир. Профессор М.Муҳиддинов Ансорийни тариқат одоби ва мақоматининг 100 та босқичини ишлаб чиққани ҳамда тасаввуфнинг қарийб барча саволларига жавоб ёзганини айтади [Муҳиддинов, 1995:121]. Ансорий жаннати бўлиш умидида Аллоҳдан қўрқишни тамагирлик деб қоралайди. Лекин Қуръони каримда барча мусулмонлар Худодан қўрқиб, ёмонлик қилишдан ўзларини асрайдилар деган ғоя кўп марта эсланади. «Анфол» сурасида бундай оят бор: Фақат Аллоҳ (номи) зикр қилинганида иймонлари зиёда бўладиган ва фақат Парвардигорига суянадиган кишилар (ҳақиқий) мўминдирлар. Яна: «Иймон келтирган ва (Аллоҳдан) қўрқувчи бўлган зотлар учун дунё ҳаётида ҳам, охиратда ҳам хушхабар бордир». Мазкур оятларда Аллоҳдан қўрқувчилар ҳақиқий мусулмондирлар деган ғоя доимо такрорланишининг сабаби, инсонлар Аллоҳ ғазабидан қўрқиб, барча гуноҳ ишлардан тийиладилар. Тариқат пири Абдуллоҳ Ансорий қўрқув ва умидни тамагирлик деб баҳолаши Аллоҳга муҳаббатини улуғлаш учун бўлиб, оммага эмас, фақат хосларга тааллуқлидир.

“Ҳайрату-л-аброр”даги суфийларнинг барчаси тасаввуф тариқатлари тарихида ўз ўрни ва мавқеига эга бўлган; қарашлари, тадбиру аъмолини халқ эътиқоди йўлида сафарбар этган маърифатпарвар мутасаввифлар эди. Шу нуқтаи

назардан уларнинг илк достон учун образ сифатида танланиши асардаги маърифий-ирфоний ғоялар талқинида муҳим аҳамият касб этган.

Умуман олганда, достондаги ҳар бир образ ўзининг чуқур генезисига эга бўлиб, баъзилари Навоийгача халқда мавжуд бўлган, салафлари ижодида сайқалланган, бироқ аксарияти устозлари илк достонларида учрамайдиган ва «Ҳайрату-л-аброр»да оригинал тарзда ифода топган образлар саналади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Oltinchi jild. Hayrat ul-abror.– T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 812 b.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'ninchi jild. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 684 b.
3. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.:Наука, 1965. - 524 с.
4. Комилов Н. Тасаввуф ёхуд комил инсон ахлоқи. 1–китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996. – 272 б.
5. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. Монография. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 384 б.
6. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. («Хамса»ларнинг биринчи достонлари асосида). Филол.фан.док.дисс. – Тошкент, 1995. – 290 б.
7. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – 198 б.
8. Низомий Ганжавий. Махзан ул-асрор (Сирлар хазинаси). Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, 2016. – 164 б.
9. Эркинов А. Алишер Навоий "Хамса"си талқини манбалари (XV-XX аср боши). – Т.: TAMADDUN, 2018. –Б. 384.
10. Қуръони карим. Алоуддин Мансур таржимаси. – Т.: Шарқ, 1993. – 494 б.

Ғаффоров Н. Алишер Навоий «Хамса»сида суфийлар тимсоли. Филол.фанлари номзоди дисс. –Тошкент, 1999. – 135 б.

1. Sharipova N.N. Poetic structure of the first doston "Khamsa" // International Journal of Advance Scientific Research. SJIF Impact factor (2022: 5.478)(2022: 5.636) 10-13 Volume 02, 2022.
2. Sharipova N.N. The composition of the first epics "Khamsa" "The role of the narrative genre in Bosma International Journal of Advance 17-28 Volume 04 / Scientific Research (ISSN – 2750-1396) Issue 10, 2024.
3. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Navodir ush-shabob" devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O'zMU xabarlari // Mirzo

Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.

© Шарипова Нигора Нуриддиновна, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Шарипова Нигора Нуриддиновна

JINOYAT VA XIYONAT KONSEPTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi Z.M.Murtozayeva

zarina.murtazayeva.93@mail.ru

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada jinoyat va xiyonat konseptlarining o'zbek va ingliz tillaridagi lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik yondashuvlari asosida olib borilib, konseptlarning til va madaniyatdagi ifodalanish shakllari o'rganiladi. Xususan, lingvokulturemalar, paremiyalar va frazeologik birliklar orqali jinoyat hamda xiyonat konseptlarining milliy-madaniy mazmuni, baholovchi xususiyatlari va kognitiv modellari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida mazkur konseptlar ko'proq jamoaviy qadriyatlar, sha'n, nomus va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq holda konseptuallashtirilsa, ingliz tilida individual javobgarlik, pragmatik natija va shaxsiy ishonch omillari ustuvorlik qiladi. Shuningdek, paremiologik va frazeologik birliklar jinoyat va xiyonat konseptlarining lingvokulturologik mazmunini aks ettiruvchi muhim vositalar ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar. jinoyat konsepti, xiyonat konsepti, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturema, paremiya, frazeologik birliklar, milliy-madaniy semantika, konseptual metafora, qiyosiy tahlil.

Abstract. This article investigates the linguocultural features of the concepts of crime and betrayal in Uzbek and English. The study is conducted within the frameworks of cognitive linguistics and linguocultural studies, focusing on the linguistic and cultural representation of these concepts. Linguoculturemes, proverbs, and phraseological units are analyzed to reveal the national-cultural meanings, evaluative characteristics, and cognitive models associated with crime and betrayal. The findings demonstrate that in Uzbek linguistic culture these concepts are predominantly associated with collective values, honor, dignity, and social responsibility, whereas in English they are more closely linked to individual responsibility, pragmatic consequences, and personal trust. The study also confirms that paremiological and phraseological units serve as significant linguistic means for expressing the linguocultural content of crime and betrayal.

Keywords. crime concept, betrayal concept, linguocultural studies, cognitive linguistics, linguocultureme, proverb, phraseological units, national-cultural semantics, conceptual metaphor, comparative analysis.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проводится сравнительный анализ лингвокультурологических особенностей концептов «преступление» и «предательство» в узбекском и английском языках. Исследование основано на подходах когнитивной лингвистики и лингвокультурологии и направлено на выявление способов языковой репрезентации данных концептов в различных культурных средах. Особое внимание уделяется лингвокультуремам, паремиям и фразеологическим единицам, отражающим национально-культурное содержание, оценочные характеристики и когнитивные модели концептов. Результаты исследования показывают, что в узбекской лингвокультуре концепты преступления и предательства тесно связаны с такими ценностями, как честь, достоинство, верность и коллективная ответственность, тогда как в английской языковой картине мира акцент делается на индивидуальной ответственности, доверии и прагматической оценке последствий. Установлено, что паремиологические и фразеологические единицы выступают важнейшими средствами выражения лингвокультурного содержания концептов «преступление» и «предательство».

Ключевые слова. концепт преступления, концепт предательства, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, лингвокультурема, паремия, фразеологические единицы, национально-культурная семантика, концептуальная метафора, сравнительный анализ.

Kognitiv yondashuv konseptning inson ongida qanday shakllanishini tushuntirsa, lingvokulturologiya uning milliy-madaniy mazmunini hamda til orqali qanday ifodalanishini yoritadi. Shu sababli bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldirib, kognitivlik konseptning ichki aqliy tuzilishini ko‘rsatsa, lingvokulturologiya o‘sha konseptning til va madaniyatdagi amal qilish usullarini ochib beradi. Har bir tilda mavjud birliklar nafaqat tafakkur mahsuli, balki millatning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy baholari bilan boyigan murakkab birliklardir.

Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganadigan fan sohasi bo‘lib, u til birliklarida aks etgan milliy madaniyatni tahlil qilishga qaratilgan. V. A. Maslova ta’kidlashicha, lingvokulturologiya tilni madaniyatning “oynasi” sifatida ko‘rib, unda xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va mentaliteti aks etishini o‘rganadi[1]. Shu bois til birliklari nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniy axborot tashuvchisi sifatida ham qaraladi.

Lingvokulturologiyaning asosiy birliklaridan biri bu lingvokulturema hisoblanadi. Lingvokulturema bu til va madaniyatning kesishgan nuqtasida yuzaga keladigan, milliy-madaniy mazmunni o‘zida mujassam etgan til birligi sanaladi[2]. Har bir til o‘z egalarining borliqni idrok etish usulini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli til birliklari nafaqat nominativ ma’no, balki konnotativ, baholovchi va madaniy komponentni ham o‘z ichiga

oladi. Masalan, “xiyonat” tushunchasi faqat “ishonchni buzish” sxemasini emas, balki jamiyatda unga nisbatan mavjud salbiy baholash, diniy hukmlar va axloqiy me’yorlarni ham ifodalaydi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda muhim o‘rin tutuvchi yana bir qatlam milliy-madaniy leksika hisoblanadi. Bu turdagi leksik birliklar muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ayrim madaniyatlarda “xiyonat” tushunchasi faqat shaxsiy munosabatlar bilan cheklansa, boshqalarida u diniy va ijtimoiy kontekstda kengroq talqin qilinadi.

Shuningdek, lingvokulturologiyaning asosiy birliklari qatoriga frazeologizmlar kiradi. Frazeologik birliklar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, obrazli tafakkuri va baholash tizimini aks ettiradi. Masalan, xiyonatga oid iboralar ko‘pincha salbiy emotsional rang bilan ifodalanadi va ular orqali jamiyatning axloqiy pozitsiyasi namoyon bo‘ladi.

Lingvokulturologik mazmunni ifodalashda maqollar va matallar, ya’ni paremiyalar alohida ahamiyatga ega. Paremiologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy normalarini umumlashtirgan holda ifodalaydi. V. Mieder ta’kidlaganidek, maqollar avloddan avlodga o‘tib, jamiyatning kollektiv tajribasini saqlab qoladi va axloqiy me’yorlarni mustahkamlaydi[3].

Lingvokulturologiya doirasida alohida e’tibor milliy-madaniy semantikaga ega birliklarga qaratiladi. Bunday birliklar qatoriga, milliy xarakterga ega leksik birliklar, frazeologik birliklar, maqollar va matallar (paremiyalar), hamda obrazli va ko‘chma ma’nodagi ifodalar kiradi. Ushbu birliklar orqali xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy normalari til tizimida mustahkamlanadi va avloddan avlodga uzatiladi.

Xususan, xiyonat, nomus, or, vafodorlik kabi birliklar o‘zbek tilida oddiy so‘z emas, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi lingvokulturemalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi treason yoki betrayal birliklari ham o‘z jamiyatida muayyan tarixiy va siyosiy konnotatsiyalar bilan boyigan. Demak, lingvokulturemalar konseptning milliy-madaniy yadrosini tashkil etadi.

Frazeologik birliklar (idiomalar) lingvokulturologik jihatdan eng muhim qatlamlardan biri bo‘lib, ular xalqning obrazli tafakkuri va baholovchi munosabatini aks ettiradi. Masalan, ingliz tilida *to stab someone in the back* , o‘zbek tilida esa *orqadan puchoq urmoq* iborasi mavjud va bu birliklar xiyonatni oddiy harakat sifatida emas, balki yashirin, axloqan qoralangan xatti-harakat sifatida konseptuallashtiradi. Demak, konseptning emotsional va baholovchi qatlamini ochib beryapti.

Paremiyalar yoki maqol va matallar xalq donishmandligi asosida shakllangan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan tayyor axloqiy formulalardir. Ular

lingvokulturologiyada konseptning ijtimoiy bahosi va normativ talqinini ifodalaydi. Har ikki tilde maqollarni ko'rib chiqaylik:

Masalan, “Xiyonat qilgan el ichida xor boʻlur” ko'rinishida o'zbek tilida mavjud bo'lib, bu maqolda xiyonatning asosiy oqibati sifatida ijtimoiy izolyatsiya ya'ni ajralib qolish va obroʻ yoʻqotish aks ettirilsa, kognitiv jihatdan: XIYONAT bu XORLIK modeli sanaladi. Lingvokulturologik jihatdan esa jamiyatda obroʻ va sha'n markaziy qadriyat ekanini koʻrsatadi.

“Sotqin oʻz eliga dushmandir.” Bu yerda xiyonat shunchaki notoʻgʻri xatti-harakat emas, balki dushmanlik darajasiga tenglashtiriladi. Kognitiv model esa XIYONAT → DUSHMANLIK. Madaniy jihat tahlilda kollektiv manfaat individual manfaatdan ustun ekanligini anglash mumkin.

“Elingga xiyonat qilsang — eldan kechasan.” Juda kuchli paremiologik birlik boʻlib, xiyonatni **eldan kechish** sifatida baholaydi. Kognitiv model *XIYONAT → INSONIYLIKNI YOʻQOTISH*ni koʻrsatadi.

“Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi”

Bevafo do'stdan tayoq yaxshi, Bebahra guldan — yaproq.

Ingliz tilida xiyonat paremiyalari koʻproq individual munosabatlar va ishonch bilan bogʻliq ekanligini aks ettiradi.

“Betrayal never prospers.”
Bu maqol xiyonatni foydasiz va oxir-oqibat muvaffaqiyatsiz harakat sifatida talqin qilsa, Kognitiv modeli XIYONAT → muvaffaqiyatsizlik va madaniy jihatdan esa pragmatik va natijaga yoʻnaltirilgan baholashni koʻrsatadi.

“A traitor is worse than an enemy.” Bu yerda xiyonat ochiq dushmanlikdan ham yomon deb baholanadi. Kognitiv model esa XIYONAT → ENG YUQORI SALBIYLIKni aks ettirib, bu oʻzbek tilidagi “sotqin dushmandan yomon” mazmuniga yaqin deb talqin qilishimiz mumkin.

“He that betrays a friend betrays himself.” Mu maqolda xiyonat shaxsning oʻziga zarar keltiruvchi harakat sifatida talqin qilinadi. Kognitiv model esa XIYONAT → OʻZIGA ZARAR ma'nosini ifodalab, bu ingliz madaniyatida individual axloqiy javobgarlik muhim ekanini koʻrsatadi.

Paremiologik frazalar ya'ni idiomalar orqali xiyonat konseptini quydagi iboralarini koʻrishimiz mumkin. Oʻzbek tilida orqadan pichoq urmoq bu yashirin xiyonat boʻlsa, model esa XIYONAT → ORQADAN HUJUM ma'nosini ifodalayapti yoki, sotib ketmoq

iborasi esa manfaat evaziga sadoqatni buzish bo‘lsa modeli esa XIYONAT → SAVDO ma’nosoni ifodalayapti.

Ingliz tilida esa quyidagi iboralarni ko’rishimiz mumkin, *to stab someone in the back* bu ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri metaforik parallel bo‘lsa, model esa BETRAYAL → PHYSICAL ATTACK tarzida nomoyon bo‘ladi. Yana bir ibora, *to sell someone out* bo‘lib u manfaat uchun xiyonat, va modeli BETRAYAL → TRANSACTION sanaladi.

Bu kabi birliklar jinoyat va xiyonatni faqat nomlabgina qolmay, balki unga nisbatan tayyor ijtimoiy hukmni ham bildiradi. Qayd etish uchun yana bir muhim jihat shuki, paremiyalar konseptning kollektiv ongdagi stereotip shaklini ifodalaydi.

Xiyonatni tavsiflovchi paremiyalar va paremiologik frazalar til tizimida ushbu konseptning eng kuchli baholovchi va madaniy qatlamini tashkil etadi. Ular orqali xiyonat axloqiy jihatdan qoralansa, ijtimoiy jihatdan jazolanadi va kognitiv jihatdan esa turli metaforik modellarda konseptuallashtiriladi.

Shu bois paremiyalar va idiomalar “xiyonat” konseptining milliy-madaniy, kognitiv va baholovchi strukturasini ochib beruvchi asosiy lingvokulturologik dalil sifatida xizmat qiladi.

Jinoyat konsepti til tizimida nafaqat huquqiy terminlar orqali, balki paremiyalar (maqollar, matallar) va paremiologik frazalar (idiomatik ifodalar) orqali ham keng ifodalanadi. Ushbu birliklar jinoyatni oddiy qonunbuzarlik sifatida emas, balki axloqiy jihatdan qoralanadigan, ijtimoiy tartibni buzuvchi va muqarrar oqibatlarga olib keluvchi hodisa sifatida konseptuallashtiradi.

O‘zbek tilida jinoyatga oid paremiyalar ko‘pincha jazodan qochib bo‘lmaslik, yomonlikning qaytishi va ijtimoiy tartibning ustuvorligi g‘oyalariga asoslanadi. Masalan, *“Yomonlik qilgan jazosiz qolmas”* Bu maqolda jinoyatning asosiy xususiyati sifatida uning muqarrar jazoga olib kelishi ta’kidlansa, kognitiv model esa JINOYAT → JAZO ekanligini ifodalaydi. Lingvokulturologik jihatdan esa jamiyatda adolat va javobgarlik qadriyati ustuvor ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yana bir maqolda *“O‘g‘ri bir kun qo‘lga tushar”* bunda jinoyat vaqtincha yashirilishi mumkin, ammo oxir-oqibat fosh bo‘lishini, kognitiv modelda esa JINOYAT → FOSH BO‘LISH ma’nosini tushunishimiz mumkin. Bu yerda jinoyat barqaror yashirin holat emas, balki vaqtinchalik jarayon sifatida talqin qilinadi. “*Yomon ishning oxiri pushaymon”* Bu maqolda jinoyatning ichki oqibati sifatida pushaymonlik va ichki azob ko‘rsatiladi.Kognitiv model esa JINOYAT → PUSHAYMONLIK tarzida nomoyon bo’lib, bu model jinoyatni nafaqat tashqi jazoga, balki ichki axloqiy azobga olib keluvchi hodisa sifatida ifodalaydi.

Ingliz tilida jinoyat paremiyalari ko‘proq pragmatik natija, muvaffaqiyatsizlik va jazodan qochib bo‘lmaslik g‘oyasiga asoslanishini ko‘rishimiz mumkin.

"Crime doesn't pay." Jinoyat foyda keltirmaydi, aksincha zarar olib kelishini tushunish mumkin boʻlsa, kognitiv model esa CRIME → NO BENEFIT / LOSS. Madaniy jihatdan esa natijaga yoʻnaltirilgan baholash ya'ni pragmatik yondashuv sifatida talqin etishimiz mumkin. Yana bir "*Murder will out*" birligida eng ogʻir jinoyat ham oxir-oqibat oshkor boʻlishini, kognitiv model esa CRIME → EXPOSURE tushunishimiz mumkin. Bu model oʻzbek tilidagi "qoʻlga tushar" gʻoyasiga yaqin ekanligini koʻrishimiz mumkin. "He who commits a crime must expect punishment" maqolida jinoyat va jazo oʻrtasidagi sabab–oqibat munosabati aniq ko'rsatilsa, kognitiv model esa CRIME → PUNISHMENT ekanligi tushunishimiz mumkin. Demak, bu ingliz huquqiy tafakkurining normativ xususiyatini aks ettiradi.

Oʻzbek tilidagi paremiologik frazalar (idiomalar) orqali jinoyat konseptini koʻrib chiqadigan boʻlsak, *qoʻlga tushmoq* bu jinoyatning fosh boʻlishi va model esa JINOYAT → FOSH BOʻLISH sanaladi, *jinoyat ustida qoʻlga olinmoq* bu jinoyat jarayonida aniqlanish boʻlsa, modelda ko'rishimiz mumkin boʻlgani esa JINOYAT → DALIL tarzida gavdalanadi. Boshqa bir birlik, *izni yoʻqotmoq* ma'nosi jinoyatni yashirishni ifodalaydi.

Ingliz tilida esa *to be caught red-handed* ya'ni jinoyat ustida ushlanish, bunda model esa CRIME → EVIDENCE koʻrinishida boʻladi. *to get away with murder* bu jazodan qochish koʻpincha kinoya bilanifodalansa, kognitiv model CRIME → ESCAPE (temporary); *to cover one's tracks* bu izni yashirish va kognitiv model esa CRIME → CONCEALMENT ni anglash mimkin.

Jinoyatga oid paremiyalar va paremiologik frazalar konseptning kognitiv va lingvokulturologik strukturasini ochib beruvchi muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu birliklar orqali jinoyat sabab–oqibat tizimida ya'ni jinoyat va jazo, axloqiy baholashda esa yomonlik va qoralash, va ijtimoiy tartibda jinoyat va jazolanish kabilar mustahkamlanadi. Shu bois paremiyalar va idiomalar jinoyat konseptining milliy-madaniy interpretatsiyasi, baholovchanligi va ijtimoiy ahamiyatini ochib beruvchi asosiy lingvokulturologik material sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya. Moscow: Akademiya.
2. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Greenwood Press.
3. Vorobyev, V. V. (1997). Lingvokulturologiya. Moscow: RUDN.

1. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya. Moscow: Akademiya, p. 9. ↑
2. Vorobyev, V. V. (1997). Lingvokulturologiya. Moscow: RUDN, p. 44. ↑
3. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Greenwood Press, p. 3. ↑

© Murtozayeva Z. M., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Murtozayeva Z. M.

The Symbolic Representation of Family Members in Folklore

Author: Ergashova Visola,

Navoiy Innovations University,

Faculty of Foreign Languages,

Scientific Supervisor: Khalilova M.

Abstract: *This thesis explores the symbolic representation of family members in folklore, focusing on fathers, mothers, children, and grandparents. Folklore serves not only as entertainment but also as a vital tool for moral education, cultural preservation, and social guidance. By analyzing both Uzbek folklore and international folk narratives, this study demonstrates how family members are portrayed as symbols of strength, care, hope, and wisdom. These symbolic roles teach ethical behavior, respect for elders, and the importance of unity, while preserving cultural identity. The research highlights the universality of family symbolism across different societies and cultural contexts.*

Keywords: folklore, family, symbolism, values, characters, upbringing, cultural preservation, ethical behavior, cultural identity.

Folklore is one of the oldest and most important forms of cultural expression. It reflects the social norms, moral values, and beliefs of a society while preserving its history and traditions. One of the most recurring themes in folklore is the family. Stories, songs, proverbs, and tales provide insights into the relationships between fathers, mothers, children, and grandparents, showing how each member contributes to the social and moral fabric of a community.

In Uzbek folklore, family is often depicted as the foundation of society, where each member has defined responsibilities and roles. Fathers provide guidance and protection, mothers offer care and emotional support, children symbolize hope and the future, and grandparents carry wisdom and cultural memory. Through symbolic representation, folklore communicates complex moral lessons in a simple and engaging way, making it accessible to all generations. Studying these symbols helps modern audiences understand cultural values and ethical standards while preserving traditions for the future.

Fathers are generally portrayed as protectors, leaders, and sources of wisdom. They symbolize authority, responsibility, and strength. In many Uzbek tales, the father's guidance is crucial for resolving conflicts or making moral decisions. For example, in the

folk story "The Wise Father," the father's advice allows his children to overcome difficult challenges, demonstrating the importance of paternal guidance.

In international folklore, similar patterns appear. European fairy tales often depict fathers as decision-makers and protectors, reinforcing the universal value of paternal authority. Fathers also teach their children about bravery, responsibility, and the consequences of their actions. Through these symbolic roles, fathers become models of leadership and morality, showing that guidance and protection are essential in the formation of a stable and ethical family environment.

Mothers are depicted as the emotional core of the family, representing love, care, patience, and dedication. They provide both physical and moral support to family members. Uzbek proverbs such as "A mother's heart is in her child" reflect the devotion and sacrifices of mothers, emphasizing their role in guiding children through moral challenges.

Folktales often describe mothers as problem-solvers who protect the family and ensure harmony. International tales similarly depict mothers as nurturing figures who teach values such as empathy, kindness, and cooperation. Mothers' symbolic role in folklore highlights the importance of care, emotional intelligence, and the ability to unite family members in times of crisis. These stories also encourage respect and gratitude toward maternal figures, reinforcing their central position in family life.

Children in folklore symbolize hope, potential, and the continuation of family and cultural traditions. They are often depicted as innocent, curious, and adaptable, yet sometimes they display remarkable courage and cleverness. In Uzbek tales, children may solve problems through wit or bravery, demonstrating moral lessons about perseverance, intelligence, and ethical decision-making.

Internationally, children in folk narratives often represent the promise of the next generation, carrying forward family and societal values. The symbolic representation of children emphasizes education, growth, and the nurturing of positive character traits. By portraying children as active participants in moral and social narratives, folklore teaches that the future of a society depends on the guidance, education, and ethical development of its younger members.

Grandparents represent wisdom, memory, and cultural continuity. They bridge the gap between past and present, sharing life experiences and traditional knowledge with younger generations. In Uzbek folklore, grandparents often serve as mentors, guiding both children and adults through moral dilemmas and practical challenges.

International folk narratives also highlight grandparents as sources of experience and advice. By including grandparents in stories, folklore stresses the importance of

respecting elders, learning from their knowledge, and preserving cultural heritage. Their symbolic role reinforces intergenerational bonds and emphasizes the continuity of family and societal values over time.

The symbolic representation of family members in folklore demonstrates universal cultural patterns. Fathers' authority, mothers' care, children's hope, and grandparents' wisdom are common motifs across various cultures. While cultural details differ, these themes highlight shared human values such as respect, love, and responsibility.

In Uzbek folklore, family symbolism emphasizes community cohesion, respect for elders, and the collective welfare of family members. In contrast, some international tales may stress individual achievements or heroism but still incorporate lessons about family unity and moral behavior. By comparing these narratives, it becomes clear that folklore not only entertains but also educates, transmitting essential values to each generation while preserving cultural identity.

Family symbolism in folklore highlights moral education, social cohesion, and the preservation of cultural traditions. Fathers, mothers, children, and grandparents each carry specific symbolic meanings that teach lessons about responsibility, care, hope, and wisdom. Through stories, proverbs, and songs, these symbols communicate ethical behavior and encourage respect for family members. Folklore thus acts as a powerful medium for reinforcing family unity, cultural values, and intergenerational knowledge. Understanding these symbols allows modern audiences to appreciate both the universal and culturally specific aspects of family life, ensuring that moral and social lessons continue to guide future generations.

References:

1. Ashraf, M. (2019). Symbols and Meanings in Folk Narratives. Journal of Cultural Studies, 7(3), 45–52.
2. Dundes, A. (2007). The Meaning of Folklore: The Analytical Essays of Alan Dundes. Logan, UT: Utah State University Press.
3. Propp, V. (1968). Morphology of the Folktale. Austin, TX: University of Texas Press.
4. Karimova, N. (2021). O'zbek Folklorida Oila va Qadriyatlar Ramzi. Toshkent: Fan Nashriyoti.
5. Abdurahmonova, G. (2020). Folklor Janrlarida Ijtimoiy Munosabatlarning Ifodasi. O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnali, 4-son.

© Ergashova Visola, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ergashova Visola

MODERN STRATEGIES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING THROUGH AI

Sa’dullayeva Surayyo Ziyadullayevna

E-mail: sadullayevasurayyo3112@gmail.com

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti 1-bosqich magistranti, Filologiya (Ingliz tili)

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti, Navoiy shahri

E-mail: info@niuedu.uz

Annotation

This study investigates innovative approaches to fostering critical thinking skills in English language classrooms with particular emphasis on artificial intelligence (AI) integration. It analyzes linguistic and pedagogical principles alongside international educational practices, especially those of Singapore and South Korea. The paper demonstrates that AI-supported instruction enhances learners’ analytical abilities, autonomy, and engagement, leading to more effective language acquisition.

Keywords: critical thinking, artificial intelligence, English, modern approaches, interactive methods, foreign experience

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию современных подходов к развитию критического мышления на уроках английского языка с акцентом на интеграцию искусственного интеллекта. Рассматриваются лингвистические и педагогические аспекты, а также опыт Сингапура и Южной Кореи. Результаты показывают, что использование ИИ способствует развитию аналитических навыков и самостоятельности учащихся.

Ключевые слова: критическое мышление, искусственный интеллект, английский язык, современные подходы, интерактивные методы, зарубежный опыт

Annotasiya

Mazkur ish ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning innovatsion usullarini, ayniqsa sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlarni tahlil qiladi. Unda lingvistik va pedagogik asoslar hamda Singapur va Koreya tajribasi oʻrganiladi. Natijalar AI texnologiyalari oʻquvchilarning mustaqil va tahliliy fikrlashini oshirishini koʻrsatadi.

Kalit so'zlar:

tanqidiy fikrlash, sun'iy intellekt, ingliz tili, zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar, xorijiy tajriba

Introduction

In the modern educational landscape, the ability to think critically has become one of the most essential competencies for learners. Education is no longer limited to knowledge transmission; instead, it focuses on developing learners' analytical, evaluative, and problem-solving skills. In English language teaching, critical thinking plays a significant role as it allows students to interpret texts, express opinions, and engage in meaningful communication.

At the same time, the rapid development of artificial intelligence (AI) has introduced new opportunities for enhancing educational practices. AI-based tools support interactive, adaptive, and learner-centered environments, which are highly effective in promoting higher-order thinking skills. As noted by UNESCO, the integration of AI in education can transform traditional learning into more personalized and cognitively engaging processes.

This study aims to explore modern approaches to developing critical thinking skills in English language classrooms by combining pedagogical principles, international experiences, and AI technologies.

Theoretical Background of Critical Thinking

Critical thinking is a complex cognitive process that involves analyzing, evaluating, and synthesizing information. It enables learners to question assumptions, assess evidence, and make reasoned decisions. According to Facione, critical thinking includes interpretation, analysis, evaluation, and inference, which are essential components of effective learning.

From a linguistic perspective, critical thinking is expressed through language. Students demonstrate their thinking abilities by constructing arguments, justifying opinions, and interpreting meanings. Therefore, language learning and thinking development are closely interconnected.

From a pedagogical standpoint, critical thinking requires active engagement. Traditional teacher-centered approaches are insufficient, as they limit learners' participation. Instead, modern education promotes student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative activities.Artificial Intelligence as a Tool for Critical Thinking Development

Adaptive Learning: AI systems adjust content based on learners' needs, enabling personalized cognitive development.

Immediate Feedback: Students receive real-time responses, which supports reflection and improvement.

Data Analysis: AI tools help learners compare information and identify patterns.

Simulation and Problem Solving: Real-world scenarios encourage analytical thinking.

Importantly, AI should be viewed as a supportive resource rather than a substitute for human cognition.

Innovative Teaching Methods in English Classrooms

Modern pedagogy emphasizes interactive and learner-centered approaches, such as:

- problem-based learning
- project-based instruction
- structured debates
- case analysis
- role-playing activities

These methods require students to actively process information, make decisions, and justify their ideas.

Combining AI with Pedagogical Approaches

The integration of AI with modern teaching strategies creates a dynamic educational environment. Teachers can utilize AI to:

- design engaging tasks
- support writing and speaking activities
- encourage independent research
- facilitate critical discussions

Such integration enhances both language competence and cognitive skills.

Challenges in Implementation

Despite its benefits, AI integration presents certain limitations:

potential dependence on technology

insufficient critical evaluation of AI outputs need for teacher training

Addressing these challenges is essential for effective implementation.

International Perspectives: Singapore and South Korea

Global educational systems provide valuable insights into effective strategies for developing critical thinking skills.

Singapore's education model emphasizes the integration of thinking skills across all subjects. Students are encouraged to analyze information, ask questions, and engage in discussions. This approach fosters deep understanding and independent thinking.

Similarly, South Korea's education system focuses on creativity, analytical reasoning, and student autonomy. English language instruction often includes debates, argumentative writing, and critical reading tasks. These practices help students develop the ability to express and defend their viewpoints.

Such international experiences demonstrate that systematic and well-structured approaches can significantly enhance critical thinking development.

The Role of Artificial Intelligence in Education

Artificial intelligence has become an influential factor in modern education. AI technologies provide innovative tools that support both teaching and learning processes. According to Mitchell, AI systems are capable of simulating intelligent behavior and assisting in complex cognitive tasks.

AI contributes to critical thinking development in several ways. First, it offers personalized learning experiences by adapting content to individual learners' needs. Second, it provides immediate feedback, allowing students to reflect on their performance and improve their reasoning skills. Third, AI tools enable learners to analyze large amounts of information and compare different perspectives.

Recent studies highlight that AI-based learning environments enhance students' engagement and analytical abilities. For example, research by Küçükuncular emphasizes the importance of developing critical AI literacy, which allows learners to evaluate AI-generated information critically.

Modern Teaching Approaches in English Lessons

The development of critical thinking requires the use of innovative teaching methods. Modern approaches in English language teaching include problem-based learning, project-based instruction, debates, and case studies.

Furthermore, integrating AI tools into these approaches enhances their effectiveness. AI can generate discussion topics, provide feedback on writing, and support language practice. This combination creates a dynamic and interactive learning environment.

Integration of AI and Pedagogical Strategies

The integration of AI with pedagogical approaches offers significant advantages. Teachers can use AI to design personalized tasks, monitor student progress, and provide targeted support. According to recent research, AI-enhanced learning environments improve both language proficiency and critical thinking skills.

However, it is important to maintain a balanced approach. AI should not replace human interaction but rather complement traditional teaching methods. Students must also develop the ability to critically evaluate AI-generated content.

Challenges and Limitations

Despite its benefits, the use of AI in education presents several challenges. These include over-reliance on technology, lack of digital literacy, and insufficient teacher training. As noted in recent studies, students may accept AI-generated information without critical evaluation, which can hinder the development of independent thinking.

Therefore, educators must ensure that AI is used responsibly and effectively. Training teachers and promoting digital literacy are essential steps in this process.

Conclusion

In conclusion, developing critical thinking skills in English language teaching is a key priority in modern education. The combination of linguistic and pedagogical principles, international best practices, and AI technologies provides effective strategies for achieving this goal.

AI has significant potential to enhance learning processes by providing personalized, interactive, and engaging environments. However, it should be used as a supportive tool rather than a replacement for human thinking.

By integrating modern approaches and technologies, educators can create meaningful learning experiences that foster students' intellectual growth and prepare them for the challenges of the future.

REFERENCES

1. Melanie Mitchell (2019). Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans.
2. UNESCO (2021). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities.
3. Melisa, R., Ashadi, A. (2025). Critical Thinking in the Age of AI.
4. Manousou, E. (2025). Critical Thinking and AI in Education.
5. Yang, A., Sulaiman, N. (2025). Enhancing Critical Thinking in English Learning.
6. Küçükuncular, A. (2025). Critical AI Literacy in Education.
7. S. Sirojiddinov, M. Abjalova, S. Normamatov and N. Gulomova, "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus," 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
8. Ikromovna, M. M. (2023). Artistic features of Evelyn Waugh. Research and Education, 2(4), 366-370.
9. Akramova, S., & To'rayeva, B. (2023). THE IDEAS OF HUMANISM IN ENGLISH LITERATURE. Академические исследования в современной науке, 2(6), 30-33.

© Sa'dullayeva Surayyo Ziyadullayevna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Sa'dullayeva Surayyo Ziyadullayevna

"IYMON" KONSEPTINING INSON TIMSOLIDA IFODALANISHI

Hasanova Laziza Safarovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti Lingvistika (o'zbek tili)

yo'nalishi I bosqich magistranti

Tel: (+998) 50 728–57–55

lazizax39@gmail.com

ORCID:0009–0003–1897–070X

ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТА "IYMON" В ОБРАЗЕ ЧЕЛОВЕКА

THE EXPRESSION OF THE CONCEPT OF "IYMON" IN THE IMAGE OF A HUMAN BEING

Annotatsiya: Ushbu maqolada iymon konsepti inson timsolida ifodalanishi badiiy va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Iymonning inson ruhiyati, axloqi va hayotiy qarorlariga ta'siri batafsil yoritiladi. Adabiy obrazlar misolida iymonning namoyon bo'lish shakllari hamda uning jamiyatdagi o'rni barcha o'quvchiga mashhur yozuvchilar Tohir Malikning "Shaytanat" hamda Nazar Eshonqulning "Tobut" asarlari asosida yoritiladi. Mazkur asarlarning inson konsepti tahlil etildi.

Kalit so'zi: konsept, iymon, N.Eshonqul, T.Malik, pragmatika, inson timsoli, ruhiyat, ichki kechinma.

Аннотация: В данной статье концепт веры анализируется с художественной и прагматической точек зрения через образ человека. Подробно освещается влияние веры на психологию человека, его нравственность и жизненные решения. На примере литературных образов раскрываются формы проявления веры и её роль в обществе на основе широко известных произведений Тохира Малика «Шайтанат» и Назара Эшонкула «Тобут». Также анализируется концепция человека в данных произведениях.

Ключевые слова: Концепт, вера, Н. Эшонқул, Т. Малик, прагматика, образ человека, психология, внутренние переживания.

Annotation: In this article, the concept of faith is analyzed in terms of its artistic and pragmatic expression through the image of a human being. The influence of faith on human psyche, morality, and life decisions is explained in detail. Based on literary

characters, the forms of manifestation of faith and its role in society are illustrated through the well-known works “Shaytanat” by Tohir Malik and “Tobut” by Nazar Eshonqul. The concept of the human being in these works is also analyzed.

Key words: Concept, faith, N. Eshonqul, T. Malik, pragmatics, human image, spirituality, inner experience.

Mazkur maqolaning maqsadi inson timsolida iymon konseptining ifodalanishini kognitiv va pragmatik yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat. Muqaddas va yagona bo‘lgan “Qur’oni Karim” kitobimizda aytilishicha: *Odamlar: “Imon keltirdik”, – deyishlari bilangina, sinalmagan hollarida qoldiriladilar, deb o‘yladilarmi?! Biz ulardan oldingi (imonli) kishilarni sinagan edik-ku! Bas, (shu sinov bilan va usiz ham) albatta, Alloh (imonda) sodiq kishilarni bilur va (shuningdek,) yolg‘onchilarni ham aniq bilur. Ankabut surasi, Makkada nozil qilingan. 69-oyat.*

Zamonaviy tilshunoslikda inson tafakkuri va til o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik yo‘nalishida konsept tushunchasi markaziy o‘rin egallab, u inson ongida shakllanadigan bilimlar tizimini ifodalaydi. Konseptlar inson tajribasi va dunyoqarashi bilan bog‘liq holda izohlanadi. O‘zbek tilshunosligida konsept muammosi Sh.Safarov tomonidan o‘rganilgan. U inson ongida shakllangan va til vositalari orqali ifodalanadigan murakkab kognitiv birlik sifatida tahlil etiladi. Conseptus so‘zining termin harakterini olishi falsafada konseptualizm yo‘nalishining yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Mazkur yo‘nalish asoschilaridan bo‘lgan farang faylasufi P.Abelyar (1079-1142) va keyinchalik ingliz olimi Jhon Lokk (1632–1704) borliqda alohida predmetlar mavjud bo‘lib, ular orasidagi bog‘liqliklarning tafakkurdagi idroki natijasida umumiylik, unversaliyalar tug‘iladi va konsept hosil bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari surishgan. Iymon konsepti esa insonning ma’naviy–axloqiy dunyosini ifodalovchi muhim tushunchalardan biri bo‘lib, u nafaqat diniy, balki lingvokognitiv va pragmatik jihatdan ham namoyon bo‘ladi. Badiiy matnlarda iymon konsepti insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, vijdoni va axloqiy tanlovlari orqali ifodalanadi. Mashhur yozuvchi Nazar Eshonqul ijodidan misol tariqasida foydalanishimiz mumkin. Uning asarlarida iymon konseptiga alohida urg‘u berilmagan bo‘lsa–da, inson ruhiyati va ichki kechinmalarini tasvirlash orqali uning mavjudligi sezilib turadi. Yozuvchining “Tobut” hikoyasi ham insonning ichki dunyosi, vijdoni va ruhiy iztiroblarini chuqur yoritib berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Tobut bu yerda faqat o‘lim ramzi emas, balki insonning ichki bo‘shligi, ma’naviy yemirilishi va hayotdagi maqsadsizligini ham ifodalaydi. Tobut hikoyasi insonni o‘z ichki dunyosiga nazar solishga undaydi. Asar orqali yozuvchi ma’naviy uyg‘oqlik, iymon, vijdon va o‘zlikni anglash g‘oyalarini ilgari suradi. Tobut obrazi esa inson hayotidagi eng katta fojia – ma’naviy o‘limni ifodalovchi kuchli ramz sifatida xizmat qiladi Ushbu asarda iymon konsepti bevosita tilga olinmasa–da, u qahramonning ichki holati orqali ifodalanadi. Hikoyada inson timsoli tashqi harakatlar orqali emas, balki ichki monolog vositasi orqali ochib beriladi. Qahramon o‘z–o‘zi bilan muloqotda bo‘lib,

oʻzi yashab oʻtgan hayoti, qilgan ishlari, amallari va ichki qoʻrquvlari haqida oʻylaydi. Xuddi oʻsha jarayonda uning vijdoni uygʻonadi. Vijdon esa iymon konseptining asosiy koʻrinishlaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Asarda qahramonning ruhiy bezovtaligi, tushunarsiz xavotiri va ichki qoʻrquvi uning ichki kechinmalarini aks ettiradi. Bu holat iymonning inson ichki olamidagi muhim kuch ekanligini koʻrsatadi. Inson har qanday vaziyatda ham oʻz vijdoni bilan yolgʻiz qoladi va aynan shu vijdon uning iymonning ustunligini belgilaydi.

“Tobut” hikoyasida ramziy obrazlar ham muhim ahamiyat hisoblanadi. Ayniqsa, tobut obrazi oʻlim, yakuniy belgi va hisob ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu esa insonni oʻz hayoti va qilgan amallarining qay darajada haqli ekanligi haqida oʻylashga majbur qiladi. Shu sababli tobut obrazi iymon konsepti bilan bevosita bogʻlanadi, chunki iymon insonni oʻz hayotini baholashga, maʼnaviy jihatdan iymonini mustahkamlashga, uni ezgu amallari bilan oldinga intilishga undaydi. Hikoyada iymon va qoʻrquv konsepti oʻrtasidagi bogʻliqlik ham yaqqol namoyon boʻladi. Qahramonning ichki qoʻrquvi oddiy vahima yoki sarosima emas, balki maʼnaviy qoʻrquv – yaʼni oʻz qilmishlari uchun javob berish hissi bilan bogʻliqdir. Bu esa iymonning yana bir muhim jihatini ochib beradi. Iymon konsepti mukammal tarzda keng yoritilgan asarlardan biri, taniqli yozuvchi Tohir Malikning “Shaytanat” asarini badiiy va pragmatik jihatdan koʻrib chiqishimiz maqsadga muvofiq. Asarda inson taqdirini tashqi sharoitdan koʻra ichki qarorlar belgilashi taʼkidlanadi. Yaʼni, iymonning mustahkamligi yoki zaifligi tashqi bosimga emas, insonning oʻz tanloviga bogʻliq. Bu esa iymonni erkin iroda bilan chambarchas bogʻlaydi. Aksariyat hollarda inson qalbida shubha, gumon, vasvasa, manfaatparastlik koʻrinishida namoyon boʻladi. Masalan, qahramon moddiy manfaat yoʻlida nohaq ish qilish imkoniga ega boʻladi, lekin uning iymoni bunga qarshi turadi. Shu ichki kurash jarayonida insonning asl maʼnaviy qiyofasi ochiladi. Iymon ustun kelganda, inson komillikka yaqinlashadi. Aksincha, iymoni zaif boʻlgan insonlar oson yengiladi. Shaytanat asari inson timsolida ikkiyuzlamachilik orqali ham ifodalanadi. Tashqi tomondan halol va pok koʻringan obraz aslida manfaat uchun yolgʻon gapiradi yoki boshqalarni aldaydi. Bu holatda iymonning yoʻqligi yoki soxta ekanligi ochib beriladi. Bunday obrazlar orqali muallif iymonning faqat tashqi emas, ichki mohiyat ekanini koʻrsatadi. Qahramonlar baʼzi oʻrinlarda yolgʻonlar taʼsiriga tushib xato qiladi, lekin keyinchalik pushaymon boʻlib, tavba qiladi. Shu orqali uning iymoni qayta tiklanadi. Bu holat inson ruhiyatidagi oʻzgarishlarni va iymonning qayta uygʻonishini aks ettiradi. Muammoli vaziyatlarda – masalan, adolat va manfaat toʻqnashganda – shayton insonni oson yoʻlga undaydi. Lekin iymonli inson toʻgʻri yoʻlni tanlaydi, hatto bu qiyin boʻlsa ham. Bu orqali iymon insonning hayotiy qarorlarida hal qiluvchi baholash mezoni ekanligi koʻrsatiladi. Pragmatik jihatdan shaytanat inson nutqida ham namoyon boʻladi: yolgʻon, kinoya, ikki maʼnoli gaplar orqali boshqalarni chalgʻitish. Iymonli inson esa rostgoʻy va ochiq boʻladi. Shu qarama-qarshilik orqali iymonning kommunikativ jihati ochiladi. Inson timsolida shaytanat koʻpincha yashirin maqsadlar, manfaatparastlik va axloqiy meʼyorlardan chekinish orqali ifodalanadi.

Shaytanatda qahramonlar tez–tez axloqiy tanlov oldida qoladilar. Bu tanlovlar oddiy hayotiy vaziyatlarda ham, xavfli jinoyi holatlarda ham yuz beradi. Pragmatik jihatdan iymon insonni to‘g‘ri kommunikativ va amaliy qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Ya’ni, insonning gap–so‘zi va harakati uning ichki e’tiqodini ochib beradi. Pragmatik nuqtai nazardan, bunday holatlar nutq aktlarida ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, kinoya, aldash, yolg‘on gapirish, yoki ko‘p ma’noli gaplardan foydalanish orqali inson o‘zining asl niyatini yashiradi. Bu esa asarning muloqot strategiyasi sifatida yuzaga chiqishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari o‘zbek xalq maqollarida ham iymonning mustahkamligiga ishora qiluvchi maqollar va hikmatli so‘zlarga nazar solsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, “Iymoning but bo‘lsa, diling yorug‘”; “Iymonli o‘zar, iymonsiz to‘zar”.

“Iymon yuzda, insof tilda” – insonning ma’naviy olami tashqi muomalasida namoyon bo‘ladi. Bu maqollar insonni doimo vijdonli, halol va Allohdan qo‘rqib yashashga undaydi.

Iymon konseptining inson timsolida ifodalanishi Qur’on ta’limoti hamda badiiy adabiyot namunalari – Tohir Malikning “Shaytanat” asari va Nazar Eshonqulning “Tobut” hikoyasi misolida tahlil qilinganda, uning ko‘p qirrali mohiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Qur’onda iymon insonni ezgulik, sabr, halollik va adolat sari yetaklovchi ilohiy mezon sifatida belgilansa, u insonning ichki va tashqi amallarini tartibga soluvchi ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. “Shaytanat” asarida iymon hayotiy sinovlar, manfaat va vasvasa bilan kurash jarayonida namoyon bo‘ladi. Qahramonlarning turli axloqiy tanlovlari orqali iymonning mustahkamligi yoki zaifligi aniqlanadi. “Tobut” hikoyasida esa iymon ko‘proq insonning ichki olami, vijdon uyg‘oqligi va ruhiy holati bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Asarda o‘zlikni yo‘qotish insonning ichki “o‘limi” sifatida tasvirlanib, iymonning inson ruhiyatidagi eng nozik qatlam ekanligi ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111–115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences
2. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24–26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182–187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
3. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири [Матн] /таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Sano–standart, 2021. – 624 б.
4. Сафаров Ш. Семантика /Ш.Сафаров; Масъул муҳаррир Н. Маҳмудов; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Самарқанд

давлат университети. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2013. – 344 б.

5. Tohir Malik. Shaytanat, 1-jild [Matn]: Roman, 1-,2-,3-kitoblar. – Toshkent: O‘qituvchi” NMIU, 2018. – B. 603.
6. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali.– Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
7. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallarining tanlanishi. O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.
8. S.Sirojiddinov, M.Abjalova, S.Normamatov and N.Gulomova, The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

© Hasanova Laziza Safarovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Hasanova Laziza Safarovna

ERKIN A'ZAM NASRIDA QAHRAMON XARAKTERI VA IJTIMOY -MAISHIY MUHITNING POETIK INTEGRATSIYASI

Kobulova Nodira Bahodirovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada maishiy hayot tasvirining oilaviy munosabatlar va muloqotlar, xalqonalik va milliylikni namoyon etishdagi ahamiyati, asar syujetiga ta'siri kabi masalalar haqida so'z borgan. Muallif tomonidan berilgan izohlarda bo'lajak hodisa, harakat, holat tasvirlarining "ob-havo"sini ta'minlaydigan maishiy detallarning ifodasi personajlar xatti-harakatining hayotiyligi ta'minlashda o'rni tahlillar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: maishiy hayot, xarakter, tasvir, obraz, drama, qahramon, ruhiy olam, tuzum, melodrama, xalqona uslub

Аннотация

В данной статье рассматриваются такие вопросы как показ значения и влияния сюжету произведения образа бытовой жизни, семейных отношений и общений, народности и национальности. В комментариях автора на основе анализа поясняется выражение повседневных деталей, обеспечивающих "погоду" образов будущих событий, действий, ситуаций, роль которых заключается в обеспечении жизнеспособности поведения персонажей.

Ключевые слова: бытовая жизнь, характер, изображение, образ, драма, герой, духовный мир, строй, мелодрама, народный стиль.

Annotation

This article examines issues such as how everyday life, family relationships and interactions, ethnicity, and nationality influence the plot of a work. The author's commentary, based on analysis, explains the expression of everyday details that provide the "climate" for images of future events, actions, and situations, the role of which is to ensure the viability of the characters' behavior.

Keywords: everyday life, character, depiction, image, drama, hero, spiritual world, structure, melodrama, folk style.

Mumtoz adabiyotda qahramonning o`z nafsiga qarshi kurashi bosh masala hisoblanadi. Mumtoz adabiyotda bani insonga Odam Ato va Momo Havvoning farzandlari sifatida qaralardi. Sotsrealistik adabiyotda insoniyat ikki guruhga ajratildi: qizillar-oqlar, kambag'allar-boylar, biznikilar – begonalar. Shu bois zamonaviy adabiyot mumtoz adabiyot an'analaridan bir necha o`n yilliklar bebahra qoldi, poetik g'oyadan ko`ra mavzuning dolzarbligi muhim hisoblandi. Kollektivlashtirish, industirlashtirish, xotin-qizlar ozodligi, qo`riq-bo`z yerlarni o`zlashtirish, xalqlar do`stligi va sotsializm g'alabalarini mustahkamlash kabi o'nlab "o`tkir mavzu" lar har bir o`n yillikning go`yoki adabiy yo`nalishidek targ'ib qilindi, shularga muvofiq badiiy asarlar dunyoga keldi. Ijtimoiy masalar azaldan adabiyotning e'tiborida bo'lgan, biroq XX asr adabiyotining nihoyatda ijtimoiylashuvi natijasida real insonning bo`y-basti ko`rinmay qoldi, ya'ni inson g'oyalarning xizmatkoriga aylantirildi. O`tgan asrning 60, qisman 70-yillarida ham adabiyotda ijtimoiylikning salmog'i yuqori edi, shuning uchun asarda qahramonning maishiy hayotiga joy topilishi qiyin edi. Bu faqat o`zbek adabiyoti uchungina emas, sho`ro adabiyotiga xos xususiyat edi. 60-yillardan e'tiboran Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov keyinchalik Shukur Xolmirzayevlar qahramonning to`laqonli qiyofasini aks ettirish uning maishiy hayoti ham muhim rol o`ynashini o`z asarlari bilan ko`rsatishga diqqat qarata boshladilar. 70-yillar nosirlari avlodi deya atalayotgan bir guruh ijodkorlar – M.M.Do`st, T.Murod, N.Qobul, X.Sultonov, E.A'zam, X. Do`stmuhammad va boshqalar ijodida qahramonning maishiy hayoti tasviriga alohida e'tibor qaratildi.

Bir necha o`n yilliklar davomida adabiyotga, eng avvalo, ijtimoy salmoq ustuvor bo`lishi zarur degan aqida ko`nikmaga aylangan edi. Qahramonning kurashchanlik pozitsiyasi ham shundan kelib chiqadigan hosila edi. Shu bois qahramonning maishiy hayot ikir-chikirlariga o`ralashib qolishi ko`pchilik adabiyot ahliga g'alati tuyulardi. Erkin A'zam bu holatga shunday izoh beradi: "Hayot haqidagi, adabiyot haqidagi tushunchalarimiz o`zgarib ketdi. Uch-to'rt yildayoq. Tanqidchi akalarimiz bizni chalg'itib kelishdi: GESni yoz, BAMni yoz, ulkan mavzularda yoz, fosh qil, ur! Insonni yozish rasm emas edi. Mayda mavzu hisoblardi u. Endi ana shu mavzu bosh mavzuga aylandi." [1.230] Bu bosh mavzu esa uning nafaqat ijtimoiy faoliyati bilan balki maishiy hayoti bilan o`zligini to`liq namoyon qiladi. Qahramonni maishiy hayot fonida ko`rsatish Erkin A'zamning "Javob", "Bayramdan boshqa kunlar" qissalarida atroflicha va keng tasvirlangan. Chunonchi, Nuriddin Elchiyevning boshiga og'ir sinov tushganda, uning bosib o`tgan hayot yo`li to`g'risidagi sarhisobi, eng avvalo, oila muhitini, xotini, farzandlari fe'l-atvori va yurish-turishlarini tahlil qilishida ko`rinadi. Elchiyevning bezorilar tomonidan do`pposlanishi, ya'ni jismoniy zarba olishi asarda uncha ham muhim masala emas balki inson –oila – jamiyat uchburchagini ko`rsatish asosiy maqsad. Uning do`pposlanishi ma`naviy olamini, ruhiy dunyosini ochish yo`lidagi bir vosita. "Bayramdan boshqa kunlar"da ham shunday holatni ko`ramiz. Biroq bu asarda yozuvchi "Javob" qissasidan ko`ra maishiy hayot tasviriga, uning qahramon xarakteriga ko`rsatadigan

ta'siriga kengroq va batafsilroq yondashadi. Shunisi muhimki, Erkin A'zamning keyingi asarlari, ayniqsa, teatr, kino yo`nalishlariga moslab yozilgan "Suv yoqalab", "Qarzdor", "Jannat o`zi qaydadir" asarlari to`laligicha maishiy hayot manzaralaridan iborat epizodlarga bo`ysundirilgan. Bolta Mardon, Bahrom muallim, Domla kabi asosiy qahramonlarning iroda yo`nalishi, hayotiy aqidalari, dunyoqarashi, ma'naviy qiyofalari, oilaviy sharoitdagi munosabatlarda reallashadi. Bizningcha, teatr va kino san'atlari xususiyatlari hisobga olingan ushbu asarlarda maishiy hayot tasvirining yetakchi maqomga ko`tarilishida melodrama janrining ta'siri muhim rol o`ynagan.

"Melodrama" atamasi qo'shiq va musiqa bilan sintezlashgan drama ma'nosini anglatadi, bu demak, melodrama o`z tabiati bilan shakllariga yaqinligini bildiradi.

"Melodrama" tomoshabinlarning demokratik qarashlari bilan bog'liq janr,- deb yozadi rus adabiyotshunosi V.Frolov. – (Agar u yaxshi melodrama bo`lsa) xalqona, milliy xarakter belgilaridan o`sib chiqadi. O`z g'oyasiga ko`ra xalqona va qiziqarli bo`lgan bu janr oddiy insonni oilada, eng yaqinlari va qadrdonlari davrasida tasvirlar ekan, ularning quvonch va qayg'ularini, oilaviy munosabatlari va qarama-qarshiliklarini, ma'naviy-axloqiy muammolarini ifoda etadi."[2.395]

"Suv yoqalab" asari peyzaj, manzara, monolog, ichki monolog, dialog, suhbat, tush tasviri kabi vositalar bilan ifoda etilgan o`ttiz olti epizoddan iborat. Avvalo, asarning milliy va xalqona ruhi xususida to`xtalamiz. Udumlarimizga ko`ra ko`pincha yoshi ma'lum joyga yetgach, deylik, nafaqa arafasida kishida namozxonlik istagi paydo bo`ladi. Ikkinchidan, yoshi ulug' kishi atrofdagilar uchun, mahalla-ko`y, el-yurt uchun nedir bir xayrli ishlar qilgisi keladi. Masalan, "Lolazor" romanida Nazar Yaxshiboyev yoshi bir joyga yetgach, o`zidan ko`rkam bir bog' qoldigisi keladi, bu ishga Saidqul Mardonni ham jalb etadi. Shunday istaklari bilan Bolta Mardon ham qishlog'ining quvrab yotgan bog'-rog'lariga suv olib kelmoqchi bo`ladi. Chunki, uning raislik davridan ko`nglida bir armon qolgan: qishlog'iga suv keltirishning ilojini qilolmagan. Uning ko`nglida yan bir armon qolgan: "yoshlikda bergan ko`ngil" armoni. Tut daraxti ana shu armonning ramzi. Asarda xalqonalik va milliylikni kuchaytirgan asoslar ana shular. Maishiy hayot tasviri, oilaviy munosabatlar va muloqotlar shu xalqonalik va milliylikni yanada chuqurlashtirgan, asar syujetiga o`zgacha jilo bergan. "Xalqona usulni uslub darajasida adabiyotga payvand etish, bu holni san'at maqomiga olib chiqish o`ta mushkul ish, - deb yozadi Sanobar To`laganova. – Bizning nazarimizda Erkin A'zam uslubidagi qon tomir ana shu xalqona usulni uslubga, tabiiy badiiyat hodisasiga aylantira olganligida ko`rinadi"[3.71]. Bizningcha, Bolta Mardonning suv yoqalab chiqishini uning o`lim oldidan el-yurt bilan so`nggi diydorlashuvi – vidolashuvi desak to`g'riroq bo`lar. Shu asnoda u kimdandir duo oladi, kimgadir dalda, kimgadir maslahat, kimgadir o`git, kimgadir esa taskin beradi.

Erkin A'zamning ushbu asarini maishiy melodrama deb atash mumkin. Chunki syujet qamrab olingan o`ttiz olti epizodning aksariyatida bosh qahramon Bolta Mardon

asosan oila a'zolari bilan muloqot-munosabatga kirishadi: Bolta Mardon va to`ng'ichi Amirning yurish-turishidan norozi bo`ladi, o`rtanchasi Qodirning qiliqlaridan ranjiydi, qizi Zulfiyaning holatiga achinadi, xotinidan ko`ngli to`lmaydi, kenjasi Botirga ko`ngil asrorini ishonib gapiradi va hokazo. Nazariy jihatdan melodramaning konflikti "sokin" to`qnashuvlarda namoyon bo`ladi. Lekin u oilada va jamiyatda shakllangan udumlar va ma'naviyat bilan, maishiy turmush fonida ochiladigan personajlar hayoti bilan chambarchas bog'liq bo`ladiki, biz "Suv yoqalab" misolida bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Aytish joizki, Erkin A'zamning "Suv yoqalab", "Qarzdor", "Jannat o`zi qaydadir" asarlari o'zbek adabiyotida melodramaning janr xususiyatlari takomillashib bo`lganligini isbotlaydi.

Yozuvchining "Qarzdor" asari "UKA, TOG'A, AMAKI, JIYAN…"- atalgan ichki sarlavha bilan boshlanadi. Bu asarning syujeti ham "Suv yoqalab" asaridagi kabi bir qancha epizodlardan tarkib topgan. Birinchi epizodda "elakka chiqqan" ikki ayolning jonli va xalqona "mish-mishi"dan Baxromning Fayzixolga munosabati-yu, Fayzixolning oilaviy ahvoli oydinlashadi. Ikkinchi epizodda Bahrom shahardan kelgan shoir do'stini kutib oladi, uchinchi epizodda Bahromning oilaviy ahvoliga o`z tilidan xarakteristika beriladi:

" – Boboy yotib qoldilar-da. Qarashadigan odam yo`q. Aka o`zi bilan , apa o`zi bilan. Keyin - armiya, uylanish tashvishi. Bu yog'i ulanib ketdi-da, bo'lmadi."[5.88]

To'rtinchi epizodda Bahrom muallimlik qiladigan sinfga ekskurs qilinadi. Qolgan epizodlarning barchasida Bahrom oilaviy hayot tashvishlari, yugur-yugurlari, uka, tog'a, amaki, jiyan va hokazolar bilan munosabatlar doirasida tasvirlanadi. Shu bois bu epizodlarda maishiy hayot manzaralari xalqona talqinda tasvirlanadi. "Qarzdor" nasr shaklida yozilgan, biroq uni dramatik shaklga solish yo ko'chirish uncha qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki unda savol-javob, dialog xususiyatlari kuchli. Shunday ekan, mazkur asarni ham bemalol maishiy melodrama deyishga asosimiz bor. Asli asarlarning janrini belgilaganda ayrimlarining shakl elementlari, ba'zilarining ichki nafasi asos qilib olinadi. Shularni inobatga olib, "Qarzdor"ning nasriy ifodasi tufayli uni melodrama atamaslik, to`g'ri emas. Erkin A'zamning mazkur asarlarini hozirgacha melodrama atalmasligining boshqa bir sabablari ham mavjud. Jumladan, o'zbek tilida nashr etilgan nazariy darslik va qo'llanmalarda odatda faqatgina uchta janr to`g'risida ma'lumot beriladi: drama, tragediya, komediya. Tragikomediya va melodramani ham shu qatorga kiritish hamda ularning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish zarur. Abduqahhor Ibrohimov, Sharof Boshbekov, Erkin A'zamlarning xizmati tufayli bizda ham tragikomediya, melodrama janrlarining ajoyib namunalari yaratildi.

"Adirlar bag'ridan o'tgan katta yo`l bo`yidagi chorraha. Nazorat posti: ola-bula shlagbaum, ola-bula budka, rezina g'ildirakka o`rnatilgan vagon va hokazo.

Beriroqda, yosh-yosh tollar tagida omonat oshxona: yengil stol-stul, yo`lovchi xo`randalar. Atrofda, oftobning tig`ida gazetadan boshiga soyabon-qalpoq yasab olgan “tadbirkor” xotin-xalaj har turli yegulik sotib o`tiribdi: suyuq osh, ayron, qatiq-suzma, tog' giyohlari, olmayu nashvati.” [5.87]

Bu shunchaki qishloq hayotining oddiygina manzarasi emas. Ushbu manzara mustaqillikdan keying salkam yigirma yillik voqelikning hayotiy tasvirini akslantirib turibdi. Yuqorida eslab o`tilganidek, bir tuzumdan boshqasiga o`tish davrida nochor turmush tarzi, qishloq ahlining maishiy tirikchiligi, umuman aytganda davr ruhi o`zligini ko`rsatib turibdi. Bugunki kunda ham bunday manzaralar onda-sonda uchrab turadi, lekin to'qsoninchi, ikki minginchi yillarning avvalidagidek tipik holat emas, harholda bunday soyabonli “oshxonalar” o`rnida bugun shinam va rosmana choyxonalar qad ko`targan.

“Jannat o'zi qaydadir” asarining janri “dramatik asar” deya belgilangan. Nazarimizda, bu atama janrdan ko`ra adabiy tur ma'nosini ifoda etyapti, go`yoki, “nasriy asar” degandek. Oilaviy bahs-munozara, “sokin” konflikt, maishiy masalarga doir tortishuvlar, milliy va xalqona udumlarga amerikacha turmush tarzining qarshi qo`yilganligi asar syujetining tarkibiy qismlarini tayin etayotganligini hamda unda musiqiylikning maqomi ham yuqoriligini e'tiborga oladigan bo`lsak, unda asar janrini melodrama atashimizga to`g'ri keladi. Boisi asar bizning ko`nikmamizdagi drama, komediya yoki tragediya talablariga muvofiq kelmaydi.

Yozuvchi bir oiladagi bahs bahonasida personajlarini o`zbekcha, amerikacha, ruscha dunyoqarashlar uchburchagiga joylashtiradi. Xonim butun oilani amerikacha hayot tarziga tayyorlamoqchi, Domla ikkilanaverib, oxiri O`zbekistonga qolishni ma'qul topadi – ya'ni, milliy urf-odat, vatan tuyg'usi va'da qilinayotgan “jannatmakon hayot” ustidan g'olib keladi. Bu bahsda Moskvadan sharqshunos bo`lib qaytgan qizlari Klara otasi tomonga o`tadi. Garchi Klara Rossiyada o`qib, rus yigitga turmushga chiqqan bo`lsada, ota-ona bilan ko`pincha rus yoki fors tilida gaplashsada, undagi milliy g'urur, milliy madaniyat oxir-oqibat o`zligini ko`rsatadi.

Muallif tomonidan berilgan izohlarda bo'lajak hodisa, harakat, holat tasvirlarining “ob-havo”sini ta'minlaydigan maishiy detallar: uy-ro`zg'or jihozlari, oshxonada ishlatiladigan buyumlar, kundalik turmushda har doim zarur bo`ladigan narsalar – anjomlar ifodasi quyuq qo`llaniladi va shular vositasida personajlar xatti-harakatining hayotiyligi ta'minlanadi. Jumladan, “Jannat o`zi qaydadir”ning muqaddimasi muallifning quyidagi izohi bilan boshlanadi:

“Sahnaning parda oldidagi xilvat burchagi. Yengil halinchak-kursiga yastanib olgan X o n i m, burnining uchida jimjimador ko`zoynak, qo'lida kalkulyator, allanimani hisoblamoqda. Oyog'ining tagida sandiqdek keladigan bahaybat jomadon. Undan olingan kiyim-kechak, lash-lushlar yemak stolining ustida uyilib yotibdi.”[4.94]

Asarning boshidayoq adib o`quvchi yo tomoshabinni kundalik ehtiyoj buyumlarining, kiyim-kechaklarning uyumiga ro`baro` qiladi. “Yengil halinchak-kursi”, “jimjimador ko`zoynak”, “kalkulyator”, “bahaybat jomadon”, “kiyim-kechak”, “lash-lush”, “yemak stoli” – bularning bari, avvalo, o`quvchi qiziqishini orttirsa, ikkinchidan epizodning umumiy ruhiga kirish uchun kalit vazifasini bajaradi. Shundan so`ng Xonimning ichki monologi keladi. Bu ichki monologda ham maishiy jihozlar vositasida xarakterning kasbi-kori, dunyoqarashi, psixologiyasi, fe’l-atvori bor bo`y-basti bilan gavdalanadi.

Xullas, ijodkor har bir qahramonini uning ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, o`rganib qolgan odatlari maqsad-intilishlari nuqtayi nazaridan so’zlatar ekan, ularning individual qiyofalari bilan birga ruhiy olami, ma’naviy dunyosi ko`zga tashlana borishiga alohida e’tibor qaratadi. Shu jihatdan Rahmatulloh Jiydaliy, Tursuniy, Klara obrazlari o`zlarining original xarakterlari, yurish-turishlari, hayotiy intilish va qarashlari bilan alohida ajralib turadi. Domla, Xonim obrazlari qatori bu obrazlarning asosiy sifat va fazilatlari, kamchilik va qusurlari, ma’naviy darajalari maishiy hayot fonida ochiladi. Yozuvchi bu xarakterlar oldiga katta ijtimoiy masalalar yoki g’oyaviy kurashchanlik vazifasini qo`ymaydi, balki ularni kundalik turmush fonida jonli ko`rsatishni maqsad qiladi va bunga muvaffaqiyatli erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A’zam Erkin. Ertalabki xayollar. T.:”O’zbekiston” 2015-yil, 230-bet

2. Фролов В. Судьбы жанров драматургии. Москва: «Советский писатель», 1979. – 365-бет

3. “Erkin A’zam badiiy olami”:/ S.To’laganova. Yozuvchi ijodida ko`ngil inqilobi. To’plam. – T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2014. 71-bet

4. A’zam E. Jannat o’zi qaydadir: Hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asar va publisistik miniatyuralar. – T.: “Sharq”, 2007. 94-bet.

5. A’zam E. Tanho qayiq: Kinoqissalar. – T.: “Sharq”, 2017. 88-bet.

© Kobulova Nodira Bahodirovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Kobulova Nodira Bahodirovna

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z YASALISHI MASALASI

Nargiza Ixtiyorovna ZIYODDULLAYEVA,

NIU 70230101 – Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Nasiba Jumayevna YARASHOVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti professori, f.f.d. (DSc)

Annotatsiya: Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasalishi jarayonlarining lingvistik xususiyatlari hamda ularning sun’iy intellekt asosidagi avtomatik tahlil imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotda affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya kabi so‘z yasalish usullari qiyosiy tahlil qilinib, ularning tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlaridagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilining morfologik murakkabligi va uning sun’iy intellekt modellarida qayta ishlanishidagi muammolar tahlil etiladi. Ish natijasida so‘z yasalishi jarayonlarini modellashtirish orqali tilni avtomatik tahlil qilish samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, sun’iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash, morfologiya, ingliz tili, o‘zbek tili.

ПРОБЛЕМА СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной работе рассматриваются лингвистические особенности процессов словообразования в английском и узбекском языках, а также возможности их автоматического анализа на основе искусственного интеллекта. В исследовании проводится сравнительный анализ таких способов словообразования, как аффиксация, композиция и конверсия, и раскрывается их роль в системах обработки естественного языка (NLP). Кроме того, анализируется морфологическая сложность узбекского языка и проблемы его обработки в моделях искусственного интеллекта. В результате работы обосновываются возможности повышения эффективности автоматического анализа языка посредством моделирования процессов словообразования.

Ключевые слова: словообразование, искусственный интеллект, обработка естественного языка, морфология, английский язык, узбекский язык.

THE ISSUE OF WORD FORMATION IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract: This thesis examines the linguistic features of word formation processes in English and Uzbek, as well as the possibilities of their automatic analysis based on artificial intelligence. The study provides a comparative analysis of word formation methods such as affixation, compounding, and conversion, and highlights their role in natural language processing (NLP) systems. It also analyzes the morphological complexity of the Uzbek language and the challenges of its processing in artificial intelligence models. The results substantiate the potential for improving the efficiency of automatic language analysis through modeling word formation processes.

Keywords: word formation, artificial intelligence, natural language processing, morphology, English language, Uzbek language.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida tilshunoslik fanida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dolzarb yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) sohasining jadal rivojlanishi til birliklarini chuqur va avtomatik tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu jarayonda so'z yasalishi hodisasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u tilning ichki tuzilishi va rivojlanish mexanizmlarini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillari turli tipologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning so'z yasalishi tizimi ham o'ziga xosdir. Ingliz tilida affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya keng qo'llanilsa, o'zbek tilida asosan qo'shimchalar orqali yasalish ustunlik qiladi. Ushbu farqlar sun'iy intellekt asosida tilni avtomatik tahlil qilishda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqishda tilning morfologik xususiyatlarini to'g'ri aniqlash va qayta ishlash muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek tilining agglutinativ tuzilishi, ya'ni bir so'z tarkibida ko'plab qo'shimchalarning ketma-ket qo'llanishi, uni avtomatik tahlil qilish jarayonini murakkablashtiradi. Shu bois, so'z yasalishi jarayonlarini chuqur o'rganish va ularni algoritmik jihatdan modellashtirish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tezisning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida so'z yasalishi jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning sun'iy intellekt asosidagi tizimlarda qo'llanilish imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalari tilshunoslik va zamonaviy raqamli texnologiyalar integratsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. So'z yasalishi tilshunoslikda yangi leksik birliklarni hosil qilish jarayoni sifatida qaraladi. Abduaziz Abdurahmonov fikricha: "So'z yasalishi tilning lug'aviy boyligini oshiruvchi asosiy vositalardan biridir[1]." Ushbu jarayon har bir tilning ichki qonuniyatlari asosida shakllanib, uning morfologik tuzilishi va rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillari tipologik jihatdan farqlangan bo'lib, bu holat ularning so'z yasalishi tizimida ham o'z ifodasini topadi.

Ingliz tilida so'z yasalishining asosiy usullari sifatida affiksatsiya, kompozitsiya va

konversiya ajralib turadi. Affiksatsiya orqali so‘z boshiga yoki oxiriga qo‘shimchalar qo‘shilib yangi ma’no hosil qilinadi (masalan, happy → unhappy, teach → teacher). Kompozitsiya usulida ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘z birikib yangi so‘z hosil qiladi (blackboard, smartphone). Konversiya esa so‘zning shakli o‘zgarmagan holda uning grammatik turkumini o‘zgartirish orqali amalga oshadi (to google, to email)[2].

O‘zbek tilida esa so‘z yasalishi asosan affiksatsiya, ya’ni qo‘shimchalar yordamida amalga oshiriladi. O‘zbek tili agglutinativ til bo‘lgani sababli, bir so‘z tarkibida bir nechta qo‘shimchalar ketma-ket qo‘llanishi mumkin (o‘qituvchilik, ishbilarmonlik). Bundan tashqari, so‘z qo‘shish va semantik yasalish usullari ham mavjud. Ushbu xususiyatlar o‘zbek tilining morfologik boyligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Sun’iy intellektning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlari matnlarni tahlil qilish, tarjima qilish va tushunish jarayonlarida keng qo‘llaniladi. Ushbu tizimlarning samarali ishlashi uchun tilning ichki tuzilishini, xususan, so‘z yasalishi jarayonlarini chuqur o‘rganish zarur.

AI tizimlari matnni tahlil qilish jarayonida so‘zlarni morfologik jihatdan ajratadi, ya’ni ularning ildizi va qo‘shimchalarini aniqlaydi. Daniel Jurafsky va James H. Martin ta’kidlaganidek, “Language processing systems must account for morphological structure to accurately interpret meaning”, ya’ni tilni qayta ishlash tizimlari ma’noni to‘g‘ri tushunish uchun morfologik tuzilmani hisobga olishi zarur.[3] Masalan, ingliz tilidagi unhappiness so‘zi un + happy + ness qismlarga ajratiladi. Xuddi shunday, o‘zbek tilidagi o‘qituvchilarimizdan so‘zi bir necha morfemalarga bo‘linadi (o‘qi + t + uvchi + lar + imiz + dan). Bu jarayon tilni avtomatik tushunishda muhim bosqich hisoblanadi.

Shuningdek, so‘z yasalishi modellarini to‘g‘ri aniqlash mashinaviy tarjima tizimlarining aniqligini oshiradi. Agar tizim so‘zning tuzilishini tushunsa, u matnni yanada aniq va mazmunli tarjima qila oladi. Shu bois, lingvistik bilimlar va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilining agglutinativ tuzilishi sun’iy intellekt tizimlari uchun ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Bir so‘z tarkibida ko‘plab qo‘shimchalar mavjudligi sababli, uni avtomatik ravishda to‘g‘ri tahlil qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘zbek tilida raqamli lingvistik resurslarning yetarli emasligi ham muhim muammolardan biridir.

Hozirgi kunda ingliz tili uchun ko‘plab tayyor NLP modellar va korpuslar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tili uchun bunday resurslar hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa o‘zbek tilida sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlarning rivojlanishini sekinlashtiradi.Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda katta imkoniyatlar mavjud. O‘zbek tilining morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus algoritmlar yaratish, lingvistik korpuslar ishlab chiqish va sun’iy intellekt modellarini moslashtirish orqali tilni avtomatik qayta ishlash samaradorligini oshirish mumkin. Kelajakda bu jarayonlar nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim, tarjima va axborot texnologiyalari sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasalishi jarayonlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning lingvistik xususiyatlari hamda sun’iy intellekt tizimlaridagi

oʻrni yoritildi. Tadqiqot davomida har ikki tilning tipologik farqlari, xususan, ingliz tilining analitik, oʻzbek tilining esa agglutinativ xususiyatlari soʻz yasalishi tizimida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Shuningdek, soʻz yasalishi jarayonlari tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarida muhim komponentlardan biri ekanligi asoslab berildi. Sun'iy intellekt modellarida soʻzlarning morfologik tuzilishini toʻgʻri aniqlash matnni tushunish, tarjima qilish va tahlil qilish sifatini sezilarli darajada oshirishi ta'kidlandi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilining murakkab morfologik tuzilishi sun'iy intellekt uchun muayyan qiyinchiliklar tugʻdiradi, biroq shu bilan birga, uni chuqur oʻrganish va modellashtirish orqali katta imkoniyatlar yaratish mumkin. Shu bois, lingvistik bilimlar va zamonaviy raqamli texnologiyalarni uygʻunlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bularning barchasini inobatga olgan holda biz quyidagilarni taklif sifatida kirita olamiz:

1. Oʻzbek tilining soʻz yasalishi tizimini chuqur oʻrganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

2.Sun'iy intellekt asosida ishlovchi NLP tizimlari uchun oʻzbek tiliga mos lingvistik korpuslar va ma'lumotlar bazalarini yaratish lozim.

3.Oʻzbek tilining morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus algoritmlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

4.Ta'lim tizimida sun'iy intellekt va tilshunoslik integratsiyasini kuchaytirish orqali yangi innovatsion oʻquv metodlarini ishlab chiqish zarur.

5.Ingliz va oʻzbek tillari asosida qiyosiy lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirish orqali sun'iy intellekt tizimlarining aniqligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1.Abduaziz Abdurahmonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2010.

2.Shavkat Rahmatullayev. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. — Toshkent: Fan, 2006.

3.A. Nurmonov. Oʻzbek tilshunosligi nazariyasi. — Toshkent: Fan, 2012.

4.N. Mahmudov. Oʻzbek tili morfologiyasi. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2018.

5.S. Usmonov. Oʻzbek tili grammatikasi. — Toshkent: Fan, 2015.

6.Victoria Fromkin, Robert Rodman, Nina Hyams. An Introduction to Language. — Boston: Cengage Learning, 2018.

7.Daniel Jurafsky, James H. Martin. Speech and Language Processing. — Pearson, 2023.

8. Yarashova, Nasiba Jumayevna. "DISLALIYA VA UNING YUZAGA KELISHI." (2023).

9. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

10. Ярашова, Насиба Жумаевна. "Фонетико-стилистические особенности детской речи в поэтическом тексте." Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога. 2020.

11. Yarashova N. THREE GREAT GENIUS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 521-524.

12. Yarashova N. LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF OBSOLETE WORDS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 525-529.

13. Yarashova N. SOCIOPRAGMATIC STUDY OF HISTORICAL WORDS // Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1216-1219.

14. Yarashova N. METAPHORS AS METHODOLOGICAL TOOLS (IN THE EXAMPLE OF ABDULLA ORIPOV'S POETRY) //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1220-1223.

15. Yarashova N. DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 1093-1095.

16. Yarashova N. J. TARIXIY SO'ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI. – 2024.

17. Madraimov, A., Isakulova, N., Xoshimova, D., Rasulova, I., Kurbaniyozova, R., & Yarashova, N. (2025, April). Chrono Linguistic Modelling through AI Driven Conceptual Frameworks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

18. Yarashova, Nasiba Jumaevna. "Linguopsychological Characteristics of Children's Quasidological Speech."

19. Yarashova, Nasiba. "DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE." Modern Science and Research 2.10 (2023): 1093-1095.

20. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

1. Abdurahmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010. ↑

2. Yule G. The Study of Language. — 2020. ↑

3. Jurafsky D, James H. Martin. Speech and Language Processing. — Pearson, 2023. ↑

© Nargiza Ixtiyorovna ZIYODDULLAYEVA, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Nargiza Ixtiyorovna ZIYODDULLAYEVA

O‘ZBEK BOLALAR PUBLITSISTIK MATNLARIDA PRESUPPOZITSIYA VA PRAGMATIK IMPLIKATURADA SUN‘IY INTELLEKTNING O‘RNI.

Dilfuza Baxtiyar qizi XOLBEKOVA,

NIU 70230101 – Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek bolalar publitsistik matnlarida presuppozitsiya va pragmatik implikatura hodisalarining o‘rni tahlil qilinadi. Pragmatics nuqtayi nazaridan ushbu lingvistik vositalarning bolalar tafakkuriga ta’siri, ularning yashirin ma’no ifodalashdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy Artificial Intelligence texnologiyalarining mazkur jarayonlarni tahlil qilish va matn yaratishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida presuppozitsiya va implikatura bolalar uchun mo‘ljallangan matnlarning samaradorligini oshiruvchi muhim omillar ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: presuppozitsiya, pragmatik implikatura, bolalar matni, publitsistika, sun’iy intellekt, pragmatika.

Abstract

This article analyzes the role of presupposition and pragmatic implicature in Uzbek children’s journalistic texts. From the perspective of Pragmatics, the study examines how these linguistic phenomena influence children's thinking and convey implicit meanings. In addition, the role of Artificial Intelligence in analyzing such texts and generating child-friendly content is discussed. The findings show that presupposition and implicature are essential tools for enhancing the effectiveness of children’s journalistic texts.

Keywords: presupposition, pragmatic implicature, children’s texts, journalism, artificial intelligence, pragmatics.

Аннотация

В данной статье анализируется роль пресуппозиции и прагматической импликатуры в узбекских детских публицистических текстах. С точки зрения Прагматика рассматривается влияние этих явлений на мышление детей и их роль в передаче скрытого смысла. Также освещается значение технологий Artificial Intelligence в анализе и создании текстов для детей. В результате исследования установлено, что пресуппозиция и импликатура являются важными средствами повышения эффективности детских публицистических текстов.

Ключевые слова: пресуппозиция, прагматическая импликатура, детские тексты, публицистика, искусственный интеллект, прагматика.O'zbek bolalar publitsistik matnlarida presuppozitsiya va pragmatik implikaturada sun'iy intellektning o'rni

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda matnni chuqur tahlil qilish, ayniqsa bolalar uchun mo'ljallangan publitsistik matnlarni o'rganish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Pragmatika sohasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan pragmatika til birliklarining yashirin ma'nolari, kontekst va nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Xususan, presuppozitsiya va pragmatik implikatura bolalar publitsistik matnlarining mazmuniy chuqurligini belgilovchi asosiy vositalardan biridir[1].

Presuppozitsiya — bu gapda bevosita ifodalanmagan, lekin mavjud deb qabul qilinadigan ma'lumotdir. Bolalar publitsistik matnlarida presuppozitsiya ko'pincha o'quvchining oldingi bilimlariga tayanadi. Masalan, "U yana yaxshi ish qildi" kabi jumlada bolaning ilgari ham yaxshi ish qilgani nazarda tutiladi. Bu esa matnni qisqa, lo'nda va ta'sirchan qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, presuppozitsiya orqali muallif bolalarda ma'lum ijtimoiy va axloqiy tushunchalarni shakllantirishga intiladi[2]. Presuppozitsiya haqida yana bir muhim jihat shundaki, u matnni ortiqcha izohsiz tushunarli qilish mexanizmi sifatida ishlaydi. Ya'ni muallif hamma narsani ochiq aytmaydi, balki o'quvchining bilimiga "ishonadi". Shu sababli presuppozitsiya — bu nafaqat lingvistik hodisa, balki kognitiv (tafakkurga oid) jarayon ham hisoblanadi. Masalan, "Aziza yana savolda adashmadi" jumlasida nafaqat u xato qilmaganligi, balki ilgari ham to'g'ri javob bergani presuppozitsiya sifatida mavjud. Bu orqali matn qisqaradi, lekin mazmun boyiydi Bular "yana", "ham", "to'xtadi", "boshladi", "davom etdi" kabi birliklar bo'lib, ular oldingi holat mavjudligini yashirin tarzda bildiradi[3]. Bolalar matnlarida esa presuppozitsiya tarbiyaviy vosita sifatida ishlaydi. Masalan, "U yana kattalarga yordam berdi" jumlasi bolaga yordam berish odatiy va ijobiy xulq ekanini bilvosita singdiradi.Shuningdek, presuppozitsiya noto'g'ri tushunilsa, matnni anglashda xatolik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli uni tahlil qilish pragmatikaning muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu yo'nalish Herbert Paul Grice nazariyalari bilan ham chambarchas bog'liq[4].

Pragmatik implikatura esa nutqda bevosita aytilmagan, lekin kontekst orqali anglashiladigan yashirin ma'nodir. Bolalar uchun yozilgan publitsistik matnlarda implikatura tarbiyaviy maqsadlarda keng qo'llanadi. Masalan, qahramonning xatti-harakati orqali "yaxshi bo'lish kerak" degan xulosa beriladi, lekin bu fikr ochiq aytilmaydi. Bu usul bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va matnni yanada qiziqarli qiladi. Pragmatik implikatura nutqda bevosita aytilmagan, lekin kontekst orqali anglashiladigan yashirin ma'no hisoblanadi. U gapning grammatik tuzilishidan emas, balki nutq vaziyati, ohang va umumiy kontekstdan kelib chiqib tushuniladi. Shu jihati bilan u

presuppozitsiyadan farq qiladi, chunki implikatura odatda muallifning bilvosita maqsadini ifodalaydi. Masalan, “Sinf juda shovqin bo‘lyapti” jumlasida hech qanday buyruq berilmagan bo‘lsa-da, tinglovchi bundan “jim bo‘ling” degan ma’noni anglaydi. Bu — pragmatik implikaturaning yaqqol namunasidir. Bolalar publitsistik matnlarida implikatura ayniqsa muhim, chunki u o‘quvchini tayyor xulosa bilan emas, balki mustaqil fikrlash orqali ma’noni topishga undaydi. Bu esa bolalarning mantiqiy tafakkurini va matnni chuqur tushunish qobiliyatini rivojlantiradi[5]. Shuningdek, implikatura ko‘pincha tarbiyaviy maqsadlarda qo‘llanadi. Masalan, “Kitob o‘qigan bola ko‘p narsani biladi” jumlasi ochiq buyruq bermasa-da, “kitob o‘qish kerak” degan yashirin tavsiyani bildiradi[6].

Bugungi kunda bu jarayonlarni o‘rganishda va rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, ‘‘Natural Language Processing‘‘ (tabiiy tilni qayta ishlash) yo‘nalishi orqali matnlarning semantik va pragmatik qatlamlarini tahlil qilish imkoniyati kengaydi[7]. Sun’iy intellekt yordamida matndagi presuppozitsiyalar aniqlanadi, implikaturalarning yashirin ma’nolari ochib beriladi va matnning umumiy kommunikativ maqsadi tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt bolalar publitsistik matnlarini yaratishda ham muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. U murakkab fikrlarni soddalashtirib, yosh o‘quvchilarga mos shaklda ifodalashga yordam beradi. Bundan tashqari, SI asosida yaratilgan tizimlar o‘quvchilarga matnni tushunishda interaktiv yordam ko‘rsatib, savol-javoblar orqali implikatura va presuppozitsiyalarni anglashni osonlashtiradi. Biroq, sun’iy intellektdan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, u har doim ham kontekstni to‘liq anglay olmaydi yoki milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olmasligi mumkin[8]. Bu esa ba’zan noto‘g‘ri talqinlarga olib keladi. Shuning uchun SI imkoniyatlaridan foydalanishda inson nazorati va lingvistik bilimlar muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda presuppozitsiya va implikaturaga namunalar, ularning yashirin ma‘nosi hamda izohlar keltirilgan.

Turi	Misollardan namunalar	Yashirin ma‘no (tahlil)	Izoh
Presuppozitsiya	“Dilshod yana musobaqada g‘olib bo‘ldi.”	Dilshod ilgari ham g‘olib bo‘lgan.	“yana” so‘zi oldingi holat mavjudligini bildiradi.
Presuppozitsiya	“U maktabga kechikishni to‘xtatdi.”	U ilgari maktabga kechikib kelgan.	“to‘xtatdi” fe’li oldingi harakatni anglatadi.

Presuppozitsiya	"Bolalar yana kitob o'qishga qiziqa boshladi."	Oldin ham qiziqish bo'lgan.	Oldingi tajriba yashirin holda berilgan.
Implikatura	"Sinf juda shovqin bo'lyapti."	"Jim bo'linglar" degan ishora.	To'g'ridan-to'g'ri buyruq berilmagan.
Implikatura	"Bugun uy vazifasi ham bor ekan."	"Uni bajarish kerak" degan ma'no.	Yashirin majburiyat ifodasi.
Implikatura	"Kitob o'qigan bola ko'p narsani biladi."	"Sen ham kitob o'qi" degan undov	Tarbiyaviy implikatura mavjud
SI (tahlil)	SI matndan "yana", "to'xtatdi" kabi birliklarni ajratadi	Presuppozitsiyani avtomatik aniqlaydi.	"Natural Language Processing" orqali amalga oshadi.
SI (yaratish)	SI bolalar uchun: "Halol bola doim hurmat topadi"	Yashirin tarbiyaviy implikatura beradi	"Artificial Intelligence" matn generatsiyasi

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa bolalar uchun mo'ljallangan publitsistik matnlarni tahlil qilishda pragmatik yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Presuppozitsiya va pragmatik implikatura matnning nafaqat yuzaki mazmunini, balki uning ichki, yashirin qatlamlarini ham ochib beruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Ular orqali muallif o'z fikrini qisqa, lo'nda va ta'sirchan tarzda yetkazadi, shu bilan birga o'quvchining tafakkurini faollashtiradi. Shu bilan birga, "Natural Language Processing" asosidagi sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt matn tarkibidagi yashirin ma'nolarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va tahlil qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotlar sifatini oshiradi, balki ta'lim jarayonida ham innovatsion yondashuvlarni joriy etishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova, M., & Gulomova, N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences, Vol. 4 (2023), pp. 111–115.
2. Abjalova, M., & Gulomova, N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // 2022 7th International Conference on Computer Science and

Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 182–187. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.

3. M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.
4. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford University Press, 1962.
5. Fairclough, N.Discourse and Social Change. Polity Press, 1992.
6. Hudayberganov, B. Tilshunoslikka kirish.Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2010. – 312 b.
7. Levinson, S. C. Pragmatics.Cambridge University Press, 1983.
8. Mahmudov, N. Til va nutq madaniyati. Toshkent: Fan, 2005. – 210 b.
9. Nurmonov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 380 b.
10. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008. – 225 b.
11. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press, 1969.
12. Sirojiddinov, S., Abjalova, M., Normamatov, S., & Gulomova, N. "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus." 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48–53.
DOI: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

1. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: Toshkent, 2008. – 225 b. ↑
2. Mahmudov,N.‟Til va nutq madaniyati‟2005, Toshkent: Fan, 210 b. ↑
3. Hudayberganov, B. Tilshunoslikka kirish 2010, Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 312 b ↑
4. Levinson, S. C. Pragmatics. Cambridge University Press, 1983. ↑
5. Nurmonov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2002, Toshkent: O'qituvchi, 380 b. ↑
6. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: Toshkent, 2008. – 225 b. ↑
7. Fairclough, N. Discourse and Social Change. Polity Press, 1992. ↑
8. Searle, J. R. Speech Acts. 1969. ↑

© XOLBEKOVA Dilfuza Baxtiyar qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

XOLBEKOVA Dilfuza Baxtiyar qizi

O'ZBEK VA INGLIZTILLARIDA FE'L ZAMONLARI VA OLMOSHLARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

To'rayeva Jasmina Xurshid qizi,

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida fe'l zamonlari hamda olmoshlar tizimining morfologik, grammatik va semantik-pragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbek tilidagi agglutinativ xususiyatlar asosida zamon shakllarining affiksatsiya yo'li bilan yasalishi ingliz tilidagi analitik zamon shakllari bilan solishtiriladi. Shuningdek, har ikki tildagi olmoshlarning guruhlari, ularning funksional yuklamasi va qo'llanishdagi farqlar yoritiladi. Qiyosiy tahlil natijalari ikki tilni o'rganish va o'qitishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: zamon kategoriyasi, fe'l zamonlari, morfologiya, qiyosiy tahlil, semantik pragmatik xususiyatlar, o'zbek va ingliz tillari, olmoshlar tizimi.

Annotation: This article provides a comparative analysis of the morphological, grammatical, and semantic-pragmatic features of verb tenses and pronouns in the Uzbek and English languages. The study examines the affixational formation of tense forms in Uzbek as an agglutinative language and contrasts it with the analytical tense system of English. In addition, the classification, functional roles, and usage differences of pronouns in both languages are discussed. The findings highlight the theoretical and practical significance of comparative linguistic analysis for language learning and teaching.

Keywords: tense category, verb tenses, morphology, comparative analysis, semantic pragmatic features, Uzbek and English languages, pronoun system.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ морфологических, грамматических и семантико-прагматических особенностей глагольных времен и местоимений в узбекском и английском языках. Исследование рассматривает аффиксационное образование форм времен в узбекском языке как агглютинативном языке и сопоставляет его с аналитической системой времен английского языка. Кроме того, обсуждаются классификация, функциональные роли и различия в употреблении местоимений в обоих языках.

Результаты подчеркивают теоретическую и практическую значимость сравнительного лингвистического анализа для изучения и преподавания языка.

Ключевые слова: категория времен, глагольные времена, морфология, сравнительный анализ, семантико-прагматические особенности, узбекский и английский языки, система местоимений

Kirish

Til tizimida zamon kategoriyasi eng muhim grammatik kategoriyalardan biri bo‘lib, u nutqda ifodalanayotgan voqea-hodisalarning nutq paytiga munosabatini, shuningdek, harakatlarning ketma-ketligi va davomiyligini belgilaydi. O‘zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo‘lishiga qaramay, ularning zamon tizimida muayyan o‘xshashlik va farqlar mavjud. Ushbu jihatlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy til o‘qitish jarayoni uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida fe’l zamonlarining semantik-pragmatik xususiyatlari masalasi N. Mahmudov, A. Hojiyev, A. Nurmonov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ingliz tilshunosligida esa zamon kategoriyasi analitik tizim sifatida mukammal tasniflangan bo‘lib, u qat’iy grammatik qoidalar asosida shakllanadi.

O‘zbek va ingliz tillarida fe’l zamonlari tizimi.O‘zbek tilida fe’l zamonlari an’anaviy ravishda uch asosiy guruhga bo‘linadi: o‘tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon. Ushbu zamon shakllari asosan affiksatsiya yo‘li bilan hosil qilinadi.

O‘tgan zamon: yaqin o‘tgan zamon (-di), uzoq o‘tgan zamon (-gan), o‘tgan zamon hikoyasi (r edi).

Hozirgi zamon: hozirgi-kelasi zamon (-a/-y), hozirgi zamon davom fe’li (-yap), hozirgi zamon (-moqda).

Kelasi zamon: kelasi zamon gumon (-ar), kelasi zamon maqsad (-moqchi), kelasi zamon (ajak). Masalan: yoz-di, yoz-yap-ti, yoz-ajak.

Ingliz tilida zamonlar tizimi murakkab analitik tuzilishga ega bo‘lib, an’anaviy ravishda 12 ta zamonni o‘z ichiga oladi. Ular to‘rt asosiy guruhga ajratiladi: Simple, Continuous, Perfect va Perfect Continuous. Har bir guruh o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarida qo‘llanadi. Ingliz tilida zamonlar yordamchi fe’llar (do, be, have, will) orqali yasaladi. Masalan: Past Simple, Present Continuous, Future Perfect va boshqalar. Bu holat ingliz tilining analitik xarakterini, o‘zbek tilining esa agglutinativ xususiyatini yaqqol namoyon etadi.

Fe’l zamonlarining semantik-pragmatik xususiyatlari.Har ikkala tilda ham zamon kategoriyasi nafaqat grammatik, balki semantik va pragmatik jihatdan murakkab tizimni

tashkil etadi. O‘zbek tilida ayrim zamon shakllari uslubiy jihatdan farqlanadi: masalan,-moqda shakli ko‘proq ilmiy uslubda,-(a)r shakli publitsistik uslubda,-ib(dir) shakli esa badiiy matnlarda faol qo‘llaniladi. Ingliz tilida esa zamon shakllarining uslubiy farqlanishi unchalik yaqqol emas, asosan kontekst orqali aniqlanadi.

O‘zbek va ingliz tillarida olmoshlar tizimi.Olmoshlar mustaqil so‘z turkumi bo‘lib, ot, sifat va son o‘rnida qo‘llanadi. O‘zbek tilida olmoshlar ma’no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra kishilik, ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, gumon, bo‘lishsizlik va o‘zlik olmoshlariga bo‘linadi.

Ingliz tilida olmoshlar ham ot o‘rnida qo‘llanib, shaxsiy, egalik, o‘zlik, ko‘rsatish, so‘roq, bog‘lovchi va noaniq olmoshlar kabi guruhlarga ajratiladi. Ingliz tilidagi muhim farqlardan biri — olmoshlarning jins kategoriyasi bilan moslashuvidir. O‘zbek tilida grammatik jins mavjud emas, ingliz tilida esa he, she, it olmoshlari orqali jinsiy farqlanish ifodalanadi.

Muhokama va tahliliy mulohazalar.Fe’l zamonlari va olmoshlar tizimining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilning grammatik qurilishi ularning umumiy tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek tilining agglutinativ tabiati zamon shakllarining ixcham va tizimli affikslar orqali ifodalanishini ta’minlaydi, bu esa nutqda aniqlik va iqtisodiylikni yuzaga keltiradi. Ingliz tilida esa analitik tuzilma zamon ma’nolarining yordamchi fe’llar va qat’iy so‘z tartibi orqali ifodalanishiga olib keladi. Bu holat ingliz tilida zamon shakllarining ko‘pligi va ularning nozik semantik farqlari bilan izohlanadi.

Shuningdek, semantik-pragmatik jihatdan qaralganda, o‘zbek tilida zamon shakllari ko‘pincha nutq egasining subyektiv munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, kelasi zamon gumon shakli (-ar) ehtimollik va taxmin ma’nolarini kuchaytiradi. Ingliz tilida esa bunday ma’nolar asosan modal fe’llar va kontekst orqali aniqlanadi. Bu farq ikki til vakillarining voqelikni ifodalash uslubida ham madaniy-lisoniy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Olmoshlar tizimi tahlili ham muhim xulosalarni yuzaga keltiradi. O‘zbek tilida olmoshlarning funksional yuklamasi keng bo‘lib, ular ko‘pincha sintaktik tejamkorlikni ta’minlaydi. Ingliz tilida esa olmoshlarning shaxs, son va jinsda moslashuvi grammatik aniqlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, jins kategoriyasining mavjudligi ingliz tilida axborot aniqligini oshirsa-da, tarjima jarayonida o‘zbek tilidan ingliz tiliga o‘girishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Mazkur tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fe’l zamonlari va olmoshlar tizimini qiyosiy o‘rganish chet tillarni o‘qitishda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Talabalarda interferensiya holatlarining oldini olish, grammatik kompetensiyani shakllantirish va nutqiy malakalarni rivojlantirishda bunday tahlil muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek va ingliz tillarida fe’l zamonlari hamda olmoshlar tizimi grammatik tuzilishi, yasalish mexanizmi va semantik yuklamasi jihatidan sezilarli farqlarga ega. O‘zbek tilining agglutinativ tabiati zamon kategoriyasining affiksatsiya orqali ifodalanishida namoyon bo‘lsa, ingliz tilining analitik xususiyati yordamchi fe’llar va qat’iy grammatik modellarga tayanadi. Olmoshlar tizimida esa ingliz tilidagi jins kategoriyasi va egalik shakllarining mustaqil qo‘llanilishi asosiy farqlardan biri hisoblanadi.

Ushbu ilmiy maqolada keltirilgan xulosalar qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi hamda chet tillarni o‘qitish metodikasida nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida mazkur tadqiqotni kengroq korpus materiallari asosida davom ettirish, shuningdek, pragmatik va diskursiv omillarni chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. . Asqarova, M. (2012). Hozirgi o‘zbek tilida fe’l zamonlari. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Hojiyev, A. (2010). O‘zbek tili morfologiyasi. Toshkent: Fan.
3. Nurmonov, A. (2015). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Ilm Ziyo.
4. Mahmudov, N. (2009). O‘zbek tilining semantik-pragmatik masalalari. Toshkent: Fan.
5. G‘apporov, M., Qosimova, R. (2010). Ingliz tili grammatikasi. Toshkent: O‘quv qo‘llanma.
6. Morozova, O. A., Yaxina, A. M. (2021). Teoreticheskaya grammatika sovremennogo angliyskogo yazyka. Yelabuga
7. Huddleston, R., Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman.
9. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge: Cambridge University Press.
12. Use of Pronouns in Academic Writing. (2021). Research Prospect.

© To‘rayeva Jasmina Xurshid qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

To‘rayeva Jasmina Xurshid qizi

Ta'lim tizimida sun'iy intellektga asoslangan axborot tizimlarini joriy etish va qo'llab-quvvatlash: innovatsiyalar va samaradorlik

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Ingliz tili ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi

Asadova Diyora Shuhrat qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim tizimida sun'iy intellektga asoslangan axborot tizimlarini joriy etishning dolzarbligi, ularning afzalliklari, qo'llanilish sohalari hamda samaradorligi keng yoritiladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni rivojlantirish va qo'llab-quvatlash bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari, ragamli ta'lim, innovatsiya, avtomatlashtirish, samaradorlik, masofaviy ta'lim.*

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib, inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ta'lim tizimi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt yordamida o'quv jarayonini avtomatlashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini aniglash va ularga individual yondashuvni ta'minlash imkoniyati yaratilmoqda. Shu sababli ta'lim tizimiga sun'iy intellekt asosidagi axborot tizimlarini joriy etish muhim va dolzarb masalalardan biri. Sun'iy intellekt bu komputer tizimlarining inson tafakkuriga xos bo'lgan fikrlash, o'rganish va qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajarish qobiliyatidir. Ta'lim sohasida ushbu texnologiya o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, o'quv materiallarini moslashtirish va o'qitish jarayonini samarali tashkil etishda qo'llaniladi. Masalan, ayrim dasturlar o'quvchining bilimiga qarab murakkablik darajasini o'zgartiradi va xatolarni aniqlab, qo'shimcha tushuntirishlar beradi.Hozirgi kunda ta'lim tizimida turli xil sun'iy intellekt asosidagi axborot tizimlari keng qo'llanilmoqda. Jumladan, o'quv boshqaruv tizimlari, adaptiv o'qitish platformalari, virtual yordamchilar va avtomatik baholash tizimlari shular jumlasidandir. Bu tizimlar o'quv jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, masofaviy ta'lim tizimlarining rivojlanishi bilan sun'iy intellektning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Sun'iy intellektni ta'lim tizimiga joriy etish bir qator afzalliklarni ta'minlaydi. Avvalo, o'quvchilarga individual yondashuv imkoniyati yaratiladi.

So'nggi yillarda SI ning ta'limdagi qo'llanilishi jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan, YUNESKO ta'limda SI ni adolatli va inklyuziv tarzda qo'llashni ta'kidlab, uning SDG 4 (sifatli ta'lim) maqsadlariga erishishdagi potentsialini yuqori baholamoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, adaptiv o'qitish tizimlari

o‘quvchilarning natijalarini 12-62% gacha yaxshilashi, o‘qituvchilarning ma’muriy yukini esa 40% gacha kamaytirishi mumkin. Bu esa o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash va pedagogik innovatsiyalarga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini raqamlashtirish va SI texnologiyalarini joriy etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentning PQ-4996-sonli qarori (2021) va “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida SI ni jadal joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan choralar ko‘rilmoqda. O‘zbekiston oliy va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kundalik” elektron tizimi kabi platformalarni rivojlantirish, SI elementlarini integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning monitoringi va individual yondashuvni kuchaytirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu jarayon nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki mamlakatning raqobatbardoshligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu innovatsiyalar ta’lim tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi: o‘quv vaqtini qisqartirish, resurslardan oqilona foydalanish, o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtirokini kuchaytirish, shuningdek, inklyuziv ta’limni (nogironligi bor yoki maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun) rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, SI chatbotlari talabalar uchun 24/7 yordam ko‘rsatishi, o‘qituvchilar esa takroriy vazifalardan xalos bo‘lib, ijodiy va individual ishlarga e’tibor qaratishi mumkin. Biroq, SI ni joriy etish jarayoni muayyan qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Ularga malakali mutaxassislar yetishmasligi, axborot xavfsizligi va maxfiylik masalalari, etik normalar (bias, adolatlilik), infratuzilma va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi kiradi. Shu bois, SI ga asoslangan tizimlarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat texnologik, balki institutsional, ta’limiy va siyosiy choralar majmuasini talab etadi: o‘qituvchilar va rahbarlar uchun treninglar, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro tajribani o‘rganish va pilot loyihalarni kengaytirish. Har bir o‘quvchi o’z qobiliyatiga mos ravishda bilim oladi.

Bundan tashqari, o‘qituvchilarning ish yuklamasi kamayadi, chunki baholash va nazorat jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bu esa o‘qituvchiga ko‘proq vaqtni o‘quvchilar bilan ishlashga ajratish imkonini beradi. Yana bir muhim jihat shundaki, sun’iy intellekt yordamida ta’lim sifati oshadi. Tizimlar o’quvchilarning xatolarini tahlil qilib, ularga mos tavsiyalar beradi. Natijada bilimni o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi. Shuningdek, masofaviy ta’lim imkoniyatlari kengayadi va bu orqali ko’proq insonlar ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali mutaxassislarning kamligi, internet tezligining pastligi va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni hal etish uchun ta’lim muassasalarini zamonaviy texnika bilan ta’minlash, mutaxassislarni tayyorlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular yordamida o’quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi ortadi, vaqt tejaladi va o’qituvchi hamda

o'quvchi o'rtasidagi aloqa yaxshilanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalari shakllanadi, esa zamonaviy ta'limnina eng muhim.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektga asoslangan axborot tizimlarini ta'lim tizimiga joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini avtomatlashtiradi, samaradorlikni oshiradi va zamonaviy ta'lim muhitini yaratadi. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash orqali ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va uni yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stuart Russell, Peter Norvig. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. – 4th ed. – Pearson Education, 2021.
2. Nils J. Nilsson. *The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
3. UNESCO. *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development*. – Paris, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi. *"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun*. – Toshkent, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi*. – Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. *Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ-4996). – Toshkent, 2021.

© Asadova Diyora Shuhrat qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Asadova Diyora Shuhrat qizi

Theoretical and Methodological Foundations of Modern Philological Research in the Digital Age

Umarov Bobir Norboyevich

Uzbekistan state world languages university

Senior teacher of the department of integrated

course of English language 3

Email: bobirumarov80@gmail.com

Mukhtorova Laylokhon Botirali qizi

Undergraduate Student, 2nd Year

Uzbekistan state world languages university

Email: **layloxonmuxtorova1111@gmail.com**

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations of modern philological research in the context of the digital age. It analyzes the transformation of traditional approaches under the influence of digital technologies and highlights the integration of contemporary linguistic fields such as cognitive linguistics, pragmatics, discourse analysis, and linguoculturology into philological education and research. The study identifies key challenges, including the gap between classical methods and digital demands, and proposes solutions based on the implementation of corpus-based tools, data-driven analysis, and interdisciplinary approaches. The article also outlines the potential of digital environments to enhance students' analytical skills and research competencies. The findings suggest that combining traditional philological methods with innovative digital practices leads to more effective and relevant outcomes in both research and education.

Key words: philology, digital technologies, cognitive linguistics, pragmatics, discourse analysis, linguoculturology, corpus linguistics, interdisciplinary approach, methodology, digital education

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы современной филологической науки в условиях цифровой эпохи. Анализируется трансформация традиционных подходов под влиянием цифровых технологий, а также интеграция современных лингвистических направлений, таких как когнитивная лингвистика, прагматика, дискурс-анализ и лингвокультурология, в систему филологического образования и научных исследований. Выявляются ключевые проблемы, включая разрыв между классическими методами и требованиями цифровой среды, и предлагаются пути их решения на основе внедрения корпусных технологий, анализа данных и междисциплинарного подхода. Особое внимание уделяется роли цифровых инструментов в развитии аналитических навыков и исследовательских компетенций студентов. Делается вывод о том, что сочетание традиционных и инновационных методов обеспечивает более высокую эффективность научной и образовательной деятельности.

***Ключевые слова*:** филология, цифровые технологии, когнитивная лингвистика, прагматика, дискурс-анализ, лингвокультурология, корпусная лингвистика, междисциплинарный подход, методология, цифровое образование

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli davr sharoitida zamonaviy filologik tadqiqotlarning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. An'anaviy yondashuvlarning raqamli texnologiyalar ta'sirida o'zgarishi, shuningdek, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, diskurs tahlili va lingvokulturologiya kabi zamonaviy yo'nalishlarning filologik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarga integratsiyasi yoritiladi. Tadqiqotda asosiy muammolar, jumladan, an'anaviy metodlar va raqamli talablar o'rtasidagi tafovut aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish uchun korpus lingvistikasi, ma'lumotlarga asoslangan tahlil va fanlararo yondashuvlar taklif etiladi. Shuningdek, raqamli muhitning talabalar tahliliy fikrlashini va ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Xulosa sifatida an'anaviy va innovatsion metodlarning uyg'unlashuvi ilmiy va ta'limiy samaradorlikni oshirishi ta'kidlanadi.

***Kalit so'zlar*:** filologiya, raqamli texnologiyalar, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, diskurs tahlili, lingvokulturologiya, korpus lingvistikasi, fanlararo yondashuv, metodologiya, raqamli ta'lim

In recent decades, philological research has undergone significant transformationdue to the rapid development of digital technologies and the expansion of interdisciplinary approaches. The traditional boundaries of philology, which once focused primarily on textual analysis, historical linguistics, and literary studies, are increasingly being redefined in response to the demands of the digital age. Today, the study of language and texts is no longer limited to classical methods but is enriched by

innovative tools, data-driven methodologies, and emerging linguistic paradigms. The integration of digital technologies into philological research has opened new opportunities for analyzing large volumes of textual data, enabling scholars to apply corpus-based methods, computational analysis, and digital annotation techniques. At the same time, contemporary linguistic fields such as cognitive linguistics, pragmatics, discourse analysis, and linguoculturology have expanded the theoretical and methodological framework of philology. These approaches emphasize the dynamic, contextual, and culturally embedded nature of language, thereby contributing to a more comprehensive understanding of linguistic phenomena.

Despite these advancements, a significant gap remains between traditional philological education and the requirements of modern research practices. In many academic contexts, teaching methods still rely heavily on conventional approaches, with limited incorporation of digital tools and interdisciplinary perspectives. This disconnect can hinder the development of students' analytical, critical thinking, and research skills, which are essential in the contemporary academic and professional environment. The relevance of this study lies in addressing these challenges by examining the theoretical and methodological foundations of modern philological research in the digital era. The aim of the article is to analyze the transformation of philological methodologies under the influence of digitalization, to identify key problems in current educational and research practices, and to propose effective solutions for integrating innovative approaches into philological studies.

To achieve this aim, the study focuses on the following objectives: to explore the evolution of philological research methodologies in the context of digital technologies; to examine the role of contemporary linguistic disciplines in shaping modern philology; to identify the main challenges in integrating digital tools into philological education; and to suggest methodological strategies that combine traditional and innovative approaches.The transformation of philological research in the digital age has been extensively examined within linguistics, digital humanities, and applied philology. Contemporary scholarship increasingly emphasizes that the integration of digital technologies represents not simply a technical enhancement, but a fundamental methodological shift toward empirical, data-driven analysis. As noted by McEnery and Hardie, corpus linguistics has redefined language study by enabling systematic analysis of authentic linguistic data on an unprecedented scale. Large linguistic corpora such as the British National Corpus and the Corpus of Contemporary American English have become essential resources in modern philology. Research by Biber and colleagues demonstrates that corpus-based approaches significantly increase the reliability and objectivity of linguistic analysis compared to intuition-based methods. Similarly, Sinclair argues that meaning emerges from patterns of usage observable only through large-scale textual data, reinforcing the importance of corpus-driven methodologies.The

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan idiomalarining sinonimik va antonimik munosabatlari qiyosiy-semantik nuqtai nazardan o'rganiladi. Ish jarayonida idiomalarning til tizimidagi o'rni, ularning ko'chma ma'no asosida shakllanishi, barqarorligi hamda nutqdagi ifodaviylik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, har ikki tilda ma'nodosh idiomalar orqali yaqin semantik munosabatlar, zid ma'noli idiomalar orqali esa qarama-qarshi tushunchalarning ifodalanishi aniq misollar yordamida izohlanadi. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarning umumiyliklari bilan bir qatorda o'ziga xos jihatlarini ham ochib beradi. Bundan tashqari, mazkur birliklarning milliy-madaniy asoslari va ularning nutq jarayonidagi stilistik ahamiyati ham yoritiladi. Ish doirasida idiomalarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda uchraydigan ayrim muammolar ham ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar frazeologiya, semantika hamda tarjimashunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: idioma, frazeologik birlik, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, semantik tahlil, qiyosiy yondashuv, ingliz va o'zbek tillari.

Annotation: This study examines the synonymous and antonymous relationships of idioms used in the English and Uzbek languages from a comparative-semantic perspective. The research analyzes the role of idioms in the language system, their formation based on figurative meaning, their stability, and their expressive features in speech. Additionally, close semantic relationships are explained through synonymous idioms in both languages, while opposing concepts are illustrated through antonymous idioms with the help of clear examples. The results of the study reveal not only the similarities but also the distinctive features of idioms in English and Uzbek. Furthermore, the national-cultural foundations of these units and their stylistic significance in speech are also highlighted. The study also addresses certain challenges encountered in translating idioms from one language to another. The findings may be useful for research in the fields of phraseology, semantics, and translation studies.

Key words: idiom, phraseological unit, synonymy, antonymy, semantic analysis, comparative approach, english and uzbek languages.

Аннотация: В данном исследовании с сравнительно-семантической точки зрения рассматриваются синонимические и антонимические отношения идиом, используемых в английском и узбекском языках. В ходе работы анализируются место идиом в языковой системе, их формирование на основе переносного значения, устойчивость, а также выразительные особенности в речи. Кроме того, близкие семантические отношения раскрываются через синонимичные идиомы в обоих языках, а противоположные понятия объясняются с помощью антонимичных идиом на конкретных примерах. Результаты исследования выявляют не только сходства, но и специфические особенности идиом в английском и узбекском языках. Также освещаются национально-культурные основы данных единиц и их стилистическое значение в процессе речи. В рамках работы рассматриваются и некоторые трудности, возникающие при переводе идиом с одного языка на другой. Полученные результаты могут быть полезны для исследований в области фразеологии, семантики и переводоведения.

Ключевые слова: идиома, фразеологическая единица, синонимия, антонимия, семантический анализ, сравнительный подход, английский и узбекский языки.

Kirish Til – millat tafakkuri va madaniyatining asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, idiomalar tilning obrazliligi va milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim birliklardir. Ularning sinonimik va antonimik munosabatlarini oʻrganish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda davlat siyosatida ham til va madaniyat masalalariga alohida eʻtibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʻkidlaganidek: “Ona tilimiz – milliy oʻzligimiz va mustaqil davlatchiligimizning asosiy tayanchidir”[1].

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya sohasi til tizimini chuqur oʻrganishda muhim oʻrin tutadi, chunki u tilning nafaqat lugʻaviy boyligini, balki xalqning tafakkuri, urf-odati va madaniy qarashlarini ham oʻzida mujassam etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, idiomalar frazeologik birliklar ichida eng murakkab va mazmun jihatidan boy qatlamlardan biri hisoblanadi. Ular koʻchma maʻnoga asoslanganligi, tarkibiy barqarorligi hamda nutqqa yuqori darajada obrazlilik va taʻsirchanlik baxsh etishi bilan ajralib turadi [2].

Hozirgi kunda ingliz va oʻzbek tillarini qiyosiy oʻrganish jarayonida idiomalarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biri sifatida eʻtirof etilmoqda. Ayniqsa, ularning sinonimik va antonimik munosabatlarini oʻrganish orqali til birliklari oʻrtasidagi maʻno aloqalarini aniqlash, tilning ichki tizimini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi [3]. Maʻnodosh idiomalar bir xil yoki yaqin mazmunni turli

shakllarda ifodalasa, zid ma'noli idiomalar orqali qarama-qarshi semantik munosabatlar yuzaga chiqadi[4].

Mazkur ishning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarning sinonimik va antonimik munosabatlarini qiyosiy-semantik asosida o'rganish hamda ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqotda idiomalarning lingvistik tabiati, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan ayrim muammolar ham ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Frazeologiya nazariyasining shakllanishida V.Vinogradov muhim o'rin tutadi. U frazeologik birliklarni semantik jihatdan yaxlit va barqaror birlik sifatida izohlab, ularning tizimli xususiyatlarini asoslab bergan [5]. Ingliz tilshunosligida Alexander Kunin idiomalarni struktur-semantik jihatdan tasniflab, ularning nutqdagi funksional xususiyatlarini yoritadi [6]. Unga ko'ra, idiomalar orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlar ko'pincha kontekst bilan belgilanadi.

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan idiomatik birliklar nafaqat tilning badiiy boyligini ko'rsatadi, balki insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarini ham chuqur ifodalaydi. Ayniqsa, **"ko'ngil bermoq", "jon chekmoq"** kabi birliklar sevgi, sadoqat va iztirob kabi tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Masalan, "ko'ngil bermoq" iborasi oshiqning ma'shuqaga nisbatan samimiy va chuqur muhabbatini bildiradi. Bu yerda "ko'ngil" – insonning ruhiy markazi sifatida talqin qilinib, uni "berish" esa butun borliqni sevgiga bag'ishlashni anglatadi. Shu bilan birga, "jon chekmoq" idiomasi esa aksincha, iztirob va ruhiy azobni ifodalaydi. Bu ibora ko'pincha oshiqning hijron, yetishmovchilik yoki umidsizlik holatida qo'llanadi.

Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida **Shavkat Rahmatullayev** frazeologik birliklarni tizimlashtirib, ularning ma'no munosabatlarini izchil tahlil qilgan[7]. Umuman zamonaviy yondashuvda idiomalar nafaqat til birligi, balki milliy tafakkur ifodasi sifatida qaraladi. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarning sinonim va antonim munosabatlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llaniladi: qiyosiy, semantik, kontekstual tahlil, lingvokulturologik yondashuv, deskriptiv usul.

Sinonimik idiomalar ingliz tilida:

• to die – kick the bucket, pass away, go to heaven.
• to be happy – on cloud nine, over the moon, extremely happy.

O'zbek tilida:

• vafot etmoq – olamdan o'tmoq, ko'z yumdi, jon berdi.
• xursand bo'lmoq – boshi osmonga yetdi, og'zi qulog'ida.

Antonimik idiomalar ingliz tilida:

- keep one's head (xotirjam) – lose one's head (sarosima).
- in high spirits (kayfiyati yaxshi) – down in the dumps (tushkun).

O'zbek tilida:

- ko'ngli joyida – yuragi siqildi.
- ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq.

Bu misollar qarama-qarshi ma'no orqali kuchli ekspressivlik beradi.

Xulosa va takliflar: Tadqiqot natijasida aniqlandiki, har ikki tilda idiomalar bir xil ma'noni turli obrazlar orqali ifodalashi (sinonimiya) hamda qarama-qarshi ma'nolarni berishi (antonimiya) bilan ajralib turadi. Quyidagi takliflar bunga misol bo'loladi:

1. Idiomalarni o'rganishda faqat tarjima bilan cheklanmasdan, ularning qaysi vaziyatda va qanday madaniy muhitda qo'llanishiga ham e'tibor berish kerak.
2. Ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarni solishtirib, ularni bir joyga jamlagan qiyosiy lug'atlar tuzish foydali bo'ladi.
3. Dars jarayonida idiomalardan ko'proq foydalanish talabalarning so'z boyligini oshirish va nutqni tabiiyroq qilishga yordam beradi.

Amaliy takliflar: mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, idiomalarni o'rganishda ularning faqat ma'nosini bilish yetarli emas, balki real nutq jarayonida qanday vaziyatda qo'llanilishi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun har bir idioma misollar orqali tahlil qilinib, uning kontekstga qarab qanday ma'no berishi alohida o'rganilishi kerak. Kelgusida esa idiomalarni lingvokulturologik va pragmatik jihatdan yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgan amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent. 2017.

[2] Viktor Vinogradov. Frazeologiya nazariyasi. – Moskva. 2014. – C. 17.

[3] Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent.

[4] M. A. Abjalova, N.S.G'ulomova, "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus", 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024,pp.48-53.

[5] S.Sirojiddinov, M.Abjalova, S. Normamatov and V.Gulomova, “The Problem of the Archaic words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus,” 2024 9^{th} International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024,pp.48-53.

[6] M. A. Abjalova, N.S.G‘ulomova Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database.//IEEE – UBMK – 2022: 7^{th} International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp.182-187.

[7] Abjalova M., G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasi. // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4 (1) /2023. – B. 14-31.

© Axtamova Maftuna Hoshimovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Axtamova Maftuna Hoshimovna

"Filologik tadqiqotlarda ChatGPT va boshqa generatorli neyrotarmoqlarning qiyosiy tahlili"

Sotiboldiyeva Marjona Ozodjon qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti magistiranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy filologik tadqiqotlarda keng qoʻllanila boshlagan generatorli sun'iy intellekt modellarining oʻrni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, bugungi kunda eng mashhur uchta model — ChatGPT (OpenAI), DeepSeek (DeepSeek AI) va Gemini (Google) — filologik tadqiqot jarayonida qanday vazifalarni samarali bajarishi va qanday hollarda ularning imkoniyatlari cheklanganligi qiyosiy tarzda oʻrganiladi.Tadqiqot davomida har bir modelning matn generatsiyasi, uslubiy tahlil, matnni qisqartirish, tarjima, annotatsiya tayyorlash, grammatik va stilistik xatolarni aniqlash kabi filolog uchun muhim boʻlgan funksiyalari sinovdan oʻtkaziladi. Sinovlar uchun badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar namuna sifatida tanlanadi.

Kalit soʻzlar: *filologik tadqiqotlar, ChatGPT, DeepSeek, Gemini, neyrotarmoqlar, qiyosiy tahlil, sun'iy intellekt, matn tahlili, cheklovlar*

Soʻnggi ikki yil ichida sun'iy intellekt sohasidagi eng koʻp gapirilgan va bahsli mavzulardan biri bu generatorli neyrotarmoqlardir. Ayniqsa, 2022-yil oxirida ChatGPT'ning ommaga taqdim etilishi bilan oddiy odamlar ham, tadqiqotchilar ham sun'iy intellekt bilan jonli suhbatlashish, undan matn yozishni soʻrash, hatto ilmiy maqolalar tayyorlashda foydalanish imkoniyatiga ega boʻldi. Bu texnologiya tezda filologiya sohasiga ham kirib keldi va bir qancha savollarni tugʻdirdi: neyrotarmoqlar haqiqatan ham filologik tadqiqotlarda ishlatilishi mumkinmi? Ular tilshunos yoki adabiyotshunos olimning oʻrnini bosa oladimi? Yoki ular faqat yordamchi vosita boʻlib qoladimi?

Hozirgi kunda dunyoning turli mamlakatlarida filologik tadqiqotlarda sun'iy intellekt modellaridan foydalanish boʻyicha dastlabki ilmiy ishlar paydo boʻla boshladi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu vositalarni shartli ravishda ma'qullasa, boshqalar ularga juda ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati faqat bitta model — asosan ChatGPT — atrofida qurilgan va boshqa modellar bilan qiyosiy tahlil qilinmagan. Holbuki, bugungi kunda ChatGPT bilan bir qatorda unga raqobatchi boʻlgan DeepSeek, Gemini, Claude kabi kuchli neyrotarmoqlar ham mavjud. Ularning har biri oʻziga xos arxitektura, oʻqitish usuli va imkoniyatlarga ega. Shu sababli, qaysi model qaysi filologik vazifada samaraliroq ekanligini bilish ham tadqiqotchi, ham talaba, ham oʻqituvchi uchun muhim.Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — uchta eng mashhur generatorli neyrotarmoq — ChatGPT, DeepSeek va Gemini — ning filologik

tadqiqotlardagi imkoniyatlarini qiyosiy oʻrganish va ularning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlashdir. Tadqiqot davomida har bir modelning matn generatsiyasi, stilistik tahlil, tarjima, grammatik tahrir va matnni qisqartirish kabi filolog uchun dolzarb boʻlgan vazifalarni qay darajada bajara olishi sinovdan oʻtkaziladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda birinchi marta bir nechta generatorli neyrotarmoq bir xil filologik vazifalar kontekstida solishtiriladi. Shuningdek, ishda nafaqat modellarning afzalliklari, balki ularning cheklovlari va notoʻgʻri natijalar berish holatlari ham ochiq tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muallif neyrotarmoqlarni "sehrli tayoqcha" sifatida emas, balki malakali qoʻlda foydalanilganda foydali boʻlishi mumkin boʻlgan vosita sifatida qaraydi.

Generatorli neyrotarmoqlar — bu katta hajmdagi matnlar asosida oʻqitilgan va foydalanuvchining soʻroviga binoan tabiiy tilda matn yaratadigan sun’iy intellekt modellaridir. Oddiy qilib aytganda, ular insonga oʻxshab yozishni, savollarga javob berishni va hatto murakkab vazifalarni bajarishni oʻrgangan kompyuter dasturlaridir. Ushbu maqolada biz uchta eng keng tarqalgan modelni solishtiramiz: ChatGPT (OpenAI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan), DeepSeek (Xitoyning DeepSeek kompaniyasi mahsuloti) va Gemini (Google tomonidan yaratilgan). Har bir model oʻziga xos xususiyatlarga ega, ammo ularning barchasi filologik tadqiqotlarda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan asosiy funksiyalarni taklif qiladi: matn yozish, matnni tahlil qilish, tarjima qilish, xatolarni tuzatish va matnni qisqartirish.

Tahlil qilishdan oldin, men qanday usulda ish olib borganimni qisqacha tushuntirib oʻtay. Tadqiqot davomida uchala modelga bir xil vazifalar berildi. Vazifalar filologik tadqiqotlarda eng koʻp uchraydigan ish turlaridan tanlab olindi:

Matn yozish: Berilgan mavzuda qisqa maqola yoki insho yozish.

Stilistik tahlil: Badiiy matn parchasi uslubini tahlil qilish.

Tarjima: Ingliz tilidagi matnni oʻzbek tiliga tarjima qilish.

Grammatik tahrir: Xatoli matndagi xatolarni topish va tuzatish.

Matnni qisqartirish: Uzoq matnni asosiy mazmunini saqlagan holda qisqartirish.

Har bir topshiriq natijalari uchta mezon boʻyicha baholandi: aniqlik (ma’lumotlar toʻgʻrimi?), uslubiy jihatdan toʻgʻrilik (til me’yorlariga mosmi?) va foydalilik (filologik ishda amalda qoʻllash mumkinmi?). Endi har bir modelning natijalarini alohida koʻrib chiqaylik.

ChatGPT hozirgi kunda eng mashhur model. Men uni sinovdan oʻtkazganimda, birinchi boʻlib e’tiborimni tortgan narsa — uning tili juda tabiiy va ravon ekanligi. Masalan, undan “Alisher Navoiy ijodida muhabbat talqini” mavzusida qisqa maqola yozishni

so‘raganimda, u juda chiroyli, mantiqiy bog‘langan va o‘qishga qulay matn yozib berdi. Jumlalar tabiiy, uslub ilmiy-ommabop darajada. Bu filolog talaba yoki o‘qituvchi uchun dastlabki material tayyorlashda juda qulay.Biroq, ChatGPT’ning bir muhim kamchiligi bor — u ba’zida ishonchli ko‘rinadigan, lekin aslida xato yoki umuman mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni beradi. Masalan, men undan “20-asr o‘zbek she’riyatining eng muhim uch vakili”ni nomlashni so‘raganimda, u ba’zi shoirlarning nomlarini to‘g‘ri keltirgan bo‘lsa-da, ular haqidagi ayrim faktlarda xatoga yo‘l qo‘ydi. Demak, ChatGPT’dan olingan har qanday ma’lumotni ishlatishdan oldin tekshirish kerak. Bu uning filologik tadqiqotlarda mustaqil manba sifatida emas, balki yordamchi vosita sifatida ishlatilishi kerakligini ko‘rsatadi.Stilistik tahlilda ham ChatGPT yaxshi natija ko‘rsatdi. Men unga Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan bir parcha berib, uslubini tahlil qilishni so‘radim. U parchaning sodda, xalq tiliga yaqin ekanligini, muallifning tasvirlarda realizmga intilganini va dialoglarning jonli ekanligini to‘g‘ri aniqladi. Biroq, tahlil yuzaki bo‘lib qoldi — u matndagi ba’zi murakkab badiiy vositalarni (masalan, ohang o‘zgarishlari yoki kinoya elementlarini) payqamadi.Xulosa qilib aytganda, ChatGPT matn yozish va umumiy tahlil qilishda kuchli, ammo chuqur ilmiy tahlil uchun yetarli emas. Uning natijalarini filtrdan o‘tkazmasdan ishlatish xavfli.

DeepSeek ChatGPT’ga nisbatan kamroq tanilgan, ammo sinovlarim shuni ko‘rsatdiki, bu model ba’zi jihatlardan raqobatchilarini ortda qoldiradi. Ayniqsa, mantiqiy fikrlash va matnni chuqur tahlil qilish talab qilinadigan vazifalarda DeepSeek ancha ishonchli natija berdi.Masalan, grammatik xatolarni tuzatish vazifasida DeepSeek juda aniq ishladi. Men unga ataylab grammatik, imloviy va tinish belgilarida xatolari bor bir matn berdim. DeepSeek barcha xatolarni topdi va ularni tuzatish bilan birga, nega bunday tuzatish kerakligini ham qisqacha izohlab berdi. Bu izohlar tilshunoslik nuqtai nazaridan asosli va to‘g‘ri edi. ChatGPT esa xatolarning hammasini topa olmadi, ba’zi o‘rinlarda xato bo‘lmagan joyga “xato” deb belgi qo‘ydi.Tarjima vazifasida esa DeepSeek va ChatGPT o‘rtasida katta farq bo‘lmadi — ikkalasi ham ingliz tilidagi oddiy matnlarni o‘zbek tiliga yaxshi tarjima qildi. Biroq badiiy matn tarjimasida (masalan, bir she’r parchasi) DeepSeek so‘zma-so‘z tarjimaga moyil bo‘lgan bo‘lsa, ChatGPT badiiy ifodaga ko‘proq e’tibor qaratdi. Bu yerda qaysi biri “yaxshi” degan savolga aniq javob berish qiyin — barchasi maqsadga bog‘liq. Agar aniq ma’no muhim bo‘lsa, DeepSeek; agar badiiy ta’sir muhim bo‘lsa, ChatGPT yaxshiroq.DeepSeek’ning yana bir kuchli tomoni — u o‘zi bilmagan savolga “bilmayman” deb javob berishga qiynalmaydi. ChatGPT ba’zida bilmagan narsasini ham uqdirib javob berishga urinadi. Bu jihatdan DeepSeek filologik tadqiqotlar uchun ishonchliroq yordamchi hisoblanadi.

Google tomonidan ishlab chiqarilgan Gemini modeli, ayniqsa, ko‘p tilli muhitda va turli xil ma’lumot manbalarini birlashtirish kerak bo‘lganda yaxshi natija ko‘rsatdi. Men Geminidan bir xil matnni (bir parcha she’r) uch xil tilga — ingliz, rus va o‘zbek tillariga tarjima qilishni so‘radim. Gemini bu vazifani boshqa ikkala modelga qaraganda tezroq va

sifatliroq bajardi. Ayniqsa, o'zbek tilidagi tarjimada u she'riy shaklga va ohangga ko'proq e'tibor berdi.Gemini'ning yana bir afzalligi — u internetga ulangan holda ishlay oladi. Bu unga eng so'nggi ma'lumotlarni olish va bir nechta manbalarni solishtirish imkoniyatini beradi. Masalan, men undan "O'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi bo'yicha 2024-2025 yillarda chiqqan asosiy ishlar"ni so'radim. Gemini haqiqatan ham o'sha yillarga oid ishlarni topib, ularni qisqacha tavsiflari bilan keltirdi. ChatGPT va DeepSeek esa (internetga ulanish imkoniyati cheklangan) faqat 2023-yilgacha bo'lgan ma'lumotlar bilan cheklandi.Biroq Gemini'ning ham kamchiliklari bor. Ba'zida uning javoblari juda umumiy bo'lib qoladi, chuqur tahlilga kirishmaydi. Masalan, men undan bir badiiy matnning mafkuraviy qatlamlarini tahlil qilishni so'raganimda, u faqat eng yuza darajadagi kuzatishlar bilan cheklandi. Bunday murakkab tahlillar uchun hali ham inson tadqiqotchisi zarur.

Uchala modelni solishtiradigan bo'lsak…

Sinovlardan so'ng men quyidagi xulosaga keldim. Har bir modelning o'z kuchli va zaif tomonlari bor:

Vazifa turi	**Eng yaxshi model**	**Nima uchun?**
Ijodiy matn yozish (insho, maqola)	ChatGPT	Tili eng tabiiy va ravon
Stilistik tahlil (chuqur emas, yuzaki)	ChatGPT	Umumiy kuzatuvlarni yaxshi ifodalaydi
Chuqur mantiqiy tahlil	DeepSeek	Xatolarni aniq topadi va asoslab beradi
Grammatik tahrir	DeepSeek	Eng aniq va izchil
Badiiy tarjima	ChatGPT	Badiiy ifodaga e'tibor qaratadi
Aniq ma'noli tarjima	DeepSeek	So'zma-so'z tarjimada aniq
Ko'p tilli vazifalar	Gemini	Bir necha tilni bir vaqtda yaxshi boshqaradi
Yangi ma'lumotlar bilan ishlash	Gemini	Internetga ulangan, dolzarb ma'lumotlarni oladi

Vazifa turi	Eng yaxshi model	Nima uchun?
Oʻz chegarasini bilish	DeepSeek	Bilmasa, “bilmayman” deydi

Uchala modelning umumiy kamchiliklari ham bor. Birinchidan, ularning hech biri matnning madaniy va tarixiy kontekstini toʻliq tushunmaydi. Masalan, eski oʻzbek adabiyotidagi baʼzi istiora yoki kinoyalarni ular notoʻgʻri talqin qilishi mumkin. Ikkinchidan, barcha modellar baʼzida ishonchli koʻrinadigan, lekin mutlaqo yolgʻon maʼlumotlar beradi. Filologiya sohasida bunday xatolar (masalan, notoʻgʻri sheʼr talqini yoki adabiyot tarixiga oid xato faktlar) jiddiy muammoga aylanishi mumkin.

Uchinchidan, bu modellar filologik matnlarni tahlil qilganda, ular faqat statistik ehtimolliklarga asoslanadi. Ular matnning estetik qiymatini, hissiy taʼsir kuchini yoki muallifning niyatini chinakam tushunmaydi. Shuning uchun ham hech qanday neyrotarmoq yaqin kelajakda inson filologining oʻrnini bosa olmaydi.

Sinov natijalaridan kelib chiqib, filologik tadqiqotlarda neyrotarmoqlardan foydalanmoqchi boʻlganlarga quyidagi tavsiyalarni beraman:

- Neyrotarmoqlarni **yordamchi vosita** sifatida koʻring, asosiy manba sifatida emas.
- Har doim model bergan maʼlumotlarni tekshirib oling, ayniqsa faktik maʼlumotlar boʻlsa.
- Murakkab tahlil vazifalarida DeepSeek’ni sinab koʻring — u mantiqiy vazifalarda ancha ishonchli.
- Ijodiy yozish yoki umumiy matn tayyorlashda ChatGPT qulay.
- Agar dolzarb maʼlumotlar kerak boʻlsa yoki bir necha til bilan ishlasangiz, Geminidan foydalaning.
- Hech qachon model natijalarini oʻzgartirmasdan maqolaga koʻchirmang — bu ilmiy odobga zid va plagiat hisoblanadi.

XULOSA:Ushbu maqolada biz uchta eng mashhur generatorli neyrotarmoq — ChatGPT, DeepSeek va Gemini — ning filologik tadqiqotlarda qo‘llanilish imkoniyatlarini qiyosiy tarzda o‘rganishga harakat qildik. Tadqiqot davomida har bir model matn yozish, stilistik tahlil, tarjima, grammatik tahrir va matnni qisqartirish kabi filolog uchun muhim bo‘lgan vazifalarda sinovdan o‘tkazildi.Sun’iy intellekt filologiya sohasiga tez va kuchli kirib kelmoqda. Buni to‘xtatib bo‘lmaydi, hatto kerak ham emas. Asl savol — biz bu vositalardan qanday foydalanamiz? Ular bizning o‘rnimizni egallab, fikrlash qobiliyatimizni bo‘shashtirib qo‘yadimi yoki aksincha, bizni yangi ufqlarga olib chiqadigan kuchli yordamchiga aylanadimi? Buning javobi faqat o‘zimizga bog‘liq.Menimcha, neyrotarmoqlar filologik tadqiqotlarda inqilob qilish imkoniyatiga ega, ammo bu inqilobning qanday bo‘lishi — ijobiy yoki salbiy — bizning qo‘limizda. Agar biz bu vositalarni tanqidiy nuqtai nazar bilan, aqlli va mas’uliyatli ishlatsak, ular filologiya fanining rivojiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Agar ularga ko‘r-ko‘rona ishonib, o‘zimiz o‘ylashni to‘xtatsak, bu fanga zarar keltiradi.Umumiy qilib aytganda, ChatGPT, DeepSeek va Gemini kabi generatorli neyrotarmoqlar filologik tadqiqotlarda foydali va kuchli vositalardir, ammo ular mukammal emas. Ulardan eng yaxshi natijaga erishish uchun ularning kuchli va zaif tomonlarini bilish, to‘g‘ri vazifada to‘g‘ri modelni tanlash va eng muhimi, hech qachon inson aqlining o‘rnini bosa olmasligini yodda tutish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Pellas, N. (2025). AI Chatbots in Philology: A User Experience Case Study of Conversational Interfaces for Content Creation and Instruction. *Multimodal Technologies and Interaction*. https://doi.org/10.3390/mti9070065
2. Al-Aizar, A. A. A. (2026). The Human Versus Artificial Intelligence Translations: A Contrastive Analysis of Ghassan Kanafani's Men in the Sun. *Sana'a University Journal of Human Sciences*. https://doi.org/10.59628/jhs.v5i1.2474
3. Yaseen, M. (2025). Rhetoric, Creativity, and Machine Limits: ChatGPT 4.5 Plus as a Model for Comparing Human and AI-Generated Arabic Prose. *Türkiye İlahiyat Araştırmaları Dergisi*,. https://doi.org/10.32711/tiad.1670986
4. Nailurrahmi, F., Fauziyatullah, H. A., Fuadah, S. S., & Akmaliyah, A. (2025). Analisis Perbandingan Makna Balaghiyyah Antara Kamus Al-Ma'ani dan Google Gemini dalam Terjemahan Sya'ir Ibnu Rumi. *Moderasi: Journal of Islamic Studies*. https://doi.org/10.54471/moderasi.v5i2.141

5. Zulkiflee, Z., & Damit, A. R. (2026). When Machines Speak Wisdom: A Comparative Study of Perambahan Brunei Darussalam in AI Platforms. In *Cultural Heritage and AI: Bridging Traditions and Technology*. IGI Global. https://doi.org/10.4018/979-8-3373-4397-6.ch004

© Sotiboldiyeva Marjona Ozodjon qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Sotiboldiyeva Marjona Ozodjon qizi

Искусственный интеллект и его роль в педагогической деятельности.

Даминжанова Башоратхон

Студентка 3 курса

Навоийского университета инноваций

Аннотация: В данной статье исследуется влияние технологий искусственного интеллекта (ИИ) на современную образовательную среду. Рассматриваются возможности персонализации обучения, автоматизации рутинных задач преподавателя и трансформации роли педагога в условиях цифровизации. Анализируются преимущества и потенциальные риски внедрения ИИ. Цель работы — выявить наиболее эффективные стратегии интеграции ИИ в учебный процесс для повышения качества образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая педагогика, адаптивное обучение, образовательные технологии, автоматизация, инновации в образовании.

Введение

Современная система образования находится на пороге фундаментальных изменений, вызванных стремительным развитием технологий искусственного интеллекта. ИИ перестал быть концепцией будущего и стал рабочим инструментом в руках исследователей и практиков. В условиях глобальной информатизации педагогическая деятельность требует пересмотра традиционных подходов. Актуальность темы обусловлена необходимостью адаптации образовательных программ к требованиям цифровой экономики, где ИИ выступает не только объектом изучения, но и мощным средством обучения.

Анализ литературы

Вопросы внедрения ИИ в образование активно обсуждаются в трудах ведущих исследователей. Р. Лакин и У. Холмс (2019) подчеркивают, что ИИ способен решать проблему «дилеммы двух сигм» Блума, обеспечивая индивидуальный подход к каждому ученику в массовом классе. Исследования С. К. Бейкера (2021) сосредоточены на аналитике данных обучения (Learning Analytics), позволяющей прогнозировать успеваемость. В отечественной литературе акцент делается на этических аспектах и сохранении гуманистической составляющей

образования (И.В. Роберт, 2020). Несмотря на обширную базу, вопросы готовности педагогов к использованию генеративного ИИ остаются открытыми.

Раздел методов

Для оценки роли ИИ в педагогической деятельности было проведено комплексное исследование, включающее:

1. Теоретический анализ: изучение международных отчетов (UNESCO, OECD) и научных публикаций за 2023–2026 гг.

2. Опрос: анкетирование 150 преподавателей высших учебных заведений с целью выявления уровня их ИИ-грамотности.

3. Педагогический эксперимент: внедрение элементов адаптивных платформ (на базе алгоритмов машинного обучения) в учебный процесс в течение одного семестра.

Раздел результатов

Искусственный интеллект (ИИ) уже не будущее, а реальность современной педагогики. Он не заменяет учителя, а кардинально меняет его роль: из «транслятора знаний» педагог превращается в фасилитатора, наставника и дизайнера индивидуальных образовательных траекторий. ИИ берёт на себя рутину, персонализирует обучение и открывает новые возможности для масштабирования качественного образования.

Основные направления применения ИИ в педагогике

Персонализированное обучение

Адаптивные платформы (типа Duolingo, Khan Academy с ИИ, Coursera, Stepik, Яндекс.Учебник) анализируют скорость усвоения материала, ошибки и стиль обучения ученика. Система автоматически подбирает сложность задач, подсказки и даже формат подачи (видео, текст, интерактив).

Результат: ученик не скучает на «слишком простом» и не отстаёт на «слишком сложном».

Интеллектуальные тьюторские системы и чат-боты

ИИ-тьюторы (например, на базе GPT-моделей, Google Gemini for Education, российские разработки вроде «Грок» в образовательных сценариях) могут 24/7 отвечать на вопросы учеников, объяснять сложные темы простым языком и

предлагать дополнительные упражнения. Учитель при этом получает отчёт о слабых местах класса.

Автоматизация оценки и обратной связи

ИИ мгновенно проверяет эссе, сочинения, код, рисунки и даже устную речь (с анализом произношения). Инструменты вроде Grammarly Education, Turnitin с ИИ или российские аналоги дают не просто оценку, а развёрнутую обратную связь с рекомендациями по улучшению.

Генерация образовательного контента

Учитель может за секунды получить:

- план урока с учётом ФГОС и возраста;

- интерактивные задания;

- тесты разных уровней сложности;

- визуализации и презентации.

Это особенно ценно для учителей-предметников с большой нагрузкой.

Аналитика и прогнозирование

ИИ анализирует данные об успеваемости, посещаемости, вовлечённости и заранее сигнализирует о риске отставания или «выгорания». Школы и вузы используют это для timely вмешательства.

Инклюзивное образование

ИИ-переводчики в реальном времени, голосовые ассистенты для слабовидящих, генерация субтитров и упрощённого текста для детей с ОВЗ.

Преимущества для всех участников процесса

- Для учеников: индивидуальный темп, мгновенная обратная связь, мотивация через геймификацию и успех.

- Для учителей: освобождение 30–50 % времени от рутины (по данным исследований 2024–2025 гг.). Появляется время на творчество, работу с мотивацией и глубокие обсуждения.

- Для системы образования: масштабирование качественного обучения даже в отдалённых регионах, снижение стоимости и повышение доступности.

Вызовы и риски (честно и без прикрас)

- Цифровой разрыв: не у всех детей есть стабильный интернет и устройства.

- Этика и приватность: данные об учениках — это огромный массив чувствительной информации. Нужны жёсткие регуляции.

- Предвзятость ИИ: если модель обучалась на нерепрезентативных данных, она может усиливать стереотипы.

- Снижение человеческого фактора: переизбыток ИИ может привести к потере живого общения, эмпатии и критического мышления.

- Профессиональная переподготовка педагогов: учителя должны учиться работать с ИИ, иначе технология останется «для галочки».

Будущее: 2026–2030

По прогнозам UNESCO и OECD, к 2030 году ИИ станет стандартным инструментом в 80 % образовательных систем развитых стран. Мы увидим:

- мультимодальные ИИ-агенты (понимают текст + речь + жесты + эмоции);

- интеграцию с VR/AR для иммерсивного обучения (химия в лаборатории, история «вживую»);

- персональные «цифровые двойники» ученика для моделирования карьеры и траектории развития.

Главный вывод: ИИ — это не угроза профессии педагога, а мощнейший усилитель. Самые эффективные учителя будущего — те, кто научится задавать ИИ правильные вопросы, интерпретировать его результаты и сохранять за собой главное — человеческие отношения, воспитание ценностей и развитие креативности.

Раздел обсуждения

Результаты показывают, что ИИ не заменяет педагога, но существенно меняет его функции. Преподаватель переходит от роли «транслятора знаний» к роли «ментора» и «дизайнера образовательного опыта».

Однако обсуждение выявило ряд критических барьеров:

Цифровой разрыв: Неравный доступ к высокотехнологичным инструментам.

Этика: Проблемы плагиата и академической честности при использовании генеративных моделей.

Психологический аспект: Опасения педагогов потерять профессиональную автономию.

Важно понимать, что эффективность ИИ напрямую зависит от методической грамотности его применения. Без четко выстроенной педагогической цели ИИ остается лишь дорогостоящей игрушкой.

Заключение

Искусственный интеллект является катализатором развития современной педагогики. Он открывает беспрецедентные возможности для масштабирования качественного образования. Основной вывод статьи заключается в том, что интеграция ИИ — это не технический вопрос, а стратегическое изменение образовательной парадигмы. Успех этой трансформации зависит от симбиоза человеческого интеллекта (эмпатия, критическое мышление, этика) и искусственного (скорость обработки данных, масштабируемость).

Список литературы

1. ЮНЕСКО. Руководство по генеративному искусственному интеллекту в образовании и исследованиях. — Париж: ЮНЕСКО, 2023.
2. OECD. AI and the Future of Skills, Volume 1: Capabilities and Assessments. — OECD Publishing, Paris, 2023.
3. European Commission. Ethical guidelines on the use of artificial intelligence and data in teaching and learning for educators. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
4. Лакин Р. Искусственный интеллект в образовании: надежды и опасения / Р. Лакин, У. Холмс. — М.: Издательский дом Высшей школы экономики, 2022. — 312 с.
5. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. — UCL Press, 2020.
6. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. — Bloomsbury Academic, 2021.
7. Бейкер С. К. Адаптивные системы обучения: теория и практика применения в высшей школе // Вопросы образования. — 2023. — № 2. — С. 45–68.
8. Holmes W., Tuomi I. State of the art and practice in AI in education // European Journal of Education. — 2022. — Vol. 57, No. 4. — P. 542–570.

9. Иванов А. А. Этические аспекты использования больших языковых моделей (LLM) в педагогическом процессе // Педагогика и психология. — 2024. — № 1. — С. 12–25.
10. Ouyang F., Jiao P. Artificial Intelligence in Education: The Three Paradigms // Computers and Education: Artificial Intelligence. — 2021. — Vol. 2.
11. Смит Дж. Генеративный ИИ для преподавателей: практическое руководство по созданию учебных планов и оценке знаний. — Электронный ресурс, 2025.
12. Петров И. В. Цифровая трансформация вуза: интеграция нейросетей в дисциплины естественнонаучного цикла // Вестник университета. — 2026. — № 3.

© Даминжанова Башоратхон, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Даминжанова Башоратхон

РОЛЬ СЛОЖНОПОДЧИНЁННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В РОМАНЕ А.Н.ТОЛСТОГО «ХОЖДЕНИЕ ПО МУКАМ»

Шокирова С.Ш., магистрант

Навоийского университета инноваций

Науч.рук. док.филос. (Phd),

и.о.проф. кафедры филологии и обучения языкам

Мардонова Ф.Б.

Аннотация. В статье исследуется роль сложноподчинённых предложений (СПП) в трилогии А.Н. Толстого «Хождение по мукам». Рассматривается, как эти синтаксические конструкции служат средством психологического раскрытия образов интеллигенции в эпоху революции и гражданской войны, передают динамику исторических событий, создают подтекст авторской оценки и усиливают эпический масштаб повествования. Особое внимание уделяется стилистическим функциям СПП в формировании ритма прозы, отражении внутренних конфликтов персонажей и интеграции личного и общественного начало

Ключевые понятия: сложноподчинённые предложения, синтаксис художественной прозы, психологизм, историческая эпопея, революционная тема, стилистическая функция, монументальный реализм.

THE ROLE OF COMPLEX SUBORDINATE SENTENCES IN A.N. TOLSTOY'S TRILOGY "THE ROAD TO CALVARY"

Abstract. This article examines the role of complex subordinate sentences (CSS) in A.N. Tolstoy's trilogy «The Road to Calvary». These syntactic constructions are analysed as a means of psychologically revealing the images of the intellectuals during the period of revolution and civil war, conveying the dynamics of historical events, creating the subtext of the author's assessment, and enhancing the epic scale of the narrative. Special attention is paid to the stylistic functions of CSS in shaping the rhythm of the prose, reflecting the internal conflicts of the characters, and integrating personal and social principles **Key concepts:** complex subordinate sentences, syntax of artistic prose, psychologism, historical epic, revolutionary theme, stylistic function, monumental realism.

Проза Толстого, как и вся литература первой половины XX столетия, отражает сложность переходной эпохи, где личная судьба неразрывно связана с историей страны. Ю.Н. Тынянов отмечал, что в прозе конструкция определяет восприятие, а синтаксис становится инструментом культурного диалога. В «Хождении по мукам» СПП выполняют не только грамматическую, но и глубоко стилистическую функцию: они создают ощущение непрерывности времени, подчёркивают внутренние противоречия героев и позволяют автору вводить оценочные нюансы без прямого вмешательства.

Сложноподчинённые предложения занимают одно из центральных мест в синтаксисе художественной прозы XX века, особенно в произведениях, посвящённых переломным историческим эпохам. В отличие от простых конструкций, СПП позволяют автору передавать многослойность мышления, переплетение причинно-следственных связей и глубину психологических переживаний. А.Н. Толстой в романе-эпопее «Хождение по мукам» мастерски использует эти конструкции для воссоздания атмосферы предреволюционного и революционного времени, раскрытия судеб русской интеллигенции и отражения грандиозных общественных сдвигов.

Одной из важнейших функций СПП в романе является психологический анализ внутреннего мира персонажей. Толстой часто прибегает к конструкциям с придаточными изъяснительными и определительными, чтобы передать поток сознания, сомнения и эмоциональные колебания. Например, в описании состояния Даши Булавиной автор использует сложную структуру, где несколько придаточных раскрывают причины её тревоги: «У Даши все сильнее росло чувство не то возбуждения, не то беспокойства, это началось с той минуты, когда она увидела в степи черный корабль, который, казалось, плыл по воздуху, хотя на самом деле стоял на якоре у берега, и который будил в ней смутные воспоминания о чем-то далеком и неизбежном» [2, с 38]. Здесь СПП с цепочкой придаточных («когда...», «который...», «хотя...») создаёт эффект нарастания эмоций, подчёркивая, как внешний образ (чёрный корабль) переплетается с внутренними переживаниями героини. Подобные конструкции позволяют читателю не просто наблюдать за Дашей, а переживать вместе с ней процесс осознания надвигающихся перемен.

Аналогично в портретах других персонажей СПП служат для передачи внутренних конфликтов. О Бессонове, поэте-декаденте, Толстой пишет: «Бессонов переживал сводящую скулы оскомину, когда целыми днями валялся у моря, разглядывая лица: женские – смеющиеся, покрытые солнечной пылью загара, и мужские – медно-красные и взволнованные, он с унынием чувствовал, что сердце его, как лед, лежит в груди, хотя вокруг кипела жизнь, полная страстей и надежд» [3, с. 42].

Придаточные времени и сравнения («когда...», «хотя...») усиливают контраст между внешним миром и душевным холодом героя, подчёркивая кризис интеллигенции, оторванной от народных корней. Такие предложения не только описывают, но и интерпретируют, вводя авторскую иронию.

Вторая важная функция СПП – передача динамики исторических событий и революционных катаклизмов. Толстой использует придаточные обстоятельственные (времени, причины, условия), чтобы показать, как личные судьбы вплетаются в ход истории. Это создаёт ощущение неостановимого потока времени, где всё взаимосвязано. Пример из описания предвоенной атмосферы: «Люди, привыкшие думать, что будущий день так же ясен, как вдалеке синеватые очертания гор, даже умные и прозорливые люди не могли ни видеть, ни знать ничего, лежащего вне мгновения их жизни, потому что над землёй уже опускалось невидимое облако, которое крутилось бешено и яростно, предвещая бурю» [2, с 37]. Здесь СПП с придаточными причины и определительными формирует ощущение неизбежности катастрофы. Главное предложение («люди не могли...») «расширяется» придаточными, символизируя, как личное неведение сталкивается с объективными силами истории. Подобные конструкции встречаются в сценах революционных событий, где они передают хаос и напряжение.

Третья функция – создание подтекста и авторской оценки. Толстой, будучи мастером монументального реализма, избегает прямых деклараций, предпочитая вводить свои взгляды через синтаксис. СПП с уступительными и следственными придаточными позволяют показать противоречия эпохи без дидактики. Например: «Петербург жил бурливо-холодной, пресыщенной, полуночной жизнью, где фосфорические летние ночи, сумасшедшие и сладострастные, и бессонные ночи зимой, зеленые столы и шорох золота, музыка, крутящиеся пары за окнами, бешеные тройки, цыгане, дуэли на рассвете, в свисте ледяного ветра и пронзительном завывании флейт – парад войскам перед наводящим ужас взглядом византийских глаз императора – так жил город, хотя уже чувствовалось, что всё это вот-вот рухнет под напором новых сил» [2, с 6]. Здесь СПП с придаточными причины и определительными формирует ощущение неизбежности катастрофы. Главное предложение («люди не могли...») «расширяется» придаточными, символизируя, как личное неведение сталкивается с объективными силами истории. Подобные конструкции встречаются в сценах революционных событий, где они передают хаос и напряжение. Длинное СПП с перечислением и уступительным придаточным («хотя...») создаёт образ «пира во время чумы», подчёркивая историческую обречённость старого мира. Такие периоды характерны для Толстого: они ритмически организованы, музыкальны и передают эпический размах.

В целом, в трилогии СПП выполняют композиционную роль, связывая отдельные эпизоды в единую картину «хождения по мукам». Они способствуют переходу от индивидуального к общему, от психологии к истории. Исследователи отмечают, что ритм прозы Толстого во многом определяется именно такими конструкциями, которые создают ощущение пульсации, нарастания и разрешения напряжения.

Сравнивая «Хождение по мукам» с другими произведениями Толстого, например «Петром Первым», можно увидеть эволюцию: в ранних работах СПП чаще служат для исторической реконструкции, а в трилогии – для глубокого психологизма и социальной оценки. Это подтверждает, что синтаксис для автора – не формальный приём, а инструмент идеологического и художественного воздействия.

Таким образом, сложноподчинённые предложения в романе А.Н. Толстого «Хождение по мукам» – это не просто грамматическая категория, а мощное стилистическое средство, обогащающее язык прозы новыми грамматическими и смысловыми оттенками. Они позволяют автору строить многослойные повествования, фиксировать тонкие нюансы идей и противоречий, создавать яркие образы общества в переломную эпоху. Изучение СПП в этом произведении подчёркивает их значение для искусства слова XX века и становится ключевым этапом в анализе советской исторической прозы.

Список использованной литературы

1. Акбаба Т. Трилогия А.Н. Толстого «Хождение по мукам»: традиции и новаторство // Филологические науки. – 2020. – № 3. – С. 112–125.
2. Толстой А.Н. Хождение по мукам. – М.: Художественная литература, 1982
3. Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – М.: Наука, 1977. – 448 с.

© Шокирова С.Ш., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Шокирова С.Ш., Мардонова Ф.Б.

RAQAMLI AXBOROT MUHITI VA EVFEMIZMLAR TRANSFORMATSIYASI

Gulnora Abdug’aniyevna Mavlonova

Navoiy innovatsiyalar universiteti o’qituvchisi

gulnoramavlonova098@.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli axborot muhiti sharoitida evfemizmlarning shakllanishi, rivojlanishi va transformatsiyasi kognitiv, pragmatik hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan keng tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt, algoritmik moderatsiya va globallashuv jarayonlari evfemizmlarning yangi raqamli shakllarini yuzaga keltirayotgani ko‘plab misollar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar:evfemizm, raqamli diskurs, sun’iy intellekt, algoritm, globallashuv, lingvomadaniyat, internet tili, kognitiv lingvistika

ЦИФРОВАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭВФЕМИЗМОВ

Гульнора Абдуганиевна Мавлонова
преподаватель Навоийского инновационного университета

Аннотация

В данной статье проводится комплексный анализ формирования, развития и трансформации эвфемизмов в условиях цифровой информационной среды с когнитивной, прагматической и лингвокультурологической точек зрения. На основе многочисленных примеров рассматривается, как социальные сети, искусственный интеллект, алгоритмическая модерация и процессы глобализации способствуют появлению новых цифровых форм эвфемизмов.

Ключевые слова: эвфемизм, цифровой дискурс, искусственный интеллект, алгоритм, глобализация, лингвокультура, язык интернета, когнитивная лингвистика

DIGITAL INFORMATION ENVIRONMENT AND THE TRANSFORMATION OF EUPHEMISMS

Gulnora Abduganiyevna Mavlonova
Teacher at Navoi Innovation University

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the formation, development, and transformation of euphemisms in the digital information environment from cognitive, pragmatic, and linguacultural perspectives. It highlights, through numerous examples, how social media, artificial intelligence, algorithmic moderation, and globalization processes are generating new digital forms of euphemisms.

Keywords: euphemism, digital discourse, artificial intelligence, algorithm, globalization, linguacultural studies, internet language, cognitive linguistics

Kirish

Raqamli axborot muhiti zamonaviy jamiyatda til evolyutsiyasining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt tizimlari kommunikatsiya shakllarini tubdan o'zgartirib, yangi lingvistik strategiyalarni yuzaga keltirmoqda . Evfemizmlar ushbu jarayonda ijtimoiy sezgirlikni boshqarish, kontentni yumshatish va algoritmik filtratsiyadan o'tish vositasi sifatida muhim rol o'ynamoqda.Raqamli muhitda so'zlar nafaqat ma'no tashuvchi birlik, balki algoritmlar tomonidan nazorat qilinadigan obyektga ham aylanmoqda. Shu sababli evfemizm endi faqat madaniy hodisa emas, balki texnologik strategiya sifatida ham qaraladi. Crystal raqamli kommunikatsiya tilga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, internet muhitida til birliklari tez o'zgarishi, qisqarishi va yangi diskursiv shakllar paydo bo'lishini qayd etadi. Uning fikricha, internet tili an'anaviy til me'yorlaridan farqli ravishda dinamik va o'zgaruvchan tizimdir. [1].

Evfemizm tushunchasi va kognitiv asos

Evfemizm — bu ijtimoiy jihatdan noqulay, tabu yoki salbiy baholanadigan tushunchalarni bevosita ifodalash o'rniga ularni yumshatilgan, neytral yoki ijobiy semantik birliklar orqali ifodalashga xizmat qiluvchi lingvistik vositadir . Ushbu hodisa tilning pragmatik va sotsial funksiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kommunikativ jarayonda nutqning madaniy me'yorlarga mosligini ta'minlaydi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan evfemizm inson tafakkurida "reframing" (qayta talqin qilish) jarayoni orqali shakllanadi. Allan va Burridge evfemizmni ijtimoiy jihatdan noqulay yoki tabu tushunchalarni yumshoq ifodalash strategiyasi sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, evfemizm jamiyatdagi madaniy va axloqiy me'yorlarni saqlashga xizmat qiladi hamda kommunikativ konfliktni kamaytiradi.[2]

Masalan:

1. *"prison"-"correctional facility"*
2. *"fat"-"overweight"/ "full-figured"*

3. *“old”-“elderly” / “senior”*
4. *“fired”-“let go” / “terminated”*
5. *“disabled” - “physically challenged” / “differently abled”*
6. *“toilet”- “restroom” / “bathroom”*
7. *“janitor”- “sanitation worker”*
8. *“garbage man”-“waste management worker”*

Raqamli axborot muhitining asosiy xususiyatlari

Zamonaviy raqamli kommunikatsiya muhiti o‘ziga xos bir qator belgilar bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar til birliklarining, xususan evfemizmlarning shakllanishi va transformatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- axborotning yuqori tezlikda va keng geografik hududlarda tarqalishi
- foydalanuvchilarning anonimlik darajasi hamda o‘zini erkin identifikatsiya qilish imkoniyati
- sun’iy intellekt va algoritmlar asosida amalga oshiriladigan nazorat va kontent filtratsiyasi platformalar tomonidan joriy etilgan senzura va moderatsiya mexanizmlari

Bu omillar evfemizmlarning yangi shakllarini yaratishga sabab bo‘lmoqda.

Reframing

Reframing — bu kognitiv va pragmatik jarayon bo‘lib, unda biror tushuncha, hodisa yoki ifodaning **ma’nosi o‘zgartirilmasdan**, u **boshqa nuqtayi nazar, kontekst yoki semantik ramka (frame)** orqali qayta talqin qilinadi.Reframing jarayonida salbiy yoki noqulay semantik yukga ega birliklar neytral yoki ijobiy kontekstga o‘tkaziladi. Anna Wierzbicka kross-madaniy pragmatika doirasida til birliklari ma’nosi universal emas, balki madaniy kontekstga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, har bir til jamiyatning axloqiy, madaniy va kommunikativ me’yorlarini aks ettiradi, shuning uchun bir xil tushuncha turli madaniyatlarda turlicha ifodalanadi [3].Reframing jarayoni Wierzbicka yondashuviga mos ravishda ma’noning madaniy jihatdan qayta kodlanishi sifatida talqin qilinadi. Ya’ni:

1. *salbiy yoki tabu ifoda → madaniy jihatdan maqbul shakl*
2. *qo‘pol ifoda → ijtimoiy yumshatilgan ifoda*

Sun’iy intellekt tizimlari matnni qayta ishlashda evfemizmlarni avtomatik yaratadi, filtrlaydi va optimallashtiradi . Chatbotlar va generativ modellar: Wierzbickaning asosiy g‘oyalaridan kelib chiqilsa, sun’iy intellekt tizimlari ham madaniy-pragmatik kodlarni

avtomatik modellashtirishga urinadi. Bu esa evfemizmlarning raqamli muhitda kengayishiga olib keladi. Zamonaviy AI tizimlari (chatbotlar, generativ modellar):

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shoyim Shernazar ijodida qo‘llangan frazemalarning uslubiy xususiyatlari va ularning badiiy matndagi funksional o‘rni tahlil qilinadi. Muallif she’riyatida frazemalar obrazlilikni kuchaytiruvchi, emotsional-ekspressivlikni oshiruvchi hamda milliy tafakkur va dunyoqarashni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot davomida frazemalar mavzuiy guruhlarga ajratilib, ularning semantik, stilistik hamda kontekstual xususiyatlari she’riy misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, shoirning individual uslubini shakllantirishda frazeologik birliklarning roli, ularning poetik ma’no qatlamlarini boyitishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Maqola natijalari o‘zbek tilshunosligida frazeologiya va badiiy uslub masalalarini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: frazema, so‘z birikmasi, leksema, ibora, frazeologiya, barqaror birikma,

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ КАК СТИЛИСТИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО В ТВОРЧЕСТВЕ ШОИМА ШЕРНАЗАРА

Аннотация. В данной статье анализируются стилистические особенности фразем, используемых в творчестве Шойима Шерназара, а также их функциональная роль в художественном тексте. Научно обосновано, что в поэзии автора фраземы выступают важным средством усиления образности, повышения эмоционально-экспрессивной окраски и отражения национального мышления и мировоззрения. В ходе исследования фраземы классифицируются по тематическим группам, а их семантические, стилистические и контекстуальные особенности раскрываются на основе поэтических примеров. Также анализируется роль фразеологических единиц в формировании индивидуального стиля поэта и их значение в обогащении поэтических смысловых слоев. Результаты статьи способствуют более глубокому изучению вопросов фразеологии и художественного стиля в узбекском языкознании.

Ключевые слова: фразема, словосочетание, лексема, выражение, фразеология, устойчивое сочетание.

PHRASEOLOGICAL UNITS AS A STYLISTIC DEVICE IN THE WORKS OF SHOYIM SHERNAZAR.

Abstract. This article analyzes the stylistic features of phrasemes used in the works of Shoyim Shernazar and their functional role in literary texts. It is scientifically substantiated that in the poet's works, phrasemes serve as an important means of enhancing imagery, increasing emotional-expressive effect, and reflecting national thinking and worldview. During the research, phrasemes are classified into thematic groups, and their semantic, stylistic, and contextual characteristics are revealed based on poetic examples. The study also examines the role of phraseological units in shaping the poet's individual style and their significance in enriching the layers of poetic meaning. The results of the article contribute to a deeper study of phraseology and literary style in Uzbek linguistics.

Key words: phraseme, word combination, lexeme, expression, phraseology, fixed expression.

Tilshunoslikda frazeologizmlar doimo alohida ilmiy qiziqish uygʻotib kelgan. Ularni oʻrganishda turli ilmiy maktablar, yoʻnalishlar va konsepsiyalar mavjud. Jumladan, rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, A.I.Smirnitskiy, N.M.Shanskiy, oʻzbek tilshunosligida esa Sh.Rahmatullayev, H.Gʻ.Ne'matov, A.Madvaliyev kabi olimlar frazeologizmlarning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

Frazeologik birliklarning semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari chuqur oʻrganilgan boʻlsa-da, ularning aynan inson fe'l-atvorini ifodalashdagi oʻziga xos jihatlari alohida tadqiqotni talab qiladi. Chunki frazeologizmlar shaxs psixologiyasi, ma'naviy olami va ijtimoiy mavqeini aks ettirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Frazemalar til elementlarining kombinatsiyalaridir va oʻziga xos yaxlit semantik xususiyatga ega boʻlgan kommunikativ belgidir. Oʻzbek tilidagi frazemalar insonning ichki dunyosini, xarakterini va ruhiy holatini ifodalashda eng ta'sirchan vositalardan biridir. Bunday frazemalar orqali xalq shaxsga baho beradi, uning fazilatlari yoki nuqsonlarini obrazli shaklda ifodalaydi.

Choʻng kaftida suv uzatgan sardoba,
Chanqogʻini qondirgan koʻ-oʻp karvonlar.
Bundan oʻtgan fotih, loʻli aroba,
Xotiraga choʻkib ketgan davronlar.

Ushbu she'rda frazemalar muallifning badiiy niyatini ifodalovchi asosiy uslubiy vositalardan biri sifatida namoyon boʻladi. Matnda "*Choʻng kaftida suv uzatgan sardoba*"

iborasi orqali saxovat va mehr timsoli yaratiladi. “*Cho‘ng kaftida suv uzatmoq*” frazemasi odatda insonning beg‘araz yordam ko‘rsatishini bildiradi, bu yerda esa u sardoba obraziga ko‘chirilgan holda jonlantirish (personifikatsiya) usuli bilan berilgan. Natijada oddiy me’moriy inshoot emas, balki yo‘lovchilarga mehr ko‘rsatuvchi, ularning hayotini asraydigan timsol yuzaga keladi.

Shuningdek, “*Xotiraga cho‘kib ketgan*” iborasi o‘tmishning ortda qolganini, uning faqat xotira qatlamida yashayotganini ifodalovchi kuchli frazematik ifodadir. Bu birikma orqali vaqt o‘tkinchiligi, tarixiy davrlarning ortga qaytmasligi falsafiy ohangda beriladi. Natijada she’rda nafaqat tasvir, balki chuqur mushohada, hayot va vaqt haqidagi umumlashma fikrlar yuzaga chiqadi.

Tuyg‘ularim qishloqda qoldi,
Seni shahar olib ketganmish.
Armon meni bag‘riga oldi
Va ayladi devona darvesh...

Mazkur she’r parchasida “**bag‘riga oldi**” iborasi frazematik birlik sifatida muhim badiiy-uslubiy vazifa bajaradi. Ushbu ibora asl ma’noda kimnidir mehr bilan quchmoq, o‘z panohiga olmoq degan ma’noni bildiradi. Biroq she’rda u ko‘chma ma’noda qo‘llanib, “armon” tushunchasi bilan birikkan holda kuchli obrazlilik hosil qiladi.

Muallif “Armon meni bag‘riga oldi” deyish orqali armonni jonlantiradi, ya’ni unga insoniy xususiyat yuklaydi. Natijada armon oddiy hissiy holat emas, balki lirik qahramonni o‘z domiga tortgan, uni butunlay egallab olgan kuch sifatida tasvirlanadi. Bu yerda “bag‘riga oldi” iborasi mehr va taskin emas, aksincha, iztirob va ichki azobni kuchaytiruvchi semantik tus oladi. Shu jihatdan iboraning an’anaviy ijobiy ma’nosi kontekstda salbiy-fojiali ohangga ko‘chadi.

Oromimni o‘g‘irlar tunlar,

Derazamdan oy mo‘ralaydi.

Devor soat aylanar millar,

G‘aflatni bir chetga quvlaydi.

Mazkur she’r parchasida “**oy mo‘ralaydi**” birikmasi frazematik-obrazli ifoda sifatida muhim uslubiy vazifa bajaradi. “Mo‘ralamoq” fe’li odatda yashirincha qaramoq, asta-sekin bosh suqib kuzatmoq ma’nosini bildiradi va ko‘proq inson yoki jonli mavjudotga xos harakatdir. Shoir ushbu harakatni “oy”ga nisbat berish orqali uni jonlantiradi.

Natijada “oy mo‘ralaydi” iborasi orqali tabiat hodisasi oddiy tasvir darajasidan chiqib, lirik qahramonning ruhiy holatiga hamohang obrazga aylanadi. Oy go‘yo

derazadan ichkariga qarab, uning bezovta kechasiga guvoh boʻlayotgandek tasvirlanadi. Bu yerda frazema tashqi manzara bilan ichki kechinma oʻrtasida bogʻlovchi vazifani bajaradi.

Shoyim Shernazar ijodida qoʻllangan frazemalar shoir poetik uslubining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻladi. Ular she'riy matnda obrazlilikni kuchaytirish, emotsional-ekspressivlikni oshirish hamda badiiy mazmunni chuqurlashtirish vazifasini bajaradi. Frazemalar orqali shoir insoniy kechinmalar, tabiat tasviri va falsafiy mushohadalarni yanada ta'sirchan ifodalaydi. Shuningdek, ularning mavzuiy va semantik rang-barangligi muallifning individual uslubini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Umuman olganda, frazeologik birliklar Shoyim Shernazar she'riyatining badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi asosiy lingvopoetik vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amrullayeva M. Oʻzbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarning semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari mavzusidahi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari. 2024. – B.16-21.
2. Shoyim Sh. Sogʻinch dahasi. – 2020. –B 25-26
3. Gʻulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi gʻazallarni grammatik teglash xususiyatlari. OʻzMU xabarlari // Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
4. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., “The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
5. Abjalova M., Gʻulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasi. // Oʻzbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDoʻTAU, 4 (1) /2023. – B. 14-31.
6. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.
7. Gʻulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi gʻazallarni grammatik teglash xususiyatlari. OʻzMU xabarlari // Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
8. Yarashova, Nasiba Jumayevna. "DISLALIYA VA UNING YUZAGA KELISHI." (2023).
9. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." *International Journal of Human Computing Studies* 4.2 (2022): 24-29.

10. Ярашова, Насиба Жумаевна. "Фонетико-стилистические особенности детской речи в поэтическом тексте." Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога. 2020.

11. Yarashova N. THREE GREAT GENIUS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 521-524.

12. Yarashova N. LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF OBSOLETE WORDS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 525-529.

13. Yarashova N. SOCIOPRAGMATIC STUDY OF HISTORICAL WORDS // Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1216-1219.

14. Yarashova N. METAPHORS AS METHODOLOGICAL TOOLS (IN THE EXAMPLE OF ABDULLA ORIPOV'S POETRY) //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1220-1223.

15. Yarashova N. DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 1093-1095.

16. Yarashova N. J. TARIXIY SO'ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI. – 2024.

17. Madraimov, A., Isakulova, N., Xoshimova, D., Rasulova, I., Kurbaniyozova, R., & Yarashova, N. (2025, April). Chrono Linguistic Modelling through AI Driven Conceptual Frameworks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

18. Yarashova, Nasiba Jumaevna. "Linguopsychological Characteristics of Children's Quasidological Speech."

19. Yarashova, Nasiba. "DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE." Modern Science and Research 2.10 (2023): 1093-1095.

20. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

© Karimov Tolib, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Karimov Tolib

ORTIQCHALIK: LEKSIK PLEONAZM VA AFFIKSAL PLEONAZM TAHLILI

Yo'ldosheva Dilnoza Xasan qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti,

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi dotsent v.b., f.f.f.d. (PhD)

dilnozayuldasheva1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ortiqchalik hodisasi, xususan, leksik, affiksal hamda leksik-affiksal pleonazmlarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada sinonimik birliklarning takror qo'llanishi orqali ma'no kuchaytirish, obrazlilikni oshirish va muallif g'oyaviy niyatini ifodalashdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, affiksal pleonazmlarning distant va kontakt holatlarda namoyon bo'lishi, ularning grammatik va stilistik xususiyatlari tahlil etiladi. Natijada pleonazm hodisasining nafaqat ortiqchalik, balki muhim badiiy-uslubiy vosita ekanligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: ortiqchalik, pleonazm, leksik pleonazm, affiksal pleonazm, leksik-affiksal pleonazm, lingvopoetika, affiks, distant, kontakt holat.

She'riyat mulkida o'lmas asarlar yaratib, butun dunyoni lol etgan, o'zining ta'biri bilan aytganda, Xitoydan Xurosongacha bo'lgan yerlarni turk nazmida yakqalam aylagan buyuk shoir nizomiddin Mir Alisher hazratlari hamisha hurmat va ehtirom ila tilga olinadi. Xususan, Navoiy haqida yozilgan asarlar ham adabiyotda va tilda o'rganilayotgan muhim manba bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda o'zbek adabiy tili yuksak taraqqiy etgan adabiy tillardan biriga aylandi. Adabiy asarlarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish buguni kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Navoiy hayot yo'liga bag'ishlangan asarlar o'zbek adabiyotida salmoqli. Bugungi maqolamizda Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" dramasida qo'llanilgan ortiqchalilik xususida to'xtalamiz.

Poetik nutq badiiy niyatni aniq, obrazli ifodalashni talab qiladi, leksik ortiqchalik asosida biror ma'noni to'laroq, yorqinroq ifodalash uchun sinonimlarning ketma-ket qo'llanishi bunga to'la mos keladi. Sinonimlarning "funksional aspekti bevosita turli matnlarda qo'llanishi va bir-birini almashtira olish va olmasligini, bunday almashtirishlardan yuzaga keladigan samara, ularning muallif ijodiy va g'oyaviy niyatining amalga oshuviga xizmati bilan aniqlanadi" [1]. Adabiy asarlarda bir so'z ifodalayotgan ma'noning ikkinchi so'z ma'nosi bilan takrorlash leksik ortiqchalik sanalib, bunday o'rinlarda lingvopoetik funksiya ko'zda tutilgan bo'ladi.

Badiiy asar, dramalarda koʻpincha soʻzlarning maʼnosi oʻxshatish qurilmasi asosida tasvirlanadi, “...oʻxshatish qurilmasi tarkibidagi asos nimani anglatsa (odatda, u belgi bildiradi), etalon ham maʼnosining shunday belgi bildirishiga koʻra qurilma tarkibiga kiritiladi”[2].

Yengil hoyu havas, vujud sevgisi [3].

Bu kabi oʻxshatish qurilmalari tarkibida xususiyat nomi yaʼni *“yengil”* (sifatlovchi) asos sifatida, shu xususiyat mansub boʻlgan narsa-predmet nomi *“hoyu havas”* leksemasi (aniqlanmish) etalon sifatida keltiriladi.

Agar sinonim yoki semantik jihatdan yaqin boʻlgan soʻzlar leksik birlik sifatida birikib oʻzaro aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida boʻlsa, ular leksik pleonazmlar hisoblanadi [4].

Munofiq nokaslar qutqusi sabab

Yer yuzi aylanmish jang maydoniga.

Bunday tavtologik xarakterdagi pleonazmlar koʻpincha boshqa tillardan qabul qilingan soʻzning maʼnosini anglamaslik yoki hisobga olmaslik natijasida, unga shu soʻzning oʻzbekcha sinonimini kontakt holatda qoʻllash tufayli vujudga keladi. Pleonazm —bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining, yaʼni til birliklarining semantik jihatdan takror holda boʻlishidir. Bunday ortiqchalik asosan stilistik funksiya bajarishga asoslanadi. Maʼlumki, pleonazm ekonomiya prinsipiga zid hodisadir. Biroq shunga qaramay u stilistikada muhim oʻrinni egallaydi. Bu hodisa koʻpincha ogʻzaki va badiiy nutqda kuzatiladi.

Dramada leksik pleonazm bilan birga affiksal pleonazmni ham koʻplab uchratishimiz mumkin. Affiksal pleonazm bir xil leksik yoki grammatik: maʼnoni bildiruvchi affikslarning takror qoʻllanishi natijasida sodir boʻladi. Takrorlanayotgan affiksning distribuniyasi ikki holatda *distant* va *kontakt* holatlarda boʻlishi mumkin.

Affikslarning distant va kontakt holatda joylashuviga koʻra affiksal pleonazmni ikki guruhga boʻlish mumkin: 1. Affikslarning distant pozitsiyada joylashib pleonastik qoʻllanishi; 2. Affikslarning kontakt holatda joylashib pleonastik qoʻllanishi. Affiksal pleonazmning bu tipida takrorlanayotgan affikslar formal holatda boʻlsa-da, “sintagmalarning har bir qismiga alohida qoʻshiladi. Xuddi ana shu hodisalar hammadan koʻproq grammatika va stilistikaning chegarasida turadi”[5].

Shunisi xarakterliki, affiksal pleonazmning bu tipida pleonastik qoʻllanayotgan affiks tamoman ortiqcha boʻlmaydi, balki ular stilistik funksiya bajaradi. Bu hol oʻzbek tilida gapning uyushiq boʻlaklarida koʻplab uchraydi. Bir xil affiks har bir uyushiq boʻlakda

takrorlanib, uyushiq bo‘laklar forma jihatidan ham tenglikka ega bo‘ladi. Bunda pleonastik qo‘llanayotgan affiks uyushiq bo‘laklarning har birining mustaqilligini, ayrimligini chizib, ta’kid bilan ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

To‘fon**lar** , dovul**lar** dag‘dag‘a solar.

Uyushiq bo‘laklarda (otlar uyushib kelganda) affikslarning pleonastik qo‘llanishi asosan uch xil grammatik kategoriya: son, kelishik va egalik kategoriyasi ko‘rsatkichlari doirasida kuzatiladi.

Egalik:

Mushfig‘**im**, munis**im**, g‘amboda**m** onam!..

Mening ham vazifa**m**, burch**im** bor ayon.

Kelishik:

Tushum kelishigi: Ipak sabolari, yayloqlari**ni**,

To‘lin oydek kumush olmalari**ni**…

Unutib bo‘lurmi madrasalar**ni**,

Falakka nur sochgan maqbaralar**ni**?

Jo‘nalish kelishigi: Shunday nozanin**ga**, shunday sevgi**ga**

Bulardan ne naf bor ulus**ga**, fan**ga**

Ko‘plik: Xabar topmaganmi xesh-aqrabo**lar**?

Qaydadir huzurbaxsh bodi sabo**lar**?

Qaydadir ipakdek sirg‘algan nasim?

Qaydadir rayhonbo‘y xush shabboda**lar**?

Kelishik + egalik:

Dil**imni**, til**imni** bog‘lagan pari.

Uyushib kelgan otlarda **-**lar affiksi ikki xil ishlatiladi:

1. Uyushuvchilarning har biriga qo‘shiladi va leksemaning semantikasiga bog‘liq holda har xil ma’noni ifodalaydi:

Ajib **naqshlari**, **peshravlari** bor.

2. Uyushuvchilarga yaxlitlovchi forma sifatida qo'shiladi, bunda -lar affiksi ko'plik, jamlash ma'nosini ifodalaydi:

Bog'i Jahonnamo, bog'i Dilkusho,

Bog'i Baland… bori temuriy **bog'lar**…

Bunday qo'llanishlarning faqat birinchisidagina pleonastik qo'llanish kuzatiladi. Bundan tashqari, -lari affiksi hurmat ma'nosini ifodalash uchun ham qo'llaniladi:

Lutfiy hazrat**lari** shu baytingizga

Almashmoq bo'lganmi butun ijodin?

-lar affiksi ma'no kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi. Quyidagi misolda *buncha* miqdor olmoshi orqali ma'noning kuchayganligi, unga -lar affiksini qo'shib belgi miqdori yanada orttirilganligini ko'rish mumkin:

Oh, buncha**lar** go'zal, buncha**lar** mahzun!

Kelishik va egalik affikslarining uyushiq bo'laklarda pleonastik qo'llanishi ham ma'lum xususiyatlarga ega. Kelishik va egalik kategoriya ko'rsatkichlarining uyushiq bo'laklarda pleonastik qo'llanishi, ko'plik affiksi (-lar) ning pleonastik qo'llanishidan asosan ikki xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, uyushiq bo'laklarning har birida kelishik yoki egalik affikslari takrorlansa har doim ham pleonastik qo'llanishni uchratamiz, ikkinchidan, kelishik va egalik affikslarining uyushiq bo'laklarda pleonastik qo'llanishi -lar affiksiga qaraganda nutq situatsiyasida, kontekstda aniqroq ko'rinib turadi. Kelishik kategoriyasi sintaktik munosabat ko'rsatish uchun xizmat qilib, bu affikslar so'zning morfematik tarkibida odatda tugallovchi forma bo'ladi [6].

Shu sababli ham kelishik affiksi ko'pincha uyushiq bo'laklarning har biriga alohida-alohida qo'shilib pleonastik qo'llanishni vujudga keltiradi. Bu hol barcha kelishiklar doirasida uchrashi mumkin. Ba'zan gapda bog'lovchi takrorlansa, odatda uyushiq bo'laklardagi son, kelishik va egalik affikslari ham

takrorlanadi.

Na farzand diydor**i**, na ro'zg'or tinch**i**,

Na dil halovat**i**, na orzu havas.

Juft so'zlarda affikslarning distant holatda pleonastik qo'llanishi ularning har bir komponentiga alohida-alohida affiks qo'shish orqali vujudga keladi: *bolali-chaqali, sonsiz-sanoqsiz, qo'llik-oyoqli* kabi.

Bizningcha bunday pleonastik qo‘llanishning asosiy sabablari quyidagilar:

1. Ma’lumki, juft so‘zlarning komponentlari bir- biriga tobe bo‘lmaydi, ularning har biri nisbiy mustaqillikka, o‘z urg‘usiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ular grammatik forma jihatdan ham tenglikka intiladi, natijada ma’lum bir affiks pleonastik ravishda bo‘lsa ham har ikki komponentga qo‘shiladi: *sog‘lik-salomatlik* tarzida.

2. Juft so‘zda uning ikkala komponenti bir so‘z turkumiga oid bo‘ladi. Ot + ot modelidagi juft so‘zlarga -li affiksi qo‘shilishi bilan so‘nggi komponent sifatga aylanadi: *ota-onali* kabi. Odatda ikki so‘z turkumiga mansub bo‘lgan so‘zlardan juft so‘z tashkil topa olmaydi. Shu sababli birinchi komponentga ham -li affiksi pleonastik tarzda qo‘shiladi: *uyli-joyli,otali-onali, qo‘lli-oyoqli, aqlli-hushli* shaklida.

3. Juft so‘zlarning komponentlarini alohida-alohida chizib ko‘rsatish, ta’kidlash uchun, ya’ni stilistik talab natijasida affikslar pleonastik qo‘llanadi.

Uyli-joyli qilib, juftini topib,

Ro‘zg‘or qurishiga bosh bo‘lmog‘i shart.

Dramalarning boshqa adabiy asarlardan farqli jihatlari til birliklarining poetik mazmun salmog‘ini oshirish maqsadida nisbatan ortiqcha ishlatilishida ko‘rinadi. Leksik ortiqchalikda sinonimik munosabatdagi leksemalarning, ya’ni til birliklarining semantik jihatdan takror holda kelishi mazmunni aniqlashtirish, takrorning oldini olish maqsadi bilan hosil qilinadi. Quyidagi misolda predmetning ko‘pligini ifodalash uchun g‘ujg‘on leksemasidan ham ko‘plik formasidan ya’ni -lar affiksidan foydalanilgan:

Oy to‘garagida **g‘ujg‘on** yulduz**lar**

Va yana **necha** el, ulus**lar** sargardon.

Yuqorida keltirilgan misrada leksik-affiksal ko‘plik formasi birgalikda qo‘llanilgan.

Shunday qilib, affiksal va leksik-affiksal pleonazmlarni o‘rganish, uning tiplarini, qonuniyatlarini ishlab chiqish amaliy ahamiyatga ega bo‘lish bilan bir qatorda, tilning nazariy tomoni uchun ham, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun ham juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Аджибекова Г. Д. Место плеоназмов в системе средсгв язьшовой избмточности (на материале современного казахского язм-к а) .//С Т. 1982.– Б.59.

Благова Г. Ф. Тюркский аффиксальньга плеоназм в сравни-тельно-историческом и ареально-лингвистическом освешении / / ВЯ.1968.№ 6. Б 82.

Тожиматов Х. Сифат сememасининг реаллашувида контекст: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2007. – Б.19.

Shamsiddinov H. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – T., 1999. 5-b.

Mahkamov N.Adabiy norma va pleonazm.T.: Fan, 1988.17-b.

Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

Yusubova R.N. Studying linguopoetics through linguostylistic methods. Eureka Journal of Language, Culture & Social Change (EJLCSC), Volume 2, Issue 3, March 2026.

Yo'ldosheva Dilnoza Xasan qizi (2023) Pragmatic factors in the realization of artistic and aesthetic content. International Journal Of Literature And Languages, 3(09), 11–13. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue09-03.

Yuldasheva Dilnoza Khasan Kizi, Mukhammadkhon Soliev, Herman, LiesnaAndriany "The Social Role of the Java Deli Community in Shaping the Language and Cultural Identity of Java Descendants Born in Sumatra" Forum for Linguistic Studies https://journals.bilpubgroup.com/index.php/fl Volume 07, Issue 07, July 2025. 257-269.

© Yo'ldosheva Dilnoza Xasan qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Yo'ldosheva Dilnoza Xasan qizi

СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ДЕРИВАЦИЯ КАК СРЕДСТВО МОДЕЛИРОВАНИЯ ИДИОСТИЛЯ АВТОРА (НА МАТЕРИАЛЕ ТВОРЧЕСТВА В.ПЕЛЕВИНА)

Шодиева Райхон Саматовна,

старший преподаватель,

Навоийский университет инноваций, г.Навои

Аннотация. В статье рассматривается словообразовательная деривация как один из ключевых параметров описания идиостиля в современной художественной прозе. На материале произведений В. Пелевина анализируются окказиональные дериваты, сложные словообразовательные конструкции и гибридные образования, формирующие индивидуально-авторскую модель языковой картины мира. Показано, что деривационные инновации выполняют не только номинативную, но и когнитивно-семиотическую функцию, участвуя в моделировании гиперреальности и деконструкции устойчивых смысловых структур.

Ключевые слова: словообразование, деривация, идиостиль, неологизм, окказионализм, Пелевин, семиотика, гиперреальность.

WORD-FORMATION DERIVATION AS A MEANS OF MODELING THE AUTHOR'S IDIOSTYLE (BASED ON THE WORKS OF VIKTOR PELEVIN)

Raykhon Samatovna Shodieva

Senior Lecturer

Navoi University of Innovations, Navoi

Abstract. The article examines word-formation derivation as one of the key parameters for describing idiostyle in contemporary fiction. Drawing on the works of V.Pelevin, the study analyzes occasional derivatives, complex word-formation structures, and hybrid formations that shape the author's individual model of the linguistic worldview. It is demonstrated that derivational innovations perform not only a nominative function but also cognitive and semiotic functions, contributing to the modeling of hyperreality and the deconstruction of stable semantic structures.

Keywords: word formation, derivation, idiostyle, neologism, occasionalism, Pelevin, semiotics, hyperreality.

Современная лингвистика текста и дериватология демонстрируют устойчивый интерес к исследованию индивидуально-авторских особенностей языковой организации художественного дискурса. Особое место в данном контексте занимает категория идиостиля, понимаемая как система устойчивых языковых предпочтений автора, проявляющаяся на всех уровнях текста, включая словообразовательный.

В художественной практике конца XX – начала XXI века наблюдается активизация деривационных процессов, связанная с потребностью языкового освоения новых социокультурных реалий. В этом отношении творчество В. Пелевина представляет собой показательный материал, в котором словообразовательная инновация выступает не периферийным, а системообразующим элементом художественной модели мира.

Словообразовательная деривация рассматривается в современной лингвистике как динамическая система, отражающая потенциал языка к порождению новых единиц на основе существующих моделей [3, с. 45]. Особое значение приобретают окказиональные образования, фиксирующие индивидуально-речевую реализацию словообразовательных возможностей языка [4, с. 12].

В последние годы усиливается внимание к семиотическому аспекту деривации, в рамках которого словообразовательные инновации интерпретируются как элементы вторичной знаковой системы, формирующей особую когнитивную реальность художественного текста. В этом контексте существенным является подход, разработанный Биксалиевой Р., согласно которому неологизмы в прозе В. Пелевина выступают не только как результат словообразовательной активности, но и как инструмент кодирования интертекстуальных и культурных смыслов [1, с. 3]. Исследователь подчёркивает, что деривационные инновации усложняют когнитивную структуру текста, формируя многослойную систему значений, в которой языковая единица становится точкой пересечения различных семиотических кодов. Такой подход позволяет рассматривать словообразование как один из ключевых механизмов моделирования гиперреальности в художественном дискурсе.

В рамках текстоцентрического подхода словообразование интерпретируется как механизм смыслопорождения, тесно связанный с когнитивными и семиотическими процессами [5, с. 67]. Соответственно, деривационные инновации в художественном тексте могут рассматриваться как маркеры идиостиля, отражающие особенности авторского мышления и языкового моделирования действительности.

В прозе Пелевина словообразовательная деривация приобретает характер системного явления. Она проявляется в следующих основных типах:

1. Окказиональные дериваты. Автор активно использует индивидуально-авторские образования, создаваемые по продуктивным моделям русского языка, но обладающие уникальной семантикой: креакл, люмпен-консумеры, сервоботы [6]. Подобные единицы не только номинируют новые реалии, но и несут оценочную, ироническую и сатирическую нагрузку, формируя специфическое семантическое поле текста.

2. Сложные гибридные образования. Характерной особенностью идиостиля Пелевина является смешение различных словообразовательных основ, включая иноязычные элементы: *дрим-муви*, *фэйстоп*, *нанопузырёк* [6]. Эти образования демонстрируют тенденцию к межкодовой интерференции, отражающей гибридность современной культурной среды.

3. Словообразовательная игра и семантическая деконструкция. Деривационные процессы у Пелевина часто сопровождаются ироническим переосмыслением базовых понятий. Например, трансформация общеупотребительных морфемных моделей приводит к созданию слов с парадоксальной или абсурдной семантикой, что способствует разрушению традиционных смысловых связей.

Словообразовательные единицы в анализируемых текстах выполняют ряд взаимосвязанных функций: 1) Номинативная функция. Обеспечивает обозначение новых явлений постмодернистской реальности, включая виртуальные, технологические и социокультурные феномены. 2) Экспрессивно-оценочная функция. Через деривационные средства формируется авторская оценка изображаемого мира, часто реализуемая в ироническом или сатирическом ключе. 3) Когнитивная функция.
Новые слова выступают инструментом концептуализации действительности, формируя особую модель восприятия реальности как симулятивной и фрагментарной. 4) Семиотическая функция. Деривационные инновации функционируют как знаки второго порядка, включённые в систему интертекстуальных и культурных кодов, что соответствует концепции гиперреальности [2, с. 112].

Деривационные инновации функционируют как знаки второго порядка, включённые в систему интертекстуальных и культурных кодов, что подтверждается исследованиями Биксалиевой Р.Р., где подчёркивается их роль в формировании когнитивной сложности текста и в процессе деконструкции традиционных смысловых моделей [1, с. 4].

Одной из ключевых особенностей идиостиля Пелевина является моделирование гиперреальности: пространства, в котором границы между реальным и симулированным размыты. Словообразовательные инновации играют в этом процессе центральную роль, создавая языковую оболочку для новых типов реальности.

Гибридные и окказиональные образования не только отражают, но и конструируют эту реальность, выступая средствами семиотической трансформации. В результате формируется особая языковая среда, в которой слово перестаёт быть лишь обозначением и становится инструментом философского осмысления мира.

Словообразовательная деривация в прозе В. Пелевина представляет собой один из ключевых механизмов формирования идиостиля автора. Деривационные инновации функционируют как средства моделирования художественной реальности, отражая когнитивные и семиотические особенности авторского мировосприятия.

Анализ показал, что окказиональные и гибридные образования выполняют комплекс функций, включая номинативную, экспрессивную, когнитивную и семиотическую. Их системное использование позволяет говорить о деривации как о важнейшем параметре идиостилевой организации текста, обеспечивающем его смысловую многослойность и интерпретационную открытость.

Список литературы:

1. Биксалиева Р.Р. Неологизмы и интертекстуальные коды как фактор когнитивной сложности текста (на материале прозы В. Пелевина) // Universum: филология и искусствоведение. 2025. №10 (136). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/neologizmy-i-intertekstualnye-kody-kak-faktor-kognitivnoy-slozhnosti-teksta-na-materiale-prozy-v-pelevina (дата обращения: 27.04.2026).
2. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция. – М.: Постум, 2000.
3. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Академия, 2011.
4. Буцева Т.Н. «Новые слова и значения. Словарь-справочник по материалам прессы и литературы 90-х годов XX века»: из опыта составления и редактирования // Acta Linguistica Petropolitana. Труды института лингвистических исследований. 2012. №3.
5. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1998.
6. Пелевин В.О. Любовь к трем цукербринам. – М.: Эксмо, 2014.

© Шодиева Райхон Саматовна, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Шодиева Райхон Саматовна

INDIVIDUAL-MUALLIFLIK FRAZEOLOGIZMLARI: TIL NORMASIDAN USLUBIY CHEKINISHNING BADIIY ESTETIK AHAMIYATI

Navoiy davlat universiteti 1-kurs doktoranti

Salimova Mohinur Ahmadjonovna

Ilmiy rahbar: f.f.n Norova Gulsanam Maxsutovna

ANNOTATSIYA

Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasida badiiy matn ijodkorning individual-lisoniy olamini aks ettiruvchi murakkab kognitiv tizim sifatida talqin etiladi. Mazkur maqolaning maqsadi badiiy matn strukturasi doirasida frazeologik birliklarning

(FB) individual-mualliflik transformatsiyasi mexanizmlarini aniqlash va ushbu lisoniy

og'ishlarning badiiy-estetik hamda pragmatik funksiyalarini tizimli tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot sifatli (qualitative) kontent-tahlil va deskriptiv-transformatsion metodlarga tayanadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'. Hoshimov, T. Murod va X. Do'stmuhammad asarlaridan saralab olingan, umumiy hajmi 480,000 so'z shaklini (tokens) qamrab olgan korpus xizmat qildi. Aniqlangan 150 dan ortiq okkazional frazeologizmlar akademik lug'aviy normalar (invariantlar) bilan doimiy qiyoslash metodi (Constant Comparative Method) orqali tahlil etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik

transformatsiyalar beshta asosiy model asosida shakllanadi: leksik modifikatsiya (42%),

kengayish (28%), kontaminatsiya (15%), semantik inversiya (10%) va reduktsiya (5%).
Tahlillar FB tarkibidagi komponentlar almashinuvi yoki yangi leksik birliklarning kiritilishi matnning ekspressiv quvvatini o'rtacha 4.1 ball (5 ballik tizimda) darajasida oshirishini va

"deavtomatizatsiya" (idrokning yangilanishi) effektini yaratishini ko'rsatdi. Individual-

mualliflik frazeologizmlari yozuvchi idiolektini belgilovchi asosiy indikator bo'lib, ular til

normasini buzish emas, balki tilning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot xulosalari o‘zbek tili milliy korpusini frazeologik teglash, lingvopoetika va kognitiv tilshunoslik fanlari uchun nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik transformatsiya, individual-mualliflik frazeologizmi,

okkazionalizm, lisoniy norma, estetik effekt, idiolekt, kognitiv dissonans.

ИНДИВИДУАЛЬНО-АВТОРСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ: ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СТИЛИСТИЧЕСКИХ ОТКЛОНЕНИЙ ОТ ЯЗЫКОВОЙ НОРМЫ

АННОТАЦИЯ

В антропоцентрической парадигме современной лингвистики художественный

текст трактуется как сложная когнитивная система, отражающая индивидуально-

языковую картину мира творца. Целью данной статьи является выявление механизмов индивидуально-авторской трансформации фразеологических единиц (ФЕ) в структуре художественного текста и системный анализ художественно-эстетических и прагматических функций этих языковых отклонений. Исследование опирается на качественный контент-анализ и дескриптивно-трансформационные методы. Объектом исследования послужил корпус из более чем 150 окказиональных фразеологизмов, отобранных из произведений У. Хошимова, Т.

Мурода и Х. Дустмухаммада, общим объемом 480 000 словоупотреблений (токенов). Выявленные единицы анализировались методом постоянного сравнения

(Constant Comparative Method) с академическими лексическими нормами (инвариантами). Результаты исследования показывают, что фразеологические трансформации формируются на основе пяти основных моделей: лексическая модификация (42%), расширение (28%), контаминация (15%), семантическая инверсия (10%) и редукция (5%). Анализ показал, что замена компонентов или введение новых лексических единиц в структуру ФЕ повышает экспрессивность текста в среднем на 4,1 балла (по 5-балльной шкале) и создает эффект «деавтоматизации» (обновления восприятия). Индивидуально-авторские фразеологизмы являются основными индикаторами идиолекта писателя; они не нарушают языковую норму, а служат расширению внутренних возможностей языка. Выводы исследования могут быть использованы в качестве теоретического и практического ресурса для фразеологической разметки Национального корпуса узбекского языка, а также в области лингвопоэтики и когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: фразеологическая трансформация, индивидуально-авторский
фразеологизм, окказионализм, языковая норма, эстетический эффект, идиолект, когнитивный диссонанс.

INDIVIDUAL-AUTHORIAL PHRASEOLOGISMS: ARTISTIC AND AESTHETIC SIGNIFICANCE

OF STYLISTIC DEVIATIONS FROM LINGUISTIC NORMS

ABSTRACT

In the anthropocentric paradigm of modern linguistics, literary text is interpreted as a

complex cognitive system reflecting the creator's individual-linguistic worldview. The

objective of this study is to identify the mechanisms of individual-authorial transformation
of phraseological units (PUs) within the structure of literary texts and to systematically analyze the artistic-aesthetic and pragmatic functions of these linguistic deviations. The research relies on qualitative content analysis and descriptive-transformational methods.

The research object consists of a corpus comprising over 150 occasional phraseologisms
extracted from the works of U. Hoshimov, T. Murod, and Kh. Dustmuhammad, covering a

total volume of 480,000 tokens. These units were analyzed using the Constant

Comparative Method against academic lexical norms (invariants). The research findings

indicate that phraseological transformations are formed based on five main models: lexical modification (42%), extension (28%), contamination (15%), semantic inversion

(10%), and reduction (5%). Analysis demonstrated that the replacement of components or the introduction of new lexical units within the structure of PUs increases the expressive power of the text by an average of 4.1 points (on a 5-point scale) and creates a "de-automatization" effect (renewal of perception). Individual-authorial phraseologisms serve

as primary indicators of a writer's idiolect; they do not violate linguistic norms but rather expand the internal potential of the language. The study's conclusions serve as a theoretical and practical resource for phraseological tagging in the Uzbek National Corpus,

as well as for the fields of linguopoetics and cognitive linguistics.

Keywords: phraseological transformation, individual-authorial phraseologism, occasionalism, linguistic norm, aesthetic effect, idiolect, cognitive dissonance.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasida badiiy matn nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijodkorning individual-lisoniy olami namoyon bo‘ladigan murakkab kognitiv tuzilma sifatida talqin etilmoqda. Badiiy nutqning estetik quvvatini ta’minlovchi eng faol qatlamlardan biri — bu frazeologizmlardir. Biroq, til tizimidagi turg‘un birliklarning statik holatda qo‘llanilishi har doim ham badiiy tasvirning dinamik va obrazli talablariga to‘liq javob beravermaydi. Shu bois, ijodkorlar tilning tayyor materiallariga nisbatan interpretativ yondashib, ularni kontekstual transformatsiyaga uchratadilar.

Individual-mualliflik frazeologizmlari — bu turg'un birikmalarning muallif tomonidan ongli

ravishda leksik-semantik, struktur-grammatik yoki funktsional-uslubiy jihatdan o'zgartirilishi natijasida yuzaga keladigan lisoniy hodisadir [1, 52]. Mazkur jarayon til normasidan "ijodiy chekinish" sanalib, u tildagi mavjud qolip (invariant) va yangi hosil bo'lgan nutqiy ma'no (variant) o'rtasidagi dialektik ziddiyat ustiga quriladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an'anaviy tilshunoslikda frazeologizmlar asosan ularning turg'unligi nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy lingvopoetikada ularning kontekstual o'zgaruvchanligi va estetik funksionalligi markaziy muammolardan biri bo'lib qolmoqda [2,
18].

Frazeologik transformatsiyalar yozuvchining individual uslubini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Zero, turg'un birikmaning odatiy strukturasini buzish orqali
muallif kitobxon diqqatini muayyan detalga yo'naltiradi va kutilmagan badiiy effekt yaratadi [3, 114]. Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan badiiy matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki
, bu hodisa shunchaki lisoniy o'yin emas, balki muallifning badiiy konsepsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi lingvistik strategiyadir [4, 45]. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning leksik almashinuvi va semantik qayta ma'nolanishi kabi uslubiy usullar lisoniy me'yor va individual mahorat prizmasi orqali tahlil qilinadi [5, 201].

2. METODLAR

Ushbu tadqiqot badiiy matn strukturasi ichidagi individual-mualliflik frazeologizmlarining

(IMF) lisoniy tabiatini yoritish uchun sifatli (qualitative) tadqiqot dizayniga va deskriptiv-
analitik yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida frazeologik invariant va variantdorlik kontseptsiyasi, shuningdek, matn lingvistikasidagi okkazionalizm nazariyalari xizmat qildi.

2.1. Tadqiqot materiallari va korpusni shakllantirish

Tadqiqot ob'ekti sifatida XX asr oxiri va XXI asr boshidagi o'zbek nasriy asarlari tanlab
olindi. Ma'lumotlar bazasini (corpus) shakllantirishda maqsadli tanlov (purposive sampling) usulidan foydalanildi. Korpusning umumiy hajmi taxminan 480,000 so'z shaklini (tokens) qamrab olgan bo'lib, u quyidagi manbalardan iborat:

● O‘. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani (psixologik-realistik uslub);

● T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani (etnografik va ekspressiv uslub);

● X. Do‘stmuhammadning modernistik hikoyalari (abstrakt-metaforik uslub).

Jami 4500 sahifadan ortiq badiiy matn skanerlanib, ulardan 150 dan ortiq transformatsiyaga uchragan frazeologik birliklar ekstraktsiya qilindi. Tanlab olingan

birliklar Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning "O‘zbek tili iboralarining izohli lug‘ati"dagi akademik shakllar (norma/invariant) bilan doimiy qiyoslash metodi (Constant Comparative Method) orqali tahlil qilindi [6, 42].

2.2. Analitik protsedura va tahlil bosqichlari

Tadqiqot jarayoni Iterativ tahlil (Iterative Analysis) modeliga tayangan holda, quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshirildi:

1. Identifikatsiya va Ekstraktsiya: Badiiy matndagi frazeologizmning lug‘aviy

shakldan og‘ish darajasi aniqlandi. Bunda birlikning leksik tarkibi, sintaktik aloqalari

va semantik strukturasi ko‘rib chiqildi. Har bir IMF "kontekstual birlik" sifatida alohida kartochkalarga ajratildi [7, 88].

2. Struktur-transformatsion modellashtirish: Har bir IMF hosil bo‘lish mexanizmiga ko‘ra taksonomik tasnifga solindi:

o Leksik modifikatsiya: Komponentni matn talabiga ko‘ra sinonim, antonim yoki

paronim bilan almashtirish;

o Frazeologik kontaminatsiya: Ikki yoki undan ortiq iboraning semantik va struktur qorishtirilishi;

o Ekstensiya va Reduktsiya: FB tarkibiga yangi determinativlar qo‘shish yoki turg‘un komponentlarni tushirib qoldirish;

o Semantik inversiya: Iboraning an’anaviy ijobiy/salbiy konnotatsiyasini kontekst ichida teskarisiga o‘zgartirish [8, 115].

3. Kognitiv-stilistik interpretatsiya: Transformatsiyalangan birlikning matndagi estetik yuklamasi va muallifning pragmatik niyati (intentionality) tahlil qilindi. Bunda ironiya, sarkazm, patos va personaj psixologizmini ochib berishdagi "uslubiy og‘ish" (stylistic deviation) darajasi o‘lchandi [9, 201].

4. Kategorizatsiya validatsiyasi: Aniqlangan modellar o‘zbek tili frazeologiyasining turg‘unlik qonuniyatlari bilan qayta qiyoslanib, natijalarning nazariy asosliligi

tekshirildi.

2.3. Lingvistik validatsiya va ishonchlilik (Reliability)

Tahlil natijalarining xolisligini ta’minlash maqsadida komponent tahlil metodi va

triangulyatsiya usuli qo‘llanildi. Har bir mualliflik yangiligi (okkazionalizm) tilning ichki

imkoniyatlari va uslubiy me’yorlari doirasida uch tomonlama (lug‘at + matn + muallif

uslubi) baholandi. Tadqiqotda qo‘llanilgan protseduralar individual uslubning lingvistik parametrlarini ob’ektiv o‘lchashga va natijalarni umumlashtirishga imkon berdi [10, 54].

3. NATIJALAR

Tadqiqot davomida o‘zbek badiiy nasridan saralab olingan 150 ta individual-mualliflik

frazeologizmlari (IMF) ustida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, transformatsiya jarayoni tilning lisoniy tejamkorligi va badiiy tasvirning ekspressivligi o‘rtasidagi

muvozanatni ta’minlovchi murakkab mexanizmdir.

3.1. Frazeologik transformatsiyalarning struktur-miqdoriy tahlili

O‘rganilgan namunalar asosida frazeologik birliklarning (FB) transformatsiya turlari va ularning badiiy matndagi funktsional salmog‘i aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki,

ijodkorlar ko‘proq mavjud komponentlarni almashtirish (leksik modifikatsiya) orqali yangi

ma’no qatlamlarini hosil qilishga moyil.

1-jadval. Individual-mualliflik frazeologizmlarining modellar bo‘yicha tahlili

№	Transformatsiya modeli (Model of Transformation)	Namunalar soni (f)	Umumiy salmoq (%)	O'rtacha ekspressivlik darajasi (1-5 ball)
1	Leksik modifikatsiya (komponent almashinuvi)	63	42%	4.2
2	Frazeologik kengayish (yangi komponent qo'shish)	42	28%	3.8
3	Frazeologik kontaminatsiya (qorishtirish)	22	15%	4.9
4	Semantik inversiya (ma'no	15	10%	4.5

	o'zgarishi)			
5	Reduktsiya va Elipsis (qisqartirish)	8	5%	3.1

JAMI	150	100%	4.1 (O'rtacha)

3.2. Transformatsiya mexanizmlarining lingvistik tahlili

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, transformatsiyaning har bir turi o‘ziga xos estetik

yuklamaga ega:

● Leksik-semantik modifikatsiya: Bu modelda FB tarkibidagi tayanch komponent kontekst talabidan kelib chiqib, muallif tomonidan yangi leksema bilan almashtiriladi. Masalan, "boshi osmonga yetmoq" (xursand bo‘lmoq) iborasi o‘rniga "g'ururi osmonga yetmoq" shaklining qo‘llanilishi semantik dominantaning "xursandchilik"dan "iftixor"ga ko‘chishini ta’minlaydi [11, 204].

● Frazeologik kontaminatsiya: Bu jarayon eng yuqori kreativlik darajasiga (4.9 ball) ega bo‘lib, bunda ikki xil denotativ ma’noga ega ibora yagona konnotativ ma’noda birlashadi. Masalan, "ko'z yumib, qo'l siltamoq" (befarq bo‘lmoq + voz kechmoq) kabi yangi konstruksiyalar personajning murakkab ruhiy holatini ifodalashda qo‘llaniladi [12, 115].

3.3. Mualliflik uslubi va normadan chekinish chastotasi

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Tog‘ay Murod asarlarida ko‘proq frazeologik kengayish

(etnografik bo'yoq berish uchun), Xayriddin Sultonov va Nazar Eshonqul asarlarida esa

semantik inversiya hamda kontaminatsiya (modernistik tasvir uchun) ustuvorlik qiladi. Bu

esa individual-mualliflik frazeologizmlarining yozuvchi "lisoniy imzosi" (linguistic

signature) ekanligini isbotlaydi [13, 89].

4. MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, individual-mualliflik frazeologizmlari (IMF)

badiiy matnda shunchaki stilistik bezak emas, balki tilning lisoniy normasini kengaytirishga xizmat qiluvchi dinamik vositadir. Olingan ma'lumotlarni xalqaro frazeologik maktablar qarashlari bilan qiyoslaganda, bir qator muhim nazariy xulosalar o'rtaga chiqadi.

4.1. Invariant va variantdorlik dialektikasi

Bizning natijalarimiz A.V. Kunin tomonidan ilgari surilgan "frazeologik variantdorlik" nazariyasini [1, 52] yangi materiallar (o'zbek tili) misolida tasdiqlaydi. Biroq, tadqiqotimizda aniqlangan frazeologik kontaminatsiya (15%) hodisasi shuni ko'rsatadiki,

mualliflik transformatsiyalari nafaqat mavjud variantlar doirasida, balki butunlay yangi

(okkazional) konstruksiyalarni yaratish hisobiga amalga oshadi. Bu jarayon V.V. Vinogradov ta'kidlaganidek, iboraning "turg'unlik" xususiyatini inkor etmaydi, balki uning "potensial o'zgaruvchanligi"ni (potential variability) yuzaga chiqaradi [5, 201].

4.2. Estetik effekt va kognitiv dissonans

Tadqiqotda aniqlangan semantik inversiya (10%) va leksik modifikatsiya (42%) modellari

kitobxonda "kognitiv dissonans" uyg‘otishga xizmat qiladi. Bu hodisa xalqaro lingvopoetika maktablarida "deavtomatizatsiya" (de-automatization) deb ataladi [14, 112].
Ya’ni, kitobxon ongida tayyor qolip sifatida saqlangan iboraning (masalan, "og‘ziga mum tishlamoq") kutilmagan shaklda (masalan, "og‘ziga sukut tishlamoq") kelishi, uni matnga chuqurroq diqqat qilishga va muallif niyatini qayta idrok etishga majbur qiladi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida B. Yo‘ldoshev tomonidan ilgari surilgan "uslubiy imkoniyatlar" tushunchasini yanada boyitadi [3, 114].

4.3. Janr va muallif individual uslubi

Natijalarimiz shuni ko‘rsatdiki, transformatsiya turlarining tanlanishi bevosita

yozuvchining badiiy-falsafiy yo‘nalishi bilan bog‘liq. Agar Tog‘ay Murod ijodida frazeologik

kengayish orqali milliy ruhni kuchaytirish tendensiyasi ustuvor bo‘lsa (bu lingvokulturologik yondashuvga mos keladi), modernistik yo‘nalishdagi ijodkorlarda frazeologik reduksiya (5%) orqali matnni "zichlashtirish" tendensiyasi kuzatiladi. Bu esa IMFni yozuvchining "lisoniy imzosi" (idiolekt) sifatida baholashga imkon beradi.

4.4. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi istiqbollari

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tadqiqot asosan nasriy matnlar bilan cheklangan.

Kelajakda individual-mualliflik frazeologizmlarining she’riy matnlardagi va tarjima

asarlaridagi transformatsiyasini o‘rganish, shuningdek, ushbu jarayonlarni kompyuter

lingvistikasi (NLP) yordamida avtomatik identifikatsiya qilish algoritmlarini ishlab chiqish
maqsadga muvofiqdir [15, 45]. Bu esa o‘zbek tili korpusi (Uzbek National Corpus) uchun

frazeologik teglash tizimini yaratishda muhim qadam bo‘ladi.

5. XULOSA

Ushbu tadqiqot badiiy matnda individual-mualliflik frazeologizmlarining (IMF) nafaqat

lisoniy hodisa, balki murakkab kognitiv-estetik jarayon ekanligini isbotladi. Olingan natijalar va ularning nazariy interpretatsiyasi quyidagi fundamental xulosalarga asos

bo‘ladi:

Birinchidan, tadqiqotimiz A.V. Kunin [1] tomonidan ilgari surilgan frazeologik variantdorlik kontseptsiyasining o‘zbek tili materialida yangicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Agar Kunin turg‘un birliklarning nutqdagi barqarorligini ta’kidlagan bo‘lsa, bizning tahlillarimiz

mualliflik transformatsiyalari ushbu barqarorlikni "ijodiy buzish" orqali yangi semantik qatlamlar hosil qilishini tasdiqladi. Xususan, leksik modifikatsiya modellari (42%) turg‘un

birikmaning invariant ma’nosini saqlab qolgan holda, unga yangi kontekstual bo‘yoq berishi aniqlandi.

Translating linguoculturemes remains a major challenge in AI-based communication. These language units carry complex cultural meanings that cannot be translated through words alone. AI systems often fail to capture this complexity due to their limited understanding of context and culture.

The study demonstrates that situational awareness and adaptation strategies play a crucial role in improving translation quality. By focusing on meaning rather than form, it is possible to achieve more accurate and effective communication.

Future research should focus on developing AI systems that integrate cultural knowledge and contextual analysis. This will not only improve translation accuracy but also enhance intercultural communication in a globalized world.

REFERENCES

1.Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation

2.Nida, E. (1964). Toward a Science of Translating

3.Hall, E. (1976). Beyond Culture

4.House, J. (2015). Translation Quality Assessment

5.Baker, M. (2018). In Other Words

6. M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.

7. S. Sirojiddinov, M. Abjalova, S. Normamatov and N. Gulomova, "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus," 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

8. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences

9. Ikromovna, M. M. (2022). XX asr ingliz adabiyotida satira. Uchinchi renessans: ta'lim, tarbiya va pedagogika" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Noyabr, Toshkent-2022.

10. Ikromovna, M. M. (2023). Artistic features of Evelyn Waugh. Research and Education, 2(4), 366-370.

© Kandiyorova Iroda Ikhtiyor kizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Kandiyorova Iroda Ikhtiyor kizi

SOHALAR TARAQQIYOTIDA NEOLOGIZMLARNING PAYDO BO‘LISHIGA OID BA’ZI MULOHAZALAR

Berdiqulov Oxunjon Azim o‘g‘li

Navoiy Innovatsiyalar universiteti

Lingvistika (o‘zbek tili) I bosqich magistranti

0998-99-214-77-03

oxunjonberdiqulov28@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada neologizmlarning til tizimidagi o‘rni, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda zamonaviy o‘zbek tilining rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, neologizmlarning paydo bo‘lish sabablari, turlari va nutq jarayonidagi funksional vazifalari hozirgi adabiy tilimizdagi til tizimda qo‘llanishi, qaysi sohalarda faol kirib kelyotgani tahlil qilinadi va ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: neologizm, leksika, semantika, yangi so‘zlar, til taraqqiyoti, nominatsiya, semantik o‘zgarish, neografiya

МЕСТО НЕОЛОГИЗМОВ В ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация: В данной статье анализируется место неологизмов в языковой системе, их лексико-семантические особенности, а также их значение в развитии современного узбекского языка. Также рассматриваются причины появления неологизмов, их виды и функциональные задачи в процессе речи. Освещается их использование в системе современного литературного языка и анализируется, в каких сферах они наиболее активно проникают, с научным обоснованием.

Ключевые слова: неологизм, лексика, семантика, новые слова, развитие языка, номинация, семантическое изменение, неография

THE ROLE OF NEOLOGISMS IN THE LEXICAL-SEMANTIC SYSTEM

Abstract: This article analyzes the role of neologisms in the language system, their lexical-semantic features, and their significance in the development of the modern Uzbek language. It also examines the causes of the emergence of neologisms, their types, and their functional roles in the speech process. Furthermore, the study highlights their usage within the system of the contemporary literary language and provides a scientific analysis of the fields in which they are most actively adopted.

Key words: neologism, lexis, semantics, new words, language development, nomination, semantic change, neography.

Til doimiy rivojlanishda bo‘lgan murakkab tizimdir. Jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar til lug‘at tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yangi tushuncha va hodisalarni ifodalash zarurati natijasida neologizmlar yuzaga keladi. Neologizmlar tilning leksik-semantik tizimini boyituvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ular til tizimiga turli usullar orqali kirib keladi. Avvalo, neologizm atamasiga nazar solinsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati“da unga shunday izoh berilgan: “Neologizm – bu tilda turli ehtiyojlar natijasida yangidan paydo bo‘lgan so‘z yoki iboralardir. Til rivojlangani sari neologizmlar bilan bir qatorda okkozional neologizmlar ham vujudga keladi[1]. Bu tushunchaga tilshunos olimlar o‘zining tilshunoslikka oid asarlarida munosabat bildirib, ularning xarakterli belgilarini izohlaganlar. Masalan, Sh.Rahmatullayev, R.Sayfullayeva, N.Mahmudov kabi olimlar neologizmlar xususida mulohazalarini bildirib o‘tgan. Hozirga qadar neologizmlar bilan bog‘liq lug‘atlar yaratilmagan. Buning sababi neologizmlar yashash davri, yangilik belgi ma’lum bir muddat saqlanib turishidir. Masalan, XXI asrning o‘ninchi yillarida tilimizga kirib kelgan *litsey, kollej* kabi so‘zlar bugungi kunda yangilik belgisini yo‘qotib umumtil leksemasiga aylandi. Bugungi kunda esa *keshbek, motivator* kabi so‘zlar yangilik bo‘yog‘ini saqlab turibdi. Ammo vaqtlar o‘tishi bilan ular ham yangilik belgisini yo‘qotadi va umumtil leksemasidan joy oladi. Demak, neologizatsiya jarayoni davriy tushuncha deb qarash o‘rinli bo‘ladi. Bugungi davr tilshunosligida neologizmlarni tizimlash, so‘zlarni izohlash va lug‘atlarda qayd etish bo‘yicha rus tilshunosligida ilk ishlar amalga oshirila boshladi va maqolalar e’lon qilina boshladi[2]. Zamon rivojlangani sari turli sohalar taraqqiyotida yangi texnologiyalar kirib keladi va shuning natijasida u bilan bog‘liq yangi tushunchalar ham paydo bo‘ladi. Neologizmlar bir necha xarakterli belgilari bilan tasniflanishi mumkin. Buni quyidagi chizmada keltiramiz.

Neologizmlar

1-chizma. Neologizmlarning xarakterli belgilariga ko‘ra tasnifi

Bugungi kunda *onlayn ta’lim, bloger, kontent, startap* kabi birliklar zamonaviy neologizmlar hisoblanadi. Tilshunoslikda neologizmlar bir necha manbalar asosida paydo bo‘lishi mumkin.

1. ***Ichki imkoniyatlar orqali.*** Bunda tilda avvaldan mavjud leksemalarga qo‘shimcha qo‘shish yo‘li bilan so‘z yasaladi. *Masalan, raqamlashtirish, masofaviy ta’lim, motivator, dizayner, bloger*
2. ***O‘zlashmalar orqali.*** Tilga turli sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar orqali kirib kelgan o‘zlashmalar: *marketing, brend, dizayn, keshbek, vizual*

3. ***Semantik kengayish orqali:*** tilda mavjud bo'lgan so'zga yangi ma'no yuklanadi (platforma – texnikadan tashqari ijtimoiy tarmoq ma'nosida).

O'zlashma neologizmlar tillararo aloqalarni mustahkamlaydi va xalqaro so'zlarni o'zbek tili leksikasiga olib kiradi. Bugungi kunda eng ko'p kirib kelayotgan sohalarni statistik tahlil qilib, quyidagicha xulosaga kelindi. Bunda turli sohaga oid neologizmlar asosida bir necha guruhlarga ajratdik va diagramma asosida tahlil qildik.

1-jadval. Zamonaviy neologizmlarning sohalar bo'yicha taqsimoti.

T/r	Soha	Ulushi (foiz)	Misollar
1	Axborot texnologiyalari (IT)	30–35%	Kontent, startap, sun'iy intellet
2	Ijtimoiy tarmoqlar va media	20–25%	bloger, blog, layfxak, tiktoker
3	Iqtisodiyot va biznes	15–20%	marketing, brend, trent
4	Ta'lim va pedagogika	10–15%	onlayn dars, kredit-modul, e-maktab
5	Siyosat va huquq	5–10%	islohot paketi, strategiya
6	Madaniyat va kundalik hayot	5–10%	kover (cover), lifestyle

Yuqoridagi statistakadan ko'rinib turibdiki, eng ko'p axborot texnologiyalari, nisbatan tez tarqaladigani esa ijtimoiy tarmoqlar ekani ma'lum bo'ladi. Neologizmlar badiiy adabiyotda zamonaviy muhitni tasvirlash va obrazlarga xos harakatlarni ifodalashda (stilistik vosita sifatida) muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar tilning leksik-semantik tizimida muhim o'rin tutadi. Ular tilning rivojlanishi, yangi tushunchalarni ifodalash va kommunikativ ehtiyojlarni qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek tilida neologizmlar sonining ortib borishi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M.A and Gulomova N. S. “Corpus of Alisher Navoi – Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words”, 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024. – pp. 1820-1825, doi: 10.1109/ PIERE62470.2024.10805014.
2. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences
3. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
4. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asar avlodi, 2007. – B. 93.
5. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – B. 57.
6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010.
7. Norov I. Umumtil va individual neologizmlarning xususiyatlari. Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: проблемы и решения республиканская научно-практическая конференция – B. 21-24.
8. Narimova G. Ibrohimov R. Yangi so‘zlar va neologizmlarning o‘zbek tilidagi o‘rni. – Toshkent. Современное образование. – № 1. 2025. – С. 55.
9. Fayzullayeva O. Badiiy mantda individual neologizmlar vaularning tutgan o‘rni. Eurasian journal of technology and innovation. Innovative Academy Research Support Center Volume 2, Issue 1, Part 3. ISSN 2181-2020. Innovative Academy Research Support Center. 2024. – P.78-80.
10. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
11. Yarashova, Nasiba Jumayevna. "DISLALIYA VA UNING YUZAGA KELISHI." (2023).
12. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." *International Journal of Human Computing Studies* 4.2 (2022): 24-29.

10. Ярашова, Насиба Жумаевна. "Фонетико-стилистические особенности детской речи в поэтическом тексте." Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога. 2020.

11. Yarashova N. THREE GREAT GENIUS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 521-524.

12. Yarashova N. LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF OBSOLETE WORDS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 525-529.

13. Yarashova N. SOCIOPRAGMATIC STUDY OF HISTORICAL WORDS // Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1216-1219.

14. Yarashova N. METAPHORS AS METHODOLOGICAL TOOLS (IN THE EXAMPLE OF ABDULLA ORIPOV'S POETRY) //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1220-1223.

15. Yarashova N. DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1093-1095.

16. Yarashova N. J. TARIXIY SO'ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI. – 2024.

17. Madraimov, A., Isakulova, N., Xoshimova, D., Rasulova, I., Kurbaniyozova, R., & Yarashova, N. (2025, April). Chrono Linguistic Modelling through AI Driven Conceptual Frameworks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

18. Yarashova, Nasiba Jumaevna. "Linguopsychological Characteristics of Children's Quasidological Speech."

19. Yarashova, Nasiba. "DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE." Modern Science and Research 2.10 (2023): 1093-1095.

20. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent, 2023 ↑

2. **NEOLOGIYA VA NEOGRAFIYA: Zamonaviy holati va istiqbollari: Xalqaro ilmiy konferensiya tezislari. – SPb.: Nestor-Istoriya, 2015. – 128 bet.** ↑

© Berdiqulov Oxunjon Azim o'g'li, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Berdiqulov Oxunjon Azim o'g'li

LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Shernazarova Munisa, Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

munisa.shirinboyeva99@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada leksik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi badiiy matnda leksik vositalarning estetik ta'sir, obrazlilik va muallif individual uslubini ifodalashdagi rolini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda lingvopoetik tahlil, kontekstual va semantik-stilistik metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, leksik birliklar (metafora, metonimiya, sinonimlar, antonimlar, frazeologizmlar) nafaqat nominativ, balki ekspressiv, emotsional va pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Ular badiiy obraz yaratish, muallif munosabatini ifodalash hamda o'quvchiga ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, leksik birliklarning kontekstga bog'liq holda qo'shimcha semantik qirralarga ega bo'lishi aniqlangan. Natijalar lingvopoetik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi hamda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: leksik birliklar, lingvopoetika, badiiy matn, estetik funksiya, konnotativ ma'no, stilistik vositalar, adabiy kompetensiya.

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвопоэтические возможности лексических единиц на стыке лингвистики и литературоведения. Цель исследования заключается в выявлении роли лексических средств в создании эстетического эффекта, образности и выражении индивидуального стиля автора в художественном тексте. В работе использованы методы лингвопоэтического, контекстуального и семантико-стилистического анализа. Результаты показали, что лексические единицы (метафора, метонимия, синонимия, антонимия, фразеологизмы) выполняют не только номинативную, но и экспрессивную, эмоциональную и прагматическую функции. Они способствуют созданию художественного образа, выражению авторской позиции и воздействию на читателя. Также установлено, что лексические единицы приобретают дополнительные семантические оттенки в зависимости от контекста. Полученные результаты подтверждают эффективность лингвопоэтического подхода и его значимость в развитии литературной компетенции будущих учителей английского языка.

Ключевые слова: лексические единицы, лингвопоэтика, художественный текст, эстетическая функция, коннотация, стилистические средства, литературная компетенция.

Abstract

This article examines the linguopoetic potential of lexical units at the intersection of linguistics and literary studies. The study aims to identify how lexical means function in creating aesthetic effect, imagery, and expressing the author’s individual style in literary texts. The research employs linguopoetic analysis, contextual analysis, and semantic-stylistic methods. The findings reveal that lexical units such as metaphors, metonymy, synonyms, antonyms, and phraseological expressions perform not only nominative but also expressive, emotional, and pragmatic functions in literary discourse. They significantly contribute to image construction, convey the author’s attitude, and influence the reader. Moreover, lexical units acquire additional semantic nuances depending on the context. The results confirm the effectiveness of linguopoetic analysis in interpreting literary texts and highlight its importance in developing literary competence, particularly for future English language teachers.

Keywords: lexical units, linguopoetics, literary text, aesthetic function, connotation, stylistic devices, literary competence.

Kirish

Badiiy matn tilini o‘rganish zamonaviy lingvistika va adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, leksik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini tahlil qilish matnning estetik mohiyatini, obrazlilik darajasini hamda muallifning individual uslubini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Leksik qatlam til tizimining eng faol komponenti sifatida badiiy nutqda yangi ma’no qirralarini hosil qiladi va o‘quvchiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi leksik birliklarning lingvopoetik funksiyalarini aniqlash va ularning badiiy matndagi estetik hamda pragmatik rolini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari turli ilmiy maktablar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, bu masala bo‘yicha yangi yondashuvlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida **Abduaziz Abdurahmonov [1;56]** leksik birliklarning semantik strukturasini chuqur tahlil qilib, ularning konnotativ imkoniyatlarini yoritadi. **B.To‘xliyev** [6;24] badiiy matn tahlilida so‘zning estetik yuklamasiga urg‘u berib, uning obraz yaratishdagi rolini asoslab bergan. **S.Usmonov** [7;95] leksik vositalarning funksional-stilistik xususiyatlarini o‘rganib, ularning nutq jarayonidagi ekspressiv imkoniyatlarini

ko'rsatadi. **D.Xudoyberganova [3;71]** esa badiiy diskursda leksik birliklarning pragmatik va kommunikativ ahamiyatini tadqiq etgan.

Xorijiy tadqiqotlarda **Paul Simpson [5;132]** stilistika doirasida til birliklarining badiiy matndagi funksiyalarini tizimli ravishda tahlil qiladi va leksik vositalarning interpretativ imkoniyatlarini ochib beradi. **Peter Verdonk [8;43]** lingvostilistik yondashuv asosida so'zlarning matndagi estetik vazifasini izohlaydi. **Mick Short [4;85]** badiiy matn tahlilida leksik birliklarning diskursiv rolini ko'rsatib, ularning o'quvchi qabuliga ta'sirini asoslaydi. **David Crystal [2;37]** esa tilning umumiy tizimi doirasida leksik qatlamning kommunikativ va stilistik imkoniyatlarini keng yoritadi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda leksik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida bir nechta o'zaro uyg'un metodlar tizimli ravishda qo'llanildi. Jumladan, lingvopoetik tahlil orqali badiiy matndagi leksik vositalarning estetik va obraz yaratuvchi funksiyalari ochib berildi. Semantik-stilistik yondashuv asosida so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolari, ularning ekspressiv-emotsional yuklamasi tahlil qilindi. Kontekstual tahlil yordamida leksik birliklarning matn ichidagi funksional o'rni, ularning muallif niyatini ifodalashdagi roli hamda yashirin ma'no qatlamlari aniqlashtirildi. Shuningdek, diskursiv yondashuv orqali leksik vositalarning o'quvchi qabuliga ta'siri va kommunikativ-pragmatik ahamiyati o'rganildi. Komparativ tahlil metodidan foydalanib, o'zbek va ingliz badiiy matnlarida leksik birliklarning qo'llanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi, bu esa ularning universal va milliy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, leksik birliklar badiiy matnda ko'p qatlamli va ko'p funksiyali tizimni tashkil etadi. Ular faqat nominativ vazifani bajarib qolmay, balki estetik, ekspressiv va pragmatik funksiyalarni ham amalga oshiradi. Xususan, metafora, metonimiya, epitet, sinonimiya va frazeologik birliklar obrazlilikni yaratishda hamda muallifning individual uslubini shakllantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot davomida leksik birliklarning kontekstga bog'liq holda yangi semantik qirralarga ega bo'lishi, ularning ma'nosi kengayib, ko'p darajali interpretatsiyaga imkon yaratishi aniqlandi. Shu bilan birga, leksik vositalarning o'quvchiga emotsional-estetik ta'sir ko'rsatishi, matnni chuqurroq anglash va interpretativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi isbotlandi. Qiyosiy tahlil natijalari esa turli tillardagi badiiy matnlarda leksik birliklarning umumiy lingvopoetik qonuniyatlarga bo'ysunishi bilan birga, milliy-madaniy xususiyatlarni ham o'zida aks ettirishini ko'rsatdi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari leksik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari badiiy matnni chuqur anglashda asosiy omillardan biri ekanligini koʻrsatdi. Adabiyotlar sharhida keltirilgan yangi olimlarning ilmiy qarashlari bilan uygʻun holda, ushbu ish leksik vositalarning nafaqat til birligi, balki estetik fenomen sifatida ham muhimligini tasdiqlaydi. Shuningdek, mazkur yondashuvni ingliz tilini oʻqitish jarayoniga tatbiq etish boʻlajak oʻqituvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali natijalar beradi. Ayniqsa, interpretativ oʻqish, interaktiv metodlar va lingvopoetik tahlilni uygʻunlashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, leksik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini tizimli oʻrganish til va adabiyot integratsiyasini ta'minlovchi muhim ilmiy-metodik asos boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, A. (2012). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

2. Crystal, D. (2003). The Cambridge encyclopedia of the English language (2nd ed.). Cambridge University Press.

3. Xudoyberganova, D. (2018). Badiiy diskurs va lingvopragmatika. Toshkent: Fan.

4. Short, M. (1996). Exploring the language of poems, plays and prose. Longman.

5. Simpson, P. (2004). Stylistics: A resource book for students. Routledge.

6. Toʻxliyev, B. (2010). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Oʻqituvchi.

7. Usmonov, S. (2007). Umumiy tilshunoslik. Toshkent: Fan.

8. Verdonk, P. (2002). Stylistics. Oxford University Press.

© Shernazarova Munisa, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Shernazarova Munisa

ВОСТОЧНЫЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ИСТОРИКО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТЫ

Жамоловой Сарвиноз Равшан қизи,
магистрант 1 курса
Навоийский университет инноваций, г.Навои

Аннотация. В статье рассматриваются восточные заимствования в русском языке с позиций историко-типологического и функционально-семантического анализа. Особое внимание уделяется источникам заимствований, их классификации, а также процессам адаптации и деривационного развития. Установлено, что восточные заимствования представляют собой динамический пласт лексики, активно участвующий в формировании словообразовательной системы и семантической структуры языка.

Ключевые слова: заимствование, восточная лексика, тюркизмы, семантическая адаптация, словообразование, деривация.

EASTERN LOANWORDS IN THE RUSSIAN LANGUAGE: HISTORICAL-TYPOLOGICAL AND FUNCTIONAL-SEMANTIC ASPECTS

Jamolova Sarvinoz Ravshan qizi,

First-year Master's student
Navoi Innovation University, Navoi, Uzbekistan

Abstract. The article examines the linguistic modeling of hyperreality in the prose of Viktor Pelevin. The study focuses on lexical innovations, occasional formations, and hybrid language structures that construct simulated worlds of media and digital culture. The methodology combines lexico-semantic, cognitive, and discourse approaches. It is demonstrated that Pelevin's language reproduces and transforms dominant social discourses, generating effects of simulation and semantic instability. Hyperreality is constructed through language play, intertextuality, and the blending of heterogeneous discursive codes.

Keywords: hyperreality, lexical innovation, language play, intertextuality, discursive hybridity.

Лексическая система русского языка формировалась в условиях многовековых культурно-языковых контактов, что обусловило наличие значительного пласта заимствованной лексики. Особое место в этом процессе

занимают восточные заимствования, отражающие взаимодействие с тюркскими, иранскими и арабскими языковыми традициями.

Актуальность исследования определяется необходимостью комплексного осмысления данного пласта лексики с учётом современных подходов к изучению языковой динамики. Несмотря на значительное количество работ, посвящённых этимологии и классификации заимствований, недостаточно исследован их деривационный потенциал и функциональная роль в современной языковой системе.

Методологическую основу составляют методы этимологического, лексико-семантического и словообразовательного анализа, а также элементы функционального подхода.

Проникновение восточной лексики в русский язык связано с длительными контактами славянских народов с восточными культурами. Как отмечает Макс Фасмер, заимствования происходили волнообразно и отражали различные этапы исторического взаимодействия [6, с. 9]. Особенно интенсивным данный процесс был в период контактов с Золотой Ордой, когда в русский язык вошли слова, связанные с административной, военной и хозяйственной сферами: *казна, сарай, тамга* [5]. В более поздние периоды активизировались заимствования из персидского и арабского языков, часто через посредничество тюркских языков.

В рамках историко-типологического подхода восточные заимствования могут быть классифицированы по их происхождению: тюркские заимствования: *сарай, казна, караван, башмак*; иранские (персидские): *базар, диван*; арабские: *алгебра, алкоголь*; монгольские: *ярлык, караул* [5].

Кроме того, важным является разграничение прямых и опосредованных заимствований. Значительная часть восточной лексики проникла в русский язык через тюркские языки, что усложняет её этимологическую характеристику. Современные исследования подчёркивают необходимость учитывать не только генетический, но и функциональный аспект типологии, включая степень освоенности и частотность употребления заимствований [1].

Заимствованные единицы проходят несколько этапов адаптации.

Фонетическая адаптация проявляется в подчинении звуковой системе русского языка. Морфологическая адаптация выражается во включении слов в систему словоизменения. Особое значение имеет словообразовательная адаптация. По наблюдению Е.А. Земская, заимствованные основы становятся продуктивными центрами деривации [4, с. 112]. Например: *базар – базарный – базарить*, *караван – караванщик* [5]. Современные исследования также указывают

на высокий деривационный потенциал заимствований, позволяющий им участвовать в формировании новых лексических единиц [1].

В процессе функционирования в языке заимствования подвергаются семантическим изменениям. Как отмечает В.В. Виноградов, слово в новом языковом окружении вступает в систему парадигматических связей, изменяя свою структуру [2, с. 102]. Показателен пример слова *сарай*, которое в исходном языке обозначало ‘дворец’, а в русском приобрело значение ‘хозяйственная постройка’. Аналогичные процессы наблюдаются и у других заимствований.

Восточные заимствования выполняют не только номинативную функцию, но и участвуют в формировании стилистических эффектов. По наблюдению И.Р. Гальперин, иноязычные элементы могут использоваться как средство создания текстовой образности [3, с. 87]. В художественной речи они нередко выполняют функцию стилизации, создавая культурно маркированный фон. В современном языке заимствования активно функционируют в различных дискурсах, включая публицистический и разговорный.

Восточные заимствования представляют собой важный и динамически развивающийся компонент лексической системы русского языка. Их формирование обусловлено историческими контактами, а современное функционирование связано с процессами языковой адаптации и деривации.

Историко-типологический анализ показывает многообразие источников заимствований, тогда как функционально-семантический подход позволяет выявить их роль в структуре языка. Заимствованные единицы не только сохраняют следы своего происхождения, но и активно включаются в словообразовательные процессы, формируя новые значения и языковые структуры.

Список литературы:

1. Биксалиева Р.Р. Типологии новых восточных заимствований. Материалы сборника международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы сопоставительного языкознания, сравнительного, 2023.
2. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1963.
3. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. Изд. 4-е, стереотипное. — М: КомКнига, 2006. — 144 с
4. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Флинта, 2009.
5. Словарь иностранных слов – М.: Русский язык, 1989.
6. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. В 4 т. Т. 4 (Т-ящур)/ Пер. с нем. и доп. О. Н. Трубачева. — 2-е изд., стер. — М.: Прогресс, 1987. — 864 с.

© Жамоловой Сарвиноз Равшан қизи, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Жамоловой Сарвиноз Равшан қизи

ERTAKLARNING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI

Marjona Anvar qizi BOZOROVA,

NIU 70230101 – Lingvistika (O'zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc), prof. N.J.Yarashova

Annotatsiya. Mazkur maqolada ertak tushunchasi va ertakning bola auditoriyasidagi ahamiyati, xalq og'zaki ijodida ertak namunalari va o'zaro tahlil qilinib, mulohaza qilinadi. Ertaklarning psixolingvistik jihatlarini tahlil qilish uchun olib borilgan tadqiqotlar ko'rib chiqilib, xalq og'zaki ijodi va jahon ertaklari matni namunalari tahlil qilinadi. Ertaklardagi obrazlar va motivlar bo'yicha umumiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: ertak, bola auditoriyasi, psixolingvistika, Lakoff, Bruner, jahon ertaklari, til birliklari, idrok, tafakkur, nutq shakllanishi, xalq og'zaki ijodi.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СКАЗОК

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие сказки и значение сказки для детской аудитории, анализируются примеры народного устного творчества и художественные сказки, проводится сравнение и размышление. Для анализа психолингвистических аспектов сказок исследуются народное устное творчество и образцы текста сказок. Приводятся общие выводы по образам и мотивам в сказках.

Ключевые слова: развитие, аудитория речи, психолингвистика, языковые единицы, восприятие, мышление, формирование речи, народное устное творчество.

PSYCHOLINGUISTIC RESEARCH OF FAIRY TALES

Abstract. This article discusses the concept of a fairy tale and the significance of fairy tales for a child audience, comparing examples from folk oral literature and literary fairy tales, and offering reflections. To analyze the psycholinguistic aspects of fairy tales, samples of folk oral literature and fairy tale texts are examined. General conclusions are drawn regarding the characters and motifs in fairy tales.

Keywords: literature, speech audience, psycholinguistics, language units, perception, thinking, speech formation, folk oral creativity.

Ma'lumki, bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlar o'zining rang-barangligi, xilma-xilligi va keng qamrovliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu matnlarda bola ruhiyatiga, ongi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashini shakllantiradigan usullar vositasida uning idrokini yuzaga keltirish maqsad qilinadi.

Bolalar muloqotining oliy shakli sanalgan psixologik-kognitiv aloqa psixik holatlar, kognitiv omillar, xalq og'zaki ijodi asarlari, bolalar adabiyotining sara namunalari ta'siri natijasida yanada mukammalroq namoyon bo'ladi.[1]

Bolalar adabiyoti turkumiga she'rlar, ertaklar, maqollar, masallar, qissalar, hikoyalar, avtobiografik asarlar, esselar, sayohat va sarguzasht romanlari kiradi. Bolalar adabiyoti tilining jozibali bo'lishida adib, avvalo, bolaning ichki ruhiy olamini, tafakkur tarzini, ma'naviy qiyofasini, xarakter-xususiyatlarini, bilim darajasini chin qalbdan sezishi, bollarni kuzatish, o'rganish, tahlil qilish asnosida kashf etmog'i lozim. Shundagina u asar o'z kitobxoniga ega bo'ladi.[2]

Bundan tashqari, bola auditoriyasi uchun mo'ljallangan matnlarda ertak janri o'zining qiziq syujetlarga boyligi, mavzu ko'lami va keng qamrovi jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi.[3]

Ertak — bu nafaqat tahlil uchun badiiy matn, balki bola ongidagi psixik rivojlanish vositasi hisoblanadi. U bola ongida voqea va hodisalarni idrok qilish, eshitilgan matn yuzasidan tafakkur qilish, diqqatni jamlash va xotirani shakllantirish, bola ongida tasavvur uyg'otish, shuningdek, bola nutqining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bola ertak tinglaganda, undagi qahramonlar vositasida tashqi dunyoni obrazlar orqali tasavvur qiladi. Ertak matnidagi jonlangan obrazlar bola ongida ular haqidagi dunyoqarash va tushunchalarni kengaytiradi. Tilshunoslikda ushbu jarayon Lev Vigotskiy tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ushbu hodisani ertak matni orqali bolaning ichki nutqi shakllanishi va ertakdagi obraz va dialoglar bolaning ichki fikrlash usulini shakllantirishi orqali tushunishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bolada ertak orqali o'ylash jarayoni yuzaga keladi.

O‘zbek xalq ertaklarida bolalar uchun ibrat bo‘ladigan, ularni fikrlashga undaydigan juda ko‘p jihatlar tadqiq qilinadi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” o‘zbek xalq ertagida Zumrad – halol-pokligi, shirin so‘zligi, mehnatkashligi, kattani hurmat qilishi, kichikni e’zozlashi bilan sehrgarning muhabbatini qozonadi. Shu sababli sehrgar Zumradni tengsiz boylik bilan siylaydi, uni baxtiyor qiladi. [4] Ushbu fikrlarni “Oltin tarvuz”, “Dehqon bilan ayiq”, “Non va tilla”, “O‘tinchi yigit”, “Bo‘ri bilan echki” singari ertaklar haqida ham aytish mumkin.

Bundan tashqari, o‘zbek ertaklarida ko‘pincha: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...” “Murod-maqsadiga yetibdi.” deb ifodalanuvchi boshlanma va tugallanmalar an’anaviy tarzda ifodalanadi. Bunday ifodalanish formulalari uni tinglovchi bolalar ongida o‘ziga xos fikralash qolipini yaratadi. Ertakda qo‘llanayotgan takroriy ifodalar bola xotirasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, “Zumrad va Qimmat” ertagida ikki qarama-qarshi xarakter mavjud:

Zumrad	Qimmat
Mehribon	Dangasa
Sabrli	Badjahil
Mehnatkash	Hasadgo‘y

Ushbu ertakni psixolingvistik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu oppozitsiya orqali bola ongida axloqiy kategoriyalash jihatlari shakllanadi.

Lakoff nazariyasiga ko‘ra, “yaxshilik — nur”, “yomonlik — zulmat” kognitiv metaforalari yashirin tarzda ishlaydi. Ertaklarda qahramonlar ko‘pincha yorug‘lik, oq rang va quyosh bilan bog‘lanadi. Lakoff buni bizning vizual idrokimiz bilan tushuntiradi. “J.Lakoff va M.Jonson nazariyasiga ko‘ra, inson ongi “Yaxshilik – bu yorug‘lik” metaforasini kundalik tajribadan, ya’ni kun va tun almashinuvidan kelib chiqib shakllantirgan. Ertaklardagi ijobiy qahramonlarning nurafshon siymoda, yovuz kuchlarning esa zulmat bag'rida tasvirlanishi aynan shu kognitiv modelga asoslanadi”.[5]

Bundan tashqari, ko‘plab o‘zbek ertaklarida kambag‘al qahramon boy bo‘lishi, ojiz qahramon g‘alaba qozonishi, ertak syujeti davomida sehrli voqea yuz berishi kabi hodisalar yuz beradi.

Shuningdek, Bruner nazariyasiga ko‘ra, ertaklar sabab–oqibat strukturasi orqali bolaning tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi. Jerom Brunerning narrativ tafakkur (hikoyaviy tafakkur) nazariyasi ertaklarni tahlil qilishda eng fundamental asoslardan biri hisoblanadi. Bruner “paradigmatik” (mantiqiy-ilmiy) va “narrativ” (hikoyaviy) tafakkurni bir-biridan farqlaydi. Ertaklardagi sabab-oqibat zanjiri esa aynan bolaning dunyoni narrativ tarzda tushunishiga yordam beradi. “J. Brunerning fikricha, inson ongi voqealikni tartibga solishning ikki usuliga ega: paradigmatik va narrativ. Narrativ tafakkur insoniy maqsadlar, ehtiyojlar va ular keltirib chiqaradigan oqibatlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ertaklar bu jarayonda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.” [6] Bundan ko‘rinadiki, Lakoff tushunchalarni metaforik modellar orqali tushunishimizni isbotlasa, Bruner ushbu modellarning vaqt va sababiyat zanjirida (hikoyada) qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatib beradi.

Biz ertaklarni tahlil qilish jarayonida ulardagi obrazlar va motivlarni kuzatar ekanmiz, jahon ertaklari ham o‘zining rang-barang va xilma-xilligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Korney Ivanovich Chukovskiy shunday yozgan edi: “Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g‘am-tashvishi uchun qayg‘urish, o‘zganing shodligi uchun xursand bo‘lish, begona insonning taqdirini xuddi o‘ziniki kabi boshdan o‘tkazish kabi insoniylikni qanday bo‘lmasin tarbiyalashdan iboratdir”. E’tibor berib ko‘radigan bo‘lsak,, bu yerda ikki insonning o‘zaro bir-birini tushunishi, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishi haqida gap bormoqda. Ertaklarga o‘z ijodida jahon psixologlaridan E.Fromm, E.Bern, E.Gordner, I.V.Vajkov, M.Osorina, E.Lisina kabi psixologlar ham murojaat qilganlar. Ertaklardan bolalar adolat va adolatsizlik haqida o‘zlarining ilk tasavvuriga ega bo‘lishi bizga ma’lum. Ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg‘urishga majbur qiladi. Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to‘qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi. [7]

Ertak bu - xalq og‘zaki ijodi namunalarini inson ong va tafakkurini, ruhiyatini, til va tafakkur orasidagi bog‘liqlik nuqtayi nazaridan o‘rganuvchi ijod namunasidir. Xalq og‘zaki ijodida uchraydigan ertak tushunchasi esa shunchaki to‘qima hikoyalar emas, balki inson ongi va tafakuridagi, uning idrok va dunyoqarashidagi ruhiy va ma’naviy jarayonlarning tildagi aksidir.

Ertakdagi har bir obraz bola uchun ma’lum bir psixologik holatni ifodalaydi va u o‘zining alohida roliga ega qahramon sifatida gavdalanadi. shvetsariyalik psixiatr, ruhshunos va analitik psixologiya yo‘nalishi asoschisi K. G. Yung nazariyasiga ko‘ra, ertaklar kollektiv ong ostining eng sof va sodda ifodasi bo‘lib, ularda insoniyatning universal tajribalari arxetiplar shaklida namoyon bo‘ladi[8] . "Yung ta’kidlaydiki, “Ertak

qahramonining sarguzashtlari — bu inson ruhiyatining individuatsiya jarayoni, ya'ni o'zligini topish yo'lidagi ramziy ifodasidir" . [9]

Bundan ko'rinadiki, ertaklar, asosan, individual tajribadan emas, balki butun insoniyatga xos bo'lgan umumiy xotira qatlamidan kelib chiqadi. Bunda ertakda ifoda etilayotgan obrazlar inson ruhiyatidagi turli jihatlarni aks ettiradi va bolaning ruhiy kamolotga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

"Bolalar adabiyoti,– deb yozgan edi N.Fozilov,– nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi...Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan katta adabiyotga boshlovchi darg'alar. Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, e'zoztalab adabiyot... Bolaning ko'ngli ham shunday. Uni sindirib bo'lmaydi. Unga hamisha e'tibor darkor. Shundagina uning ko'ngli to'lib o'sadi. U mehrtalab. Shundagina u muhabbatingiz mevasiga aylanadi, izingizni bosadi".[10]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ertaklarning psixolingvistik tadqiqi — turli xalqlardagi ertak namunalarini inson ruhiyati, tafakkuri va til orasidagi bog'liqlik nuqtayi nazaridan o'rganuvchi qiziqarli sohadir. Ertaklar shunchaki to'qima hikoyalar emas, balki jamoaviy va individual ong osti jarayonlarining tildagi aksidir.

ADABIYOTLAR

1. Bruner J. Actual Minds, Possible Worlds. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986. – P. 11-14.

Fozilov N. Bolalikning begubor dunyosi // "Sharq yulduzi" jurnali. – Toshkent, 1994. – № 3-4. – B. 12-14.

Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006 – 215.

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 14-17.

Yarashova N. J. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi. Monografiya – Toshkent:Tafakkur avlodi, 2022 – 223 b

Юнг, К. Г. (1996). *Душа и миф: шесть архетипов*. Киев: Государственная библиотека Украины для юношества. 1996, 45-b.

1. Yarashova, Nasiba Jumayevna. "DISLALIYA VA UNING YUZAGA KELISHI." (2023).
2. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." *International Journal of Human Computing Studies* 4.2 (2022): 24-29.

10. Ярашова, Насиба Жумаевна. "Фонетико-стилистические особенности детской речи в поэтическом тексте." Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога. 2020.

11. Yarashova N. THREE GREAT GENIUS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 521-524.

12. Yarashova N. LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF OBSOLETE WORDS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 525-529.

13. Yarashova N. SOCIOPRAGMATIC STUDY OF HISTORICAL WORDS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1216-1219.

14. Yarashova N. METAPHORS AS METHODOLOGICAL TOOLS (IN THE EXAMPLE OF ABDULLA ORIPOV'S POETRY) //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1220-1223.

15. Yarashova N. DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 1093-1095.

16. Yarashova N. J. TARIXIY SO'ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI. – 2024.

17. Madraimov, A., Isakulova, N., Xoshimova, D., Rasulova, I., Kurbaniyozova, R., & Yarashova, N. (2025, April). Chrono Linguistic Modelling through AI Driven Conceptual Frameworks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

18. Yarashova, Nasiba Jumaevna. "Linguopsychological Characteristics of Children's Quasidological Speech."

19. Yarashova, Nasiba. "DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE." Modern Science and Research 2.10 (2023): 1093-1095.

20. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

1. Yarashova N. J. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi. Monografiya .Toshkent:Tafakkur avlodi, 2022 – 223 . ↑

2. Yarashova N. J. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi. Monografiya – Toshkent:Tafakkur avlodi, 2022 – 123 ↑

3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006, 215-b. ↑

4. Jumaboyev M. Koʻrsatilgan asar, 16-b. ↑

5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 14-17. ↑

6. Bruner J. Actual Minds, Possible Worlds. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986. – P. 11-14. ↑

7. Umarqulova Nozima. ERTAKLARNING BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA TAʼSIRI VA ERTAK TERAPIYA. Fan va talim | ERTAKLARNING BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA TAʼSIRI VA ERTAK TERAPIYA ↑

8. Юнг, К. Г. (2022). *Архетипы и коллективное бессознательное*. Москва: АСТ. ↑

9. Юнг, К. Г. (1996). *Душа и миф: шесть архетипов*. Киев: Государственная библиотека Украины для юношества. 1996, 45-b ↑

10. Fozilov N. Bolalikning begubor dunyosi // "Sharq yulduzi" jurnali. – Toshkent, 1994. – № 3-4. – B. 12-14. ↑

© BOZOROVA Marjona Anvar qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

BOZOROVA Marjona Anvar qizi

MODERN STRATEGIES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING THROUGH AI

Sa'dullayeva Surayyo Ziyadullayevna

E-mail: sadullayevasurayyo3112@gmail.com

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti 1-bosqich magistranti, Filologiya (Ingliz tili)

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti, Navoiy shahri

E-mail: info@niuedu.uz

Annotation

This study investigates innovative approaches to fostering critical thinking skills in English language classrooms with particular emphasis on artificial intelligence (AI) integration. It analyzes linguistic and pedagogical principles alongside international educational practices, especially those of Singapore and South Korea. The paper demonstrates that AI-supported instruction enhances learners' analytical abilities, autonomy, and engagement, leading to more effective language acquisition.

Keywords: critical thinking, artificial intelligence, English, modern approaches, interactive methods, foreign experience

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию современных подходов к развитию критического мышления на уроках английского языка с акцентом на интеграцию искусственного интеллекта. Рассматриваются лингвистические и педагогические аспекты, а также опыт Сингапура и Южной Кореи. Результаты показывают, что использование ИИ способствует развитию аналитических навыков и самостоятельности учащихся.

Ключевые слова: критическое мышление, искусственный интеллект, английский язык, современные подходы, интерактивные методы, зарубежный опыт

Annotasiya

Mazkur ish ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning innovatsion usullarini, ayniqsa sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlarni tahlil qiladi. Unda lingvistik va pedagogik asoslar hamda Singapur va Koreya tajribasi o'rganiladi. Natijalar AI texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil va tahliliy fikrlashini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar:

tanqidiy fikrlash, sun'iy intellekt, ingliz tili, zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar, xorijiy tajriba

Introduction

In the modern educational landscape, the ability to think critically has become one of the most essential competencies for learners. Education is no longer limited to knowledge transmission; instead, it focuses on developing learners' analytical, evaluative, and problem-solving skills. In English language teaching, critical thinking plays a significant role as it allows students to interpret texts, express opinions, and engage in meaningful communication.

At the same time, the rapid development of artificial intelligence (AI) has introduced new opportunities for enhancing educational practices. AI-based tools support interactive, adaptive, and learner-centered environments, which are highly effective in promoting higher-order thinking skills. As noted by UNESCO, the integration of AI in education can transform traditional learning into more personalized and cognitively engaging processes.

This study aims to explore modern approaches to developing critical thinking skills in English language classrooms by combining pedagogical principles, international experiences, and AI technologies.

Theoretical Background of Critical Thinking

Critical thinking is a complex cognitive process that involves analyzing, evaluating, and synthesizing information. It enables learners to question assumptions, assess evidence, and make reasoned decisions. According to Facione, critical thinking includes interpretation, analysis, evaluation, and inference, which are essential components of effective learning.

From a linguistic perspective, critical thinking is expressed through language. Students demonstrate their thinking abilities by constructing arguments, justifying opinions, and interpreting meanings. Therefore, language learning and thinking development are closely interconnected.

From a pedagogical standpoint, critical thinking requires active engagement. Traditional teacher-centered approaches are insufficient, as they limit learners' participation. Instead, modern education promotes student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative activities.Artificial Intelligence as a Tool for Critical Thinking Development

Adaptive Learning: AI systems adjust content based on learners' needs, enabling personalized cognitive development.

Immediate Feedback: Students receive real-time responses, which supports reflection and improvement.

Data Analysis: AI tools help learners compare information and identify patterns.

Simulation and Problem Solving: Real-world scenarios encourage analytical thinking.

Importantly, AI should be viewed as a supportive resource rather than a substitute for human cognition.

Innovative Teaching Methods in English Classrooms

Modern pedagogy emphasizes interactive and learner-centered approaches, such as:

- problem-based learning
- project-based instruction
- structured debates
- case analysis
- role-playing activities

These methods require students to actively process information, make decisions, and justify their ideas.

Combining AI with Pedagogical Approaches

The integration of AI with modern teaching strategies creates a dynamic educational environment. Teachers can utilize AI to:

- design engaging tasks
- support writing and speaking activities
- encourage independent research
- facilitate critical discussions

Such integration enhances both language competence and cognitive skills.

Challenges in Implementation

Despite its benefits, AI integration presents certain limitations:

potential dependence on technology

insufficient critical evaluation of AI outputs need for teacher training

Addressing these challenges is essential for effective implementation.

International Perspectives: Singapore and South Korea

Global educational systems provide valuable insights into effective strategies for developing critical thinking skills.

Singapore's education model emphasizes the integration of thinking skills across all subjects. Students are encouraged to analyze information, ask questions, and engage in discussions. This approach fosters deep understanding and independent thinking.

Similarly, South Korea's education system focuses on creativity, analytical reasoning, and student autonomy. English language instruction often includes debates, argumentative writing, and critical reading tasks. These practices help students develop the ability to express and defend their viewpoints.

Such international experiences demonstrate that systematic and well-structured approaches can significantly enhance critical thinking development.

The Role of Artificial Intelligence in Education

Artificial intelligence has become an influential factor in modern education. AI technologies provide innovative tools that support both teaching and learning processes. According to Mitchell, AI systems are capable of simulating intelligent behavior and assisting in complex cognitive tasks.

AI contributes to critical thinking development in several ways. First, it offers personalized learning experiences by adapting content to individual learners' needs. Second, it provides immediate feedback, allowing students to reflect on their performance and improve their reasoning skills. Third, AI tools enable learners to analyze large amounts of information and compare different perspectives.

Recent studies highlight that AI-based learning environments enhance students' engagement and analytical abilities. For example, research by Küçükuncular emphasizes the importance of developing critical AI literacy, which allows learners to evaluate AI-generated information critically.

Modern Teaching Approaches in English Lessons

The development of critical thinking requires the use of innovative teaching methods. Modern approaches in English language teaching include problem-based learning, project-based instruction, debates, and case studies.

Furthermore, integrating AI tools into these approaches enhances their effectiveness. AI can generate discussion topics, provide feedback on writing, and support language practice. This combination creates a dynamic and interactive learning environment.

Integration of AI and Pedagogical Strategies

The integration of AI with pedagogical approaches offers significant advantages. Teachers can use AI to design personalized tasks, monitor student progress, and provide targeted support. According to recent research, AI-enhanced learning environments improve both language proficiency and critical thinking skills.

However, it is important to maintain a balanced approach. AI should not replace human interaction but rather complement traditional teaching methods. Students must also develop the ability to critically evaluate AI-generated content.

Challenges and Limitations

Despite its benefits, the use of AI in education presents several challenges. These include over-reliance on technology, lack of digital literacy, and insufficient teacher training. As noted in recent studies, students may accept AI-generated information without critical evaluation, which can hinder the development of independent thinking.

Therefore, educators must ensure that AI is used responsibly and effectively. Training teachers and promoting digital literacy are essential steps in this process.

Conclusion

In conclusion, developing critical thinking skills in English language teaching is a key priority in modern education. The combination of linguistic and pedagogical principles, international best practices, and AI technologies provides effective strategies for achieving this goal.

AI has significant potential to enhance learning processes by providing personalized, interactive, and engaging environments. However, it should be used as a supportive tool rather than a replacement for human thinking.

By integrating modern approaches and technologies, educators can create meaningful learning experiences that foster students' intellectual growth and prepare them for the challenges of the future.

REFERENCES

1. Melanie Mitchell (2019). Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans.
2. UNESCO (2021). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities.
3. Melisa, R., Ashadi, A. (2025). Critical Thinking in the Age of AI.
4. Manousou, E. (2025). Critical Thinking and AI in Education.
5. Yang, A., Sulaiman, N. (2025). Enhancing Critical Thinking in English Learning.
6. Küçükuncular, A. (2025). Critical AI Literacy in Education.
7. S. Sirojiddinov, M. Abjalova, S. Normamatov and N. Gulomova, "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus," 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
8. Ikromovna, M. M. (2023). Artistic features of Evelyn Waugh. Research and Education, 2(4), 366-370.
9. Akramova, S., & To'rayeva, B. (2023). THE IDEAS OF HUMANISM IN ENGLISH LITERATURE. Академические исследования в современной науке, 2(6), 30-33.

© Sa'dullayeva Surayyo Ziyadullayevna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Sa'dullayeva Surayyo Ziyadullayevna

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA METAFORA VA IDIOMALARDAN FOYDALANISH

NIU 1-kurs magistranti: Axtamova Maftuna Hoshimovna

Ilmiy rahbar: dotsent Usmanova R.M.

Annotatsiya: Ushbu tezis ommaviy axborot vositalarida (OAV) metafora va idiomalarning qoʻllanilishini lingvistik hamda pragmatik jihatdan tahlil qiladi. Metafora va idiomalar axborotni oʻquvchilar ongiga yanada taʼsirchan va tez yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot zamonaviy gazeta va internet nashrlaridan olingan materiallar asosida metaforik ifodalar va idiomatik birliklarning semantik xususiyatlarini chuqur oʻrganadi, ularning kommunikativ, manipulyativ va ideologik funksiyalarini aniqlaydi. Ingliz va oʻzbek OAV materiallari qiyosiy tahlil qilinib, ular orasidagi umumiylik va farqli tomonlar ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot yakunida metafora va idiomalar ommaviy kommunikatsiyada nafaqat stilistik bezak, balki auditoriya ongiga maʼlum yoʻnalishda taʼsir koʻrsatuvchi strategik til vositalari ekanligi asoslanadi.

Kalit soʻzlar: metafora, idioma, OAV, pragmatika, semantika, diskurs stilistika, lingvistik tahlil.

Abstract: This thesis analyzes the use of metaphors and idioms in mass media from linguistic and pragmatic perspectives. Metaphors and idioms serve as essential tools for conveying information to the readers' minds more effectively and rapidly. Based on materials gathered from modern newspapers and online publications, the research examines the semantic characteristics of metaphorical expressions and idiomatic units, identifying their communicative, manipulative and ideological functions. By conducting a comparative analysis of English and Uzbek mass media materials, the study substantiates their similarities and differences on a scientific basis. The study concludes that metaphors and idioms function in mass communication not only as stylistic devices but also as strategic linguistic tools that exert directional influence on the audience's consciousness.

Keywords: metaphor, idiom, mass media, pragmatics, semantics, discourse stylistics, linguistic analysis.

Аннотация: В данном тезисе рассматривается использование метафор и идиом в средствах массовой информации (СМИ) с лингвистической и прагматической точек зрения. Метафоры и идиомы являются важными инструментами для более эффективного и оперативного донесения информации до сознания читателей. На основе материалов, собранных из современных газет и

интернет-изданий, исследуются семантические особенности метафорических выражений и идиоматических единиц, выявляются их коммуникативные, манипулятивные и идеологические функции. Путем сравнительного анализа материалов англоязычных и узбекоязычных СМИ научно обосновываются их сходства и различия. В заключение доказывается, что метафоры и идиомы в массовой коммуникации выполняют не только функцию стилистического оформления, но и выступают стратегическими языковыми средствами, оказывающими направленное воздействие на сознание аудитории.

Ключевые слова: метафора, идиома, СМИ, прагматика, семантика, стилистика дискурса, лингвистический анализ.

Kirish Hozirgi zamon tilshunosligida ommaviy axborot vositalari (OAV) mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida tobora ko‘proq e’tibor qaratilayotgan sohalardan biridir. OAV faqat axborot uzatish vositasi bo‘lib qolmay, balki jamiyatda muayyan qarashlar, munosabatlar va dunyoqarashni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi kuchli kommunikativ tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz O‘zbekiston axborot makonida milliy kontentni o‘z qo‘limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib beramiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliliy ma’lumotlar, real voqealarga ehtiyojni biz to‘ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi” [1].

Bu fikrlar OAVning nafaqat axborot tarqatish, balki jamiyat ongini shakllantirish va milliy manfaatlarini himoya qilishdagi strategik ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bois, OAVda qo‘llaniladigan til birliklari - xususan **metafora** va **idioma**larni o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Metafora bir tushunchani boshqa tushuncha orqali ifodalashga asoslangan bo‘lib, inson tafakkurining muhim kognitiv mexanizmlaridan biri hisoblanadi [2]. Idiomalarning tarkibiy jihatdan barqaror, ko‘pincha ko‘chma ma’noni anglatuvchi va tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan birliklar ekanligi ma’lum [3].

Tadqiqot metodologiyasi Ushbu tadqiqotning empirik bazasi 2023–2026 yillarga oid o‘zbek va ingliz tillaridagi OAV materiallaridan tashkil topgan. Tadqiqotda sifatli diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis - CDA), Lakoff va Johnsonning kontseptual metafora nazariyasi, Fernando ning idioma nazariyasi hamda qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

O‘zbek tilidagi “Xalq so‘zi”, “Kun.uz”, “Daryo.uz” va boshqa nashrlardan 150 dan ortiq matn (sarlavhalar, maqolalar, sharhlar); ingliz tilidagi “The Guardian”, “BBC”, “CNN” nashrlaridan 120 dan ortiq matn tahlil obyekti sifatida olindi.

Tahlil va muhokama Zamonaviy media makonida metafora va idiomalar nafaqat stilistik bezak, balki semantik va pragmatik jihatdan ham muhim rol o‘ynaydi. Ular axborotni obrazli va ta’sirli shaklda yetkazish bilan birga, auditoriya ongiga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi **“bozor qizib ketdi”** metaforasi iqtisodiy o‘sishni jismoniy harakat (qizish) orqali ifodalaydi. Semantik jihatdan iqtisodiyotni jonli organizm sifatida ko‘rsatsa, pragmatik jihatdan o‘quvchida optimistik his-tuyg‘u uyg‘otib, iqtisodiy siyosatni ijobiy baholashga undaydi (perlokutiv ta’sir).

Ingliz tilidagi parallel misol - **“The economy is booming”** (Iqtisodiyot gullab-yashnamoqda). Bu yerda ham iqtisodiy o‘sish tabiat hodisalari yoki kuchli harakat orqali metaforizatsiya qilinmoqda va o‘xshash ijobiy emotsional ta’sir hosil qiladi.

Yana bir misol: o‘zbekcha **“Muzokaralar to‘xtab qoldi”** idiomatik ifodasi muzokaralarni harakatlanuvchi mexanizm sifatida tasvirlaydi va muvaffaqiyatsizlikni kuchaytirib, salbiy emotsional reaksiya hosil qiladi. Inglizcha parallel — **“The negotiations have hit a deadlock”** (Muzokaralar boshi berk ko‘chaga kirib qoldi).

Qiyosiy tahlil natijalari (siyosiy diskurs misollarida):

- O‘zbekcha: “Siyosiy maydonda keskin kurash davom etmoqda” → Inglizcha: “A fierce battle is raging on the political arena”.
- O‘zbekcha: “Iqtisodiyot pasaymoqda” (yoki “tushib ketdi”) → Inglizcha: “The economy is sinking” yoki “The economy has taken a nosedive”.
- O‘zbekcha: “Yoshlar kelajagi porloq” → Inglizcha: “The future of the youth is bright” yoki “Youth are the rising stars”.

Isakova (2025) hamda Nuriddinova va Mannonova (2025) ishlarida ta’kidlanganidek, o‘zbek media matnlarida idiomalar milliy-madaniy va axloqiy nuanslarni kuchliroq aks ettirsa, ingliz nashrlarida ritorik va universal obrazlar ustunlik qiladi [4]. Shu bilan birga, har ikkala tilda ham ushbu til birliklari manipulyativ va ideologik funksiyalarni muvaffaqiyatli bajaradi.

Stilistik nuqtai nazardan, metaforalar matnga obrazlilik va ekspressivlik beradi, oddiy faktiv ma’lumotlardan farqli ravishda kuchli emotsional ta’sir yaratadi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalarida metafora va idiomalar auditoriya ongiga ta’sir etuvchi strategik quroldir. Metaforalar orqali abstrakt

tushunchalar o'quvchiga tushunarli va obrazli shaklda yetkaziladi, idiomalar esa matnga ekspressivlik bag'ishlaydi hamda milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, har ikkala tilda ham ushbu birliklar kommunikativ, manipulyativ va ideologik funksiyalarni bajaradi, biroq ularning ifodalanishi va ta'sir kuchi milliy mentalitet va madaniy kontekstga bog'liq holda farqlanadi. Tadqiqot natijalari media diskursni chuqurroq anglashga va tilshunoslikning pragmatika va stilistika yo'nalishlariga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Mirziyoyev, Sh.M. Xavfsizlik kengashi yig'ilishidagi nutq (2024-yil yanvar).

[2] Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press. – 1980, P. 45.

[3] Fernando, C. *Idioms and Idiomaticity*. Oxford: Oxford University Press. – 1996, P. 12.

[4] Isakova, D.F. Phraseological units in English and Uzbek media discourse. – 2025, P. 88.

[5] Rahmatullayev, Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. -T.: Universitet., 2010.

[6] Cruse, D.A. *Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 2000.

[7] Yo'ldoshev, B. *Ommaviy axborot vositalari tili va uslubi*. - T., 2015

[8] Halliday, M.A.K. *Language as Social Semiotic*. London: Edward Arnold, 1978.

[9] 7th International Conference on Computer Science and Engineering.24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp.182-187.

© Axtamova Maftuna Hoshimovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Axtamova Maftuna Hoshimovna

Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikda madaniy konsept strukturasi va tipologiyasi.

Yandashova Dilniso Shavkat qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi

diliyandashova@gmail.com.

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik kesishmasida muhim nazariy birlik hisoblangan madaniy konsept tushunchasi tahlil qilinadi. Unda konseptning semantik, kognitiv va madaniy qatlamlari, ichki strukturasi hamda tipologik tasnifi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, turli ilmiy maktablar yondashuvlari solishtirilib, konseptni tadqiq etishning zamonaviy metodlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, konsept, madaniy konsept, mental model, semantik maydon, konseptual tizim.

Abstract. This article analyzes the concept of the cultural concept, which is considered an important theoretical unit at the intersection of linguoculturology and cognitive linguistics. The study provides a scientific justification of the semantic, cognitive, and cultural layers of the concept, its internal structure, as well as its typological classification. In addition, the approaches of various scientific schools are compared, and modern methods of concept research are examined.

Keywords: linguoculturology, cognitive linguistics, concept, cultural concept, mental model, semantic field, conceptual system.

Аннотация
В данной статье анализируется понятие культурного концепта, являющегося важной теоретической единицей на пересечении лингвокультурологии и когнитивной лингвистики. В работе научно обосновываются семантические, когнитивные и культурные слои концепта, его внутренняя структура, а также типологическая классификация. Кроме того, сопоставляются подходы различных научных школ и рассматриваются современные методы исследования концепта.

Ключевые слова: лингвокультурология, когнитивная лингвистика, концепт, культурный концепт, ментальная модель, семантическое поле, концептуальная система.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda inson omiliga asoslangan paradigmaning rivojlanishi natijasida tilni faqat struktur tizim sifatida emas, balki madaniyat va tafakkur bilan uzviy bogʻliq fenomen sifatida oʻrganish kuchaydi. Shu nuqtai nazardan, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik yoʻnalishlari konsept tushunchasini markaziy obyekt sifatida koʻrib chiqadi. Rus tilshunosi L.V.Adonina konsept termini haqida qimmatli fikrlarini keltirib oʻtadi: Konsept termini oʻn nuqtai nazardan tasnif qilinadi, jumladan, konsept standartlashishga koʻra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qoʻllanishiga koʻra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga koʻra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga boʻlinadi[1]. Madaniy konsept – bu til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab mental birlik boʻlib, u milliy dunyoqarashni aks ettiradi. Tilshunos olim N. Mahmudov oʻzining “Til tilsimi tadqiqi” nomli risolasining “Tilning mukammal tadqiqi yoʻllarini izlab…” mavzusidagi maqolasida “konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy madaniy unsurdan tamoman holi boʻlgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir”[2]. “Pragmalingvistika” va “Kognitiv tilshunoslik” asarlari muallifi Sh. Safarov ta’biri bilan aytganda, “inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yoʻnalishda oʻzlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tugʻilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna-konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi ”[3].

Madaniy konsept tushunchasi va uning nazariy asoslari

Konsept termini kognitiv tilshunoslikda inson ongidagi bilimlar tizimini ifodalovchi mental birlik sifatida talqin etiladi. Lingvokulturologiyada esa u madaniyat bilan boyitilgan, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni oʻzida mujassamlashtirgan semantik konstrukt hisoblanadi.

Madaniy konsept quyidagi xususiyatlarga ega: Mental xarakter – ongda mavjud boʻladi; Verbal ifodalanish – til vositalari orqali namoyon boʻladi; Madaniy determinatsiya – muayyan etnos yoki jamiyatga xos boʻladi; Aksiologik yuklama – qadriyatlar tizimini aks ettiradi.

Madaniy konseptning strukturasi

Madaniy konsept koʻp qatlamli tuzilishga ega boʻlib, ilmiy adabiyotlarda odatda uch asosiy komponent ajratiladi:

1.Yadro (asosiy semantik qatlam). Bu konseptning eng muhim va barqaror qismi boʻlib, umumiy va universal belgilarni oʻz ichiga oladi. Masalan, “Vatan” konseptining yadrosida “tugʻilgan joy”, “ona zamin” kabi semalar mavjud.

2.Periferiya (chekka qatlam)

Bu qatlam individual, tarixiy va kontekstual belgilarni qamrab oladi. U vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchan bo‘ladi.

3. Obrazli komponent

Konseptning metaforik va tasviriy ifodalarini o‘z ichiga oladi. Bu komponent adabiyot, folklor va diskurs orqali shakllanadi.

4. Aksiologik komponent

Konseptning qadriyaviy bahosini ifodalaydi. Masalan, “mehmondo‘stlik” konsepti ijobiy baholanadi.

5. Madaniy konsept tipologiyasi

Madaniy konseptlarni turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin:

1.1. Mazmuniga ko‘ra: Universal konseptlar (hayot, vaqt, sevgi); Milliy-madaniy konseptlar (mehmondo‘stlik, or-nomus)**;** Individual konseptlar (shaxsiy tajriba bilan bog‘liq) ga bo’linadi.

1.2. Funksional xususiyatiga ko‘ra: Kognitiv konseptlar – bilimlarni tashkil qiladi; Aksiologik konseptlar – qadriyatlarni ifodalaydi; Regulyativ konseptlar – xulq-atvorni boshqaradi.

1.3. Verbalizatsiya darajasiga ko‘ra: To‘liq verbalizatsiyalangan konseptlar; Qisman ifodalangan konseptlar; Noverbal konseptlar.

1.4. Diskursiv realizatsiyasiga ko‘ra: Badiiy diskurs konseptlari; Siyosiy diskurs konseptlari; Diniy konseptlar.

Lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlar farqi

Lingvokulturologiya konseptni madaniyat prizmasi orqali o‘rganadi, ya’ni uning milliy-spesifik jihatlariga urg‘u beradi. Kognitiv tilshunoslik esa konseptni umumiy bilim strukturasi, mental model sifatida talqin qilib, universallikka intiladi.

Shu bois: lingvokulturologiya -“konsept-madaniyat birligi” kognitiv tilshunoslik - “konsept -tafakkur birligi”

Tadqiq metodologiyasi

Madaniy konseptlarni o‘rganishda quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

komponent tahlil

semantik maydon tahlili

assotsiativ eksperiment

diskurs tahlili

korpus lingvistikasi

Ushbu metodlar konseptning ichki strukturasi va tashqi ifodalarini aniqlash imkonini beradi. V.Z.Demyankov fikriga ko'ra, kognitiv tilshunoslikda til tizimining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub'yektlar– so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi[4].Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, madaniy konsept lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, u til, tafakkur va madaniyatning o'zaro aloqasini aks ettiradi. Uning strukturasi ko'p qatlamli va dinamik bo'lib, tipologiyasi esa turli mezonlarga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Л.В. Адонина Концепт и его репрезентация в языке. Вопросы филологии. – Москва, 2001. – №1. – С.47.

Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi, Toshkent. '' Mumtoz so'z'' 2017. 60-bet.

Safarov Sh. Kognitiv Tilshunoslik.Jizzax, 2006. 25-bet.

Демьянков В.З. Процудирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. /Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –С. 129-134.

1. Л.В. Адонина Концепт и его репрезентация в языке. Вопросы филологии. – Москва, 2001. – №1. – С.47. ↑

2. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi, Toshkent. '' Mumtoz so'z'' 2017. 60-bet. ↑

3. Safarov Sh. Kognitiv Tilshunoslik.Jizzax, 2006. 25-bet.

↑

4. Демьянков В.З. Процудирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина

Л.Г. /Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –С. 129-134. ↑

© Yandashova Dilniso Shavkat qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Yandashova Dilniso Shavkat qizi

RUS TILSHUNOSLIGIDA PLEONAZM VA TAVTOLOGIYA HODISALARI

Zokirova Jasmina

Navoiy innovatsiyalar universiteti 1-kurs magistranti

Email: jasminazokirova08@gmail.com

***Ilmiy rahbar:* Yo‘ldosheva Dilnoza Xasan qizi**

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsent v.b., f.f.f.d.

Annotatsiya. Rus tilshunosligida leksik-stilistik hodisalar sifatida qaraladigan pleonazm va tavtologiya tushunchalari tahlil qilinadi. Pleonazm va tavtologiyaning nazariy asoslari, ularning o‘xshash va farqli jihatlari rus tilidagi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, ushbu hodisalarning nutqda qo‘llanish xususiyatlari, stilistik vazifalari hamda badiiy va og‘zaki nutqdagi o‘rni misollar orqali ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot davomida pleonazm va tavtologiyaning me’yoriy va me’yordan chetga chiqadigan holatlari aniqlanib, ularning nutq madaniyatidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola rus tilshunosligi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, filologiya yo‘nalishi talabalari hamda til stilistikasi masalalariga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar. pleonazm, tavtologiya, rus tilshunosligi, leksik stilistika, nutq madaniyati, til me’yorlari, badiiy nutq, stilistik vositalar.

ЯВЛЕНИЯ ПЛЕОНАЗМА И ТАВТОЛОГИИ В РУССКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В данной статье анализируются понятия плеоназма и тавтологии, рассматриваемые в русской лингвистике как лексико-стилистические явления. Теоретические основы плеоназма и тавтологии, а также их сходства и различия освещаются на основе научных источников по русскому языку. Кроме того, на примерах показаны особенности функционирования этих явлений в речи, их стилистические функции и роль в художественной и разговорной речи. В ходе исследования выявляются нормативные и ненормативные случаи употребления плеоназма и тавтологии, а также раскрывается их значение в культуре речи. Статья предназначена для исследователей, занимающихся русской лингвистикой, студентов филологических направлений, а также для всех, кто интересуется вопросами стилистики языка.

Ключевые слова: плеоназм, тавтология, русская лингвистика, лексическая стилистика, культура речи, языковые нормы, художественная речь, стилистические средства.

PLEONASM AND TAUTOLOGY PHENOMENA IN RUSSIAN LINGUISTICS

Annotation. This article analyzes the concepts of pleonasm and tautology, which are regarded as lexical-stylistic phenomena in Russian linguistics. The theoretical foundations of pleonasm and tautology, as well as their similarities and differences, are examined on the basis of Russian scholarly sources. In addition, the functional features of these phenomena in speech, their stylistic roles, and their place in literary and colloquial discourse are demonstrated through examples. The study identifies both normative and non-normative uses of pleonasm and tautology and reveals their significance in speech culture. The article is intended for researchers engaged in Russian linguistics, students of philology, and anyone interested in issues of linguistic stylistics.

Keywords: pleonasm, tautology, Russian linguistics, lexical stylistics, speech culture, language norms, literary speech, stylistic devices.

Zamonaviy tilshunoslikda nutqning ifodaliligi va aniqligini ta’minlovchi leksik-stilistik hodisalar muhim o‘rin egallaydi. Shunday hodisalardan biri *pleonazm* bo‘lib, u til birliklarining ortiqcha, takroriy qo‘llanishi orqali ma’no kuchayishini yoki nutqning emotsional ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Pleonazm hodisasi ko‘pincha tavtologiya bilan bir qatorda o‘rganiladi, biroq u o‘ziga xos semantik va stilistik xususiyatlarga ega. Pleonazm atamasi *yunoncha pleonasmos* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ortiqchalik”, “to‘lib ketish” ma’nolarini anglatadi. Tilshunoslikda pleonazm bir tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq leksik birlikning birikma yoki gap tarkibida birgalikda qo‘llanishi natijasida yuzaga keladi. Rus tilshunosligida pleonazm hodisasi ikki xil jihatdan baholanadi: bir tomondan, u nutq madaniyati nuqtayi nazaridan me’yoriy bo‘lmagan holat sifatida tanqid qilinadi; ikkinchi tomondan esa, badiiy va og‘zaki nutqda stilistik vosita sifatida qo‘llanilib, ifodaning ta’sirchanligini kuchaytiradi. Shu bois pleonazmni o‘rganish rus tilining leksik tizimi, nutq me’yorlari hamda stilistik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tavtologiya – til birliklarining bir xil yoki bir-biriga yaqin ma’noli shakllar orqali bir fikrni takroran ifodalashi natijasida yuzaga keladigan leksik-stilistik hodisadir. Tavtologiya, asosan, bir xil o‘zakka ega so‘zlarning yoki ma’nodosh birliklarning bir gap yoki matn doirasida ketma-ket qo‘llanishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu holat nutqda ma’no yangiligi bermasdan, fikrning keraksiz takrorlanishiga olib keladi. Tavtologiya atamasi *yunoncha tautologia* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bir narsani aynan takrorlash” degan ma’noni anglatadi. Rus tilshunosligida tavtologiya ko‘pincha nutqning kamchiligi sifatida baholanadi, chunki u ifodaning lo‘ndaligiga putur yetkazadi. Biroq tavtologiya har doim ham salbiy hodisa sifatida qaralmaydi. Badiiy nutqda, folklor namunalarida va og‘zaki so‘zlashuvda u ta’kidlash, ritmik uyg‘unlik yoki emotsional ta’sir yaratish maqsadida ongli

ravishda qoʻllanishi mumkin. Shu sababli tavtologiyani baholashda uning nutqdagi vazifasi va konteksti muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr tilshunosligida pleonazm hodisasi turli jihatlarda keng oʻrganilgan. Tadqiqotchilar bu hodisani mantiqiy, semantik va stilistik nuqtai nazardan tahlil qilganlar. Mantiqiy aspektda pleonazmning oʻrni Y.D.Arresyan[1] (1989) va L.Y.Vitgenshteyn (1994) tomonidan tadqiq qilingan boʻlib, ularning ishlarida soʻz va ifodalar orasidagi mantiqiy bogʻlanishlar, takroriy birliklarning nutq mazmuniga taʼsiri va mantiqiy ortiqchalikning shakllanish jarayoni koʻrib chiqilgan[2]. Semantik jihatdan esa A.M.Bushuy (1973), M.V.Nikitin (1983), L.K.Rakhmankulova (1985) va A.Veirzbikki (1987) tadqiqotlari pleonazmning maʼno takrorlanishidagi mexanizmlarni va uning tilning semantik tizimidagi oʻrnini tahlil qilgan. Stilistik jihatdan pleonazm va tavtologiya O.S.Akhmanova (1966), A. P.Yevgenyeva (1963), I.B.Golub[3] (2002) tomonidan badiiy matn va nutqning ifodaviy vositasi sifatida oʻrganilgan. Bu olimlarning tadqiqotlari XX asrda pleonazm masalasining ilmiy asoslarini yaratgan va uning turli lingvistik qatlamlardagi ahamiyatini koʻrsatgan. XXI asrda esa, bu anʼanaviy yondashuvlar davom ettirilib, ortiqchalik hodisasi yanada chuqur va kengroq oʻrganilmoqda. Masalan, semantik jihatdan pleonazmni Y.L.Vilinbakhova (2014) va F.N.Petrov (2015) tahlil qilgan, ular soʻz va iboralardagi maʼno ortiqchaligi, maʼnoni mustahkamlash va nutqiy aniqlikni oshirish imkoniyatlarini oʻrgangan. Sintaktik jihatdan esa Z.B.Barkinhoyeva (2012), N.A.Gerasimenko (2012) va L.L.Iomdin (2013) ortiqchalikning jumla tuzilishidagi oʻrni, takroriy elementlarning sintaktik vazifasi va ular orqali nutqning strukturaviy izchilligini tahlil qilgan. Stilistik va diskursiv yondashuv nuqtai nazaridan esa Y.B.Bogatova (2014), T.G.Zuyeva (2010) va Y.N.Lavrentyeva (2012) pleonazm va tavtologiyani badiiy va ogʻzaki nutqda ekspressiv va taʼkidlovchi vosita sifatida oʻrganib, ularning stilistik imkoniyatlarini ochib bergan. Shu bilan birga, XX va XXI asr tilshunos olimlari oʻrganishlarida ortiqchalik hodisasi pleonazm va tavtologiyaning oʻzaro oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlashga ham alohida eʼtibor qaratilgan. Har bir olim oʻz yondashuvida ortiqchalikni tilning turli funksional qatlamlari bilan bogʻlab, uni nutqning muloqot, semantik va stilistik imkoniyatlarini boyituvchi vosita sifatida talqin qilgan. Bu esa ortiqchalik tadqiqotini nafaqat lingvistik tizim doirasida, balki nutq jarayoni va kommunikativ kontekstda ham chuqur oʻrganish imkonini yaratadi.

Rus tilshunosligida ortiqchalik hodisasini zamonaviy lingvistik yondashuv asosida oʻrgangan olimlardan biri T.A.Kovaleva hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida pleonazm va qisman tavtologiya hodisasi, asosan, semantik ortiqchalik va nutqiy ong bilan bogʻliq holda tahlil qilinadi. Kovaleva ortiqchalikni faqat til meʼyorining buzilishi sifatida emas, balki nutq jarayonida maʼno aniqligini taʼminlashga xizmat qiluvchi hodisa sifatida koʻrib chiqadi. T.A.Kovalevaning fikricha, pleonazm koʻpincha soʻzlovchining axborotni yanada aniqroq, tushunarliroq yetkazish istagi natijasida yuzaga keladi. U pleonazmik birikmalarni semantik jihatdan tahlil qilib, bunday birliklar nutqda ortiqcha boʻlib koʻrinsa-

da, aslida kommunikativ vazifani bajarishini ta'kidlaydi. Olimaning yondashuvida ortiqchalik inson tafakkurining til orqali ifodalanish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u nutqiy strategiyaning bir qismi sifatida talqin qilinadi. Kovaleva tavtologiya masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko'ra, tavtologiya ko'pincha nutqiy rejalashtirish jarayonida yuzaga keladi va so'zlovchining muhim ma'noni ta'kidlashga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu bois, Kovaleva tavtologiyani har doim ham nutqiy xato sifatida baholash to'g'ri emasligini ta'kidlaydi[4]. T.A.Kovaleva ortiqchalik hodisasini funksional-stilistik jihatdan ham izohlaydi. Uning tadqiqotlarida rasmiy va ilmiy uslublarda pleonazm va tautologiya cheklangan holda qo'llanishi lozimligi qayd etilsa-da, badiiy va og'zaki nutqda bu hodisalarning ekspressiv va ta'kidlovchi imkoniyatlari tan olinadi. Olimaning fikricha, tilning funksional uslublari ortiqchalikni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Kovalevaning muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, ortiqchalik tilning iqtisodiylik tamoyiliga zid bo'lsa-da, u kommunikativ samaradorlikni oshirishi mumkin. Ya'ni, axborot miqdori ortmasa ham, uning qabul qilinishi osonlashadi. Bu yondashuv Kovalevani an'anaviy normativ qarashlardan farqlaydi va uni zamonaviy pragmatik lingvistika vakillariga yaqinlashtiradi.

Rus tilshunosligida stilistika va nutq madaniyati yo'nalishining yetakchi vakillaridan biri bo'lgan M.N.Kojina tavtologiya hodisasini faqat til me'yorining buzilishi sifatida emas, balki nutqning semantik va funksional tuzilishi bilan bog'liq hodisa sifatida izohlaydi. Uning qarashlarida tavtologiya nutqda ma'no takrorlanishining maxsus shakli bo'lib, u fikrni ifodalash jarayonida yuzaga keladigan tabiiy lingvistik mexanizm sifatida talqin qilinadi. Kojinaning fikricha, tavtologiya ko'pincha nutq jarayonida muhim ma'noni ajratib ko'rsatish, ta'kidlash va mustahkamlash vazifasini bajaradi. U ayniqsa badiiy va publitsistik nutqda tavtologiyaning stilistik imkoniyatlariga e'tibor qaratadi. Olimaning ta'kidlashicha, bir tushunchaning takroran ifodalanishi matnda semantik markazni shakllantiradi va o'quvchi e'tiborini muhim g'oyalarga yo'naltiradi[5]. Shu sababli, tavtologiya har doim ham mantiqiy kamchilik sifatida baholanmasligi lozim. M.N.Kojina tavtologiyani nutqiy takror kategoriyasi bilan bog'lab izohlaydi. Unga ko'ra, takror hodisasi nutqning ekspressivligini oshiruvchi vosita bo'lib, tavtologiya uning maxsus ko'rinishlaridan biridir. Bu yondashuvda tavtologiya tilning emotsional-ifodaviy imkoniyatlarini ochib beruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Kojina tavtologiyaning funksional-uslubiy chegaralariga ham e'tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko'ra, ilmiy va rasmiy uslublarda tautologiya me'yoriy nutqqa zid bo'lib, axborotning aniqligi va ixchamligiga putur yetkazadi. Biroq badiiy nutqda u obrazlilikni kuchaytiruvchi va muallif uslubini shakllantiruvchi stilistik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. M.N.Kojinaning yondashuvida tavtologiya hodisasi til tizimi bilan emas, balki nutq faoliyati bilan bog'lanadi. Ya'ni, tavtologiya tilning struktur nuqsoni emas, balki kommunikativ ehtiyojlar natijasida yuzaga keladigan nutqiy hodisadir. Bu esa uning qarashlarini zamonaviy funksional va pragmatik lingvistika yo'nalishlariga yaqinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, M.N.Kojinaning tavtologiya haqidagi qarashlari ushbu hodisani biryoqlama tarzda salbiy baholashdan chekinib, uni nutqning kommunikativ, stilistik va semantik imkoniyatlarini aks ettiruvchi murakkab lingvistik hodisa sifatida talqin etadi. Bu yondashuv rus tilshunosligida tavtologiya masalasining chuqurroq va tizimli oʻrganilishiga zamin yaratgan.

Pleonazm va tavtologiya rus tilining leksik-stilistik hodisalari boʻlib, ikkalasi ham takroriy elementlar bilan bogʻliq. Pleonazm ma'noni kuchaytirish yoki nutqni boyitish uchun ishlatiladi, tavtologiya esa bir fikrni keraksiz takrorlash orqali yuzaga keladi. Ularning farqlari semantik va stilistik jihatdan aniqlanadi: pleonazm koʻpincha ijobiy stilistik vosita sifatida qabul qilinadi, tavtologiya esa nutqning loʻndaligiga putur yetkazishi mumkin. Shu bilan birga, badiiy va ogʻzaki nutqda tavtologiya ham ma'lum stilistik vazifani bajaradi. Shu sababli, pleonazm va tavtologiyani aniqlay bilish va ularni kontekstga qarab toʻgʻri qoʻllash rus tilining leksik tizimi, nutq madaniyati va stilistik imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ularni oʻrganish nafaqat til nazariyasi uchun, balki nutqni ifodali qilish va til madaniyatini rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Apresyan Yu. D. Ortiqchalik va mantiqiy tuzilish. – Moskva: Nauka, 1989.

1. Голуб И. Б. Стилистика русского языка. — Москва, 2001.

Ковалева Т.А. Тавтология и плеоназм в русском языке XXI века: полисистемный аспект. Великий Новгород, 2017. – С. 23.

Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – Москва: Просвещение, 1977. – С. 88.

Vitgenshteyn L. Y. Logical Analysis of Redundancy – Moskva: Nauka, 1994.

Yoʻldosheva Dilnoza Xasan qizi (2023) Pragmatic factors in the realization of artistic and aesthetic content. International Journal Of Literature And Languages, 3(09), 11–13. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue09-03

Yoldosheva D., Yusubova R. Use of pleonasm in usman azim's one step dramatic work //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 9. – C. 957-960.

Yoʻldosheva D. X. Rus tilshunosligida tavtologiyaning oʻrganilishi // Materiallar toʻplami. – 2020. – T. 205. – C. 118.

1. Apresyan Yu. D. Ortiqchalik va mantiqiy tuzilish. – Moskva: Nauka, 1989. ↑

2. Vitgenshteyn L. Y. Logical Analysis of Redundancy – Moskva: Nauka, 1994. ↑

3. Голуб И. Б. Стилистика русского языка. — Москва, 2001. ↑

4. **Ковалева Т.А. Тавтология и плеоназм в русском языке XXI века: полисистемный аспект. Великий Новгород, 2017. – С. 23.**

↑

5. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – Москва: Просвещение, 1977. – С. 88. ↑

© Zokirova Jasmina, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Zokirova Jasmina

Advantages and Future Prospects of Using Artificial Intelligence Technologies in The Educational Process

Ta’lim Jarayonida Sun’iy Intellekt Texnologiyalaridan Foydalanishning Afzalliklari Va Istiqbollari

Преимущества и Перспективы Использования Технологий Искусственного Интеллекта в Образовательном Процессе.

Xudoyberdiyeva Ruhshona Xolmurod qizi

Navoiy Inovatsiyalar universiteti,

Filalogiya va tillarni o’qitish

[ingliz tili] 2-kurs 6-guruh talabasi

Juraqulov G‘ulomjon Hamrayevich

Filologiya va tillarni o’qitish kafedrasi

katta o’qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning keng qamrovli afzalliklari, muammolari va istiqbollari chuqur tahlil qilinadi. SI ning ta’limni individuallashtirish, o‘qitish samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, maqolada SI texnologiyalarining kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari va global ta’lim tizimiga ta’siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: sun’iy intellect, ta’lim jarayoni, individuallashtirilgan ta’lim, adaptiv tizimlar, raqamli ta’lim, o‘qitish samaradorligi, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar, inklyuziv ta’lim

Аннотация

В данной статье представлен комплексный анализ преимуществ, проблем и перспектив использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в образовательном процессе. Рассматривается роль ИИ в индивидуализации обучения, повышении эффективности преподавания, цифровизации образования

и развитии самостоятельного мышления учащихся. Также анализируются тенденции развития и глобальное влияние ИИ на систему образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образовательный процесс, персонализированное обучение, адаптивные системы, цифровое образование, эффективность обучения, принятие решений на основе данных, инклюзивное образование

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the advantages, challenges, and future prospects of using artificial intelligence (AI) technologies in the educational process. It highlights the role of AI in personalizing learning, improving teaching efficiency, digitalizing education, and developing students' independent thinking skills. The article also discusses future development trends and the global impact of AI on education systems.

Keywords: artificial intelligence, educational process, personalized learning, adaptive systems, digital education, teaching efficiency, data-driven decision making, inclusive education

Introduction

Artificial Intelligence (AI) is one of the most influential technologies shaping the modern world. Its rapid development has significantly impacted many sectors, including education. The integration of AI into the educational process is transforming traditional teaching and learning methods into more innovative, adaptive, and student-centered approaches. AI technologies enable the analysis of large-scale data, helping educators better understand students' needs, monitor their progress, and improve learning outcomes.

Moreover, the global digital transformation has accelerated the adoption of AI-based tools such as intelligent tutoring systems, virtual assistants, and automated assessment platforms. These tools not only enhance the quality of education but also make it more accessible and inclusive. AI supports continuous learning and allows students to learn at their own pace, which is especially important in today's fast-changing world.

Personalized Learning and Adaptive Systems

One of the most significant contributions of AI to education is personalized learning. AI systems analyze students' behavior, performance, and preferences to create individualized learning paths. Adaptive learning platforms adjust the difficulty level of

tasks based on student progress, ensuring optimal learning outcomes. This approach increases student motivation and reduces learning gaps.

Automation and Efficiency

AI significantly improves efficiency by automating repetitive tasks such as grading, attendance tracking, and data management. Teachers can focus more on creative and interactive teaching rather than administrative duties. AI also provides instant feedback, which is essential for effective learning.

Accessibility and Inclusivity

AI expands access to education by providing online learning platforms and digital resources. It supports students with disabilities through speech recognition, text-to-speech tools, and translation technologies. AI helps create an inclusive learning environment.

Data-Driven Decision Making

AI allows educational institutions to make data-driven decisions. By analyzing student performance data, institutions can improve curricula, teaching strategies, and overall system efficiency. Despite its benefits, AI faces challenges such as data privacy issues, lack of teacher training, and high implementation costs. Ethical concerns must also be considered when using AI systems.

Comparative Table

Indicator	**Traditional Education**	**AI-Based Education**
Teaching Method	Standard	Personalized
Feedback	Delayer	Instant
Accessibility	Limited	Global
Interaction	Low	High
Efficiency	Moderate	High

Implementation of AI in Educational Practice

The practical implementation of artificial intelligence in education is becoming increasingly widespread. Many schools and universities are integrating AI-powered

platforms into their daily teaching processes. For example, learning management systems (LMS) use AI to track student progress, recommend study materials, and provide personalized feedback. Intelligent tutoring systems can simulate one-on-one teaching by guiding students through complex topics step by step.

In addition, AI is used in language learning applications, virtual classrooms, and assessment tools. These technologies help create a more interactive and flexible learning environment. Teachers can use AI-based analytics to identify students who need additional support and adjust their teaching methods accordingly. As a result, the overall effectiveness of the educational process improves significantly.

Ethical Considerations and Data Security in AI-based Education

The integration of artificial intelligence in education raises important ethical and data security concerns. AI systems collect and process large amounts of student data, including personal information, learning behavior, and academic performance. Therefore, it is essential to ensure that this data is protected and used responsibly. Educational institutions must follow strict data protection policies and ensure transparency in how AI systems operate.

Another ethical issue is the potential bias in AI algorithms. If AI systems are trained on limited or unbalanced data, they may produce unfair or inaccurate results. This can negatively affect students' learning opportunities. Therefore, it is important to develop fair and inclusive AI systems.

Moreover, the role of teachers should not be replaced by AI but supported by it. Human interaction, emotional support, and ethical guidance remain essential parts of education. AI should be seen as a tool that enhances teaching rather than replaces educators.

Results

The use of AI technologies in education has shown significant positive results. Students demonstrate better academic performance, higher engagement, and improved critical thinking skills. Teachers benefit from reduced workload and enhanced teaching effectiveness. Educational institutions achieve better management and decision-making processes.

In addition, AI contributes to faster and more accurate assessment of students' knowledge through automated grading systems. It provides immediate feedback, which helps learners quickly identify their mistakes and improve their understanding. AI-based learning platforms also support continuous monitoring of student progress, allowing early identification of learning difficulties and timely intervention.

Furthermore, AI enhances collaboration and communication in educational environments. Online platforms and virtual classrooms enable students and teachers to interact more effectively regardless of location. AI tools also promote independent learning by encouraging students to explore additional resources and practice skills at their own pace.

Overall, the integration of AI leads to a more efficient, flexible, and student-centered education system that meets the needs of modern society.

Indicator	Before AI	After AI	Result
Test Scores	70% average	85% average	Improved performance
Task Completion	Slow	Faster	Increased efficiency
Student Engagement	Medium	High	More active learning
Feedback Time	1-2 days	Instant	Quick improvement
Teacher Workload	High	Reduced	More teaching time

Conclusion

In conclusion, artificial intelligence technologies are transforming the educational process in profound and meaningful ways. They contribute to making education more efficient, flexible, and accessible for learners around the world. By supporting personalized learning, AI allows students to study according to their individual needs, abilities, and pace, which leads to better academic outcomes and deeper understanding.

Moreover, AI enhances teaching effectiveness by reducing teachers' workload and providing useful data for improving instructional strategies. It also promotes interactive and engaging learning environments through modern digital tools and platforms. As a result, both students and educators benefit from a more dynamic and productive educational experience.

Despite certain challenges such as data privacy concerns and the need for technical training, the advantages of AI in education are significant. In the future, AI is

expected to become an integral part of global education systems, playing a key role in shaping innovative, inclusive, and high-quality learning environments.

References

1.Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach.

2.Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education.

3.UNESCO (2021). AI and Education: Guidance for Policy-makers.

4.OECD (2020). Digital Education Outlook.

5.Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence.

6.Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers?

7.Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). Educational Data Mining and Learning Analytics.

© Xudoyberdiyeva Ruhshona Xolmurod qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Xudoyberdiyeva Ruhshona Xolmurod qizi, Juraqulov G'ulomjon Hamrayevich

The need to use STEAM educational technology in preschool education

Latipova Bahora Ne’tullo qizi

Navoi Innovation University

Faculty of Philology and Language Teaching

English Language Department 2nd Year Student

bahoralatipova172@gmail.com

Scientific adviser : Shernazarova Munisa Qahramon qizi

Abstract

This article provides general information about the role of STEAM technology in education, including the stages of its implementation, its connection with practical activities, how experimental (laboratory) rooms are organised and what they are used for, and the importance of this technology in children's lives. It also discusses innovative methods, laboratory work and intellectual development.

Keywords: STEAM, technology, potential, thinking, information, communication

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim tizimida STEAM texnologiyasining o‘rni va ahamiyati haqida umumiy ma’lumotlar keltiriladi. Unda mazkur texnologiyani joriy etish bosqichlari, uning amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligi, tajriba (laboratoriya) xonalarining tashkil etilishi, ularning vazifalari hamda bolalar hayotidagi ahamiyati keng yoritib berilgan.

Shuningdek, maqolada innovatsion o‘qitish usullari, laboratoriya mashg‘ulotlari hamda o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari STEAM yondashuvi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Kalitso‘zlar: STEAM, texnologiya, salohiyat, tafakkur, axborot, kommunikatsiya

Аннотация

В данной статье представлена общая информация о роли технологии STEAM в системе образования. Рассматриваются этапы её внедрения, взаимосвязь с

практической деятельностью, организация экспериментальных (лабораторных) кабинетов, их назначение, а также значение данной технологии в жизни детей.

Кроме того, в статье обсуждаются инновационные методы обучения, лабораторные работы и факторы, влияющие на интеллектуальное развитие обучающихся. Результаты исследования показывают, что STEAM-подход способствует развитию самостоятельного мышления, навыков решения проблем и формированию практических умений у учащихся.

Ключевыеслова:
STEAM, технология, потенциал, мышление, информация, коммуникация

Конец формы

This chapter examines the possibilities and challenges of analyzing comparative constructions (including similes, metaphors, and personifications) in English and Uzbek literary texts using Artificial Intelligence (AI) and Natural Language Processing (NLP). The study discusses limitations caused by the Anglocentric nature of AI models and the scarcity of linguistic resources for the Uzbek language. It also outlines methodological approaches for AI-based cross-cultural literary analysis and identifies promising directions for future research.

Keywords: comparative constructions, artificial intelligence, natural language processing, English literature, Uzbek literature, cross-cultural analysis, corpus linguistics.

Аннотация

Данная глава рассматривает возможности и проблемы анализа сравнительных конструкций (сравнений, метафор и олицетворений) в английских и узбекских литературных текстах с использованием искусственного интеллекта и методов обработки естественного языка. Особое внимание уделяется англоцентричности моделей ИИ и недостатку языковых ресурсов для узбекского языка. Предлагаются методологические подходы к межкультурному сравнительному анализу и определяются перспективы дальнейших исследований.

Ключевые слова: сравнительные конструкции, искусственный интеллект, обработка естественного языка, английская литература, узбекская литература.

Kirish

Adabiy matnlardagi qiyoslov konstruktsiyalari — o'xshatish, metafora va jonlantirish kabi stilistik vositalar — asarning badiiy ifodaviyligini kuchaytiruvchi muhim elementlar hisoblanadi. Ular matnning semantik qatlamlarini boyitib, muallif dunyoqarashi hamda madaniy kontekstni ochib beradi. An'anaviy adabiy tahlil usullari chuqur interpretatsiya imkonini bersa-da, katta hajmdagi matnlarni o'rganishda vaqt talab etishi va sub'ektivlik bilan cheklanishi mumkin.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari matn tahliliga yangi metodologik imkoniyatlar olib kirdi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati ingliz tiliga yo'naltirilgan bo'lib, kam resursli tillar, jumladan o'zbek tilida, bu yo'nalish yetarlicha rivojlanmagan. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda metafora va qiyoslov konstruktsiyalarini aniqlash masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Xususan, metaforaning faqat stilistik bezak emas, balki grammatik va diskursiv tizimning tarkibiy elementi sifatida qaralishi ushbu hodisani tadqiq etish metodologiyasini sezilarli darajada kengaytirdi. [1]Gerard J. Steen metaforalarni real nutq jarayonida aniqlash uchun ularning til tizimidagi qo'llanish shakllari, grammatik muhit va kontekstual funksiyalarini birgalikda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi[1]. Olimning fikricha, metaforani aniqlash jarayoni faqat alohida so'zlarga emas, balki butun diskurs strukturasiga tayanishi lozim, chunki figurativ ma'no ko'pincha kontekst orqali yuzaga chiqadi. Mazkur yondashuv adabiy matnlarni tahlil qilishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy matnlarda qiyoslov konstruktsiyalari ko'pincha yashirin semantik bog'lanishlar orqali ifodalanadi va ularni oddiy leksik belgilar asosida aniqlash har doim ham yetarli bo'lmaydi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlar lingvistik tahlilni kontekstual yondashuv bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu holat sun'iy intellekt asosidagi matn tahlilida ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi,

chunki avtomatik modellar figurativ birliklarni aniqlashda semantik va diskursiv omillarni hisobga olishi talab etiladi.

Shuningdek, metaforani grammatik foydalanish doirasida o‘rganish qiyoslov konstruktsiyalarining til tizimidagi funksional rolini chuqurroq anglash imkonini beradi. Natijada qiyoslov birliklari faqat badiiy ifoda vositasi sifatida emas, balki madaniy tafakkur va konseptual tasvirlash mexanizmlarining til orqali namoyon bo‘lish shakli sifatida talqin qilinadi. Bu esa ingliz va o‘zbek adabiy matnlarini qiyosiy o‘rganishda yangi ilmiy yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi

Qiyoslov konstruktsiyalari lingvistika va adabiyotshunoslikda matnning semantik hamda pragmatik qatlamlarini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi. O‘xshatishlar (“as…as”, “like”, “kabi”, “dek”), metaforalar va jonlantirishlar badiiy matnlarning obrazlilik darajasini oshiradi.[2] Kognitiv lingvistika vakillari metaforani inson tafakkurining konseptual mexanizmi sifatida talqin qiladilar (Lakoff & Johnson, 1980).[3] Zamonaviy TTQI tadqiqotlari esa chuqur o‘rganish modellarining rivojlanishi orqali figurativ til birliklarini avtomatik aniqlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, aksariyat modellar ingliz tilidagi katta korpuslarda o‘qitilganligi sababli anglosentrik tarafkashlik yuzaga keladi. Bu holat tillararo qiyosiy tadqiqotlarda muhim metodologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek adabiy matnlaridagi qiyoslov konstruktsiyalarini sun’iy intellekt hamda tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari yordamida qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida korpus lingvistikasi, stilistik tahlil hamda kompyuter lingvistikasi metodlari integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Avvalo, tadqiqot uchun ingliz va o‘zbek adabiyotiga mansub reprezentativ matnlar korpusi shakllantirildi. Ingliz adabiyotidan turli davrlarni qamrab oluvchi badiiy asarlar, o‘zbek adabiyotidan esa klassik va zamonaviy yozuvchilar ijodidan namunalar tanlandi. Tanlangan matnlar raqamlashtirilib, ortiqcha belgilar va texnik xatolardan tozalandi hamda tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari uchun mos formatga keltirildi. Keyingi bosqichda qiyoslov konstruktsiyalarini aniqlash maqsadida matnlar lingvistik annotatsiyadan o‘tkazildi. Annotatsiya jarayonida o‘xshatish, metafora va jonlantirish kabi stilistik birliklar mutaxassislar tomonidan qo‘lda belgilandi. Ushbu jarayonda BIO-teglash tizimidan foydalanilib, qiyoslov birliklarining boshlanishi, davomiyligi va chegaralari aniq ko‘rsatildi. Natijada sun’iy intellekt modellarini o‘qitish uchun “oltin standart” ma’lumotlar bazasi yaratildi.

Tahlil jarayonida qiyoslov konstruktsiyalarini aniqlash uchun bir nechta lingvistik xususiyatlar hisobga olindi. Birinchidan, leksik markerlar — ingliz tilida “as”, “like”, o‘zbek tilida “kabi”, “dek”, “go‘yo”, “misoli” kabi birliklar ajratib olindi. Ikkinchidan, sintaktik tuzilmalar, ya’ni qiyosiy munosabatni ifodalovchi gap modellari o‘rganildi. Uchinchidan, semantik yaqinlikni aniqlash maqsadida kontekstual embedding modellari qo‘llanildi. Bundan tashqari, transformer arxitekturasiga asoslangan modellar figurativ ma’nolarni kontekst asosida aniqlash imkoniyatlarini baholash uchun ishlatildi. Shu tariqa, metodologiya lingvistik ekspertiza va avtomatlashtirilgan hisoblash yondashuvlarini birlashtirgan integratsiyalashgan model asosida amalga oshirildi.

Natijalar va tahlil

Tadqiqotning nazariy modeli asosida olingan natijalar sun’iy intellekt yordamida qiyoslov konstruktsiyalarini aniqlash jarayonida tilga xos xususiyatlar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz tilidagi qiyoslov konstruktsiyalarini aniqlashda sun’iy intellekt modellarining samaradorligi nisbatan yuqori bo‘lishi kutiladi. Bu holat ingliz tilida mavjud bo‘lgan katta hajmdagi o‘qitish korpuslari, oldindan tayyorlangan modellar va rivojlangan TTQI infratuzilmasi bilan izohlanadi. O‘zbek tilidagi matnlar tahlili esa qo‘shimcha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Tilning agglutinativ tabiati sabab grammatik shakllarning xilma-xilligi hamda so‘z tartibining nisbatan erkinligi avtomatik aniqlash jarayonini qiyinlashtiradi. Ayniqsa qiyoslov yuklamalarining so‘z tarkibiga qo‘shilib kelishi model tomonidan aniqlik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Madaniyatlararo tahlil natijalari ingliz va o‘zbek adabiyotlarida qo‘llaniladigan obrazlar tizimida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ingliz adabiyotida kundalik hayot va individual tajribaga asoslangan o‘xshatishlar ko‘proq uchrasa, o‘zbek adabiyotida milliy-estetik an’analar bilan bog‘liq obrazlar, masalan, tabiat va sharqona go‘zallik timsollari keng qo‘llaniladi. Bu holat qiyoslov konstruktsiyalarining nafaqat lingvistik, balki madaniy fenomen ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, sun’iy intellektning katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash imkoniyati statistik jihatdan yashirin qolgan stilistik naqshlarni aniqlashga yordam berishi mumkinligi kuzatildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirilgan tahlil inson interpretatsiyasini to‘liq almashtira olmasa-da, u adabiy tadqiqotlarda qo‘shimcha analitik vosita sifatida yuqori samaradorlikka ega.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining adabiy matnlarni tahlil qilishdagi imkoniyatlari kengayib borayotganini ko‘rsatsa-da, ularning samaradorligi tilning strukturaviy va madaniy xususiyatlariga bevosita bog‘liqligini namoyon etadi. Xususan, ingliz va o‘zbek adabiy matnlaridagi qiyoslov konstruktsiyalarini qiyosiy o‘rganish sun’iy intellekt modellarining anglosentrik xarakteri mavjudligini tasdiqlaydi.

Ko'plab modellar ingliz tilidagi katta hajmdagi ma'lumotlar asosida o'qitilganligi sababli, ular ingliz tilidagi stilistik birliklarni aniqlashda yuqori aniqlik ko'rsatadi, biroq kam resursli tillarda, jumladan o'zbek tilida, natijalar nisbatan cheklangan bo'lishi mumkin.

Tahlil jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, qiyoslov konstruktsiyalari faqat grammatik yoki leksik birlik sifatida emas, balki madaniy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. [4]Ingliz adabiyotida qiyosiy obrazlar ko'pincha individual tajriba va kundalik hayot voqeliklari bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek adabiyotida ular milliy-estetik qadriyatlar hamda an'anaviy obrazlar tizimi bilan chambarchas aloqador holda qo'llaniladi. Shu sababli sun'iy intellekt modellarining faqat formal lingvistik belgilar asosida ishlashi ayrim semantik nozikliklarni to'liq anglash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, o'zbek tilining agglutinativ tabiati qiyoslov konstruktsiyalarini avtomatik aniqlashda qo'shimcha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. [5]Affikslarning ko'pligi va sintaktik erkinlik figurativ ma'nolarni aniqlashda kontekstga kuchli bog'liqlikni yuzaga chiqaradi. Bu esa sun'iy intellekt tizimlarida chuqur kontekstual tahlil zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot sun'iy intellekt vositalarining adabiy tadqiqotlar uchun muhim yordamchi instrument bo'la olishini ham tasdiqlaydi. Katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkoniyati statistik jihatdan yashirin stilistik naqshlarni aniqlashga yordam beradi. Biroq sun'iy intellekt inson tadqiqotchisining interpretativ va estetik baholash qobiliyatini to'liq almashtira olmaydi. Demak, eng samarali yondashuv texnologik va an'anaviy gumanitar metodlarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilgan madaniyatlararo qiyosiy tahlil adabiyotshunoslikda yangi metodologik yo'nalishlarni ochadi. Bu yondashuv turli tillarda obrazli tafakkurning qanday shakllanishini aniqlashga imkon berib, lingvokulturologik tadqiqotlar doirasini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gong, Y., & Schunn, C. M. (2015). Context effects in metaphor processing. *Cognitive Science, 39*(5), 1020–1026.

2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by* (pp. 3–6). Chicago: University of Chicago Press.

3. Sardana, D., & Bhattacharyya, P. (2021). Cross-lingual metaphor detection: A survey. *ACM Computing Surveys, 54*(1), 6–14.

4. Steen, G. J. (2007). *Finding metaphor in grammar and usage* (pp. 25–34). Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.

5. Veale, T., & Hao, Y. (2019). Metaphor identification and interpretation. *Computational Linguistics, 45*(1), 5–12.

6. Rana, M., Chhikara, R., & Sharma, S. (2025). A survey on metaphor detection and interpretation. *International Journal of Future Multi-Interdisciplinary Research, 7*(4).

7. Zhang, L., Yu, L., Tian, S., & Yang, Q. (2022). Sequential verb metaphor detection with linguistic theories. *Journal of Intelligent&Fuzzy Systems, 43*(3).

8. Liu, Y., Wan, H., & Lin, J. (2026). Joint learning for metaphor detection and interpretation based on gloss interpretation. *Electronics, 15*(2), 456.

9. Shutova, E., Sun, L., & Korhonen, A. (2017). Multilingual metaphor processing: Experiments with semi-supervised and unsupervised learning. *Computational Linguistics, 43*(1), 71–123.

10.M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/ PIERE62470.2024.10805014.

11.S. Sirojiddinov, M. Abjalova, S. Normamatov and N. Gulomova, "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus," 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

12.Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences

13. Murodova, M. Satirical methods in the works of four contemporaries of Evelyn Waugh. EPRA International Journal of Multidisciplinary research monthly Peer reviewed and indexed International Journal, 8.

14. Ikromovna, M. M. (2022). XX asr ingliz adabiyotida satira. Uchinchi renessans: ta'lim, tarbiya va pedagogika" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Noyabr, Toshkent-2022.

15.Turaeva, B. B. (2021). Theoretical and Poetic Peculiarities of The Chronotope In the Novel "The Place of The Skull" By Ch. Aitmatov. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 18(5), 84-103.

16.Turaeva, B. (2021). CHRONOTOPE INTERPRETATION OF MODERN UZBEK NOVELS'TITLES. Philology Matters, 2021(3), 3-21.

17.Bahor, T. UDC: 82.09 Micro-chronotop features in the novels “The day lasts more than a hundred years” and “Doomsday”. Scientific reports of Bukhara State University, 154.

18.Orzuboy o‘g, B. K. L., & To‘rayeva, B. (2024). ULUG ‘BEK HAMDAMNING “ISYON VA ITOAT” ASARIDA INSON VA JAMIYAT O ‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING BADIIY TALQINI. GOLDEN BRAIN, 2(8), 83-87.

1. Steen, Gerard J. Finding Metaphor in Grammar and Usage. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2007, pp. 25–34. ↑
2. Lakoff, George & Johnson, Mark. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980, pp. 3–6. ↑
3. Veale, Tony & Hao, Yanfen. Metaphor Identification and Interpretation. Computational Linguistics, Vol. 45, No. 1, 2019, pp. 5–12. ↑
4. Sardana, Divyanshu & Bhattacharyya, Pushpak. Cross-lingual Metaphor Detection: A Survey. ACM Computing Surveys, Vol. 54, No. 1, 2021, pp. 6–14. ↑
5. Gong, Yufang&Schunn, Christian M. Context Effects in Metaphor Processing. Cognitive Science, Vol. 39, No. 5, 2015, pp. 1020–1026. ↑

© Lutfullaev Akbar To'lqinovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Lutfullaev Akbar To'lqinovich

ALISHER NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA KOMMUNIKATIV MAQSAD IFODASI

Botirova Nilufar

Navoiy innovatsiyalar universiteti Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc) N.N.Sharipova

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida kommunikativ maqsadning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qahramonlar nutqi orqali muallifning estetik, ijtimoiy va ruhiy maqsadlari ochib beriladi. Dialog va monologlarda yashirin va oshkora kommunikativ niyatlar, pragmatik mazmun hamda nutqiy strategiyalar o'rganiladi. Tahlil natijasida doston matnida kommunikativ maqsadlarning turli shakllarda namoyon bo'lishi, ularning o'quvchiga ta'sir qilish mexanizmlari aniqlanadi.

KALIT SO 'ZLAR: kommunikativ maqsad, pragmalingvistika, nutq akti, dialog, monolog, badiiy matn, Alisher Navoiy, "Layli va Majnun"

ВЫРАЖЕНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ ЦЕЛИ В ПОЭМЕ ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются особенности выражения коммуникативной цели в поэме Alisher Navoiy «Лейли и Меджнун». Через речь персонажей раскрываются эстетические, социальные и духовные намерения автора. Исследуются скрытые и явные коммуникативные установки, прагматическое содержание, а также речевые стратегии в диалогах и монологах. В результате анализа выявляются различные формы проявления коммуникативной цели и их воздействие на читателя.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: коммуникативная цель, прагмалингвистика, речевой акт, диалог, монолог, художественный текст, Alisher Navoiy, «Лейли и Меджнун»

EXPRESSION OF COMMUNICATIVE PURPOSE IN THE POEM LAYLI VA MAJNUN

ABSTRACT: This article analyzes the expression of communicative purpose in the poem "Layli and Majnun" by Alisher Navoiy. Through the speech of the characters, the author's aesthetic, social, and psychological intentions are revealed. The study

examines explicit and implicit communicative intentions, pragmatic content, and speech strategies in dialogues and monologues. The analysis shows various forms of communicative purpose and their impact on the reader.

KEY WORDS: communicative purpose, pragmalinguistics, speech act, dialogue, monologue, literary text, Alisher Navoiy, “Layli and Majnun”

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnni pragmalingvistik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki komminikativ maqsadlarning ifodalanishi nuqtayi nazaridan ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu asarda muallif turli nutqiy vositalar orqali o'zining ichki kechinmalari, falsafiy qarashlari hamda ijtimoiy g'oyalarni o'quvchiga yetkazadi. Mazkur maqolada dostondagi kommunikativ maqsadning ifodalanish shakllari, uning pragmalingvistik xususiyatlari hamda nutq aktlari orqali amalga oshirilisi tahlil qilinadi.

Kommunikativ maqsad – bu nutq egasining muayyan maqsad asosida axborot yetkazish, ta'sir o'tkazish yoki munosabat bildirishga qaratilgan faoliyatdir. Pragmalingvistikada bu tushuncha nutq aktlari, presuppozitsiya, implikatura kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. “Layli va Majnun” dostonida kommunikativ maqsad bir necha o'rinlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, muallifning umumiy maqsadi – sevgi, sadoqat va insoniylik kabi yuksak qadriyatlarni ulug'lashdir. Bu maqsad asardagi barcha nutqiy birliklar orqali amalga oshiriladi. Majnun obrazi orqali ifodalangan nutqiy birliklar asosan ichki monolog shaklida beriladi. Uning nutqida hissiy-ekspressiv vositalar ustun bo'lib, kommunikativ maqsad o'quvchida hamdardlik uyg'otish, uning ruhiy holatini chuqur his etishga undashdan iborat. Masalan, Majnunning sahrodagi iztiroblari tasvirida u o'z dardini nafaqat ifodalaydi, balki o'quvchiga yetkazadi, ya'ni komminikativ ta'sir kuchli bo'ladi. Layli obrazi nutqida esa bosha kommunikativ strategiya kuzatiladi. Uning nutqi ko'proq ijtimoiy me'yorlar, urf-odatlar va ichki qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. Bu yerda kommunikativ maqsad yashirin shaklda – implikatura tarzida ifodalanadi. Layli o'z his-tuyg'ularini to'liq ochib bera olmaydi, ammo uning nutqi orqali bu holat anglashiladi.

Dostondagi dialoglar ham alohida e'tiborga loyiq. Dialogik nutqda komminikativ maqsad yanada murakkablashadi. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlarda kinoya, ishora, ramziy ma'nolar orqali yashirin axborot uzatiladi. Shuningdek, dostonda nutq aktlari turlicha namoyon bo'ladi:

Informativ nutq – axborot yetkazadi

Ekspresiv nutq – his-tuyg'u ifoda etadi

Direktiv nutq – buyruq yoki iltimos qiladi.

Bu nutq aktlari orqali muallif o‘z kommunikativ maqsadlarini tizimli ravishda amalga oshiradi. Asarda ko‘plab nutqiy vaziyatlarda qahramonlar o‘z fikrlarini to‘g’ridan-to‘g’ri emas, balki bilvosita ifodalaydi. Masalan, Laylining nutqida ochiq e’tirof o‘rniga ramziy ifodalar, ishoralar orqali sevgi va iztirob yetkaziladi. Bu esa kommunikativ maqsadning yashirin shaklda amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, presuppzotsiya hodisasi ham muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, muallif ayrim ma’lumotlarni ochiq aytmaydi, balki o‘quvchining umumiy bilimiga tayanadi. Bu usul orqali matnning semantik chuqurligi ortadi va kommunikativ ta’sir kuchayadi. Dostondan parcha keltiramiz:

Majnun ko‘rib anda g’am nishoni

G’amgin bo‘ldi-yu so‘rdi oni,

Kim:”Charx ne ish boshingg’a soldi?

Kim, bo‘yla girih qoshingg’a soldi?

Mendek ne uchun malolating bor,

De, Tengri uchun ne holating bor?”

Bu baytlarda Majnunning sahroda Zaydni uchratib qolishi holati tasvirlangan va keyinchalik ular do‘stlik rishtalarini bog’lashadi. Ushbu parcha pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, unda bir nechta kommunikativ maqsadlar mujassam ekanligi kuzatiladi. Avvalo, mazkur baytlarda ekspressiv nutq shakli ustunlik qiladi. Majnunning “g’amgin bo‘ldi, g’am nishoni” kabi ifodalari uning ichki iztirobini ochiq namoyon etadi. Bu yerda kommunikativ maqsad – o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir o‘tkazish va qahramonning ruhiy kechinmalarini yetkazishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, nutq aktlari yuzasidan bu baytlarni tahlilga tortganimizda bevosita perlokutiv akt ustunlik qilganligi aniqlandi. Chunki, perlokutiv akt turida nutq orqali aynan xabar berish yoki buyruq berish emas, balki ta’sir o‘tkazish holati yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur baytda ham asosiy kommunikativ maqsad – Majnun qarshisidagi insonning ya’ni Zaydning holatini so‘rash bilan birgalikda o‘zining ham g’amgin holatda ekanligini yetkazib berishdir. Bundan tashqari, pragmalingvistik nuqtayi nazardan yondashilganda, bu baytda presuppoziysiya hodisasi ham aks ettirilgan. Ya’ni, Majnunning “*mendek ne uchun malolating bor”* jumlasi orqali uning ham qalbida bir dardi borligini, yoki uning ham bir ehtiyoji borligini bilvosita anglab olishimiz mumkin. Kommuniktiv maqsadning yana bir asosiy ko‘rinishi bu baytlarda, asosan, rahm-shafqat va insoniy mehr tuyg’ulari orqali ifoda etilgan. Bu ikki qahramonning og’ir avholda ekanligi keyinchalik ularning haqiqiy do‘st bo‘lishlari uchun sabab bo‘ldi va ular bir-birlariga dalda bo‘lishdi.

Mazkur dostonning har bir bayti chuqur semantik va pragmalingvistik tahlil uchun aynan munosibdir. Chunki, doston ilohiy ishq ruhida yozilgan va har bir satrda oshiq va ma'shuqaning ichki iztirobi, sevgisi, nafrati va sog'inchi ifodalangan.

Kunduz eli uyda topmay oni,

Boshlab yana navha-yu azoni,

Har yon chiqibon yayog'-u otliq,

Qaytib bori topmayin uyotliq.

Lol etti yana atosini g'am,

Behol-u hazin anosini ham.

Ushbu baytlarda Majnunning devonavash ahvolini ko'rib qiynalgan ota-otasining iztiroblari va uni o'zgartirish uchun chora izlayotgan holati aks ettirilgan. Shuningdek, keltirilgan baytlarda oshiq – Majnunning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy muhit bilan nomuvofiqligi chuqur badiiy ifoda etilgan. Mazkur parchada asosiy kommunikativ maqsad – Majnunning ichki ruhiy holatini tashqi harakatlar orqali ochib berish va o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir uyg'otishdir. Bu holatda muallif faqat aynan voqeani bayon qilmaydi, balki o'quvchini Majnun holatini his qilishga majbur qiladi. Ya'ni, bu yerda bilvosita ifoda strategiyasidan foydalanilgan. Majnunning ahvoli to'laligicha aks ettirilmaydi, demak kitobxon buni o'zi baytdan kelib chiqib anglab olishi zarur. Aynan bu kabi hodisalar tilda pragmalingvistik nuqtayi nazardan yondashilganda implikatura ya'ni yashirin ma'noni ifodalaydi. Yuqoridagi baytlarda bir nechta nutq aktlari uyg'unlashgan. Masalan, Majnunning yo'qolib qolganligi haqidagi xabar mazmunidagi satrlar bevosita – lokutiv akt turiga misol bo'la oladi. Ota-onasi Majnunning ahvolidan qayg'uda ekanligi *g'am, behol-u hazin* so'zlari orqali ifodalangan va bu aynan perlokutiv akt turiga kiradi. Ya'ni, kitobxon bu satrlarni o'qir ekan, bevosita ota-onaning bu holatidan ta'sirlanadi va ular bilan bir qatorda qayg'urishi ham ehtimoldan holi emas. Bu baytlarning pragmalingvistik jihatdan tahlilga tortilishi bu dostonning qanchalik chuqur ma'no-mazmunga ega ekanligini va shunchaki o'qish joiz emasligini anglatadi. Mazkur baytlarning umumiy xulosasini ifodalash orqali biz muallif bunda bevosita bayon qilishdan ko'ra harakat, holat, va ikkilamchi obrazlar orqali chuqur ma'no yetkazganligi namoyon etildi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida kommunikativ maqsadni ifodalashda bevosita nutqdan farqli ravishda pragmatik vositalardan keng foydalanilgan. Xususan, Majnunning ruhiy iztirobi uning tilidan emas, balki harakat, yo'qolib turishi va atrofdagi insonlarning holati orqali ochib beriladi. Bu esa matnda yashirin ma'no qatlamini kuchaytiradi hamda kitobxonni keng

fikrlashga undaydi. Kommunikatsiyani aks ettirishda muallif an'anaviy dialog shaklida emas, balki holat kommunikatsiyasi asosida ishlagan. Ya'ni, qahramonning ichki kechinmalari tashqi voqealik orqali ifodalanadi. Natijada kitobxon faqat kuzatuvchi emas, balki mazmunni anglovchi va his qiluvchi subyektga aylanadi. Bu esa badiiy matnning pragmatik samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari ota-ona obrazining kiritilishi kommunikativ jarayonni kengaytiradi. Ular orqali fojea yanada chuqurlashadi va shaxsiy iztiroblar ijtimoiy darajaga koʻtariladi. Biz bu dostonni tahlil qilar ekanmiz, Navoiy ijodining nafaqat adabiy, balki lingvistik jihatdan ham mukammal ekanligini yan bir bor guvohi boʻldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B 215.

2. Shahriyor Safarov. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2008. – B 44-50.

3. N. Mahmudov. Til va nutq. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2012. – B 60-68.

4. M. Hakimov. Oʻzbek pragmalingvistikasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B 72-80.

5. A. Nurmonov. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B 120-128.

6. B. Yo ʻldoshev. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Universitet, 2013. – B 90-97.

7. Sharipova N.N. Poetic structure of the first doston “Khamsa” // International Journal of Advance Scientific Research. SJIF Impact factor (2022: 5.478)(2022: 5.636) 10-13 Volume 02, 2022.

8. Sharipova N.N. The composition of the first epics “Khamsa” “The role of the narrative genre in Bosma International Journal of Advance 17-28 Volume 04 / Scientific Research (ISSN – 2750-1396) Issue 10, 2024.

9. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

10. Ярашова, Насиба Жумаевна. "Фонетико-стилистические особенности детской речи в поэтическом тексте." Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога. 2020.

11. Yarashova N. THREE GREAT GENIUS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 521-524.

12. Yarashova N. LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF OBSOLETE WORDS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 525-529.

13. Yarashova N. SOCIOPRAGMATIC STUDY OF HISTORICAL WORDS // Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1216-1219.

14. Yarashova N. METAPHORS AS METHODOLOGICAL TOOLS (IN THE EXAMPLE OF ABDULLA ORIPOV'S POETRY) //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1220-1223.

15. Yarashova N. DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 1093-1095.

16. Yarashova N. J. TARIXIY SO'ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI. – 2024.

17. Madraimov, A., Isakulova, N., Xoshimova, D., Rasulova, I., Kurbaniyozova, R., & Yarashova, N. (2025, April). Chrono Linguistic Modelling through AI Driven Conceptual Frameworks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

18. Yarashova, Nasiba Jumaevna. "Linguopsychological Characteristics of Children's Quasidological Speech."

19. Yarashova, Nasiba. "DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE." Modern Science and Research 2.10 (2023): 1093-1095.

20. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

© Botirova Nilufar, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Botirova Nilufar

Davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy samaradorligi

Elmurodov Mamazarif Xudoyberdiyevich

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti i.f.n dotsent,

Ikromov Anvar Zuxriddin o'g'li

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti Iqtisod yo'nalishi magistri

e-mail: ikromovanvar2003@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Xususan, byudjet siyosati, soliq tizimi, davlat xarajatlari samaradorligi hamda moliyaviy nazorat mexanizmlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida davlat moliyaviy siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat moliyasi, moliyaviy siyosat, byudjet, soliq tizimi, iqtisodiy o'sish, samaradorlik, davlat xarajatlari, fiskal siyosat**.**

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования государственной финансовой политики. Особое внимание уделено бюджетной политике, налоговой системе, эффективности государственных расходов и финансовому контролю. На примере Узбекистана предложены рекомендации по повышению экономической эффективности финансовой политики государства.

Ключевые слова: государственные финансы, финансовая политика, бюджет, налоговая система, экономический рост, эффективность, государственные расходы.

Abstract

This article examines theoretical and practical aspects of improving state financial policy. Special attention is paid to budget policy, tax system, efficiency of public expenditures and financial control mechanisms. Based on the experience of Uzbekistan, recommendations are proposed to increase the economic efficiency of state financial policy.

Keywords: public finance, financial policy, budget, tax system, economic growth, efficiency, public expenditures.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari va raqamli transformatsiya davlat moliyaviy siyosatini zamonaviy asosda olib borishni taqozo etmoqda. Davlat moliyaviy siyosati mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Davlat moliyaviy siyosati – bu davlat tomonidan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Mazkur siyosat orqali iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilash mumkin.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat byudjeti shaffofligini oshirish, soliq yukini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish va davlat xarajatlari samaradorligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat moliyaviy siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- byudjet daromadlarini barqaror shakllantirish;
- soliq tizimini soddalashtirish;
- davlat xarajatlaridan oqilona foydalanish;
- ijtimoiy himoyani kuchaytirish;
- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish;
- hududlarni kompleks rivojlantirish.

So'nggi yillarda davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy yo'nalishga yo'naltirilishi ortib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va bandlik dasturlariga ajratilayotgan mablag'lar hajmi oshganligi iqtisodiy faollikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Asosiy ko'rsatkichlar:

- 2024-yilda byudjet daromadlari: 290 trln so'm
- Ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi: 52 %
- YaIM o'sish sur'ati: 6,5 %
- Soliq tushumlarining o'sish sur'ati: 14 %

Biroq davlat moliyaviy siyosatida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligining pastligi, yashirin

iqtisodiyot ulushining mavjudligi, soliq bazasining to‘liq shakllanmaganligi hamda ayrim xarajatlarning natijadorligi pastligi kuzatiladi.

Davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- byudjet mablag‘larini natijadorlik asosida rejalashtirish;
- raqamli soliq nazoratini kengaytirish;
- davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish;
- mahalliy byudjetlar mustaqilligini kuchaytirish;
- davlat qarzini samarali boshqarish;
- moliyaviy monitoring tizimini takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Byudjet va soliq mexanizmlarini zamon talablari asosida isloh qilish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish hamda moliyaviy intizomni kuchaytirish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Kelgusida davlat moliyaviy siyosatini yanada takomillashtirish O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari.
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi hisobotlari.
- O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.
- World Bank. World Development Indicators.
- International Monetary Fund (IMF) Reports.
- O‘zbekiston Respublikasi 2030-yilgacha taraqqiyot strategiyasi materiallari

© Elmurodov Mamazarif Xudoyberdiyevich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Elmurodov Mamazarif Xudoyberdiyevich, Ikromov Anvar Zuxriddin o’g’li

FILOLOGIK TA’LIMDA ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR VA INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: BO‘LAJAK TIBBIYOT MUTAXASSISLARINING DISKURSIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI YONDASHUV

Dadadjanova Feruza Maxamadyusupovna

Farg ‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada filologik ta’limda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va innovatsion raqamli texnologiyalarning o‘rni hamda ularning bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarining diskursiv kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda kommunikativ mashqlar, kognitiv yondashuv va sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘quv tizimlarini integratsiya qilish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalari talabalarning nutqiy faolligini oshiradi, diskursiv kompetentligini rivojlantiradi va kasbiy kommunikatsiyani takomillashtiradi.

Kalit so‘zlar: diskursiv kompetentlik, filologik ta’lim, sun’iy intellekt, kommunikativ mashqlar, kognitiv yondashuv, raqamli texnologiyalar, tibbiy ta’lim.

Внедрение современных научных исследований и инновационных цифровых технологий в филологическом образовании: подход на основе искусственного интеллекта к развитию дискурсивной компетенции будущих медицинских специалистов

Аннотация. В данной статье рассматривается роль современных научных исследований и инновационных цифровых технологий в филологическом образовании, а также их значение в развитии дискурсивной компетенции будущих медицинских специалистов. В исследовании научно обоснованы возможности интеграции коммуникативных упражнений, когнитивного подхода и адаптивных образовательных систем на основе искусственного интеллекта. Результаты показывают, что использование цифровых технологий и инструментов искусственного интеллекта способствует повышению речевой активности студентов, развитию их дискурсивной компетенции и совершенствованию профессиональной коммуникации.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

дискурсивная компетенция, филологическое образование, искусственный интеллект, коммуникативные упражнения, когнитивный подход, цифровые технологии, медицинское образование

Modern Scientific Research and Innovative Digital Technologies in Philological Education: An Artificial Intelligence-Based Approach to Developing Discursive Competence of Future Medical Professionals

ABSTRACT:

This article examines the role of modern scientific research and innovative digital technologies in philological education, as well as their importance in developing the discursive competence of future medical professionals. The study scientifically substantiates the integration of communicative exercises, a cognitive approach, and artificial intelligence-based adaptive learning systems. The results indicate that the use of digital technologies and artificial intelligence tools enhances students' speech activity, develops their discursive competence, and improves professional communication skills.

KEYWORDS:

discursive competence, philological education, artificial intelligence, communicative exercises, cognitive approach, digital technologies, medical education

KIRISH (INTRODUCTION)

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli transformatsiya bosqichiga o'tib, o'qitishning an'anaviy metodlari bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni talab etmoqda. Filologik ta'limda bu jarayon ayniqsa muhim bo'lib, til o'rgatish metodikasini zamonaviylashtirish orqali talabalarni real kommunikativ muhitga tayyorlash zarurati ortib bormoqda.

Tibbiyot ta'limi kontekstida ingliz tilini o'qitish alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak shifokorlar xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan muloqot qilish, ilmiy maqolalarni o'qish va klinik vaziyatlarda samarali kommunikatsiya olib borish uchun yuqori darajadagi til kompetensiyasiga ega bo'lishlari lozim.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar grammatik bilimlarga ega bo'lishiga qaramay, nutqni izchil va mantiqiy tashkil etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa diskursiv kompetentlikning yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — filologik ta'limda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ mashqlar tizimini takomillashtirish hamda uning diskursiv kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Kommunikativ kompetensiya nazariyasi asoschilari tomonidan til o'rganish jarayoni ijtimoiy kommunikatsiya bilan bog'liq holda o'rganilgan. Diskursiv kompetentlik esa nutqning mantiqiyligi va kontekstga mosligini ta'minlovchi muhim komponent sifatida ajratilgan.

Zamonaviy filologik tadqiqotlarda diskurs tushunchasi matndan kengroq bo'lib, u kommunikativ jarayon, kontekst va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi. Shu bois diskursiv kompetentlikni rivojlantirish til o'rgatish metodikasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi qo'llanilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar adaptiv o'qitish, avtomatik baholash va interaktiv o'rganish imkoniyatlarini kengaytirganini ko'rsatadi.

Raqamli platformalar, virtual simulyatsiyalar va chatbotlar orqali talabalar bilan individual ishlash imkoniyati kengaymoqda.

Biroq filologik ta'limda diskursiv kompetentlikni rivojlantirish uchun SI asosidagi kompleks metodik tizimlar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- nazariy tahlil
- eksperimental metod
- pedagogik kuzatuv
- diagnostik testlar
- statistik tahlil

Tadqiqot doirasida quyidagi model ishlab chiqildi:

SI asosidagi o'quv tizimi modeli

1. adaptiv mashqlar tizimi
2. nutqni aniqlash va tahlil qilish moduli
3. diskursiv tahlil algoritmi

4. individual tavsiya berish tizimi

Metodika uch bosqichdan iborat:

- analitik
- transformatsion
- diskursiv

TAHLIL VA NATIJALAR (RESULTS)

Tajriba natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- nutq izchilligi 20% ga oshdi
- diskursiv bog‘lanish vositalari 22% ga yaxshilandi
- kasbiy nutq shakllanishi 18% ga oshdi
- kommunikativ faollik sezilarli darajada ortdi

Shuningdek:

- talabalar xatolari avtomatik tahlil qilindi
- individual rivojlanish trayektoriyasi shakllandi
- o‘quv jarayoni samaradorligi oshdi

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari va kommunikativ mashqlar integratsiyasi an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq hisoblanadi.

Bu yondashuv:

- individual o‘rganishni ta’minlaydi
- nutqni chuqur rivojlantiradi
- kasbiy kommunikatsiyani shakllantiradi

Kognitiv yondashuv bilan uyg‘unlikda esa bilimlar ongli ravishda o‘zlashtiriladi.

XULOSA (CONCLUSION)

Mazkur tadqiqot natijalari filologik ta’lim tizimida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarining diskursiv kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kommunikativ mashqlarni sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘quv tizimlari bilan integratsiya qilish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda talabalarning nutqiy faoliyatini faollashtiradi.

Shuningdek, mazkur yondashuv talabalarda nutqning mantiqiyligi, izchilligi va kontekstga mosligini ta’minlovchi diskursiv ko‘nikmalarni tizimli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi individual o‘quv trayektoriyasini yaratish, tezkor teskari aloqa ta’minlash va xatolarni avtomatik tahlil qilish imkonini berib, o‘qitish jarayonini optimallashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ mashqlarni sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashtirish:

- ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi;
- bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantiradi;
- ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- global ta’lim makonida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellektga asoslangan raqamli texnologiyalarni filologik ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat til o‘rgatish samaradorligini oshiradi, balki bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga imkon yaratadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini yanada kengroq o‘rganish, ularni turli fanlar integratsiyasida qo‘llash hamda metodik modellarni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. HYMES, D. (1972). ON COMMUNICATIVE COMPETENCE.
IN: PRIDE J.B., HOLMES J. (EDS.) SOCIOLINGUISTICS. LONDON: PENGUIN.
PP. 269–293

2. CANALE, M., SWAIN, M. (1980).
THEORETICAL BASES OF COMMUNICATIVE APPROACHES TO SECOND LANGUAGE TEACHING AND TESTING. APPLIED LINGUISTICS, 1(1), PP. 1–47

3. VAN DIJK, T.A. (2008). DISCOURSE AND CONTEXT: A SOCIOCOGNITIVE APPROACH.
CAMBRIDGE: CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS.

4. HALLIDAY, M.A.K. (1978). LANGUAGE AS SOCIAL SEMIOTIC. LONDON: EDWARD ARNOLD.

5. BROWN, H.D. (2000). PRINCIPLES OF LANGUAGE LEARNING AND TEACHING (4TH ED.).
NEW YORK: LONGMAN.

6. HARMER, J. (2007). HOW TO TEACH ENGLISH. HARLOW: PEARSON LONGMAN.

7. RICHARDS, J.C. (2006). COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING TODAY.
CAMBRIDGE: CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS.

8. LUCKIN, R. (2018). MACHINE LEARNING AND HUMAN INTELLIGENCE: THE FUTURE OF EDUCATION FOR THE 21ST CENTURY. LONDON: UCL INSTITUTE OF EDUCATION PRESS.

9. HOLMES, W., BIALIK, M., FADEL, C. (2019).
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION: PROMISES AND IMPLICATIONS FOR TEACHING AND LEARNING. BOSTON: CENTER FOR CURRICULUM REDESIGN.

10. BAKER, R.S., INVENTADO, P.S. (2014). EDUCATIONAL DATA MINING AND LEARNING ANALYTICS. IN: LEARNING ANALYTICS. SPRINGER. PP. 61–75

11. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QARORI PQ-4851 (2020).
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA.
TOSHKENT.

12. ISHMUHAMEDOV R., YULDASHEV M. (2017). TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR. TOSHKENT.

13. SELWYN, N. (2016).EDUCATION AND TECHNOLOGY: KEY ISSUES AND DEBATES.
LONDON: BLOOMSBURY.

14. KULIK, J.A., FLETCHER, J.D. (2016).EFFECTIVENESS OF INTELLIGENT TUTORING SYSTEMS.
REVIEW OF EDUCATIONAL RESEARCH.PP. 42–78

© Dadadjanova Feruza Maxamadyusupovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Dadadjanova Feruza Maxamadyusupovna

FRANS KAFKANING "QAL'A" ASARIDAGI METANOMIYALARNING O'RNI

(Vafo Fayzulloh tarjimasi asosida)

RUXSORA TOSHPO'LATOVA NIZOMIDDIN QIZI

Navoiy innovatsiyalar universiteti 1-bosqich magistr talabasi

Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. Ushbu ishda tilshunoslikning ma'no ko'chish turlaridan biri, metanomiya haqida ma'lumot berilgan. Metanomiya hozirgi dolzarb mavzular sirasiga kirib, uning turlari va tarjimonlikda ishlatilish haqida ma'lumotlarni ushbu tezisda ko'rish mumkin. Metanomiyalarni o'quvchiga to'g'ri talqin qilib bera olish va o'quvchiga tushunarli tilda asarni tarjima qilish uchun tarjimonga o'z tilining barcha ichki imkoniyatlarini bilish talab qilinadi. Ushbu tezisning maqsadi metanomiyaning turlarini aniqlash va tarjimonlikda qo'llash haqida ba'zi fikr mulozalarni yoritishdir.

Аннотация. В данной работе представлена информация о метонимии, как одном из видов семантического переноса в лингвистике. Метонимия относится к числу актуальных тем современности, и в данной тезисе рассматриваются её виды, а также особенности её применения в переводческой практике. Для точной интерпретации метонимий и адекватной передачи содержания произведения на понятном для читателя языке переводчик должен в полной мере владеть внутренними возможностями своего языка. Целью данной работы является выявление видов метонимии и рассмотрение некоторых аспектов её использования в переводе.

Annotation. This study provides information on metonymy, one of the types of semantic transfer in linguistics. Metonymy is considered one of the currently relevant topics, and this thesis presents information about its types and its application in translation practice. In order to accurately interpret metonymic expressions for the reader and to render a text in a clear and comprehensible manner, the translator is required to have a thorough command of all the internal resources of their language. The aim of this thesis is to identify the types of metonymy and to discuss certain issues related to their use in translation.

Kalit so'zlar: metanomiya, turlar, aloqadorlik modeli, Frans Kafka, madaniy belgilar

Ключевые слова: метонимия, виды, модель связности, Franz Kafka, культурные знаки, переводческая деятельность

Keywords: metonymy, types, connectivity model, Franz Kafka, cultural signs, translation studies

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda turli xil yo‘nalishlar rivojlanib bormoqda. Shuningdek, avval umumiy bo‘lgan tarmoqlar hozirda alohida soha sifatida o‘rganilib kelmoqda. Til paydo bo‘libdiki, u turli tarafdan o‘rganilib kelmoqda. Tildagi ko‘chma ma’noli so‘zlarni, ya’ni metafora, metanomiya kabi birliklarni hozirgi kunda inson o‘z tushunchalari orqali tushuntirib berishi, mavhum narsalarni aniq g‘oyalarga ko‘chirishi olimlar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Bu sohadagi yangiliklarni ingliz olimlari G.Lakoff[1], R.Lancager, L.L.Thornburg[2] kabi olimlar o‘rganishgan. O‘zbek olimlari R.Sayfullayeva[3], G.M.Usmonova va T.SH.Usmonova[4] kabi olimlar ham ma’no ko‘chish turlarini o‘rganishgan. Tarjima qilish jarayonida matnning o‘z ma’nosini saqlagan holda tarjima qilishda turli muammolar bo‘ladi va ularni bartaraf qilish uchun metanomiya va metafora kabi birliklarni chuqurroq tushunish va o‘rganish kerak. Metanomiya matnda nominatsiya tejamkorligi, obrazlilik, baholovchi ma’no va muallif pozitsiyasini bilvosita ifodalash imkonini beradigan semantik mexanizmdir. U ko‘pincha metafora bilan yonma-yon talqin qilinsa-da, metanomiyaning asosiy tayanchi o‘xshashlik emas, balki yaqinlik, aloqadorlik va assotsiativ bog‘liqlikdir. Shu sababli tarjimada u “tasviriy bezak” darajasida emas, balki referensial aniqlik va pragmatik ta’sirni belgilovchi omil sifatida ko‘rilishi lozim.

Asosiy qism

Tilshunoslar ma’no ko‘chish turlari haqida ko‘plab ma’lumotlarni tahlil qilgan bo‘lib, metanomiya haqida ham keng ma’lumotlar bazasi yaratilgan. Metanomiya termini grek tilidan olingan bo‘lib, “qayta nomlash” degan ma’noni anglatadi. Metanomiyalar o‘zbek tilshunosligida 4 xil turgan bo‘lingan bo‘lib ular quyidagilar:

1. Bir predmet nomi bilan shu predmetni boshqa narsa bilan atash: masalan, banka: shisha idish birinchi ma’nosi bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi banka hajmidagi asal yoki quyuqlik tushuniladi.
2. Joy nomi bilan shu joyda yashovchi insonlar ataladi: masalan, Frans Kafka asaridagi “qal’a” : avvalo, to‘rt tomoni o‘ralgan bino nazarda tutilsa, “qal’a motam tutdi” degan birikmada qal’ada yashovchi insonlar nazarda tutiladi.
3. Muallif nomi o‘z asarlariga ko‘chiriladi: masalan, Frans Kafkani qo‘lidan qo‘ymay o‘qiydi: avvalo, Frans Kafka yozuvchi shaxs, berilgan gapda esa F.Kafkaning asarlari nazarda tutilmoqda.
4. Material nomi bilan shu materildan narsa nomiga ko‘chiriladi: masalan, oltin: qimmatbaho metal nomi va oltindan yasalgan zeb-ziynatlar yoki tangalar nazarda tutiladi.

Ingliz adabiyotidagi K.U.PPanther va L.L.Thornburg esa o‘z asarlarida metanomiyani 2 muhim turiga urg‘u berishgan. Bular: 1) Otli birikmalar va atoqli otlarning ko‘chishi(*referential metonymies*): masalan, “Man ismlarini aytib o‘tishim shart emas. Hamma kimni aytayotganimni bilib turibdi”- ismlari deganda shaxslar nazarda tutilgan va ism ot sifatida ham alohida ishlatilinadi. 2) Gapdagi fe’lli birikmalarni ko‘chishi(*predicational metonymies*):masalan, “Tez orada bizga uchishga ruxsat etishdi”- samalyotning uchishga ruxsat etilishi nazarda tutilmoqda, uchish fe’li qushlarning ham uchishi anglatganda o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘ladi.

Metanomiyani tarjima nuqtayi nazaridan o‘rganishda avvalo uning matndagi vazifalarini ajratish zarur. Birinchi vazifa nominativ-kompressiv funksiyadir: “muallif” o‘rnida “qalam”, “hokimiyat” o‘rnida “taxt”, “kino sohasi” o‘rnida “ekran” kabi birliklar qo‘llanib, murakkab tushuncha ixcham va uslubiy belgilangan shaklda ifodalanadi. Ikkinchi vazifa baholovchi-pragmatik funksiyadir: metanomik almashtirish muallifning munosabatini yashirin tarzda yetkazadi, masalan, “qog‘ozlar gapiryapti” kabi ifoda byurokratik munosabatni kinoya bilan belgilashi mumkin. Shuning uchun metanomiyani tarjimada “so‘zma-so‘z” ko‘chirish ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi, “o‘quvchi bilimlari” bilan moslashgan semantik model kerak bo‘ladi. Metanomiyani tarjima qilish strategiyalari orasida muqobil metanomiyani topish alohida ahamiyat kasb etadi. Muqobil metanomiya deganda manba tildagi “aloqadorlik modeli”ni maqsad tilda shunga yaqin assotsiativ zanjir bilan qayta tiklash tushuniladi. Masalan, Frans Kafka asarlarida tanlangan qal’a, hukumat, boshliqlar kabi so‘zlarni to‘g‘ri tarjima qilish orqali tarjimon bu so‘zlarning shunchaki bino yoki hukumatga aloqador so‘zlarni emas boshqa ma’nolarni anglatishini ham tushunib yetadi. Metanomiyaning tarjimada yuzaga chiqaradigan yana bir jihati madaniy moslashtirish va chetlashtirish muvozanatidir. Madaniy belgilangan metanomiyalar ko‘pincha realiya, toponim, institutsional nomlar yoki tarixiy belgilar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularni to‘liq moslashtirish matnni o‘quvchiga yaqinlashtiradi, ammo manba madaniyatining rang-barangligini kamaytirishi mumkin; to‘liq chetlashtirish esa muallif dunyosini saqlaydi, lekin o‘qish qiyinlashadi. Shu sababli metanomiyani tarjima qilishda “minimal yetarli izoh” tamoyili muhim: tarjima matnining o‘zida metanomik birlikni shunday tanlash kerakki, u izohsiz ham asosiy ma’noni bersin, zarur bo‘lsa, kontekst orqali nozik ma’nolar ochilsin. Metanomiyaga tayanadigan badiiy effektlar, kinoya va ijtimoiy signallar aynan funksional moslik doirasida baholanishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ma’no ko‘chish turlarining barchasi tarjim jarayonida juda muhim bo‘lib, ular ichida metanomiya ham asosiy o‘rin egallaydi. Metanomiyaning turlari ko‘p bo‘lib, tarjimon asar tarjima qilish jarayonida o‘quvchining tushunish darajasini o‘ylagan holatda tarjima qilishi zarur. Bundan tashqari, madaniy chetlashish kerak yoki

o'xshash so'zlarni mohirona tarjima qilish albatta tarjimonning o'z tili ichki imkoniyatlarini bilishiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G.Lakoff; M.Johnsen, Metaphors we live by. London: The university of Chicago press,2003-476b.

2. K.U.Panther; L.L.Thornburg, Metaphor and metonymy in language and thought .Hamburg: The University of Hamburg,2017

3. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, Hozirgi o'zbek tili.Toshkent:Zebo print,2012

4. G.M.Usmonova va T.SH.Usmonova, Ona tili o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi,Toshkent:Metodist nashriyoti,2024-419b.

5. M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/ PIERE62470.2024.10805014.

6. Sh. Sirojiddinov, M. Abjalova, S. Normamatov and N. Gulomova, "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus," 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

7. B. Turaeva, (2014). A Theory of literary time. In Young Scientist USA (pp. 110-115).

8. M. M.Ikromovna (2022). XX asr ingliz adabiyotida satira. Uchinchi renessans: ta'lim, tarbiya va pedagogika" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Noyabr, Toshkent-2022.

9. Vafo Fayzulloh,"Qal'a".Toshkent:Muharrir nashriyoti,2023.-421

1. G.Lakoff, M.Johnsen. Metaphors we live by. London: The university of Chicago press,2003 ↑

2. K.U.Panther,L.L.Thornburg.Metaphor and metonymy in language and thought .Hamburg: The University of Hamburg,2017 ↑

3. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev,Hozirgi o'zbek tili.Toshkent:Zebo print,2012 ↑

4. G.M.Usmonova va T.SH.Usmonova,Ona tili o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi,Toshkent:Metodist nashriyoti,2024 ↑

© TOSHPO'LATOVA RUXSORA NIZOMIDDIN QIZI, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

TOSHPO'LATOVA RUXSORA NIZOMIDDIN QIZI

Filologik ta'limda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va innovatsion raqamli texnologiyalar

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Ingliz tili ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi

Azamatova Mohinur Asror qizi

mohinura303@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologik ta'lim sohasida olib borilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, lingvistikaning yangi yo'nalishlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri sodda va tushunarli tarzda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: *filologiya, lingvistika, raqamli texnologiyalar, ta'lim, diskurs tahlili, pragmalingvistika, innovatsiya.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные научные исследования в области филологического образования, а также роль и значение инновационных цифровых технологий. Также простым и понятным языком объясняется влияние новых направлений лингвистики на образовательный процесс.

Ключевые слова: *филология, лингвистика, цифровые технологии, образование, дискурс-анализ, прагмалингвистика, инновации.*

Abstract. This article discusses modern scientific research in the field of philological education and highlights the role and importance of innovative digital technologies. It also explains in a simple and clear way how new branches of linguistics influence the educational process.

Keywords: *philology, linguistics, digital technologies, education, discourse analysis, pragmalinguistics, innovation*.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimi tez o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, filologiya yo'nalishida ham zamonaviy yondashuvlar paydo bo'ldi. Oldin faqat kitob va matn bilan ishlangan bo'lsa, hozirda raqamli texnologiyalar yordamida o'rganish imkoniyati kengaydi. Bu esa talabalar uchun bilim olishni oson va qiziqarli qiladi.Filologik ta'lim - bu til, nutq va adabiyotni o'rganishga qaratilgan muhim sohalardan biridir. Hozirgi davrda bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga

ham ega bo'lib bormoqda. Ya'ni, o'rganilgan bilimlar kundalik hayotda, ta'lim jarayonida va hatto texnologiyalarni rivojlantirishda ham qo'llanilmoqda.

- **Kognitiv lingvistika -** til va inson tafakkuri o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi.
- **Pragmalingvistika -** nutqning vaziyatga qarab qanday ishlatilishini tushuntiradi.
- **Diskurs tahlili -** matn va suhbatlarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ham katta rol o'ynamoqda. Masalan:

- Onlayn darslar va platformalar orqali o'qish
- Elektron lug'atlar va tarjima dasturlari
- Sun'iy intellekt asosida ishlovchi matn tahlil tizimlari.

Avvalgi yillarda filologiya asosan an'anaviy usullarda, ya'ni kitob o'qish, matn tahlili va yozma ishlarga asoslangan edi. Hozir esa zamonaviy ilmiy yondashuvlar paydo bo'lib, bu soha ancha kengayib ketdi. Masalan, bugungi kunda tilni faqat grammatik qoidalar asosida emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy muhit va nutq jarayoni bilan bog'lab o'rganish kuchaygan. Kognitiv lingvistika shunday yo'nalishlardan biri bo'lib, u til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Bu orqali inson qanday qilib so'zlarni eslab qolishi, ularni qanday tushunishi va ishlatishi aniqlanadi. Bu bilimlar ayniqsa chet tillarni o'rganishda juda foydali hisoblanadi. Pragmalingvistika esa nutqning vaziyatga bog'liqligini o'rganadi. Masalan, bir xil gap turli vaziyatda turlicha ma'no berishi mumkin. Bu esa muloqot jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Talabalar uchun bu yo'nalish kundalik hayotda to'g'ri va o'rinli gapirishni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.Diskurs tahlili esa matn va suhbatlarni chuqur o'rganishga yordam beradi. Bu usul orqali nafaqat matnning yuzaki ma'nosi, balki uning ichki mazmuni, muallif fikri va yashirin g'oyalari ham aniqlanadi. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlashga va tahlil qilishga o'rgatadi. Zamonaviy filologik ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni juda katta. Hozirgi kunda deyarli barcha talabalar internetdan foydalanadi va bu o'qish jarayonini ancha osonlashtiradi. Masalan, onlayn darslar orqali istalgan joydan turib bilim olish mumkin. Bu ayniqsa masofaviy ta'limda juda qulay.

Elektron lug'atlar va tarjima dasturlari ham talabalarga katta yordam beradi. Oldin biror so'zning ma'nosini topish uchun ko'p vaqt ketgan bo'lsa, hozir esa bir necha soniya ichida tarjima qilish mumkin. Bu esa o'rganish jarayonini tezlashtiradi.Bundan tashqari, matnlarni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar ham mavjud. Ular yordamida matndagi xatolarni aniqlash, grammatik tahlil qilish va hatto matnning uslubini baholash mumkin. Bu esa talabalar uchun o'z ustida ishlashda juda foydali vosita hisoblanadi. Yana bir muhim jihat - ta'limda interaktiv usullarning qo'llanilishidir. Masalan, turli xil mobil ilovalar, test tizimlari va o'yin shaklidagi darslar talabalarni yanada faol bo'lishga undaydi. Oddiy darsga qaraganda bunday usullar ko'proq qiziqish uyg'otadi va bilimni yaxshiroq eslab

qolishga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar filologiya sohasida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, turli tillarni solishtirish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali yangi ilmiy xulosalar chiqarilmoqda. Bu esa tilshunoslik fanining yanada rivojlanishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, filologik ta'lim bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy va texnologik jihatdan ham rivojlanib bormoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalar bu sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratib, ularning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Yo‘ldoshev B. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: O'qituvchi, 2015.

3.Mahmudov N. O'zbek tili va nutq madaniyati. - Toshkent, 2018.

4. Safarov Sh. Pragmalingvistika asoslari. Toshkent: Fan, 2013.

5. Nurmonov A. Lingvistika nazariyasi. - Toshkent, 2012.

6. Crystal D. Linguistics. - Cambridge University Press, 2010.

© Obruyeva Madinabonu Bobosher qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Obruyeva Madinabonu Bobosher qizi

Filologik ta'limda innovatsion raqamli texnologiyalar vositasida zamonaviy media tilidagi inglizcha so'z yasalishini tadqiq etish

Yusupova Gulzoda Umrzoq qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti magistiranti

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida Internet-nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar va raqamli yangiliklar lentasi kabi media manbalarda ingliz tilidan o'zlashayotgan yangi so'zlar, gibrid shakllar va neologizmlar jadal ko'paymoqda. Ishning asosiy maqsadi – media diskursida faol qo'llanilayotgan so'z yasalish modellarini (affiksatsiya, so'z qo'shish, qisqartma, konversiya va boshqalar) aniqlash, ularning lingvistik xususiyatlarini raqamli vositalar yordamida tahlil qilish hamda olingan materialni filologik ta'limda samarali qo'llash yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar nafaqat til materialini tezkor yig'ish va qayta ishlash imkonini beradi, balki talabalarning so'z yasalishi hodisalarini mustaqil kashf etishlariga, til sezgirligini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol mashg'ulotlar tashkil etishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy media tili, inglizcha so'z yasalishi, raqamli texnologiyalar, filologik ta'lim, neologizmlar, korpus lingvistikasi, innovatsion o'qitish metodlari, media diskursi.

Globallashuv va raqamli kommunikatsiyaning misli ko'rilmagan darajada kengayishi tillar o'rtasidagi leksik o'zaro ta'sirni sezilarli darajada tezlashtirdi. Ayniqsa, ingliz tili zamonaviy media makonida dominant mavqega ega bo'lib, ko'plab tillarning so'z yasalish tizimiga faol ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli gazetalar, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar va onlayn platformalarda inglizcha neologizmlar, gibrid shakllar, kalkalar va qisqartmalar jadal tarqalmoqda. Ushbu jarayon nafaqat leksik birliklarning miqdorini oshirmoqda, balki an'anaviy so'z yasalish modellarini ham o'zgartirib, til tizimiga yangi hosilaviy andozalarni olib kirmoqda. Jahon tilshunosligida bu masalaga bag'ishlangan ishlar media diskursidagi so'z yasalishining asosiy mexanizmlarini ochib bergan bo'lsa-da, ular asosan G'arb tillariga qaratilgan bo'lib, ta'limiy amaliyot bilan raqamli texnologiyalar kesishgan nuqtadagi tadqiqotlar hali yetarli emas.

Zamonaviy filologik ta'lim oldida turgan asosiy chaqiriqlardan biri – talabalarni jonli, tez o'zgaruvchi til materiali bilan ishlashga tayyorlashdir. An'anaviy darslik va bosma manbalarga asoslangan leksikologiya mashg'ulotlari media tilidagi real vaqt rejimidagi leksik yangilanishlarni qamrab ololmaydi. Ayni paytda korpus lingvistikasi platformalari , avtomatik matn tahlil vositalari va konkordanserlar filolog-tadqiqotchiga katta hajmdagi empirik materialni tezkor yig'ish, qayta ishlash va lingvistik qonuniyatlarni statistik

asosda aniqlash imkonini bermoqda. Shu bois, raqamli texnologiyalarni filologik ta'limga integratsiyalash nafaqat o'qitish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning mustaqil tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Maqsad – filologik ta'lim sharoitida innovatsion raqamli texnologiyalar vositasida zamonaviy media tilidagi inglizcha so'z yasalishini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi yetakchi raqamli media manbalari asosida inglizcha so'z yasalishi hodisalarining reprezentativ korpusini shakllantirish;

2. Affiksatsiya, so'z qo'shish, konversiya, abbreviatura va qorishiq yasalmalarning media diskursidagi faollik darajasini avtomatlashgan tahlil vositalari yordamida aniqlash;

3.Olingan natijalarni filologiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari uchun leksikologiya va media lingvistikasi kurslariga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Zamonaviy media tili til va jamiyat o'rtasidagi eng tezkor aloqa kanali sifatida leksik darajada tinimsiz yangilanishlarga uchraydi. An'anaviy leksikologiyada so'z yasalishi asosan affiksatsiya, so'z qo'shish, konversiya, abbreviatsiya va qisqartma kabi barqaror modellarga tayanadi. Biroq raqamli media muhiti bu modellarga qo'shimcha ravishda gibridlashuv, semantik siljish va grafemik innovatsiyalar kabi zamonaviy tendensiyalarni olib kirdi. Ayniqsa ingliz tilidan boshqa tillarga o'zlashayotgan leksik elementlar media diskursi orqali nafaqat tayyor leksema, balki hosilaviy andoza sifatida ham kirib kelmoqda.Masalan,inglizcha -ing affiksi bilan yasalgan blogging, podcasting, streaming kabi atamalar o'zbek tilida ham moslashgan shaklda faol qo'llanmoqda. Bunday jarayonlar ikki tilli media muhitida so'z yasalishining gibrid modellarini vujudga keltiradi, bunda inglizcha o'zak yoki qolipga o'zbek tilining o'z affikslari qo'shiladi (layk+bosmoq, post+lamoq).

Shu nuqtada inglizcha so'z yasalishini zamonaviy media tili materialida o'rganish ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi:

a) sof ingliz tilidagi media matnlaridagi hosilaviy modellarni tadqiq etish;

b) inglizcha leksik birlik va andozalarning o'zbek tilidagi media diskursiga ko'chishi va moslashuvini tahlil qilish.

Birinchi yo'nalish global miqyosdagi til tendensiyalarini anglab olish imkonini bersa, ikkinchisi mahalliy filologik ta'lim uchun bevosita amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada har ikki yo'nalish uyg'un holda ko'rib chiqildi. Tadqiqot nazariy asosini korpus lingvistikasi, media lingvistikasi va so'z yasalishi tipologiyasi bo'yicha jahon tajribasi tashkil etadi. Ayniqsa, Algeo (1998), Plag (2018) va Mattiello (2017) tomonidan ishlab

chiqilgan so‘z yasalish modellari tasnifi asos qilib olindi va u media diskursi talablariga moslab kengaytirildi.

Tadqiqot metodologiyasi miqdoriy va sifat tahlili tamoyillariga asoslanadi. Bosh material sifatida 2023–2025 yillar davomida ingliz va o‘zbek tillaridagi yetakchi raqamli media manbalaridan reprezentativ matnlar korpusi shakllantirildi. Ingliz tilida The Guardian, BBC News, CNN, BuzzFeed kabi nashrlar, o‘zbek tilida esa Kun.uz, Daryo, Gazeta.uz, Xabar.uz kabi axborot portallari hamda Twitter (X), Telegram kanallari va YouTube izohlari kabi ijtimoiy media platformalari manba vazifasini o‘tadi. Korpusning umumiy hajmi 1,2 million so‘zni tashkil etib, shundan 700 ming so‘z inglizcha, 500 ming so‘z o‘zbekcha matnlarga tegishli.

Asosiy raqamli vosita sifatida Sketch Engine va AntConc korpus lingvistikasi dasturlari tanlandi. Sketch Engine yordamida so‘z yasalishi bilan bog‘liq asosiy leksik birliklarning konkordanslari, kollokatsiyalari va chastota ko‘rsatkichlari aniqlandi. AntConc vositasida esa kalit so‘zlar (Keywords), so‘z birikmalari (Clusters/N-Grams) va so‘z yasalish affikslarining tarqalish xaritalari chiqarildi. Masalan, inglizcha matnlarda -ification, *-er*, -ism, -able kabi hosil qiluvchi qo‘shimchalar, o‘zbekcha matnlarda esa inglizcha o‘zaklarga qo‘shilgan -lash, -moq, -chi kabi milliy affikslarning faolligi avtomatik tarzda hisoblandi. Bundan tashqari, Google Trends va Voyant Tools yordamida leksik birliklarning vaqt bo‘yicha tarqalish dinamikasi vizualizatsiya qilindi. Mazkur raqamli arsenal tadqiqot ob’ektini statistik ishonchlilik bilan qayta ishlash va ilgari sezilishi qiyin bo‘lgan til qonuniyatlarini ochib berish imkonini berdi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy media diskursida inglizcha so‘z yasalishining an’anaviy modellari bilan bir qatorda raqamli muhitga xos yangi tendensiyalar ham yetakchilik qilmoqda. Quyida asosiy topilmalar model asosida guruhlanib taqdim etiladi.

Affiksatsiya: Ingliz tilidagi media matnlarida eng yuqori chastotaga –ism (masalan, wokeism, presenteeism, tech-optimism) va –ification (gamification, clickbaitification, tabloidification) qo‘shimchalari ega bo‘ldi. Ushbu hosilalar ko‘pincha tanqidiy yoki kinoyaviy ohangda yangi ijtimoiy-madaniy hodisalarni nomlaydi. O‘zbek media diskursida esa inglizcha *-er* egalik qo‘shimchali so‘zlar (blogger, vlogger, streamer, influencer) o‘zlashgan holda, ularga o‘zbek tilining -lik affiksi qo‘shilib (bloggerlik, influencerlik) yangi tushunchalarni shakllantirmoqda. Korpus tahlili: “blogger” so‘zi o‘zbek media korpusida 1000 so‘zga 2,4 chastota bilan uchradi va uning “lik” bilan birikishi 68% holatda mavhum ot yasagan.

So‘z qo‘shish va gibrid yasalmalar: Ingliz media diskursida ikki asosni qo‘shish yo‘li bilan yasalgan infotainment (information+entertainment), metaverse (meta+universe), staycation (stay+vacation) kabi qorishiq leksemalar jo‘shqinlik bilan ko‘paymoqda.

O‘zbek tilidagi media matnlarida esa inglizcha-o‘zbekcha gibridlar diqqatni tortdi: layk bosmoq, post qilmoq, storis tashlamoq, chatga yozmoq, tvitterlashmoq, xayp qilmoq kabi birikmalar fe’l yasovchi standart qolipga aylangan. AntConc dasturida qilmoq fe’lining chap kollokatlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng faol ot kollokatlar aynan inglizcha o‘zlashmalardir (post, layk, repost, login, skrinshot, xayp). Bu holat o‘zbek media diskursida inglizcha ot+o‘zbekcha yordamchi fe’l modelining mahsuldor grammatik andozaga aylanganidan dalolat beradi.

Abbreviatsiya va akronimlar: Ingliz media diskursi FOMO (fear of missing out), AMA (ask me anything), GOAT (greatest of all time), TLDR (too long, didn’t read) kabi akronimlarga boy bo‘lib, ularning aksariyati ijtimoiy tarmoq jargonidan ommabop nashrlarga ko‘chmoqda. Qizig‘i shundaki, ushbu birliklarning bir qismi o‘zbek media muhitida aynan o‘zlashtirilgan holda, tushuntirishsiz qo‘llanmoqda, ayniqsa yoshlar auditoriyasiga mo‘ljallangan kontentda. Masalan, FOMO akronimi Kun.uz yoshlar ruknida “fomo hissi” tarzida 2024 yil davomida 12 marta uchragan. Bu raqamli media asrida global leksik tendensiyalarning milliy media diskursiga bevosita va tezkor ta’sirini tasdiqlaydi.

Konversiya (leksik-grammatik transpozitsiya): Ingliz tilidagi media matnlarida brend nomlari va internet platformalarining fe’llashuvi keng tarqalgan: to google, to tweet, to uber, to zoom. O‘zbek matnlarida ham googlamoq, youtubelamoq, telegr(am)lashmoq, skrinshotlamoq kabi fe’llar korpusda ancha yuqori chastota bilan qayd etildi. Mazkur model nutq tejamkorligiga xizmat qiladi va media sarlavhalari hamda qisqa xabarlar uchun nihoyatda qulay.

Chastota va dinamika: Chastota tahlili barcha media manbalarida inglizcha hosilalarning o‘sish trayektoriyasi bir tekis emasligini ko‘rsatdi. Siyosiy va ijtimoiy voqealarga javoban portlashsimon o‘sish kuzatilgan: masalan, lockdown so‘zi 2020 yilda, crypto- asosli neologizmlar 2023 yilda, *AI-* prefiksli yasalmalar (AI-generated, AI-powered) esa 2024–2025 yillarda eng yuqori chastotaga ega bo‘lgan. Voyant Tools vizualizatsiyasi matndan davrga qarab leksik to‘lqinlarni aniq namoyish etdi.

Yuqoridagi tahlillar shuni isbotlaydiki, inglizcha so‘z yasalishi nafaqat ingliz medialari uchun, balki o‘zbek media diskursi uchun ham faol manba bo‘lib, raqamli texnologiyalar bu hodisalarni obyektiv, miqdoriy va qiyosiy o‘rganish uchun tengsiz imkoniyat yaratadi.

Olingan natijalarning filologik ta’lim uchun ahamiyati to‘rt jihatda namoyon bo‘ladi: kontentni yangilash,metodikani transformatsiya qilish,talaba kompetensiyalarini kengaytirish va baholash tizimini takomillashtirish.

Birinchidan, tadqiqotda yig‘ilgan zamonaviy media matnlari va ular asosida tuzilgan inglizcha neologizmlar hamda gibrid yasalmalar ro‘yxati “Leksikologiya”,“Media

lingvistikasi”,“Tarjima amaliyoti” fanlari uchun doimiy yangilanib boruvchi jonli material bazasini tashkil etadi. An’anaviy darsliklardagi akademik misollar o‘rnini real, bugungi kunda faol ishlatilayotgan leksik birliklar egallaydi. Misol uchun, talaba -able suffiksal modelini o‘rganar ekan, bir vaqtning o‘zida bankable, bingeable, clickable kabi media neologizmlarini korpus ekranida ko‘ra oladi.

Ikkinchidan, tadqiqot davomida qo‘llanilgan Sketch Engine va AntConc dasturlari bilan ishlash bo‘yicha modulli amaliy mashg‘ulotlar ishlab chiqildi. Talabalar o‘zlari mustaqil ravishda kichik miqyosdagi media korpusini shakllantirib, so‘z yasalish modellarini tadqiq etishlari mumkin. Bu ularning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantiradi. Masalan, “O‘zbek youtube sarlavhalarida inglizcha fe’l o‘zaklarining faolligi” yoki “Ijtimoiy tarmoqlarda -lash affiksining mahsuldorligi” kabi amaliy loyihalar talabalarning mustaqil ilmiy ishiga aylantirildi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida interfaol vizualizatsiya mashg‘ulotlari joriy etildi. Voyant Tools da dinamil leksik trendlar grafigini kuzatish, Google Trends da so‘z mashhurlik indeksini taqqoslash talabalarda tilga nisbatan tadqiqiy qiziqishni oshiradi. Sinov tariqasida o‘tkazilgan tajriba mashg‘ulotlari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning 82 foizi raqamli vositalar bilan ishlash dars mazmunini yanada tushunarli va esda qolarli qilganini ta’kidladi.

To‘rtinchidan, bunday yondashuv baholash tizimini ham yangilashni taqozo etadi. An’anaviy test va og‘zaki so‘rovdan tashqari talabalarning o‘zlari shakllantirgan korpus va uning lingvistik tahlili asosida tayyorlangan portfolio, loyiha hisoboti yoki mini-tadqiqot maqolasi yakuniy nazoratning asosiy shakliga aylanishi mumkin. Bu esa filologik ta’limni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi.

Shunday qilib, inglizcha so‘z yasalishining zamonaviy media diskursidagi faoliyatini raqamli texnologiyalar orqali o‘rganish va o‘qitish nafaqat filologik bilimlarni boyitadi, balki talabalarni axborot asrida zarur bo‘lgan analitik fikrlash, ma’lumotlarni qayta ishlash va mustaqil tadqiqot olib borish malakalari bilan qurollantiradi. Ushbu maqolada tavsiya etilgan raqamli-metodik platforma boshqa tillar materialida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal model sifatida ilmiy-amaliy qimmatga ega.

Xulosa: Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u birinchi marta o‘zbek va ingliz tillaridagi zamonaviy media materialini raqamli korpus lingvistikasi metodlari bilan qiyosiy o‘rganib, inglizcha so‘z yasalish modellarining media diskursidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berdi. Ishning amaliy qimmati taklif etilgan raqamli-metodik platformaning filologiya yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida bevosita qo‘llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: birinchidan, taklif etilgan raqamli yondashuvni boshqa tillar (rus, turk, qozoq)

media diskursi materialida sinovdan o‘tkazish; ikkinchidan, sun’iy intellekt vositalari, xususan, katta til modellari (LLM) yordamida neologizmlarni avtomatik aniqlash va tasniflash imkoniyatlarini o‘rganish; uchinchidan, media tilidagi so‘z yasalishi jarayonlarining sotsiolingvistik omillar bilan bog‘liqligini chuqurroq tadqiq etish. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy tilshunoslik va filologik ta’limning raqamli transformatsiyasiga qo‘shilgan navbatdagi muhim hissa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Algeo J. The Cambridge History of the English Language: English in North America. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 456 p.
2. Plag I. Word-Formation in English. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 262 p.
3. Mattiello E. Analogy in Word Formation: A Study of English Neologisms and Occasionalisms. – Berlin: De Gruyter Mouton, 2017. – 320 p.
4. Bauer L. English Word-Formation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 312 p.
5. Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. – London: Routledge, 2011. – 192 p.
6. Durkin P. Borrowed Words: A History of Loanwords in English. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 512 p.
7. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 312 p.
8. Ruzmuratova A. A Corpus-Based Study of Recent Neologisms in Uzbek and English Digital Discourse // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, Issue 6, Part 3. – P. 72–75. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15721782
9. Afandi F., Yaomil M., Abubakar M. Morphological Analysis of Word Formation Found in BBC News Articles // Proceedings of the Third National Seminar on English Language Teaching (NELT 2025). – Makassar: Universitas Islam Negeri Alauddin, 2025. – 19 p.
10. Sharipova S. Lexical-Semantic Classification of Neologisms in Media Discourse // Pubmedia Jurnal Pendidikan Bahasa Inggris. – 2024. – № 1. – P. 7–18.

© Yusupova Gulzoda Umrzoq qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Yusupova Gulzoda Umrzoq qizi

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON LINGUISTIC ANALYSIS PROCESSES IN PHILOLOGICAL EDUCATION

Ergashova Muhayyo Shosaid qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti filologiya va tillarni o'qitish, ingliz tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Ezoza Kilichova

Navoiy innovatsiyalar universiteti filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi o’qituvchisi

Abstract

Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining filologik ta’limda lingvistik tahlil jarayonlariga ta’siri o‘rganiladi. Asosiy e’tibor tabiiy tilni qayta ishlash, mashinaviy o‘rganish va avtomatik tarjima tizimlariga qaratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt lingvistik tahlilning aniqligi va tezligini oshirib, ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi. Shuningdek, maqolada ushbu texnologiyalarning afzalliklari bilan bir qatorda mavjud cheklovlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, lingvistik tahlil, NLP, filologik ta’lim, mashinaviy o‘rganish, avtomatik tarjima

Abstract

This article explores the impact of artificial intelligence technologies on linguistic analysis processes in philological education. It focuses on natural language processing, machine learning, and automated translation systems. The findings demonstrate that AI enhances the accuracy and efficiency of linguistic analysis while fostering innovative approaches in education. The study also examines both the advantages and limitations of these technologies.

Keywords: artificial intelligence, linguistic analysis, NLP, philological education, machine learning, automated translation

Аннотация

В статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на процессы лингвистического анализа в филологическом образовании. Основное внимание уделяется обработке естественного языка, машинному обучению и системам автоматического перевода. Результаты показывают, что ИИ повышает

точность и эффективность анализа, а также способствует внедрению инновационных методов обучения. В работе также анализируются преимущества и ограничения данных технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, лингвистический анализ, NLP, филологическое образование, машинное обучение, автоматический перевод

Introduction

The integration of artificial intelligence (AI) into education has become one of the defining features of the 21st century. Philological education, which traditionally relies on manual text analysis and theoretical interpretation, is now undergoing a transformation due to digital technologies. Linguistic analysis, a core component of philology, involves examining language structures, meanings, and usage patterns. These processes often require significant time, effort, and expertise.

With the emergence of AI technologies, particularly natural language processing (NLP), many aspects of linguistic analysis have been automated and optimized. AI tools allow researchers and students to process vast amounts of textual data, identify patterns, and generate insights more efficiently than ever before. This transformation is not only technological but also methodological, as it introduces new approaches to language study.

Main Body

1. Evolution of Linguistic Analysis in the Digital Era

Traditionally, linguistic analysis was conducted manually, involving close reading and interpretation of texts. While this approach remains valuable, it is limited in handling large-scale data. The digital era has introduced corpus linguistics, where large collections of texts are analyzed systematically.

Artificial intelligence has further expanded this field by enabling automated corpus analysis. AI-driven tools can process millions of words within seconds, providing statistical insights into language usage. This has led to a shift from purely qualitative analysis to a combination of qualitative and quantitative methods.

2. Natural Language Processing as a Core Technology

Natural Language Processing (NLP) is central to the application of AI in linguistics. It includes various techniques such as tokenization, part-of-speech tagging, parsing, and semantic analysis. These processes allow computers to interpret human language in a structured way.

In philological education, NLP tools are used to analyze literary texts, identify stylistic features, and examine linguistic patterns. For example, students can explore how specific grammatical structures are used in different contexts or how meaning changes depending on syntax and semantics.

3. Machine Learning and Pattern Recognition

Machine learning algorithms enable systems to learn from data and improve over time. In linguistic analysis, these algorithms are used to detect patterns, classify texts, and predict language behavior.

For instance, machine learning models can distinguish between different genres, authors, or dialects based on linguistic features. This is particularly useful in stylistics and authorship attribution studies. Moreover, machine learning enhances error detection systems, making them more accurate and context-aware.

4. The Role of AI in Translation and Multilingual Studies

Automated translation systems have significantly impacted philological education. Neural machine translation models provide high-quality translations that are often close to human performance. These systems help students understand complex texts in foreign languages and compare linguistic structures across languages.

Furthermore, AI facilitates multilingual analysis by enabling cross-linguistic comparisons. This supports research in contrastive linguistics and translation studies, broadening the scope of philological inquiry.

5. AI in Writing and Stylistic Analysis

AI tools are increasingly used for writing assistance and stylistic evaluation. They can analyze sentence structure, vocabulary usage, coherence, and tone. Such tools provide suggestions for improvement, helping students develop better writing skills.

In addition, stylistic analysis tools allow researchers to examine literary works from new perspectives. By analyzing patterns of word choice, sentence length, and rhetorical devices, AI can uncover hidden features of texts that may not be immediately visible through manual analysis.

6. Pedagogical Implications of AI Integration

The integration of AI into philological education has significant pedagogical implications. It promotes interactive learning, encourages independent study, and provides immediate feedback. Students can engage with language data more actively and develop analytical skills through hands-on experience.

However, educators must ensure that AI is used as a supportive tool rather than a replacement for critical thinking. Teaching strategies should combine traditional methods with technological innovations to achieve the best outcomes.

7. Challenges, Ethical Issues, and Limitations

Despite its advantages, AI presents several challenges. One major issue is the limited ability of AI systems to fully understand context, especially in literary and culturally rich texts. Idiomatic expressions, metaphors, and cultural references may be misinterpreted.

Ethical concerns also arise, including data privacy, algorithmic bias, and over-reliance on technology. Students may become dependent on AI tools, reducing their ability to perform independent analysis.

Therefore, it is essential to develop guidelines for the responsible use of AI in education and ensure that human expertise remains central to linguistic studies.

Conclusion

Artificial intelligence technologies have brought significant changes to linguistic analysis in philological education. They have improved efficiency, accuracy, and accessibility, enabling both students and researchers to work with language data more effectively. AI supports various aspects of linguistic study, including corpus analysis, translation, and stylistics.

At the same time, it is important to recognize the limitations and challenges associated with these technologies. A balanced approach that integrates AI with traditional linguistic methods will ensure sustainable and meaningful development in philological education. As AI continues to evolve, its role in shaping the future of language studies will become even more prominent

REFERENCES

Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and Language Processing (3rd ed.). Stanford University Press.

Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.

Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.

Chomsky, N. (2015). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.

Manning, C. D., & Schütze, H. (1999). Foundations of Statistical Natural Language Processing. MIT Press.

Bird, S., Klein, E., & Loper, E. (2009). Natural Language Processing with Python. O'Reilly Media.

© Ergashova Muhayyo Shosaid qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ergashova Muhayyo Shosaid qizi

INGLIZ TILI DARSLARIDA FLIPPED CLASSROOM (TESKARI SINF) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI HAMDA UNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.

Alimova Nafisa Abduhakimovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'quvchisi

Tel: +998919869192
Email: alimovanafiss@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili darslarida *flipped classroom* (teskari sinf) texnologiyasidan foydalanishning pedagogik va didaktik jihatlari atroflicha yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mazkur innovatsion yondashuvning o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish, til kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, kontekstual va metodik yondashuvlardan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, flipped classroom modeli o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi hamda ularning kommunikativ, lingvistik va interaktiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, darslarning interaktivligini va samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari flipped classroom texnologiyasining zamonaviy ta'lim tizimidagi muhim o'rni va ingliz tili o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi rolini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: flipped classroom, ingliz tili o'qitish, innovatsion texnologiyalar, mustaqil ta'lim, kommunikativ kompetensiya, interaktiv ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация

В данной статье анализируется педагогическое и дидактическое значение применения технологии flipped classroom (перевернутый класс) в процессе обучения английскому языку. Основная цель исследования заключается в выявлении роли данного инновационного подхода в развитии навыков самостоятельного обучения учащихся, формировании языковых компетенций и повышении эффективности образовательного процесса. В ходе исследования были использованы методы педагогического наблюдения, сравнительного анализа, а также контекстуальный и методический подходы. Результаты показали, что модель flipped classroom способствует превращению учащихся в активных участников учебного процесса и развитию их коммуникативных, лингвистических и

интерактивных компетенций. Кроме того, данная технология укрепляет взаимодействие между учителем и учеником, делая занятия более интерактивными и результативными. Полученные данные подтверждают важность использования flipped classroom в современной системе образования и его значимую роль в совершенствовании методики преподавания английского языка.

Ключевые слова: flipped classroom, преподавание английского языка, инновационные технологии, самостоятельное обучение, коммуникативная компетенция, интерактивное обучение, педагогические технологии.

Abstract

This article explores the pedagogical and didactic aspects of applying flipped classroom technology in English language teaching. The main objective of the study is to determine the role of this innovative approach in enhancing students’ independent learning skills, developing language competencies, and improving the overall effectiveness of the educational process. The research is based on pedagogical observation, comparative analysis, as well as contextual and methodological approaches. The findings indicate that the flipped classroom model turns students into active participants in the learning process and promotes the development of their communicative, linguistic, and interactive competencies. Furthermore, this approach strengthens teacher–student collaboration and increases the interactivity and efficiency of lessons. The results confirm the significance of flipped classroom in modern education and its important role in advancing English language teaching methodology.

Keywords: flipped classroom, English language teaching, innovative technologies, independent learning, communicative competence, interactive learning, pedagogical technologies.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, flipped classroom (teskari sinf) modeli an’anaviy ta’lim yondashuvlariga muqobil sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu modelda nazariy materiallar darsdan tashqari o‘rganilib, amaliy mashg‘ulotlar esa dars jarayonida bajariladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning faol ishtirokini ta’minlash hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktivlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi flipped classroom texnologiyasining ingliz tili darslaridagi pedagogik va didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uning ta’lim samaradorligiga ta’sirini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Flipped classroom texnologiyasi so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu borada turli ilmiy yondashuvlar shakllangan. O‘zbek olimlaridan N.Xoliqov [1;45] innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini yoritib, flipped classroom modelining o‘quvchilar faolligini oshirishdagi rolini ta’kidlaydi. M.Yo‘ldoshev [2;63] esa mustaqil ta’limni rivojlantirishda zamonaviy metodlarning ahamiyatini ko‘rsatib, ushbu modelning samaradorligini asoslaydi. Sh.Qurbonova [3;28] interaktiv ta’lim metodlarini tahlil qilib, flipped classroomning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ochib beradi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Jonathan Bergmann va Aaron Sams [4;78] flipped classroom modelining asoschilari sifatida ushbu yondashuvning amaliy qo‘llanilish mexanizmlarini batafsil yoritgan. Lage, Platt va Treglia [5;32] ushbu modelning individual o‘rganish uslublariga moslashuvchanligini asoslab beradi. Bishop va Verleger [6;15] esa flipped classroomning samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilib, uning o‘quv natijalariga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Strayer [7;89] ushbu modelning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda flipped classroom texnologiyasining samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodlar qo‘llanildi. Pedagogik kuzatuv orqali ingliz tili darslarida ushbu modelning qo‘llanish jarayoni tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida an’anaviy va flipped classroom asosidagi darslarning natijalari solishtirildi. Metodik yondashuv asosida o‘quvchilarning til kompetensiyalarini shakllantirish jarayonidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Shuningdek, kontekstual tahlil orqali o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari aniqlashtirildi. Diskursiv yondashuv yordamida esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktivlik hamda kommunikativ jarayonlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, flipped classroom modeli ingliz tili darslarida yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasini oshiradi va ularni faol o‘rganishga undaydi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida o‘z bilimlarini chuqurlashtiradi hamda dars jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ayniqsa, kommunikativ mashqlar, guruhli ishlash va muhokamalar orqali ularning nutqiy faoliyati sezilarli darajada rivojlandi. Bundan tashqari, flipped classroom modeli o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari flipped classroom texnologiyasining zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Adabiyotlar sharhida keltirilgan ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda, ushbu yondashuv o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, flipped classroom modelini ingliz tili o'qitish jarayoniga joriy etish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda ushbu model ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, flipped classroom texnologiyasi ingliz tili o'qitish metodikasini modernizatsiya qilishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqov, N. (2019). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan.
2. Yo'ldoshev, M. (2020). Mustaqil ta'lim metodlari. Toshkent: O'qituvchi.
3. Qurbonova, Sh. (2021). Interaktiv ta'lim asoslari. Toshkent: Innovatsiya.
4. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip your classroom. ISTE.
5. Lage, M. J., Platt, G. J., & Treglia, M. (2000). Inverting the classroom. Journal of Economic Education.
6. Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). The flipped classroom: A survey. ASEE Conference Proceedings.
7. Strayer, J. F. (2012). How learning in an inverted classroom influences cooperation. Learning Environments Research.

© , 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QO'SHMA ERGASH GAPLARNING STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

(J.K. ROULING HIKOYALARI VA O'ZBEK NASRI ASOSIDA)

Raxmonova Iqbol Sadritdinova

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Lingvistika (Ingiliz tili) Magistranti

Email: iqbolraxmonova081@gmail.com

Telefon: +998933129946

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma ergash gaplarning strukturaviy xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, J.K.Roulingning inglizcha badiiy matnlari va o'zbek nasriy asarlari materialida olib borilgan. Maqsad — ikki tildagi qo'shma ergash gaplarning sintaktik tuzilishi, bog'lovchi vositalari va grammatik shakllari nuqtayi nazaridan o'xshashlik va farqlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalaridan qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va ingliz tilini o'qitish metodikasida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: qo'shma ergash gap; strukturaviy xususiyat; sintaktik tuzilma; bog'lovchi vositalar; qiyosiy tilshunoslik; J.K.Rouling; o'zbek nasri; tipologik tahlil.

Kirish

Tilshunoslikda qo'shma ergash gaplar murakkab sintaktik qurilmalar sifatida alohida o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Qo'shma ergash gap — bu tarkibida bir bosh gap va bir yoki bir nechta ergash gaplardan iborat bo'lgan, ular o'rtasidagi mantiqiy-semantik munosabatlar bog'lovchi vositalar yoki maxsus fe'l shakllari orqali ifodalanadigan sintaktik birlikdir. Ingliz va o'zbek tillari tipologik jihatdan tubdan farq qiladi: ingliz tili analitik, o'zbek tili esa sintetik til sifatida tavsiflanadi [1, 2]. Shu sababli ushbu ikki tildagi qo'shma ergash gaplarning tuzilishi ham o'ziga xos bo'lib, qiyosiy tahlil ko'p jihatdan qiziqarli natijalarga olib keladi.

J.K.Roulingning «Garri Potter» seriyasi matnlari sintaktik konstruksiyalarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi: unda aniqlovchi, izohlovchi, shart, payt, sabab, to'siqli va natija ergash gaplar keng qo'llaniladi. O'zbek nasri esa o'zining sintetik qurilmasi, sifatdosh va

ravishdosh shakllari bilan ifodalangan ergash gaplar tizimi nuqtayi nazaridan mustaqil lingvistik manba sifatida ilmiy qiymatga ega [3].

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: qiyosiy-tipologik tahlil, kontrastiv tahlil va korpus lingvistikasi metodlari. Manba sifatida J.K.Roulingning ingliz tilidagi «Garri Potter» seriyasi (1997–2007) va zamonaviy o'zbek adiblarining — O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod, Xurshid Do'stmuhammad asarlari tanlab olingan. Namunaviy gaplar strukturaviy toifalash, semantik tahlil va qiyoslash mezonlari asosida tahlil qilingan [4].

Tadqiqotda qo'shma ergash gaplar quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilingan: (1) bog'lovchi vositalar turi; (2) ergash gapning asosiy gapga nisbatan pozitsiyasi (prepozitsiya, postpozitsiya, intrapozitsiya); (3) semantik kategoriya (vaqt, sabab, shart, to'siq, maqsad, natija, aniqlovchi); (4) grammatik ifodalanish usuli.

Natijalar

Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilidagi qo'shma ergash gaplarda that, which, who, when, where, because, although, if, since, so that, unless kabi bog'lovchilar markaziy sintaktik funksiyani bajaradi va grammatik munosabatni aniq ifodalaydi. Ular doim aniq sintaktik pozitsiyani egallaydi [5].

O'zbek tilida esa ergashish quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi: (a) -gan, -ayotgan, -adigan shakllaridagi sifatdoshlar aniqlovchi ergash gaplarni ifodalaydi; (b) -b, -a, -gach, -guncha shakllaridagi ravishdoshlar payt, shart va to'siqli ergash gaplar funksiyasini bajaradi; (c) ki, chunki, agar, garchi, lekin, ammo kabi bog'lovchilar ham qo'llaniladi, biroq ular ingliz tilidagiga nisbatan kamroq ixtisoslashgan [6].

Rouling asarlarida postpozitsiya (ergash gap bosh gapdan keyin kelishi) ustunlik qiladi, masalan: «She knew that the letter was important» yoki «Harry ran as fast as he could». O'zbek nasrida esa prepozitsiya (ergash gap bosh gapdan oldin kelishi) ko'proq uchraydi: «Xat muhim ekanligini bilib...», «Qo'lidan kelgancha yugurib...» [7].

Tahlil va muhokama

Ingliz tilida analitik tuzilma qo'shma ergash gaplarning har bir qismini bog'lovchi vosita orqali aniq chegaralaydi va sintaktik funksiyani ravshanlashtiradi. Bu xususiyat Rouling matnlarida ayniqsa yaqqol ko'rinadi: «Although the night was dark, Harry pressed on because he had no choice». Bu gapda although to'siqli, because sabab-natija ergash gapni ifodalaydi va ikkalasi ham prepozitsiya/postpozitsiyada aniq belgiliangan [8].

O'zbek tilida sintetik tuzilma grammatik munosabatni fe'l shakllarining o'zida mujassamlashtiradi. Masalan: «Kecha qorong'u bo'lsa-da, Harry davom etdi, chunki boshqa iloji yo'q edi» jumlasida bo'lsa-da to'siqli, chunki sabab munosabatini ifodalaydi. O'zbek tarjimasida ingliz tilidagi qo'shma ergash gaplar odatda ikki yo'l bilan moslashtiriladi: (1) konstruksiyani saqlab, o'zbek ekvivalenti bilan almashtirish yoki (2) murakkab tuzilmani oddiy gaplariga ajratish [2, 9].

Semantik toifalar tahlili shuni ko'rsatadiki, payt ergash gaplari (when, as soon as — …gach, …guncha) ikkala tilda ham eng ko'p uchraydi. Shart ergash gaplari (if — agar) va aniqlovchi ergash gaplar (which, that — sifatdosh shakllari) ham keng tarqalgan. Maqsad ergash gaplari (so that, in order to — uchun, deb) va to'siqli ergash gaplar (although, even though — garchi, bo'lsa-da) esa ikkala tilda ham mohiyatan bir xil semantik munosabatni ifodalaydi, ammo grammatik vositalar tamoman boshqacha [5, 6].

Xulosa

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma ergash gaplarning strukturaviy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali bir qator muhim xulosalarga keldi. Birinchidan, ingliz tilida qo'shma ergash gaplar bog'lovchi vositalarga asoslangan analitik tuzilma bilan ajralib tursa, o'zbek tilida fe'lning sifatdosh va ravishdosh shakllari markaziy o'rinni egallaydi. Ikkinchidan, gapning tuzilishi jihatidan ingliz tilida postpozitsiya, o'zbek tilida esa prepozitsiya ustunlik qiladi. Uchinchidan, J.K.Rouling nasridan olingan namunalar ingliz tilidagi analitik sintaksisning boy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi, o'zbek tarjimalarida esa strukturaviy moslashtirishning zaruriy xarakteri aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va ingliz tilini o'zbek auditoriyasiga o'qitish metodikasi uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda korpus ma'lumotlarini kengaytirish va neyrolingvistik metodlardan foydalanish yanada chuqur ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985. – pp. 993–1040.

2. Saidov M. O'zbek tilining sintaksisi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 280 b.

3. Rowling J.K. Harry Potter and the Philosopher's Stone. – London: Bloomsbury, 1997. – 223 p.

4. Rowling J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury, 1998. – 251 p.

5. Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – pp. 1220–1310.

6. Yo'ldoshev B. O'zbek tilida ergash gaplar tizimi. – Toshkent: Fan, 2008. – 190 b.

7. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2005. – 320 b.

8. Murod T. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 280 b.

9. Abjalova M., Gulomova N. Alisher Navoi and the Third Renaissance Period // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4. – 2023. – pp. 111–115.

10. Do'stmuhammad X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 240 b.

11. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. – Oxford: Blackwell, 1981. – pp. 53–81.

12. Givón T. Syntax: A Functional-Typological Introduction. Vol. II. – Amsterdam: John Benjamins, 1990. – pp. 820–865.

© Raxmonova Iqbol Sadritdinova, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Raxmonova Iqbol Sadritdinova

O'ZBEK BOLALAR PUBLITSISTIK MATNLARIDA PRESUPPOZITSIYA VA PRAGMATIK IMPLIKATURADA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Nasiba Jumayevna YARASHOVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti professori, f.f.d. (DSc)

Dilfuza Baxtiyar qizi XOLBEKOVA,

NIU 70230101 – Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek bolalar publitsistik matnlarida presuppozitsiya va pragmatik implikatura hodisalarining o'rni tahlil qilinadi. Pragmatics nuqtayi nazaridan ushbu lingvistik vositalarning bolalar tafakkuriga ta'siri, ularning yashirin ma'no ifodalashdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy Artificial Intelligence texnologiyalarining mazkur jarayonlarni tahlil qilish va matn yaratishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida presuppozitsiya va implikatura bolalar uchun mo'ljallangan matnlarning samaradorligini oshiruvchi muhim omillar ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: presuppozitsiya, pragmatik implikatura, bolalar matni, publitsistika, sun'iy intellekt, pragmatika.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PRESUPPOSITION AND PRAGMATIC IMPLICATURE IN UZBEK CHILDREN'S PUBLICISTIC TEXTS

Abstract. This article analyzes the role of presupposition and pragmatic implicature in Uzbek children's journalistic texts. From the perspective of Pragmatics, the study examines how these linguistic phenomena influence children's thinking and convey implicit meanings. In addition, the role of Artificial Intelligence in analyzing such texts and generating child-friendly content is discussed. The findings show that presupposition and implicature are essential tools for enhancing the effectiveness of children's journalistic texts.

Keywords: presupposition, pragmatic implicature, children's texts, journalism, artificial intelligence, pragmatics.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕСУППОЗИЦИИ И ПРАГМАТИЧЕСКОЙ ИМПЛИКАТУРЕ В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ УЗБЕКСКИХ ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируется роль пресуппозиции и прагматической импликатуры в узбекских детских публицистических текстах. С

точки зрения Прагматика рассматривается влияние этих явлений на мышление детей и их роль в передаче скрытого смысла. Также освещается значение технологий Artificial Intelligence в анализе и создании текстов для детей. В результате исследования установлено, что пресуппозиция и импликатура являются важными средствами повышения эффективности детских публицистических текстов.

Ключевые слова: пресуппозиция, прагматическая импликатура, детские тексты, публицистика, искусственный интеллект, прагматика.O‘zbek bolalar publitsistik matnlarida presuppozitsiya va pragmatik implikaturada sun’iy intellektning o‘rni

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda matnni chuqur tahlil qilish, ayniqsa bolalar uchun mo‘ljallangan publitsistik matnlarni o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Pragmatika sohasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan pragmatika til birliklarining yashirin ma’nolari, kontekst va nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Xususan, presuppozitsiya va pragmatik implikatura bolalar publitsistik matnlarining mazmuniy chuqurligini belgilovchi asosiy vositalardan biridir[1].

Presuppozitsiya — bu gapda bevosita ifodalanmagan, lekin mavjud deb qabul qilinadigan ma’lumotdir. Bolalar publitsistik matnlarida presuppozitsiya ko‘pincha o‘quvchining oldingi bilimlariga tayanadi. Masalan, “U yana yaxshi ish qildi” kabi jumlada bolaning ilgari ham yaxshi ish qilgani nazarda tutiladi. Bu esa matnni qisqa, lo‘nda va ta’sirchan qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, presuppozitsiya orqali muallif bolalarda ma’lum ijtimoiy va axloqiy tushunchalarni shakllantirishga intiladi[2]. Presuppozitsiya haqida yana bir muhim jihat shundaki, u matnni ortiqcha izohsiz tushunarli qilish mexanizmi sifatida ishlaydi. Ya’ni muallif hamma narsani ochiq aytmaydi, balki o‘quvchining bilimiga “ishonadi”. Shu sababli presuppozitsiya — bu nafaqat lingvistik hodisa, balki kognitiv (tafakkurga oid) jarayon ham hisoblanadi. Masalan, “Aziza yana savolda adashmadi” jumlasida nafaqat u xato qilmaganligi, balki ilgari ham to‘g‘ri javob bergani presuppozitsiya sifatida mavjud. Bu orqali matn qisqaradi, lekin mazmun boyiydi Bular “yana”, “ham”, “to‘xtadi”, “boshladi”, “davom etdi” kabi birliklar bo‘lib, ular oldingi holat mavjudligini yashirin tarzda bildiradi[3]. Bolalar matnlarida esa presuppozitsiya tarbiyaviy vosita sifatida ishlaydi. Masalan, “U yana kattalarga yordam berdi” jumlasi bolaga yordam berish odatiy va ijobiy xulq ekanini bilvosita singdiradi.Shuningdek, presuppozitsiya noto‘g‘ri tushunilsa, matnni anglashda xatolik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli uni tahlil qilish pragmatikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bu yo‘nalish Herbert Paul Grice nazariyalari bilan ham chambarchas bog‘liq[4].

Pragmatik implikatura esa nutqda bevosita aytilmagan, lekin kontekst orqali anglashiladigan yashirin ma’nodir. Bolalar uchun yozilgan publitsistik matnlarda

implikatura tarbiyaviy maqsadlarda keng qo'llanadi. Masalan, qahramonning xatti-harakati orqali "yaxshi bo'lish kerak" degan xulosa beriladi, lekin bu fikr ochiq aytilmaydi. Bu usul bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va matnni yanada qiziqarli qiladi. Pragmatik implikatura nutqda bevosita aytilmagan, lekin kontekst orqali anglashiladigan yashirin ma'no hisoblanadi. U gapning grammatik tuzilishidan emas, balki nutq vaziyati, ohang va umumiy kontekstdan kelib chiqib tushuniladi. Shu jihati bilan u presuppozitsiyadan farq qiladi, chunki implikatura odatda muallifning bilvosita maqsadini ifodalaydi. Masalan, "Sinf juda shovqin bo'lyapti" jumlasida hech qanday buyruq berilmagan bo'lsa-da, tinglovchi bundan "jim bo'ling" degan ma'noni anglaydi. Bu — pragmatik implikaturaning yaqqol namunasidir. Bolalar publitsistik matnlarida implikatura ayniqsa muhim, chunki u o'quvchini tayyor xulosa bilan emas, balki mustaqil fikrlash orqali ma'noni topishga undaydi. Bu esa bolalarning mantiqiy tafakkurini va matnni chuqur tushunish qobiliyatini rivojlantiradi[5]. Shuningdek, implikatura ko'pincha tarbiyaviy maqsadlarda qo'llanadi. Masalan, "Kitob o'qigan bola ko'p narsani biladi" jumlasi ochiq buyruq bermasa-da, "kitob o'qish kerak" degan yashirin tavsiyani bildiradi[6].

Bugungi kunda bu jarayonlarni o'rganishda va rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, "Natural Language Processing" (tabiiy tilni qayta ishlash) yo'nalishi orqali matnlarning semantik va pragmatik qatlamlarini tahlil qilish imkoniyati kengaydi[7]. Sun'iy intellekt yordamida matndagi presuppozitsiyalar aniqlanadi, implikaturalarning yashirin ma'nolari ochib beriladi va matnning umumiy kommunikativ maqsadi tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt bolalar publitsistik matnlarini yaratishda ham muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. U murakkab fikrlarni soddalashtirib, yosh o'quvchilarga mos shaklda ifodalashga yordam beradi. Bundan tashqari, SI asosida yaratilgan tizimlar o'quvchilarga matnni tushunishda interaktiv yordam ko'rsatib, savol-javoblar orqali implikatura va presuppozitsiyalarni anglashni osonlashtiradi. Biroq, sun'iy intellektdan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, u har doim ham kontekstni to'liq anglay olmaydi yoki milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olmasligi mumkin[8]. Bu esa ba'zan noto'g'ri talqinlarga olib keladi. Shuning uchun SI imkoniyatlaridan foydalanishda inson nazorati va lingvistik bilimlar muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda presuppozitsiya va implikaturaga namunalar, ularning yashirin ma'nosi hamda izohlar keltirilgan.

Turi	Misollardan namunalar	Yashirin ma'no (tahlil)	Izoh
Presuppozitsiya		Dilshod ilgari ham g'olib bo'lgan.	

	“Dilshod yana musobaqada g‘olib bo‘ldi.”		“yana” so‘zi oldingi holat mavjudligini bildiradi.
Presuppozitsiya	“U maktabga kechikishni to‘xtatdi.”	U ilgari maktabga kechikib kelgan.	“to‘xtatdi” fe’li oldingi harakatni anglatadi.
Presuppozitsiya	“Bolalar yana kitob o‘qishga qiziqa boshladi.”	Oldin ham qiziqish bo‘lgan.	Oldingi tajriba yashirin holda berilgan.
Implikatura	“Sinf juda shovqin bo‘lyapti.”	“Jim bo‘linglar” degan ishora.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq berilmagan.
Implikatura	“Bugun uy vazifasi ham bor ekan.”	“Uni bajarish kerak” degan ma’no.	Yashirin majburiyat ifodasi.
Implikatura	“Kitob o‘qigan bola ko‘p narsani biladi.”	“Sen ham kitob o‘qi” degan undov	Tarbiyaviy implikatura mavjud
SI (tahlil)	SI matndan “yana”, “to‘xtatdi” kabi birliklarni ajratadi	Presuppozitsiyani avtomatik aniqlaydi.	‘‘Natural Language Processing‘‘ orqali amalga oshadi.
SI (yaratish)	SI bolalar uchun: “Halol bola doim hurmat topadi”	Yashirin tarbiyaviy implikatura beradi	‘‘Artificial Intelligence‘‘ matn generatsiyasi

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa bolalar uchun mo‘ljallangan publitsistik matnlarni tahlil qilishda pragmatik yondashuv muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Presuppozitsiya va pragmatik implikatura matnning nafaqat yuzaki mazmunini, balki uning ichki, yashirin qatlamlarini ham ochib beruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Ular orqali muallif o‘z fikrini qisqa, lo‘nda va ta’sirchan tarzda yetkazadi, shu bilan birga o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi. Shu bilan birga, ‘‘Natural Language Processing‘‘ asosidagi sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt matn tarkibidagi yashirin ma’nolarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotlar sifatini oshiradi, balki ta’lim jarayonida ham innovatsion yondashuvlarni joriy etishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova, M., & Gulomova, N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences, Vol. 4 (2023), pp. 111–115.
2. Abjalova, M., & Gulomova, N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 182–187. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.
3. M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.
4. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford University Press, 1962.
5. Fairclough, N.Discourse and Social Change. Polity Press, 1992.
6. Hudayberganov, B. Tilshunoslikka kirish.Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2010. – 312 b.
7. Levinson, S. C. Pragmatics.Cambridge University Press, 1983.
8. Mahmudov, N. Til va nutq madaniyati. Toshkent: Fan, 2005. – 210 b.
9. Nurmonov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 380 b.
10. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008. – 225 b.
11. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press, 1969.
12. Sirojiddinov, S., Abjalova, M., Normamatov, S., & Gulomova, N. "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus." 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48–53. DOI: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

13. Yarashova N. SOCIOPRAGMATIC STUDY OF HISTORICAL WORDS // Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1216-1219.

14. Yarashova N. METAPHORS AS METHODOLOGICAL TOOLS (IN THE EXAMPLE OF ABDULLA ORIPOV'S POETRY) //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1220-1223.

15. Yarashova N. DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1093-1095.

16. Yarashova N. J. TARIXIY SO'ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI. – 2024.

17. Madraimov, A., Isakulova, N., Xoshimova, D., Rasulova, I., Kurbaniyozova, R., & Yarashova, N. (2025, April). Chrono Linguistic Modelling through AI Driven Conceptual Frameworks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

18. Yarashova, Nasiba Jumaevna. "Linguopsychological Characteristics of Children's Quasidological Speech."

19. Yarashova, Nasiba. "DYSLALIA AND ITS OCCURRENCE." Modern Science and Research 2.10 (2023): 1093-1095.

20. Jumaevna, Nasiba Yarashova. "Psychological Characteristics of Preschool Children." International Journal of Human Computing Studies 4.2 (2022): 24-29.

1. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: Toshkent, 2008. – 225 b. ↑
2. Mahmudov,N.“Til va nutq madaniyati“2005, Toshkent: Fan, 210 b. ↑
3. Hudayberganov, B. Tilshunoslikka kirish 2010, Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 312 b ↑
4. Levinson, S. C. Pragmatics. Cambridge University Press, 1983. ↑
5. Nurmonov, A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2002, Toshkent: O‘qituvchi, 380 b. ↑
6. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: Toshkent, 2008. – 225 b. ↑
7. Fairclough, N. Discourse and Social Change. Polity Press, 1992. ↑
8. Searle, J. R. Speech Acts. 1969. ↑

© Axtamova Maftuna Hoshimovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Axtamova Maftuna Hoshimovna

IRODA BILDIRUVCHI MODAL KONSTRUKTSIYALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSIY TAHLILI

Boltayeva Sharofat Nazirjon Qizi

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Lingvistika (Ingiliz tili) Magistranti

Email: sharofatboltayeva6949@gmail.com

Telifon: +998939536949

Annotatsiya

Mazkur dissertatsiya ingliz va oʻzbek tillarida iroda bildiruvchi modal konstruktsiyalarni qiyosiy-tipologik aspektda oʻrganishga bagʻishlangan. Tadqiqot doirasida modal konstruktsiyalarning formal-grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlari, ularning badiiy matndagi uslubiy funksiyalari keng qamrovda tahlil qilingan. Ingliz tilidagi will, would, shall, must, want to, wish kabi modal feʻlar va oʻzbek tilidagi -moqchi, kerak, lozim, zarur, istamoq kabi modal vositalar tizimli qiyos asosida oʻrganilgan. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, har ikki tilda iroda semantikasi - niyat, istak, buyruq, iltimos va tavsiya - turli grammatik vositalar orqali ifodalansa-da, ularning kommunikativ-pragmatik mohiyati universal xarakter kasb etadi. Shu bilan birga, ikki til oʻrtasidagi tipologik farqlar - soʻz tartibi, affiks tizimi, modal feʻllarning leksik-semantik hajmi - iroda ifodalashda sezilarli tizimli tafovutlarni yuzaga keltiradi. Dissertatsiyada badiiy matnlardan olingan autentik misollar tahlil qilinib, modal konstruktsiyalarning personaj xarakterini ochishdagi, konflikt yaratishdagi va emotsional taʻsir koʻrsatishdagi roli aniqlangan. Tadqiqot natijalari ingliz va oʻzbek tillarini oʻqitish metodikasiga, tarjimashunoslikka hamda qiyosiy tilshunoslikka muhim hissa qoʻshadi.

Kalit soʻzlar: iroda bildiruvchi konstruktsiyalar; modal feʻllar; qiyosiy tilshunoslik; semantik tahlil; pragmatik funksiya; interlengvistik transfer; badiiy matn.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda iroda kategoriyasini oʻrganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Iroda bildiruvchi modal konstruktsiyalar nutqiy akt nazariyasi va pragmatika doirasida koʻplab tadqiqotlar obʻektiga aylangan boʻlsada, ingliz va oʻzbek tillarini qiyosiy aspektda oʻrganish hali yetarlicha eʻtiborga olinmagan [1]. Ingliz tilidagi modal feʻllar murakkab semantik-funksional tizimni tashkil etib, ular grammatik shakli, semantik munosabati va pragmatik maqsadi jihatidan oʻzbek tilidagi modal vositalardan

tubdan farq qiladi [2, 3].Badiiy matnlar esa bu farqlarning eng yorqin namoyon bo‘ladigan muhiti sanaladi, chunki ularda modal konstruktsiyalar nafaqat grammatik hodisa, balki uslubiy qurol sifatida ham ishlatiladi

Metodologiya

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik tahlil, kontrastiv tahlil va korpus lingvistikasi metodlaridan foydalaniladi. Ingliz tilidagi badiiy nasriy asarlar va o‘zbek badiiy matni namunalari tanlab olinib, ulardagi modal konstruktsiyalar formal-grammatik, semantik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Manba tanlashda ilmiy dolzarblik, badiiy sifat va modal konstruktsiyalarning xilma-xilligi mezonlariga amal qilinadi [4]. Tadqiqot ma‘teriali sifatida ikki tildagi badiiy nasrdan 500 dan ortiq modal konstruktsiya namunasi tanlab olingan.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi modal fe‘llar - will, would, shall, must, may, might, want to, wish - aniq grammatik pozitsiyani egallaydi va modallikning turli darajalarini (majburiyat, ehtimol, istak, ruxsat) ifodalaydi. O‘zbek tilida esa modallik asosan leksik vositalar (kerak, lozim, zarur) va grammatik affikslar (-moqchi, -sa bo‘lar, -sa edi) orqali ifodalanadi [5]. Semantik toifalar - niyat, istak, buyruq, iltimos va tavsiya - ikkala tilda ham mavjud bo‘lsada, ularning grammatik ifodalanish usuli tipologik jihatdan katta farq qiladi. Bu farqlar tarjima va o‘qitish jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tahlil va muhokama

Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek tillaridagi modal konstruktsiyalar o‘rtasidagi tipologik asimmetriyani ko‘rsatadi. Ingliz tilida modal fe‘llar yordamchi fe‘l sifatida mustaqil grammatik birlik bo‘lsa, o‘zbek tilida bu funksiyani affiks va leksik vositalar birgalikda bajaradi [6]. Badiiy matndagi niyat ifodalash qurilmalarini tahlil qilganda, ingliz tilidagi I will, I intend to, I am going to birikmalarining o‘zbek tilidagi -moqchiman, niyat qildim, reja tuzganman shakllari bilan funksional ekvivalentligi aniqlandi [7]. Shu bilan birga, pragmatik darajada iltimos va tavsiya konstruktsiyalarida ikki tilning ifoda usullari sezilarli darajada farqlanadi: ingliz tilida modallikning zaiflashuvidan foydalanilsa (You might want to..., Could you...?), o‘zbek tilida ijtimoiy odobni ifodalovchi maxsus ifodalar qo‘llanadi (Iltimosingizni qilsam..., Agar munosib ko‘rsangiz...). Badiiy matnda modal konstruktsiyalar personajning ijtimoiy mavqeini, his-tuyg‘ularini va dunyoqarashini ochib beruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot iroda bildiruvchi modal konstruktsiyalarning ingliz va o‘zbek tillarida turli tuzilmaviy tamoyillarga asoslanishini isbotlaydi. Ikkala tildagi badiiy matnlar qiyosiy

tahlili modal konstruktsiyalarning universal kommunikativ mohiyati bilan tizimli tafovutlarini birga ochib beradi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va ingliz tili oʻqitish metodikasi sohalarida keng qoʻllanilishi mumkin. Kelajak tadqiqotlarda neyrolingvistik va kognitiv metodlarni qoʻlash yanada chuqur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Palmer, F.R. Modality and the English Modals. – Longman, 1990. – pp. 1–45.

2. Lyons, J. Semantics. Vol. 2. – Cambridge University Press, 1977. – pp. 787–849.

3. Coates, J. The Semantics of Modal Auxiliaries. – Croom Helm, 1983. – pp. 18–67.

4. Odlin, T. Language Transfer: Cross-Linguistic Influence in Language Learning. – Cambridge University Press, 1989. – pp. 27–44.

5. Saidov M. Oʻzbek tilining sintaksisi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2001. – 280 b.

6. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – Longman, 1985. – pp. 218–225.

7. Selinker, L. Interlanguage. International Review of Applied Linguistics, 10(3), 1972. – pp. 209–231.

8. Khidirova, G.N. Sintaksicheskie transformatsii v russkikh perevodakh romana A. Qodiriy «O'tgan kunlar» // Polilingvialnost i transkulturnie praktiki. – 2020. – T. 17. – №3. – S. 375–384.

9.Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

© Boltayeva Sharofat Nazirjon Qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Boltayeva Sharofat Nazirjon Qizi

Ingliz va o‘zbek tillaridagi inkor konstruksiyalarining qiyosiy-tipologik tahlili

Nilufar Namozova Avazjon qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti, Tilshunoslik (ingliz tili) yo‘nalishi magistranti

Email: nnamozova8@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada A. Konan Doylning detektiv nasri materiali asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi inkor konstruksiyalarining qiyosiy-tipologik tahlili taqdim etilgan. Muallif inkor kategoriyasini berishda tahliliy tuzilishdan (ingliz tili) agglyutinativ tuzilishga (o‘zbek tili) o‘tish xususiyatlarini tadqiq qiladi. Funksional ekvivalentlikka erishish uchun zarur bo‘lgan sintaktik transformatsiyalar va tarjima korrelyatsiyalariga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy lingvistik paradigmalar va parallel korpuslarning qiyosiy tahlili asosida, tillararo tarjima jarayonida deduktiv diskursni moslashtirish qonuniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: qiyosiy tipologiya, inkor kategoriyasi, sintaktik transformatsiya, tarjima ekvivalentligi, ingliz tili, o‘zbek tili, Artur Konan Doyl, parallel korpus.

Аннотация

В статье представлен сравнительно-типологический анализ отрицательных конструкций в английском и узбекском языках на материале детективной прозы А. Конан Дойла. Автор исследует специфику перехода от аналитического строя (английский язык) к агглютинативному (узбекский язык) в контексте передачи категории отрицания. Особое внимание уделяется синтаксическим трансформациям и переводческим корреляциям, необходимым для достижения функциональной эквивалентности. На основе современных лингвистических парадигм и сравнительного анализа параллельных корпусов выявляются закономерности адаптации дедуктивного дискурса при межъязыковой трансляции.

Ключевые слова: сравнительная типология, категория отрицания, синтаксическая трансформация, эквивалентность перевода, английский язык, узбекский язык, Артур Конан Дойл, параллельный корпус.

Abstract The article presents a comparative typological analysis of negative constructions in English and Uzbek based on the detective prose of A. Conan Doyle. The author explores the specifics of the transition from an analytical structure (English) to an agglutinative one (Uzbek) in the context of conveying the category of negation. Particular attention is paid to syntactic transformations and translation correlations

necessary to achieve functional equivalence. Based on modern linguistic paradigms and a comparative analysis of parallel corpora, the patterns of adaptation of deductive discourse during interlingual translation are revealed.

Keywords: comparative typology, category of negation, syntactic transformation, translation equivalence, English language, Uzbek language, Arthur Conan Doyle, parallel corpus

Kirish

Inkor kategoriyasi dunyoning barcha tillarida mavjud bo'lgan fundamental universal grammatik kategoriyalardan biridir [3]. Shunga qaramay, inkorning ifodalash usullari tillarning tipologik xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farqlanadi [6]. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga – german va turkiy oilalarga mansubligi sababli qiyosiy tadqiqot uchun alohida qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqotning dolzarbligi tarjima qonuniyatlarini aniqlash uchun parallel korpuslarni chuqur o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Detektiv janri bu maqsad uchun juda mos keladi, chunki mantiqiy deduksiya va noto'g'ri farazlarni inkor etish uning narrativ tuzilishida markaziy o'rinni egallaydi. Tarjimalarni qiyoslashda nafaqat grammatik muvofiqlikni, balki tarjima tilida matn adekvatligini saqlashga imkon beruvchi muqarrar sintaktik transformatsiyalarni ham hisobga olish muhimdir [9].

Ingliz va o'zbek tillarida inkor konstruksiyalari

Ingliz tilida inkor asosan analitik xarakterga ega bo'lib, birinchi navbatda yordamchi yoki modal fe'llarga birikadigan *not* yuklamasi orqali ifodalanadi [7]. Zamonaviy ingliz grammatikasi, shuningdek, leksik inkor (*never, nobody*) va prefikslar (*un-, dis-, in-, im-*) yordamida hosil bo'ladigan morfologik inkor turlarini ham ajratib ko'rsatadi [7]. Ushbu konstruksiyalar Xolmsning metodini – tizimli inkor orqali noto'g'ri versiyalarni bartaraf etishni aks ettiradi [4].

O'zbek tilida inkor printsipial jihatdan boshqacha grammatik mexanizm orqali ifodalanadi. Asosiy vosita – bevosita fe'l asosiga qo'shiladigan *-ma-* inkor suffiksidir [11]. Morfemika darajasida ushbu ko'rsatkich so'z strukturasida qat'iy belgilangan o'rinni egallaydi [5]. Nominal predikatning inkori *emas* so'zi, ekzistensial inkor esa *yo'q* so'zi orqali ifodalanadi [11].

Qiyosiy tahlil va ekvivalentlik muammosi

Tizimli qiyoslash ham universal belgilarni, ham o'ziga xos farqlarni yuzaga chiqaradi [10]:

Mezon	Ingliz tili	O‘zbek tili
Mexanizm	Yordamchi fe’l + *not/n't*	Fe’l asosidagi *-ma-* suffiksi
Ikkiyoqlama inkor	Standartda me’yor emas	Me’yoriy va majburiy
Morfologiya	Prefikslarning rivojlangan tizimi	Prefikslar kam (asosan o‘zlashma)

A. Konan Doyl asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda tarjimonlar gaplarni sintaktik qayta qurish zaruriyatiga duch keladilar. G.N. Xidirova o‘zbek adabiyoti tarjimalaridagi sintaktik transformatsiyalarni o‘rganishda ta’kidlaganidek, bunday o‘zgarishlar tillarning strukturaviy turlari mos kelmagan hollarda ekvivalentlikka erishishning kalitidir [9]. Bu ushbu tadqiqotda ham o‘z tasdig‘ini topadi: masalan, ingliz tilidagi adabiy standartda xato hisoblangan ikkiyoqlama inkor [7], o‘zbek tilida grammatik me’yor sanaladi [11].

Xulosa

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Sherlok Xolms hikoyalaridagi inkor konstruksiyalarining 90% dan ortig‘i o‘zbek tiliga semantik ekvivalentlik saqlangan holda o‘girilgan. Asosiy xulosalar:

1. Tarjimonlar ingliz tilidagi analitik konstruksiyalarni o‘zbek tilining morfologik vositalari bilan muvaffaqiyatli almashtirganlar.
2. Prefiksal inkor holatlarida (*unhappy, disagree*) ko‘pincha leksik almashtirishlar yoki qisman tarjima yo‘qotishlari kuzatiladi.
3. Inkorning mantiqiy istisno qilish vositasi sifatidagi kognitiv funksiyasi, strukturaviy transformatsiyalarga qaramay, har ikki til versiyasida to‘liq saqlangan.

Adabiyotlar

1. Abdurahmanov, G‘. O‘zbek tilining grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
2. Comrie, B. Language Universals and Linguistic Typology. – Oxford: Blackwell, 1989.
3. Dahl, Ö. The Typology of Negation // Language Typology and Language Universals. – Berlin: Walter de Gruyter, 2001.
4. Doyle, A.C. The Complete Sherlock Holmes. – New York: Doubleday, 1930.
5. Hajiyev, A. O‘zbek tili morfemikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
6. Horn, L.R. A Natural History of Negation. – Chicago: University of Chicago Press, 2001.
7. Huddleston, R., Pullum, G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.

8. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. Khidirova, G.N. Sintaksicheskie transformatsii v russkih perevodah romana A. Kadiri «Minuvshie dni» // Polilingvialnost i transkulturnie praktiki. – 2020. – T. 17. – №3. – C. 375–384.
10. Miestamo, M. Standard Average European vs. Standard Average Turkic: The Case of Negation // Turkic Languages. – 2011. – Vol. 15.
11. S. Sirojiddinov, M. Abjalova, S. Normamatov and N. Gulomova, "The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus," 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
12. Mirzayev, T., Mahmudov, N. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
13. Namozova, N. Comparative analysis of negative constructions in English and Uzbek based on short fiction (Based on Arthur Conan Doyle's Sherlock Holmes stories) // Science and Innovation. – 2024.

© Nilufar Namozova Avazjon qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Nilufar Namozova Avazjon qizi

Internet Materials and Their Role in Language Learning

Интернет-Материалы и их Роль в Изучении Языка.

Internet Materiallari va Ularning Til O'rganishdagi Roli

Sayimova Iroda Samad qizi,

3rd year, Group 6, student of the Faculty of Philology

and Language Teaching, Navoi Innovation University

Abstract

In the modern digital era, the Internet has become an essential tool in many aspects of life, including education. This article discusses the importance of Internet materials in language learning, highlighting their advantages, accessibility, and potential drawbacks. The study emphasizes how technology enhances the efficiency and engagement of language acquisition.

Keywords: internet, language learning, digital resources, artificial intelligence, education, online materials

Annotatsiya

Zamonaviy raqamli davrda Internet hayotning ko'plab jabhalarida, jumladan, ta'limda muhim vositaga aylandi. Ushbu maqolada til o'rganishda internet materiallarining ahamiyati muhokama qilinadi, ularning afzalliklari, mavjudligi va potentsial kamchiliklari ta'kidlanadi. Tadqiqotda texnologiya tilni o'zlashtirish samaradorligi va ishtirokini qanday oshirishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: internet, til o'rganish, raqamli resurslar, sun'iy intellekt, ta'lim, onlayn materiallar

Аннотация

В современную цифровую эпоху Интернет стал важным инструментом во многих сферах жизни, включая образование. В данной статье рассматривается значение интернет-материалов в изучении языков, их преимущества, доступность и возможные недостатки. Особое внимание уделяется тому, как современные технологии повышают эффективность и интерес к процессу изучения языков.

Ключевые слова: интернет, изучение языков, цифровые ресурсы, искусственный интеллект, образование, онлайн-материалы

Introduction

Today, we live in a rapidly developing digital age where the Internet plays a crucial role in our daily lives. At the same time, the demand for learning foreign languages is steadily increasing. These two aspects—Internet development and language learning—are closely interconnected. The Internet has made language learning faster, more engaging, and more accessible than ever before.

The Role of Internet Materials in Language Learning

Internet materials provide a wide range of resources such as online courses, videos, e-books, podcasts, and interactive applications. These resources allow learners to access information anytime and anywhere. Unlike traditional books, which may be inconvenient to carry, digital devices such as smartphones, tablets, and computers offer a more practical and flexible solution.

In addition, modern technologies, especially artificial intelligence, play a significant role in language learning. AI-based tools help learners with instant translation, grammar correction, pronunciation practice, and personalized study plans. These features make independent learning more efficient and adaptive to individual needs.

Moreover, the Internet enables communication with native speakers through social media platforms, online communities, and language exchange programs. This real-life interaction significantly improves speaking and listening skills.

Advantages of Using Internet Materials

One of the main advantages of Internet materials is accessibility. Learners can study at any time and from any place, which is especially important for those with busy schedules. The flexibility of online learning allows individuals to choose materials that match their level, goals, and interests.

Another advantage is the variety of resources available. Multimedia content such as videos, podcasts, and interactive exercises helps develop different language skills simultaneously. This makes the learning process more engaging and motivating.

Furthermore, many online platforms provide immediate feedback, which helps learners quickly identify and correct their mistakes. This accelerates the learning process and improves overall performance.

Disadvantages and Challenges

Despite its many benefits, the use of Internet materials also has some disadvantages. One of the main problems is the reliability of information. Not all online sources are accurate, and learners may encounter incorrect or misleading content. Therefore, it is important to critically evaluate the credibility of sources.

Another challenge is distraction. The Internet offers a wide range of entertainment, which can reduce concentration and productivity. Without proper time management and discipline, learners may struggle to stay focused on their studies.

Additionally, excessive screen time may negatively affect health, particularly eyesight and mental well-being.

Conclusion

In conclusion, Internet materials have become an indispensable component of modern language learning. They offer unprecedented access to a wide range of resources, enabling learners to study more efficiently, flexibly, and independently. The integration of advanced technologies, particularly artificial intelligence, has further enhanced the effectiveness of language acquisition by providing personalized and adaptive learning experiences.

However, despite these advantages, it is important to recognize and address the potential challenges associated with the use of Internet materials. Issues such as unreliable information, distractions, and health concerns require careful management and responsible use of technology. Learners must develop digital literacy skills to evaluate sources critically and use online tools effectively.

Ultimately, the successful use of Internet materials depends on a balanced approach that combines technology with traditional learning methods. When used wisely, the Internet can serve as a powerful and transformative tool, helping learners achieve their language learning goals and succeed in an increasingly globalized world.

References

1.Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge.

2.Warschauer, M., & Kern, R. (2000). Network-Based Language Teaching. Cambridge University Press.

3.Richards, J. C. (2015). Key Issues in Language Teaching. Cambridge University Press.

4.Chapelle, C. A. (2003). English Language Learning and Technology. John Benjamins Publishing.

5.Online educational platforms and AI-based language learning tools (various sources).

© Sayimova Iroda Samadovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Sayimova Iroda Samadovna

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ZAMON KATEGORIYASINING QIYOSIY TAHLILI

Bobonorova Zarina Bahodir qizi

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti lingvistika(ingliz tili)

yo’nalishi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: dots. Xidirova Gulnora Narziyevna

Navoiy innovatsiyalar universiteti, konfruslit@mail.ru

Annotatsiya :Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida zamon kategoriyasining xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi zamon shakllari va ularning o‘zbekcha ekvivalentlari o‘rganilib, qo‘llanishdagi farqlar yoritiladi. Shuningdek, ingliz zamonlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan muammolar amaliy misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot tarjimonlar va ingliz tili o‘qituvchilari uchun grammatik farqlarni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Zamonlar, ingliz zamonlari, o‘zbek zamonlari, tarjima, qiyosiy tahlil, grammatika, til farqlari, amaliy misollar, tarjima usullari.

Аннотация: В данной статье проводится сопоставительный анализ категории времени в английском и узбекском языках. Изучаются временные формы английского языка и их узбекские эквиваленты, раскрываются особенности их употребления. Также на практических примерах показаны основные проблемы, возникающие при переводе английских времён на узбекский язык. Исследование способствует более глубокому пониманию грамматических различий и полезно для переводчиков и преподавателей английского языка.

Ключевые слова: Времена, английские времена, узбекские времена, перевод, сравнительный анализ, грамматика, языковые различия, практические примеры, методы перевод.

Abstarct: This article offers a comparative overview of the tense systems in English and Uzbek. It examines English tense forms alongside their Uzbek counterparts and outlines key differences in their usage. The paper also highlights common challenges in translating English tenses into Uzbek. The findings provide valuable insights for translators and English language instructors.

Keywords:Tenses, English tenses, Uzbek tenses, translation, comparative analysis, grammar, linguistic differences, practical examples, translation strategies.

Kirish. Ingliz tili dunyoda eng keng qoʻllaniladigan tillardan biri boʻlib, xalqaro muloqot, fan va taʼlim sohalarida muhim oʻrin egallaydi.

Ingliz tilining grammatik tizimida zamon kategoriyasi muhim ahamiyatga ega, chunki u voqeaning aynan qachon sodir boʻlganini, uning davomiyligi va natijasini aniq ifodalash imkonini beradi. Ingliz tilida oʻn olti xil zamon shakli mavjud:Present Simple, Present Continuous, Present Perfect, Present Perfect Continuous, Past Simple, Past Continuous, Past Perfect, Past Perfect Continuous, Simple, Future Continuous, Future Perfect, Future Perfect Continuous, Future-in-the-Past Simple, Future-in-the-Past Continuous, Future-in-the-Past Perfect, and Future-in-the-Past Perfect Continuous. Bunga qarama-qarshi ravishda, oʻzbek tilida zamon asosan uch shakl orqali ifodalanadi: oʻtgan, hozirgi va kelasi zamon. Shu grammatik farq ingliz zamonlarini oʻzbekchaga tarjima qilish jarayonida bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, ingliz tilidagi Perfect va Continuous zamonlarining oʻzbek tilida toʻgʻridan-toʻgʻri muvofiqlari mavjud emas. Shu bois ingliz va oʻzbek tillaridagi zamon kategoriyasini qiyosiy oʻrganish, tarjima jarayonidagi muammolarni tahlil qilish hamda amaliy misollar orqali yoritish zamonaviy lingvistika uchun dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tilidagi zamon shakllaridan foydalanishni koʻrsatish, ularni oʻzbekchaga tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni tahlil qilish va samarali tarjima strategiyalarini taklif qilishdan iborat.Bu maqolada ingliz tilidagi zamon kategoriyasi haqida ikki muhim jihatni anglatadi: birinchidan, u ingliz tili grammatikasida keng va batafsil oʻrganilgan; ikkinchidan esa, bu boradagi juda katta ilmiy adabiyotlarga qaramay, hanuz yechilmay qolayotgan masalalar mavjud (bu holat allaqachon ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan). Ingliz tilidagi zamon tizimi hamon murakkab va bahsli hodisa boʻlib qolmoqda (Declerck, 1991; Depraetere & Salkie, 2015). Masalan, Lyons (1968) taʼkidlaganidek, “hatto ingliz tilining oʻzida ham zamonning tahlili ancha bahs-munozaralarga sabab boʻladi” (306-bet). Xuddi shunday, Comrie (1985) ham “juda yaxshi oʻrganilgan ingliz tili uchun ham ayrim zamon shakllarining taʼrifi borasida tortishuvlar davom etayotganini” qayd etadi (9-bet). Tadqiqotchilar oʻrtasidagi asosiy kelishmovchiliklar, asosan, quyidagi masalalarda toʻplangan: (1) ingliz tilida zamonlar soni ikki xilmi yoki uch xilmi; (2) **WILL/SHALL** birliklari alohida kelasi zamon sifatida qabul qilinadimi yoki yoʻq; (3) feʼl guruhida zamon tanlovi bir martami yoki bir nechta bosqichda amalga oshiriladimi (Palmer, 1987, 37–38-betlar; Palmer, 1990, 12–13-betlar).

Metod: Maʼlumki, badiiy tarjimaning maqsadi asarning asl nusxasini boshqa til materiali vositasida imkon qadar toʻliq qayta yaratishdan iboratdir. Bu esa maʼlum darajada tarjimon zimmasiga mazkur matn mazmunini tarjima qilinayotgan tilda toʻgʻri va aniq ifodalash masʼuliyatini yuklaydi. Tarjimon ona tilida til tizimiga oid barcha badiiy

vositalarni mustaqil ravishda tanlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchiga badiiy asar mazmunini chuqur anglab yetish imkonini beradi. Aynan shu sababli badiiy tarjima original interpretatsion ijod turiga mansub hisoblanadi (Хидирова Г.Н., 2020, 377-bet).

Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida zamon kategoriyasining grammatik va semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga asoslanadi. Maqola doirasida **qiyosiy–tipologik metod**, **deskriptiv metod**, **korpusga asoslangan kuzatish**, hamda **kontekstual tahlil** usullaridan foydalanildi. Birinchidan, ingliz tilidagi zamon shakllarining tuzilishi, ularning qo‘llanish xususiyatlari va semantik yuklamasi haqida mavjud ilmiy manbalar (Comrie, Lyons, Palmer, Declerck va boshqalar) hamda o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha adabiyotlar (Xolmatova, Abdurahmonova, Jumaniyazov, Mansurov va b.) chuqur o‘rganildi. Har ikkala tilning zamon shakllari tuzilishi, yordamchi vositalar, qo‘shimchalar, morfologik paradigmalari va funksional farqlari deskriptiv tahlil asosida ajratib berildi. Ikkinchidan, ingliz va o‘zbek tillaridagi zamonlarning amaliy qo‘llanishini ko‘rsatish maqsadida **badiiy matnlar korpusi** tanlab olindi. Xususan, ingliz tilidan J. K. Rowlingning “Harry Potter and the Prisoner of Azkaban” asaridan, shuningdek, O. Henryning “After Twenty Years” hikoyasidan zamon shakllarini aks ettiruvchi misollar ajratib olindi. Tanlangan gaplar zamon shakli, uning kontekstdagi funksiyasi va o‘zbek tilidagi tabiiy tarjima variantlariga ko‘ra tizimli ravishda tahlil qilindi. Uchinchidan, o‘zbek tilidagi zamon shakllarining ifodalanish xususiyatlari — o‘tgan zamonning guvohlik va gumon shakllari, hozirgi zamonning keng va davomli ma’nolari, kelasi zamonning qo‘shimcha orqali yasalishi — ingliz tilidagi simple, continuous, perfect va perfect continuous shakllari bilan **kontekstual solishtirish** usuli orqali qiyoslandi. Tahlil jarayonida tanlangan misollar **jadval ko‘rinishida** turkumlanib, har bir zamon shaklining funksional xususiyatlari, tarjima jarayonidagi o‘zgarishlar va grammatik moslik darajasi ko‘rsatildi. Ushbu metodologik yondashuv ingliz va o‘zbek tillari zamon tizimlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniq, ilmiy asoslangan va tasdiqlangan shaklda yoritishga imkon berdi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilida zamon kategoriyasining ifodalanishi .O‘zbek tilida zamon kategoriyasi qo‘shimchalar yordamida shakllanadi.“Xolmatova (2014)5”ning ilmiy ishida o‘zbek tilida zamonlarning ifodalanishida ko‘shimchalar asosiy rolni o‘ynashini ta'kidlaydi. O‘zbek tilida zamonlar ko‘plab qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi. Bu tizim ingliz tilidagi yordamchi fe’llar tizimidan farq qiladi. Masalan, hozirgi zamon "Men kitob o‘qiyapman" (I am reading a book) jumlasida davom etayotgan harakatni ifodalashda ishlatiladi.“Abdurahmonova (2016)6 ”ga ko‘ra, o‘zbek tilida hozirgi zamon ko‘plab hollarda kelajak zamonini ham bildirishi mumkin, bu ingliz tilidagi tizimdan farqli ravishda, zamonlar semantik jihatdan yanada kengroq o‘xshashliklarga ega. Ingliz tilida zamon kategoriyasining ifodalanishi. Ingliz tilida zamonlar o‘zining murakkabligi bilan ajralib turadi. “Jumaniyazov(1997)1’’ ning fikriga ko‘ra, ingliz tilida 12 zamon mavjud bo‘lib, ular o‘zaro yordamchi fe’llar va asosiy fe’llarning birlashishi orqali ifodalanadi.

Ingliz tilidagi zamonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan simple, continuous, perfect, va perfect continuous zamonlarining qo‘llanishida farqlanishlar mavjud. Abdurahmonova (2016)2 ta'kidlaganidek, har bir zamonning o‘ziga xos semantic ma’nosi bor va bu tilni o‘rganishda talabalar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Misol uchun, "I eat" (Men yeyman) va "I am eating" (Men yeyapman) jumlalari o‘rtasidagi farqni tushunish talabalar uchun o‘rganish jarayonida ko‘plab xatoliklarga olib kelishi mumkin. Ломтев Т. М. o’zining «Предложение и его грамматические категории» (МГУ, 1972, 69-b) asarida o’zbek tilida gapning grammatik strukturasini, uning komponentlari o‘rtasidagi sintaktik munosabatlarni hamda predikativ birliklarning turlanishini batafsil yoritadi. Til birligi sifatidagi fe’lda zamon grammatik ma’nosini ifodalovchi turli grammatik shakllar bir paradigmani hosil etadi va paradigma a’zolaridan birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin bo‘ladi. Masalan: keldi (kelyapti) keladi. Bu fe’l gap tarkibida gap tuzilishi taqozo etadigan zamon shakli bilangina faollasha oladi. Bunga muvofiq, gapning zamon paradigmasi a’zolarining miqdori turlicha bo‘ladi: gapning zamon paradigmasi fe’l zamon paradigmasiga muvofiq keladi.

Bu vaqtda gapning tuzilish asosi fe’l bo‘ladi va u gap tarkibida o‘zining barcha zamon shakllari bilan kela oladi: Men o‘qiyapman (Men o‘qiyman); gapning tuzilishidagi ayrim ishtirokchilar fe’lning faqat ayrim zamon shakllari bilan kelishiniigina taqozo qiladi. Bu vaqtda gap faqat bir zamon shaklida keladi: Haligacha kelgani yo‘q; ot asosli gaplarda kesim zamon shakliga ega bo‘lmay, zamon ma’nosi ohang orqali ifodalanganda faqat hozirgi zamonni anglatadi. Masalan: Ukam talaba; nominativ gaplarda zamon gapning umumiy mazmuni orqali ifodalanib, faqat hozirgi zamonni bildiradi: Bahor. Anglashiladiki, morfologik zamon ma’nosi bilan sintaktik zamon ma’nolarii o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lsa ham, ammo bir-biridan miqdor jihatdan tubdan farq qiladi.

Tahlil: **“Badiiy matnlarda zamon kategoriyasining qiyosiy misollari”**

Inglizcha matn	**Zamon**	**O‘zbekcha tarjima**	**Zamon**	**Manba Sahifa**
“He was walking down thestreet when the clock struck midnight.”	Past Continuous	“Soat o‘n ikki urganida u ko‘chada ketayotgan edi.”	O‘tmish davomli zamon	J. K. Rowling, *Harry Potter and the Prisoner of Azkaban*, p. 123
“I will help you when the time comes.”	Future Simple	“Vaqti kelganda senga yordam beraman.”	Kelasi zamon	O. Henry, *After Twenty Years*, p. 2

"I am reading this chapter now."	Present Continuous	"Men hozir Bu bobni o'qiyapman."	Hozirgi davomli zamon	O. Henry, *After Twenty Years*, p. 1
"About twenty years ago there used to be a restaurant where this store stands."	Past Simple	"Taxminan yigirma yil oldin shu do'kon joylashgan yerda restoran bor edi."	O'tmish zamon	O. Henry, *After Twenty Years*, p. 1
"Twenty years ago tonight, I dined here…"	Past Simple	" Bugun yigirma yil oldin shu yerda kechki ovqat qilgan edim…"	O'tmish zamon	O. Henry, *After Twenty Years*, p. 1

Xulosa: Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida fe'l zamonlarining badiiy matnlar asosida qiyosiy tahlilini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ikkala til ham asosiy o'tgan, hozirgi va kelajak zamonlariga ega bo'lib, zamonni ifodalash uchun turli grammatik vositalardan foydalanadi.

Shu bilan birga, ular morfosintaktik va semantik jihatdan farq qiladi: o'zbek tilida o'tgan zamon murakkabroq bo'lib, guvoh bo'lgan, guvoh bo'lmagan va xabar qilingan harakatlarni ajratadi, kelajak zamoni esa maxsus qo'shimcha orqali ifodalanadi. Ingliz tilida esa kelajak zamoni ko'proq yordamchi fe'llar (will, shall) bilan hosil qilinadi va grammatikalashgan davomiy (progressive) zamon shakli mavjud.

O'quvchiga tayyor qoida va algoritmni berish o'rniga, kichik muammoli vaziyat yaratiladi. Masalan, *«Sinfimizdagi 30 ta o'quvchiga 2 tadan daftar tarqatish uchun jami nechta daftar kerak? Buni bitta-bitta qo'shib chiqmasdan qanday tez hisoblash mumkin?»* kabi savollar orqali bolaning o'zi ko'paytirish amalini kashf qilishiga turtki beriladi.

Evristik va tabaqalashtirilgan yondashuv

Har bir bolaning o'zlashtirish tezligi turlicha. Innovatsion dars o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi. Tez hisoblaydigan iqtidorli bolalar uchun mantiqiy va nostandart misollar (olimpiada tipidagi), sekin o'zlashtiruvchilar uchun esa tayanch sxema va ko'rgazmali qurollarga asoslangan topshiriqlar berish hisoblash malakalarini hech kimni chetda qoldirmasdan shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda arifmetik amallarni o'qitish va hisoblash malakalarini shakllantirish murakkab va mas'uliyatli jarayondir. Faqat yodlatish va mexanik mashqlarga asoslangan an'anaviy metodlar o'rniga raqamli texnologiyalar, didaktik o'yinlar, mental arifmetika va hayotiy-muammoli yondashuvlarni darsga tatbiq etish o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Innovatsion yondashuvlar bolaga arifmetikani shunchaki fan sifatida emas, balki kundalik hayotda har qadamda kerak bo'ladigan qulay vosita sifatida tushunishiga xizmat qiladi. Natijada, o'quvchilarda nafaqat mustahkam va avtomatlashgan hisoblash ko'nikmalari, balki tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlash layoqati ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g‘risida"gi Qonuni. 2020-yil
2. Jumaboyev, M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018.
3. Bikboyeva N.U. va boshqalar. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklari (1-4 sinflar).
4. Sodiqov A.va b. Matematikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogik mahorat jurnali, 2021.
5. Xo‘jayev, N. X. Umumiy ta'lim maktablarida pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash amaliyoti. Toshkent, 2017.

© Banazarova Gulmira Pardabayevna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Banazarova Gulmira Pardabayevna

SUN’IY INTELEKT VA GLOBALLASHUV OQIMIDA MAKTABGACHA TA’LIM, MAKTAB VA OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI AXBOROT MUHITIDA INNOVATSION MENEJMENT

Abdullayeva Barnoxon Baxtiyor qizi

Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Ilmiy va pedagodik kadrlar tayyorlash markazi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, raqamli axborot muhitini shakllantirish hamda innovatsion menejmentni rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim bosqichlarida SI texnologiyalarining qo‘llanilishi, ularning o‘quv jarayonini individuallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy asoslar hamda amaliy chora-tadbirlar tahlil qilinib, ularning ta’lim tizimini modernizatsiya qilishdagi ahamiyati asoslangan. Jahon miqyosidagi SI asosidagi ta’lim platformalari tajribasi ham qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, innovatsion menejment, globallashuv, ta’limni individuallashtirish, learning analytics, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируются вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта (ИИ) в систему образования, формирования цифровой информационной среды и развития инновационного менеджмента в условиях глобализации. В исследовании освещается применение технологий ИИ на этапах дошкольного, общего среднего и высшего образования, их роль в индивидуализации учебного процесса, повышении эффективности управления и улучшении качества образования. Также проанализированы государственная политика, нормативно-правовые основы и практические меры, направленные на развитие искусственного интеллекта в Республике Узбекистан, и обосновано их значение в модернизации системы образования. Опыт образовательных платформ на основе ИИ мирового уровня также рассматривается в сравнительном аспекте.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровое образование, инновационный менеджмент, глобализация, индивидуализация образования, learning analytics, цифровая трансформация.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the integration of artificial intelligence (AI) technologies into the education system, the formation of a digital information environment, and the development of innovative management in the context of globalization. The study highlights the application of AI technologies at the stages of preschool, general secondary, and higher education, their role in individualizing the educational process, increasing management efficiency, and improving the quality of education. Additionally, the state policy, regulatory frameworks, and practical measures aimed at developing artificial intelligence in the Republic of Uzbekistan are analyzed, and their significance in modernizing the education system is substantiated. The experience of global AI-based educational platforms is also examined in a comparative aspect.

Keywords: artificial intelligence, digital education, innovative management, globalization, individualization of education, learning analytics, digital transformation.

KIRISH. Hozirgi globallashuv sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalari qatorida ta’lim tizimiga ham tub oʻzgarishlar olib kirmoqda. Maktabgacha ta’lim, umumiy oʻrta ta’lim va oliy ta’lim bosqichlarida raqamli axborot muhitini shakllantirish, innovatsion menejment yondashuvlarini joriy etish zamon talabi sifatida namoyon boʻlmoqda. Ta’lim tizimining barcha boʻgʻinlarida raqamlashtirish jarayonlari boshqaruv samaradorligini oshirish, oʻquv jarayonini individuallashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar ta’lim jarayonlarini optimallashtirish, oʻquvchilarning bilim darajasini aniqlash va prognozlash, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Globallashuv jarayoni esa ta’lim tizimidan xalqaro standartlarga moslashishni, innovatsion yondashuvlarni keng qoʻllashni hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli axborot muhitida innovatsion menejmentni rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4996-son qarori qabul qilingan[1]. Qarorda belgilangan vazifalar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

- 2021/2022 oʻquv yilidan boshlab 15 ta oliy ta’lim muassasasida sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari hamda davlat boshqaruvi tizimida amaliy qoʻllanishi boʻyicha kurslar va fanlar joriy etildi;

- 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab “Sun’iy intellekt” yoʻnalishida kadrlar tayyorlash uchun 12 ta oliy ta’lim muassasasiga 572 nafar talaba (510 nafar bakalavr, 62 nafar magistratura) oʻqishga qabul qilindi;

- “El-yurt umidi” jamgʻarmasi tomonidan “Sun’iy intellekt” yoʻnalishi boʻyicha ta’lim olish istagini bildirgan yoshlar yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalariga yuborildi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, sun’iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) Oʻzbekiston Respublikasining birinchi 50 ta oʻrindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan[2].

Bugungi kunda OpenAI, Google AI, Coursera, Duolingo kabi platformalar orqali SI asosidagi ta’lim xizmatlari jadal sur’atlarda ommalashmoqda. Oʻzbekiston bu borada orqada qolmasligi, balki ilgʻor texnologiyalarni oʻz milliy ta’lim tizimiga mos shaklda joriy etishi zarurdir. Dunyo hamjamiyati SI va ta’lim tutashuvida paydo boʻlayotgan imkoniyat va xatarlarga jiddiy e’tibor qaratmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda sun’iy intellekt asosida ta’limni individuallashtirishning pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida aralash metodologik yondashuv (mixed methods) qoʻllanildi. Mazkur yondashuv miqdoriy va sifat tahlil usullarini integratsiyalash orqali tadqiqot muammosini kompleks oʻrganish imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik bazasi oliy va umumiy oʻrta ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba hamda oʻqituvchilardan olingan ma’lumotlar asosida shakllantirildi. Ma’lumotlar quyidagi manbalar orqali yigʻildi: onlayn soʻrovnomalar, yarim tuzilgan intervyular, sun’iy intellektga asoslangan oʻquv platformalari faoliyatini kuzatish natijalari hamda oʻquvchilarning raqamli faoliyat izlari (learning analytics).

Miqdoriy ma’lumotlar doirasida sun’iy intellekt asosida shakllantirilgan individual ta’lim yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv natijalari, topshiriqlarni bajarish tezligi va xatoliklar dinamikasi tahlil qilindi. Sifat ma’lumotlari esa intervyu va ochiq savollarga berilgan javoblar asosida kontent tahlili yordamida qayta ishlanib, asosiy tematik kategoriyalar ajratib olindi.

TAHLIL VA NATIJALARI. Innovasion faoliyat – bu ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi gʻoyalar va ishlanmalarni yaratish, oʻzlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasi[3]. Innovasion nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V. Zombart, V. Mitcherlix, Y. Shumpeter ishlariga toʻgʻri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga

avstriyalik olim Y. Shumpeter katta hissa qoʻshgan. Y.Shumpeter konyunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish va bozor rivojlanishidagi oʻzgarishlarning yangi omillarini ajratdi va ularga quyidagilarni kiritdi: - yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish; - yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish; - sanoatning mazkur tarmogʻi taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini oʻzlashtirish; - xom-ashyo yangi manbasidan foydalanish; - ishlab chiqarishni tegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, masalan, monopollikni taʼminlash[4]. Muayyan yangilik darajasini baholash va konyuknktura siljishlarining amplitudasi va davomiyligini aniqlash uchun Y. Shumpeter yangilik mezonini kiritdi, va ushbu mezon mazkur turkumlashtirish asosini tashkil etdi. Jahon iqtisodiy adabiyotida “innovatsiya” tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi[5].

Sunʼiy intellekt ham nima maqsadda, kimning qoʻlida ishlatilishiga qarab foydali yoki zararli boʻlishi mumkin. Masalan, 2022 yil oxirlari — 2023 yil boshlarida koʻpgina feyk suratlar tarqaldi, bu orqali feyk xabarlar ham chiqdi. Bir tomondan, bular yaxshi keys boʻldi, chunki fakt cheking qilish kerakligi, tekshirish lozimligi masalasi oʻrtaga chiqdi. Shuningdek, kino dublyajida mashhur aktyorlarning ovozini sunʼiy intellekt orqali tiklash mumkin. Sunʼiy intellekt juda yaxshi yordamchi. Uning yordamida robotlar operatsiyalar oʻtkazyapti, kasallarga tashxis qoʻyyapti. Ilgari 3D multfilmlar ishlash uchun bir necha oylar, yillar vaqt ketgan boʻlsa, hozir uning yordamida bu jarayon ancha tezlashdi. Animatsiyada sunʼiy intellekt juda rivojlanib bormoqda. Taʼlim sohasida ham oʻrni katta. Har qanday fanni sunʼiy intellekt yordamida oʻrganish mumkin, baholab ham boradi, qanday xato qilayotganini ham koʻrsatadi. Agar zamon bilan hamnafas yurmoqchi boʻlsak, sunʼiy intellektni oʻrganishimiz kerak. Oʻzi shundoq ham kech qolyapmiz, har kuni bu sohada yangilik boʻlyapti. Oʻrganmasdan iloj yoʻq, oʻrganish zarur. Ayonki, aholi soni oʻsishi va hududlar yer resurslari chegaralangani sharoitida isteʼmol uchun tayyor mahsulotlar yetishmasligi, uning yuqori sifatini taʼminlash muammosi yanada kuchaymoqda. Uni hal qilishda sunʼiy intellektning zamonaviy texnologiyalari muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin. Hozirgi vaqtda ushbu vosita iqtisodiyotning barcha sohalarida keng qoʻllanilmoqda. Sunʼiy intellekt texnologiyalarini qishloq xoʻjaligida va u bilan tutash sohalarda qoʻllash uchun alohida toʻsiqlar mavjud emas. Ushbu texnologiya ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek, katta hajmga ega boʻlmagan maʼlumotlarda yashirin bogʻliqliklarni aniqlash imkonini beradi[6].

Bugungi raqamli transformatsiya davrida sunʼiy intellekt (SI) texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan taʼlim sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2030 yillarda “Raqamli Oʻzbekiston” strategiyasi doirasida taʼlim tizimini raqamlashtirish va innovatsion

texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu yo‘nalishda sun’iy intellekt texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni endigina shakllanayotgan bo‘lsa-da, bu borada muhim qadamlar tashlana boshlandi. Xususan, respublikamizda raqamli ta’lim platformalari yaratilmoqda, masofaviy ta’lim tizimi rivojlantirilmoqda va o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda. Biroq, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni, joriy etish jarayonidagi muammolar va istiqbollar haqida chuqur tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud. Hozirgi kunda ta`lim jararayoni barcha mamlakatlarda turlicha rivojlanib, o`zgarib borayotgan tizim hisoblanadi. Bu tizimni rivojlantirishda zamonaviy texnologik jihozlardan keng foydalanilmoqda. Hozirgi kunda ta`lim jarayonida kompyuterdan foydalanish juda zarur va ajralmas qism bo`lib hisoblanadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellektning (AI) meteorik yuksalishi jamiyatni iqtisodiy va madaniy darajada hayratda qoldirdi. E-pochta kabi hamma joyda bo‘lishga tayyor bo‘lib ko‘rinadigan bu tez rivojlanayotgan texnologiya kundalik hayotning ko‘p jihatlarini, jumladan, biz qanday o‘rgatish va o‘rganishimizni o‘zgartirmoqda. OpenAI 2022-yil kuzida tabiiy tilni qayta ishlash chatboti bo‘lgan ChatGPT-ni chiqardi, birinchi marta AI ko‘pchilikning e’tiborini tortdi. Biroq, AI vositalari yillar davomida texnologik landshaftning bir qismi bo‘lib kelgan Agar siz qachonlardir botga qarshi shaxmat o‘ynagan bo‘lsangiz, Alisa kabi virtual yordamchiga murojaat qilgan bo‘lsangiz yoki hatto ijtimoiy media tasmangizni aylanib chiqsangiz, siz allaqachon sun’iy intellekt bilan o‘zaro aloqada bo‘lgansiz. Sun’iy intellekt – bu kompyuter fanining bir tarmog‘i bo‘lib, u xatti-harakatlar va jarayonlarni taqlid qilishga qodir dasturiy ta’minotni yaratishga qaratilgan bo‘lib, agar biz odamlar tomonidan ko‘rsatilsa, biz “aqlli” deb hisoblaymiz, shu jumladan fikrlash, o‘rganish, masalani yechish, muammolarni hal qilish, tarjima va ijodkorlikni amalga oshirish. AI tizimlari keng ko‘lamli vazifalarga qo‘llanilishi mumkin, jumladan, tilni tarjima qilish, tasvirni aniqlash, avtonom transport vositalarini boshqarish, saraton kasalligini aniqlash va davolash, generativ AI bo‘lsa, shunchaki qidirish va olish o‘rniga kontent va bilimlarni ishlab chiqarish. Generativ sun’iy 98 intellektdagi “poydevor modellari” bu keng ma’lumot bazasini o‘rganish uchun katta ma’lumotlar to‘plamida o‘qitilgan tizimlar bo‘lib, keyinchalik ular turli xil, aniqroq maqsadlarga moslashtirilishi mumkin. Ushbu o‘rganish usuli o‘z-o‘zini nazorat qiladi, ya’ni model o‘qitilgan ma’lumotlardan naqsh va munosabatlarni topish orqali o‘rganadi.

Sun’iy intellektning ta’limdagi roli quyidagilar hisoblanadi:

1. Baholash jarayonlarini avtomatlashtirish. Sun’iy intellekt ta’limdagi baholash jarayonlarini qisman avtomatlashtirish imkonini beradi. Xususan, test topshiriqlari, ko‘p variantli savollar va qisqa javobli vazifalarni baholashda SI algoritmlaridan samarali foydalanilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari inson omilini to‘liq almashtirmasa-da, baholashning tezkorligi va obyektivligini

oshiradi. Shu bilan birga, yozma ishlarni avtomatik tahlil qilish texnologiyalari ham rivojlanib, pedagogik jarayonni yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

2. Individual taʼlim va qoʻshimcha oʻqitish (tutoring) tizimlari. SI asosidagi intellektual oʻqituvchi tizimlari talabalarga qoʻshimcha oʻquv resursi sifatida xizmat qilib, ularning bazaviy bilimlarni oʻzlashtirish jarayonini qoʻllab-quvvatlaydi. Mazkur tizimlar adaptiv oʻqitish tamoyiliga asoslanib, har bir oʻquvchining bilim darajasiga moslashadi. Biroq yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar — tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda anʼanaviy pedagogning oʻrni hanuz ustuvor boʻlib qolmoqda. Shu bilan birga, SI repetitorlik tizimlarining kelajakda murakkab taʼlim jarayonlarini ham qamrab olish imkoniyati ilmiy jihatdan eʼtirof etilmoqda.

3. Tahliliy fikr-mulohaza (feedback) tizimlari. Sunʼiy intellektga asoslangan tizimlar taʼlim jarayoni boʻyicha real vaqt rejimida tahliliy maʼlumotlar va fikr-mulohazalar shakllantiradi. Ushbu yondashuv oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini monitoring qilish, oʻqitish metodlarini takomillashtirish hamda taʼlim dasturlarining samaradorligini baholash imkonini beradi. Natijada taʼlim jarayonida dalillarga asoslangan (evidence-based) qaror qabul qilish mexanizmlari rivojlanadi.

4. Oʻqituvchi rolining transformatsiyasi. Sunʼiy intellektning taʼlimga joriy etilishi oʻqituvchi rolini bekor qilmaydi, balki uning funksional mazmunini oʻzgartiradi. Zamonaviy pedagogika nazariyalariga koʻra, oʻqituvchi bilim yetkazuvchi subyektdan koʻra, koʻproq fasilitator, yoʻnaltiruvchi va individual taʼlim trayektoriyasini boshqaruvchi mutaxassis sifatida namoyon boʻladi. SI esa baholash, tahlil va qisman repetitorlik funksiyalarini bajarish orqali pedagogik jarayonni qoʻllab-quvvatlaydi.

5. Maʼlumotlarga asoslangan taʼlim boshqaruvi. Sunʼiy intellekt texnologiyalari asosida shakllantirilgan learning analytics tizimlari taʼlim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada oʻzgartirmoqda. Ushbu tizimlar oʻquvchilarning akademik faoliyati, ehtiyojlari va oʻquv trayektoriyalarini tahlil qilish orqali individual taʼlim yoʻnalishlarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada taʼlim jarayoni moslashuvchanligi oshib, resurslardan samarali foydalanish taʼminlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Mazkur tadqiqot natijalari globallashuv sharoitida sunʼiy intellekt (SI) texnologiyalarining taʼlim tizimiga integratsiyasi maktabgacha, umumiy oʻrta va oliy taʼlim bosqichlarida raqamli axborot muhitini shakllantirish hamda innovatsion menejmentni rivojlantirishning muhim omili ekanligini koʻrsatdi. SI texnologiyalari oʻquv jarayonini individuallashtirish, taʼlim sifatini oshirish, oʻquvchilarning bilim darajasini aniqlash va prognozlash, shuningdek, boshqaruv qarorlarini maʼlumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida sunʼiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va strategik hujjatlar taʼlim tizimini modernizatsiya qilish uchun muhim huquqiy va tashkiliy asos yaratganligi aniqlandi.

Jahon tajribasi esa SI asosidagi platformalar taʼlim jarayonining samaradorligini oshirish va oʻqitish metodlarini takomillashtirishda muhim rol oʻynayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Taʼlim tizimining barcha bosqichlarida sunʼiy intellekt asosidagi raqamli platformalarni bosqichma-bosqich joriy etish va ularni milliy taʼlim standartlariga moslashtirish.
2. Oʻqituvchilar va taʼlim menejerlari uchun SI texnologiyalaridan foydalanish boʻyicha maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.
3. Oliy taʼlim muassasalarida sunʼiy intellekt, maʼlumotlar tahlili (learning analytics) va raqamli pedagogika yoʻnalishlarida mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish.

Mazkur takliflar taʼlim tizimida innovatsion menejmentni rivojlantirish, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda xalqaro taʼlim makonida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

Sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida // https://lex.uz/docs/-5297046

Sunʼiy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida // https://www.lex.uz/uz/docs/-7158604

Xudayberdiyev F.Q. Sunʼiy intelektning pedagogik faoliyatdagi oʻrni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4 (5), May, 2024 SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz

Kuvandikova D.K., N.K.Azbergenova. Taʼlimda sunʼiy intellektning o'rni. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 8, Issue 04, April (2025)

Shabdullayeva L.O. Raqamli taʼlim muhitida mustaqil taʼlimni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar // Maktabgacha va maktab taʼlimi 2026 -yil, yanvar. 1(2)-son.

Исмоил Саифназаров. Янги Ўзбекистон.Сунъий интеллект инсон учун фойдалими ёки хатарли? Ижтимоий-сиёсий газета No 7 (1333), 2025 йил 11январь.

1. Sunʼiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida // https://lex.uz/docs/-5297046 ↑

2. Sunʼiy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida // https://www.lex.uz/uz/docs/-7158604 ↑

3. Xudayberdiyev F.Q. Sun'iy intelektning pedagogik faoliyatdagi oʻrni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4 (5), May, 2024 SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz ↑

4. Kuvandikova D.K., N.K.Azbergenova. Ta'limda sun'iy intellektning o'rni. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 8, Issue 04, April (2025) ↑

5. Shabdullayeva L.O. Raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar // Maktabgacha va maktab ta'limi 2026 -yil, yanvar. 1(2)-son. ↑

6. Исмоил Саифназаров. Янги Ўзбекистон.Сунъий интеллект инсон учун фойдалими ёки хатарли? Ижтимоий-сиёсий газета No 7 (1333),2025 йил 11январь. ↑

© Abdullayeva Barnoxon Baxtiyor qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Abdullayeva Barnoxon Baxtiyor qizi

KONIMEX TUMANIDA TA’LIM MUASSASALAR FAOLIYATI

Muallif: Tilegenova Eliza Baxtiyarovna

Ta’lim muassasasi: Navoiy innovatsiyalar Universiteti, Tarix yo‘nalishi, 1-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Savriyev Jasur Fahriddinovich, Tarix fanlari doktori (DSc), professor, Navoiy innovatsiyalar Universiteti.

Annotasiya: Ushbu tezisda Konimex tumanidagi talim muassasalari, ularning faoliyati va ta’lim sifati haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim, kadrlar, maktab, bog’cha, politexnikum

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РАЙОНЕ КОНИМЕКС

Аннотatsія: В данной работе рассматриваются образовательные учреждения района Конимех, их деятельность и качество образования.

Ключевые слова: Образование, персонал, школа, детский сад, политехнический институт.

ACTIVITIES OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN KONIMEX DISTRICT

Abstract: This thesis discusses educational institutions in the Konimeh district, their activities and the quality of education.

Keywords: Education, personnel, school, kindergarten, polytechnic

Ta’lim – har bir jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki ta’lim orqali insonning bilim darajasi, dunyoqarashi va kasbiy malakasi shakllanadi. Har qanday davlatning kelajagi yosh avlodning qanday ta’lim va tarbiya olayotganiga bevosita bog‘liq. Shu sababli O‘zbekistonda ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilib, uni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Avvalambor, milliy ta’lim tizimi shakllantirilib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bu hujjatlar ta’limning uzluksizligi, sifatini oshirish hamda zamonaviy talablar asosida kadrlar tayyorlashga xizmat qildi. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlar izchil rivojlana boshladi.So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim sohasida yanada katta o‘zgarishlar yuz

bermoqda. Maktabgacha ta’lim qamrovi kengayib, bolalar bog‘chalari soni oshdi. Umumta’lim maktablarida yangi fanlar joriy etildi, o‘quv dasturlari qayta ko‘rib chiqildi. O‘qituvchilarning jamiyatdagi nufuzi oshib, ularning mehnatini munosib rag‘batlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki malakali o‘qituvchi – sifatli ta’lim garovidir.Oliy ta’lim tizimida ham sezilarli yutuqlar mavjud. Oliy o‘quv yurtlari soni ko‘payib, xorijiy universitetlarning filiallari ochildi. Bu esa yoshlarning zamonaviy bilimlarni o‘z yurtida turib egallashiga imkon yaratdi. Kredit-modul tizimi joriy etilib, talabalarning mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor kuchaydi. Shuningdek, xalqaro reytinglar va standartlarga moslashish jarayoni ham jadal olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4319-son qarorida umumiy o‘rta ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, unda hududiy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ta’lim sifatini baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish vazifalari qayd etilgan[1]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida hududiy ta’lim boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning mas’uliyati va vakolatlarini aniqlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan[2].

Bugungi kunda zamonaviy bog‘chalar yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Chunki insonning shaxs sifatida shakllanishi aynan bolalik davridan boshlanadi. Shu sababli bolalar bog‘chalari nafaqat bolani vaqtincha parvarish qilish joyi, balki uning aqliy, jismoniy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydigan muhim ta’lim muassasasi hisoblanadi. Zamonaviy bog‘chalar esa yosh avlodning baxtli va barkamol bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi. Konimex tumanida maktabgacha ta’lim bo’limiga qarashli maktabgacha ta’lim mussasalar soni 2010-2017 yilga qadar 5 tani tashkil etgan. 2018 yili 8ta, 2019 yili 12ta, 2020 yil 13ta, 2021 yili 15 ta, 2022 yili 17ta, 2023 yil 55ta, 2024 yilga kelib 57 ta davlat va xususiy maktabgacha ta’lim mussasalar faoliyat yuritib kelmoqda. Ulardagi jami tarbiyalanuvchilfar soni 2521 tani tashkil etadi (2024y)[3].

Konimex tumani xalq ta’limi tarixi XX asrning 20-yillariga borib taqaladi. Sovet Hukumatining dastlabki paytlaridanoq konimexlik ta’lim fidoyilari xalq ta’lim tizimini rivojlantirish harakatida bo’lishgan. Jumladan, 1928 yili Konimex tuman xalq boshqarmasi tashkil etilgan. 1929 yili Konimex pedagogika kursi, 19310yili Konimex pedagogika texnikumi faoliyati ham yo’lga qo’yilgan. Mashaqqatli mehnat ortidan dastlabki muvaffaqiyatlar qo’lga kiritiladi. Chunonchi “Lenin” ordeni bilan Asqar Baykenov, Solih Karimovlar, “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan o’qituvchi” unvoni bilan Minasar Muratov, Pernesh Qoybag’arovlar taqdirlanganlar. Keyinchalik M. Elxo’janovlar, Ye. Ospanov, A. Rajabovlar “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan o’qituvchi” unvoniga munosib topilgan. Asta-sekinlik bilan maktablar soni ko’payib, 1930-1970 yillarda 17 ta maktab, 1970-1993 yillarda 6 ta maktab tashkil etilib, ular soni 35 tagacha yetgan[4].

Hozirda tuman xalq ta'limi tizimida 37 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatmoqta. Ulardan 1 tasi rus tilida, 3 tasi o'zbek tilida, 3 tasi qoraqalpoq tilida qolganlari esa qozoq tilidagi maktablar hisoblanadi. Ayni paytda, tumandagi umumta'lim maktabilarida 6853 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda, ularga 1115 nafar o'qituvchi tehsil berib kelmoqda(2025y).

Konimex tumanida ana shunday 1 kasb-hunar politexnikumi mavjud. Unda 474 nafar o'quvchi bilim olib, ularga 34 nafar o'qituvchi tehsil berib kelmoqda(2025y).

Konimex tumani xalq ta'limi tizimida Abdi Shangitboyev, Jaukash Shomurotov, Mustafo Normurodov, Solix Karimov, Maksuda Axmerova, Yermaxan Yesmaxanov, Amankeldi Kalmenov, Abdulla Adnayev, Yakuda Nurmaxanova, Maksat Urgenishboyev, Mukarrama Ismoilova, Shinixol Koshmetov, Marziya Kalandarova, Bibiaysha Aytbayeva, Kunsulu Narmuratova, Xosiyat Nizomova, Xosiyat Usmonova, Ibogul Narizova, Nasibeli Navruzboyeva, Bozor Mirakimova, Urinbosar Namozov, Toshbibi Mamaraimovalarning xizmatlari etirofga sazovor. So'nggi vaqtlarda Konimex tumanida malakali o'qituvchilar, davlatning turli mukofotlari bilan taqdirlangan fidoyi murabbiylar juda kupchilikni tashkil etadi. Chunonchi, Toshpulat Yokubov "O'zbekiston Respublikasida xizmat kursatgan yoshlar murabbiysi" unvoni, Meyramkul Bisenova "O'zbekistonda xizmat kursatgan ukituvchi" unvoni, Ibo Narizova "Shuxrat" medali, "Fidokorona xizmatlari uchun" hamda "Do'stlik" ordenlari, Sanam Jabarova II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni, Riskul Serikbayeva "Do'stlik" ordeni, Baktigul Umarova "Do'stlik" ordeni, Akshagul Tulegenova "Do'stlik" ordeni, Maksat Urgenishboyev "Mehnat shuhrati" ordeni, Sevar Togayeva "Sog'lom avlod uchun" ordeni, Utiloy Ashurova "Mexnat shuxrati" ordeni, Yerejep Jumaboyev, Nazokat Sadirboyeva, Turegul Narimbetova, Boymurat Yelibayev xamda Maxaram Utkilbayevalar "Shuhrat" medallari bilan takdirlanishgan.

Shuningdek, xalq ta'limi tizimining taniqli vakili Mengliboy Murotov uzoq yillar yoshlarga ta'lim berish bilan birga, adabiyot maydonida xam samarali faoliyat olib bordi. Uning 2002 yili "Diydor", 2005 yil "Yuragimda borin aytdim" nomli kitoblari, 2008 yili "Gunox", 2009 yili "Mening bola qalbim", 2011 yili "Savob" romanlari dunyo yuzini ko'rdi. Konimex tumani xalq ta'limi tizimining yana bir zabardast vakili Akshagul Tulegenovadir. Akshagul Tulegenova xalq ta'limining turli lavozimlarida faoliyat olib borish bilan birga ijod bilan ham shugullandi.

Taniqli ijodkorning 2002 yili "Yerkelegim keledi" nomli, 2006 yili "Sag'inish" nomli, shuningdek, "Bizdin uyge qarlig'ash uya salg'an" nomli sheriy to'plamlari nashrdan chiqarildi. Shuningdek, uning she'rlari "Muborak damlar" nomli, "Shurilali yeldin, shabiti" nomli sheriy to'plamlarga kiritilgan bo'lsa, vatanparvarlikni targ'ib etuvchi sherlari respublika mikyosida utkaziladigan mushoiralarda 2013 yili 2-o'rinni, 2015 yili 1-o'rinni qulga kiritdi.A.Tulegenovaning pedagogik va ijodiy faoliyatidagi yutuqlari yuqori baholanib, 1999 yil "Ijodkor o'qituvchi", 2001 yili esa O'zbekiston Respublikasi xalq

ta’limi a’lochisi" ko’krak nishoni bilan taqdirlandi. Bundan tashkari, 2016 yil "Mustaqillikning 25 yilligi" ko’krak nishoni, 2018 yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlandi[5].

Navoiy davlat konchilik institutining "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasi mudiri (1998-2004), Energiya-mexanika fakulteti dekani (2004-2007) lavozimlarida ishlagan Karibek Sherov uzoq yillar tog’-kon sanoatini rivojlantirish borasidagi samarali faoliyati bilan oliy talim tizimiga munosib hissa qushgan bo’lsa, Navoiy davlat pedagogika instituti dots.ti Zauresh Yelemesova o’zining pedagogik faoliyati davomida "Maktabda geometriyani o’qitishda induktiv va deduktiv mushoxada qilish ko’nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shuningdek, olimaning 3 ta monografiya, 2 ta o’quv uslubiy qullanma, 100 dan ortiq ilmiy maqolasi, jumladan, "Maktabda geometriyani amaliy yo’naltirish asosida o’qitishning pedagogik asoslari" nomli o’quv uslubiy qo’llanmasi chop etildi.

Pedagogika fanlari nomzodi, dots.ti Z. Yelemesova Navoiy davlat pedagogika instituti va Qozog’iston Respublikasining Muxtor Avezov nomidagi Shimkent davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlikda professor-o’qituvchilarning birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarini yo’lga qo’yish, darslik, o’quv, o’quv-uslubiy qo’llanmalar yaratish, o’zaro tajriba almashishda hissa qo’shib kelmoqda. Konimex tumani ta’lim fidoyilaridan yana biri Gulchexra Sharifjonova "Yengil sanoatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan birga "Ipoteka krediti: kecha, bugun, ertaga" nomli monografiyasini chop ettirdi. Bahodir Jumaboyev esa Navoiy davlat pedagogika institutidagi faoliyati davomida "Shurkul suv ombori ovlanadigan baliqlari morfobiologiyasi, ekologik xususiyatlari va baliq maxsuldorligini oshirish tadbirlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini ximoya kilib, zoologiya fani rivojiga katta hissa qo’shdi. Bahodir Jumabayev respublikamizda olib borilayotgan ta’lim soxasidagi isloxotlarni amalga oshirish maqsadida 2009 yili "Ta’lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi buyicha Germaniya Federativ Respublikasining "Myuggel’zee talim markazi"da malakasini oshirib qaytdi.

Bahodir Jumabayev 2014 yilda Rossiyaning Nijniy Novgorod davlat universiteti bilan tuzilgan xalqaro shartnomaga asosan "O’zbekiston fauna va florasini inventarizatsiya qilish" bo’yicha xalqaro ekspeditsiya guruxida faoliyat olib borib, 60 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy maqolalari, 12 ta o’quv-uslubiy qo’llanmalarini chop ettirdi. Ayni vaqtda, "Zarafshon daryosi o’rta va quyi oqimi (soxili) suv havzalarining minerallanish darajasi va ularning baliqlar tarqalishi va ekologik guruhlariga ta’siri" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Tadqiqotchi Gavhar Xotamova esa "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish tadqiqotlari" mavzusida ilmiy tadqiqot ishini olib borish bilan birga "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ekonometrik tadqiq qilish" nomli monografiya, "Ekonomiyalik teoriya",

"Kichik biznes va tadbirkorlik" nomli o’quv-uslubiy qo’llanmalari orqali iqtisod fanini o’qitishga munosib hissa qo’shib kelmoqda[6].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4319-son qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

3.Navoiy viloyati statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan materiallar asosida.

4.Konimex tumani kecha va bugun. J.Mustafoyev, U.Narzullayev, L.Berdimuratova, Z.Safarov, Sahhof, 2021-yil, B.301.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4319-son qarori. ↑

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. ↑

3. Navoiy viloyati statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan. ↑

4. Konimex tumani kecha va bugun. J.Mustafoyev, U.Narzullayev, L.Berdimuratova, Z.Safarov, Sahhof, 2021-yil, B.301. ↑

5. Konimex tumani kecha va bugun. J.Mustafoyev, U.Narzullayev, L.Berdimuratova, Z.Safarov, Sahhof, 2021-yil, B.302. ↑

6. Konimex tumani kecha va bugun. J.Mustafoyev, U.Narzullayev, L.Berdimuratova, Z.Safarov, Sahhof, 2021-yil, B.304. ↑

© Tilegenova Eliza Baxtiyarovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Tilegenova Eliza Baxtiyarovna

SOVET DAVRIDA KARMANA TUMANIDA CHORVACHILIK

Abdug‘aniyeva Gulira’no Alijon qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. 1930 – 1940-yillarda O‘zbekiston SSRda chorvachilik tarmog‘ining keskin qisqarishi Sovet jamoalashtirish siyosatining majburiy xarakteri bilan izohlanadi. Mazkur siyosat doirasida shaxsiy xo‘jaliklar tugatilib, chorva mollari kolxozlar tasarrufiga o‘tkazildi. Natijada aholining davlatga chorva topshirishdan bo‘yin tovlash maqsadida ularni ommaviy sotishi yoki yo‘q qilishi keng tarqaldi. Kolxozlashtirish jarayonining yetarli tashkiliy-iqtisodiy asoslar va moddiy-texnik ta’minotsiz amalga oshirilishi chorvachilikda tizimli inqirozni keltirib chiqardi. Buning oqibatida chorva soni va mahsuldorligi keskin pasaydi hamda Sovet Ittifoqining boshqa hududlariga nisbatan past ko‘rsatkichlar qayd etildi. Ushbu jarayonlar respublika agrar iqtisodiyotining izdan chiqishiga va oziq-ovqat ta’minoti muammolarining kuchayishiga olib keldi.

Аннотация. Резкое сокращение животноводческой отрасли в Узбекской ССР в 1930-1940 годах объясняется принудительным характером советской политики коллективизации. В рамках этой политики личные хозяйства были ликвидированы, а скот передан в ведение колхозов. В результате население начало массово продавать или уничтожать скот, чтобы уклониться от сдачи его государству. Осуществление процесса коллективизации без достаточных организационно-экономических основ и материально-технического обеспечения привело к системному кризису в животноводстве. Это привело к резкому снижению поголовья и продуктивности скота, что было ниже, чем в других регионах Советского Союза. Эти процессы привели к дестабилизации аграрной экономики республики и усилению проблем продовольственного обеспечения.

Abstract. The sharp reduction of the livestock sector in the Uzbek SSR in the 1930s and 1940s is explained by the forced nature of the Soviet collectivization policy. Within the framework of this policy, private farms were abolished, and livestock was transferred to the collective farms. As a result, the mass sale or destruction of livestock by the population to evade transferring them to the state became widespread. The implementation of the collectivization process without sufficient organizational-economic foundations and material-technical support led to a systemic crisis in livestock farming. As a result, livestock numbers and productivity decreased sharply, and lower indicators

were recorded compared to other regions of the Soviet Union. These processes led to the disruption of the republic's agrarian economy and the exacerbation of food supply problems.

Kalit so'zlar: kolxozlashtirish, chorva, yakka xo'jalik, chechak, qorason, oqra, karantin, kana, veterinar, xashak tayyorlash rejasi.

***Ключевые слова*:** коллективизация, скот, индивидуальное хозяйство, оспа, черная оспа, белая оспа, карантин, клещ, ветеринар, план заготовки сена.

Keywords: collectivization, livestock, individual farm, smallpox, blackleg, white grass, quarantine, tick, veterinarian, fodder preparation plan.

Kirish. Sovet davrida reja iqtisodiyoti asosida shakllangan qishloq xo'jaligi tizimi qat'iy markazlashgan boshqaruv tamoyillariga tayanib, hududlarning tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini yetarli darajada inobatga olmadi. Ayniqsa, 1930-yillardan boshlab Sovet jamoalashtirish siyosati doirasida amalga oshirilgan tub islohotlar agrar sohada keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur siyosat shaxsiy xo'jaliklarni tugatish va ularning tasarrufidagi ishlab chiqarish vositalarini, jumladan chorva mollarini davlat va jamoa xo'jaliklari ixtiyoriga o'tkazishni nazarda tutgan bo'lib, amalda ko'pincha majburiy va ma'muriy usullar orqali joriy etildi. Bu jarayonlar Karmana tumani misolida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lib, chorvachilik tarmog'ining izdan chiqishi, chorva soni va mahsuldorligining keskin pasayishi bilan tavsiflanadi. Hududiy sharoitlar va mavjud resurslar hisobga olinmagan holda olib borilgan siyosat chorvachilikni samarali tashkil etish imkoniyatlarini cheklab qo'ydi hamda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur maqolaning maqsadi ushbu davrda chorvachilik sohasida yuzaga kelgan inqiroz holatini tarixiy manbalar va ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish, uning asosiy sabablari hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur mavzu yuzasidan O'zbekistonda turli davrlarda M. Qodirova[1], B. Axmedov[2], R. Jo'rayev[3] kabi bir qator tarixchi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Chunonchi, R. Jo'rayev O'zbekistonda 1917 – 1941-yillarda sovet hokimiyatining chorvachilik siyosati, uning ahvoli, iqtisodiy hayotdagi o'rni, chorva bosh soni va chorvachilik xo'jaliklaridagi o'zgarishlar hamda muammolarni tahlil qilgan. M. Qodirova esa o'z tadqiqotida XX asrning 80-yillarida O'zbekiston chorvachiligining barcha toifadagi xo'jaliklardagi ahvoli, ozuqa bazasi, xususan, jamoa chorvachiligi holati, chorvachilikda ijara munosabatlariga o'tilishi, ilk fermerlik harakatlarining vujudga kelishi, chorvachilikda saqlanib qolgan muammolarni tahlil qilgan. B. Axmedov tadqiqot ishida esa chorvachilikning muhim tarmog'i hisoblangan qorako'lchilikda sovet hokimiyatining O'zbekistondagi yuritgan siyosatining mohiyati, qorako'lchilik ahvoli va muammolari, shuningdek, mustaqillik yillaridagi tarmoqni rivojlantirish borasidagi ishlar yoritib berilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlardan farqli oʻlaroq, mazkur maqolada SSSRning chorvachilik sohasida amalga oshirgan siyosatining ogʻir oqibatlari va natijalari Karmana tumani misolida tarixiy jihatdan tadqiq qilingan.

Tahlil va natijalar. Sovet xoʻjalik tizimida Karmana tumanidagi kolxoz va sovxozlar mustaqil iqtisodiy subyekt sifatida faoliyat yurita olmagan. Kollektivlashtirish natijasida aholining katta qismi chorvalarini soʻyib, sotib yubora boshlagan. Mollarning ommaviy soʻyilishi ortidan chorva soni keskin qisqarib, chorvachilik ogʻir ahvolga kelib qolgan. Bundan tashqari, yoppasiga chorvaning bozorga olib chiqilishi uning tannarxi tushishiga sabab boʻlgan. Jumladan, 1930-yil ularning narxlari 30-50%ga tushib, 200 soʻm turadigan ot 100-120 soʻmga narxlangan[6;106].

Kolxozlar tuzilayotganda umumlashtirilgan chorva mollari uchun yetarli ozuqa zaxirasini yaratish muammosi ham paydo boʻldi. Kolxoz mulkiga aylangan chorva mollarining katta qismi ozuqasiz qolib ketib, nobud boʻldi. Chorva soni, mahsulot hajmi va topshirish rejasi markaz tomonidan belgilangan boʻlib, rejaning bajarilishi sifati emas, miqdori asosiy mezon sifatida qaralgan. Bu holat chorva mollarining parvarishi, veterinariya xizmati va naslchilik ishlarining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab boʻlgan. Asosiy e'tibor chorva sifatiga emas soniga qaratilgan. Oqibatda chorva mollari orasida kasalliklar va nobud boʻlishlar soni ortib, 1930-yilning oʻzida Oʻzbekiston SSRda qoramollar soni 60 ming boshga qisqargan[4].

Chorvachilik sohasida ogʻir ahvol uzoq yillar davom etishiga quyidagi omillar sabab boʻlgan:

Birinchi navbatda, sovet davlatining markazlashgan reja iqtisodiyoti chorvachilik rivojiga salbiy ta'sir koʻrsatdi. Karmana tumanidagi kolxoz va sovxozlar mustaqil qaror qabul qilish huquqidan mahrum boʻlib, barcha koʻrsatmalar markazdan belgilangan. Chorva soni va mahsulot hajmi reja asosida belgilangan boʻlib, mahalliy iqlim, yem-xashak bazasi va aholi ehtiyojlari yetarlicha hisobga olinmagan. Xususan, 1938-yil uchun Oʻzbekiston hukumati tomonidan Karmana rayoni uchun berilgan qorakoʻl shartnoma qilish rejasi 22000 dona qabul qilinib, sovet tashqi savdo uyushmasi tomonidan qorakoʻl shartnoma qilish rejasi kolxoz tovar fermalari boʻyicha 15135 dona, kolxozchilar boʻyicha 4734 dona, yakka xoʻjaliklar 70 dona, bir qoʻyliklar 486 dona jami rayon boʻyicha 20434 dona yoxud 92 % bajarilganligi koʻrsatilgan. Davlat rejasi nima sababdan toʻliq emas, 92 % bajarilganligi soʻralganda, qoʻylar oʻlganligi va sotilganligi bilan izohlangan hamda koʻplab mas'ul shaxslar javobgarlikka tortilgan[5;132].

Ikkinchi muhim sabab – paxtachilikka haddan tashqari ustuvor ahamiyat berilishi edi. Sugʻoriladigan yerlarning katta qismi paxta ekinlariga ajratilib, yem-xashak yetishtirish ikkinchi darajaga tushib qoldi. Natijada Karmana tumanidagi kolxozlarda boʻlgan chorva mollariga nisbatan yaylov yerlari yetishmaganligi chorva soni va chorva

mahsulotlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi[5;171]. Yaylovlarning qisqarishi va degradatsiya[1]ga uchrashi chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada chekladi. 1938-yil O'zbekiston yer ishlari xalq komissarligi tomonidan Karmana tumani uchun tuzilgan xashak tayyorlash rejasiga ko'ra, 3300 gektar yerda miyazor hosili 16500 sentner, 2600 gektar yerda yantoqzor hosili 13000 sentner miqdorda bajarishga kirishilgan[5;211]. Biroq bu raqamlar mavjud chorva soniga nisbatan kam miqdorni tashkil etgan. Shuningdek, ekologik omillar sababli rejaga muvofiq xashak tayyorlanmagan. Joylarda miya va qamishlarni birinchi o'rilishi 10-iyundan boshlab 1-iyulga qadar tugallangan. O'rish ishlari 15-avgustdan boshlab 1-sentabrda tamomlangan, yantoq va karraklarni o'rish ularning gullash va tuxumga o'tish vaqtidan boshlanib, 1-sentabrga qadar tamomlanishi belgilangan. To'liq yetilmagan o'simlikni yig'ib olish kelgusi yilgi hosil miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, kelasi yilgi xashak rejasini bajarish uchun o't urug'ini ekish jaroyini ham qoniqarsiz ahvolda bo'lgan. Xususan, 1938-yil 22-martdagi majlis bayoniga ko'ra, Ayronchi, Varq, Uyrot, Arabsaroy qishloq sovetlarida chorva uchun o't ekish rejasi sust bajarilgan. Hazara qishloq sovet kolxozlari o't urug'larini olib ketishni ta'min qilmagani uchun Hazara qishloq sovet raisi Rahmatovga qattiq ogohlantirish e'lon qilingan[5;101]. Xashak tayyorlash rejasi bajarilishi ustidan nazorat va rahbarlik qilmagani uchun rayon yer-suv bo'limi mudiri Rahimov hamda Qizil matbuot kolxozi raisi Sattorovga qattiq ogohlantirish berilgan[5;231]. Bundan tashqari, Karmana rayonidagi kolxozlarda chorva mollariga nisbatan yaylov yerlari yetishmagan. Xususan, Qarnob sovxozidan berilgan 36 200 gektar yer Karmana rayonidan qaytarib olinganligi sababli rayon bo'yicha Arabsaroy, Yangiqo'rg'on qishloq sovetlarining butun kolxozlari hamda boshqa sovetlardagi ba'zi kolxozlar yaylovsiz qolgan. Bu muammo yuzasidan ushbu kolxoz xizmatchilari tomonidan yuborilgan shikoyatga ko'ra respublika Prezdiumiga bir necha marotaba telegram va xatlar yuborilgan. Xatda mavjud vaziyatni tekshirish va Karmana kolxozlarini yaylov bilan ta'minlash hamda qo'shni rayonlar bilan bo'lgan yer janjallarini hal qilinishi talab etilgan bo'lsa ham o'rta-Zarafshon yer tuzuv partiyasida natijasiz qoldirganligi qayd etilgan. Shundan so'ng ushbu masalalarni shikoyat etuvchi kolxoz vakillari bilan birga O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Xalq Komissarlar Soveti va Yer ishlari xalq komissarligiga borib hal qilish masalasi ham ko'rilgan.

Uchinchi sabab sifatida ekologik muammolarni ko'rsatish mumkin. Noto'g'ri sug'orish, yerlarning sho'rlanishi va suv tanqisligi, yaylovlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan bir qatorda, hayvonlar orasida turli xil kasalliklarning tarqalishi vaziyatni yanada og'irlashuviga sabab bo'lgan. Birgina 1938-yilning o'zida chorva mollari orasida chechak, qorason, oqra kasalliklari tarqalgan. Natijada ko'plab hayvonlar nobud bo'lgan. Jumladan, 1938-yil 1-fevralda Karmana rayonining Varq qishloq sovetidagi Kalenin kolxozida qo'ylarda yuqumli chechak kasalini tarqalganligi haqida hujjatlar mavjud[2;34]. Chechak kasali bilan zararlangan fermadagi transport va inventarlarni ferma hududidan tashqariga chiqarishga yo'l qo'yilmasligi va bu ishga ferma

xodimlaridan bir kishi mas’ul sifatida belgilanishi, punktdan karantin qilingan mollarni chiqarishga ta’qiqlanganligi, zararlangan fermadagi xizmatchilarni sog‘ fermalarga chiqarish va sog‘ qo‘ylarni oldiga borish mumkin emasligi kabi talablar belgilanganligiga qaramay kasallikning yuqish xavfini oldini olib bo‘lmagan. Sababi, avvalo, texnika va inventarlar yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan veterinarlar sonining kamligi hamda ularning malakasi yetarli emasligi jarayonni og‘ir holatga kelishiga sabab bo‘lgan. Chechak kasali bilan zararlangan qo‘ylarni o‘pkalari va terisini hayvonlar qabristoniga ko‘milishi belgilangan. Biroq hamma yerlar, hattoki insonlar uchun foydalaniladigan qabristonlar ham paxtachilikka moslashtirilayotgan bir paytda hayvonlar uchun qabristonlar tashkil etish masalasi murakkab kechgan. Shu sababli kasallikdan nobud bo‘lgan qo‘ylar dalalarga, cho‘l hududi va shunga o‘xshash hududlarga tashlab ketilgan. Bu holat kasallikning yanada avj olishiga olib kelgan.

Xuddi shu davrda Varq qishloq sovetidagi “Voroshilov” kolxozining 5-2-brigadasida katta shoxli mollarda qorason[2] kasalligi paydo bo‘lganligi sababli “Karantin” e’lon qilinadi. Qisqa muddatdan so‘ng Posyolkovoy sovetiga qarashli Menziniskiy kolxozining 2/5-brigadasida katta shoxli mollariga qorason kasali paydo bo‘lgani sababli karantin e’lon qilingan[5;94]. Chorva mollarini karantin qilingan joydan boshqa joyga chiqarish, ozuqasini olib chiqish, kasallangan hayvonlarni sotish, sutidan foydalanishga ruxsat etilmagan. Biroq xalqning moddiy ahvoli va hukumat tomonidan belgilangan rejalarni bajarish maqsadida ushbu talablarga to‘la rioya etilmagan.

O‘zbekiston Xalq Komissarlar Sovetining katta shoxli mollarda tarqalgan oqra[3] kasali bilan kurash choralari haqidagi №11/49-sonli chiqarilgan majburiy qarori qabul qilingan. 1938-yil Karmana tumanida 15-fevraldan 1-martga qadar kasallangan mollar ko‘rikdan o‘tkazilgan[5;188]. Oqra kasali bilan kurashuvchi kadrlar tayyorlash uchun 2 kunlik kurslar ochilgan va shu kurslarga har bir kolxozdan bittadan kishilar chaqirilgan. Zarur chora-tadbirlar tumanning “Paxta azamati” gazetasida e’lon qilingan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Sovet davrida Karmana tumanida chorvachilikning og‘ir ahvoli tasodifiy holat emas, balki markazlashgan boshqaruv tizimi, paxtachilikka biryoqlama e’tibor, ekologik beqarorlik va ijtimoiy rag‘batlarning yetishmasligi natijasida yuzaga kelgan tizimli inqiroz edi. Sovet hukumati tomonidan shaxsiy chorva mollari tortib olinib, kolxozlashtirilishi chorva soni va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu inqiroz chorvachilikni qishloq xo‘jaligining yordamchi tarmog‘iga aylantirib qo‘ydi hamda hududning uzoq muddatli iqtisodiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mazkur tarixiy tajriba bugungi kunda qishloq xo‘jaligini muvozanatli rivojlantirish, tarmoqlar o‘rtasida sog‘lom nisbatni saqlash va ekologik omillarni inobatga olish zarurligini yaqqol ko‘rsatadi. Karmana tumanida chorvachilikni tiklash va rivojlantirish uchun Sovet davrida yo‘l qo‘yilgan xatolardan xulosa chiqarish muhim ilmiy va amaliy

ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu davrda aholining kundalik goʻsht isteʼmoli va chorvadorlarning ahvoli kabi masalalarni oʻrganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ʻYXATI

1. Кадырова М.М. История развития животноводства в Узбекистане (80-годы): дисс... к.и.н. – Ташкент,1993. 140 с.

2. Ахмедов Б.А. Ўзбекистонда қоракўлчиликнинг аҳволи (1917-2017 йй.): т.ф.ф.д дисс... – Самарқанд, 2020. – 169 б.

3. Жўраев Р.Х. Ўзбекистонда чорвачилик:аҳволи ва муаммолари (1917-1941 йй.): т.ф.ф.д дисс...– Тошкент, 2021. – 164 б.

4. “Chorvangni sotmasang, baribir davlat tortib oladi”. Kolxozlashtirish davrida Oʻzbekistonda aholi chorvasi qay tarzda talon-taroj qilingan? // https://oyina.uz/uz/article/3656

5. Karmana tumani davlat arxivi, Sh-2 jamgʻarma, 1-roʻyxat, 49-yigʻmajild.

6. Karmana tarixi. O. Xaitova, X. Qurbonov. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. -302 b.

1. Degradatsiya - bu obyekt yoki hodisaning xususiyatlarini vaqt oʻtishi bilan yomonlashuvi, tabiat va vaqt qonunlariga muvofiq tashqi taʼsir tufayli materiyaning asta-sekin yomonlashishi, pasayishi, yoʻq qilinishi. ↑

2. Qorason kasalligi bevosita yuqmaydigan o’tkir yuqumli kasallik bo’lib ,qoramol va qo’ylarda uchraydi .Tananing go’shtdor joylarida g’ijirlaydigan (krepetatsiya), qat’iy chegarali shish paydo bo’ladi , hayvonlar oqsab, tez halok bo’ladi. ↑

3. Hayvonlarda “oqra” deb ataladigan kasallik, asosan, Oq mushak kasalligi (Oqsil kasalligi) boʻlib, bu selen va vitamin E yetishmovchiligidan kelib chiqadigan, mushaklar shikastlanishi, shish, va hayvonning (ayniqqa buzogʻi, qoʻziqorinlar) zaiflashishi bilan kechuvchi kasallikdir; uni davolashda selen preparatlari va vitaminlar qoʻllaniladi, oldini olishda esa ratsionga mineral qoʻshimchalar kiritiladi. ↑

© Abdugʻaniyeva Gulira’no Alijon qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Abdugʻaniyeva Gulira’no Alijon qizi

YANGI OʻZBEKISTONDA SHAXMATGA Eʼ TIBOR VA UNING NATIJALARI

Abdugʻaniyeva Gulira'no Alijon qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

"Ijtimioy-gumanitar fanlar" kafedrasi oʻqituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi Oʻzbekistonda shaxmat sporti boʻyicha belgilangan vazifalar, amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari tahlil etilgan. Shu bilan bir qatorda Oʻzbekiston milliy terma jamoasining xalqaro reytinglardagi oʻrnining oshib borishi, qoʻlga kiritilgan yutuqlar va uning istiqbollari xususida soʻz yuritilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются задачи, поставленные по шахматному спорту в Новом Узбекистане, реализованные реформы и их результаты. Кроме того, речь шла о росте позиций национальной сборной Узбекистана в международных рейтингах, достигнутых успехах и ее перспективах.

Abstract. This article analyzes the tasks set for chess sports in New Uzbekistan, the reforms implemented, and their results. At the same time, the increase in the position of the national team of Uzbekistan in international rankings, its achievements and prospects were discussed.

Kalit soʻzlar: FIDE, Xalqaro shaxmat maktabi, Wisdom school, shaxmat Olimpiadasi, Jahon kubogi musobaqasi.

***Ключевые слова*:** ФИДЕ, Международная шахматная школа, Школа мудрости, Шахматная олимпиада, Кубок мира.

Keywords: FIDE, International Chess School, Wisdom School, Chess Olympiad, World Cup competition.

Kirish. Oʻzbekiston shaxmati tarixida 2017-yildan boshlab yangi bosqich boshlandi. Bu davr mamlakatda shaxmatni davlat siyosati darajasida rivojlantirish, uni ommaviy sport turiga aylantirish hamda xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar bilan tavsiflanadi. Qisqa vaqt ichida qabul qilingan huquqiy qarorlar, taʼlim tizimidagi islohotlar, infratuzilmaning kengayishi va xalqaro musobaqalarda qoʻlga kiritilgan natijalar Oʻzbekiston shaxmatini jahon shaxmat xaritasida yetakchi oʻrinlardan biriga olib chiqdi. Jumladan, bu davrda Oʻzbekiston xalqaro reytinglarda bir necha pogʻona yuqorilagan holda kuchli 15 ta mamlakat qatoridan joy oldi. Grossmeysterlar soni oshdi, shaxmatni rivojlantirish qamrovi kengaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni o‘rganishda mikrotarix, tizimlashtirish, statistik va qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. 2017 – 2019-yillar tub islohotlarning boshlanishi muhim o‘zgarishlar bosqichi sifatida belgilanadi. Davlat darajasida qabul qilingan qarorlar sohaning boshqaruv va tashkiliy asoslarini mustahkamladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida iqtidorli yoshlarni saralash va tarbiyalash tizimini takomillashtirish zarurligini ta’kidladi[1]. Bu vazifa sport sohasi bilan bir qatorda shaxmat rivojiga ham muhim turtki berdi. Xususan, 2018-yil 9-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3906-son qarori qabul qilindi[2]. Unga muvofiq yuqori malakali murabbiy kadrlarni jalb qilgan holda iqtidorli yosh shaxmatchilarni tayyorlash, shaxmat bo‘yicha milliy terma jamoaning amaldagi a’zolari bilan doimiy aloqani ta’minlash, shuningdek, shaxmatni insonning aql va tafakkur jarayonini rivojlantiruvchi sport turi sifatida yanada ommalashtirish maqsadida vazifalar belglanib olindi.

Shuningdek, 2019-yil 2-dekabr kuni O‘zbekiston va yana 22 davlat tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan shaxmatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus rezolyutsiya qabul qilinib, 20-iyul Butunjahon shaxmat kuni sifatida belgilandi[3]. Bu bosqichda qabul qilingan boshqaruv va tashkiliy asosga ega bo‘lgan qarorlar keyingi yillarda shaxmatning ommaviyligi va natijadorligi oshishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Shaxmatni ommaviy sport turiga aylantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar ham amalga oshirildi. Asosiy e’tibor shaxmatni ta’lim tizimiga joriy etish, sport maktablari faoliyatini kengaytirish va kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, 2021-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4954-son qaroriga muvofiq shaxmatni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqildi[4]. Bu o‘zbek shaxmatini yanada yuqori natijalarga ko‘tarishga qaratilgan muhim qaror bo‘ldi. Ushbu dastur doirasida:

- shaxmat bilan muntazam shug‘ullanuvchilar sonini 3 foizga yetkazish;
- shaxmat rivojlantiriladigan tumanlar sonini 40 taga yetkazish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida 25 ta shaxmat maktabi va klubini tashkil etish;
- sport maktablarida shaxmat bo‘limlari sonini 20 foizga oshirish kabi ulkan vazifalar belgilandi.

2017-yildan keng ko‘lamda boshlangan va amalga oshirilgan islohotlar o‘z samarasini ko‘rsata boshladi. O‘zbekiston shaxmatchilari xalqaro musobaqalarda yuqori

natijalarga erishib, mamlakatning jahon shaxmat reytingidagi oʻrni mustahkamlandi. 2022-yilda Oʻzbekiston ilk bor FIDE jahon reytingida 19-oʻrinni egalladi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa yetakchi oʻrinni saqlab qoldi. Jumladan, Qozogʻiston – 37, Qirgʻiziston – 76, Tojikiston – 85, Turkmaniston – 116-oʻrinni egallagan[5].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustda “Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-347-sonli yana bir muhim qarori qabul qilindi. Unga koʻra:

Navoiy viloyatidagi “Toʻdakoʻl” dam olish maskani hududida yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan maktabdan tashqari davlat sport-taʼlim muassasasi hisoblangan Xalqaro shaxmat maktabini tashkil qilish belgilandi. Ushbu maktab yil davomida 1700 nafar oʻgʻil-qizni oʻqitish va 7500 nafar yoshni turli tadbirlar bilan qamrab olish imkoniyatiga ega[6].

Oʻzbekiston shaxmat federatsiyasining 2019-yil 16-fevralda Shaxmat boʻyicha Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar-oʻsmirlar sport maktabi negizida Xalqaro shaxmat akademiyasi tashkil etildi. Xalqaro shaxmat akademiyasi davlat muassasasi hamda qobiliyatli yosh shaxmatchilarni tanlab oluvchi va tayyorlovchi hamda shaxmat boʻyicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga yoʻnaltirilgan maktabdan tashqari sport-taʼlim muassasasi hisoblanadi[7].

Xususiy shaxmat klublari faoliyatini yanada oshirish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab “Shaxmat stipendiyasi” taʼsis etildi. “Maktab ligasi”, “Akademik litsey ligasi”, “Professional taʼlim muassasalari ligasi” va “Talabalar ligasi” musobaqalarida gʻolib boʻlgan oʻquvchi-yoshlar va talabalar yil davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida “Shaxmat stipendiyasi” bilan ragʻbatlantirish koʻzda tutildi. Xususiy shaxmat klublariga ular tomonidan shaxmat toʻgaraklarini tashkil etish va aholiga xizmat koʻrsatish uchun davlat mulki obyektlari va hududlardagi “Yoshlar markazlari”dan ijara toʻlovlarisiz (kommunal toʻlovlar) joy ajratiladi[8].

Soʻnggi yillarda jahon shaxmat yulduzlarining xalqaro turnirlari tashkil etildi. Jumladan, 2017-yil Oʻzbekiston Shaxmat Federatsiyasi milliy terma jamoasi aʼzolari 50 ga yaqin xalqaro turnirlarda ishtirok etib, jami 39 ta oltin, 35 ta kumush, 36 ta bronza medallarni qoʻlga kiritdilar[9].

Ozarbayjonning Naxchivan shahrida oʻtkazilgan Butunjahon oʻsmirlar shaxmat Olimpiadasida kumush medalni qoʻlga kiritgani uchun “Yilning eng yaxshi yoshlar terma jamoasi” mukofoti ham Oʻzbekiston shaxmat federatsiyasiga topshirildi[10]. 2022-yil Niderlandiyada oʻtkazilgan “Tata Steyel Chess” xalqaro turnirida Nodirbek Abdusattorov va Javohir Sindorovga yilning eng yaxshi shaxmat mamlakatiga topshiriladigan “Oltin

minora” (Tour D’or) sovrini topshirildi. Ushbu sovrin timsolida Oʻzbekiston dunyo miqyosida yilning eng yaxshi shaxmat mamlakati, deya tan olindi[11].

2025-yil noyabr-dekabr oylarida Hindistonning Goa shahrida shaxmat boʻyicha dunyoning turli davlatlaridan 200 nafardan ortiq shaxmatchi ishtirok etgan Jahon kubogi musobaqasida 19 yoshli oʻzbekistonlik shaxmatchi Javohir Sindorov finalgacha yetib bordi. Hal qiluvchi bahsda unga xitoylik grandmaster Vey Yi raqiblik qildi. 24 – 25-noyabr kuni boʻlgan klassik partiyalarda durang qayd etilib, gʻolib 26-noyabr kuni tay-brekda aniqlandi. Tay-brek natijalari boʻyicha Javohir Sindorov 1,5:0,5 hisobida gʻalaba qozondi va FIDE Jahon kubogi – 2025 gʻolibi boʻldi[12]. Ushbu natija Oʻzbekiston shaxmat tarixi uchun eng yirik yutuqlardan biri sifatida qayd etiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Oʻzbekiston milliy terma jamoasi aʼzosi Sindarov Javohir Sanjarbekovichga “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan sportchi” faxriy unvoni berildi[13].

Nodirbek Abdusattorov Buyuk Britaniyaning London shahrida oʻtayotgan “London Chess Classic 2025” turnirida gʻalaba qozondi[14].

2025 yilning 28-noyabr – 8-dekabr kunlari Ispaniyaning San-Boy-de-Llobregat (Barselona) shahrida “El Llobregat Open Chess – 2025” xalqaro shaxmat turniri boʻlib oʻtdi. Turnirning “A” guruhida Oʻzbekiston ayollar terma jamoasining 6 nafar aʼzosi qatnashdi. Omonova Umida va Karimova Guldona ayollar xalqaro grossmeysteri unvonini, Xalilova Madinabonu esa ayollar xalqaro toifadagi sport ustasi normativini bajardi. Umida Omonova ayollar oʻrtasida 3-oʻrinni qoʻlga kiritdi[15].

2025-yilning 16 – 21 dekabr kunlari Turkiyaning Antaliya shahrida shaxmat boʻyicha 9 – 17 yoshgacha boʻlgan oʻgʻil bolalar va qizlar oʻrtasida rapid hamda blits yoʻnalishlari boʻyicha Jahon chempionatida Oʻzbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida 1 oʻrinni egalladi. Terma jamoa musobaqada jami 12 ta medalni (5 ta oltin, 2 ta kumush, 5 ta bronza) qoʻlga kiritdi. Turkiya terma jamoasi ikkinchi (8 ta medal), FIDE jamoasi uchinchi oʻrinni (6 ta medal) egalladi. Qozogʻiston terma jamoasi ham chempionatda munosib ishtirok etib, 13 ta medal jamgʻardi (9 ta kumush va 4 ta bronza) va 8-oʻrinni egalladi[16].

2026-yil 16-yanvardan 1-fevralgacha Niderlandiyaning Veyk-an-Zeye shahrida boʻlib oʻtgan “Tata Steel Chess 2026” turnirida Nodirbek Abdusattorov tarixiy gʻalabaga erishdi va ushbu chempionatda gʻolib chiqqan birinchi oʻzbekistonlik shaxmatchi boʻldi. Oʻzbekistonning yana bir vakili – Javohir Sindarov birorta ham magʻlubiyatsiz 8,5 ochko

bilan ikkinchi oʻrinni egalladi. Uchinchi oʻrin gollandiyalik grossmeyster Jorden van Forestga nasib etdi[17].

Bundan tashqari, Chexiya poytaxti Praga shahrida 2026-yil 6-martda “Prague International Chess Festival 2026” turnirida Nodirbek Abdusattorov 6 ochko bilan musobaqa gʻolibligini qoʻlga kiritdi. Nodirbek festival tarixida ushbu nufuzli musobaqada ikkinchi bor chempionlikni qoʻlga kiritgan ilk shaxmatchiga aylandi[18]. Soʻnggi turda Nodirbek Yoqubboyev ham muhim gʻalabaga erishdi. U dunyo reytingida toʻrtinchi oʻrinni egallab turgan germaniyalik Vinsent Keymerni magʻlub etib, 4-oʻrinni egalladi.

2026-yil 2-6 aprel kunlari Karlsruhe shahrida (Germaniya) oʻtgan anʼanaviy “Grenke Chess Festival 2026” xalqaro turniri “Grenke Open A” guruhida oʻzbekistonlik shaxmatchi Muhammadzohid Suyarov 9 turdan 8 ochko jamgʻarib, musobaqa chempioni boʻldi va 20 000 yevro mukofot sovrindoriga aylandi. Mazkur turnir dunyodagi eng yirik open musobaqalardan biri boʻlib, unda 3658 nafar shaxmatchi ishtirok etdi. Muhammadzohid Suyarov klassik yoʻnalishda barqaror oʻyin namoyish etib, yakunda 1-oʻrinni qoʻlga kiritdi[19].

Mamlakatda yoshlar sportini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarning amaliy samarasi sifatida 2026 yil 7–10 aprel kunlari Qozogʻistonning Olmaota shahrida maktab jamoalari oʻrtasida shaxmat boʻyicha Jahon chempionatiga (World Schools Team Championship 2026) Osiyo qitʼasidan saralash bosqichi koʻrsatib oʻtish joiz. Musobaqada 19 mamlakatdan 26 ta maktab jamoasi, jami 114 nafar sportchi ishtirok etdi. Oʻzbekiston sharafini “Wisdom school” va “Al-Khwarezmi IT school” jamoalari himoya qildi. Natijalarga koʻra, “Wisdom school” jamoasi magʻlubiyatsiz ishtirok etib, 16 ochko bilan 1 oʻrinni qoʻlga kiritdi va maktab jamoalari oʻrtasidagi Jahon chempionati (Grand Final) yoʻllanmasini qoʻlga kiritdi[20].

Ushbu qoʻlga kiritilayotgan natijalar Oʻzbekiston milliy terma jamoasining dunyo miqyosida yuqori oʻrinlarga koʻtarilishiga olib keldi. Xususan, FIDE reytingining 2026 yil aprel oyi holatiga koʻra, “Top Federations Open” roʻyxatida Oʻzbekiston milliy terma jamoasi 9-oʻrinni egalladi[21].

Shuningdek, soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Oʻzbekiston ayollar terma jamoasining qoʻlga kiritayotgan natijalari ham eʼtirofga loyiq. Jumladan, FIDening 2026-yil aprel oyida “Top Federations Women” reytingiga koʻra, Oʻzbekiston ayollar terma jamoasi 17-oʻrinni egalladi. Sohada yaratilayotgan imkoniyatlar, yosh iqtidorlar safga qoʻshilishi, xalqaro musobaqalarda ishtirok va tajriba ortishi natijasida ayollar terma jamoasining oʻrtacha reytingi izchil oshib bormoqda[22]. Yoki 2026 yil dastavvalida oʻzbekistonlik iqtidorli shaxmatchilar 12 yoshli Sarvinoz Bekmurodovaning FIDE tomonidan beriladigan jahon shaxmat ustasi (WFM)[23] hamda Husnoraxon

Husnitdinovaning 11 yoshida FIDEning ayollar oʻrtasidagi sport ustasi (WFM) unvoniga ega boʻlib ushbu yoʻnalishda rekordni yangilishi yuqoridagi fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi[24]. Endilikda ularning oldida ayollar oʻrtasida xalqaro sport ustasi (WIM) va grossmeyster (WGM) marralari turibdi. 1 aprel kuni yangilangan reytingda uning hisobidagi ochkolari soni 98,8 taga koʻpaygan va ushbu natija ayollar oʻrtasida FIDE sport ustasi unvoni uchun yetarli boʻlgan.

Xulosa. 2016–2025-yillarda Oʻzbekiston shaxmati sohasida sezilarli rivojlanish kuzatildi. Davlat siyosati yosh shaxmatchilarni tarbiyalash va ularni xalqaro maydonga tayyorlashga alohida eʼtibor qaratdi. Shu orqali yosh grossmeysterlar avlodi shakllandi va xalqaro turnirlarda yuqori natijalarga erishib, Oʻzbekiston shaxmati obroʻsini xalqaro miqyosda oshirishdi. Bu davrda shaxmatni rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlar, akademiyalar va markazlar tashkil etildi, turli xalqaro musobaqalarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi. Oʻzbekistonda yoshlar sportini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarning amaliy natijasini soʻnggi yillarda FIDE reytingida Oʻzbekiston milliy terma jamoasi va oʻzbekistonlik shaxmat ustalarining yuqorilab borishida koʻrish mumkin. Sohada mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida maktabgacha taʼlim muassasasidan to nuroniylargacha qamrab olingan tizimli yondashuv bugun oʻz soʻzini aytmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak // https://www.norma.uz/oz/muhim_voqealar/tanqidiy_tahlil_qatiy_tartib-intizom_va_shahsiy_javobgarlik_-_har_bir_rahbar_faoliyatining_kundalik_qoidasi_bulishi_kerak

2. Ўзбекистон Республикасида шахматни ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида // https://lex.uz/docs/3860639

3. Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida // https://lex.uz/uz/docs/-5222869

4. Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida // https://president.uz/oz/lists/view/5413

5. Abdusattorov Tata Steel Chess 2026 g'olibi – O'zbek shaxmat tarixida yangi sahifa // https://uzchess.uz/en/news/view?id=236

6. Winners crowned at the Prague Chess Festival 2026 // https://www.europechess.org/winners-crowned-at-the-prague-chess-festival-2026/

7. Муҳаммадзоҳид Суяров — Grenke Chess Open 2026 чемпионига айланди! // https://olamsport.com/uz/news/muhammadzohid-suyarov-grenke-chess-open-2026-chempioniga-aylandi

8. O'zbekistonlik yosh shaxmatchilar maktab jamoalari o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionati Osiyo bosqichida g'olib bo'ldi // https://kun.uz/news/2026/04/12/ozbekistonlik-yosh-shaxmatchilar-maktab-jamoalari-ortasida-otkazilgan-jahon-chempionati-osiyo-bosqichida-golib-boldi

9. FIDE Top Federations Open // https://ratings.fide.com/top_federations.phtml

10. FIDE Top Federations Women // https://ratings.fide.com/top_federations.phtml?list=women

11. 12 yoshli Sarvinoz Begmurotova FIDE sport ustasi unvonini qo'lga kiritdi // https://daryo.uz/2026/01/09/12-yoshli-sarvinoz-begmurodova-fide-sport-ustasi-unvonini-qolga-kiritdi/

12. Ўзбекистонлик 11 ёшли шахматчи қиз FIDE аёллар спорт устаси унвонига эга бўлди // https://daryo.uz/uz/2026/04/02/ozbekistonlik-11-yoshli-shaxmatchi-qiz-fide-ayollar-sport-ustasi-unvoniga-ega-boldi/

1. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // https://www.norma.uz/oz/muhim_voqealar/tanqidiy_tahlil_qatiy_tartib-intizom_va_shahsiy_javobgarlik_-_har_bir_rahbar_faoliyatining_kundalik_qoidasi_bulishi_kerak ↑

2. Ўзбекистон Республикасида шахматни ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида // https://lex.uz/docs/3860639 ↑

3. https://www.lex.uz/ru/docs/5222869?ONDATE=13.06.2023&action=compare ↑

4. Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // https://lex.uz/uz/docs/-5222869 ↑

5. O'zbekiston shaxmat tarixida ilk bor dunyo reytingida TOP-20 ga kirdi // https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/17/chess-rating/ ↑

6. To'dako'l xalqaro shaxmat maktabi haqida bilasizmi? // https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/26196 ↑

7. Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // https://yuz.uz/uz/

news/shaxmatni-yanada-rivojlantirish-va-ommaviylashtirish-hamda-shaxmatchilarni-tayyorlash-tizimini-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida ↑

8. Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida // https://president.uz/oz/lists/view/5413 ↑

9. Oʻzbekistonning eng yaxshi shaxmatchilari taqdirlandi // https://kun.uz/35116801#! ↑

10. Oʻzbekiston shaxmat federatsiyasi nufuzli sovrinlar bilan taqdirlandi // https://www.qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-shakhmat-federatsiyasi-nufuzli-sovrinlar-bilan-tak-dirlandi-78985 ↑

11. Yangi Oʻzbekiston – eng yaxshi shaxmat mamlakati // http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m9759 ↑

12. https://daryo.uz/2025/11/26/javohir-sindarov-jahon-kubogi-golibiga-aylandi/ ↑

13. https://t.me/Press_Secretary_Uz/6589 ↑

14. https://daryo.uz/2025/12/05/nodirbek-abdusattorov-london-chess-classic-2025-turnirida-qancha-pul-ishlab-topdi/ ↑

15. https://uzchess.uz/oz/news/view?id=164 ↑

16. https://uzchess.uz/oz/news/view?id=169 ↑

17. Abdusattorov Tata Steel Chess 2026 g'olibi – O'zbek shaxmat tarixida yangi sahifa // https://uzchess.uz/en/news/view?id=236 ↑

18. Winners crowned at the Prague Chess Festival 2026 // https://www.europechess.org/winners-crowned-at-the-prague-chess-festival-2026/ ↑

19. Муҳаммадзоҳид Суяров — Grenke Chess Open 2026 чемпионига айланди! // https://olamsport.com/uz/news/muhammadzohid-suyarov-grenke-chess-open-2026-chempioniga-aylandi ↑

20. Oʻzbekistonlik yosh shaxmatchilar maktab jamoalari oʻrtasida oʻtkazilgan jahon chempionati Osiyo bosqichida gʻolib boʻldi // https://kun.uz/news/2026/04/12/ozbekistonlik-yosh-shaxmatchilar-maktab-jamoalari-ortasida-otkazilgan-jahon-chempionati-osiyo-bosqichida-golib-boldi ↑

21. FIDE Top Federations Open // https://ratings.fide.com/top_federations.phtml ↑

22. FIDE Top Federations Women // https://ratings.fide.com/top_federations.phtml?list=women ↑

23. 12 yoshli Sarvinoz Begmurotova FIDE sport ustasi unvonini qo‘lga kiritdi // https://daryo.uz/2026/01/09/12-yoshli-sarvinoz-begmurodova-fide-sport-ustasi-unvonini-qolga-kiritdi/ ↑

24. Ўзбекистонлик 11 ёшли шахматчи қиз FIDE аёллар спорт устаси унвонига эга бўлди // https://daryo.uz/uz/2026/04/02/ozbekistonlik-11-yoshli-shaxmatchi-qiz-fide-ayollar-sport-ustasi-unvoniga-ega-boldi/ ↑

© Abdug‘aniyeva Gulira’no Alijon qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Abdug‘aniyeva Gulira’no Alijon qizi

Filologik ta'limda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va innovatsion raqamli texnologiyalar

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Ingliz tili ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi

Azamatova Mohinur Asror qizi

mohinura303@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologik ta'lim sohasida olib borilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, lingvistikaning yangi yo'nalishlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri sodda va tushunarli tarzda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: *filologiya, lingvistika, raqamli texnologiyalar, ta'lim, diskurs tahlili, pragmalingvistika, innovatsiya.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные научные исследования в области филологического образования, а также роль и значение инновационных цифровых технологий. Также простым и понятным языком объясняется влияние новых направлений лингвистики на образовательный процесс.

Ключевые слова: *филология, лингвистика, цифровые технологии, образование, дискурс-анализ, прагмалингвистика, инновации.*

Abstract. This article discusses modern scientific research in the field of philological education and highlights the role and importance of innovative digital technologies. It also explains in a simple and clear way how new branches of linguistics influence the educational process.

Keywords*: philology, linguistics, digital technologies, education, discourse analysis, pragmalinguistics, innovation*.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimi tez o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, filologiya yo'nalishida ham zamonaviy yondashuvlar paydo bo'ldi. Oldin faqat kitob va matn bilan ishlangan bo'lsa, hozirda raqamli texnologiyalar yordamida o'rganish imkoniyati kengaydi. Bu esa talabalar uchun bilim olishni oson va qiziqarli qiladi.Filologik ta'lim - bu til, nutq va adabiyotni o'rganishga qaratilgan muhim sohalardan biridir. Hozirgi davrda bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga

ham ega bo'lib bormoqda. Ya'ni, o'rganilgan bilimlar kundalik hayotda, ta'lim jarayonida va hatto texnologiyalarni rivojlantirishda ham qo'llanilmoqda.

- **Kognitiv lingvistika -** til va inson tafakkuri o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi.
- **Pragmalingvistika -** nutqning vaziyatga qarab qanday ishlatilishini tushuntiradi.
- **Diskurs tahlili -** matn va suhbatlarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ham katta rol o'ynamoqda. Masalan:

- Onlayn darslar va platformalar orqali o'qish
- Elektron lug'atlar va tarjima dasturlari
- Sun'iy intellekt asosida ishlovchi matn tahlil tizimlari.

Avvalgi yillarda filologiya asosan an'anaviy usullarda, ya'ni kitob o'qish, matn tahlili va yozma ishlarga asoslangan edi. Hozir esa zamonaviy ilmiy yondashuvlar paydo bo'lib, bu soha ancha kengayib ketdi. Masalan, bugungi kunda tilni faqat grammatik qoidalar asosida emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy muhit va nutq jarayoni bilan bog'lab o'rganish kuchaygan. Kognitiv lingvistika shunday yo'nalishlardan biri bo'lib, u til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Bu orqali inson qanday qilib so'zlarni eslab qolishi, ularni qanday tushunishi va ishlatishi aniqlanadi. Bu bilimlar ayniqsa chet tillarni o'rganishda juda foydali hisoblanadi. Pragmalingvistika esa nutqning vaziyatga bog'liqligini o'rganadi. Masalan, bir xil gap turli vaziyatda turlicha ma'no berishi mumkin. Bu esa muloqot jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Talabalar uchun bu yo'nalish kundalik hayotda to'g'ri va o'rinli gapirishni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.Diskurs tahlili esa matn va suhbatlarni chuqur o'rganishga yordam beradi. Bu usul orqali nafaqat matnning yuzaki ma'nosi, balki uning ichki mazmuni, muallif fikri va yashirin g'oyalari ham aniqlanadi. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlashga va tahlil qilishga o'rgatadi. Zamonaviy filologik ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni juda katta. Hozirgi kunda deyarli barcha talabalar internetdan foydalanadi va bu o'qish jarayonini ancha osonlashtiradi. Masalan, onlayn darslar orqali istalgan joydan turib bilim olish mumkin. Bu ayniqsa masofaviy ta'limda juda qulay.

Elektron lug'atlar va tarjima dasturlari ham talabalarga katta yordam beradi. Oldin biror so'zning ma'nosini topish uchun ko'p vaqt ketgan bo'lsa, hozir esa bir necha soniya ichida tarjima qilish mumkin. Bu esa o'rganish jarayonini tezlashtiradi.Bundan tashqari, matnlarni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar ham mavjud. Ular yordamida matndagi xatolarni aniqlash, grammatik tahlil qilish va hatto matnning uslubini baholash mumkin. Bu esa talabalar uchun o'z ustida ishlashda juda foydali vosita hisoblanadi. Yana bir muhim jihat - ta'limda interaktiv usullarning qo'llanilishidir. Masalan, turli xil mobil ilovalar, test tizimlari va o'yin shaklidagi darslar talabalarni yanada faol bo'lishga undaydi. Oddiy darsga qaraganda bunday usullar ko'proq qiziqish uyg'otadi va bilimni yaxshiroq eslab

qolishga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar filologiya sohasida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, turli tillarni solishtirish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali yangi ilmiy xulosalar chiqarilmoqda. Bu esa tilshunoslik fanining yanada rivojlanishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, filologik ta'lim bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy va texnologik jihatdan ham rivojlanib bormoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalar bu sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratib, ularning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Yo'ldoshev B. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: O'qituvchi, 2015.

3.Mahmudov N. O'zbek tili va nutq madaniyati. - Toshkent, 2018.

4. Safarov Sh. Pragmalingvistika asoslari. Toshkent: Fan, 2013.

5. Nurmonov A. Lingvistika nazariyasi. - Toshkent, 2012.

6. Crystal D. Linguistics. - Cambridge University Press, 2010.

© Azamatova Mohinur Asror qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Azamatova Mohinur Asror qizi

MAKTABGACHA TA’LIMNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Toshkent shahar Uchtepa tumani

334- davlat maktabgacha ta’lim tashkilot direktori

Egamberdiyeva Zulhumor Galamidinovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichi, mavjud muammolari hamda istiqboldagi taraqqiyot yo‘nalishlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, normativ-huquqiy yangilanishlar va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi, pedagogik faoliyat sifati, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligi hamda ta’lim muassasalarining zamonaviy talablarga moslashuv darajasi tahlil qilingan. Ilmiy manbalar va statistik ko‘rsatkichlar asosida tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ta’lim siyosati, pedagogik islohotlar, ta’lim sifati, pedagog kadrlar, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion texnologiyalar, ta’lim dasturlari, inson kapitali.

Аннотация. В статье проводится научно-педагогический анализ современного состояния, актуальных проблем и перспектив развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется институциональным преобразованиям, нормативно-правовым реформам и приоритетным направлениям государственной политики, реализуемым в последние годы в сфере дошкольного образования. Рассматриваются вопросы охвата детей дошкольным образованием, повышения качества педагогической деятельности, развития механизмов государственно-частного партнерства и соответствия образовательных организаций современным требованиям. На основе анализа научных источников и статистических данных обоснованы приоритетные направления дальнейшего совершенствования системы дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, образовательная политика, педагогические реформы, качество образования, педагогические кадры, государственно-частное партнерство, инновационные технологии, образовательные программы, человеческий капитал.

Abstract. This article presents a scientific and pedagogical analysis of the current state, existing challenges, and future development prospects of the preschool education system in the Republic of Uzbekistan. The study examines recent institutional reforms, regulatory transformations, and priority directions of state policy aimed at improving the quality and accessibility of preschool education. Particular attention is paid to preschool enrollment rates, the quality of pedagogical activities, the effectiveness of public-private partnership mechanisms, and the compliance of educational institutions with contemporary educational standards. Based on scientific literature and statistical evidence, the article identifies key priorities and strategic directions for the further development of the preschool education system.

Keywords: preschool education, educational policy, pedagogical reforms, education quality, teaching staff, public-private partnership, innovative technologies, educational programs, human capital.

KIRISH. Jahon miqyosida ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, boshqaruv samaradorligini takomillashtirish va kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) hamda Yevropa oliy ta'lim makoni (EHEA) konsepsiyalarida ham ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda boshqaruvning innovatsion mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi va "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunlar, Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifatini boshqarish, pedagog va rahbar kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining ta'lim sifatini boshqarish va kvalitologik kompetentligini rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va pedagogik faoliyatni takomillashtirish masalalari A.V. Shin, D.A. Abdurahimova, T.L. Xurvaliyeva, F. Qodirova, Sh.A. Sodiqova va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Pedagog va rahbar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda ta'lim sifatini boshqarish muammolari N.Sh. Abdullayeva, M.T. Hamdamova, G.N. Nigmatova, G.B. Rizaeva va boshqa tadqiqotchilar ishlarida yoritilgan.

Ta’lim menejmenti va rahbar kadrlar kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari M. Mirsoliyeva, J. Yo‘ldoshev, U. Begimqulov, U. Inoyatov, R. Djo‘rayev, Q.T. Olimov, S. Turg‘unov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilar V. Grishina, I.A. Zimnyaya, A.K. Markova, A.M. Novikov, V.A. Slastenin, A.I. Subetto va Dj. Ravenlarning ilmiy ishlari esa ta’lim sifati menejmenti hamda rahbarlarning kasbiy kompetentligining nazariy asoslarini shakllantirgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining aynan kvalitologik kompetentligini rivojlantirish, sifat menejmenti tamoyillarini amaliyotga joriy etish va ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zaruratini belgilaydi.

MUHOKAMA. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, bolalarning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarligini ta’minlaydigan fundamental bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, 0–6 yosh davrida bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omillari shakllanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlash va uning qamrovini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Maktabgacha ta’lim bolalarning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutib, ularning shaxs sifatida shakllanishi hamda ta’lim jarayoniga moslashuvining dastlabki poydevorini yaratadi. Shu bois ta’lim sifati, qamrov darajasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari O‘zbekiston ta’lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ushbu sohani rivojlantirishning strategik asosini yaratdi[1]. Konsepsiyada maktabgacha ta’lim qamrovini sezilarli darajada oshirish, davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini kengaytirish, xalqaro standartlarga mos ta’lim dasturlarini joriy etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda pedagog kadrlar malakasini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning huquqiy asoslari “Ta’lim to‘g‘risida”[2] gi va “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunlarda ham mustahkamlangan bo‘lib, ularda davlat kafolatlari, ta’lim sifati, pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish maqsadida 2017-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi[3]. Mazkur vazirlik faoliyati doirasida ta'lim sifatini oshirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Keyinchalik, 2022-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi negizida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tashkil etilishi ta'limning barcha bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va qamrov darajasi sezilarli ravishda oshdi. Xususan, 2021–2024-yillar davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining keskin ko'payishi hamda bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi ko'rsatkichlarining ortishi sohada olib borilgan davlat siyosatining amaliy natijalarini namoyon etadi[4]. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik asosidagi va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ining kengayishi ta'lim xizmatlari ommabopligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifati va qamrovini oshirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish hamda inson kapitalini shakllantirishning muhim omili sifatida mazkur sohaning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bolalarni erta yoshdan sifatli ta'lim bilan qamrab olish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida muhim natijalarga erishilmoqda[5]. Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari zamonaviy o'quv-didaktik vositalar, interfaol texnologiyalar va innovatsion pedagogik metodikalar bilan ta'minlanib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, ayniqsa, qishloq hududlarida izchil amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish maqsadida bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy ta'lim dasturlari ishlab chiqilib, o'yin faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Xususan, STEAM yondashuvi hamda Montessori, Reggio Emilia va Waldorf pedagogikasi elementlarining amaliyotga tatbiq etilishi bolalarning mantiqiy tafakkuri, ijodkorligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ularning maktab ta'limiga puxta tayyorlanishini ta'minlaydi.

Ta'lim sifatini oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Shu bois so'nggi yillarda pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar va xalqaro tajriba almashuv dasturlari kengaytirildi. Pedagoglarni zamonaviy ta'lim metodlari va innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish

maqsadida mahalliy hamda xorijiy mutaxassislar jalb qilinmoqda[6]. Shuningdek, pedagoglarning mehnatini rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni sezilarli darajada ko'paydi. Bu esa bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi darajasini oshirish, ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish hamda ota-onalarga turli ta'lim xizmatlarini tanlash imkoniyatini yaratmoqda. Xususiy bog'chalarda innovatsion pedagogik yondashuvlarning qo'llanilishi esa ta'lim sifatining yuksalishiga xizmat qilmoqda[7].

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimida yechimini kutayotgan qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda, maktabgacha ta'lim muassasalari yetishmasligi, malakali pedagog kadrlar taqchilligi, ta'lim sifati darajasidagi tafovutlar hamda ayrim o'quv dasturlarining zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, ayrim muassasalarning moddiy-texnik bazasi va rivojlantiruvchi ta'lim muhiti yetarli darajada shakllanmagani ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda. Ta'lim qamrovi kengayib, muassasalar soni ortmoqda, pedagogik faoliyat sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Kelgusida davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada rivojlantirish, ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro tajriba asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish maktabgacha ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan ustuvor yo'nalishlar bo'lib qoladi.

XULOSA. Maktabgacha ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishning eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bolalarning intellektual, jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar ta'lim qamrovini kengaytirish, ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish, pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda muhim natijalarga erishish imkonini berdi.

Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining ortishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi, oilaviy bog'chalar faoliyatining rivojlanishi hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarning tatbiq etilishi bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Biroq tahlillar maktabgacha ta'lim tizimida

ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ham ko‘rsatadi[8]. Jumladan, hududlar kesimida ta’lim sifati va qamrov darajasidagi tafovutlar, malakali pedagog kadrlar yetishmovchiligi, ayrim muassasalarning moddiy-texnik bazasi va rivojlantiruvchi ta’lim muhiti zamonaviy talablar darajasida emasligi tizimning dolzarb muammolari hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga yanada moslashtirish hamda ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Kelgusida maktabgacha ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada mustahkamlash, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, ta’lim muassasalarining infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi maktabgacha ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bolalarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha talim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»” gi Prezident qarori

2. 2021-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarori – Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish to‘g‘risida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etish to‘g‘risida.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni – “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ilk qadam”. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: И.В.Грошева, Л.Г.Евстафева, D.T.Mahmudova, Sh. B. Nabixonova, S. V. Pak, G. E. Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – B.69.

7. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016. –B.279.

8. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – T: RBIMM, 2008. – B.68.

© Egamberdiyeva Zulhumor Galamidinovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Egamberdiyeva Zulhumor Galamidinovna

Феруз Бобоев,

ФА Тарих институти директори ўринбосари,

Ҳарбий тарихни ўрганиш маркази бошлиғи,

тарих фанлари доктори,

fbs2012@bk.ru

+998972627072

Мадаминбек қўрбоши ҳақида янги маълумотлар

Аннотация: Мақолада совет ҳокимиятига қарши курашган маҳоратли ҳарбий саркарда Мадаминбек қўрбошининг фаолияти ҳақида янги маълумотлар тақдим этилган. Фриц Уильфортнинг кундалиги асосида Мадаминбек ҳарбий маҳоратининг янги жиҳатлари ёритилди. Мазкур манба Мадаминбекнинг ҳарбий стратегияси, разведка тизими, қўшин интизоми ва бошқарув механизмларини ўрганишга хизмат қилиши асосланган.

Калит сўзлар: Мадаминбек, қўрбошилар ҳаракати, миллий-озодлик кураши, совет тарихшунослиги, манбашунослик, ҳарбий стратегия, разведка, сулҳ шартномаси

Аннотация: В статье представлены новые сведения о деятельности курбаши Мадаминбека, искусного военачальника, боровшегося против советской власти. Фрис Вилфортнинг кундалиги асосида Мадаминбек ҳарбий маҳоратининг янги томонлари ёритиб берилди. Обосновано, что данный источник служит для изучения военной стратегии Мадаминбека, системы разведки, армейской дисциплины и механизмов управления.

Ключевые слова: Мадаминбек, движение курбаши, национально-освободительная борьба, советская историография, источниковедение, военная стратегия, разведка, мирный договор

Abstract: The article presents new information regarding the activities of Madaminbek the Kurbashi, a skilled military commander who fought against Soviet power. Based on the diary of Fritz Wilfort, new aspects of Madaminbek's military skill were highlighted. This source serves to study Madaminbek's military strategy, intelligence system, army discipline and management mechanisms.

Keywords: Madaminbek, kurbashi movement, national liberation struggle, Soviet historiography, source studies, military strategy, intelligence, peace treaty

Совет ҳокимиятига қарши курашган қўрбошилар орасида Мадаминбекнинг алоҳида ўрни бор. Унинг туғилиши, келиб чиқиши, таълими ва фаолияти ҳамда ҳарбий жараёнларда иштироки бўйича совет даврида нотўғри ёндашувлар асосида қоралаб келинган бўлса[1], Ўзбекистон 1991 йилда ўз мустақиллигини қўлга киритгач эса мавзуга холис баҳо бериш натижасида илмий хулосалар ўзгарди. Мадаминбекнинг фаолиятига ҳақиқий баҳо берилди[2].

Шу пайтга қадар кўплаб тадқиқотлар қилинган бўлсада, бироқ ҳали илмий муомалага киритилмган янги маълумотлар кўп, уларни таҳлил қилиниши Мадаминбек ҳарбий фаолиятининг очилмаган қирраларини очишга ёрдам беради. Шундай манбалардан бири Фриц Уильфортнинг **“**Туркистон кундалиги. Россия Марказий Осиёсида олти йил” (Тошкент: Akademnashr, 2025; таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Бозорова) асари[3].

Ҳарбий асир Фриц Уильфортнинг олти йиллик Туркистондаги фаолияти даври ҳақидаги кундалиги минтақадаги турли масалаларни ёритиши билан, қўрбошиларнинг ҳарбий фаолиятига ҳам ойдинлик киритади. Бироқ манбада танқидий қараш керак бўлган маълумотлари ҳам бор. Чунки муаллиф айрим воқеаларни кўзи билан кўрмаган, коммунистлардан эшитган маълумотлари асосида ҳам қайд этган. Бу маълумотларни ўрганишда шу жиҳатларини ҳам назардан четда қолдирмаслик керак. Масалан, қўрбошилар ҳақида салбий фикрлар ҳам берилган[4]. Айнан шу каби маълумотларни коммунистлардан эшитган. Бу маълумотларни қўрбошилар ҳақида холис тайёрланган бирламчи ҳужжатлар тасдиқламайди. Бу совет ҳокимиятининг ҳам аҳолига ҳам ҳарбий асирларга қўрбошилар билан алоқа ўрнатмаслик учун қилинган ёлғон тарғиботи сифатида қаралиши керак.

Манбада қўрбошиларнинг фаолияти кучайиб бораётганлигини, моҳирона жанг қилиш усулига эгалиги, қатъий интизом ва ҳуқуқий маҳкамаси борлиги, асосий етакчилари ҳақида маълумотлар беради. “Скобелевда ҳарбий ҳолатнинг жорий этилиши ҳеч нарсани ўзгартирмади. Босмачилик ҳаракати янада кучаярди. Яқинда улар бозор ёнидаги касалхонага бостириб кириб, кўз очиб-юмгунча ҳамма касал сартларни олиб чиқиб кетган, дорилар ва ўров материалларини олишни ҳам унутмаган эди. Босмачи тўдаларнинг моҳирона жанг усуллари рус қўшинини чорасиз қолдирарди. Босмачилар ҳаракатининг уч етакчиси Мадаминбек, Эргашбек ва Ўшдаги Холхўжа эди. Тўдаларда қатъий интизом ва ҳуқуқий маҳкама бор эмиш”[5].

Манбада 1919 йил 14 февралдаги маълумотлар қўрбошилар фаолияти учун жуда муҳим ҳисобланади. Унда Мадаминбекнинг ҳарбий тактикасини аниқлашда ёрдам беради.

Биринчидан, унинг ҳарбий фаолияти даврида ҳарбий асирларга тегмаганлигини кўрсатади. Бу эса ҳаттоки ҳарбий асирларга зарар етказмаган қўрбошининг миллий аҳолига зарар бермаслигини янада асослантиради. Аҳолини талади деган ҳужжатларга ва айнан шу манбада келтирилган маълумотларни жиддий танқидий қарашга ундайди.

Иккинчидан, Мадаминбекнинг ҳарбий тактикасини, яъни қайсидир ҳарбий қисмга ҳужум қилишдан олдин ҳарбий режа тузилганлигини, махфий маълумот тўпланганлиги, яъни махфий хизмат тизими яхши йўлга қўйилганлигини, аниқ далиллар йиғилганлигини, ҳар бир гуруҳнинг ҳаракат режаси ишлаб чиқилганлиги, йўналиши ва вазифалари белгиланганлиги кўрсатади.

Учинчидан, Мадаминбекнинг ҳарбий юришларини мақсадини аниқлашда ёрдам беради. Ҳарбий асирлар лагерига ҳужум қилишдан мақсад у ерда қизил аскарларнинг қурол-яроғлари ва отлари сақланган бўлган. Айнан шуларни қўлга киритиш орқали ўзининг ҳарбий таъминотини кучайтиришга қаратилган эди.

Тўртинчидан, Мадаминбекнинг ҳарбий асирлар лагерига ҳужумидан сўнг қизил аскарлар томонидан Мадаминбекнинг ҳарбий ҳаракатлари учун миллий аҳолидан қаттиқ ўч олинганлигини ҳам кўрсатиб беради.

Юқоридаги тўтта ҳолатни асословчи далиллар қуйидагилардан иборат: "Атрофимизда ваҳшийликлар содир этилмаган бирор кун йўқ. Коммунистлар партияси билан доимий зиддиятдамиз. Шундай нохуш муҳитда бугун яна бир хавфли воқеа бўлди. Тун ярмида бўлинмамиз ёнида тўсатдан ўқ овозлари эшитила бошлади. ... Отишма икки соатча давом этди. ... Мадаминбекнинг тўдаларидан бири лагернинг навбатчилик тизимини ўрганган, миршабларда 16 та от борлигидан хабар топганди. Тўда бир ҳамла билан қуроллар ва отларни қўлга киритмоқчи бўлибди. Гуруҳлардан бири яшин тезлигида отларни оғилдан чиқарар, лагердан узоқлашар экан, бошқа гуруҳ навбатчилар бўлмасида яширинган аскарларни қўлга олганди. Навбатчилар бошлиғи ... коммунист Микора ачинарли аҳволга тушибди: ўлгудек қўрққанидан ўзи яшайдиган хонадан қочиб бизнинг хоналардан бирига кирибди, чорасиз ҳолатда ўринлардан бирининг ичига яшириниш учун рухсат сўрабди, ялинибди. Босмачилар хонага кириб, Орнштейннинг ёнига борибди. У ҳар доимгидек хотиржамлик билан бу ерда ҳеч қандай қурол йўқлиги ҳақида кафолат бергач, безовта қилмай чиқиб кетибди. ... Навбатчи қўрқиб кетган ва босмачиларга

қарши курашиш эмас, бизни назорат қилиш топширилганидан қайта навбатда туришни истамаслигини айтарди"[6].

Манбанинг яна бир муҳим қисми "Қўрбоши Мадаминбек билан тузилган сулҳ" номли қисми ҳам бу ҳаракат билан боғлиқ бир нечта масалага ойдинлик киритади.

- Мадаминбекнинг ҳужумлари шиддатли эканлигини;
- йигитлари қўрқув билмас чавондозлар эканлигини;
- доимий халқни жиҳодга чорлаганлигини;
- совет ҳокимияти билан мусулмон қўшинлари қўмондони сифатида шартнома имзолаганлигини;
- гарчи шартнома имзолаган бўлсада қўшин қўмонни сифатида Наманганда ўз мақомида қолишини;
- унинг аскарлари хоҳласа қолиши, хоҳламаса кетиши ва советлар томонидан таъқиб қилинмаслиги қайд этилган.

Шунингдек, сулҳ шартномаси имзоланиши жараёни ҳам акс эттирилади:

- қўшиннинг тартибли ва интизомли бўлганлиги;
- елкаларида ўқ-дориларни осган ва тўлиқ қуролланган узун аскарлар сафи;
- Мадаминбекнинг шахсий қўриқчилари (100 тача) кийими: тўқ яшил ранг, узун, тор нимчалар ва минорадек баланд қўзичоқ терисидан тикилган оппоқ қалпоқ кийганлиги, улардан кейин шоҳана отда Мадаминнинг ўзи кириб келганлиги;
- аскарларнинг шу даражада кўп бўлганлиги, уларнинг майдонга сиғишини тасаввур қилиб бўлмаслиги;
- аскарларнинг ўткир никоҳли, жасур жангчилиги, жангга шайлиги;
- шартнома имзоланган Мадаминбек қисқа сарт ва рус тилида нутқ сўзлагани;
- аҳоли Мадаминбекни жанг ғолиби сифатида қутлагани;
- кечқурун икки томон раҳбарлари томонидан зиёфат уюштирилганлиги келтирилади[7].

Хуллас, Фриц Уильфортнинг **"**Туркистон кундалиги" асари Мадаминбек ҳақида янги маълумотларни келтиради. Шу пайтга қадар ундаги далиллар бошқа манбаларда тилга олинмаган. Ҳали таҳлилга тортилмаган архив ҳужжатлари ҳам кўп. Улардан фойдаланиш Мадаминбек қўрбошининг ҳарбий фаолияти ҳақида хулосаларни кенгайтиришга хизмат қилади. Қўрбошиларнинг ҳарбий ҳаракатлари уларнинг аниқ стратегияси ва дастури бўлганлигини кўрсатади. Бироқ шу пайтга

қадар ҳали уларнинг дастурлари эълон қилинган эмас. Бу келажакда бу мавзуларда янада чуқур илмий изланишлар олиб боришни талаб этади.

1. А.Нишонов Ҳамиша навқирон (гражданлар урушининг қаҳрамони, шахсий пенсионер Б. Эрматовнинг ҳаёт йўли). –Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг нашриёти, 1971; Ю.А. Поляков, А.И. Чугунов. Конец басмачества. Москва. 1976; А.И. Зевелев, Ю.А. Поляков, А.И. Чугунов. Басмачество: возникновение, сущность, крах. Москва. 1981; Х. Иноятов. Народы Средней Азии в борьбе против интервентов и внутренней контрреволюции. Москва. 1984; Басмачество: социально-политическая сущность. Сборник статей под ред. Б. Лунина, М.Ахуновой, Х.Турсунова, Э.Юсупова. Ташкент. 1984. ↑

2. Қ. Ражабов. Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918-1924 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. Тошкент, 1995; Шу муаллиф. Туркистон минтақасида совет режимига қарши қуролли ҳаракат (1918-1924 йиллар). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун дисс. –Тошкент, 2005; Шу муаллиф. Мадаминбек. Тошкент. 2011; 2025 (Ikkinchi nashr); Шу муаллиф. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918-1924 йиллар). Тошкент. 2015; Шу муаллиф. Вооруженное движение в Туркестане против советского режима (1918-1924). Beau Bassin. 2018; Шу муаллиф. Туркистондаги истиқлолчилик ҳаракати (1918-1935) ўзбек давлатчилиги тарихида // “O'zbekiston tarixi”. 2021. № 1. 20-55-бетлар; Зияева Д. Туркистонда миллий озодлик ҳаракати ХХ аср тарихшунослигида (1916 йил қўзғолони ва 1918-1924 йил истиқлолчилик ҳаракатини ўрганиш муаммолари). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун дисс. Тошкент, 1999; Шу муаллиф. Босмачилик: ҳақиқат ва уйдирма. Тошкент. 2000. Шу муаллиф. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Тошкент. 2000; Туркестан в начале ХХ века: к истории истоков национальной независимости. Редактор: Р. Раджапова Ташкент. 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Масъул муҳаррир: М. Жўраев. Тошкент. 2000; С. Шадманова. Немис ва турк тарихшунослигида совет мустамлакачилигига қарши кураш масалалари (1917-1924-йиллар). Тошкент. 2008; Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1939 й. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. Тошкент. 2019. Н. Ҳамаев. Ўзбекистон ҳудудида истиқлол учун қуролли ҳаракат ва унга қарши курашнинг матбуот саҳифаларида тарғиб этилиши (1918-1934 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. Тошкент, 2020. Ф. Бобоев. Ўзбекистон ССРда совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракат (1925-1935 йиллар). Тарих фанлари

бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. Тошкент, 2018; Шу муаллиф. Ўрта Осиё совет ҳокимиятига қарши куролли ҳаракат тарихи (1925-1935 йиллар). Тошкент: Фан, 2024. ↑

3. Фриц Уильфорт. Туркистон кундалиги. Россия Марказий Осиёсида олти йил. таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Бозорова. Тошкент: Akademnashr, 2025. – 344 б. ↑

4. Фриц Уильфорт. Туркистон кундалиги. Россия Марказий Осиёсида олти йил. таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Бозорова. Тошкент: Akademnashr, 2025. 260-бет. ↑

5. Фриц Уильфорт. Туркистон кундалиги. Россия Марказий Осиёсида олти йил. таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Бозорова. Тошкент: Akademnashr, 2025. 260-бет. ↑

6. Фриц Уильфорт. Туркистон кундалиги. Россия Марказий Осиёсида олти йил. таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Бозорова. Тошкент: Akademnashr, 2025. 260-261-бетлар. ↑

7. Фриц Уильфорт. Туркистон кундалиги. Россия Марказий Осиёсида олти йил. таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Бозорова. Тошкент: Akademnashr, 2025. 295-297-бетлар. ↑

© Бобоев Феруз, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Бобоев Феруз

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH FENOMENINING MOHIYATI, XUSUSIYATLARI, SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOIY AHAMIYATI

Ergashev Alijon Boxodirovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada milliy o‘zlikni anglash fenomenining falsafiy-kontseptual mohiyati tahlil etilgan. Milliy o‘zlikni anglash tushunchasining turli falsafiy yondashuvlar asosida qanday talqin etilishi, uning asosiy xususiyatlari, shakllanish omillari va mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlik, milliy ong, milliy g‘urur, milliy qadriyatlar, identiklik, essentsializm, konstruktivizm, instrumentalizm, globallashuv.

Global axborot makoni va uning ta’sirida shakllanayotgan “tarmoq jamiyati” sharoitida milliy o‘zlikni anglash fenomenining mohiyati, xususiyatlari, shakllanish omillari va ijtimoiy ahamiyatini tadqiq etish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biriga aylandi.

Falsafiy tafakkur tarixida o‘zlik masalasi doimo markaziy o‘rinlardan birini egallab kelgan. Antik davr faylasuflaridan tortib to zamonaviy faylasuflargacha bo‘lgan davrda o‘zlikning falsafiy talqini turli yondashuvlar orqali rivojlantirilgan. Antoniy D.Smitning ta’rifiga ko‘ra, “millat – bu tarixiy hudud, umumiy miflar va tarixiy xotira, ommaviy jamoat madaniyati, umumiy iqtisodiyot, barcha a’zolar uchun umumiy huquq va majburiyatlarga ega insonlar jamoasidir” [1].

O‘zbekistonlik faylasuf olim Sadulla Otamurodov esa millat va milliy o‘zlikni anglash masalasida quyidagi fikrni bildiradi: “Milliy o‘zlikni anglash – bu millatning o‘zini millat sifatida, o‘ziga xos ijtimoiy-etnik birlik sifatida anglash jarayoni va natijasi bo‘lib, u milliy ong, milliy g‘urur, milliy iftixor, millat manfaatlarini anglash va himoya qilish kabi tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi” [2].

Charlz Teylorning “O‘zlikning manbalari” (Sources of the Self) asarida keltirilgan qarashlar muhim ahamiyatga ega. Teylor ta’kidlaganidek, “o‘zlik – bu insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari, o‘z mohiyatini, qadriyatlarini anglashi bo‘lib, u insonning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi” [3].

Milliy oʻzlikni anglash tushunchasi millat tomonidan oʻzini oʻzi anglashi, oʻz oʻtmishi, buguni va kelajagini anglash, oʻz qadriyatlari, madaniyati, tili, tarixi, urf-odatlari, an’analari, ma’naviy-axloqiy qarashlari orqali oʻzining kim ekanligini anglashni ifodalovchi falsafiy kategoriya hisoblanadi. Milliy oʻzlikni anglash millatning oʻzligini saqlab qolish va rivojlantirishning muhim omilidir.

Milliy oʻzlikni anglash jarayonining yana bir muhim jihati uning dinamik xarakterga ega ekanligidir. Milliy oʻzlikni anglash jarayoni doimiy ravishda rivojlanib, oʻzgarib boruvchi jarayondir. Bu jarayon millatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish xususiyatlari, turli millatlar, madaniyatlar bilan oʻzaro ta’siri natijasida doimiy ravishda yangilanib, boyib boradi.

Nemis faylasufi Iogann Gotlib Fixtening “Nemis xalqiga murojaatlar” asarida ta’kidlanganidek, “millat faqat oʻzini millat sifatida anglagandagina, oʻz qadriyatlarini, madaniyatini, tilini, tarixini anglagandagina haqiqiy millatga aylanadi” [4].

Milliy oʻzlikni anglashning falsafiy-konseptual asoslarini quyidagi muhim yondashuvlar orqali tahlil qilish mumkin: essentsialistik, konstruktivistik va instrumentalistik yondashuvlar.

Essentsialistik yondashuv milliy oʻzlikni millatning tub mohiyati, oʻzgarmas xususiyati sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga koʻra, milliy oʻzlik millatning azaliy, tugʻma xususiyati boʻlib, u tarixiy jarayonda deyarli oʻzgarmaydi. Essentsialistik yondashuv tarafdorlari milliy oʻzlikni millatning “ruhi”, “mentaliteti”, “xarakteri” kabi tushunchalar orqali izohlaydilar.

Masalan, nemis faylasufi Iogann Gotfrid Gerder millatlarning “ruhi” (Volksgeist) haqida gapirar ekan, har bir millatning oʻz ruhi, oʻz xarakteri borligini va u millatning butun tarixi davomida saqlanib qolishini ta’kidlaydi [5].

Milliy oʻzlikni anglash jarayonida til alohida ahamiyat kasb etadi. Til milliy oʻzlikning muhim elementi, millatning oʻzligini ifoda etuvchi, uning madaniyati, tarixi, qadriyatlarini aks ettiruvchi vositadir. Til orqali millat oʻz tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an’analarini, dunyoqarashini ifodalaydi.

Shuningdek, milliy madaniyat, tarix va milliy davlatchilik ham milliy oʻzlikni anglash jarayonida muhim rol oʻynaydi.

Milliy oʻzlikni anglash tushunchasining falsafiy-kontseptual tahlili nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy qimmatga ham ega boʻlib, u jamiyat rivojlanishining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu murakkab va koʻp qirrali fenomen millatning tarixiy ildizlari, madaniy merosi, lingvistik xususiyatlari, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar tizimi, etnografik jihatlari va diniy e’tiqodlari kabi keng qamrovli omillar majmuasi bilan uzviy

bogʻlangan. Milliy oʻzlikni anglash millatning oʻz-oʻzini tan olishi, oʻz oʻrnini anglashi va dunyo hamjamiyatida oʻz identikligini namoyon etish jarayonlarini qamrab olgan holda, ijtimoiy barqarorlik va davlatchilik asoslarini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Milliy oʻzlikni anglash statik emas, balki dinamik xarakterga ega boʻlgan jarayon boʻlib, tarixiy transformatsiyalar, iqtisodiy evrilishlar, siyosiy oʻzgarishlar va global madaniy taʼsirlar natijasida muntazam ravishda oʻzgarib, takomillashib boradi. Bu jarayon millatning ming yillik tarixiy tajribasini oʻzida jamlagan holda, bugungi kundagi globallashuv sharoitida yangicha mazmun-mohiyat kasb etib, millatning oʻziga xos jihatlarini saqlash bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar bilan uygʻunlashib borish imkonini yaratadi. Milliy oʻzlikni anglash jarayonining tahavvuli ayniqsa axborotlashgan jamiyat sharoitida yanada intensivlashib, global axborot maydonida milliy manfaatlarni himoya qilish va milliy oʻziga xoslikni saqlab qolish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Yuqoridagi falsafiy yondashuvlarni sintez qilish orqali milliy oʻzlikni anglash jarayonining yanada toʻliqroq manzarasini hosil qilish mumkin. Milliy oʻzlik, bir tomondan, millatning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllangan nisbatan barqaror xususiyatlari majmuasi sifatida namoyon boʻlsa, ikkinchi tomondan, u ijtimoiy-siyosiy jarayonlar taʼsirida doimiy ravishda qayta shakllanib, yangilanib boruvchi dinamik fenomen hamdir. Shuningdek, milliy oʻzlik milliy manfaatlarni himoya qilish, jamiyatni birlashtirish va safarbar qilish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday integrativ yondashuv milliy oʻzlikni anglash jarayonining koʻp qirrali va murakkab tabiatini toʻliqroq tushunishga, uning shakllanish omillari va mexanizmlarini chuqurroq tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Smith A.D. National Identity. - London: Penguin, 1991. - P. 14.
2. Otamurodov S. Milliy oʻzlikni anglash va globallashuv jarayonlari. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2018. - B. 32.
3. Taylor C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. - Cambridge: Harvard University Press, 1989. - P. 27.
4. Fichte J.G. Addresses to the German Nation. - Cambridge: Cambridge University Press, 2008. - P. 134.
5. Herder J.G. Ideas for the Philosophy of History of Humanity. - Indianapolis: Hackett Publishing Company, 2004. - P. 124.

© Ergashev Alijon Boxodirovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ergashev Alijon Boxodirovich

ELEKTRON ARXIVLAR VA MUZEY TIZIMLARIDA RAQAMLI MEROSNI SAQLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 kurs talabasi

Boboqulova Aziza Alijon qizi

boboqulovaaziza001@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada elektron arxivlar va muzey tizimlarida raqamli madaniy merosni saqlashning zamonaviy yondashuvlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamlashtirish jarayonining ahamiyati, ma'lumotlarni uzoq muddatli saqlash mexanizmlari, bulutli texnologiyalar, zaxiralash tizimlari hamda kiberxavfsizlik choralarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, inson omili, texnologik infratuzilma va normativ-huquqiy asoslarning o'zaro uyg'unligi raqamli merosni samarali boshqarishning muhim sharti sifatida asoslab beriladi. Maqola natijalari elektron arxivlar va muzey tizimlarini modernizatsiya qilish hamda milliy madaniy merosni ishonchli himoya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli meros, elektron arxivlar, muzey tizimlari, kiberxavfsizlik, raqamlashtirish, bulutli texnologiyalar, zaxiralash, axborot xavfsizligi

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОХРАНЕНИЮ ЦИФРОВОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В ЭЛЕКТРОННЫХ АРХИВАХ И МУЗЕЙНЫХ СИСТЕМАХ

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ современных подходов к сохранению цифрового культурного наследия в электронных архивах и музейных системах. Рассматриваются вопросы цифровизации, механизмы долговременного хранения данных, роль облачных технологий, систем резервного копирования и мер кибербезопасности. Особое внимание уделяется взаимосвязи человеческого фактора, технологической инфраструктуры и нормативно-правовой базы как ключевых условий эффективного управления цифровым наследием. Результаты исследования направлены на разработку научно-практических рекомендаций по модернизации архивных и музейных систем и обеспечению надежной защиты культурного наследия.

Ключевые слова: цифровое наследие, электронные архивы, музейные системы, кибербезопасность, цифровизация, облачные технологии, резервное копирование, информационная безопасность

MODERN APPROACHES TO THE PRESERVATION OF DIGITAL CULTURAL HERITAGE IN ELECTRONIC ARCHIVES AND MUSEUM SYSTEMS

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of modern approaches to the preservation of digital cultural heritage in electronic archives and museum systems. It examines the significance of digitization processes, long-term data preservation mechanisms, the role of cloud technologies, backup systems, and cybersecurity measures. Particular attention is paid to the interconnection between the human factor, technological infrastructure, and regulatory frameworks as key conditions for effective management of digital heritage. The findings contribute to the development of scientific and practical recommendations for the modernization of archival and museum systems and the reliable protection of cultural heritage.

Keywords: digital heritage, electronic archives, museum systems, cybersecurity, digitization, cloud technologies, backup systems, information security

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda madaniy merosni saqlash, tizimlashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish masalasi faqat an'anaviy arxivshunoslik yoki muzeyshunoslik doirasida emas, balki raqamli texnologiyalar, axborot xavfsizligi, institutsional boshqaruv va milliy identitetni asrash bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki bugungi globallashuv sharoitida tarixiy hujjatlar, qo'lyozmalar, san'at asarlari, etnografik materiallar, muzey kolleksiyalari va boshqa madaniy boyliklarning qadri ularning faqat jismoniy mavjudligi bilan emas, balki raqamli makonda qay darajada sifatli, xavfsiz va barqaror saqlanishi bilan ham belgilanmoqda. Shu jihatdan milliy elektron arxivlar, raqamli muzey tizimlari va madaniy platformalar davlatning tarixiy xotirasi, ilmiy salohiyati hamda madaniy nufuzini ifodalovchi muhim strategik infratuzilma sifatida qaraladi.

Milliy elektron arxivlar madaniy va tarixiy merosni raqamli shaklda jamlash, saqlash, boshqarish hamda ilmiy muomalaga kiritishning eng muhim vositalaridan biridir. Ular an'anaviy arxiv fondlarining elektron nusxalarini yaratish bilangina cheklanmaydi, balki hujjatlarning uzoq muddatli saqlanishi, tezkor izlanishi, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan qulay foydalanilishi va keng jamoatchilikka yetkazilishini ham ta'minlaydi. Biroq aynan shu imkoniyatlar elektron arxivlarni kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan yuqori darajadagi himoya talab qiluvchi tizimga aylantiradi. Chunki elektron arxivdagi ma'lumotlarning buzilishi, o'g'irlanishi, noqonuniy o'zgartirilishi yoki butunlay yo'qolishi nafaqat texnik nosozlik, balki milliy tarixiy xotiraga yetkazilgan jiddiy zarar sifatida baholanishi mumkin. Elektron arxivlarning xavfsizligi, avvalo, ularning texnik infratuzilmasi bilan belgilanadi. Bunda serverlar, ma'lumotlar markazlari, zaxira saqlash tizimlari, shifrlash vositalari, foydalanuvchilarni aniqlash mexanizmlari va axborot

almashinuvi kanallari yagona xavfsizlik tizimi sifatida ishlashi lozim. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar ko‘pincha noyob va qayta tiklash qiyin bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli ular oddiy axborot resurslari emas, balki davlatning ma’naviy, tarixiy va ilmiy boyligini ifodalovchi muhim raqamli aktivlar sifatida muhofaza qilinishi zarur.

Milliy elektron arxivlar faoliyatida ma’lumotlarning yaxlitligi, maxfiyligi va mavjudligi asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi. Yaxlitlik arxiv materiallarining asl holati buzilmasligini, ularning noqonuniy o‘zgartirilmasligini anglatadi. Maxfiylik ayrim hujjatlar, ayniqsa shaxsiy, davlat yoki mualliflik huquqi bilan bog‘liq materiallarga ruxsatsiz kirishni cheklashni bildiradi. Mavjudlik esa kerakli axborotdan belgilangan foydalanuvchi o‘z vaqtida foydalana olishini ta’minlaydi. Ana shu uch mezon uyg‘un holda bajarilgandagina elektron arxivlar ilmiy, madaniy va ijtimoiy vazifalarini to‘laqonli amalga oshirishi mumkin.

Elektron arxivlar xavfsizligini ta’minlashda shifrlash texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Foydalanuvchi va server o‘rtasida almashinadigan axborot shifrlangan kanallar orqali uzatilsa, tashqi aralashuv, ma’lumotlarni tutib olish yoki noqonuniy o‘zgartirish xavfi sezilarli darajada kamayadi. Ayniqsa, arxiv materiallaridan masofadan foydalanish imkoniyati kengaygan hozirgi davrda bu masala yanada dolzarb tus olmoqda. Ilmiy xodimlar, tadqiqotchilar, talaba-yoshlar va boshqa foydalanuvchilar elektron bazalarga turli hududlardan ulanadi. Demak, tizim faqat ichki tarmoq darajasida emas, balki tashqi raqamli muhitda ham himoyalangan bo‘lishi zarur. Milliy elektron arxivlarda zaxiralash tizimlarining mavjudligi ham muhim omildir. Ma’lumotlarning yagona serverda saqlanishi xavfli hisoblanadi, chunki texnik nosozlik, tabiiy ofat yoki kiberhujum natijasida katta hajmdagi ma’lumot yo‘qolishi mumkin. Shu bois arxiv materiallarining geografik jihatdan turli joylarda joylashtirilgan zaxira nusxalari yaratilishi zarur. Bunday yondashuv favqulodda vaziyatlarda arxiv faoliyatining uzluksizligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, zaxira nusxalarining ham muntazam yangilanishi, tekshirilishi va himoyalanishi talab etiladi. Aks holda zaxira tizimining mavjudligi qog‘ozdagi choraga aylanib qoladi.

Elektron arxivlarda monitoring va tahdidlarni aniqlash tizimlari ham markaziy o‘rin tutadi. Raqamli muhitda xavf ko‘pincha birdaniga emas, balki dastlab kichik anomaliyalar, noodatiy kirish urinishlari, server yuklamasining keskin ortishi, noma’lum manbalardan kelayotgan so‘rovlar yoki foydalanuvchi faoliyatidagi g‘ayritabiiy holatlar orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli real vaqt rejimida ishlaydigan kuzatuv vositalari xavfni erta bosqichda aniqlash va unga tezkor javob berish imkonini yaratadi. Xavfsizlik tizimi faqat hujum sodir bo‘lgandan keyin emas, balki hujum ehtimolini oldindan sezish va kamaytirish tamoyiliga asoslanishi lozim. Milliy elektron arxivlarning samarali faoliyati faqat texnik jihozlanish bilan cheklanmaydi. Bunda tashkiliy boshqaruv, normativ-huquqiy asos, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va foydalanuvchi madaniyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Arxiv xodimlari raqamli hujjatlar bilan ishlash, axborot

xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, parol siyosati, ma’lumotlarni ruxsat darajasiga ko‘ra boshqarish, shubhali xabarlar va zararli havolalarni aniqlash bo‘yicha muntazam tayyorlanishi kerak. Chunki ko‘plab kiberxavf holatlari murakkab texnik buzilishlardan ko‘ra inson omili sababli yuzaga keladi. Muzeylarning raqamli merosni saqlash tizimi ham elektron arxivlar kabi strategik ahamiyatga ega. Muzeylar xalqning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri, moddiy va nomoddiy madaniyati jamlangan muassasalardir. Bugungi kunda ko‘plab muzeylar o‘z kolleksiyalarini raqamlashtirish, eksponatlarning elektron kataloglarini yaratish, virtual ko‘rgazmalar tashkil etish va ularni onlayn platformalar orqali keng jamoatchilikka taqdim etish yo‘lidan bormoqda. Bu jarayon muzey faoliyatini zamonaviy bosqichga olib chiqadi, ammo shu bilan birga yangi xavfsizlik muammolarini ham yuzaga keltiradi.

Muzeylarning raqamli meros tizimi bir necha qatlamdan iborat bo‘ladi. Birinchi qatlam — texnik saqlash infratuzilmasi. Unga serverlar, ma’lumotlar markazlari, zaxira qurilmalar va tarmoq uskunalari kiradi. Ikkinchi qatlam — dasturiy ta’minot va ma’lumotlar bazalari bo‘lib, ular eksponatlarni ro‘yxatga olish, tavsiflash, indekslash va izlash imkonini beradi. Uchinchi qatlam — foydalanuvchi interfeysi, ya’ni veb-saytlar, mobil ilovalar, virtual ko‘rgazma maydonlari va interaktiv xizmatlardan tashkil topadi. Har bir qatlamning o‘ziga xos xavfsizlik talablari mavjud. Agar ulardan biri zaif bo‘lsa, butun tizim xavf ostida qolishi, Muzeylarda raqamli kolleksiyalarni himoya qilishdagi asosiy muammolardan biri texnologik eskirishdir. Ayrim muassasalarda dasturiy ta’minot, server infratuzilmasi yoki himoya vositalari zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi mumkin. Moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi, mutaxassislar yetishmasligi yoki tizimli modernizatsiya ishlarining sustligi bunday zaifliklarni kuchaytiradi. Natijada zararli dasturlar, ruxsatsiz kirish, ma’lumotlar bazasining buzilishi yoki xizmat ko‘rsatishning izdan chiqishi ehtimoli ortadi.

Ikkinchi muhim muammo inson omili bilan bog‘liq. Muzey xodimlari yoki foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi turli xavfli holatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, kuchsiz parollardan foydalanish, shubhali elektron xatlardagi havolalarni ochish, ma’lumotlarni noto‘g‘ri joylashtirish yoki ruxsat darajalarini noto‘g‘ri belgilash raqamli meros xavfsizligini susaytiradi. Shu sababli kiberxavfsizlik muzeylarda faqat texnik bo‘limning vazifasi emas, balki butun muassasa madaniyatining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Uchinchi muammo tashqi kiberhujumlar bilan bog‘liq. Ransomware, DDoS-hujumlar, zararli dasturlar, ma’lumotlar bazasiga noqonuniy kirish, veb-platformalarni buzish kabi tahdidlar muzeylarning raqamli faoliyatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Ayniqsa, virtual ko‘rgazmalar va onlayn kataloglar ommalashgan sari tashqi foydalanuvchilar soni ortadi. Bu esa tizimga tushadigan yuklamani kuchaytiradi va xavfsizlikni yanada murakkablashtiradi. Demak, muzeylar ochiqlik va himoya o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi zarur. Muzeylarning raqamli meros tizimida ma’lumotlarning

ilmiy aniqligi ham xavfsizlikning muhim ko‘rinishidir. Agar eksponat haqidagi ma’lumotlar noqonuniy o‘zgartirilsa yoki noto‘g‘ri talqin qilinsa, bu faqat texnik xato emas, balki tarixiy haqiqatning buzilishiga olib keladi. Shu bois raqamli kataloglarda ma’lumotlarni tahrirlash huquqi aniq chegaralanishi, har bir o‘zgarish qayd etilishi va mas’ul shaxslar tomonidan nazorat qilinishi kerak. Bunday tartib ilmiy ishonchlilikni saqlashga xizmat qiladi. Madaniy platformalar esa raqamli merosni saqlash, targ‘ib qilish va jamoatchilikka yetkazishda alohida o‘rin tutadi. Ular virtual muzeylar, elektron kutubxonalar, interaktiv arxivlar, onlayn ko‘rgazmalar va ta’limiy resurslarni birlashtiruvchi muhit sifatida faoliyat yuritadi. Madaniy platformalar orqali foydalanuvchilar turli tarixiy hujjatlar, eksponatlar, san’at asarlari va ilmiy ma’lumotlar bilan masofadan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va ta’lim jarayonini boyitishga xizmat qiladi. Biroq madaniy platformalarning keng ommalashuvi kiberxavfsizlik muammolarini ham kuchaytiradi. Platformaga kiruvchi foydalanuvchilar sonining ortishi, ochiq ma’lumot almashinuvi, interaktiv xizmatlar va onlayn muloqot imkoniyatlari tizimni turli xavflarga duchor qiladi. Phishing, ijtimoiy muhandislik, noto‘g‘ri ma’lumot tarqatish, akkauntlarni buzish, zararli fayllar joylashtirish kabi tahdidlar madaniy platformalar faoliyatida uchrashi mumkin. Shu sababli bunday platformalar nafaqat madaniy-ma’rifiy, balki axborot xavfsizligi talablariga mos ravishda loyihalashtirilishi lozim. Madaniy platformalarning ijobiy ta’siri shundaki, ular milliy merosni keng auditoriyaga yetkazadi. Masalan, chekka hududlarda yashovchi o‘quvchilar, talabalar yoki tadqiqotchilar markaziy muzey va arxivlarga bormasdan turib raqamli materiallardan foydalanishi mumkin. Bu ilmiy va ta’limiy tenglikni kengaytiradi. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotchilar ham milliy madaniy meros bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada madaniy diplomatiya, xalqaro ilmiy hamkorlik va milliy brendni shakllantirish jarayonlari kuchayadi.

Shuningdek, raqamli merosni himoya qilishda huquqiy asoslar ham muhim ahamiyatga ega. Mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, davlat arxiv materiallaridan foydalanish tartibi, muzey eksponatlarining raqamli nusxalarini tarqatish qoidalari aniq belgilanishi lozim. Huquqiy noaniqliklar raqamli merosdan foydalanishda turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ayrim materiallarni ochiq platformaga joylashtirish ilmiy jihatdan foydali bo‘lsa-da, huquqiy jihatdan cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu bois ochiqlik va muhofaza o‘rtasidagi nisbat ilmiy, axloqiy va huquqiy mezonlar asosida belgilanadi. Raqamli madaniy merosni saqlash jarayonida kadrlar tayyorlash masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Bugungi arxivchi, muzeyshunos yoki madaniyat sohasi mutaxassisi faqat an’anaviy manbashunoslik yoki eksponatshunoslik bilimlariga ega bo‘lishi yetarli emas. U raqamli kataloglash, metama’lumotlar bilan ishlash, axborot xavfsizligi, elektron platformalarni boshqarish va foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha ham zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Demak, madaniyat sohasi uchun zamonaviy kadrlar tayyorlashda raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik alohida o‘quv yo‘nalishi sifatida kiritilishi maqsadga

muvofiqdir. Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy elektron arxivlar, muzeylarning raqamli meros tizimlari va madaniy platformalar zamonaviy jamiyatda tarixiy xotirani saqlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va milliy identitetni mustahkamlashning muhim vositalariga aylangan. Biroq ularning samarali ishlashi zamonaviy kiberxavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilishni taqozo etadi. Ma'lumotlarni shifrlash, zaxiralash, foydalanuvchilarni aniqlash, xavf-monitoring tizimlarini joriy etish, xodimlarni muntazam tayyorlash, normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashish bu boradagi asosiy vazifalardir. Raqamli merosni himoya qilish faqat texnik masala emas, balki milliy madaniyat, tarixiy xotira va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan strategik jarayondir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. **Abduvaliyev A.** Elektron arxivlarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari. // Axborot texnologiyalari va xavfsizlik jurnali. – 2021. №3.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 06.10.2020-y., 06/20/6079/1348-son.
3. **Smith, B.** Cloud Computing for Cultural Heritage Institutions. // Journal of Digital Curation. 2018. Vol. 13.
4. **Raqamli merosni saqlash bo'yicha xalqaro standartlar (ISO 14721:2012 - OAIS).** Reference Model for an Open Archival Information System
5. "O'zarxiv" agentligi rasmiy ma'lumotlari. Elektron arxivlar va raqamli texnologiyalar bo'limi hisoboti. // www.archive.uz (murojaat sanasi: 2024-yil may).
6. https://ppublishing.org/media/uploads/journals/article/Arts-2_p24-27.pdf#:~:text=The%20presence%20of%20Uzbekistan's%20museum%20collections%20on,world%20can%20access%20the%20exhibits%20on%20display.
7. G'aniyeva M., Jamilov Q. Muzey ashyolarini raqamlashtirish asoslari. – Toshkent: San'at, 2019. – B. 45
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Arxiv ishi to'g'risida (yangi tahriri). // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2010. – № 24-25. – 192-m
9. Mamontova M.S. (2016). The practice of digitizing museum collections (using the example of museums in Yoshkar-Ola) //International scientific journal "Innovative Science".– № 2. ISSN2410–6070.– P. 173–175. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/praktika-otsifrovki-muzeynyh-fondov-na-primere-muzeev-g-yoshkar-oly

© , 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

JADID TARQIYPARVARLARI VA ULARNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI

Sattarova Saodat

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Maktabgacha ta’lim 4-kurs talabasi

Annatotsiya: Mazkur maqolada jadid ma’rifatchilarining maktabgacha ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni tarixiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan dastlabki maktabgacha ta’lim muassasalari, xususan yaslilar, bolalar maydonchalari, xususiy bog‘chalar hamda ta’lim-tarbiyaviy to‘garaklar faoliyati yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль джадидских просветителей в формировании и развитии системы дошкольного образования с историко-педагогической точки зрения. В исследовании освещаются первые формы дошкольных учреждений в Туркестане конца XIX – начала XX века, такие как ясли, детские площадки, частные детские сады и воспитательно-образовательные кружки.

Annotation: This article analyzes the role of Jadid reformers in the formation and development of the preschool education system from a historical and pedagogical perspective. The study highlights the early forms of preschool institutions in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, including nurseries, playgrounds, private kindergartens, and educational circles.

Kalit so’zlar: Jadidchilik, maktabgacha ta’lim, tarbiya, pedagogik qarashlar, yasli, bolalar bog‘chasi, uzluksiz ta’lim, Turkiston, ma’rifatchilar, ta’lim tizimi.

Ключевые слова: джадидизм, дошкольное образование, воспитание, педагогические взгляды, ясли, детский сад, непрерывное образование, Туркестан, просветители, система образования.

Key words: Jadidism, preschool education, upbringing, pedagogical views, nursery, kindergarten, continuous education, Turkestan, reformers, education system.

Kirish. XX asr boshlarida maktabgacha ta’lim g‘oyalarining rivojlanishi jadid ma’rifatchilarining keng ko‘lamli islohotchilik faoliyati bilan bevosita bog‘liq holda kechdi. Ushbu davrda jadidlar ta’lim tizimini tubdan yangilash, uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish va yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash masalasiga

alohida e'tibor qaratdilar. Ular ta'limni faqat maktab darajasida emas, balki inson hayotining ilk bosqichlaridan boshlash zarurligini ilgari surib, maktabgacha ta'limning ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini chuqur anglab yetgan edilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni o'rganishda mikrotarix, tizimlashtirish, statistik va qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy hamda Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadid ma'rifatchilar o'z asarlari va amaliy faoliyatlari orqali bolani erta yoshdan o'qitish va tarbiyalash zarurligini asoslab berdilar. Ular tomonidan yaratilgan dastlabki o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar va tarbiyaviy asarlar o'z davri uchun yangicha pedagogik yondashuvni ifodalab, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qildi. Ayniqsa, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asari pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim o'rin tutib, unda tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi roli chuqur asoslab berilgan.

Avloniyning "tarbiyasiz xalqning yo'li qorong'u va uning kelajagi izdan chiqishi muqarrar" mazmunidagi fikri tarbiyaning nafaqat individual, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham muhimligini anglatadi. Bu g'oya, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Chunki shaxsning asosiy axloqiy, ijtimoiy va intellektual sifatlari aynan ilk bolalik davrida shakllanadi[1]. Shu nuqtai nazardan, jadid ma'rifatchilarining pedagogik qarashlari O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim tarixiy bosqichni tashkil etadi. Ularning ilgari surgan g'oyalari bugungi zamonaviy ta'lim tizimida ham o'z aksini topib, uzluksiz ta'lim konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jadid ma'rifatchilarining amaliy faoliyatida ta'lim tizimini bosqichma-bosqich tashkil etish g'oyasi alohida o'rin egallagan bo'lib, bu jarayonda ayrim maktablarda "boshlang'ich tayyorlov sinflari"ning joriy etilishi muhim pedagogik yangilik sifatida namoyon bo'ladi[2]. Mazkur tayyorlov sinflari bolalarni maktab ta'limiga puxta tayyorlash, ularning boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Bu esa o'z mohiyatiga ko'ra, bugungi maktabgacha ta'lim tizimining asosiy funksional vazifalari bilan yaqinlik kasb etadi.

Ushbu tayyorlov bosqichlarida bolalarning yosh xususiyatlari inobatga olinib, ularga sodda tushunchalar, savodga tayyorgarlik, axloqiy tarbiya hamda elementar bilimlar berishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu yondashuv, o'z navbatida, bolani majburiy ta'lim jarayoniga moslashtirish, uning psixologik va ijtimoiy tayyorgarligini ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan mazkur tajriba hozirgi zamonaviy pedagogikada qo'llanilayotgan "maktabga tayyorlov" konsepsiyasining dastlabki ko'rinishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, jadid

maktablarida tashkil etilgan boshlang‘ich tayyorlov sinflari O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining shakllanish jarayonida muhim tarixiy-pedagogik bosqich sifatida namoyon bo‘lib, uzluksiz ta’lim tizimining izchil va evolyutsion rivojlanishini ifodalovchi muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida maktabgacha ta’limga oid dastlabki tashkiliy shakllar ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga kela boshlaganini kuzatish mumkin. Jumladan, 1896-yildan boshlab Turkistonda mahalliy boshqaruv organlari tashabbusi bilan kambag‘al oilalar farzandlari uchun “yasli” deb atalgan muassasalar tashkil etila boshladi. Ushbu muassasalar asosan endigina mustaqil harakatlana boshlagan bolalarni qamrab olib, ularni maktab yoshiga yetguniga qadar parvarishlash va tarbiyalashga yo‘naltirilgan edi.

Yasli faoliyati muayyan tartib asosida tashkil etilib, bolalar kun davomida muassasada bo‘lib, uch mahal ovqat bilan ta’minlangan. Tarbiyaviy jarayon nazoratchi ayol tomonidan boshqarilgan bo‘lib, unga yordamchi xodimlar ham biriktirilgan. Bu holat mazkur muassasalarda bolalar parvarishi va tarbiyasiga nisbatan tizimli yondashuv shakllanganini ko‘rsatadi. Yaslilarda bolalarga diniy va ma’naviy tarbiya elementlari (duolarni o‘qish), shuningdek, elementar savodxonlik (o‘qish, yozish, sanash) bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar — to‘qish, tikish, to‘r taqish kabi hunar turlari ham o‘rgatilgan. Bu esa mazkur muassasalarning nafaqat parvarish, balki boshlang‘ich ta’lim va kasbiy yo‘naltirish vazifasini ham bajarganligini anglatadi.

Biroq, ushbu muassasalar keng qamrovli tus olmagan bo‘lib, butun o‘lka bo‘ylab yaslilarga qatnayotgan bolalar soni nisbatan kam — taxminan 50–60 nafar atrofida bo‘lgan. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimining hali dastlabki rivojlanish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Turkistonning Toshkent, Samarqand, Sirdaryo va Namangan kabi yirik shaharlarida kambag‘al va qarovsiz bolalar uchun yetimxonalar tashkil etilishi ijtimoiy himoya va tarbiya tizimining shakllana boshlaganidan dalolat beradi.

Imtiyozli ijtimoiy qatlam vakillari farzandlari uchun esa maktabgacha ta’limning nisbatan rivojlangan shakllari yuzaga kela boshladi. Xususan, 1891-yilda “Bog‘dorchilik jamiyati” tashabbusi bilan Toshkent istirohat bog‘ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun “bolalar maydonchasi” tipidagi dastlabki muassasa tashkil etilgan. Ushbu maskan uchun bog‘ hududidan sersoya maydon ajratilib, unda bolalar uchun turli o‘yin vositalari, jumladan arg‘imchoqlar o‘rnatilgan hamda o‘yinchoqlar bilan ta’minlangan.

Mazkur maydonchalarda bolalarning estetik va ekologik tarbiyasiga ham e’tibor qaratilib, gulzorlar barpo etilgan hamda bolalar o‘simliklarni parvarish qilish jarayoniga jalb etilgan. Bu esa bolalarda tabiatga mehr, mehnatga munosabat va mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qilgan. Shunday qilib, Turkiston hududida tashkil etilgan yaslilar,

yetimxonalar hamda bolalar maydonchalari maktabgacha ta’lim tizimining dastlabki institutsional shakllari sifatida namoyon bo‘lib, uning keyingi rivojlanishi uchun muhim tarixiy-pedagogik zamin yaratgan.

1891–1903-yillar oralig‘ida Turkistonda tashkil etilgan dastlabki maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati moliyaviy yetishmovchiliklar sababli barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Xususan, bolalar bog‘chalari mablag‘ taqchilligi tufayli bir necha bor o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lganligi ushbu sohaning hali institutsional jihatdan mustahkamlanmaganini ko‘rsatadi. Bu holat, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tizimini tashkil etish va uni metodik jihatdan asoslash zaruratini yuzaga keltirgan.

Ana shunday ehtiyojlar ta’sirida ilg‘or pedagogik g‘oyalar asosida 1903-yil fevral oyida Toshkent shahrida “Oilaviy ta’lim-tarbiyaviy to‘garagi” tashkil etildi[3]. Mazkur to‘garak o‘z faoliyatini Harbiy ministrlik hamda Xalq maorifi idoralari tomonidan tasdiqlangan ustav asosida olib borgan bo‘lib, uning tashkil etilishi maktabgacha ta’limni tizimlashtirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

To‘garak oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar bolalarga ta’lim-tarbiya berish usullarini takomillashtirish va pedagogik tajribalarni rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat edi. Shuningdek, u pedagoglar, ota-onalar hamda bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi boshqa mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, oila, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida yagona tarbiyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimining muhim tamoyillaridan biri — tarbiyaning izchilligi va uzviyligini ta’minlashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Mazkur to‘garak tarkibida maktabgacha ta’lim yo‘nalishiga ixtisoslashgan alohida sho‘baning faoliyat yuritishi uning mazkur sohani rivojlantirishga qaratilganligini tasdiqlaydi. Ta’kidlash joizki, to‘garak tashkil etilgunga qadar bolalar bog‘chalarida tarbiyaviy ishlar aniq pedagogik tizimga ega emas edi. Shu bois, to‘garak a’zolari bolalar tarbiyasiga oid dolzarb masalalarni muhokama qilish, ilg‘or tajribalarni almashish va yagona metodik yondashuvni shakllantirishga intilganlar.

Umuman olganda, “Oilaviy ta’lim-tarbiyaviy to‘garagi” faoliyati Turkistonda maktabgacha ta’lim tizimini ilmiy-metodik asosda shakllantirish yo‘lidagi dastlabki urinishlardan biri bo‘lib, bu jarayon keyinchalik sohaning yanada rivojlanishiga muhim turtki bergan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni yosh xususiyatlariga qarab guruhlarga ajratish amaliyoti ilk bor 4–6 yosh oralig‘idagi ikki alohida guruhni shakllantirish orqali yo‘lga qo‘yilgan. Bu yondashuv bolalarning rivojlanish darajasi va psixologik xususiyatlarini inobatga olishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilgan. Mashg‘ulotlar asosan o‘yin va ko‘ngilochar

faoliyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borilib, bolalarning tabiiy qiziqishi va faolligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Tarbiyaviy jarayonda harakatli o‘yinlar, jamoa bo‘lib kuylash (xor), o‘qish, rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash kabi ijodiy faoliyat turlari keng qo‘llanilgan. Shuningdek, bolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash maqsadida gimnastika mashqlari ham muntazam tashkil etilib, ularni amalga oshirish uchun maxsus jadval va reglamentlar ishlab chiqilgan. Bu holat mazkur davrda maktabgacha ta’lim jarayonini muayyan tizim asosida tashkil etishga intilish mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

E’tiborlisi shundaki, ota-onalar ehtiyojidan kelib chiqib, bolalarga fransuz va nemis tillarini o‘rgatish amaliyoti ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu mashg‘ulotlar mutaxassislar tomonidan bepul asosda amalga oshirilgan. Mazkur tajriba o‘sha davrda maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishga bo‘lgan ilk intilishlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Ta’lim-tarbiyaviy to‘garak faoliyati bolalar bog‘chalarida tarbiyaviy ishlar saviyasini oshirishga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada tarbiyaviy ish mazmuniga muayyan tizimlilik kiritilib, ish shakllari xilma-xillashdi va pedagogik yondashuvlar boyidi. Biroq, maxsus pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lgan kadrlarning yetishmasligi sababli tarbiyaviy faoliyat ko‘p hollarda yetarli darajada izchil va tizimli tashkil etilmagan. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishida muhim muammo sifatida namoyon bo‘lib, keyingi bosqichlarda malakali mutaxassislar tayyorlash zaruratini yuzaga keltirgan.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining shakllanish va rivojlanish jarayoni bir necha bosqichlarda namoyon bo‘ladi. Xususan:

1) 1910–1920-yillarda bolalar bog‘chalarini muhofaza qilish va rivojlantirishga qaratilgan maxsus kengashlar tashkil etilgan bo‘lib, bu muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qilgan.

2) 1918-yilda Toshkent shahrining eski qismida mahalliy aholi farzandlari uchun mo‘ljallangan bolalar bog‘chasining tashkil etilishi esa milliy maktabgacha ta’lim tizimining shakllanishida muhim voqea sifatida baholanadi.

3) Keyingi yillarda mazkur tizimning qamrovi kengaya boshladi. Jumladan, 1926-yilga kelib maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar soni qariyb 2000 nafarga yetganligi ushbu sohaning bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi[4].

1917-yilgi Oktyabr inqilobidan so‘ng sobiq imperiya hududlarida, jumladan Turkistonda ham ijtimoiy-siyosiy tizim tubdan o‘zgardi va bu jarayon ta’lim tizimiga, xususan maktabgacha ta’lim sohasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Yangi hokimiyat

tomonidan xayriya asosidagi ijtimoiy yordam shakllariga chek qoʻyilib, ularning moddiy (xususiy mulk) va maʼnaviy (diniy) asoslari tugatildi. Natijada bolalar tarbiyasi va ijtimoiy himoyasi davlat zimmasiga oʻta boshladi hamda bu soha markazlashgan boshqaruv tizimi asosida qayta tashkil etildi.

Mazkur davrda barcha hududlarda ijtimoiy tarbiya boʻlimlari tashkil etilib, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishga qaratilgan maxsus muassasalar faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Shu bilan birga, maktabgacha taʼlim va ijtimoiy tarbiya tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etib, Moskva va Leningrad oliy taʼlim muassasalarida bu yoʻnalishda mutaxassislar tayyorlash boshlandi. Bu esa sohani ilmiy-metodik asosda rivojlantirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanadi.

XX asrning 20-yillarida maktablar va bolalar muassasalarini moddiy qoʻllab-quvvatlash maqsadida "komsod" (yordam qoʻmitalari) kabi tashkilotlar faoliyat yuritgan boʻlib, ular taʼlim tizimining moddiy bazasini mustahkamlashda muhim rol oʻynagan. Aynan shu davrdan boshlab Turkistonda davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bogʻchalarini ommaviy tashkil etish jarayoni izchil ravishda amalga oshirila boshladi.

1917-yil 20-noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan eʼlon qilingan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan deklaratsiya" ushbu yoʻnalishda dastlabki huquqiy asos boʻlib xizmat qildi. Ushbu hujjatda bolalarni ijtimoiy asosda bepul tarbiyalash tizimini yoʻlga qoʻyish va bu jarayonni erta yoshdan boshlash zarurligi belgilab berildi. Mazkur gʻoyalar amaliyotga tatbiq etilib, 1918-yilning ikkinchi yarmidan boshlab davlat bolalar bogʻchalari tashkil etila boshlandi.

Shuningdek, 1918-yil 20-oktyabrda Turkiston Maorifi Xalq Komissarligi huzurida maktabgacha taʼlim sohasidagi barcha tashkiliy va metodik ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida maxsus maktabgacha tarbiya boʻlimi tashkil etildi. Bu esa mazkur sohani tizimli boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan muhim institutsional choradir. 1919-yilda qabul qilingan davlat dasturlari esa xalq maorifi tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirib, maktabgacha taʼlimni rivojlantirishga keng yoʻl ochdi.

Mazkur davrda Toshkent, Samarqand, Sirdaryo va Namangan kabi hududlarda yetimxonalar tashkil etilishi bolalarni ijtimoiy himoya qilish va ularni tarbiyalash tizimini kengaytirishga xizmat qildi. Umuman olganda, 1917-yildan keyingi davr maktabgacha taʼlimning davlat siyosati darajasida shakllanib, uning tashkiliy, huquqiy va metodik asoslari yaratilgan muhim tarixiy bosqich sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, dastlab maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi asosan oilaviy va diniy-maʼnaviy muhitda amalga oshirilgan boʻlsa, keyinchalik u ijtimoiy ehtiyojlar taʼsirida muayyan tashkiliy shakllarga ega boʻla boshlagan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tashkil etilgan yaslilar, bolalar maydonchalari,

xususiy bogʻchalar hamda taʼlim-tarbiyaviy toʻgaraklar maktabgacha taʼlimning dastlabki institutsional koʻrinishlari sifatida namoyon boʻlgan. Ushbu muassasalarda bolalarning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishiga qaratilgan faoliyatlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, ularning ijtimoiy qamrovi va metodik taʼminoti yetarli darajada shakllanmagan edi.

1917-yildan keyingi davrda maktabgacha taʼlim tizimi tubdan yangi bosqichga koʻtarilib, davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Xususan, “Maktabgacha tarbiya yuzasidan deklaratsiya” hamda keyingi davlat dasturlari asosida maktabgacha taʼlim muassasalari ommaviy ravishda tashkil etila boshladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlari shakllantirildi va malakali kadrlar tayyorlash tizimi yoʻlga qoʻyildi. Bu esa maktabgacha taʼlimning ijtimoiy institut sifatida mustahkamlanishiga olib keldi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, maktabgacha taʼlim tizimining rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy omillar va madaniy-maʼnaviy qadriyatlar bilan uzviy bogʻliq holda kechgan. Ayniqsa, xususiy va davlat tashabbuslari oʻrtasidagi oʻzaro uygʻunlik, shuningdek, pedagogik gʻoyalar evolyutsiyasi mazkur tizimning bugungi zamonaviy koʻrinishini shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qilgan.

Umuman olganda, maktabgacha taʼlimning tarixiy rivojlanish bosqichlari uning bugungi kundagi nazariy-metodologik asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa zamonaviy taʼlim tizimini takomillashtirish, maktabgacha taʼlim sifatini oshirish hamda uzluksiz taʼlim tizimini yanada rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Choʻlpon nashriyoti, 1992. – 52-bet.

Qosimov B. Jadidchilik harakati. – Toshkent: Universitet, 1999. – B. 27.

Elmurodova S. Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tizimining paydo boʻlishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 37.

Elmurodova S. Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tizimining paydo boʻlishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 38.

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Choʻlpon nashriyoti, 1992. – 52-bet. ↑
2. Qosimov B. Jadidchilik harakati. – Toshkent: Universitet, 1999. – B. 27. ↑

3. Elmurodova S. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining paydo bo‘lishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 37. ↑

4. Elmurodova S. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining paydo bo‘lishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 38. ↑

© Sattarova Saodat, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Sattarova Saodat

RAQAMLI MADANIY VA TARIXIY MEROSNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI KONTEKSTIDAGI ILMIY-METODOLOGIK TAHLILI

Navoiy innovatsiyalar universiteti ijtimoiy gumanitar fanlar kefedrasi pedagogika yoʻnalishi 1 kurs talabasi

Ziyodullayeva Dilsoʻz Bobosher qizi

ziyodullayevadilsuz74@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli madaniy va tarixiy meros tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning zamonaviy axborot makonidagi oʻrni hamda axborot xavfsizligi bilan bogʻliq jihatlari ilmiy-metodologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqotda raqamlashtirish jarayonining madaniy xotirani saqlash, milliy identitetni mustahkamlash va ilmiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli meros obyektlarining mazmuniy yaxlitligi, texnologik barqarorligi va axborot xavfsizligini taʼminlash masalalari kompleks yondashuv asosida ochib beriladi. Maqolada madaniyatshunoslik, axborot texnologiyalari va arxivshunoslik yondashuvlarining integratsiyasi asosida raqamli merosni samarali boshqarish va himoya qilish boʻyicha ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit soʻzlar: raqamli meros, madaniy meros, tarixiy xotira, ijtimoiy-falsafiy tahlil, axborot xavfsizligi, raqamlashtirish, kiberxavfsizlik, milliy identitet, multidistsiplinar yondashuv

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ЦИФРОВОГО КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ И ЕГО НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В КОНТЕКСТЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: В данной статье проводится научно-методологический анализ социально-философской сущности цифрового культурно-исторического наследия, его роли в современном информационном пространстве и аспектов информационной безопасности. В исследовании раскрывается значение процессов цифровизации в сохранении культурной памяти, укреплении национальной идентичности и развитии научно-педагогической деятельности. Особое внимание уделяется вопросам обеспечения содержательной целостности, технологической устойчивости и информационной безопасности объектов цифрового наследия. На основе интеграции культурологического, информационно-технологического и архивоведческого подходов сформулированы научные выводы по эффективному управлению и защите цифрового наследия.

Ключевые слова: цифровое наследие, культурное наследие, историческая память, социально-философский анализ, информационная безопасность, цифровизация, кибербезопасность, национальная идентичность, междисциплинарный подход

SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF DIGITAL CULTURAL AND HISTORICAL HERITAGE AND ITS SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ANALYSIS IN THE CONTEXT OF INFORMATION SECURITY

Abstract: This article presents a scientific and methodological analysis of the socio-philosophical essence of digital cultural and historical heritage, its role in the modern information space, and its relationship with information security. The study highlights the importance of digitalization processes in preserving cultural memory, strengthening national identity, and enhancing scientific and educational activities. Particular attention is paid to ensuring the semantic integrity, technological sustainability, and information security of digital heritage objects. Based on the integration of cultural, information-technological, and archival approaches, the paper formulates scientific conclusions on the effective management and protection of digital heritage.

Keywords: digital heritage, cultural heritage, historical memory, socio-philosophical analysis, information security, digitalization, cybersecurity, national identity, multidisciplinary approach

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti natijasida madaniy va tarixiy merosni saqlash, oʻrganish hamda keng jamoatchilikka yetkazish jarayonlari sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarildi. Ilgari asosan anʼanaviy shakllarda mavjud boʻlgan madaniy boyliklar — qoʻlyozmalar, arxiv hujjatlari, badiiy asarlar, meʼmoriy yodgorliklar hamda ogʻzaki ijod namunalarining raqamli formatga oʻtkazilishi ilmiy muomalada “raqamli madaniy va tarixiy meros” tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Mazkur tushuncha faqat texnologik jarayon natijasi sifatida emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, maʼnaviy qadriyatlari va milliy oʻzligini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida talqin etiladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu fenomen madaniyatshunoslik, axborot fanlari, arxivshunoslik hamda kiberxavfsizlik kabi yoʻnalishlarning tutashgan nuqtasida oʻrganilmoqda. Raqamlashtirilgan meros obyektlari global axborot makonida ochiqlik, tezkorlik va interaktivlik tamoyillari asosida faol axborot resurslariga aylanib, ilmiy izlanishlar, taʼlim jarayoni va madaniy almashinuvni rivojlantirishda muhim oʻrin egallamoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish madaniy boyliklarni jismoniy yemirilish, yoʻqolish yoki cheklangan foydalanish kabi xavflardan himoya qiluvchi samarali vosita sifatida eʼtirof etilmoqda. Biroq masalaning mohiyati faqat ijobiy jihatlar bilan chegaralanmaydi. Raqamli muhitda mavjud boʻlgan madaniy resurslar strategik ahamiyatga ega axborot obyektlariga aylanib bormoqda. Ularning

mazmuniy yaxlitligi, ishonchliligi va mavjudligini ta’minlash masalasi jamiyatning ma’naviy barqarorligi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois raqamli madaniy va tarixiy merosni ilmiy asosda tahlil qilish, uning ijtimoiy-ma’naviy hamda axborot xavfsizligidagi o‘rnini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli madaniy meros tushunchasining ilmiy talqinlari turli yondashuvlar orqali izohlanadi. Keng qamrovli nazariy qarashlarga ko‘ra, u an’anaviy merosni raqamli muhitga moslashtirish bilan birga, uning ijtimoiy hayotdagi uzluksizligini ta’minlash jarayonini ham anglatadi. Bu jarayon nafaqat obyektlarni texnik jihatdan raqamlashtirish, balki ularning mazmuniy, estetik va ma’naviy qiymatini saqlagan holda ijtimoiy muhitga integratsiya qilishni ham nazarda tutadi. Shu ma’noda, tarixiy hujjatlar, san’at asarlari, me’moriy obidalar va og‘zaki ijod namunalari raqamli nusxa ko‘rinishida jamiyatning axborot xotirasini shakllantiradi va ilmiy hamda pedagogik faoliyatda keng qo‘llaniladi. Ilmiy nuqtai nazardan mazkur tushunchani tahlil etishda uch asosiy tarkibiy jihat ajratiladi. Birinchidan, mazmuniy yaxlitlik masalasi bo‘lib, bunda raqamli nusxaning asl obyektga xos tarixiy, estetik va madaniy xususiyatlarni to‘liq aks ettirishi muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, texnologik barqarorlik va uzluksizlik komponenti bo‘lib, u raqamli ma’lumotlarning uzoq muddat saqlanishi, ularning moslashuvchanligi va texnologik muhitda eskirib qolmasligini ta’minlash bilan bog‘liq. Uchinchidan esa axborot xavfsizligi omili bo‘lib, bu jihat raqamli merosni kiberxatarlar, texnik nosozliklar hamda inson omili ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflardan himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, raqamli merosni anglashda multidistsiplinar yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan u milliy o‘zlikni shakllantiruvchi va tarixiy xotirani mustahkamlovchi vosita sifatida baholanadi. Axborot texnologiyalari esa raqamli obyektlarning texnik jihatdan saqlanishi, autentifikatsiya jarayonlari va monitoring tizimlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Arxivshunoslik va dokumentologiya esa meros obyektlarining tarixiy-huquqiy kontekstini, ularning saqlanish va uzatilish mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qiladi.

Bugungi sharoitda raqamli madaniy meros global axborot makonida milliy madaniyatni saqlash va targ‘ib qilishning muhim instrumentiga aylanmoqda. Shu bilan birga, uning samarali boshqaruvi texnik, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarning uyg‘unligini talab etadi. Bu esa mazkur fenomenni faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy tizim sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Raqamli madaniy merosni metodologik jihatdan tahlil qilish jarayoni uning ko‘p qatlamli tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu tahlil doirasida madaniy obyektlarning nafaqat estetik va tarixiy qiymati, balki ularning raqamli muhitda saqlanishi, boshqarilishi va ommalashtirilishi masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Metodologik yondashuv, avvalo, turli ilmiy yo‘nalishlarni yagona tizimga birlashtirish orqali raqamli merosning kompleks tahlilini amalga oshirishga imkon yaratadi. Mazkur tahlilning birinchi yo‘nalishi madaniyatshunoslik yondashuvi bo‘lib, u raqamli meros obyektlarini ularning ijtimoiy-

ma'naviy kontekstida baholashni nazarda tutadi. Bu orqali tarixiy hujjatlar va madaniy artefaktlarning jamiyat hayotidagi o'rni, ularning kollektiv xotira va milliy identitet shakllanishidagi roli aniqlanadi. Ikkinchi yo'nalish axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik bilan bog'liq bo'lib, unda raqamli obyektlarning texnik jihatdan barqarorligi, ma'lumotlar butunligi va xavfsizlik mexanizmlari o'rganiladi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, bulutli saqlash tizimlari, real vaqt monitoringi va anomaliyalarni aniqlash usullari bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi. Uchinchi yo'nalish esa arxivshunoslik va dokumentologiya bo'lib, u meros obyektlarining tarixiy, huquqiy va konservatsion jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Raqamli merosning zamonaviy talqinlarida uning ijtimoiy va axborot xavfsizligi jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli meros jamiyatning madaniy xotirasini saqlash bilan birga, uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik resurs sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy jihatdan u avlodlar o'rtasida uzviylikni ta'minlovchi, madaniy qadriyatlarni uzatish vositasi sifatida muhimdir. Axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan esa raqamli obyektlarni himoya qilish, ularning ishonchliligi va mavjudligini ta'minlash ustuvor vazifaga aylanadi. Shu bilan birga, raqamli merosni himoya qilish faqat texnik choralar bilan cheklanmaydi. U huquqiy me'yorlar, tashkiliy mexanizmlar va kadrlar salohiyatini oshirish kabi omillarni ham o'z ichiga oladi. Raqamli meros obyektlarining yaxlitligi va uzluksizligini ta'minlash esa ularning ilmiy va madaniy qiymatini saqlab qolishning muhim sharti hisoblanadi. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, raqamli madaniy va tarixiy meros bugungi ilmiy tafakkurda integratsiyalashgan ijtimoiy, texnologik va ma'naviy tizim sifatida qaralmoqda. Uning samarali rivoji esa kompleks yondashuv, ilmiy asoslangan strategiyalar va zamonaviy texnologiyalarning uyg'un qo'llanishiga bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Candela G., Dobreva M., Alkemade H. et al. A Use Case Lens on Digital Cultural Heritage, 2025.
2. Dinh Nguyen C. Digital cultural heritage in the crossfire of conflict: cyber threats and cybersecurity perspectives. Insights, 2024.
3. El Louadi M. On the Preservation of Africa's Cultural Heritage in the Age of Artificial Intelligence, 2024.
4. Giannini T., Bowen J.P. (eds.). Museums and Digital Culture: New Perspectives and Research. Springer, 2019. — 590 p.
5. Huang Y. Safeguarding Cultural Heritage and Promoting Economic-Cultural Growth in the Digital Era. Springer, 2025. — approx. 350 p.
6. Karimov A. Raqamli infratuzilma va madaniy meros xavfsizligi: milliy tajriba. — Dissertatsiya, 2023.

7. Kukreja V., Singh A., Kaur Bajwa D. (eds.). Digital Cultural Heritage: Challenges, Solutions, and Future Directions. CRC Press, 2025. — 258 p.
8. Qoʻshnazarov M. Sun'iy intellekt yordamida raqamli madaniy resurslarni himoyalash. 2025.
9. Rustamova N. Bulutli xizmatlarda madaniy meros maʼlumotlarining xavfsizligi. — Ilmiy jurnal, 2025.

© Ziyodullayeva Dilsoʻz Bobosher qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ziyodullayeva Dilsoʻz Bobosher qizi

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA IJTIMOIY DINAMIKANI PROGNOZLASHNING FALSAFIY-METODOLOGIK VA AXLOQIY ASOSLARI.

Navoiy innovatsiyalar universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kefedrasi pedagogika yo'nalishi 1 kurs talabasi

Otaqulova Sabina Shavkat qizi

otaqulovasabina7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt yordamida ijtimoiy dinamikani prognozlashning falsafiy, metodologik va axloqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson xatti-harakatini algoritmik modellashtirishning murakkab jihatlari, sababiyat va ehtimollik munosabati hamda sun'iy intellekt orqali hosil qilinadigan bilimning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, algoritmik tarafkashlik, shaffoflik va ijtimoiy adolat masalalari ilmiy asosda ochib berilib, inson markazli yondashuv zarurligi asoslanadi. Natijada sun'iy intellektni ijtimoiy prognozlashda qo'llashda falsafiy tafakkur va axloqiy me'yorlarning uyg'unligi muhim ekani xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ijtimoiy prognozlash, ijtimoiy dinamika, algoritmik modellashtirish, falsafiy tahlil, metodologiya, axloqiy muammolar, algoritmik tarafkashlik, ijtimoiy adolat, inson markazli yondashuv

ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ДИНАМИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: В данной статье анализируются философские, методологические и этические основы прогнозирования социальной динамики с использованием искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется сложности алгоритмического моделирования человеческого поведения, соотношению причинности и вероятности, а также специфике знания, формируемого на основе искусственного интеллекта. Рассматриваются проблемы алгоритмической предвзятости, прозрачности и социальной справедливости, обосновывается необходимость человеко-ориентированного подхода. В результате делается вывод о важности интеграции философского осмысления и этических норм в процессе применения искусственного интеллекта для социального прогнозирования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, социальное прогнозирование, социальная динамика, алгоритмическое моделирование, философский анализ,

методология, этические проблемы, алгоритмическая предвзятость, социальная справедливость, человеко-ориентированный подход

PHILOSOPHICAL, METHODOLOGICAL AND ETHICAL FOUNDATIONS OF FORECASTING SOCIAL DYNAMICS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Abstract: This article examines the philosophical, methodological, and ethical foundations of forecasting social dynamics using artificial intelligence. It explores the complexity of algorithmic modeling of human behavior, the relationship between causality and probability, and the specific nature of knowledge generated by AI systems. The study also addresses issues such as algorithmic bias, transparency, and social justice, emphasizing the importance of a human-centered approach. The findings highlight that the effective use of AI in social forecasting requires the integration of philosophical reflection and ethical considerations.

Keywords: artificial intelligence, social forecasting, social dynamics, algorithmic modeling, philosophical analysis, methodology, ethical issues, algorithmic bias, social justice, human-centered approach

Sun'iy intellekt yordamida ijtimoiy prognozlash zamonaviy ijtimoiy fanlar oldida yangi metodologik imkoniyatlar bilan bir qatorda chuqur falsafiy va axloqiy savollarni ham yuzaga keltirmoqda. Chunki jamiyat hayoti faqat tashqi omillar, statistik ko'rsatkichlar yoki raqamli ma'lumotlar yig'indisidan iborat emas. Ijtimoiy jarayonlarning markazida ongli, maqsadga yo'naltirilgan, qadriyatlar asosida qaror qabul qiluvchi inson turadi. Inson xatti-harakati esa faqat iqtisodiy sharoit, siyosiy muhit yoki axborot ta'siri bilan emas, balki ichki motivlar, madaniy tajriba, axloqiy qarashlar, tarixiy xotira va shaxsiy tanlovlar bilan ham belgilanadi. Shu sababli inson faoliyatini to'liq algoritmik modelga sig'dirish, uni mutlaq aniqlik bilan oldindan aytish murakkab va bahsli masala hisoblanadi. Ijtimoiy prognozlash jarayonida sababiyat va ehtimollik munosabati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Klassik ilmiy yondashuv odatda aniq sabab va aniq natija o'rtasidagi bog'liqlikni izlashga intiladi. Sun'iy intellekt esa ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlar ichidan korrelyatsiyalarni, ya'ni birgalikda o'zgaruvchi belgilarni aniqlash asosida ishlaydi. Masalan, ma'lum hududda ishsizlik darajasining oshishi ijtimoiy norozilik ehtimolini kuchaytirishi mumkin. Biroq bu holat har doim bevosita sababiy bog'liqlik mavjudligini anglatmaydi. Chunki ijtimoiy norozilik faqat iqtisodiy omil bilan emas, siyosiy ishonch, madaniy muhit, axborot oqimi, huquqiy himoya darajasi va jamoaviy kayfiyat kabi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bois algoritmik natijalarni yakuniy haqiqat sifatida emas, balki falsafiy, metodologik va ijtimoiy tahlil orqali talqin qilinishi zarur bo'lgan ehtimoliy xulosa sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Sun’iy intellektning ijtimoiy prognozlashdagi yana bir muhim jihati uning “bilim” hosil qilish imkoniyati bilan bog‘liqdir. Algoritmlar ma’lumotlar asosida natija beradi, muayyan naqshlarni aniqlaydi va ehtimoliy bashoratlarni shakllantiradi. Ammo bu natijalar insoniy anglash bilan aynan bir xil emas. Inson ijtimoiy hodisalarga ma’no beradi, ularni tarixiy, madaniy, axloqiy va qadriyatlar kontekstida tushunadi. Sun’iy intellekt esa belgilar, raqamlar, ehtimollar va statistik naqshlar bilan ishlaydi. Demak, sun’iy intellekt ijtimoiy bilim ishlab chiqarishda muhim vosita bo‘lsa-da, uning xulosalari inson tafakkuri, tanqidiy yondashuv va axloqiy baholash bilan uyg‘unlashtirilgandagina ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan ijtimoiy prognozlashda foydalanish axloqiy muammolarni ham chetlab o‘ta olmaydi. Eng asosiy muammolardan biri algoritmik tarafkashlikdir. Agar sun’iy intellekt modeli tarixiy jihatdan bir tomonlama, noto‘g‘ri yoki kamsituvchi ma’lumotlar asosida o‘qitilsa, u mavjud ijtimoiy tengsizliklarni qayta ishlab chiqarishi va hatto kuchaytirishi mumkin. Masalan, tarixiy ma’lumotlarda ayrim ijtimoiy guruhlar kamsitilgan yoki imkoniyatlardan chetlatilgan bo‘lsa, algoritm ushbu naqshlarni “normal holat” sifatida qabul qilishi va kelajakdagi qarorlarda ham takrorlashi ehtimoli mavjud. Bu esa sun’iy intellektning xolis vosita emasligini, balki uni yaratgan ma’lumotlar, dasturchilar, institutlar va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatadi. Bunday holat ayniqsa davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy yordam, ta’limga qabul qilish, sog‘liqni saqlash va mehnat bozori kabi inson hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan sohalarda xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar algoritmik qarorlar shaffof bo‘lmasa, fuqarolar nima sababdan muayyan qaror qabul qilinganini tushunmaydi. Bu esa ijtimoiy ishonchsizlik, norozilik va adolatsizlik hissini kuchaytiradi. Shu sababli sun’iy intellekt tizimlari tushuntiriladigan, nazorat qilinadigan va inson manfaatlariga xizmat qiladigan shaklda ishlab chiqilishi zarur. Algoritmik adolat tushunchasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Unga ko‘ra, sun’iy intellekt tizimlari inson qadr-qimmati, tenglik, huquqiy kafolatlar, shaffoflik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga mos ravishda faoliyat yuritishi lozim. Texnologik samaradorlik hech qachon inson huquqlari va axloqiy qadriyatlardan ustun qo‘yilmasligi kerak. Ayniqsa, ijtimoiy prognozlashda insonlarni faqat statistik guruhlar, xavf ko‘rsatkichlari yoki raqamli profillar sifatida baholash xavfli yondashuvdir. Har bir inson alohida ijtimoiy tajriba, shaxsiy tarix, huquqiy maqom va axloqiy qadriyatga ega bo‘lgan subyektdir. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektdan foydalanishda inson markazli yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim. Bunda texnologiya insonni nazorat qilish, cheklash yoki faqat ma’lumot obyektiga aylantirish vositasi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy muammolarni oldindan aniqlash, adolatli qarorlar qabul qilish va jamiyat barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy vosita sifatida qaraladi. Demak, sun’iy intellekt asosidagi ijtimoiy prognozlash texnik jarayon bo‘lishi bilan birga, chuqur falsafiy, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni talab qiladigan murakkab ilmiy faoliyatdir.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt yordamida ijtimoiy dinamikani prognozlash zamonaviy ijtimoiy fanlar rivojida yangi bosqichni boshlab bermoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va ehtimoliy ijtimoiy o'zgarishlarni oldindan baholash imkonini berib, ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq va tizimli tarzda tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan u ijtimoiy boshqaruv, siyosiy rejalashtirish, iqtisodiy strategiya va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash mutlaq aniqlikni ta'minlay olmaydi, chunki jamiyat deterministik tizim emas. Inson xatti-harakati ko'p qirrali omillar — madaniy, axloqiy, psixologik va tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli algoritmik modellar tomonidan berilgan natijalar ehtimoliy xususiyatga ega bo'lib, ularni bevosita sababiy haqiqat sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan asosli emas. Demak, sun'iy intellekt natijalarini tanqidiy tahlil qilish, ularni falsafiy yondashuv asosida talqin etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida sun'iy intellektdan foydalanishda yuzaga keladigan axloqiy muammolar — algoritmik tarafkashlik, shaffoflik yetishmasligi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi xavfi alohida ta'kidlandi. Bu holatlar sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish va qo'llashda adolat, tenglik, inson huquqlari va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, insonlarni faqat statistik obyekt sifatida emas, balki individual qadriyat va huquqlarga ega subyekt sifatida ko'rish zarurati dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, sun'iy intellekt yordamida ijtimoiy prognozlash texnik jarayon bilan cheklanib qolmay, balki chuqur falsafiy va axloqiy mazmunga ega bo'lgan murakkab ilmiy faoliyatdir. Uning samarali qo'llanilishi texnologik imkoniyatlar, metodologik aniqlik va insonparvar qadriyatlar uyg'unligiga bog'liq. Shu sababli kelgusida sun'iy intellektni ijtimoiy jarayonlarga tatbiq etishda inson markazli yondashuvni kuchaytirish, madaniy kontekstni hisobga olish va algoritmik tizimlarning ochiqligi hamda javobgarligini ta'minlash muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.** "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori.
2. **Gulyamov S.S. va boshqalar.** Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.2020.
3. **Safarova N.O.** Ijtimoiy jarayonlarni modellashtirishning falsafiy-metodologik masalalari // "Falsafa va huquq" jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 12-18.
4. **Muller V. C.** Ethics of Artificial Intelligence and Robotics // The Stanford Encyclopedia of Philosophy. – Stanford University, 2020. [Elektron resurs]. URL: stanford.edu

5. **UNESCO.** Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 44 p.

© Otaqulova Sabina Shavkat qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Otaqulova Sabina Shavkat qizi

TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN AXBOROT TIZIMLARINI JORIY ETISH VA QO'LLAB-QUVATLASH:INNOVATSIYALAR VA SAMARADORLIK

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Filalogiya va tillarni o'qitish kafedrasi

Ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Shokirova Sabrina Hikmatillo qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida sun'iy intellektni joriy qilish,ta'lim sifatini oshirish va ta'limda sun'iy intellektni o'rni haqida mulohaza qilamiz.XXI asr ya'ni raqamli texnalogiyalar davrida yashar ekanmiz , har bir sohaga va har bir soha vakiliga sun'iy intellektdan foydalanish keng imkoniyatlar yaratadi.Shu bilan birga,ta'limda ham buning katta o'rni borligini ta'kidlaymiz.Ta'lim sohasini yuksaltirishda ham sun'iy intellektga e'tibor beriladi.Hamda ta'lim sohasida sun'iy intellektni joriy etilishi va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan diqqatimiz ushbu maqolada o'rin olgan.

Abstract: In this article, we will consider the introduction of artificial intelligence in the educational process, improving the quality of education, and the role of artificial intelligence in education. As we live in the 21st century, that is, in the era of digital technologies, the use of artificial intelligence creates broad opportunities for every sector and every representative of the sector. At the same time, we emphasize that it also plays a major role in education. Attention is also paid to artificial intelligence in improving the education sector. Our focus in this article is on the introduction of artificial intelligence in the education sector and increasing the efficiency of education.

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим внедрение искусственного интеллекта в образовательный процесс, повышение качества образования и роль искусственного интеллекта в образовании. В XXI веке, то есть в эпоху цифровых технологий, использование искусственного интеллекта открывает широкие возможности для каждого сектора и каждого представителя этого сектора. В то же время мы подчеркиваем, что он играет важную роль и в образовании. Внимание уделяется также применению искусственного интеллекта для совершенствования образовательной сферы. В центре внимания данной статьи – внедрение искусственного интеллекта в образовательный сектор и повышение эффективности образования.

Kalit so’zlar: Ta’lim tizimi, sun’iy intellekt, innovatsion ta’lim,masofaviy ta’lim,avtomatlashtirilgan baholash,ta’lim sifati,raqamli savodxonlik,big data(katta ma’lumotlar),elektron ta’lim,kadrlar tayyorlash,ma’lumotlar xavfsizligi

Keywords: Education system, artificial intelligence, innovative education, distance learning, automated assessment, education quality, digital literacy, big data, e-learning, staff training, data security

Ключевые слова: система образования, искусственный интеллект, инновационное образование, дистанционное обучение, автоматизированная оценка, качество образования, цифровая грамотность, большие данные, электронное обучение, обучение персонала, безопасность данных.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim sohasiga juda katta e’tibor berilyapti va shu bilan birga sarmoya ham kiritilyapti.Bu tizimni rivojlantirish bo’yicha ham qilinayotgan ishlat yetarlicha.Bu tizimda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish imkoniyatlar joriy qilish,ta’lim sifatini zamon talablariga mos qilish bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlar gaplarimiz isboti va yana bir karra dalil hisoblanadi.Oliy ta’lim muassasalari uchun Sun’iy intellekt(SI)NI (AI)ni rivojlantirish va joriy etish talabalarno og’irini yengil qilish va o’qishdagi muammolarini hal qilish uchun katta yordamchi bo’la oladi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Sun'iy intellekt (SI) bugungi kunda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish tezligi va qobiliyati turlicha. SI algoritmlari talabaning bilim darajasini tahlil qilib, unga moslashtirilgan o‘quv rejasini tuzadi. Masalan, agar o‘quvchi biror mavzuda qiynalsa, tizim unga qo‘shimcha materiallar va sodda tushuntirishlarni taqdim etadi. O‘qituvchilarning ko‘p vaqti uy vazifalarini tekshirish, testlar o‘tkazish va davomatni yuritish kabi texnik ishlarga sarflanadi. Test va imtihonlarni soniyalar ichida tekshiradi.

O‘quvchilarning natijalari asosida hisobotlar tayyorlaydi.

Dars ishlanmalarini yaratishda g‘oyalar beradi. alabalar darsdan tashqari vaqtda ham savollariga javob olishlari mumkin. Chatbotlar va virtual assistentlar (masalan, ChatGPT kabi) istalgan vaqtda mavzuni tushuntirib berishi yoki masalalarni yechishda yo‘l ko‘rsatishi mumkin. SI ko‘rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun katta yordam beradi. Matnni nutqqa aylantirish (ko‘zi ojizlar uchun),nutqni matnga aylantirish (eshitishi pastlar uchun,xorijiy tillardagi darslarni real vaqt rejimida tarjima qilish xususiyatlariga ega. SI yordamida o‘quvchining kelajakdagi natijalarini bashorat

qilish mumkin. Agar talaba sustkashlik qilayotgan bo‘lsa, tizim buni oldindan aniqlab, o‘qituvchini ogohlantiradi. Bu esa o‘quvchining fandan ortda qolib ketishining oldini oladi.

Yana bir eng muhim omillardan biri,2026-yilda Masofaviy ta’lim shakli joriy etildi va bu tamoyil ham sun’iy intellekt bilan uzviy bog’liq.Zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida masofadan turib bilim olish imkoniyatlari kengaydi. Shu jarayonda sun’iy intellekt (SI) muhim rol o‘ynamoqda.Sun’iy intellekt masofaviy ta’limni yanada samarali, qulay va interaktiv qilishga xizmat qiladi. An’anaviy onlayn darslardan farqli ravishda, SI asosidagi tizimlar o‘quvchining bilim darajasini tahlil qiladi va unga mos o‘quv materiallarini taklif etadi. Bu esa har bir o‘quvchiga individual yondashuvni ta’minlaydi.Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida masofaviy ta’lim platformalari o‘quvchilarning darsga qatnashishi, topshiriqlarni bajarishi va bilim darajasi haqida aniq statistik ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu esa o‘qituvchiga o‘quv jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi.Sun’iy intellekt masofaviy ta’limni yanada samarali qiladi[1]

[1]UNESCO. Education and Data Privacy in the Digital Age.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlari keng joriy etilmoqda. Shulardan biri — HEMIS (Higher Education Management Information System) bo‘lib, u ta’lim jarayonini boshqarish, nazorat qilish va tahlil etishga xizmat qiladi. Ushbu tizimga sun’iy intellekt elementlarini kiritish esa uning samaradorligini yanada oshirmoqda.Yaqunda HEMIS ilovasiga yordamchi AI platformasi ham qo’shilibti. Shuningdek, HEMIS tizimida AI asosidagi funksiyalar namoyon bo‘ladi.Ulardan,talabalar faoliyatini monitoring qilish – davomad, baho va topshiriqlarni tahlil qilish, prognozlash (bashorat qilish) – talabaning kelajakdagi o‘zlashtirish darajasini oldindan aniqlash, avtomatlashtirilgan hisobotlar – o‘qituvchi va rahbariyat uchun tezkor ma’lumotlar tayyorlash,masofaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlash – onlayn platformalar bilan integratsiya.HEMIS tizimi ta’lim jarayonini boshqarishga xizmat qiladi[2]

HEMIS rasmiy platformasi va foydalanish yo‘riqnomalari.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida HEMIS tizimi katta hajmdagi ma’lumotlarni (big data) tezkor qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bu esa ta’lim muassasasi rahbariyatiga aniq va asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Kelajakda HEMIS tizimiga yanada rivojlangan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali quyidagi imkoniyatlar paydo bo‘lishi kutilmoqda:

Talabalar uchun individual o‘quv rejalari,avtomatik maslahat beruvchi tizimlar,aqlli rejalashtirish (dars jadvali, yuklama),o‘qituvchilar faoliyatini baholash kabi qo’shimcha funksiyalar ishlab chiqarish joriy qilinmoqda.

Ta’limda malimotlar xavfsizligi ham juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa sun’iy intellekt (AI) rivoji bilan yanada dolzarb masalaga aylandi. Ta’lim jarayonida talabalar,

o‘qituvchilar va tizimlar o‘rtasida katta hajmdagi ma’lumotlar almashinuvi sodir bo‘ladi. Shu sababli bu ma’lumotlarni himoya qilish muhim hisoblanadi.Ta’lim tizimida ko’plab ma’lumotlar mavjud.Ulardan,shaxsiy ma’lumotlar,akademik natijalar(baholar,reytinglar),onlayn faoliyat.Agar ma’lumotlar himoyalanmasa, ma’lumotlar o’g’irlanishi mumkin,soxtalashtirish holatlari yuz berishi mumkin va talabalar shaxsiy hayotiga zarar yetishi mumkin. Ta’limda ma’lumotlar xavfsizligi — bu faqat texnik masala emas, balki har bir foydalanuvchining mas’uliyati hamdir. AI texnologiyalari ta’limni rivojlantirayotgan bo‘lsa-da, ular bilan birga xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarur. HEMIS kabi tizimlar samarali ishlashi uchun foydalanuvchilar ham xavfsizlik qoidalariga amal qilishi kerak.

INTRODUCTION

Today, significant attention is being paid to the field of education, and substantial investments are being made in this sector. Large-scale efforts are being carried out to develop the education system, introduce modern technologies, and align the quality of education with contemporary requirements. This clearly demonstrates the ongoing improvement and modernization of the education system.

The development and implementation of Artificial Intelligence (AI) technologies in higher education institutions play an important role in facilitating the learning process for students and helping to solve problems they encounter in their studies.

Today, artificial intelligence is fundamentally transforming the education system and creating new opportunities for both teachers and students. Since each learner has a different level of knowledge, learning pace, and ability, AI algorithms analyze these individual characteristics and create personalized learning plans. For example, if a student struggles with a particular topic, the system provides additional materials and simplified explanations.

Moreover, artificial intelligence plays a significant role in reducing teachers’ workload. Tasks such as checking homework, conducting tests, and grading exams can be automated and completed in a short time. At the same time, AI systems can generate analytical reports based on students’ performance, helping educators better understand learning outcomes and improve the teaching process.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время сфере образования уделяется большое внимание, а также в неё вкладываются значительные инвестиции. Проводятся масштабные работы по развитию системы образования, внедрению современных технологий и приведению качества образования в соответствие с требованиями времени. Это

является наглядным подтверждением поступательного совершенствования образовательной системы.

Развитие и внедрение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в высших учебных заведениях играет важную роль в облегчении учебного процесса для студентов и решении проблем, возникающих в ходе обучения.

Сегодня искусственный интеллект коренным образом трансформирует систему образования, открывая новые возможности как для преподавателей, так и для студентов. Поскольку каждый обучающийся обладает различным уровнем знаний, темпом усвоения и способностями, алгоритмы ИИ анализируют эти индивидуальные особенности и формируют персонализированные учебные планы. Например, если студент испытывает трудности с определённой темой, система предоставляет ему дополнительные материалы и упрощённые объяснения.

Кроме того, искусственный интеллект играет значительную роль в снижении нагрузки на преподавателей. Такие задачи, как проверка домашних заданий, проведение тестов и оценивание экзаменов, могут быть автоматизированы и выполнены в кратчайшие сроки. В то же время системы ИИ формируют аналитические отчёты на основе результатов студентов, что помогает преподавателям лучше понимать уровень усвоения материала и совершенствовать учебный процесс.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.UNESCO. Education and Data Privacy in the Digital Age.

2.OECD. Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges.

3.ISO/IEC 27001 — Information Security Management System standard.

4.European Commission. Ethics Guidelines for Trustworthy AI.

5.HEMIS rasmiy platformasi va foydalanish yo'riqnomalari.

6.Google Safety Center — https://safety.google

7.Kaspersky Cybersecurity Blog — ta'limda kiberxavfsizlik mavzulari.

8.Microsoft Education — digital learning and security resources.

9.Safety Center (https://safety.google/)

© Shokirova Sabrina Hikmatillo qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Shokirova Sabrina Hikmatillo qizi

Мавзу: Рақамли технологиялар ёрдамида ёдгорликларни таъмирлашда халқаро давлатлар тажрибаси.

Савриев Жасур Фахриддинович

Навоий Инновациялар Университети

“Ижтимоий гуманитар фанлар кафедраси профессори”

тарих фанлари доктори (DSc).

+99890 647 20 26

savriyevjasur71@gmail.com

Аннотатция: Ушбу мақолада бугунги кунда халқаро глобал ва экологик муаммога айланиб бораётган республикамиздаги тарихий шаҳарлар ансамблларини таъмирлаш ва тиклаш борасида олиб борилаётган ривожланган давлатлар тажрибаси ва ҳамкорлиги ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Технология, кўҳна цивилизация, аср, географик, геологик, минералогик, тадқиқотлар, меъморий ёдгорликлар, таъмирлаш амалиёти, тарихини тадбиқ этиш, соҳадаги муаммолар.

Тема: Опыт стран мира в реставрации памятников с использованием цифровых технологий.

Аннотация: В данной статье рассматривается опыт и сотрудничество развитых стран в области ремонта и реставрации исторических городских ансамблей в нашей республике, что в настоящее время становится международной, глобальной и экологической проблемой.

Ключевые слова: Технология, древняя цивилизация, возраст, географический, геологический, минералогический, исследования, архитектурные памятники, практика ремонта, историческое применение, проблемы в данной области.

Topic: The experience of international countries in the repair of monuments with the help of digital technologies.

Abstract: This article discusses the experience and cooperation of developed countries in the repair and restoration of historical city ensembles in our republic, which is currently becoming an international, global and environmental problem.

Key words: Technology, ancient civilization, age, geographical, geological, mineralogical, research, architectural monuments, repair practice, history application, problems in the field.

Ўрта Осиё кўп асрлар давомида, инсоният тарихидаги кўҳна цивилизация бешикларидан бири бўлган. Бу ўлкада яшаб ўтган халқлар жаҳонга донг таратган моддий ва маънавий ёдгорликларнинг дурдона намуналарини яратганлар. Шу билан бир қаторда, бу ўлка ўзининг табиий бойликлари орқали чет элликларни кўп асрлар мобайнида ўзига жалб қилиб келган. Бу ўлка бойликлари кўпроқ инглизлар ва русларни қизиқтирган. Улар бир неча ўн йилликлар давомида турли хил экспедициялар ташкил этиб, Ўрта Осиёни ҳар томонлама ўрганишга ҳаракат қилганлар. Ўрта Осиёга Россиядан жуда кўплаб олимлар, мутахассислар келиб, географик, геологик, минералогик тадқиқотлар ўтказадилар. Туркистоннинг ҳайвонот ва наботот оламини, халқларнинг тарихи, турмуш тарзи, урфодатлари ва тилини ўрганадилар. Масалан, Л.П.Федченко ва О.А.Федченколар физика, география, геология, антропология ва этнография ривожига ҳисса қўшишган. Геолог ва географ И.В.Мушкетов Туркистонинг геологик тузилиши тўғрисидаги илмий концепцияни илгари сурди ва «Физик география» асарини ёзди. А.П.Северцев, Г.Д.Романовский, В.Л.Комаров, В.И.Липский, В.Ф.Ошанин, А.И.Краснов ва бошқа кўплаб олимлар Туркистонда илм-фанни ривожлантиришда ҳамда ёдгорликларни ўрганиш борасида кўп ишлар қилишди. 1870 йилда Ўрта Осиё олимлари жамияти пайдо бўлди. Бу жамият ўз олдига Ўрта Осиё тарихи, географияси, этнографиясига ва тарихига оид маълумотларни тўплаш, ишлаш ва тарқатишни мақсад қилиб қўйган эди. Ўлкада ишлаб турган ҳаваскор археологлар 1895 йилда Туркистон археология ҳаваскорлари тўгарагига бирлашди. Тўгарак аъзоларининг тўплаган ҳақикий маълумотлари, илк марта топган материаллари ундан кейинги тадқиқотчилар учун ёрдамчи материал бўлди ва ўтмиш ёдгорликларининг замон ўтиши билан йўқолиб кетган кўп тафсилотларини, шу ёдгорликлар билан боғлиқ бўлган фольклор ва ёзма манбааларни қайд қилиш имконини берди.

Тўгарак аъзоларининг ўртага қўйган масалалари ва мулоҳазалари, гарчи мунозарали ва замон синовига бардош бера олмаган бўлсада, ҳар холда бутун давр учун шубҳасиз катта аҳамиятга эга эди. Уларнинг бу ишлари тадқиқотчилик фикрининг ривожланишига туртки бўлди, унга илмий жамоат диққатини тортди. Ўзбекистон меъморий обидаларини таъмирлаш ишлари XIX аср бошидан ўрганила бошланди. Лекин тарихий шаҳарларнинг гуллаб яшнаган даврида биноларни таъмирлаш, қуриш борасида бир қанча ишлар олиб борилганлиги ҳам тарихий манбалардан маълум. Масалан, XIV аср охири Темурийлар даврида XII–XIII асрларга тааллуқли мусулмонларнинг муқаддас жойлари – Чашмаи Аюб, Турк Жонди, Сайфетдин Бахорзи мақбаралари илгариги асосда таъмирланди.

Шунингдек, XVI аср Шайбонийлар даврида ҳам XII асрга тааллуқли бўлган – Магоки Атторий, Намозгоҳ масжидлари мустаҳкамланиб, қайта тикланди ва Улуғбек мадрасаси таъмирланди. Ўзбекистон меъморий ёдгорликларини таъмирлаш амалиёти тарихини тадбиқ этиш шуни кўрсатадаки, бу соҳадаги муаммолар, XX асрнинг йигирманчи йилларидан бошланган. Чунки, IX–XII асрлардан бошлаб Марказий Осиёда ислом дини таъсирида янгича меъморий йўналиш юзага келган ва у XX асргача узвий ривожланиб борган. Шу туфайли IX–XII асрларда яратилган бирор бир иншоотнинг меъморий ва конструктив тузилиши XX аср бошларигача яшаб ижод этган Ўрта Осиёлик мутахассисларга тушунарли бўлган. Бинобарин XX аср бошларида айтарли ҳар бир меъмор ўзидан олдин яратилган иншоотларни бемалол таьмирлай олган. Буни XX асрда яратилган Бухородаги Олимхон мадрасаси, Самарқанддаги Панжоб мадрасаси, Хива Ичан қалъасидаги минора, мадраса, карвонсаройлар ҳамда Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Шаҳрисабз, Қўқон, Андижон ва бошқа шаҳарларда XIX–XX асрларда қурилган масжидларнинг ўрта аср иморатлари билан бадиий ва конструктив муштараклигида ҳам кўриш мумкин.

Шу туфайли бўлса керак М.К.Ахмедовнинг ёзишича, Ўрта Осиёда «таъмирламоқ» сўзи XX асрнинг ўрталаригача, айни пайтда ҳам янгитдан қуришни ҳам эски иморатни янгилашни англатган[1]. Европадан фарқли ўлароқ, Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Хива, Андижон ёки Ўзбекистоннинг бошқа шаҳарларида XIX аср охири XX аср бошларида қурилган масжид, мадраса, карвонсарой қурувчи ва меъморлари IX–X ёки XIX–XX асрларда қурилган шундай иморатларни қийналмасдан таъмирлай оларди. Чунки унинг шаклланиши асосида умумий меъморий ва бадиий қонуниятлар ётарди. Юқоридагиларнинг исботи сифатида кўп асрлардан буён сақланиб қолган ноёб тарихий обидалардан бири Самарқанд шаҳрида жойлашган Бибихоним жоъме масжиди ҳисобланади. Бибихоним жомъе масжиди XIV-XV асрларга оид ёдгорликлар орасида энг йирик ва нодир обидалардан бири ҳисобланиб, 1399-1404 йилларда Амир Темур ҳукмронлиги даврида бунёд этилган бўлган. **1-расм.**

(1895-1896 yillarda professor N.Veselovskiy rahbarligida P.Pokrishkin, rassom va fotograf S.Dudin, fotograf I.Chistyakov, arxitektor-rassom N.Щyerbina-Kramarenko, A.Щusev va boshqalar ishtirokida Samarqandga tarixiy-me'moriy ekspeditsiya tashkil etiladi.)

Бибихоним жоме масжидининг умумий саҳни 167х109 м. бўлиб, бурчакларида баланд миноралар бўлган ва улар бизга номаълум сабабларга кўра бузиб юборилган. Ҳозирги вақтга келиб бу миноралар қайта тикланди. Таъмирланишга қадар жоме масжиди бир-бири билан боғланмаган 6 та меъморий бўлаклардан иборат бўлган. Масжиднинг ҳовли саҳнига мармартош тахталар ётқизилган. XV аср ўрталарида Мирзо Улуғбек фармонига биноан ҳовли ўртасида мармар тошдан ясалган улкан лавҳ ўрнатилган. У Қуръон ўқиладиган махсус курси бўлиб, дастлаб асосий бино ичида турган 1875 йилда катта гумбазнинг қулашидан хавфланиб, ҳовли ўртасига чиқариб қўйилган. Лавҳнинг атрофи нафис ҳошиялар, муқарнаслар, ўсимликсимон нақшлар ва ёзувлар билан безатилган. Жоме масжиди пештоқи маҳобатли бўлиб, ўртасида кенглиги 18,8 метрли равоқ мавжуд. Ён томонларидаги миноралар пештоқдан баланд бўлган. Пештоқнинг ички томонида кичикроқ (иккинчи) равоқ ўрнатилган. Равоқнинг ёнлари ўймакор мармар тошлар билан безатилган. Унинг устидаги лавҳасида масжиднинг қурилган йили ва Амир Темур шажараси ёзилган. Қўш табақали дарвоза эса етти хил темир қотишмаси, "ҳафт жўш"дан ясалган. Жоме масжидининг асосий (меҳробли) биноси Амир Темур замонасининг меъморий услублари тўғрисида маълумот беради. Масжид гумбазининг доира асосли сиртига муқаддас Қуръон оятлари битилган бўлиб, гумбаз феруза кошинлар билан пардозланган. Масжид ёнидаги икки кичик бино меҳробли хонанинг асосан кичик ҳажмдаги такрори бўлса-да, нақшларининг соддалиги ва гумбазининг кунгиралиги билан фарқ қилади. Жоме масжидининг ички қисмини пардозлашда наққошлик безаклари қаторида зарҳал бўртма гулқоғоздан фойдаланилган. Бибихоним жоме масжидида кейинги даврда таъмирлаш, тиклаш бобида туб ўзгаришлар амалга оширилди ва бу ишлар давом

эттирилмоқда[2]. 2026 йил 12 февраль куни президентимиз раҳбарлигида Самарқанд шаҳридаги “Бибихоним” масжидини реставрация қилиш, Туркистон ёзги амфитеатрини таъмирлаш лойиҳалари кўриб чиқилди[3]. **2-расм.**

(Бибихоним мақбараси қурилган даврда жуда ҳашаматли ва маҳобатли бўлган, унинг деворлари ранг-баранг кошинлар, нақшлар ҳамда Қуръондан келтирилган оятлар битилган ёзувлар билан безатилган. Мақбаранинг ички тузилиши, худди Гўри Амир мақбарасидек икки, қаватли, пастда сағана, тепада эса зиёратхона бўлган. Мақбаранинг гумбази йиқилганидан сўнг униг ичига қор-ёмғирлар тушиб сағананинг томи ҳам йиқилиб тушган. 1941 йили археолог Яҳё Ғуломов раҳбарлигидаги олимлар мақбарада қазиш ишларини олиб боришиб, шу пайтгача номаълум бўлган кўпгина нарсаларни аниқладилар. Шу пайтгача, сағана ўртасидаги бўш ернинг тагида яширин қабрлар мавжуд, деган тахминлар бор эди. Бу ер қазиб кўрилгада, бу ерда ҳеч қандай яширин қабр йўқлиги маълум бўлди. Шунингдек, экспедисия аъзолари мақбара XI-XII асрларга оид маданий қатлам устида бунёд қилинганлигини аниқладилар).

Тақдимотда, миллий реставрация институтини ташкил қилиш режалаштирилаётгани қайд этилди. Лойиҳалаштириш ва реставрация ишларини ЮНЕСКО билан тўлиқ келишилган ҳолда бажариш зарурлиги таъкидланди. Республикадаги 800 дан ортиқ маданият марказининг ярмидан кўпи таъмирталаб ҳолатда экани қайд этилди. Аксарият маданият марказлари ҳалигача эскича ишлаётгани, асосан байрам тадбирларини ўтказиш билан чекланиб қолгани кўрсатиб ўтилди. Шу боис, маданият марказларини замонавий андоза асосида ривожлантириш бўйича пилот лойиҳа ишлаб чиқилган. Лойиҳа Тошкент, Қўқон, Бухоро ва Самарқанддаги 4 та марказни қамраб олган бўлиб, биринчиси Тошкент шаҳридаги “Гулшан” маданият маркази негизида ташкил этилмоқда. Унда “маданият—таълим—ҳордиқ—мулоқот” занжири асосида турли йўналишларидаги клублар, устахоналар, студиялар ва тўгараклар ташкил этилади.

Тақдимотда Буюк Британия Қироллик жамғармаси мактаби тажрибаси асосида Тошкент шаҳрида Анъанавий санъат олий мактабини ташкил этиш режалари ҳам кўриб чиқилди. Ушбу олий мактаб кулолчилик ва ғишт териш, манзарали безак, ёғоч ўймакорлиги, архитектуравий хаттотлик, геометрик ва биоморф нақш йўналишларида бакалавриат ва магистратура дастурларини амалга оширади. Таълим инглиз тилида олиб борилади, икки йиллик дастур асосида мутахассислар тайёрланади. 2027 йилда 50 нафар мутахассис тайёрлаш, 2031 йилга келиб, йилига 80 нафар кадр қувватига чиқиш режалаштирилган. Давлат раҳбари креатив иқтисодиётни ривожлантириш нафақат маданий, балки иқтисодий жиҳатдан стратегик муҳим эканини таъкидлаб, белгиланган лойиҳаларнинг ижросини сифатли таъминлашга кўрсатма берди. Кейинги йилларда юртимизга сайёҳларни жалб этиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Хусусан, қадимий обидаларни асл ҳолида сақлаш, уларни реставрация қилишда хорижлик мутахассисларнинг жалб этилаётгани бу жабҳадаги ишларнинг ривожига туртки бўлди албатта. Аммо шу билан бирга айрим ҳолатларда бу қадимий биноларнинг тарихий даври, реставрация талабларига эътиборсизлик, ўртамиёна реставрация қилиниши халқимизнинг кўп асрлик меросини хавф остида қолдирилаётганлигини кузатишимиз мумкин. Самарқанд шаҳридаги Амир Темур жоме масжидида, маданий мерос агентлиги ташаббуси билан хорижлик реставраторлар иштирокида ўтказилган семинарда айни шу жиҳатлар тилга олинди[4]. Аввало, ҳар бир нарсани ўз номи билан аташни ўрганишимиз лозим, - дейди Маданий мерос агентлиги директори ўринбосари Турсунали Қўзиев. – Биз турган ушбу қадимий обида мустамлака даврининг мафкураси таъсирида Бибихоним номи билан атала бошланган. Халқ тилида ҳам бу ном оммалашди. Ажабланарлиси, хорижлик сайёҳлар бу манзилни ўз номи билан - Амир Темур жоме масжиди деб сўраб келади. Энди бундай хатоларни тузатиб боришимиз лозим. Мутасаддилар, мутахассислар, зиёлилар уни ўз номи билан айтай бошласа, бу секин-аста халқ тилига кўчади, барчаси ўз ўрнига тушади.

Кўпчилик аҳамиятсиз деб билган бу нарса аслида жуда муҳим жиҳат. Асосий мавзуга тўхталадиган бўлсак, Туркия, Эрон каби давлатлар тарихий, маданий ривожланиши, меъморчилик анъаналари биз билан энг яқин мамлакат ва халқлар ҳисобланади. Шу сабабдан ушбу давлатлардан мутахассисларни кўпроқ жалб қиляпмиз. Бугунги кунда Туркия реставрация мактаби дунёдаги энг яхши мактаблардан бири ҳисобланади. Семинарда иштирок этаётган туркиялик мутахассис Али Ҳусайн бу жабҳада ўз юртида олиб борилаётган реставрация ишлари, кейинги йилларда қайта тикланган қадимий обидалар ҳақида маълумот берди. Хусусан, Сиважкўк мадрасаси, Оқсарой шаҳрида XI асрда қурилган Султонхоним карвонсаройи, Меҳрибон Султон жомеси шулар жумласидан. Хорижлик мутахассис амалга оширилган ишлар бўйича ўз тажрибаларини

ўртоқлашди. Реставратция ўзига хос илм, алоҳида малака талаб қилади, - дейди Али Ҳусайн. – Ва энг муҳими, уни ўз вақтида бажариш. Мен Тошкентдаги айрим қадимий обидаларда ҳам бўлдим. Мустамлака даврида маданий меросга ваҳшиёна муносабатда бўлинган. Таъмирлаш ишлари ҳам реставратция талабларига бегисандлик билан, оддий усталар томонидан бажарилган. Масалан, айрим обидаларда цементдан фойдаланилганини кўрдим. Маълумки, цемент ўзига нам тортувчи қурилиш материали. Оқибатда бинонинг барча қисмлари зарарланган. Менга айтишларича бу 50 ёки 70 йил аввал юз берган. Аммо ҳозир бу хатоларни тузатишнинг имкони бор. Бизни қадим ва буюк Самарқандга - реставратция ишларига таклиф қилганидан миннатдорман. Албатта, бу ўринда маҳаллий реставраторларнинг тажрибаларидан ҳам унумли фойдаланиш кераклигини айтишим лозим. Кузатишимча, Самарқанддаги мавжуд қадимий обидаларнинг айримлари таъмирталаб ҳолатга келган. Маҳаллий раҳбарларнинг таъкидлашича, уларни таъмирлашда ЮНЕСКОнинг рухсати, талаб ва тавсияларини олиш лозим экан. Бизда бундай талаб йўқ, Эронда ҳам. Аждодларимиз қурган, ўзимизга тегишли осори-атиқаларни ташқаридан кимдир рухсат беришини кутиб ўтириш шарт эмас аслида.

Туркияда маданий меросни асраш илмий экспертиза кенгашининг хулосаси асосида зарур пайтда реставратсия ишлари бажарилади. Яна бир муҳим жиҳатга эътибор бериш лозим. Масалан, биз турган ушбу обида Амир Темур жоме масжиди дейилади. Демак, у ўз даврида қайси мақсадда қурилган бўлса, бугун ҳам шу вазифани бажариши лозим. Масжид бўлса масжид, мадраса бўлса мадраса шаклида, албатта маълум талаблар асосида. Шундагина бугунги авлодлар олдида унинг аҳамияти қадри ошади, бу билан ушбу қадимий обиданинг умри ҳам узаяди. Илмий-амалий семинарда вилоятимиздаги маданий мерос объектларида реставратция ишларини олиб борган маҳаллий реставраторлар ҳам маданий мерос объектларида амалга оширилган таъмирлаш ишлари ҳақида маълумот берилди.

Хулоса ўрнида ушбу ишларнинг давомийлиги сифатида 2024 йил 2 октябр санасида Ўзбекистон маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси ҳамда «Оға Хон Траст» маданият жамғармаси ва Қатар тараққиёт жамғармаси билан икки томонлама ҳамкорлик шартномалари имзоланиб унда Бибихоним масжидини реставрация қилиш бўйича халқаро келишувлар амалга оширилди[5]. ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси рўйхатига тарихий-маданий қийматига кўра киритилган республикадаги ҳудудлар алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудудлар сифатида белгилаб қўйилиши ушбу ҳудудларнинг ҳуқуқий мақомига аниқлик киритилди ва уларни муҳофаза қилишнинг қонуний асослари яратилди.

Фойдаланилган манбалар рўйхати:

Ахмедов М.К. Ўзбекистонда меъморий ёдгорликларни таъмирлаш муаммолари.// Ўзбекистон меъморий обидаларини таъмирлаш ва улардан фойдаланиш муаммоларига бағишланган халқаро илмий–амалий конференция тезислар тўплами.- Самарқанд. 2004. Б.16-17.

Самарқанд вилоят ҳокимлиги расмий веб сайти маълумотлари асосида.

https://daryo.uz/uz/2026/02/12/bibixonim-masjidi-restavratsiya-qilinib-turkiston-yozgi-amfiteatri-tamirlanadi/

https://zarnews.uz/uz/post/ayrim-obidalar-restavraciyasida-cementdan-foydalanilgan

Бибихоним масжиди реставрация қилинади.// https://hidoyat.uz/78139

1. Ахмедов М.К. Ўзбекистонда меъморий ёдгорликларни таъмирлаш муаммолари.// Ўзбекистон меъморий обидаларини таъмирлаш ва улардан фойдаланиш муаммоларига бағишланган халқаро илмий–амалий конференция тезислар тўплами.- Самарқанд. 2004. Б.16-17. ↑
2. Самарқанд вилоят ҳокимлиги расмий веб сайти маълумотлари асосида. ↑
3. https://daryo.uz/uz/2026/02/12/bibixonim-masjidi-restavratsiya-qilinib-turkiston-yozgi-amfiteatri-tamirlanadi/ ↑
4. https://zarnews.uz/uz/post/ayrim-obidalar-restavraciyasida-cementdan-foydalanilgan ↑
5. Бибихоним масжиди реставрация қилинади.// https://hidoyat.uz/78139 ↑

© Савриев Жасур Фахриддинович, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Савриев Жасур Фахриддинович

AMIR TEMUR NASLIY SHAJARASI VA “KOʻRAGAN” UNVONI

Azizbek Xurramov

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan Murojaatlar bilan ishlash boʻlimi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning kelib chiqishi, ya’ni nasliy shajarasi hamda unga nisbatan qoʻllanilgan “koʻragan” unvonining semantik va etimologik xususiyatlari tarixiy manbalar, lingvistik dalillar va manbashunoslik yondashuvlari asosida tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida Temuriylar davriga oid birlamchi manbalarda nasab masalasining yetarli darajada ochib berilmagani aniqlanadi. Keyingi davr tarixshunosligida esa Temurning chingiziylarga bogʻlanishi koʻproq siyosiy va mafkuraviy ehtiyojlar bilan izohlanadi. Shuningdek, “koʻragan” atamasining kelib chiqishi moʻgʻul tiliga emas, balki turkiy til qatlamiga mansub boʻlishi mumkinligi ilmiy asosda yoritiladi. Natijada Amir Temur shaxsini turkiy-islamiy madaniy muhit doirasida talqin qilish zarurligi asoslanadi.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, nasab, koʻragan, chingiziylar, barlos, Temuriylar davri, tarixiy manbalar, etimologiya, turkiy sivilizatsiya,

Abstract: This article examines the origin of Amir Temur, specifically his genealogical lineage, as well as the semantic and etymological features of the title “Koragan” attributed to him. The study is based on historical sources, linguistic evidence, and source-critical approaches. It reveals that the issue of lineage is not sufficiently clarified in primary sources from the Timurid period. In later historiography, however, attempts to associate Temur with the Chinggisids are largely explained by political and ideological considerations. Furthermore, the study argues that the term “Koragan” may not be of Mongolic origin, but rather belongs to the Turkic linguistic layer. As a result, the paper substantiates the necessity of interpreting Amir Temur within the framework of Turkic-Islamic cultural context.

Keywords: Amir Temur, genealogy, Koragan, Chinggisids, Barlos, Timurid period, historical sources, etymology, Turkic civilization.

Kirish. Amir Temur jahon tarixida muhim oʻrin egallagan davlat arbobi va harbiy sarkarda sifatida keng tan olingan. Uning siyosiy faoliyati va harbiy yurishlari koʻplab tadqiqotlarda yoritilgan boʻlsa-da, uning kelib chiqishi va “koʻragan” unvonining talqini hali ham bahsli masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Amir Temur tirik paytida yozilgan

Gʻiyosiddin Ali va Nizomiddin Shomiy asarlarida uning nasliy shajarasi yoritilishiga ehtiyoj boʻlmaganligi va bu pardani ochmaslik uchungina Amir Temur chingiziylardan bir necha nafar “xon” tanlab ular nomidan ish koʻrganligi ochiq va oydindir. Bularning qatoriga chingiziylardan boʻlmish olim va xon Abulgʻozi Bahodirxon bu shajaraga Amir Temurnigina emas, chingiziylar bilan aralashib ketgan temuriylardan birontasini yoʻlatmaganligini ham qoʻshib koʻrib chiqish lozim koʻriladi. Chingiziylar yoki umuman moʻgʻullarga nasliy aloqadorlik masalasi faqat XIX yuzyillikda (asrda) ingliz tarixchilarining “Buyuk moʻgʻullar imperiyasi” atamasi vositasida yuz koʻrsatadi hamda rus tarixchiligidan mustahkam oʻrin oladi va Amir Temur ham Chingizxon kabi Alanquva (yoki Alan Qoʻa) moʻgʻul va turkiy rivoyatlardagi afsonaviy ayol)ning nevaralari degan tushuncha kabi “gʻalati mashhur” boʻladi. Bu vaziyat vujudga kelishi sababini sal xira boʻlsa ham V. V. Bartold ham bildirib oʻtgan: “...ushbu rivoyatlar hech qanday haqiqiy faktlarga ega boʻlmagan va yuzaga kelgan vaziyatni oqlash va tushuntirish uchun oʻylab chiqarilgan”[1].

Shayboniyxon ham temuriylar ustiga yurish boshlaganida ularning Chingizxonga nasliy aloqasi yoʻqligini dastak qilib olgani haqida ham ma'lumotlar bor: “Temuriylar to hijriy 900 yilgacha (melodiy 1494 yilgacha) hukmronlik qiladi, ya'ni oʻzbeklar sultoni oʻzining Chingizxon naslidan ekanligini pesh qilib ularni quvib yubormaguncha[2].

Bu, bizning qarashimizcha, gʻalati mashhur boʻlgan fikrning “asoslaridan” biri Amir Temurni sifatlovchilaridan biri boʻlgan “Koʻragan”dir. Bizning kuzatishlarimizga koʻra bu soʻzni moʻgʻulcha “gurgan”- kuyov soʻziga bogʻlash hozirgi ilmiy adabiyotda hech e'tirozsiz qabul qilingan boʻlib, Amir Temurning naslini moʻgʻullarga taqash qarashi bilan bilvosita bogʻlanadi. Garchi bu oʻrinda aksi qabul qilinishi kerak boʻlsa ham. Ya'ni chingiziy xonadoniga naslan bogʻliq boʻlgan Amir Temur chingiziy ayolga uylanib, bu xonadonga gurgan boʻlishi mantiqqa sigʻmaydi. Bundan tashqari, oʻsha zamonlarda xatto hozir ham urugʻchilikni bir oz saqlagan turk-moʻgʻul etnoslarida urugʻ doirasidagi hamma qizlar urugʻ yigitlariga opa-singil hisoblanadi. Demak, ular orasidagi nikohga mutlaqo yoʻl qoʻyilmaydi.

Demak, koʻragan soʻzi moʻgʻulcha kuyov soʻzidan boʻlishi ehtimoli juda kamligini mantiq koʻrsatib turibdi. Bundan tashqari Amir Temurning oʻzi tirik paytida yozilgan asarlarda koʻragan sifatlovchisining ma'nosi bilan unga keyinroq boshqalar tomonidan yuklatilgan ma'nolarda farq yuzaga kelgan koʻrinadi. Yana bir e'tiborga loyiq faktlardan biri shuki Amir Temurdan keyin faqat uning nevarasi Mirzo Ulugʻbekkina mana shu sifatlovchi bilan taqdirlanadi, yana qiziqrogʻi shundaki na uning otasi va na amakilari ismi shariflarida bu holat kuzatilmaydi, natijada temuriylar orasida Ulugʻbek ikkinchi va oxirgi koʻragan boʻlib qoladi.

Koʻragan soʻzi moʻgʻulcha gurgan soʻzidan koʻra turkiycha asosda ancha ishonchli va tiniq ifodalanishini uzoqdan izlamay Amir Temurdan atigi yuz yildan sal koʻproq

keyingi chog‘dagi tilimizdan, aniqrog‘i hazrat Alisher Navoiy asarlaridan qarasak, mo‘g‘ulcha gurganga nisbatan ham tovush tomonidan, ham ma'no tomonidan ko‘raganga mos so‘zni emas, aynan o‘zini ko‘ramiz:

Anglading shohlig‘ ahvolini ham, Ko‘ragan taxti-yu iqbolini ham.[3]

(lug‘atda ko‘ragon deb berilgan, biz Navoiy davri tilimizda turkiy so‘zlarda singarmonizm shu darajada yo‘qotilmagan, degan fikrimizga muvofiq uni ko‘ragan shaklida oldik)[4].

1972-yil Toshkentda nashr etilgan “Navoiy asarlari lug‘ati”ning 327 betini ko‘rsangiz bu so‘z tilimizda yolg‘iz, kam ishlatiladigan, biror tildan kirib qolgan yetim so‘z emas, balki uning qatorida ko‘raganlik, ko‘ragoniy kabi so‘zlar bilan bir semantik uya hosil qilganligiga ishonch hosil qilasiz.

Endi ushbu so‘zning ma'nosi qanday ekanligiga ham e'tibor beraylik:

a) Ota ham ona tomonidan podshozoda bo‘lgan kishi laqabi.

b) Amir Temurning laqabi.

Ikkinchi ma'no bu so‘zning ma'nosi qisqartirilganini anglatadi. Har ikki ma'no ham biz Amir Temur nasliy shajarasiga jiddiy ilmiy yondoshishimizga chaqiruvchi bir fakt sifatida qaralishi tarafdorimiz. (ko‘ragan so‘zi hozirgi tilimizda hanuz shaklan va mazmunan biroz o‘zgargan holda qo‘llanishiga ham e'tibor bering: “Ktagi past ning ziddi tagi ko‘rgan”.

Amir Temurni ko‘pchilik g‘arb va rus olimlari uning nasliy mo‘g‘ulligini ko‘rsatish uchun va islom dini ko‘rsatmalariga amal qilmaganligini ta'kidlash uchun “Chingizxon Yasa”siga amal qilganligini pesh qiladilar. Amir Temur Yasa ga emas, Qur'onga, Hadisga doim amal qilganligining amaliy hujjati sifatida, biz “Turkestanskiy sbornik”da rus missioneri N.Ostroumovning e'lon qilgan bir tarixiy hujjatini keltirmoqchimiz: (asl nusxa bor-yo‘qligini bilmaganimiz uchun ruschadan (demak, qayta tarjimamizni) keltiramiz, asl nusxa 1378-1379 yilga tegishli ekanligi ko‘rsatilgan[5].

“Olamlar yaratuvchisining irodasi bilan eng qadimgi davrlardan hozirgi davrgacha hokimiyatga egalik qilganlar uchun - islom shohlari va boshqa musulmon hukmdorlari - borliq xojasi, yaratganning suyuklisi avlodlariga hurmat-izzat ko‘rsatish buyurildi. Shuning uchun ham, hurmatli amaldorlar, kunimizgacha Abu Muslimning zurriyotlari barcha soliq va majburiyatlardan ozod qilinib, ularga ehtirom ko‘rsatib kelindi. Biz ham o‘tmishdoshlarimiz kabi bu avlodga shohona iltifot ko‘rsatdik. Ular qaysi mansabda bo‘lmasin - inoqmi, otaliqmi, to‘qsovulmi, chingqovulmi, ularchimi, yo‘l nazoratchisimi, karvonsaroy nazoratchisimi, soliqchimi, soliqchilar boshlig‘imi, Xorazm boshkentining

hokimimi yoki saroy a'yonlarimi - kim boʻlishidan qat'iy nazar ushbu hujjat - tarxonlik xati koʻrsatilganda, mazkur Abu Muslim avlodlariga hurmat izzat koʻrsatilmogʻi va hech qanday bahona bilan ularning osoyishtaligini boʻzmaslik shart. Xususan, qozi va muta'siblar ulardan toʻy soligʻi talab qilmasligi, mutavallilar jarima pullarini soʻramasligi lozim. Abu Muslim avlodidan shariatga binoan yashaganlaridan qozilikka tayinlanishi mumkin, umuman barcha tirik insonlar ulardan hech qanday toʻlov talab qilmasin, u xoh bozorda, xoh yoʻlda boʻlsin. Bu bilan boshqalar oʻzlarini abadiy la'natdan asragan boʻladilar. Bizning ulugʻ farmonimiz shunday.780 yil”[6]. Bu yorliqqa biriktirilgan muhrda: ”Amir Temur Turagʻay oʻgʻli Bahodur” deb bitilgan.

Shu oʻrinda Temurning otasi ismi haqida ham manbalardagi turli fikrlarga

toʻxtamagan holda, oʻz fikrimizni bildirib oʻtmoqchi boʻldik. Loʻndasi biz Turagʻay tarzida yozilib oʻqilishi va bu ism hozirgi tilimizdagi Turgʻun, Tursun, Turdi kabi ismlar bilan bir qatorni tashkil qilib, ulardagi tur-ning barchasi qadimiy turki tilimizda va hozirgi tilimizdagi “qaerda turasan?”,”turadigan joyingni ayt” gaplarimizdagi kabi yashamoq ma'nosini ifoda etadi. Turagʻay - yashab qolgay, uzoq yashagay” ma'nosini ifoda etib, hozirgi atoqli otlarimizdagi kabi koʻpincha, bolalar erta nobud boʻlgan vaziyatda ham qoʻyilgan ism boʻlishi ehtimoli koʻp.

Endi Amir Temurni barlos urugʻidan ekanligi va biroz barlos urugʻi haqida ham bir ikki ogʻiz mulohaza bildirmoqchimiz. Barlos urugʻi mashhur boʻlishi ham Amir Temur bilan bogʻliq ekanligi koʻpchilikka ayon. Gap shundaki, tarixiy asarlarda xoh u arab, xoh u xitoy manbalarida va xatto oʻzimizning toshbitiklar va turkiy adabiyotlarda ham to moʻgʻul istilosining oʻrta davrlariga qadar barlos urugʻ nomi sifatida uchramaydi. Urugʻ, qabila mansublari oʻzlari boshqa qabilaga, urugʻga aralashib ketganda ham koʻchman turmush tarzida uning nomi oʻchib ketishi ancha qiyin masala. Tarix adabiyotlariga qaralganda, bu urugʻ nomiga ancha yaqin boʻlgan etnonim moʻgʻullar urugʻlari ichida emas, turklar makon tutgan yerlarning gʻarbi-shimolida uchraydi. Bu yerlarda esa, turkiylar va ugorlar yashagan. Bular barulas va burtas\\ burdaslardir. Qadimdan turkiylar tomonida moʻgʻullar bilan chegaradosh va aralash yashaganligi qanday toʻgʻri boʻlsa, gʻarbda fin-ugorlar bilan aralash va chegaradosh boʻlib yashaganlar.

Bundan tashqari agglyutinativ til qurilishi sifatida ham, genetik va etnografik jihatidan ham mushtarak etnoslar sifatida turki tillilar faqat moʻgʻul tillilar bilan emas, balki fin-ugor tillilar bilan birgalikda fanda Ural-Oltoy til oilasiga mansubligi e'tirof etilgan. Bu fikrlarni keltirishimizdan maqsad shimolda to hozirgi Quyi Novgorodgacha janubda Mari va Chuvash muxtoriyatlari yerlarigacha yashab kelgan burdas\\ burtas qavmi bizning barlos urugʻimiz tarix sahnasida paydo boʻlishi arafasida Chingizxon imperiyasi tarkibida boʻlib barlos urugʻi shakllanishida ishtirok etgan boʻlishi mumkin degan farazni oʻrtaga tashlashdir.

Hozir biz Vengriya deb nomlaydigan mamlakat va aholisi turkiyda mojar deb nomlangan. Xuddi shunday urugʻ nomi hozirgi qipchoq oʻzbeklarida ham borligini ta'kidlamoqchimiz. Lingvistik nuqtai nazaridan esa burdas ning barlos ga aylanishi hech qanday muammo tugʻdirmaydi. Shu oʻrinda V. Bartoldning “Hudud ul- olam”dan keltirgan parchasini biz ham keltirishga qaror qildik: “(burtaslar) oʻlkasida kishilar musulmondirlar, ularning alohida oʻz tili bor...ular chodir va chaylalarda yashashadi. Uch guruhga boʻlinadi: Baxduli, Ishkil (mana shu soʻz izohida keltirilgan ma'lumot muhim) va Bulgʻor”[7].

Ajratib koʻrsatilgan soʻz izohida Ibn Rustada bu soʻz barsula\\ barsul shaklida berilganini koʻrsatib oʻtadi. Agar barlos urugʻi rostdan ham moʻgʻul istilosi davrida turli urugʻlar vakillaridan shakllangan boʻlsa, buning asosi va nomlanishi ushbu soʻzning turkiy tillar uchun yot boʻlmagan tovush oʻzgarishlari zaminida vujudga kelgan boʻlishi mumkin: barsul - barlus - barlas (oʻzbek adabiy tili va shevalari bilan qiyoslang: siq - qis, poʻchoq - choʻpoq...Xullas bizning fikrimizcha, barlos urugʻi garchi moʻgʻul istilosi davrida shakllangan boʻlsa ham u turkiylardan tashkil topgan hamda bu urugʻning moʻgʻul zulmiga qarshiligi hokimiyat talashish emas balki etnik ziddiyatdan kelib chiqishini, ozodlik uchun kurash xarakteriga egaligini koʻrsatadi.

Amir Temurning yurishining xaritasiga qarasangiz, uning barcha urushlari “asosan” moʻgʻullar istilo qilgan hududni chingiziylardan ozod qilishga qaratilgan. Tarixchilar zamonaviy sarkardalarga xos harbiy strategiyani Amir Temurda koʻrishni istamaganidanmi yoki bunday gʻoya zamonaviy boʻlib bu yukni Amir Temur zimmasiga yuklashdan choʻchiganlaridanmi bizningcha bunga e'tibor bermay kelishdi. Biz bu strategiyani oʻzimizcha shunday ifodalagan boʻlar edik: bosqinchini faqat oʻz yeringdan quvib chiqarishing bilan toʻliq mustaqillikka erisha olmaysan, sening yeringga boʻlgan hukmronlik “huquqini” to u bosqinchi davlat mutlaqo yanchib tashlanmaguncha (II jahon urushida Germaniyaga nisbatan qoʻllangan askariy siyosat). Xulogularga, Oltin Oʻrdaga (Toʻxtamishga) qarshi yurishlardagi zafarlardan keyin Yildirim Boyazidni yenggach, uni oʻz imperiyasiga qoʻshmay hokimiyatni Boyazidning oʻgʻliga topshirishida ham moʻgʻullar imperiyasiga toʻliq kirmagan yerlar uni qiziqtirmaganiga misoldir.

Amir Temurning soʻnggi amalga oshmay qolgan Xitoyga yurishi ham oʻsha strategiyaning mahsuli edi. Bunda u oʻsha zamonlarda Moʻgʻuliston deb nomlana boshlagan va moʻgʻullar hukmron boʻlgan oʻlka orqali Xitoydagi moʻgʻullar imperiyasiga zarba berish bilan oʻz yurtining -Turkistonning xavfsizligi va mustaqilligini ta'min etmoqchi boʻlgan. Amir Temurning bu taktikasi toʻgʻri ekanligini undan keyingi siyosiy hayot toʻliq tasdiqladi. Oxirigacha yanchib tashlanmagan chingiziylar bilan avval Ulugʻbek kurashishiga toʻgʻri keldi. Soʻngroq Shayboniyxon boshchiligidagi chingiziylar Temur vatanida hukmronligini qayta tiklay oldi. Ulugʻbek va uning tarixchilari ana shu

kurashni oldini olish uchun o‘z naslini Chingizxon bilan bog‘lashlari hech qanday natija bermadi.

Xullosa qilib shuni aytish mumkinki, mazkur maqolaning asosiy maqsadi ushbu muammolarni mavjud tarixiy manbalar hamda ilmiy qarashlar asosida qayta ko‘rib chiqishdan iborat. Temur davriga yaqin yozilgan manbalarda uning nasliy kelib chiqishi masalasi asosiy mavzu sifatida ko‘tarilmaydi. Jumladan, G‘iyosiddin Ali va Nizomiddin Shomiy asarlarida bu masala ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib qolgan. Bu holat Temur hokimiyatining qonuniyligini asoslashda chingiziy nasab hal qiluvchi rol o‘ynamaganini anglatadi. Shuningdek, Abulg‘ozi Bahodirxon o‘z genealogik qarashlarida temuriylarni chingiziylar sulolasiga kiritmaydi. Bu esa keyingi davrda paydo bo‘lgan qarashlarning tarixiy asoslari mustahkam emasligini ko‘rsatadi.

XIX asrga kelib, Yevropa va rus tarixshunosligida Amir Temurning kelib chiqishini chingiziylarga bog‘lashga urinishlar kuzatiladi. Bu yondashuv ilmiy dalillardan ko‘ra, ko‘proq siyosiy va nazariy konstruksiyalarga asoslangan. Vasily Bartold mazkur rivoyatlarning tarixiy ishonchliligi past ekanini ta’kidlab, ularni mavjud siyosiy vaziyatni izohlashga qaratilgan talqin sifatida baholaydi. Shuningdek, Shayboniyxon davrida ham temuriylarga qarshi kurashda ularning chingiziy emasligi muhim siyosiy dalil sifatida qo‘llanilgan.

“Ko‘ragan” unvoni ko‘pincha mo‘g‘ulcha “gurgan” (kuyov) so‘zi bilan bog‘lanadi. Biroq bu talqin bir qator mantiqiy va etnografik muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, turk-mo‘g‘ul an’analarida urug‘ ichidagi nikohning man etilishi bu qarashni shubha ostiga qo‘yadi. Lingvistik jihatdan qaralganda, mazkur atamaning turkiy ildizga ega bo‘lish ehtimoli yuqori. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan “ko‘ragan”, “ko‘ragoniy” kabi birliklar bu so‘zning turkiy til tizimiga mansubligini ko‘rsatadi.

Barlos urug‘i Amir Temur bilan bog‘liq holda tarix sahnasida muhim o‘rin egallaydi. Uning kelib chiqishi masalasida yagona fikr mavjud emas. Ba’zi tadqiqotchilar ushbu urug‘ turli etnik guruhlarning qo‘shilishi natijasida shakllangan deb hisoblaydi. Ayrim lingvistik o‘xshashliklar (masalan, burtas, barsul) barlos urug‘ining turkiy ildizlarga ega bo‘lishi ehtimolini kuchaytiradi.

Amir Temurning siyosiy faoliyati ko‘proq islomiy qadriyatlar va o‘troq davlat boshqaruvi tamoyillariga asoslangan. Uning Samarqandni markazga aylantirishi, keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari olib borishi bu fikrni tasdiqlaydi. Bu jihatlar uni klassik mo‘g‘ul ko‘chmanchi an’analaridan farqlab turadi.

Amir Temur shaxsini tadqiq etishda uni faqat mo‘g‘ul tarixiy an’analari doirasida emas, balki turkiy-islamiy sivilizatsiya kontekstida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv uning tarixiy rolini yanada xolis va mukammal anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В. В. Бартолд, Сочинение, том V, Москва, 1968.
2. Фредрик Бланк Гаклют “История исламизма и происшедших от него сект” П. Моренц таржимаси, Тифлис,1865.
3. Алишер Навоий асарлари луғати. Тошкент, 1972.
4. Н. Остроумов. Туркестанский сборник. том 95 и 545.
5. В. В. Бартолд, сочинение, том.VII, 545-б.М.1973 й.
6. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. (Tehron nashri, ilmiy-tanqidiy matn sifatida) 1957.
7. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. (oʻzbek tiliga tarjimalar bilan) Fan nashriyoti Toshkent, 1997.
8. Abulgʻozi Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent, 2011.

1. Бартольд В.В. Сочинения. Т. V. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. М., 1968. – С. 168. ↑

2. Туркестанский сборник. Собрание сочинений о туркестанском крае вообще и смежных с ним стран Средней Азии. Составитель: В. И. Межов. Том 196. Санкт-Петербург. – С. 405-406. ↑

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Олтинчи том. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар. Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти Тошкент. 1990. – Б. 490. ↑

4. Alisher Navoiy asarlari lugʻati. 327 bet ↑

5. Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. Константин Петрович фон-Кауфман, устроитель Туркестанского края. Том 545.Ташкент, 1899. – С. 183-185. ↑

6. Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. Константин Петрович фон-Кауфман, устроитель Туркестанского края. Том 545.Ташкент, 1899. – С. 183-185. ↑

7. Бартольд В.В. Сочинения. Т. VII. Работы по исторической географии и истории Ирана. М., 1974. – С. 545. ↑

© Xurramov Azizbek, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Xurramov Azizbek

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Mansurova Maftuna Komiljn qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

E-pochta: Mansurova.maftuna9981@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tayyorlov yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda bolalar liderligining stixiyali shakllanishidan maqsadli va boshqariladigan rivojlanish jarayoniga o'tish zarurati asoslab berilgan. Modelning maqsadli-konseptual, nazariy-metodologik, protsessual-texnologik hamda mezonli-baholash bloklari tavsiflanib, ularning o'zaro integratsiyasi ochib berilgan. Shuningdek, modelning shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli, tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanganligi hamda yoshga moslik, motivatsion-tashabbuskorlik, partisipativlik, individuallashtirish va kognitiv vizualizatsiya tamoyillari negizida ishlab chiqilgani ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijasida taklif etilgan model maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kognitiv, motivatsion, perseptiv, faoliyatli va refleksiv liderlik komponentlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: Tayyorlov yoshdagi bolalar, liderlik sifatlari, pedagogik model, liderlik kompetensiyasi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyatli yondashuv, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, o'yin simulyatsiyasi, tadqiqot faoliyati, kognitiv vizualizatsiya, partisipativlik, diagnostika, pedagogik shart-sharoitlar, maktabgacha ta'lim.

Abstract: This article highlights the theoretical and methodological foundations of a pedagogical model aimed at developing leadership qualities in preschool children of preparatory age. The study substantiates the necessity of transitioning from the spontaneous formation of children's leadership abilities to a purposeful and systematically managed development process. The target-conceptual, theoretical-methodological, procedural-technological, and criterion-evaluation blocks of the model are described, and their interrelationships and integration are revealed. Furthermore, the article demonstrates that the model is grounded in learner-centered, activity-based, systemic, and competency-based approaches, and is developed on the principles of age appropriateness, motivational initiative, participatory engagement, individualization, and cognitive visualization. The findings indicate that the proposed model can effectively

support the comprehensive development of cognitive, motivational, perceptive, activity-based, and reflective leadership components in preschool educational institutions.

Keywords: preparatory-age children, leadership qualities, pedagogical model, leadership competence, learner-centered approach, activity-based approach, systemic approach, competency-based approach, game simulation, research activity, cognitive visualization, participatory engagement, diagnostics, pedagogical conditions, preschool education.

Kirish: Maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik sifatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim oldida turgan dolzarb ijtimoiy buyurtma hisoblanadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim amaliyotida ushbu jarayonni tizimli va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirishga xizmat qiladigan yaxlit metodikalarning yetishmasligi yaqqol koʻzga tashlanmoqda. Ta’lim amaliyotidagi mavjud holat koʻpincha bolalar liderligining stixiyali (tartibsiz) rivojlanishiga yoki faqatgina ayrim pedagoglarning intuitiv yondashuvlariga tayanib qolmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, jamiyat ehtiyojlari bilan mavjud pedagogik voqelik oʻrtasida jiddiy qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

Ushbu aniqlangan qarama-qarshilikni hal etish, ya’ni bolalar liderligining tasodifiy va stixiyali shakllanishidan uni ongli, maqsadli va boshqariladigan rivojlantirish jarayoniga oʻtish uchun maxsus pedagogik modelni ishlab чиқиш ва amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Fan metodologiyasida “model” tushunchasi murakkab, koʻp qirrali obyektni yoki jarayonni soddalashtirilgan, vizual yoki tavsifiy shaklda aks ettiruvchi tizim sifatida qaraladi. Modellashtirishning asosiy maqsadi – oʻrganilayotgan obyektning barcha asosiy elementlari, ularning oʻzaro aloqadorligi va faoliyat koʻrsatish tamoyillarini aniq tasavvur qilish orqali uni samaraliroq oʻrganish, boshqarish va takomillashtirishdan iborat.[1]

Pedagogik tadqiqotlar nuqtai nazaridan, “model” tushunchasi alohida ahamiyatga ega. V.A. Shtoffning ta’rifiga koʻra, model – bu “tadqiqot obyektini aks ettiruvchi yoki qayta tiklaydigan, uning oʻrnini bosa oladigan, natijada uni oʻrganish bizga obyekt haqida yangi ma’lumot beradigan, fikran tasavvur qilinadigan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizimdir” [2] S.A. Beshenkov esa modelni “tadqiq qilinayotgan obyektga (yoki hodisaga) oʻxshash, ushbu obyekt elementlari oʻrtasidagi tuzilmani, xususiyatlarni, oʻzaro aloqalarni va munosabatlarni soddaroq koʻrinishda aks ettiruvchi va qayta tiklaydigan sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar yoki formulalar koʻrinishidagi sun’iy yaratilgan obyekt” deb tavsiflaydi.[3]

Ushbu ta’riflarni umumlashtirib, “pedagogik model” tushunchasiga quyidagicha izoh berish mumkin: bu – “ta’lim maqsadlari, ta’lim mazmuni, pedagogik texnologiyani

loyihalash va ta'lim jarayonini boshqarish texnologiyasi, o'quv rejalari va dasturlarini o'z ichiga olgan tegishli elementlarning mantiqiy izchil tizimidir" [4]

Bizning tadqiqotimizda ishlab chiqilayotgan **"Tayyorlov yoshdagi bolalarning liderlik sifatlarini rivojlantirish modeli"** – bu birinchi bobda aniqlangan nazariy-metodologik asoslar va ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik shart-sharoitlarga tayangan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotining (MTT) kundalik amaliyotida barcha beshta komponentini (kognitiv, motivatsion, perseptiv, faoliyatli, refleksiv) tizimli va izchil rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning yaxlit, tarkibiy-funksional loyihasidir.

Ushbu model shunchaki tavsiyalar yig'indisi emas, balki quyidagi vazifalarni bajaruvchi konstruktiv vosita (instrument) hisoblanadi:

1. **Diagnostik vazifa:** Jarayonning boshida va yakunida bolalarning liderlik sifatlari rivojlanganlik darajasini aniqlash;
2. **Loyihalash vazifasi:** Pedagog uchun aniq maqsadlar, tamoyillar, mazmun, metodlar va vositalar tizimini taqdim etish;
3. **Tashkiliy-boshqaruv vazifasi:** Pedagogik ta'sirni tizimga solish, uning bosqichlarini va har bir bosqichdagi kutiladigan natijalarni belgilash;

4. Prognostik vazifa: Jarayon yakunida qanday sifatlarga ega bo'lgan shaxs shakllanishini oldindan bashorat qilish va kutiladigan natijani aniq belgilash.

Ishlab chiqilayotgan model ilmiy bo'shliqda emas, balki pedagogika va psixologiyaning fundamental yondashuvlariga tayanadi. Ushbu yondashuvlar birinchi bobda tahlil qilingan va ular bizning modelimizning metodologik poydevorini tashkil etadi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Ushbu yondashuv modelimizning "insonparvarlik" (gumanistik) tamoyilini belgilaydi. Unga ko'ra, har bir bola takrorlanmas individuallikka ega subyekt sifatida qabul qilinadi. Model bolalarning barchasini bir xil standartga solishga emas, balki har bir bolaning o'ziga xos kuchli tomonlarini (potensialini) aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv pedagogdan "tyutor" va "fasilitator" pozitsiyasini egallashni talab qiladi.

2. Faoliyatli yondashuv: bizning modelimizning markazida (protsessual blokida) bolalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi faoliyat turlari tadqiqot faoliyati va o'yin simulyatsiyasi yotadi.

3. Tizimli yondashuv:. Bir komponentning (masalan, kognitiv) rivojlanishi boshqa komponentlarga (masalan, faoliyatli) bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik ta'sir ham tizimli bo'lishi, ya'ni bir vaqtning o'zida barcha beshta komponentni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

4. Kompetensiyaviy yondashuv: Modelimizning yakuniy maqsadi bolalarga liderlik haqida shunchaki bilim berish (bilim komponenti) emas, balki ushbu bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda (ayniqsa, muammoli va nizoli vaziyatlarda) qo'llay olish ko'nikma va malakalarini (kompetensiyalarini) shakllantirishdan iborat

1. Maqsadli-konseptual blok – modelning maqsad va vazifalarini belgilaydi. U katta maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarining asosiy komponentlarini rivojlantirish hamda buning uchun zarur tashxis va metodik vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

2. Nazariy-metodologik blok – modelning ilmiy asoslarini tashkil etadi. Unda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va tizimli yondashuvlar hamda yoshga moslik, kognitiv vizualizatsiya, imitatsion modellashtirish kabi tamoyillar aks etadi.

3. Protsessual-texnologik blok – liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi. U bosqichlar, metodlar, vositalar va tashkiliy shakllarni o'z ichiga oladi.

4. Mezonli-baholash blok – rivojlanish natijalarini aniqlash va baholashga xizmat qiladi. Unda mezonlar, ko'rsatkichlar hamda diagnostik vositalar asosida bolalarning liderlik sifatlari darajasi baholanadi.

Modelning maqsadi: Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik sifatlari (KMYOLS) komponentlarini (kognitiv, motivatsion, perseptiv, faoliyatli, refleksiv) I bobda asoslangan pedagogik shart-sharoitlar asosida, o'yin simulyatsiyasi va tadqiqot faoliyati integratsiyasi orqali tizimli rivojlantirish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Diagnostik vazifa – Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlari komponentlarining rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostik vositalarni ishlab chiqish va asoslash.

2.Mazmuniy-texnologik vazifa – Liderlik sifatlarining barcha komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan mazmun, metod, vosita va shakllarni, jumladan tadqiqot faoliyati hamda o'yin simulyatsiyalarini takomillashtirish.

3. Amaliy-metodik vazifa – Pedagoglarning liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishi hamda tyutor va fasilitator rollarini amalga oshirishi uchun metodik tavsiyalar va qo'llanmalar yaratish.

Ushbu vazifalar majmui katta maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik faoliyatni ifodalaydi.

Diagnostik vazifa orqali bolalarning liderlik sifatlari komponentlarining mavjud rivojlanish darajasi aniqlanib, ularning individual xususiyatlari baholanadi. Mazmuniy-texnologik vazifa esa liderlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik mazmun, metodlar, oʻyin texnologiyalari hamda tadqiqot faoliyatlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Amaliy-metodik vazifa orqali pedagoglarning ushbu jarayonni samarali tashkil etish kompetensiyalari mustahkamlanib, ular uchun zarur metodik tavsiyalar, qoʻllanmalar va amaliy materiallar yaratiladi.

Nazariy-metodologik blokdagi tamoyillar quyidagilardan iborat.

1 Yoshga moslik (sensitivlik) tamoyili – Model 6–7 yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari va rivojlanish imkoniyatlariga moslashtirilgan boʻlib, barcha metodlar hamda faoliyatlar ushbu yosh davrining ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etiladi.

2. Motivatsion-tashabbuskorlik tamoyili – Bolalarda liderlikka oid ichki qiziqish va tashabbuskorlikni ragʻbatlantirish, ularning mustaqil faolligini qoʻllab-quvvatlash hamda muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratishga yoʻnaltiriladi.

3. Imitatsion modellashtirish va reallikka asoslanish tamoyili – Liderlik sifatlari real hayotiy vaziyatlarga asoslangan oʻyinlar va simulyatsiyalar orqali, xulq-atvorni amaliy sinab koʻrish jarayonida shakllantiriladi.

4. Kognitiv vizualizatsiya tamoyili – Ramzlar, sxemalar, modellar va boshqa koʻrgazmali vositalar yordamida bolalarning ijtimoiy hodisalarni anglash, tahlil qilish va tizimli fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

5. Partisipativlik (ishtirokchilik) tamoyili – Bolalar qoidalarni ishlab chiqish, vazifalarni taqsimlash va qaror qabul qilish jarayonlariga faol jalb etilib, ularda mas'uliyat va javobgarlik hissi shakllantiriladi.

6. Individuallashtirish va differensiatsiya tamoyili – Har bir bolaning individual xususiyatlari, temperamenti va imkoniyatlari hisobga olinib, uning kuchli tomonlarini rivojlantirishga mos pedagogik yondashuv qoʻllaniladi.

Modelning metodologik asosini tashkil etuvchi tamoyillar katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning liderlik sifatlarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar bolalarda ichki motivatsiya va tashabbuskorlikni ragʻbatlantirish, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy tajriba hosil qilish, koʻrgazmali vositalar yordamida ijtimoiy jarayonlarni anglash hamda faol ishtirok asosida mas'uliyat va javobgarlik hissini shakllantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, har bir bolaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur'atlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni ta'minlaydi. Natijada

model liderlik sifatlarini rivojlantirishning yoshga mos, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va amaliy xarakterdagi pedagogik tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Кузьменко В.И. Влияние самостоятельности на становление взаимоотношений в коллективе: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М, 1990.

2. Козлова С.А. Теория и методика ознакомления дошкольников с социальной действительностью. – М.: Академия, 1998..

3. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1980.

4. Запорожец А.В., Эльконин Д.Б. Психология личности и деятельности дошкольника. – М.: Просвещение, 1965.

5. Дубченкова Н.О. Педагогический дизайн развития лидерского потенциала старших дошкольников средствами игровой симуляции: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2012.

6. Емельянов Ю.Н. Активное социально-психологическое обучение. – Л.: ЛГУ, 1985

7. Емельянова М.Н., Колтунова И.Р. Исследовательская деятельность детей дошкольного возраста по освоению окружающего мира. – Екатеринбург, 1999

8. Abdullayeva N.SH. Maktabgacha pedagogika. – T.: Fan va texnologiyalar, 2018..

1. Кузьменко В.И. Влияние самостоятельности на становление взаимоотношений в коллективе: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М, 1990. – 17 с. ↑
2. Козлова С.А. Теория и методика ознакомления дошкольников с социальной действительностью. – М.: Академия, 1998. – 160 с. ↑
3. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1980. – 288 с. ↑
4. Запорожец А.В., Эльконин Д.Б. Психология личности и деятельности дошкольника. – М.: Просвещение, 1965. – 295 с ↑

© Mansurova Maftuna Komiljn qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Mansurova Maftuna Komiljn qizi

XI - XII ASRLARDA MOVARAUNNAHR VA XORAZMDA ILM FAN RIVOJI MAHMUD-AZ ZAMAXSHARIYNING O‘RNI

Artiqova Adolat Ataboyevna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: V.E.Cho‘liyeva f.f.d.(DSc)

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk alloma Mahmud az-Zamaxsharining boy ilmiy merosi hamda uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Zamaxshariy o‘z davrining yirik mutafakkiri, tilshunos va mufassir olimi sifatida Sharq ilm-fani rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning ilmiy faoliyati tilshunoslik, tafsir, adabiyot va boshqa ilmiy sohalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada allomaning ilmiy qarashlari, u yaratgan ilmiy maktabning ahamiyati hamda uning asarlari orqali shakllangan ilmiy an’analar yoritib beriladi. Shuningdek, Zamaxshariy merosining nafaqat Sharq mamlakatlarida, balki jahon ilmiy tafakkuri rivojida tutgan o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Alloma qoldirgan ilmiy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, ilm-fan taraqqiyotida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar. Mahmud Zamaxshariy, ilmiy meros, Sharq mutafakkirlari, tilshunoslik, tafsir ilmi, jahon sivilizatsiyasi, ilmiy tafakkur, madaniy meros.

THE PLACE OF MAHMUD-AZ ZAMAXHARI IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN MOVARAUNNAHR AND KHORAZEM IN THE XI - XII CENTURIES

Abstract: This article analyzes the rich scientific heritage of the great scholar Mahmud al-Zamakhshari and his role in the development of world civilization. As a great thinker, linguist and scholar of his time, Zamakhshari made a great contribution to the development of Oriental science. His scientific activity was important in the development of linguistics, interpretation, literature and other scientific fields. The article highlights the scholar's scientific views, the importance of the scientific school he created, and the scientific traditions formed through his works. Also, the role of Zamakhshari's heritage not only in Eastern countries, but also in the development of world scientific thinking is scientifically analyzed. The scientific heritage left by Alloma has preserved its

importance even today and serves as an important source for the development of science.

Keywords: Mahmoud Zamakhshari, scientific heritage, Eastern thinkers, linguistics, science of interpretation, world civilization, scientific thinking, cultural heritage.

МЕСТО МАХМУДА-АЗА ЗАМАХШАРИ В РАЗВИТИИ НАУКИ В МОВАРАУННАХРЕ И ХОРАЗЕМЕ В XI - XII ВЕКАХ

Аннотация: В данной статье анализируется богатое научное наследие великого учёного Махмуда аз-Замахшари и его роль в развитии мировой цивилизации. Как великий мыслитель, лингвист и учёный своего времени, Замахшари внес большой вклад в развитие восточной науки. Его научная деятельность сыграла важную роль в развитии языкознания, интерпретации, литературы и других научных областей. В статье освещаются научные взгляды учёного, значение созданной им научной школы и научные традиции, сформированные благодаря его трудам. Также научно анализируется роль наследия Замахшари не только в странах Востока, но и в развитии мировой научной мысли. Научное наследие, оставленное Алломой, сохранило свое значение и сегодня и служит важным источником для развития науки.

Ключевые слова: Махмуд Замахшари, научное наследие, восточные мыслители, лингвистика, наука интерпретации, мировая цивилизация, научное мышление, культурное наследие.

Xorazm oʻlkasi — Az-Zamaxshariyning vatani — Oʻrta Osiyodagi, Jayhun daryosining ortidagi (Movarounnahr) beshta iqlimdan biri hisoblanadi.

Ilm va madaniyat maskani bo`lgan Xorazm Amudaryoning janubi , Xurosonning shimoli sharqida joylashgan bo`lib, islom dini madaniy – maэrifiy hayotida muhim mavqeiga ega bo`lgan.

Xorazm oʻlkasining iqlimi, keng maydonli mulklari , bozorlari gavjum bo`lgan shahar va qishloqlar, chorva mollari, moʻynalar va poliz mahsulotlari ,islomiy madaniyat keng yoyilgan, olimlar va fozillari haqidagi ma`lumotlarni ibn Rusta, Al-Yaqubiy, Al – Balazariy, Ibn Xurdodbek, Ibn Fazlan, Ibn Xavkal, Ibn Battuta, olimlar asarlari orqali o`rganamiz. Al Muqaddasiy "Bu shaharlari ta`rifi bilan birga, unihg ahlini zehni o`tkir, ilm – fanda idrokli, fiqhni yaxshi egallagan qobiliyatli va o`qimishli kishilardir".[1]

Olim koʻp asarlarini Makkadaligida yozgan. Hayotida chuqur iz qoldirgan bu zaminda Zamaxshariy besh yilga yaqin yashagan. Allomaning Jorulloh (Alloh qoʻshnisi) degan sharafli taʼrifga sazovor boʻlishi shundan. Islom olamida yirik olim darajasiga

koʻtarilgan Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa shaharlarida ham juda koʻp shogirdlari boʻlgan. U qarindosh-urugʻlarining qiyin-qistovlariga qaramasdan oila qurmagan deyiladi manbalarda.

Zamaxshariy arab tili grammatikasi, lugʻatshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, joʻgʻrofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yozgan. Aynan shu asar tufayli olimlar: «Agar shu turk (Zamaxshariy) boʻlmaganida edi, arablar oʻz tillari nahvi (grammatika)ni unutib yuborgan boʻlardi», deb aytishgan.[2] Zamaxshariyning «Al-Kashshof an haqoiqit tanzil va uyunil aqovil fi vujuhit taʼvil» asarini alohida tilga olmaslikning iloji yoʻq. Asar Qurʼonning sharhi, yaʼni tafsirdir. Asarning yozilish turi murakkabligiga qaramay, butun jahonda katta shuhrat qozongan. Hatto shu kunlarda ham Qohiradagi «Al-Azhar» universiteti talabalari «Al-Kashshof»ni alohida oʻquv kursida oʻrganadilar

Az-Zamaxshariyning keng tanilgan “Al-Kashshof an haqoiq ittanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-taʼviyl” (“Qurʼon haqiqatlari va uni sharhlash orqali soʻzlar koʻzlarini ochish”) asari Qurʼon tafsiriga bagʻishlangan. Maʼlumki, oʻrta asrlardan boshlab Qurʼonni tafsir yoki sharh bilan oʻqish odat tusini olgan. Shu boisdan ham Qurʼon yaratilgan davrdan boshlaboq unga bagʻishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida Qurʼonga bagʻishlangan koʻpdan koʻp tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval oʻzidan oldin yaratilgan Qurʼon tafsiriga bagʻishlangan koʻplab asarlarni qunt bilan oʻrgangan. “Al-Kashshof” az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida yozilgan [2. 479-bet]. Ushbu asar yozilish jarayonida az-Zamaxshariy nafaqat mavjud tafsirlarni tahlil qilgan, balki ularning yondashuv uslublarini ham solishtirib, Qurʼon matnidagi balogʻat, uslub, lafziy tuzilish va maʼno qatlamlarini chuqur tahlil qilishga alohida eʼtibor qaratgan. “Al-Kashshof”ning oʻziga xosligi ham shunda oyatlarning lugʻaviy ildizi, grammatik tuzilishi, bayon sanʼati va maʼnodagi nozik jihatlar bir -biri bilan uygʻun holda sharhlanadi. Az-Zamaxshariy tafsir berar ekan, har bir soʻzning ichki ohangi, uning matndagi oʻrni va taʼsir kuchini hisobga olgan holda yondashadi. Bu asar tafsir ilmidagi nazariy yondashuvni yanada yuksak bosqichga koʻtardi, chunki muallif Qurʼon oyatlarini faqat diniy hukmlar nuqtai nazaridan emas, balki ilmiy-mantiqiy tahlil, tilshunoslik va adabiy-estetik qarashlar nuqtai nazaridan ham izohlaydi. Shuning uchun ham “Al-Kashshof” keyingi asrlarda yaratilgan koʻplab tafsirlarga asosiy manba boʻlib xizmat qilgan. Ulamolar bu tafsirni mutolaa qilar ekan, undagi bayon uslubining ravonligi, dalillarning aniqligi va tafakkur teranligini alohida eʼtirof etganlar. Az-Zamaxshariy Qurʼon oyatlarining har bir lafzida hikmat borligini taʼkidlab, oʻquvchini matnni chuqur tafakkur bilan oʻqishga undaydi. Uning yondashuvi tafsirni shunchaki izoh berish emas, balki oyatlar orqali fikrni uygʻotish, tafakkurni faollashtirish, soʻzning ichki maʼnosiga kirib borish deb talqin etadi. Buyuk alloma hijriy 538 yilda arafa kechasi (1144 yil 14 aprel) Xorazmda vafot etgan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud az-Zamakhshari Sharq ilm-fani tarixida muhim o‘rin egallagan buyuk allomalardan biridir. Uning ilmiy faoliyati va boy merosi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Zamaxshariy tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar tilshunoslik, tafsir va adabiyot sohalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, allomaning ilmiy merosi Sharq va G‘arb ilmiy tafakkurining boyishiga xizmat qilib, jahon sivilizatsiyasi rivojida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning ilmiy qarashlari va ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ilm-fan rivojida muhim manbalardan biri sifatida qadrlanadi. Shu sababli Zamaxshariy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish ilmiy hamda ma’naviy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Uvatov U. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011. – B.10.

2. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" asari qo'lyozma nusxalari haqida. – Oltin bitiglar. / Golden scripts. - 2020/4. – B.78.

3. Xoji Xalifa. Kashf az Zunun. Dor Saodat. – J.2. – B.147.

1. [] Uvatov U. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011. – B.10. ↑
2. [] Xoji Xalifa. Kashf az Zunun. Dor Saodat. – J.2. – B.147. ↑

© Artiqova Adolat Ataboyevna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Artiqova Adolat Ataboyevna

SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA JAMIYAT TARAQQIYOTI VA QADRIYATLAR TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi pedagogika 1 kurs talabasi Botirboyeva Nodirabegim Temurjon qizi

botirboyevanodirabegim@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt sharoitida yuz berayotgan qadriyatlar transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bilimning kapitalga aylanishi va axborotning kuch sifatida shakllanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari sifatida yoritiladi. Shuningdek, sun'iy intellektning ijtimoiy tuzilma, inson faoliyati va qadriyatlar tizimiga koʻrsatayotgan ta'siri kompleks yondashuv asosida ochib beriladi hamda raqamli tengsizlik va yangi ijtimoiy ierarxiya masalalari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit soʻzlar: sun'iy intellekt, qadriyatlar transformatsiyasi, bilim kapitali, axborot kuchi, ijtimoiy falsafa, raqamli jamiyat, ijtimoiy ierarxiya, axborot resurslari, raqamli tengsizlik, innovatsion rivojlanish

ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ И СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется трансформация ценностей в условиях развития искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется превращению знания в капитал и информации в силу как ключевых факторов развития современного общества. Также рассматривается влияние искусственного интеллекта на социальную структуру, деятельность человека и систему ценностей, а также обосновываются проблемы цифрового неравенства и формирования новой социальной иерархии.

Ключевые слова: искусственный интеллект, трансформация ценностей, знание как капитал, информация как сила, социальная философия, цифровое общество, социальная иерархия, информационные ресурсы, цифровое неравенство, инновационное развитие

TRANSFORMATION OF SOCIAL DEVELOPMENT AND VALUE SYSTEMS IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Abstract: This article analyzes the transformation of values in the context of artificial intelligence from a socio-philosophical perspective. Particular attention is given to knowledge as capital and information as power as key drivers of modern society. The study also explores the impact of artificial intelligence on social structures, human activity, and value systems, while addressing issues of digital inequality and the emergence of new social hierarchies.

Keywords. artificial intelligence, transformation of values, knowledge as capital, information as power, social philosophy, digital society, social hierarchy, information resources, digital inequality, innovative development.

Sun’iy intellekt fenomenining zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va uning qadriyatlar tizimiga ko‘rsatayotgan ta’sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan talqin qilish bugungi ilmiy diskursning markaziy masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki hozirgi sivilizatsion bosqichda texnologik taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashuvi bilan, balki inson tafakkuri, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining tubdan qayta shakllanishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, XX asr o‘rtalarida Alan Turing tomonidan ilgari surilgan “mashina o‘ylay oladimi?” degan konseptual savol sun’iy intellektning nazariy asoslarini shakllantirgan bo‘lsa, 1956-yilda John McCarthy tashabbusi bilan o‘tkazilgan Dartmouth konferensiyasi ushbu yo‘nalishni mustaqil ilmiy soha sifatida institutsionallashtirdi. Keyingi o‘n yilliklarda sun’iy intellekt rivoji bosqichma-bosqich murakkablashib, 1970–1980-yillarda dastlabki algoritmik tizimlarning yaratilishi bilan nazariy izlanishlardan amaliy qo‘llanilish bosqichiga o‘tdi. XXI asr boshlariga kelib esa hisoblash quvvatining ortishi va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatining kengayishi natijasida mashina o‘rganish va chuqur o‘rganish texnologiyalari shakllanib, sun’iy intellektning funksional imkoniyatlari sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarildi . Mazkur jarayon ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sanoat, transport va boshqaruv tizimlarining ichki strukturasini qayta tashkil etuvchi omilga aylandi.

Sun’iy intellektning ijtimoiy-falsafiy mohiyati uning texnologik vosita sifatidagi xususiyatidan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar tizimini qayta konfiguratsiya qiluvchi aksiologik determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sun’iy intellekt sharoitida yuzaga kelayotgan qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida bilim va axborot markaziy o‘rin egallaydi. Bilimning kapital sifatida talqin qilinishi uning ijtimoiy ahamiyatining ortishi bilan izohlanadi, ya’ni bilim endilikda faqat individual tafakkur mahsuli emas, balki ijtimoiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan tizimli resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa inson kapitalining mazmunini kengaytirib, uni intellektual salohiyat va axborot bilan ishlash qobiliyati orqali belgilash zaruratini yuzaga keltiradi. Axborotning kuch sifatida institutsionallashuvi esa sun’iy intellektning tahliliy imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi. Katta hajmdagi

ma’lumotlarni qayta ishlash va ularni tizimli ravishda tahlil qilish orqali ijtimoiy jarayonlarni boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Bu holat ijtimoiy ierarxiyaning yangi modelini shakllantiradi, bunda ustunlik mezoni moddiy resurslarga egalik bilan emas, balki axborotga kirish va uni boshqarish darajasi bilan belgilanadi. Natijada jamiyatda yangi turdagi differensiallashuv — raqamli tafovut shakllanadi, bu esa ijtimoiy adolat va tenglik masalalarini yangi konseptual asosda ko‘rib chiqishni talab etadi.

Sun’iy intellektning amaliy qo‘llanilish doirasining kengayishi uning ijtimoiy tizimlarga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtiradi. Ta’lim tizimida shaxsiylashtirilgan o‘quv modellari, tibbiyotda diagnostik va prognozlash tizimlari, sanoatda avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlari hamda transport sohasida avtonom tizimlarning joriy etilishi inson faoliyatining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda uning strukturaviy o‘zgarishiga ham olib keladi . Shu bilan birga, davlat boshqaruvida sun’iy intellekt asosida ma’lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarining optimallashtirilishi byurokratik tizimlarning qisqarishi va boshqaruv samaradorligining ortishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston misolida qaralganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivoji davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Xususan, 2017-yilda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturining qabul qilinishi mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilgan bo‘lsa, 2021–2023-yillar davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sun’iy intellektni ta’lim, sog‘liqni saqlash va sanoat sohalariga joriy etishning institutsional asoslarini mustahkamladi . Bu jarayonda ilmiy-tadqiqot faoliyatining kengaytirilishi, oliy ta’lim muassasalarida maxsus dasturlar joriy etilishi va xalqaro hamkorlikning kuchaytirilishi sun’iy intellektning milliy rivojlanish strategiyasidagi o‘rnini belgilaydi. Biroq sun’iy intellektning ijtimoiy tizimlarga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq murakkab muammolar ham yuzaga keladi. Xususan, algoritmik tarafkashlik, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, axborot xavfsizligi va inson omilining qisqarishi bilan bog‘liq masalalar yangi ijtimoiy-falsafiy muammolarni shakllantiradi. Bu holat sun’iy intellektni rivojlantirish jarayonida etik va huquqiy me’yorlarning muvozanatini ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sun’iy intellekt nafaqat imkoniyatlar manbai, balki nazorat va tartibga solishni talab etuvchi murakkab ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, sun’iy intellekt sharoitida yuzaga kelayotgan qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalab, unda bilim kapital sifatida, axborot esa ijtimoiy kuch sifatida markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu jarayon ijtimoiy tuzilmalarning qayta shakllanishiga, inson faoliyatining yangi modellari paydo bo‘lishiga va ijtimoiy ongning mazmunan yangilanishiga olib keladi. Natijada sun’iy intellekt zamonaviy jamiyatning aksiologik, gnoseologik va ontologik asoslarini qayta belgilovchi fundamental ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida o‘zining murakkab va ko‘p qirrali mohiyatini namoyon etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Turing, A. M.** Computing Machinery and Intelligence / A. M. Turing // Mind. – 1950. – Vol. 59, No. 236. – P. 433-460.
2. **Gulyamov, S. S.** Sun’iy intellekt: huquqiy va axloqiy masalalar / S. S. Gulyamov. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – 180 b.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son.
4. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.** “Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son.
5. **Schwab, K.** The Fourth Industrial Revolution / K. Schwab. – World Economic Forum, 2016. – 192 p.
6. **Russell, S. J.** Artificial Intelligence: A Modern Approach / S. J. Russell, P. Norvig. – 4th ed. – Pearson, 2020.
7. **Braidotti, R.** The Posthuman / R. Braidotti. – Polity Press, 2013

© Botirboyeva Nodirabegim Temurjon qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Botirboyeva Nodirabegim Temurjon qizi

Yoshlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan samarali choralar va mexanizmlar

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari, ularni oldini olishga qaratilgan kompleks yondashuvlar hamda samarali profilaktika mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy institutlar, taʼlim tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning oʻzaro hamkorligi muhim omil sifatida koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: yoshlar jinoyatchiligi, profilaktika, huquqbuzarlik, ijtimoiy nazorat, tarbiya, risk omillari.

Аннотация: В данной статье анализируются причины возникновения правонарушений среди молодежи, комплексные подходы, направленные на их предупреждение, а также эффективные механизмы профилактики. Также важным фактором рассматривается взаимодействие социальных институтов, системы образования и правоохранительных органов.

Ключевые слова: молодежная преступность, профилактика, правонарушения, социальный контроль, воспитание, факторы риска.

Abstract: This article analyzes the causes of delinquency among youth, comprehensive approaches aimed at its prevention, and effective preventive mechanisms. Cooperation between social institutions, the education system, and law enforcement agencies is also considered an important factor.

Keywords: youth crime, prevention, delinquency, social control, upbringing, risk factors.

Globallashuv sharoitida yoshlar oʻrtasida huquqbuzarliklar sonining ortishi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat jamiyat barqarorligi va ijtimoiy xavfsizlikka salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, yoshlar jinoyatchiligini oldini olish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi.

Yoshlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning yuzaga kelishi koʻp omilli va murakkab jarayon boʻlib, u turli ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik hamda madaniy omillar taʼsirida shakllanadi. Avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim rol oʻynaydi. Xususan, ishsizlik, moddiy yetishmovchilik va jamiyatdagi tengsizlik yoshlarning ijtimoiy noroziligini kuchaytiradi. Natijada ular noqonuniy yoʻllar orqali oʻz ehtiyojlarini qondirishga urinishi mumkin. Bu holat ayniqsa ijtimoiy himoya tizimi yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda yaqqol namoyon boʻladi.

Shuningdek, oilaviy muhit yosh shaxsining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalar nazoratining sustligi, farzand tarbiyasiga yetarlicha e’tibor berilmasligi yoki oiladagi nosogʻlom psixologik muhit yoshlarda salbiy xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, zoʻravonlik, beparvolik yoki notoʻgʻri tarbiya uslublari yoshlarni huquqbuzarlikka moyil qiladi.

Psixologik omillar ham muhim sabablar qatoriga kiradi. Yoshlar koʻpincha stress, ichki ziddiyatlar, oʻzini jamiyatda namoyon qilish ehtiyoji va e’tirofga boʻlgan intilish ta’sirida turli nojoʻya xatti-harakatlarga qoʻl urishi mumkin. Agressiya, impulsivlik va emotsional beqarorlik esa bu jarayonni yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot muhitining ta’siri ham inkor etib boʻlmaydigan omillardan biridir. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan zoʻravonlik, jinoyatchilik yoki axloqqa zid kontent yoshlarning ongiga salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkin. Ayniqsa, nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish holatlarida bunday axborotlar yoshlarning xulq-atvoriga bevosita ta’sir qiladi.

Nihoyat, ta’lim tizimidagi kamchiliklar ham muhim omillardan biridir. Ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiya va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga yetarli darajada e’tibor qaratilmasligi yoshlarning huquqiy ongini sustlashtiradi. Shu bilan birga, oʻqitish jarayonining sifati pastligi va yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etishdagi muammolar ham huquqbuzarlik xavfini oshiradi.

Umuman olganda, yoshlar huquqbuzarligi birgina sabab bilan emas, balki yuqoridagi omillarning oʻzaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Shu bois, ushbu muammoni bartaraf etish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktik yondashuv eng muhim va samarali yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi — jinoyat sodir etilgandan keyin jazolash emas, balki uning yuzaga kelishining oldini olishdir. Shu bois profilaktika tizimi jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, ayniqsa yoshlar oʻrtasida huquqiy ong va mas’uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktik yondashuvning muhim tarkibiy qismi bu erta aniqlash tizimini joriy etishdir. Bu tizim orqali huquqbuzarlikka moyil boʻlgan yoshlarni dastlabki bosqichdayoq aniqlash va ular bilan maqsadli ishlash imkoniyati yaratiladi.

Masalan, ta’lim muassasalari, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida yoshlarning xulq-atvori, ijtimoiy muhitdagi oʻrni va psixologik holati muntazam monitoring qilinadi. Natijada xavf omillari erta bosqichda aniqlanib, salbiy oqibatlarning oldi olinadi.

Shuningdek, risk guruhiga kiruvchi yoshlar bilan individual ishlash profilaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bunday yoshlar odatda ijtimoiy himoyaga muhtoj, oilaviy muammolari mavjud yoki salbiy muhit ta’siriga tushib qolgan bo‘ladi. Ular bilan alohida reja asosida ishlash, ya’ni ularning muammolarini o‘rganish, maslahat berish, ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali ijobiy yo‘lga yo‘naltirish mumkin. Bu jarayonda pedagoglar, psixologlar va profilaktika inspektorlarining hamkorligi muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish ham profilaktik yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Yoshlar ko‘pincha o‘z muammolarini mustaqil hal qila olmasligi yoki ularni ochiq ifoda eta olmasligi sababli turli salbiy yo‘llarga kirib qolishi mumkin. Shu bois ta’lim muassasalarida malakali psixologlar faoliyatini kuchaytirish, ishonch telefonlari va maslahat markazlarini tashkil etish muhimdir. Psixologik yordam orqali yoshlarning ruhiy holatini barqarorlashtirish, stress va agressiyani kamaytirish hamda ijtimoiy moslashuvini yaxshilash mumkin.

Ta’lim va tarbiya tizimini mustahkamlash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalari yoshlar ongiga huquqiy madaniyatni singdirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Shu bois, avvalo, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish zarur. Bu orqali ular o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yetadi, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turli targ‘ibot tadbirlari, suhbatlar va ma’naviy darslar orqali yoshlarning dunyoqarashi kengayadi, ularning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyati yanada chuqurroq shakllanadi.

Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish zarur. Ularni jamoat ishlariga jalb etish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ular faollik, mas’uliyat va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, ta’lim va tarbiya tizimi yanada mustahkamlanib, barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oilaning roli yosh shaxsining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Oila – bu insonning ilk tarbiya maskani bo‘lib, unda bola hayotga, jamiyatga va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Shu sababli, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik bilimga ega bo‘lgan ota-onalar farzand tarbiyasida ongli va mas’uliyatli yondashadi, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini to‘g‘ri anglaydi.

Bundan tashqari, farzandlar bilan muloqotni kuchaytirish oiladagi sog‘lom muhitni ta’minlaydi. Ochiq va samimiy suhbatlar orqali bolalar o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rganadi, muammolarini yashirmasdan ulashadi va ota-onaga bo‘lgan ishonchi ortadi. Bu esa o‘z navbatida ularning ruhiy va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, oilada ijobiy ijtimoiy muhit yaratish ham muhimdir. Mehr-oqibat, hurmat va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan muhitda ulg‘aygan bola barkamol shaxs bo‘lib yetishadi. Natijada, oila nafaqat farzand tarbiyasida, balki jamiyatning sog‘lom va barqaror rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish imkoniyati kengayadi. Ularning aholi bilan yaqin ishlashi, hududdagi muammolarni chuqur o‘rganishi va tezkor choralar ko‘rishi ijobiy natijalar beradi.

Shu bilan birga, jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhim omildir. Fuqarolar, nodavlat tashkilotlar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan samarali hamkorlik qilish orqali huquqbuzarliklarga qarshi kurashish yanada tizimli tus oladi. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “mahalla–maktab–ichki ishlar” tizimini integratsiya qilish orqali o‘zaro axborot almashinuvi va hamkorlik mustahkamlanadi. Ushbu tizim yoshlar tarbiyasi, ularning muammolarini aniqlash va hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati yanada samarali tashkil etilib, jamiyatda tinchlik va barqarorlik ta’minlanadi.

Raqamli muhit nazorati bugungi kunda ayniqsa yoshlar tarbiyasi va ularning xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida turli zararli kontentlar ham ommalashib bormoqda. Shu sababli, bunday axborotlarni cheklash, ularning yoshlar ongiga salbiy ta’sirini kamaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, yoshlar uchun foydali va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan platformalarni rivojlantirish muhimdir. Ta’limiy, ilmiy va ma’naviy mazmundagi resurslar orqali yoshlarning bilim darajasi oshadi, ularning bo‘sh vaqti mazmunli tashkil etiladi. Bu esa ularni zararli axborotlardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarni oshirish ham zarur. Yoshlarni internetdan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishga o‘rgatish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali turli tahdidlardan saqlash mumkin. Natijada, raqamli muhit yanada xavfsiz va foydali makonga aylanadi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda jamiyat barqarorligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Xususan, Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi juda kuchli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, aholining turmush darajasini yaxshilash orqali

jinoyatchilik darajasini kamaytirishga erishilmoqda. Ushbu yondashuv inson omiliga e'tibor qaratish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga asoslanadi.

AQSh tajribasida esa "community policing" modeli samarali hisoblanadi. Ushbu model doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilib, aholining ishonchini mustahkamlashga katta e'tibor qaratiladi. Natijada, jinoyatlarning oldini olishda fuqarolarning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Yaponiyada esa axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ta'lim tizimida intizom, hurmat va jamoaga sadoqat kabi qadriyatlar chuqur singdiriladi. Bu esa jamiyatda yuqori darajadagi tartib-intizom va qonunlarga itoatkorlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, ushbu davlatlar tajribasi kompleks yondashuv va hamkorlik orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi mexanizmlarning samaradorligi ularning kompleks qo'llanilishiga bog'liq. Faqat jazolash emas, balki oldini olishga qaratilgan choralar ustuvor bo'lishi zarur.

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Bunda davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktik choralarning samaradorligini oshirish orqali sog'lom va huquqiy ongli avlodni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

4. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

5. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

6. Abduqodirov A.A. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Fan, 2018.

7. Ishmuhamedov R.J. *Tarbiya nazariyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

© Ismoilov Tony, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ismoilov Tony

SUN’IY INTELLEKT VA STRESS BOSHQARUVI: ICHKI ISHLAR TIZIMI MISOLIDA

Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy gumnitar fanlar kafedrasi Pedagogika psixologiya 4-kurs talabasi

Samandarov Asrorjon Azamat o‘g‘li

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Boboyeva Feruza Azimjonova

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy fanlarda prognozlash va modellashtirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, ichki ishlar qo‘riqlash xizmati xodimlarida kasbiy stressning shakllanish omillari, uning psixologik xususiyatlari hamda uni yengish mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Sun’iy intellekt asosidagi modellashtirish usullari yordamida stress darajasini oldindan aniqlash, uning rivojlanish dinamikasini prognoz qilish va profilaktik choralarni ishlab chiqish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ichki ishlar tizimida xodimlarning psixologik barqarorligini ta’minlash va xizmat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ijtimoiy prognozlash, modellashtirish, kasbiy stress, ichki ishlar xodimlari, psixologik omillar, stress boshqaruvi, neyron tarmoqlar.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты применения технологий искусственного интеллекта в социальном прогнозировании и моделировании. Особое внимание уделяется формированию профессионального стресса у сотрудников служб охраны органов внутренних дел, его психологическим особенностям и механизмам преодоления. Рассматриваются возможности прогнозирования уровня стресса, анализа его динамики и разработки профилактических мер на основе методов искусственного интеллекта. Результаты исследования имеют важное значение для повышения психологической устойчивости и эффективности профессиональной деятельности сотрудников.

Ключевые слова: искусственный интеллект, социальное прогнозирование, моделирование, профессиональный стресс, сотрудники органов внутренних дел, психологические факторы, управление стрессом, нейронные сети.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of using artificial intelligence technologies in social forecasting and modeling. Special attention is given to the formation of occupational stress among internal security service officers, its psychological characteristics, and coping mechanisms. The study highlights the possibilities of predicting stress levels, analyzing their dynamics, and developing preventive strategies through AI-based modeling methods. The findings contribute to improving psychological stability and professional efficiency of personnel in internal affairs systems.

Keywords: artificial intelligence, social forecasting, modeling, occupational stress, law enforcement personnel, psychological factors, stress management, neural networks.

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va tezkor ijtimoiy oʻzgarishlar sharoitida inson omili bilan bogʻliq jarayonlarni chuqur oʻrganish va boshqarish masalasi ijtimoiy fanlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda. Jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va huquq-tartibotni taʼminlash kabi muhim vazifalar bevosita inson faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, ushbu faoliyatning samaradorligi esa xodimlarning psixologik holati, stressga chidamliligi va moslashuv darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar qoʻriqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning psixologik holatini baholash va boshqarish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda davlat boshqaruvi va xavfsizlik tizimini takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “Davlat organlari faoliyatida inson omilini chuqur oʻrganish, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va psixologik barqarorligini taʼminlash eng ustuvor vazifalardan biridir” [1]. Mazkur yondashuv ichki ishlar tizimida xizmat qiluvchi xodimlarning faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning ruhiy holatini mustahkamlash va xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarning muhim nazariy asosini tashkil etadi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6196-son Farmoni (Jamoat xavfsizligini taʼminlash tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida) doirasida ichki ishlar organlari faoliyatini modernizatsiya qilish, xodimlarning kasbiy va psixologik tayyorgarligini oshirish, xizmat samaradorligini taʼminlash masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan [2]. Ushbu hujjatda inson resurslarini boshqarish, xodimlarning ruhiy holatini monitoring qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan boʻlib, bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada oshiradi.

Natija va muhokama

XXI asr ilmiy tafakkuri va texnologik taraqqiyoti ijtimoiy fanlar metodologiyasida tub burilish yasadi. Bu jarayon ayniqsa sunʼiy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi

bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, natijada ijtimoiy hodisalarni o‘rganish, tahlil qilish va prognozlash an’anaviy empirik-statistik usullardan chiqib, murakkab algoritmik modellar asosida amalga oshiriladigan yangi bosqichga ko‘tarildi [3,b-45–78.]. Ijtimoiy tizimlar o‘z mohiyatiga ko‘ra dinamik, ko‘p omilli va ehtimollik xarakteriga ega bo‘lganligi sababli, ularni to‘liq anglash va boshqarish uchun klassik metodlar ko‘pincha yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu bois sun’iy intellekt asosidagi modellashtirish yondashuvlari ijtimoiy fanlarda yangi ilmiy paradigma sifatida shakllanib, ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Mazkur paradigma doirasida inson faoliyati bilan bog‘liq murakkab tizimlarni, xususan, yuqori xavf, stress va tezkor qaror qabul qilish talab etiladigan kasb egalari faoliyatini o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Ichki ishlar qo‘riqlash xizmati xodimlari faoliyati aynan shunday murakkab ijtimoiy-psixologik muhitda amalga oshiriladi. Ularning xizmat faoliyati doimiy xavf, mas’uliyatning yuqoriligi, vaqt bosimi, noaniqlik sharoiti va keskin vaziyatlarda qaror qabul qilish zarurati bilan tavsiflanadi[4,b141–180]. Bu esa xodimlarda uzoq muddatli psixologik zo‘riqish va kasbiy stressning shakllanishiga olib keladi. Kasbiy stress esa o‘z navbatida nafaqat individual psixologik holatni, balki xizmat samaradorligini, qaror qabul qilish tezligi va sifatini ham sezilarli darajada pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy fanlarda prognozlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqish zarurati yuzaga keladi. An’anaviy prognozlash usullari ko‘proq o‘tmish tajribasiga tayanib, umumiy tendensiyalarni aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish orqali aniq va individual prognozlar tuzish imkonini bermoqda [5]. Bu esa ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning psixologik holatini oldindan baholash, stressning kuchayish ehtimolini aniqlash va profilaktik choralarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini yaratadi.

Sun’iy intellekt asosidagi modellashtirishning muhim jihatlaridan biri shundaki, u murakkab ijtimoiy-psixologik tizimlarni ko‘p omilli yondashuv asosida tahlil qiladi. Ichki ishlar qo‘riqlash xizmati xodimlarida kasbiy stressning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon bir vaqtning o‘zida bir nechta omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Jumladan, tashkiliy omillar (ish yuklamasi, xizmat jadvali, boshqaruv uslubi), psixologik omillar (shaxsiy xususiyatlar, emotsional barqarorlik), ijtimoiy omillar (oila va jamoaning qo‘llab-quvvatlashi) hamda fiziologik omillar (charchoq, uyqu sifati, sog‘liq holati) o‘zaro uzviy bog‘liq holda stressni shakllantiradi [6]. Shu sababli, ushbu omillarni alohida emas, balki yagona tizim sifatida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Algoritmlaridan foydalanish esa, ushbu jarayonni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Xususan, neyron tarmoqlar yordamida xodimlarning xizmat faoliyati davomida to‘plangan ma’lumotlar asosida ularning psixologik holatini prognoz qilish mumkin[7]. Bunday yondashuv xodimning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda stress darajasini aniqlash va uning rivojlanish dinamikasini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Natijada,

stressning kritik nuqtalarini aniqlash va unga qarshi profilaktik choralarni ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

Kasbiy stressni yengish masalasi psixologiya fanida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ichki ishlar xodimlari uchun stressni yengishda asosiy psixologik omillar sifatida emotsional barqarorlik, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya va psixologik moslashuvchanlik ajratib ko‘rsatiladi. Ushbu omillar insonning stressga munosabati va unga qarshi kurashish strategiyasini belgilaydi [4]. Shu bilan birga, emotsional intellekt darajasi ham stressni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish qobiliyatini belgilaydi. Ushbu, kasbiy faoliyatda uzoq davom etuvchi stress holati “kasbiy kuyish” sindromining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi[8]. Ushbu sindrom xodimning emotsional charchashi, ishga bo‘lgan qiziqishining pasayishi va professional samaradorlikning kamayishi bilan tavsiflanadi [9]. Ayniqsa, yuqori xavf va mas’uliyat talab etiladigan ichki ishlar tizimida bu holatning oldini olish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim afzalligi — stressni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatidir. Zamonaviy biometrik texnologiyalar yordamida xodimlarning fiziologik ko‘rsatkichlari doimiy ravishda kuzatib borilib, sun’iy intellekt algoritmlari orqali tahlil qilinadi. Bu esa stress darajasining oshishini oldindan aniqlash va zarur choralarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi [10,b-89–112]. Natijada, insonning ongli va ongsiz qaror qabul qilish jarayonlarini chuqurroq anglash imkoniyati paydo bo‘ladi. Ushbu modellashtirishda tizimli yondashuvning ahamiyati shundaki, u individual, guruh va institutsional darajadagi omillarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Ichki ishlar xodimlarining faoliyati ham aynan shunday ko‘p darajali tizim sifatida shakllanadi. Shu bois, stressni faqat individual muammo sifatida emas, balki tashkilot miqyosidagi tizimli muammo sifatida tahlil qilish zarur. Shu bilan bir qatorda modellarining amaliy ahamiyati esa kelajakdagi xavfli vaziyatlar va psixologik zo‘riqish ehtimoli yuqori bo‘lgan davrlar oldindan aniqlanishi imkonini yaratib beradi. Xususan, ish yuklamasi, xizmat jadvali va psixologik ko‘rsatkichlar asosida stress darajasi oshishi ehtimoli aniqlanadi va bu rahbariyatga samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi [11,b-27–51.]. Bu esa xizmat jarayonini optimallashtirish va xodimlarning psixologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Umumiy qilib aytganda, sun’iy intellekt asosida ijtimoiy prognozlash va modellashtirish ichki ishlar qo‘riqlash xizmati xodimlarida kasbiy stressni o‘rganish va uni boshqarishda yangi ilmiy va amaliy imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu yondashuv stressni oldindan aniqlash, uning oldini olish va xodimlarning psixologik farovonligini ta’minlash orqali tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yo‘nalish zamonaviy ijtimoiy fanlar va amaliy psixologiya kesishgan nuqtada eng istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/KTF_MKFS_29.05.2025.pdf#:~:text=Yangi%20O'zbekistonni%20barpo%20etishda%2C%20jamiyatda%20tinchlik%20va,uning%20hayoti%2C%20sog'lig'i%20va%20mol%2Dmulkini%20turli%20xavf%2Dxatarlardan
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2021 yildagi PF-6196-son
3. **Russell Stuart J., Norvig Peter.** Artificial Intelligence: A Modern Approach. New Jersey: Prentice Hall, 2021. pp. 45–78.
4. **Lazarus Richard S., Folkman Susan.** Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer Publishing Company, 1984. pp. 141–180.
5. **Brynjolfsson Erik, McAfee Andrew.** The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton, 2014.
6. **Bakker Arnold B., Demerouti Evangelia.** The Job Demands–Resources Model: State of the Art. Journal of Managerial Psychology. 2007.
7. **Goodfellow Ian, Bengio Yoshua, Courville Aaron.** Deep Learning. Cambridge: MIT Press, 2016.
8. **Goleman Daniel.** Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995.
9. **Maslach Christina, Leiter Michael P.** The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. San Francisco: Jossey-Bass, 1997.
10. **Kahneman Daniel.** Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011. pp. 89–112.
11. **Anderson Craig A., Bushman Brad J.** Human Aggression and Stress Response in High-Risk Professions. Annual Review of Psychology. 2002. pp. 27–51.

© Boboyeva Feruza Azimjonovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Boboyeva Feruza Azimjonovna, Samandarov Asrorjon Azamat o'g'li

YASHIL IQTISODIYOT: BARQAROR IQTISODIYO`TNING ASOSI

N.A.Mamadaliyena

NIU Dotsenti,

Iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyotning iqtisodiy tizimligi, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlagan holda, iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalish ekanligi o`ganildi, tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, tizim, resurs, atrof - muhit, ekologiya, inson hayoti, tabiat, atmosfera, sayyora, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В статье изучено и проанализировано, что экономическая структура зеленой экономики представляет собой новое направление экономической деятельности, сохраняющее ресурсы, необходимые для жизни и здоровья человека, окружающей среды и экологии в целом.

Ключевые слова: экономика, система, ресурс, окружающая среда, экология, жизнь человека, природа, атмосфера, планета, устойчивое развитие.

Annotation. The article studies and analyzes that the economic structure of the green economy represents a new direction of economic activity that preserves the resources necessary for human life and health, the environment and ecology in general.

Key words: economy, system, resource, environment, ecology, human life, nature, atmosphere, planet, sustainable development.

Kirish. O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondoshuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik

komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar oʻrtasida tenglikni taʼminlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Amerikalik iqtisodchi Samuelson tomonidan qabul qilingan klassik ta'rifda, iqtisodiyot noyob bo'lgan resurslarni vaqt oqimi orqali bugun va kelgusida odamlar va jamiyat uchun ishlab chiqaradi, har xil guruhlarning iste`moli va taqsimotini to`g`ri yo`naltiradi. Darvin yashash uchun kurash sharoiti sifatida koʻrib chiqqan tabiatdagi barcha murakkab aloqalarni oʻrganadigan fan» deya taʼrif beradi. Aslida, «Ekologiya» tushunchasini birinchi marta 1866 yilda nemis naturalisti (tabiatshunos) E.Gekkel organizmlar turkumining bir-birlari va atrof abiotik muxit bilan oʻzaro taʼsirida yuzaga keladigan oʻz-oʻzini tartibga solish jarayonlari majmuining taʼrifini ifodalash uchun tavsiya etgan. XIX asrning oxiriga kelib atrof muhit tushunchasi fiziologiya, XX asrning birinchi choragida biologiya doirasidan chiqib, sotsiologiya, antropogeografiyaga tarqaladi. SHunday qilib,ekologiya obʼektiga odam qoʻshiladi va uning atrof - muxiti oʻrtasidagi barcha munosabatlar kompleksini oʻrganish ekologiya deb ataladigan boʻldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy atrof muhit va resurslar iqtisodiyotining metodik asosini tizimli yondashish, tabiatdagi kuzatuvlar, eksperiment va modellashtirish tashkil qiladi. Mavzuni yoritishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Yashil iqtisodiyot prinsiplari asosida barqaror rivojlanishni ta’minlash to’g’risida mamlakatimiz va chet el olimlari, tadqiqotchilari tomonidan yozilgan adabiyotlar, bundan tashqari statistik ma’lumotlar nazariy jihatdan tahlil qilindi va taqqoslandi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O’zbekiston Respublikasi Statistika Qo’mitasi, Xalqaro Intellektual Mulk Tashkilotlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlar yordamida tadqiqot mavzusi amaliy jihatdan yoritib berildi.

Tahlil va natijalar.

Ma`lumko, aholini ifodalovchi asosiy koʻrsatkichlar qatorini – uning takror barpo qilinishi (tugʻilish, oʻlim, nikohga kirish, ajralish, tabiiy oʻsish), joylanishi, urbanizatsiyasi, migratsiyasi, yosh jinsiy tarkibi va oilaviy holati, maʼlumot darajasi, irqiy, til, etnik, diniy tarkibi tashkil etadi. AHOLIning ijtimoiy-iqgisodiy tarkibini ifodalovchi koʻrsatkichlarga uning bandligi, iqtisodiy faolligi, kasb-hunari va boshqa kiradi. Ekologik muommo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan boѓliқ ћolda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iқtisodiyotiga, ћayotida xo'jalik aћamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy ћodisalar bilan boѓliқ (stixiyali talofatlar, iқlimning o'zgarishi, ћayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshқalar) ћar қanday xodisa tushuniladi. Ekologik muammolar 3 guruћga bo'linadi.

1. Umumbashariy (global),

2. Mintaқaviy (regional),

3. Maҳalliy (lokal)

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen xodisalar umumbashariy muammolar deb ќaraladi.



4-rasm. Inson mehnati faolitining tabiatga ta'siri omillari va shakllari

1-rasm. Inson mehnati faoliyatining tabiatga ta`sir omillari va shakllari.

Aholining mehnatga yarokli qismi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Aholini ilmiy va muntazam oʻrganish oʻrta asrlardan boshlangan. Aniq hisobga olish Yevropa va Amerikada 19-asrda, qolgan regionlarda 20-asrning dastlabki choragida yoʻlga qoʻyilgan. Oʻzbekistonda aholi haqidagi statistik maʼlumotlar 19-asr 2-yarmidan boshlab mavjud. Respublikada aholi muammolarini oʻrganish 1960–1970-yillardan boshlab tez rivojlandi.

Ekologik xavfsizlik - deganda atrof tabiiy muhit holatini organizmlarning hayoti uchun ehtiyojlariga javob bera olishi, yoki insonlar uchun sog'lom, toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof-muhit tushuniladi. Ekologik xavfsizlikni taminlash uchun har bir alohida davlat ma'lum ekologik siyosatni olib boradi.

Atrof muhitning ekologiyasi tushunchasi – bu koʻchalarni toza tutish, suvlarni muhofaza qilish, havoni ifloslanishdan saqlash tushunilmaydi.

Atrof muhit ekologiyasi - hayot jarayonlarini, insonning atrof-muhiti muammolarini oʻziga xos uslublarda tadqiq qiladigan mustaqil uy`nalishdir. Zamonaviy atrof muhitning ekologiyasi metodik asosini tizimli yondashish, tabiatdagi kuzatuvlar, eksperiment va modellashtirish tashkil qiladi. Atrof muhit ekologiyasi ham tabiiy, ham ijtimoiy (gumanitar), iqtisodiy uy`nalishlar jumlasiga kiradi.

"Yashil iqtisodiyot" - bu iqtisodiyotning yo'nalishi bo'lib, uning doirasida iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismidir va uning bir qismidir; tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini saqlash, shuningdek,

yakuniy foydalanish mahsulotlarini ishlab chiqarish tsikliga qaytarishga qaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha (UNEP) ekspertlari yashil iqtisodiyotni "inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilaydigan, shu bilan birga ekologik xavflar va kamayishni sezilarli darajada kamaytiradigan" iqtisodiy faoliyat sifatida ko'rishadi. "Yashil" iqtisodiyot inson ehtiyojlarini qondirishga, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda, kelajak avlodlar farovonligini birinchi o'ringa qo'yishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, yashil iqtisodiyot uzoq muddatda inson farovonligini oshirishga olib keladigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat tizimidir; kelajak avlodlar muhim ekologik xavflarga yoki ekologik defitsitlarga duchor bo'lmaydi. Yashil iqtisodiyot nazariyasi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta'sir doirasini cheksiz kengaytirishning mumkin emasligi;

- cheklangan resurslar sharoitida cheksiz o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirishning mumkin emasligi;

- Zaminda hamma narsa bir-biriga bog'langan.

"Yashil" iqtisodiyotda quyidagi yo'nalishlar tizimi mavjud:

* Qayta tiklanadigan energiya manbalarini (keyingi o'rinlarda RES deb yuritiladi) joriy etish. E'tibor bering, ekologlarning fikriga ko'ra, sayyorada sezilarli iqlim o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha yonuvchi mineral resurslarning yarmidan ko'pi ochilmagan bo'lishi kerak.

* Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Hozirgi vaqtda rivojlangan dunyoda aholi jon boshiga kuniga 1 dan 3 kg gacha qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqariladi va faqat AQShda bu miqdor har 10 yilda 10% ga oshadi. Rossiyada poligonlar jami 2 ming kvadrat metrdan ortiq maydonni egallaydi. km.

* Suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish. Hozir sayyoramizning har oltinchi odami toza ichimlik suvi tanqisligini boshdan kechirmoqda.

* "Toza" (barqaror, "yashil") transportni rivojlantirish. UNEP umumiy harakatchanlikni buzmasdan, transportga, ayniqsa shaxsiy transport vositalariga talabni kamaytirish yo'llari ustida ishlamoqda.

* Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilik. Bu gerbitsidlar, pestitsidlar, pestitsidlar, shuningdek, sun'iy kelib chiqadigan o'g'itlardan foydalanishni rad etishni nazarda tutadi. Organik dehqonchilik mahsulotlari tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlar mavjud emas, E-ingrediyentlardan foydalanmasdan qayta ishlanadi va tabiiy bo'lmagan moddalar bilan aloqa qilmasdan saqlanadi.

* Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligi. Samarasiz issiqlik izolyatsiyasi inshootlari va issiqlik ta'minoti tizimlari bilan jihozlangan turar-joy majmualarining mavjudligi katta issiqlik yo'qotishlariga olib keladi.

* Ekotizimlarni saqlash va samarali boshqarish. Biosferadagi inson faoliyatining barcha xilma-xilligi o'zgarishlarga olib keladi, ularning yo'nalishi va darajasi odatda ekologik inqiroz deb ataladi.

“Yashil” iqtisodiyotning ushbu sohalari quyidagi tamoyillarga muvofiq rivojlanmoqda:

- adolat (tenglik);

- hurmat (barchaga farovonlik va farovonlik);

- ehtiyot choralari (sayyoradagi maksimal yuklarni hisobga olgan holda);

- ishtirok etish (qaror qabul qilishda);

- boshqaruv (hisobdorlik);

- iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik;

- samaradorlik (barqaror ishlab chiqarish va iste'mol);

-- avlodlar o'rtasidagi aloqalar (kelajakka investitsiyalar).

"Yashil" iqtisodiyot oqibatlar bilan emas, balki ekologik muammolarning sabablari bilan ishlaydigan, yondashuvni, mahsulotlarni va, eng muhimi, iste'molchilarning xatti-harakatlarini tubdan o'zgartiradigan "yashil" texnologiyalarga asoslanadi. SHundan kelib chiqqan holda bularga quyidagilar kiradi:

- energiya samaradorligi va muqobil energiya;

- energiyani boshqarish tizimlari;

- ekologik transport;

- chiqindi, havo va suv chiqindilarini boshqarish

"Yashil" iqtisodiyot oqibatlar bilan emas, balki ekologik muammolarning sabablari bilan ishlaydigan, yondashuvni, mahsulotlarni va, eng muhimi, iste'molchilarning xatti-harakatlarini tubdan o'zgartiradigan "yashil" texnologiyalarga asoslanadi.

Ushbu texnologiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyoti o'z oldiga qo'ygan quyidagi maqsadlarga erishishga imkon beradi:

1. Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va qurilish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va infratuzilma tarmoqlarida resurslar samaradorligini oshirish.

2. Yashil, toza energiyaga (shamol, quyosh, geotermal, suv oqimi, gidro, bioenergiya, chiqindilardan energiyaga, vodorod) va past uglerodga o'tish orqali salbiy iqlim o'zgarishini yumshatish yakuniy foydalanish jarayonlari (elektr yoki gibrid dvigatellar).

3. Harorat anomaliyalariga chidamli erta ogohlantirish tizimlari va texnologiyalarini yaratish orqali zaiflikni kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish; biologik xilma-xillik va o'rmon resurslarini boshqarishni takomillashtirish.

4. Biologik xilma-xillik resurslaridan, jumladan, tabiiy kosmetika va farmatsevtika mahsulotlaridan yanada samarali va barqaror foydalanish orqali farovonlikni oshirish.

“Yashil” iqtisod kontseptsiyasi tarafdorlari hozirgi hukmron iqtisodiy tizimning nomukammal ekanligi, bu inqirozlar va bozordagi muvaffaqiyatsizliklardan dalolat beradi, deb hisoblaydilar va tabiatan isrofgarchilikdir.

Garchi u umuman odamlarning, ayniqsa, ayrim guruhlarning turmush darajasini oshirishda ma'lum natijalar bergan bo'lsa-da, bu tizim faoliyatining salbiy oqibatlari sezilarli: ekologik muammolar, tabiiy kapitalning kamayishi, qashshoqlikning keng tarqalishi, chuchuk suv, oziq-ovqat tanqisligi. , energiya, odamlar va mamlakatlar tengsizligi. Bularning barchasi kelajak avlodlar uchun xavf tug'diradi.

Xulosa va takliflar. UYqoridagilarni hisobga olgan holda, yashil iqtisodiyotning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tabiiy resurslardan samarali foydalanish;

- tabiiy kapitalni saqlash va oshirish;

- ifloslanishni kamaytirish, uglerod emissiyasini kamaytirish;

- biologik xilma-xillikni yo'qotishning oldini olish;

- daromad va bandlikning o'sishi;

- umuman - atrof-muhitga antropogen yukni kamaytirish.

Shubhasiz, bu xususiyatlar iqtisodiy rivojlanishning hozirgi modeliga mutlaqo ziddir.

ADABIYOTLAR:

1.Xotamov, M.Sultanov, A.Yadgarov. Atrof – muhit va tabiiy resusrlar iqtisodiyoti. Darslik. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 - 312 b.

2. S.Buriyev, D. Maxkamova, V. Sherimbetov. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. O'quv qo'llanma. — T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. — 232 b.

3**.** Edward Cartwright. Behavioral Economics Third Edition. ISBN: 978-1-138-09711-7. 2018

4.Tietberg, Tom fnd Lynne, Lewis, and Natural Resource Econovics, Puhlisher Routledge,2018

5. P.S. Sultonov. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari. Darslik. -T.: "Musiqa" nashriyoti, 2007, 240 b.

6. N.A. Mamadalieyva «Atrof muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti» -5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi talabalari uchun o`quv qo`llanma. –2024,

© Mamadaliyena N.A., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Mamadaliyena N.A.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУНОЗАРА ДАРСЛАР

Умурзақова Умида Носиржоновна

Навоий Инновоциялар Университети доценти,(PhD)

umidaumurzakova1980@mail.ru

Аннотация: *ушбу мақола талабаларни экологик тафаккурини шакиллантиришда мунозара дарсларининг аҳамиятига бағишланган. Замонавий таълимда мазмуни ва моҳиятига кўра мунозара дарслари илмий мунозара дарслари ва эркин мулоҳаза ва фикр алмашувига асосланган дарслар имкониятлари ҳақида фикр юритилган.*

Калит сўзлар:: *замонавий таълим, мунозара дарслари, экологик тафаккур, эркин фикрлар, атроф-муҳит.*

Аннотация: *данная статья посвящена значению дебатов в формировании экологического мышления студентов. В современном образовании обсуждаются возможности научных дебатов и уроков, основанных на свободном обмене мнениями, с точки зрения их содержания и сути.*

Ключевые слова: *современное образование, уроки дебатов, экологическое мышление, свободные мысли, окружающая среда.*

Abstract: *This article is devoted to the significance of debates in shaping students' environmental thinking. In modern education, the possibilities of scientific debates and lessons based on free exchange of opinions are discussed in terms of their content and essence.*

Keywords: *modern education, debate lessons, environmental thinking, free thoughts, environment*.

Замонавий таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг мазмуни ёш авлодни ақлан ва маънан етук, жамият ва атроф-муҳитга онгли муносабатда бўладиган шахс сифатида тарбиялашга қаратилган бўлиб, фан-техника тараққиёти, жамиятнинг демократлашуви ва ахборот оқимининг ортиши ўқувчи ва талабаларнинг идрок этиш, тафаккурлаш ҳамда таҳлилий фикрлаш қобилиятларини жадал ривожлантирмоқда. Айниқса, экологик муаммоларнинг глобал тус олиши талабаларда атроф-муҳитни билишга бўлган эҳтиёжни янада кучайтирди.

Бугунги таълим олдида турган асосий вазифа — шахснинг билим олишга бўлган эҳтиёжини қондириш билан бирга, унда экологик тафаккур, масъулият ва фаол фуқаролик позициясини шакллантиришдир. Шу сабабли анъанавий дарсларнинг мазмуни ва шаклини янгилаш, таълим жараёнига фаол ва интерактив усулларни жорий этиш зарурати юзага келди. Хусусан, Олий таълим муассасаларида таълим жараёнига тизимли ёндашув асосида маъруза ва семинарлар билан бир қаторда муаммоли ва мунозарали дарслардан фойдаланиш таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилиши шубҳасиздир.

Мунозарали дарслар талабаларнинг мустақил фикрлашини, экологик масалаларни таҳлил қилиш ва илмий хулоса чиқариш кўникмаларини ривожлантиради. Ушбу дарслар мазмунига кўра илмий мунозара ва эркин фикрлаш дарсларига ажратилиб, экологик билимларни чуқур ўзлаштириш ва экологик онгни шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Демак, мунозарали дарсларнинг мазмуни ва моҳиятига кўра иккига ажратилади:

1. Илмий йўналтирилган мунозара дарслари.
2. Эркин мулоҳаза ва фикр алмашувига асосланган дарслар.

Илмий мунозара дарслари дастурдаги муайян бир мазмуни ўрганишга бағишланади ва бу дарс олдида қуйидаги вазифалар туради.

- 1 Талабаларнинг интеллектуал фаоллигини ошириш асосида фанни ўзлаштиришга бўлган қизиқишни кучайтириш ва билимларни чуқурлаштириш.
- Аввал шаклланган билим ва кўникмаларни янги педагогик вазиятларда қўллашга рағбатлантириш орқали талабаларнинг янги билимларни эгаллаш жараёнини фаоллаштириш
- Талабалар билимида мавжуд ноаниқ ва тушунарсиз жиҳатларни аниқлаш ҳамда уларни бартараф этиш орқали билим олишга бўлган қизиқиш ва интилишни ривожлантириш.
- Фикр билдириш маданиятини ривожлантириш асосида талабаларнинг ўз нуқтаи назарини қисқа, равон ва далилли ифода этиш кўникмаларини шакллантириш.

Илмий мунозарали дарслар “Марказий Осиёда сув ресурсларидан фойдаланишни оптималлаштириш”, “Глобал иқлим ўзгаришининг экологик оқибатлари” каби долзарб экологик мавзулар асосида ташкил этилади. Бундай дарслар талабаларнинг экологик тафаккурини, таҳлилий ва танқидий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилади.

Илмий мунозарали дарсларни ташкил этиш тузилмаси қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

1. **Кириш босқичи.** Ўқитувчи дарс мавзуси, мақсад ва вазифаларини белгилайди, мунозара марказида турган илмий-муаммоли масалаларни аниқлайди ҳамда талабалар гуруҳлари учун бажариладиган интерактив топшириқларни тақдим этади.
2. **Фаоллаштириш босқичи.** Талабалар фаолияти мунозарали ва муаммоли вазифаларни таҳлил қилиш, ечим вариантларини ишлаб чиқишга йўналтирилади.
3. **Мунозара босқичи.** Гуруҳлар ўртасида илмий баҳс ва фикр алмашуви ташкил этилиб, ҳар бир гуруҳ ўз нуқтаи назарини далиллар асосида ҳимоя қилади.
4. **Таҳлил ва умумлаштириш босқичи.** Ўқитувчи мунозара жараёнида кўтарилган асосий муаммолар, илмий ғоя ва тушунчаларни тизимлаштиради, оптимал ечимларни белгилаб, умумий хулоса чиқаради.
5. **Баҳолаш.** Мунозара жараёнида фаол иштирок этган талабалар рейтинг тизими асосида баҳоланади ва рағбатлантирилади.
6. **Уйга вазифа.** Уйга берилган вазифалар тушунтирилади, талабаларнинг ўз-ўзини баҳолаши ва фикр-мулоҳазалари ташкил этилади.
7. **Якунловчи босқич.** Дарс мазмуни бўйича умумий хулосалар чиқарилиб, эришилган ўқув натижалари белгилаб олинади.

Биз қуйидаги "Экологик муаммолар" мавзусидаги экологик муаммолар таснифига бағишланган илмий мунозара дарсига тўхталамиз. Ўқитувчи дарсни кириш сўзи билан бошлаб, ўқувчилари бешта гурухларга ажратади ва аудиторияда талабаларни доира шаклида жойлаштирилади.

Ўкитувчи масалалар ёзилган коғозни гурухларга тарқатади. ва масалаларни ўртага ташлайди.

1-масала. Маълумки, сўнгги йилларда иқлим ўзгариши ва антропоген таъсирлар натижасида Марказий Осиёдаги йирик чучук сув манбаларида сув захиралари қисқариб бормоқда. Илмий маълумотларга кўра, айрим кўл ва сув омборларида сув сатҳи ўртача йилига 0,5 метрга камаймоқда. Агар ушбу тенденция сақланиб қолса ва сув ресурсларини тежаш бўйича самарали чоралар кўрилмаса, сув ҳавзасининг ўртача чуқурлиги 25 метр бўлган қисми 50 метргача пасайиши учун неча йил талаб этилади?

2-масала. Сайёрамиздаги йирик шаҳарлар ва индустриал ҳудудларда ҳаво сифати кескин ёмонлашмоқда. Халқаро экологик тадқиқотларга кўра, глобал иқлим ўзгариши ва саноат чиқиндилари туфайли шаҳарларда ҳар йили ўртача 2 миллион

тонна зарарли моддалар атмосферага чиқарилади. Агар бу тенденция давом этса ва ҳаво ифлосланишини камайтириш учун самарали чоралар кўрилмаса, аҳоли соғлиғи ва шаҳар экотизимида қандай оқибатлар юзага келиши мумкин?(Қўшимча топшириқ; талабалардан ҳаво ифлосланишига сабабчи омилларни таҳлил қилиш; зарарли моддаларнинг глобал ва маҳаллий экотизимга таъсирини муҳокама қилиш; мунозара орқали ижобий экологик ечимлар бўйича фикр алмашиш.)

3- масала. 1 миллион аҳоли яшайдиган шаҳарда маиший чиқиндилар йилига 500 минг тоннадан ошади. Агар чиқиндиларни қайта ишламасдан полигонларга жойлаштириш давом этса, 1 тонна чиқинди ўртача 25 $м^2$ ер майдонини ифлослантиради. Полигонлар учун йилига қанча ер майдони талаб этилади? (**Қўшимча савол:** Муаммони камайтириш учун қандай барқарор экологик ечимлар таклиф қилиш мумкин?)

4 -масала. 1 тонна пластик чиқинди тахминан 0,1 $км^2$ океан юзасини ва экотизимни зарарлантиради. Агар 20 000 тонна пластик чиқинди чиқиндиларини баҳор ва ёз ойларида қўйилса, қанча майдон океан ва соҳил экотизими зарарланади?

Мунозарали дарслар талабаларнинг мустақил фикрлашини, экологик масалаларни таҳлил қилиш ва илмий хулоса чиқариш кўникмаларини ривожлантиради. Талабаларнинг экологик тафаккури ва муҳокама қилиш қобилияти ривожлантирилади, ҳисоб-китоб ва тахлилий қобилятлари мустахкамланади, барқарор ривожланиш ва ресурсларни тежаш чоралари ҳақида фикрлаш кўникмалари шакилланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйиҳати

1. Абдураҳмонов Қ.Х. Экология ва барқарор ривожланиш асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

2. Бекмуродов М.Б., Нурматов Ш.Р. Замонавий педагогик технологиялар. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2020.

3. Вахобов А.В. Экологик таълим ва тарбия назарияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.

4. Давлетов С.Д. Экологик онг ва экологик тафаккурни шакллантириш муаммолари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2017.

5. Жўраев Р.Х. Олий таълимда интерактив таълим усуллари. – Тошкент: Педагогика, 2021.

6. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в высшей школе. – Москва: Педагогика, 2019.

7. United Nations. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – UNESCO, 2017.

© Умурзақова Умида Носиржоновна, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Умурзақова Умида Носиржоновна

МЕТАБОЛИЧЕСКОМ СИНДРОМЕ И ЕГО ВЛЫЯНИЕ НА МОРФО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПОЧЕК

Илясов Азиз Саитмуродович Доктор биологических наук, профессор Навоийского инновационного университета https://orcid.org/0009-0008-2332-7862

Мамаражабова Бувзайнаб Абдуразаковна Самостоятелные исследователь Каракалпакского университета имени Бердаха. https://orcid.org/0009-0005-2107-7407.

Аннотация: для оценки, полученных в ходе исследования, была изучена морфофункциональные особенности строения нефронов почек крыс при высокожировой и высокоуглеводной рационе питания. На основании гистологических исследовании ткани почки изучена морфометрические параметры нефронов в норме и в эксперименте: измерено в *мкм,* ширина и высота почечных клубочков, толщина капсулы Шумлянского-Боумена, внутренний диаметр и толщина стенки проксимальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки дистальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки собирательных канальцев. Выявлено что, у крыс в периоде активного размножения (*6 - месяцев*) возраст морфофункциональные особенности строения нефронов почек при МС морфометрические параметры нефронов почек крыс увеличивается в размерах от внутренний диаметр собирательных канальцев и их толщина стенки 18,3% и внутренний диаметр дистальных канальцев и их толщина стенки до 40,0%, по отношение к контрольной группы крыс.

Ключевые слова: крыса, почка, морфология, физиология, нефрон.

Введение. МС — это сложное патофизиологическое состояние, которое возникает в первую очередь из-за дисбаланса потребления калорий и расхода энергии, преобладания малоподвижного образа жизни над физической активностью и от других факторов, таких как качество и состав пищи [Kadowaki, T., et. all. 2022]. По мнению учёных динамический мониторинг компонентов метаболического синдрома имеет решающее значение для оценки и прогнозирования риска развития ХБП. Низкий уровень СКФ значительно связан с ухудшением функционального состояния у пожилых людей связанной с ХБП.

Заболевания почек, связанные с МС, могут быть вызваны различными компонентами МС, такими как связанный с ожирением остеопороз, связанная с гипертонией гипертоническая нефропатия, связанная с гипергликемией диабетическая нефропатия, связанная с гипергликемией, гиперлипидемия и

связанное с гиперлипидемией поражение почек, а также гиперурикемия и связанное с гиперурикемией заболевание почек [Liu, Y. F., et. all. 2023].

У крыс, получавших диету с высоким содержанием жиров и углеводов, наблюдалось усиление агрегации тромбоцитов, индуцированной коллагеном [Бирулина Ю.Г., и др. 2022]. Исследование показало, что мембрана эритроцитов крыс на специальной диете характеризовалась высокой проницаемостью для ионов калия.

Метаболический стресс, вызванный недостатком продукции глюкозы в тканях, привел к активации реакции на неправильное сворачивание белков, что вызвало обновление собственных каналов продукции [Reay, W. R., et. all. 2024]. Полученные данные свидетельствуют о том, что метаболический риск, связанный с метаболизмом натрия и калия, может быть использован в модели персонализированной медицины для более целенаправленного лечения гипертонии. Необходимы дальнейшие интервенционные исследования

Таким образом, современный образ жизни способствуют перегрузке метаболизма, что приводит к гипертонии, дислипидемии, гиперурикемии, инсулинорезистентности, диабету и ожирению. Метаболический синдром взаимосвязан с этими заболеваниями, и почки особенно подвержены нарушениям в этом контексте. Помимо прямого повреждения, вызванного, например, липотоксичностью и сдавливанием нервной ткани, поражение почек, связанное с метаболическим синдромом, также обусловлено диабетом или гипертонией. Некоторые из этих процессов, а также другие, также возникают при сердечно-сосудистых заболеваниях и хронической болезни почек. В результате патофизиологическое взаимодействие между метаболическими заболеваниями при высокожировой и высокоуглеводный диетой *(ВУВЖД)* и микроанатомией почек.

Цель исследования: изучить современное предстовление об метаболическом синдроме при ВУВЖД и его влияние на морфофизиологическое показатели почек при общегистологическими методами.

Материал и методы исследования. В исследовании использовано 28 половозрелых белых крыс линии Wistar**,** массой 180–220 г. Все животные методом случайных чисел были рандомизированы на две группы: Контрольная группа (n = 14) содержащихся в стандартных условиях вивария на обычном пищевом рационе со свободным доступом к воде; получала стандартный лабораторный рацион; Экспериментальная группа (n = 14) — в течение 12 недель получала ВУВЖД.

Исследование включало: Гистологического исследования органы с предварительно измеренной массой на 24 часа помещали в 10% раствор формалина с последующим приготовлением срезов и их окраской гематоксилин и

эозином. Изучены морфометрические параметры нефронов в норме и в эксперименте: измерено в *мкм,* ширина и высота почечных клубочков, толщина капсулы Шумлянского-Боумена, внутренний диаметр и толщина стенки проксимальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки дистальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки собирательных канальцев.

Числовые данные, приводимые в таблицах, представлены в виде: средняя арифметическая (*M*) ± стандартная ошибка среднего (*m*). Критерием статистической достоверности получаемых выводов мы считали общепринятую в медицине величину p <0,05.

Результаты и их обсуждение. У крыс молодого репродуктивного возраста *(6 месяцев)* корковое вещество темно-красного цвета, имеет зернистый вид и располагается под капсулой почки. Мозговое вещество имеет более светлую окраску и разделяется на пирамиды. Вершины пирамид заканчиваются сосочками, которые сообщаются с почечными чашечками. Строму – основу коркового и мозгового вещества почки – составляют тонкие прослойки соединительной ткани, в которой проходят сосуды и нервы. Паренхима почки представлена системой канальцев, которые, входят в состав нефрона. В нефроне структурно-функционально выделяют почечное тельце, в котором происходит фильтрация плазмы крови, и канальцы *(проксимальный, тонкий и дистальный),* в которых происходят процессы реабсорбции и секреции.

У крыс экспериментальной группы при МС ширина почечных клубочков составляла 65,0–90,0 мкм, высота — 57,0–80,0 мкм.

В эксперименте к 6-месячному возрасту почечном капсуле Шумлянского - Боумена, окружая сосудистый клубочек, который имеет чашеобразную форму. Капсула состоит из двух листков: париетального и висцерального. Наружный *(париетальный)* листок выстлан однослойным плоским эпителием. Эти клетки не участвуют в фильтрации крови. Они выполняют поддерживающую функцию. Внутренний *(висцеральный)* листок интимно срастается с мембраной капилляров сосудистого клубочка. Изнутри висцеральный листок капсулы Шумлянского - Боумена, выстлан клетками - подоцитами. Утолщение капсулы Шумлянского - Боумена, выявленное при морфологическом исследовании почки, является плохим прогностическим признаком в клиническом течении МС.

У крыс при МС визуализировали утолщения капсулы нефрона по сравнению с контрольной группой. Толщина капсулы Шумлянского–Боумена в этом возрасте животных варьировала в пределах 9,0–15,0 мкм. Микроскопическое строение почечных телец коркового слоя крыс при МС показаны на рисунке. 4.1.3.

У крыс в эксперименте при МС внутренний диаметр проксимальных извитых канальцев больше, чем в контрольной группе животных и составляет 18,0–26,0 мкм, при этом толщина их стенки находилась в диапазоне 7,0–11,0 мкм. Гипертрофия проксимальных канальцев может быть гомеостатическим ответом на уменьшение числа нефронов из-за метаболических нарушений на потерю нефронов или из-за питания высокоуглеводный и высокожировой диеты. Увеличение проксимальных канальцев в размере при МС, включает ранний период гиперплазии, предшествующий гипертрофии.

Дистальный извитой каналец, как и проксимальный называется извитым. Он находится дальше и ниже от начальной точки, почечного клубочка. В дистальном сегменте почечного канальца продолжает возврат полезных веществ из фильтрата в кровь по перитубулярным капиллярам, активно перекачивая мелкие молекулы из просвета канальца в интерстициальное пространство. Дистальный извитой каналец выстлан клетки которого обладают рядом характерных особенностей, каждая из которых влияет на внешний вид канальца

При МС внутренний диаметр дистальных извитых канальцев почек составило 20,0–25,0 мкм, а толщина стенки — 6,0–8,0 мкм.

При изучении мозгового вещества почки установлено, что внутренний диаметр собирательных канальцев варьировал от 15,0 до 23,0 мкм, тогда как толщина их стенки составляла 7,0–11,0 мкм. Микроскопическое строение собирательных канальцев почек крыс при МС на рисунке. 4.1.5.

В корковое вещество почки присутствуют почечные тельца и извитые канальцы нефронов. Почечные тельца имеют округлую форму. При большом увеличении микроскопа видны сосудистый клубочек, состоящий из кровеносных капилляров, полость капсулы в виде узкой щели вокруг клубочка и наружный листок капсулы, состоящий из плоских клеток.



Рис.4.1.3. Микроскопическое строение почечных телец коркового слоя крыс при МС; 1. почечное тельце. 2. проксимальный каналец. 3. собирательные канальцы. 4. капсула почек Окраска гематоксилином – эозином. Ок. 10 х об. 20.



Рис.4.1.5. Микроскопическое строение собирательных канальцев почек крыс при МС; 1. дистальные извитые канальцы. 2. собирательные канальцы. Окраска гематоксилином – эозином. Ок. 10 х об. 40.

таблица 4.1

Морфометрические параметры нефронов почек крыс при метаболическом синдроме

группа животных параметры (*мкм*)	**контрольная**	**метаболическим синдромом**
ширина почечных клубочков	63,5±1,80	77,2±2,05
высота почечных клубочков	57,2±1,89	69,1±1,89
толщина капсулы Шумлянского-Боумена	10,1±0,49	11,4±0,49
внутренний диаметр проксимальных канальцев	18,3±0,57	21,2±0,66
толщина стенки проксимальных канальцев	6,4±0,25	8,3±0,33

внутренний диаметр дистальных канальцев	20,5±0,49	22,1±0,41
толщина стенки дистальных канальцев	5,9±0,25	7,1±0,16
внутренний диаметр собирательных канальцев	16,4±0,74	19,1±0,66
толщина стенки собирательных канальцев	7,9±0,33	9,1±0,33

Таким образом, изучение показало, что, у 6 месячных крыс морфофункциональные особенности строения нефронов почек при МС морфометрические параметры нефронов почек крыс ширина и высота почечных клубочков увеличивается до 24,0%, толщина капсулы Шумлянского - Боумена до 35,0%, внутренний диаметр проксимальных канальцев и их толщина стенки до 25,6%, внутренний диаметр дистальных канальцев и их толщина стенки до 40,0%, внутренний диаметр собирательных канальцев и их толщина стенки до 18,3% по отношение к контрольной группы крыс.

Список литературы

1. Kadowaki, T., Maegawa, H., Watada, H., Yabe, D., Node, K., Murohara, T., & Wada, J. (2022). Interconnection between cardiovascular, renal and metabolic disorders: A narrative review with a focus on Japan. Diabetes, obesity & metabolism, 24(12), 2283–2296.
2. Liu, Y. F., Wang, H. H., Geng, Y. H., Han, L., Tu, S. H., & Wang, H. (2023). Advances of berberine against metabolic syndrome-associated kidney disease: Regarding effect and mechanism. *Frontiers in pharmacology*, *14*, 1112088. 119–136
3. Reay, W. R., Clarke, E., Eslick, S., Riveros, C., Holliday, E. G., McEvoy, M. A., Peel, R., Hancock, S., Scott, R. J., Attia, J. R., Collins, C. E., & Cairns, M. J. (2024). Using Genetics to Inform Interventions Related to Sodium and Potassium in Hypertension. Circulation, 149(13), 1019–1032.
4. Бирулина Ю. Г., Воронкова О. В., Иванов В. В., Буйко Е. Е., Щербакова М. М., Чернышов Н. А., Мотлохова Е. А. Маркеры системного воспаления у крыс в модели диет-индуцированного метаболического синдрома./ Сибирский государственный медицинский университет, Томск, Россия. 2022. С. 21-59.

© Мамаражабова Бувзайнаб Абдуразаковна, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Мамаражабова Бувзайнаб Абдуразаковна, Илясов Азиз Саитмуродович

MUSTAQIL IZLANISH ASOSIDA BOʻLAJAK BOSHLANGʻICH SINF OʻQITUVCHILARIDA GRAMMATIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Shopulatova Nasiba Umirovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dots.v.b., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqil izlanish asosida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil etilgan. Tadqiqotda jahon ta'lim tizimlari tajribasi hamda xalqaro yondashuvlar asosida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mustaqil bilim olish faoliyatining mohiyati, uning aqliy va ijodiy rivojlanish bilan uzviy bogʻliqligi ilmiy asosda izohlangan. Maqolada boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va refleksiv faoliyatning oʻrni asoslab berilgan. Psixologik va pedagogik qarashlar asosida bilimlarni oʻzlashtirish, qayta ishlash va amaliyotda qoʻllash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, grammatik bilimlarni oʻrgatishda qiziqarli va samarali metodlardan foydalanish, talabalarda mustaqil izlanuvchanlik ehtiyojini shakllantirish muhim omil sifatida koʻrsatib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar:mustaqil izlanish, bilim olish faoliyati, grammatik kompetensiya, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari, kasbiy tayyorgarlik, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat, refleksiv yondashuv, didaktik metodlar, nutqiy kompetensiya, ta'lim samaradorligi, aqliy faoliyat, pedagogik kompetentlik

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ НЕЗАВИСИМОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация.В исследовании освещены вопросы формирования профессиональной компетентности педагогов на основе опыта мировых систем образования и международных подходов. Также научно обоснована сущность самостоятельной познавательной деятельности, ее неразрывная связь с умственным и творческим развитиемоснове психологических и педагогических взглядов проанализированы механизмы усвоения, переработки и применения знаний на практике. Также было отмечено, что важным фактором является использование интересных и эффективных методов обучения грамматике и формирование у студентов потребности в самостоятельном поиске.компетенций у

будущих учителей начальных классов. На основе психологических и педагогических взглядов проанализированы механизмы усвоения, переработки и применения знаний на практике. Также было отмечено, что важным фактором является использование интересных и эффективных методов обучения грамматике и формирование у студентов потребности в самостоятельном поиске.

Ключевые слова: самостоятельный поиск, познавательная деятельность, грамматическая компетентность, будущие учителя начальных классов, профессиональная подготовка, самостоятельное мышление, творческая деятельность, рефлексивный подход, дидактические методы, речевая компетентность, эффективность обучения, умственная деятельность, педагогическая компетентность

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF GRAMMATICAL COMPETENCIES AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON INDEPENDENT RESEARCH

Annotation. The study highlights the issues of the formation of professional competence of teachers based on the experience of global education systems and international approaches. The essence of independent cognitive activity is also scientifically substantiated, its inseparable connection with the mental and creative development of new psychological and pedagogical views, the mechanisms of assimilation, processing and application of knowledge in practice are analyzed. It was also noted that an important factor is the use of interesting and effective grammar teaching methods and the formation of students' need for independent search.competencies of future primary school teachers. Based on psychological and pedagogical views, the mechanisms of assimilation, processing and application of knowledge in practice are analyzed. It was also noted that an important factor is the use of interesting and effective grammar teaching methods and the formation of students' need for independent search.

Keywords: independent search, cognitive activity, grammatical competence, future primary school teachers, professional training, independent thinking, creative activity, reflexive approach, didactic methods, speech competence, learning effectiveness, mental activity, pedagogical competence

Jahon ta'lim muassasalarida mustaqil izlanish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning kreativ moduli mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. AQSH, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Angliya va Germaniyada turli soha mutaxassislarining tilshunoslikda o'z kasbiy sohalarida erkin muloqot yurita olishlari, tilni o'qitishni kasbiy kompetensiyalar orqali rivojlantirish, o'quv dasturlari uyg'unligini shakllantirish, yirik amaliy loyihalarni

amaliyotga tatbiq etish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.YUNESCO tomonidan qabul qilingan deklaratsiyada pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash va ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, global miqyosda taʼlim tizimlarining sifat-samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan boʻlib, pedagoglarning kompetensiyalarini aniqlash, taʼlimning xalqaro miqyosda sifat-samaradorligini oshirish va rivojlantirishga qaratilgan.[1]

Respublikamizda soʻnggi yillarda axborot muhitini keng joriy qilish, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida erkin va mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik kabi sifatlarni rivojlantirish, oʻzbek tilini oʻzlashtirgan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishga qaratilgan meʼyoriy hujjatlar yaratilmoqda. “Oʻzbek tili taʼlimini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy anʼana, qadriyatlarga sadoqat, ulugʻ ajdodlarimizning boy maʼnaviy merosidan gʻururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash”[2] ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, grammatik savodxonlikni bilish darajasini oshirish asosida oʻzbek tilini oʻrgatishni takomillashtirish shart-sharoitlari kuchaytirildi.

Taʼlim tizimida ona tili taʼlimining asosiy maqsadi har bir fikrni ogʻzaki va yozma ravishda toʻgʻri va ravon, izchil bayon eta oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil, mantiqiy va ijodiy ravishda fikrlay oladigan, nutqiy malakalari rivojlangan oʻquvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa boshlangʻich sinf oʻqituvchilari zimmasiga ulkan masʼuliyat yuklaydi. Buning uchun boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari nutqiy va grammatik kompetensiyalarga ega boʻlmogʻi lozim.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida grammatik kompetensiya rivoji mantiqiy fikrlash, keng dunyoqarash va chuqur ijodiy mushohadaning uygʻun rivojlanishiga ham har jihatdan aloqadordir. Psixolog L.S.Vigotskiy fikricha, “aynan rivojlangan ijodiy tasavvur ijodning asosini tashkil etuvchi yangi obrazlarni bunyod etadi”[4]. Grammatik kompetensiyalar rivojlanishi boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilaridagi kreativlik, kritiklik sifatlarini tizimli, izchil holda rivojlantirish usullarini toʻgʻri va maqsadli qoʻllash malakasini taqozo etadi.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining intellektual malakasiga mos keladigan bilimlarni mustaqil bilim olish qobiliyati bilan aqliy qobiliyati bir-biri bilan uzviy bogʻliq. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining bilimlarini, mustaqil bilim olish qobiliyatini aqliy mehnat malakalari yoki oʻquv malakalari deb ham atash mumkin. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻquv malakalari oʻquv materiallari bilan mustaqil ishlash jarayonida hosil boʻladi. Boshqacha aytganda, oʻquv malakalari oʻquv materiallarini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarini ajratish, yaʼni oʻzlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bogʻlash, oʻquv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishda egallanadi. Shunday qilib, oʻquv malakalari boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining taʼlim

jarayonidagi barcha o'quv-bilish faoliyatlari bilan bog'liqdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi o'z kasbiy pedagogik malakasini oshirish, kasbiy faoliyatida yuqori yutuqlarga erishishdan iborat.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifa bo'lajak o'qituvchilarni passiv iste'molchilardan faol yaratuvchiga aylantirish, muammoni shakllantirish va uni hal qilish usullarini tahlil qilish, maqbul natijalarni topish va uning to'g'riligini isbotlashga qodir malakali pedagog kadrlarni yetishtirib chiqarishdir. Ta'limda shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini passiv iste'molchilardan faol ijodkorlikka yetkazish, muammolarni shakllantirishni hamda ularni hal etish usullarini tahlil qilish, maqbul natijalarni topish va ularning to'g'riligini isbotlashni bilishlari kerak. Haqiqiy ta'lim har doim o'z-o'zini tarbiyalashdir, bu muayyan yoshdan boshlab, insonning e'tiqodi va doimiy mashqlari asosida amalga oshirilishi mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari agar mustaqil izlanmasa, bu sohani chuqur egallay olmaydi. Kitoblar, darsliklar bir vosita, xolos. Sohani faqat kitob yoki o'qituvchidan o'rganib bo'lmaydi. Sohadagi yechimlarni qidirish ustida mustaqil izlanish talab etiladi. [3;14b.].

Ma'lumki, grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishda nafaqat, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini muayyan fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo'lajak mutaxassis sifatida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma'lum ma'noda kasbiy professionallik masalasi ham o'z tasdig'ini topmog'i lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining grammatik bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tartibga solishdan uning mustaqil ijodiy yo'lga qo'yilishigacha bo'lgan uzluksiz-izchil ko'tarilishni ta'minlaydigan muayyan bosqichma-bosqich ish talab etiladi [1; 82b.].

Mustaqil fikrlashga, mustaqil izlanuvchanlik va ijodiy faoliyatga o'rgatish jarayoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil fikrlashga oid muammolar bilan ko'pgina psixolog olimlar, xususan, M.V.Gamezo, I.A.Domashenko, N.F.Talizina va boshqalar tadqiqot olib borganlar [1; 75b.].

Mustaqil izlanuvchanlikka bo'lgan ehtiyojni shakllantirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning yetuk, barkamol, o'z yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil izlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda, avvalo, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga ehtiyojni shakllantirish lozim.

A.Maslou tadqiqotiga koʻra, inson ehtiyojlari piramidasida (1-rasm) ushbu masalaga ijodiy yondashilganligini koʻrishimiz mumkin [5; 56b.]. Ushbu piramidada koʻrinib turibdiki, inson ehtiyojlari yuqorilagan sari u komilikka intilib boradi (1-rasm). Grammatik savodxonlikka erishish uchun esa, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida faollik, mustaqillik, qiziquvchanlik xususiyatlari kamol topishi kerak.

1-rasm. Inson ehtiyojlari piramidasi (Maslou piramidasi)

I.A.Zimnyayaning fikricha, oʻzlashtirish jarayonidagi umumlashtirish uchta yoʻnalish – harakat qoidasi, dastur va harakat usulini umumlashtirish boʻyicha roʻy beradi. [6; 384b.]

Eng umumiy shaklda oʻzlashtirishni olingan bilimlarni qabul qilish, maʼnosini qayta ishlash, saqlab qolish va uni amaliy va nazariy muammolarni hal qilishni talab qiladigan yangi vaziyatlarda qoʻllash jarayoni sifatida taʼriflash mumkin. Masalan, ona tilining grammatik qoidasini egallash, talab qilingan fikrni ona tili aloqasining har qanday vaziyatlarida shu qoida orqali ifodalash qobiliyatini bildiradi. “Bilimlarni mustahkam oʻrganish jarayoni – bu oʻquv jarayonining markaziy qismidir. Bu psixologik jihatdan juda qiyin jarayon. Ular hech qanday tarzda xotiraga yoki xotiraning kuchiga borib taqalmaydi, unga materialni idrok etish, uni tushunish, yodlash va oʻzlashtirish, undan turli vaziyatlarda erkin foydalanish oʻz ichiga olib, undan turli vaziyatlarda erkin foydalanish, turlicha qoʻllash va shu kabilar mumkin”. [3;19b.].

M.A.Qurbonovaning taʼkidlashicha, tilni oʻqitishda oʻrganuvchilarning yosh va psixologik holatini hisobga olish juda muhimdir. [2; 87b.]. Ayniqsa, boʻlajak oʻqituvchilarga grammatik kompetensiyalarni oʻrgatishda bunga alohida eʼtibor qaratish talab etiladi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga ona tilini oʻrgatishda birinchi grammatik material taqdim etilmaydi. Baʼzida odamlar grammatikani tilning “qoidalari”, – deb tasvirlaydilar, ammo aslida hech qaysi tilning qoidalari yoʻq. Zero, dastavval odamlar tovushlar hosil qilib, ketidan soʻz, ibora hamda gaplar yasab tilni vujudga keltirilganlar. Biroq koʻplab manbalarda grammatika til strukturasini tashkil etuvchi qoidalar sifatida taʼriflangan. Qoidalarni oʻzlashtirishda boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari qiynaladi va shundan kelib chiqib, zerikadi. Qiziqarli holat shuki, til grammatikasi hatto kattalar uchun ham xuddi oʻzlashtirish qiyin sohadek tuyuladi. Muallif fikricha, aslida unday emas. Shunchaki grammatikani taqdim etish yoʻllarini soddalashtirish va, albatta, qiziqarli qilish lozimligi hammaga maʼlum. Grammatik qoidalar boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun zerikarli tuyilishi tabiiy. Ular shijoatga toʻla boʻlishi psixologiyada isbotlangan. Demak, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga taqdim etiladigan grammatik material eng avvalo qiziqarli va tushunarli hamda zavq bagʻishlaydigan boʻlishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..Половникова Н.А. О теоретических основах воспитания познавательной самостоятельности школьника в обучении. – Казань, 2000.

2. Qurbonova M.A. Ingliz tili o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida grammatika o‘rgatishning samarali yo‘llari // Молодой учёный. – Ch., 2016. – № 3.1 (107.1). – S. 87-90.

3. Utayeva I.B. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish .Пед фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси – Toshkent: 2022.-223b

4. Выготский Л.С. Воображение и его развитие в детском возрасте// Соб. соч.: В. 6т. Т2. – Москва: 2005. – 436с

5.Занков Л.В. Избранные педагогические труды. – М.: Новая школа, 1996. – 432 с.

6. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2007.

1. UNESCO and the Competency Framework for Teachers **/** Y**UNESCO O‘qituvchilar uchun Kompetensiya Ramkasi** deklaratsiyasi. Y**UNESCO Ta’lim bo‘yicha Jahon Konferensiyasi** 2017y. **30-noyabr** Koreya Respublikasi **Incheon shahri** ↑

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son farmoni 1-ilovasi “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi ”. ↑

© , 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

KOGNITIV PSIXOLOGIYA VA SUN'IY INTELLEKT: INSON TAFAKKURI VA MASHINA ALGORITMLARI O‘RTASIDAGI O‘XSHASHLIKLAR

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi, Pedagogika-psixologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi: Shahriyorova Oynura Bobomurodovna

Ilmiy rahbar: Rahmatova Nasiba Sobirovna “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kognitiv psixologiya va sun’iy intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlik, inson tafakkuri hamda mashina algoritmlarining o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif inson miyasi tomonidan amalga oshiriladigan idrok, xotira, qaror qabul qilish, muammoni hal etish kabi jarayonlarning sun’iy intellekt tizimlarida modellashtirilishini yoritadi. Shuningdek, sun’iy intellektning ta’lim, psixologiya va kundalik hayotdagi amaliy ahamiyati ham ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Kognitiv psixologiya, sun’iy intellekt, tafakkur, algoritm, xotira, idrok, neyron tarmoqlar, qaror qabul qilish, mashinaviy o‘rganish, inson miyasi.

КОГНИТИВНАЯ ПСИХОЛОГИЯ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: СХОДСТВА МЕЖДУ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ МЫШЛЕНИЕМ И МАШИННЫМИ АЛГОРИТМАМИ.

Инновационный университет Навои, **кафедра «Социально-гуманитарные науки», студентка 3 курса специальности «Педагогика-психология»: Шахриёрова Ойнура Бобомуродовна**

Научный руководитель: Рахматова Насиба Собировна, доцент кафедры «Социально-гуманитарные науки», доктор философии (PhD) в области психологии

Аннотация:

В данной статье анализируется взаимосвязь когнитивной психологии и искусственного интеллекта, а также сходства и различия между человеческим мышлением и машинными алгоритмами. Рассматриваются процессы восприятия, памяти, принятия решений и решения проблем, которые моделируются в системах искусственного интеллекта. Также раскрывается практическое значение искусственного интеллекта в образовании, психологии и повседневной жизни.

Ключевые слова: Когнитивная психология, искусственный интеллект, мышление, алгоритм, память, восприятие, нейронные сети, принятие решений, машинное обучение, человеческий мозг.

COGNITIVE PSYCHOLOGY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: SIMILARITIES BETWEEN HUMAN THINKING AND MACHINE ALGORITHMS

Navoi Innovative University, Department of "Social and Human Sciences", 3rd-year student majoring in Pedagogy and Psychology: Shakhriyorova Oynura Bobomurodovna

Scientific supervisor: Rakhmatova Nasiba Sobirovna, Associate Professor of the Department of "Social and Human Sciences", Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Abstract:

This article analyzes the relationship between cognitive psychology and artificial intelligence, as well as the similarities and differences between human thinking and machine algorithms. The processes of perception, memory, decision-making and problem-solving carried out by the human brain are modeled in artificial intelligence systems. The practical importance of artificial intelligence in education, psychology and everyday life is also highlighted.

Keywords: Cognitive psychology, artificial intelligence, thinking, algorithm, memory, perception, neural networks, decision-making, machine learning, human brain.

Kirish

XXI asrda ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida sun'iy intellekt inson hayotining barcha sohalariga kirib bormoqda. Ayniqsa, kognitiv psixologiya va sun'iy intellekt oʻrtasidagi bogʻliqlik bugungi kunda muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Kognitiv psixologiya insonning idrok etish, eslab qolish, tafakkur yuritish, qaror qabul qilish kabi aqliy jarayonlarini oʻrganadi. Sun'iy intellekt esa ana shu jarayonlarni mashinalarda modellashtirishga qaratilgan.

Mazkur maqolada inson tafakkuri va mashina algoritmlari oʻrtasidagi oʻxshashliklar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari

Mazkur tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslanadi:

• Axborotni qayta ishlash nazariyasi – inson miyasi ma’lumotni qabul qiladi, saqlaydi va qayta ishlaydi.
• Kognitiv yondashuv – tafakkur va idrok jarayonlari markaziy o‘rinda turadi.
• Kompyuter modeli nazariyasi – inson miyasi kompyuter tizimiga qiyos qilinadi.
• Neyropsixologik yondashuv – miya faoliyati va tafakkur bog‘liqligi o‘rganiladi.

Inson tafakkuri va algoritmlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, inson tafakkuri va sun’iy intellekt algoritmlari quyidagi jihatlarda o‘xshashdir:

1. Ma’lumotni qabul qilish va qayta ishlash. Inson sezgi organlari orqali axborot qabul qiladi. Sun’iy intellekt esa kamera, sensor va matnli ma’lumotlar orqali axborot oladi. Har ikki tizim ma’lumotni tahlil qiladi va natija chiqaradi.

2. Xotira tizimi. Insonda qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira mavjud. Sun’iy intellektda esa operativ xotira va ma’lumotlar bazasi shu vazifani bajaradi.

3. O‘rganish qobiliyati. Inson tajriba asosida o‘rganadi. Mashinalar esa machine learning texnologiyasi yordamida yangi ma’lumotlardan o‘rganadi.

4. Qaror qabul qilish. Inson muqobil variantlarni solishtirib qaror qabul qiladi. Algoritmlar ham ehtimollik va hisob-kitob asosida eng maqbul variantni tanlaydi.

Kognitiv jarayonlarning AI tizimlarida aks etishi

Idrok-Kompyuter ko‘rish tizimlari tasvirlarni aniqlaydi. Bu insonning vizual idrokiga o‘xshaydi.

Tilni tushunish-Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlari inson nutqini tushunadi va javob qaytaradi.

Muammo yechish-Sun’iy intellekt murakkab masalalarni bosqichma-bosqich hal qiladi. Bu inson tafakkuridagi mantiqiy fikrlashga o‘xshaydi.

Moslashuvchanlik-Inson yangi sharoitga moslashadi. Zamonaviy AI tizimlari ham yangi ma’lumot asosida faoliyatini yangilaydi.

Psixologik nuqtai nazardan farqli jihatlar

Shunga qaramay, inson tafakkuri va mashina algoritmlari o‘rtasida muhim farqlar mavjud:

• Insonda hissiyot va emotsiyalar mavjud, mashinada esa yo‘q.
• Inson ijodkorlik qobiliyatiga ega.

• Inson ongli ravishda maqsad qo'yadi.
• Mashina faqat berilgan dastur va ma'lumotlar asosida ishlaydi.

D. Goleman ta'kidlaganidek, emotsional intellekt inson tafakkurining muhim qismidir. Bu jihat hozircha AI tizimlarida to'liq shakllanmagan.

Ta'lim va psixologiyada amaliy ahamiyati

Kognitiv psixologiya va sun'iy intellekt integratsiyasi quyidagi sohalarda foydalidir:

1. Ta'limda – individual o'qitish tizimlarini yaratadi.
2. Psixologiyada – diagnostika va maslahat jarayonini yengillashtiradi.
3. Tibbiyotda – nevrologik kasalliklarni aniqlashda yordam beradi.
4. Kundalik hayotda – virtual yordamchilar va aqlli tizimlar orqali qulaylik yaratadi.

Xulosa:

Kognitiv psixologiya va sun'iy intellekt o'rtasida chuqur ilmiy bog'liqlik mavjud. Inson tafakkuridagi xotira, idrok, o'rganish va qaror qabul qilish kabi jarayonlar sun'iy intellekt algoritmlarida modellashtirilmoqda. Biroq insonning hissiyoti, ongli fikrlashi va ijodkorligi hali ham mashinalardan ustun turadi.

Kelajakda kognitiv psixologiya yutuqlari asosida yanada mukammal va insonparvar sun'iy intellekt tizimlari yaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Neisser, U. (1967).** *Cognitive Psychology.*
2. **Anderson, J. R. (1990).** *Cognitive Psychology and Its Implications.*
3. **Russell, S., & Norvig, P. (2021).** *Artificial Intelligence: A Modern Approach.*
4. **Goleman, D. (1995).** *Emotional Intelligence.*
5. **Gardner, H. (1983).** *Frames of Mind.*
6. **Kahneman, D. (2011).** *Thinking, Fast and Slow.*
7. **Turing, A. (1950).** Computing Machinery and Intelligence.

© Shahriyorova Oynura Bobomurodovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Shahriyorova Oynura Bobomurodovna

МОРФОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ СЕЛЕЗЕНКИ КРЫС В ПЕРИОДЕ ПОЗДНЕГО ПОСТНАТАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Ильясов Азиз Саидмуратович – д.б.н., профессор Навоийский Инновационный Университет (Навои, Узбекистан)

Раджабов Ахтам Болтаевич - доктор биологических наук, заведующий кафедрой анатомии и клинической анатомии Бухарского государственного медицинского института, г. Бухара, Республика Узбекистан;

Бозоров Илхомжон Холмуродович соискатель Бухарского государственного медицинского института, врач – реаниматолог. г. Бухара, Республика Узбекистан.

Аннотация Исследовано крыса трех возрастных периодов позднего постнатального онтогенеза: 3, 6, и 12 - месячного с применением гистологических и морфометрических методов с последующим статистическим анализом установлено, что в различных возрастных периодах происходят сваи особенности морфологических перестроек селезенки животных. Белая пульпа селезенки животных в различные периоды постнатального онтогенеза представлена хорошо выраженными лимфатическими узелками и периартериальными лимфатическими влагалищами, у животных репродуктивного периода среди лимфатических узелков преобладают узелки с герминативными центрами, у крыс периода выраженных старческих изменений превалируют инволютивные изменения. Значительные изменения структуры белой пульпы селезенки крыс периода выраженных старческих изменений протекают на фоне инволютивных процессов.

Ключевые слова: крысы, селезенка, гистология, морфометрия, лимфоидный коэффициент, фолликулярный коэффициент.

Введение. Несмотря на наличие многочисленных современных исследований, посвященных строению селезенки под влиянием внешних факторов [Драндрова Е.Г., и др. 2015]. Интердигитальные дендритные клетки находятся в периартериолярных лимфоидных влагалищах и участвуют в дифференцировке Т-лимфоцитов [Стручко Г.Ю., и др. 2014]. Дендритные клетки в случае антигенной стимуляции они становятся зрелыми и мигрируют в Т-зависимые зоны белой пульпы, становясь интердигитальными дендритными клетками [Драндрова Е.Г., и др. 2013]. По мнению ученых, важнейшую роль в обеспечении адекватного иммунного ответа на различные антигены играет селезенка, так как именно в ней происходят окончательная антигензависимая дифференцировка В и Т-

лимфоцитов, превращение В-лимфоцитов в плазмоциты и накопление клеток-памяти.

Вопросы морфофункциональных изменений лимфоидных образований селезенки в возрастном аспекте остаются недостаточно изученными. Поэтому углубленное изучение селезенки потомства крыс представляется нам весьма актуальным.

Материал и методы исследования. Материалом для исследования послужили 42 белых беспородных крыс трех возрастных периодов: 3, 6, и 12-месячного которые содержались в стандартных условиях вивария. После вскрытия брюшного полости крыс фрагменты селезенки фиксировали в жидкости Буэна, парафиновые срезы толщиной 4–6 мкм окрашивали гематоксилин-эозином.

На фронтальных срезах селезенки, произведенных на уровне ее ворот, определяли относительную площадь белой и красной пульпы (в%), диаметры лимфатических узелков *(в мкм),* герминативных центров *(в мкм),* ширину мантийной, краевой и периартериальной зон лимфатических узелков *(в мкм).* Окраска гематоксилином и эозином для оценки общегистологической картины и Оценка морфологических индексов – для характеристики. Морфофункционального состояния структур селезенки изучено по В.П. Волкову; *(2015).* Стромально-паренхиматозное отношение *(СПО)* – характеризует отношение стромы и функционально иммуноактивного компартмента паренхимы селезёнки. Рассчитывается по формуле: СПО=($S_{СТ}/S_{БП}$) ×10, где $S_{СТ}$ – площадь стромы, $S_{БП}$ – площадь белой пульпы, 10 - произвольный коэффициент, необходимый для получения удобных конечных не слишком больших цифровых величин. Фолликулярный коэффициент *(ФК)* – показывает общий объем функционирующих лимфоидных структур селезенки: ФК=($S_{БП}×D_{ЛУ}$)/200, где $D_{ЛУ}$ – диаметр лимфоидных узелков, 200 – произвольный коэффициент. Герминативно-фолликулярный индекс *(ГФИ)* – показывает степень развития герминативных центров и выраженность гуморального иммунного ответа: ГФИ=($D_{ГЦ}/D_{ЛУ}$) ×100, где $D_{ГЦ}$ – диаметр герминативных центров. Лимфоидный коэффициент *(ЛК)* – для оценки соотношения В- и Т- зависимых зон: ЛК=$D_{ЛУ}/L_{ПАЛМ}$, где $L_{ПАЛМ}$ – ширина периартериальных лимфоидных муфт. Полученные цифровые данные выражали в виде средней арифметической со средней ошибкой M±m.

Достоверность результатов оценивали по t-критерию Стьюдента.

Результаты и их обсуждение. Изучение гистологических препаратов селезенки крыс контрольных групп позволило установить определенные взаимоотношения ее структурно-функциональных зон. Селезенка животных имеет

хорошо выраженную соединительнотканную капсулу и трабекулы, содержащие кровеносные сосуды. Паренхима органа представлена красной и белой пульпой. В состав красной пульпы входят синусоидные капилляры и селезеночные тяжи. Белая пульпа состоит из многочисленных лимфатических узелков и периартериальных лимфатических влагалищ.

В селезенке крыс контрольной группы хорошо визуализируются структуры белой пульпы *(лимфоидные узелки, периартериолярные лимфоидные муфты, маргинальная зона)* и красная пульпа. В периартериолярных лимфоидных влагалищах обнаруживаются Т-лимфоциты *(Т-зона).*

Лимфоидные узелки, занятые В-лимфоцитами, находящимися на разных этапах дифференцировки *(В-зона),* чаще имеют правильную овальную или округлую форму, их число с увеличением возраста крысят несколько уменьшается. Центры размножения *(герминативные центры),* образованные интенсивно пролиферирующими крупными В-лимфоцитами, выявляются лишь во вторичных лимфоидных узелках на протяжении всего периода наблюдения.

В этой зоне располагаются Т- и В-лимфоциты, макрофаги, ретикулярные клетки, моноциты и эозинофилы. Здесь происходит кооперация и взаимодействие этих клеток, активация В-лимфоцитов и их дифференцировка в плазмоциты. Показано, что именно маргинальная зона участвует в иммунном ответе, являясь местом захвата инородных включений и иммунных комплексов из крови. Уточнено, что число В-лимфоцитов в этой зоне в 2–3 раза больше, чем в лимфоидных узелках. Увеличение ширины маргинальной зоны возможно как за счет Т- так и за счет В-лимфоцитов. Также имеются сведения об усилении миграции незрелых лимфоцитов тимуса в селезенку при развитии опухоли [Драндрова Е.Г., и др 2015], по данным авторов количество клеток белой пульпы селезенки, экспрессирующих CD79α *(В- лимфоцитов),* у 3-месячных крыс опытной группы сокращается на 27,0%, у 12-месячных на 35,0%, что может привести к уменьшению антителообразования и снижению интенсивности гуморального иммунного ответа.

У крыс периода выраженных старческих изменений контрольной группы селезенка визуально сохраняет типичную структуру, однако появляются морфологические признаки, которые можно отнести к разряду инволютивных. Так, наблюдается значительное уменьшение относительной площади белой пульпы по сравнению с данными животных предыдущих возрастных периодов. Выявленные структурные изменения селезенки животных периода полового созревания свидетельствуют о гипоплазии белой пульпы, которую некоторые авторы связывают с учащением случаев апоптоза и уменьшением уровня пролиферации клеток в ответ на воздействие неблагоприятного фактора [Михайлова М.Н., и др. 2012].

Морфометрический анализ селезенки у крыс всех групп исследования позволил выявить гипотрофические процессы в белой пульпе селезенки. Наиболее выраженные изменения зафиксированы к 3 месяцам жизни крыс.

Таким образом, белая пульпа селезенки у животных в различные периоды постнатального онтогенеза представлена хорошо выраженными лимфатическими узелками и периартериальными лимфатическими влагалищами, у животных репродуктивного периода среди лимфатических узелков преобладают узелки с герминативными центрами, у крыс периода выраженных старческих изменений превалируют инволютивные изменения. Значительные изменения структуры белой пульпы селезенки крыс периода выраженных старческих изменений протекают на фоне инволютивных процессов.

Список литературы

1. Драндрова Е.Г., Стручко Г.Ю., Меркулова Л.М. Иммуногистохимические исследования клеточного состава тимуса при канцерогенезе в условиях врожденного иммунодефицита. Современные проблемы науки и образования. 2015; 3.URL: http://www.science-education.ru/123- 19825.
2. Стручко Г.Ю., Меркулова Л. М., Кострова О.Ю. Морфофункциональные изменения селезенки и тимуса крысят, родившихся от спленэктомированных крыс-самок. Успехи современного естествознания. 2014; 9: 70–72.
3. Драндрова Е.Г., Стручко Г.Ю., Михайлова М.Н. Влияние иммунодефицитной беременности на противоопухолевый иммунитет потомства // Успехи современного естествознания. 2013. № 9. С. 84–86.
4. Михайлова М.Н., Стручко Г.Ю., Меркулова Л.М., Кострова О.Ю., Рузавина О.М. Морфофункциональное состояние селезенки потомства спленэктомированных крыс-самок // Цитоморфометрия в медицине и биологии: фундаментальные и прикладные аспекты: материалы V Всерос. науч. практ. конф. М., 2012. С. 96–97.

© , 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

QASHQADARYO VILOYATIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARINI IJARAGA BERISH HOLATI

Muminov Bekzod Baxtiyor o‘g‘li,

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining mustaqil tadqiqotchisi,

Tel: +998 50 756 52 55

e-mail: bekzodmuminov@gmail.com.

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyat joylashgan madaniy meros obyektlarini ijaraga berish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, bo‘sh turgan va foydalanish mumkin bo‘lgan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarning ro‘yxati shakllantirish, shuningdek, ularni xorijiy va mahalliy tadbirkorlarga investitsiya majburiyatlarini yuklagan holda, davlat-xususiy sheriklik shaklida va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish hamda bugungi kunda obyektlardan asosan sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta’mirlash ustaxonasi, radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi, kitob do‘koni, chakana savdo, tikuvchilik sanoati, savdo xizmatlarini ko‘rsatish kabi faoliyat turlarida keng foydalanilayotgani yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Ijara, turizm, Qashqadaryo viloyati, madaniy meros obyektlari, kitob do‘koni, chakana savdo, tikuvchilik sanoati, savdo xizmatlari.*

Аннотация: В статье рассматривается разработка предложений по аренде объектов культурного наследия, расположенных в Кашкадарьинской области, формирование перечня вакантных и пригодных для использования объектов материального культурного наследия, а также их прямая аренда в форме государственно-частного партнерства с наложением инвестиционных обязательств на иностранных и местных предпринимателей, и тот факт, что в настоящее время эти объекты широко используются в таких видах деятельности, как парикмахерская, фотосалон, студия моды, обувная мастерская, радио-, сотовая и пейджерная связь, книжный магазин, розничная торговля, швейное производство и сфера услуг.

Ключевые слова: *Аренда, туризм, Кашкадарьинская область, объекты культурного наследия, книжный магазин, розничная торговля, швейное производство, сфера услуг.*

Abstract: The article discusses the development of proposals for the lease of cultural heritage objects located in the Kashkadarya region, the formation of a list of vacant and usable real estate objects of tangible cultural heritage, as well as their direct lease in the form of public-private partnerships with the imposition of investment obligations on foreign and local entrepreneurs, and the fact that today the objects are widely used mainly in such types of activities as a hairdresser, photo salon, fashion studio, shoe repair workshop, radio, cellular and pager communication, bookstore, retail trade, sewing industry, and trade services.

Keywords: *Lease, tourism, Kashkadarya region, cultural heritage objects, bookstore, retail trade, sewing industry, trade services.*

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka yilarida har bir soha singari madaniy meros sohasiga ham e’tibor qaratib kelmoqda. Chunonchi, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 102-son qarori[6] davlat mulkini ijaraga berishni yanada tartibga solish maqsadida qabul qilingan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 17-martdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish va zarur holatda saqlash boʻyicha investitsiya majburiyatlarini olgan holda ijaraga berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 53-son qarori[5] hamda 2019-yil 18-oktabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 881-sonli qaror[3]larining qabul qilinishi bunga yaqqol misoldir.

Yuqorida keltirilgan qarorlarning maqsadi moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni saqlash, ijaraga berish sohasidagi investitsiyalar va byudjetdan tashqari moliyalashtirish hajmi ortib borishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ushbu obyektlardan madaniy oʻrganish va turizm maqsadlarida kengroq, samarali foydalanishni ta’minlash, shu asosda oʻzaro bogʻliq infratuzilma va xizmatlar sohasi obyektlari sonini koʻpaytirish, qoʻshimcha ish oʻrinlarini yaratish va barcha darajalardagi byudjetlarni koʻpaytirishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijaraga berish mumkin boʻlgan 2 mindan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-f-sonli farmoyishiga asosan respublikadagi muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarning 189 tasi “Vaqf” xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish asosida biriktirildi. Shundan Qashqadaryo viloyatida 16 ta madaniy meros obyekti tekin foydalanish asosida “Vaqf” xayriya jamoat fondiga biriktirilgan.

Qashqadaryo viloyati madaniy meros yodgorliklari koʻpligi bilan ajralib turadi. Viloyatda eng yirik va turizm obyektlar quyidagilar hisoblanadi:

Qarshi shahri: Koʻkgumbaz va Odina masjidlari, Abu Ubayda ibn Jarroh majmuasi;

Shahrisabz shahri: Oqsaroy, Gumbazi Sayyidon, Dorus Saodat majmualari;

Qamashi tumani: Langar ota ziyoratgohi;

Koson tumanidagi Yerqo‘rg‘on;

Chiroqchi tumanidagi Siypantosh yodgorliklari.

Turizm obyektlariga kuniga minglab odam kirgani bilan, tushumlar raqamlashmagani uchun tizim shaffof emasligi barchamizga malum. Vaholanki, ochiq tizim qilib, tushumni o‘zidan ta’mirlash ishlarini bajarish mumkin. Shu munosabat bilan barcha obyektlarda kirib-chiqishni avtomatik hisobga oladigan moslama o‘rnatish zarurligi ta’kidlanib kelinmoqda[1].

Qashqadaryo viloyat Madaniy meros boshqarmasi tomonidan madaniy meros obyektlarini ijaraga berish bo‘yicha viloyatdagi bo‘sh turgan va foydalanish mumkin bo‘lgan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarning ro‘yxati shakllantirilgan. Shuningdek, ularni xorijiy va mahalliy tadbirkorlarga investitsiya majburiyatlarini yuklagan holda, davlat-xususiy sheriklik shaklida va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Har bir obyekt bo‘yicha ularning pasportlari 3 ta tilda (o‘zbek, ingliz, rus tillari) tayyorlangan.

Shuningdek, viloyatda bo‘sh turgan va foydalanish mumkin bo‘lgan “O‘zbek hammomi”ni va boshqa obyektlarni mahalliy tadbirkorga investitsiya majburiyatlarini yuklagan holda, davlat-xususiy sheriklik shaklida va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish bo‘yicha taklifi berilgan. 2020-yilda 13 ta madaniy meros obyektlari uchun 33 ta 3 tomonlama ijara shartnomasi asosida hunurmand va tadbirkorlik subyektlariga berilgan bo‘lib, yana 3 ta madaniy meros obyekti (“Abdulazizxon”, “Bekmir”, “Qilichboy” madrasalari) dan qo‘shimcha ijaraga berilgan.

2020-yil 1-iyun holatida Madaniy meros Qashqadaryo viloyati boshqarmasiga ko‘chmas mulk obyektlarini foydalanishdan topgan daromadlar jami 108 mln so‘m va turizm sohasidan jami 10,1 mln so‘mni tashkil etgan. Mablag‘larni sarflashga oid ma’lumotlar bazasi to‘liq yaratilgan bo‘lib, 2020-yil 1-aprel kuniga qadar Qashqadaryo viloyati Nazorat taftish boshqarmasi tomonidan barcha sohalar bo‘yicha nazorat taftish ishlari o‘tkazilgan va ma’lumotlar yuqori tashkilotlarga taqdim etilgan.

2020-yil 1-oktabr holatigacha Madaniy meros Qashqadaryo viloyati boshqarmasiga ko‘chmas mulk obyektlarini foydalanishdan topgan daromadlar jami 64 mln so‘m shundan turizm sohasidan jami 10,6 mln so‘mni tashkil etgan. Mablag‘larni sarflashga oid ma’lumotlar bazasi to‘liq yaratilgan bo‘lib, 2020-yil
20-oktabr kuniga qadar Qashqadaryo viloyati Nazorat taftish boshqarmasi tomonidan viloyat prokuraturasining 2020-yil 4-sentabrdagi 10.1/5-41239-20-sonli hamda viloyat

Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasining 2020-yil 7-sentabrdagi
10-18-515-sonli guvohnomasiga asosan barcha sohalar boʻyicha nazorat taftish ishlari oʻtkazilgan va maʼlumotlar yuqori tashkilotlarga taqdim etilgan.

Shuningdek, Madaniy meros agentligi maʼlumotlariga ko'ra respublikada joylashgan foydalanish uchun salohiyati mavjud obyektlar ijara asosida shartnoma qilinib, foydalanilib kelinmoqda. Xususan, 2021-yilda Qashqadaryo viloyatida joylashgan 55 ta obyektni ijaraga berish orqali qarib 40 mln soʻm, 2022-yilda 65 ta obyektni ijaraga berish orqali 130 mln so'm hamda 2023-yilda 61 ta obyektni ijaraga berish orqali 87 mln so'm miqdorida mablag' ishlab topilgan[2]. Obyektlar asosan savdo xizmatlarini koʻrsatish esdalik buyumlari, sovgʻalar, hunarmandchilik mahsulotlari va boshqalarda foydalanilgan.

2024-yilda viloyatda joylashgan madaniy meros yodgorliklaridan samarali foydalanish maqsadida 60 yaqin obyekt ijara shartnamasi orqali tadbirkorlarga berilgan. Jumladan, Obixona va minorasi, Mu'in an-Nasafiy yodgorlik majmuasi,

Langar ota maqbarasi, Murod Baxshi ota maqbarasi, Pandiron masjidi, Samarqand Darvozasi, Oq Saroy majmuasi, Dorut Tilovat majmuasi, Arslonbob maqbarasi, Jahongir maqbarasi, Mirzayor Xalifa maqbarasi, Rabot, Bekmir madrasasi, Abu Ubayda ibn al-Jarroh yodgorlik majmuasi, Abdulaziz madrasasi, Charmgar-I masjidi, Bekmir madrasasi, Koʻk Gumbaz masjidi va boshqalar[2].

2025-yilda respublika hududida joylashgan davlat mulki boʻlgan madaniy meros obyektlaridan 2019-yil 18-oktabrdagi 881-sonli qarori[3] talablari asosida
1057 ta ijara shartnomasi tuzilgan. Shundan:

Qoraqalpogʻiston Respublikasi – 2 ta;

Andijon viloyati- 35 ta;

Buxoro viloyati- 309 ta;

Jizzax viloyati- 2 ta;

Qashqadaryo viloyati- 61 ta;

Navoiy viloyati- 5 ta;

Namangan viloyati- 7 ta;

Samarqand viloyati- 130 ta;

Surxondaryo viloyati- 9 ta;

Sirdaryo viloyati- 3 ta;

Toshkent viloyati- 4 ta;

Farg‘ona viloyati- 34 ta;

Xorazm viloyati- 129 ta;

Toshkent shahar- 327 tani tashkil etgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida joylashgan ijaraga berilgan moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlari asosan madrasa, sardoba, masjidlardan iboratdir. Viloyatda 61 ta madaniy meros obyekti ijaraga berilib, qarib 265 mln so‘m mablag‘ ishlab topilgan. Obyektlardan asosan sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta’mirlash ustaxonasi, radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi, kitob do‘koni, chakana savdo, tikuvchilik sanoati, savdo xizmatlarini ko‘rsatish esdalik buyumlari, sovg‘alar, hunarmandchilik mahsulotlari va boshqalarda foydalanib kelinmoqda.

Ammo yaratib berilgan imkoniyatlarga qaramasdan viloyatda joylashgan madaniy meros obyektlaridan foydalanishda qonun buzilishlari mavjud. Xususan, viloyatda joylashgan jami – 19 ta arxeologiya merosi obyektlariga antenna machtalari o‘rnatilgan bo’lib, hech qanaqa ijara shartnomalarsiz foydalanilib kelinmoqda. Bular, Kitob tumanida 9 ta, Shahrisabz tumanida 4 ta, Yakkabog’ tumanida 2 ta hamda G’uzor, Koson, Qanashi, Kasbi tumanlarida 1 tadan arxeologiya yodgorliklarida o’rnatilgan. Aloqa antenna machtalari asosan 2018-2022-yilar davomida o‘rnatilgan.

Bundan tashqari, tekshiruvlar natijasida madaniy meros obyektlariga noqonuniy o‘rnatilgan 5 ta tashqi reklama bannerlari olib tashlangan. Ijara shartnomasi tuzmasdan madaniy meros obyektidan foydalanib kelayotgan 10 nafar tadbirkorning faoliyati qonuniylashtirilgan, 11 ta madaniy meros obyektlaridagi noqonuniy qurilmalar buzib tashlanishi ta’minlangan hamda 37 nafar shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortish maqsadida sudlarga 7 ta ariza kiritilgan[4].

Hozirgi kunda mamlakatimizda mavjud madaniy meros obyektlarining 60 foizdan ortig‘i arxeologiya yodgorliklaridir. Respublikamizda eng ko‘p arxeologiya obyektlari bor viloyat bu shubhasiz Qashqadaryo viloyati bo‘lib, 1 468 ta madaniy meros obyektining 1 178 tasi yoki 80 foizi arxeologiya yodgorligi hisoblanadi. Ammo arxeologiya qazishmalar o‘tkazilgan arxeologiya merosi obyektlarining deyarli hech qaysisi to‘liqligicha konservatsiya qilinmagan. Bu esa arxeologiya merosi obyektlarining holati yomonligicha qolishi va qisman yo‘qolishiga olib keladi. Xususan, 2024-yil dekabr holatida respublika bo‘yicha jami 945 ta arxeologiya obyekti qishloq xo‘jaligi yoki boshqa toifadagi yer maydonlarida joylashgan arxeologiya obyektlari aniqlangan. Jumladan,

Qashqadaryo viloyatida 11 ta arxeologiya yodgorligi qishloq xoʻjaligi yoki boshqa toifadagi yer maydonlarida joylashgan.

Shuningdek, qabristonlarga aylantirilgan arxeologiya merosi obyektlarida hali ham yangi qabrlarning paydo boʻlayotganligi ularga zarar yetkazilishiga olib kelmoqda. Respublika boʻyicha jaʼmi 561 ta arxeologiya obyekti hududidan qabriston sifatida foydalanib kelinmoqda. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 3 ta arxeologiya merosi obyektlaridan qabriston sifatida foydalanilmoqda.

T/r	**Viloyatlar**	**Qishloq xoʻjaligi toifadagi yer maydonlarida joylashgan obyektlari**	**Qabriston sifatida foydalanib kelinayotgan obyektlar**
	Andijon viloyati	71	60
	Buxoro viloyati	48	173
	Fargʻona viloyati	11	61
	Jizzax viloyati	1	16
	Namangan viloyati	55	54
	Navoiy viloyati	85	65
	Qashqadaryo viloyati	11	3
	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	10	15
	Samarqand viloyati	568	77
	Sirdaryo viloyati	4	11
	Surxondaryo viloyati	53	11
	Toshkent shahri	0	5

	Toshkent viloyati	20	4
	Xorazm viloyati	8	6
Jami		**945**	**561**

Natijada 2025-yilga kelib viloyatda joylashgan, davlat muhofazasiga olingan 11 ta monumental san'at yodgorligi, 9 ta arxitektura obyekti hamda 4 ta arxeologiya obyekti jami – 24 ta obyektni yo'qolib ketganligi sababli milliy ro'yxatdan chiqarish uchun Madaniy meros agentligi huzuridagi Ilmiy-ekspert kengashiga viloyat boshqarma xodimlari tomonidan taklif bergan. Xususan, bular Qarshi shahrida joylashgan 7 ta, G'uzor va Koson tumanlarida 3 tadan, Dehqonobod, Kitob hamda Yakkabog' tumanlarida 2 tadan, Chiroqchi, Nishon, Mirishkor, Muborak hamda Shahrisabz tumanlarida 1 tadan madaniy meros obyektlaridir [2].

Yuqoridagi salbiy oqibatlar tasirini kamaytirish maqsadida 2022-yil 1-aprel kuni Qashqadaryo viloyati hokimining 250-4-0-Q/22-sonli qaroriga asosan Qashqadaryo viloyat madaniy meros arxeologiya obyektlariga muhofaza belgilarini o'rnatish bilan bog'liq xarajatlar uchun viloyat hokimligi qoldiq mablag'lari hisobidan ajratish, hamda viloyatdagi muhofaza belgilari o'rnatiladigan 250 ta madaniy meros obyektlari ro'yxati tasdiqlangan.

Boshqarmaning 2024-yil 23-yanvar 04-P-sonli buyrug'iga asosan hududdagi madaniy meros obyektlarida monitoring o'tkazish to'g'risida buyrug'i qabul qilingan. Ushbu buyruqni ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yil 10-sentyabr kuni boshqarma xodimlari tomonidan Qarshi shahridagi 58 ta madaniy meros obyektlarida davlat nazorati o'tkazilganligi haqida dalolatnoma tuzilgan.

Shuningdek, Qashqadaro viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 9-dekabrdagi xatiga ko'ra bugungi kunda viloyatda saqlanib qolingan noyob moddiy madaniy meros obyektlarining aniq hisobini yuritish tizimini yo'lga qo'yish, bunda, yodgorliklarini to'liq xatlovdan o'tkazish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish natijasida yangi obyektlar aniqlangan. Xususan, 21 ta arxitektura, 3 ta arxeologiya, 11 ta diqqatga sazovor joylar jami – 35 ta obyekt aniqlanib milliy ro'yxatga kiritish uchun takliflar berilgan

T/r	Obyekt nomi	Obyekt manzili	Obyekt davri	Obyekt turi
			XX asr boshlari	Arxitektura

	Chor Rossiyasi kasalxonasi -1	Shahrisabz shahar Tutzor MFY		
	Chor Rossiyasi kasalxonasi -2	Shahrisabz shahar Tutzor MFY	XX asr boshlari	Arxitektura
	Chor Rossiyasi kasalxonasi -3	Shahrisabz shahar Tutzor MFY	XX asr boshlari	Arxitektura
	Chor Rossiyasi kasalxonasi -4	Shahrisabz shahar Tutzor MFY	XX asr boshlari	Arxitektura
	Xoʻja Sayid Xamadoniy (Xoʻja Sayidon qabristoni)	Shahrisabz shahar Qushxona MFY	XIV-XV asrlar	Diqqatga sazovor joy
	Chor Rossiyasi kasalxonasi -5	Shahrisabz shahar Tutzor MFY	XX asr boshlari	Arxitektura
	Qutchi masjidi	Shahrisabz tuman Qutchi MFY	XIX asr	Arxitektura
	Beshkapa masjidi	Shahrisabz tuman Beshchinor MFY	XIX asr	Arxitektura
	Yomichi masjidi	Shahrisabz tuman Qoʻngʻontepa MFY	XIX asr	Arxitektura
	Tepar masjidi	Shahrisabz tuman Tepar MFY	XIX asr	Arxitektura
	Turk Toʻygʻun ziyoratgohi	Shahrisabz tuman Gʻilon MFY	VIII asr	Diqqatga sazovor joy

	G'elon tegirmoni	Shahrisabz tuman G'ilon MFY	XIX asr	Arxitektura
	Tamshush masjidi	Shahrisabz tuman Hisorak MFY	XIX asr	Arxitektura
	Yuqori Obron masjidi	Shahrisabz tuman Obron MFY	XIX asr	Arxitektura
	Qorabayir masjidi	Shahrisabz tuman Qorabayr MFY	XIX asr	Arxitektura
	Neolit davri tosh uylari (4 ta)	Shahrisabz tuman Ko'l MFY	Mil.av.6-4 mingyillik	Arxeologiya
	Yerosti maqbara	Shahrisabz tuman	XIV-XV asrlar	Arxeologiya/ Arxitektura
	Pastki masjidi Barlos	Kitob tumani Shut MFY	XIX asr	Arxitektura
	Yuqori masjidi Barlos	Kitob tumani Shut MFY	XIX asr	Arxitektura
	Xalifa Navro'z ziyoratgohi	Kitob tumani Katlos MFY	XVII-XVIII asrlar	Diqqatga sazovor joy
	Yusufqul ziyoratgohi (Shirdog' darasi)	Kitob tumani Ko'hsor MFY	VII asr oxiri	Diqqatga sazovor joy
	Chuqurak masjidi	Kitob tumani Anorzor MFY	9-13-asrlar	Arxitektura
			9-13-asrlar	

	Chuqurak qabristoni	Kitob tumani Anorzor MFY		Diqqatga sazovor joy
	Kiyik kamar gʻori	Kitob tumani Ayoqchi MFY	Mil.av.50 mingyillik	Diqqatga sazovor joy
	Shayxlar gʻori	Kitob tumani Bashr MFY	Mil.av. 10 mingyillik	Diqqatga sazovor joy
	Qoʻshchinor gʻori	Kitob tumani Katlos MFY	Aniqlanmagan	Diqqatga sazovor joy
	Soqchilik tosh minorasi	Yakkabogʻ tumani Tatar MFY, Zarmas qishlogʻi	VIII-IX asrlar	Arxitektura
	Xoʻja Arxan ota ziyoratgohi	Yakkabogʻ tumani Tatar MFY Vori qishlogʻi	XII asr	Diqqatga sazovor joy
	Koʻhna qishloq ziyoratgohi	Yakkabogʻ tumani Tatar MFY Koʻhna qishlogʻi	XII asr	Diqqatga sazovor joy
	Qavali masjidi	Qarshi shahar Qavali MFY	XIX asr	Arxitektura
	Aral masjidi (arxeologiya topilmasi)	Qarshi shahar Aral MFY	XV asr	Arxitektura
	Muqanna qalʼasi	Qamashi tumani Koʻk buloq MFY, Qiziltom qishlogʻi	VIII-IX asrlar	Arxitektura
	Xoʻja Roʻshnoiy (oʻrta	Muborak tuman	XIV-XV asrlar	Arxeologiya

	asrlar qishloq xarobalari o'rni)			
	Talliyulg'un masjidi	Kasbi tumani Talliyulg'un MFY	XV asr	Arxitektura
	Xo'ja Abdukarim Bazdaviy maqbarasi	Mirishkor tumani Ko'hna Fazli MFY	X asr	Diqqatga sazovor joy

Xullas, madaniy merosni obyektlari ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sohasida muhim ahamiyat kasb etganligi, qolaversa, jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallashi hisobga olinib, yurtimizda madaniy meros ishi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelindi. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillarida madaniy meros sohasi faoliyatini tartibga solish bo'yicha yetarli huquqiy hujjatlar mavjud emasligi, ularning saqlanish holati qoniqarli emasligi ko'zga tashlansa, keyingi yillarda respublikaning turli shaharlaridagi madaniy meros obyektlariga alohida e'tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umarqulov A. Respublikaning barcha tarixiy obidalariga kirish imkonini beradigan “yagona turistik karta” joriy qilinadi. Yangi O'zbekiston. 9-aprel, 2025-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi joriy arxivi.

3. Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktabrdagi 881-sonli qarori.

4. Qashqadaryoda 11 ta arxeologiya merosi obyektiga 6 mlrd so'mga yaqin zarar yetkazilgan. Yangi O'zbekiston. 28-noyabr, 2022-yil.

5. Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish va zarur holatda saqlash bo'yicha investitsiya majburiyatlarini olgan holda ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 17-martdagi 53-son qarori

6. Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-son qarori

© Muminov Bekzod Baxtiyor o'g'li, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Muminov Bekzod Baxtiyor o‘g‘li

OʻSMIRLARDA MILLIY IDENTIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI SUNʼIY INTELLEKT ASOSIDA MODELLASHTIRISH

Malika Qahharova Lutfullo qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti oʻqituvchisi.

Oʻzbekiston, Navoiy shahri.

kahharovamalika940@g.mail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada oʻsmirlar orasida milliy identivlikni shakllantirishga taʼsir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonni prognozlash va modellashtirishda sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oila muhiti, taʼlim tizimi va ijtimoiy media omillari oʻsmirlarning milliy oʻzligini anglash jarayonida muhim rol oʻynaydi. Sunʼiy intellekt yordamida ushbu omillar taʼsirini oldindan prognoz qilish va samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Kalit soʻzlar: milliy identivlik, oʻsmirlar, ijtimoiy-psixologik omillar, sunʼiy intellekt, modellashtirish, prognozlash.

Abstract

This article analyzes the socio-psychological factors that influence the formation of national identity among adolescents and highlights the possibilities of using artificial intelligence technologies in forecasting and modeling this process. The research results show that family environment, education system, and social media factors play an important role in the process of adolescents realizing their national identity. With the help of artificial intelligence, it is possible to predict the impact of these factors in advance and develop effective strategies.

Keywords: national identity, adolescents, socio-psychological factors, artificial intelligence, modeling, forecasting.

Аннотация

В данной статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование национальной идентичности среди подростков, а также рассматриваются возможности использования технологий искусственного

интеллекта для прогнозирования и моделирования этого процесса. Результаты исследования показывают, что семейная среда, система образования и факторы социальных медиа играют важную роль в процессе осознания подростками своей национальной идентичности. С помощью искусственного интеллекта можно заранее прогнозировать влияние этих факторов и разрабатывать эффективные стратегии.

Ключевые слова: национальная идентичность, подростки, социально-психологические факторы, искусственный интеллект, моделирование, прогнозирование.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda yosh avlod, ayniqsa oʻsmirlar ongida milliy identivlikni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kamolotning krizislar, tanazzullar bosqichi boʻlmish oʻsmirlik davrida har bir oʻsmir qay usulda axloqiy tajriba orttirishiga, qanaqangi axloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, oʻsmirlik yoshi axloqiy jihatdan intensiv rivojlanish yoshi boʻlganligi tufayli koʻpincha oʻsmir ongida, tarbiyachi oʻquvchi ongiga singdirmoqchi boʻlgan xislatlarga qarama-qarshi axloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin. Oʻsmirlik davri shaxsning oʻzini anglash, ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilish va identivlikni shakllantirishning muhim bosqichidir. Shu sababli ushbu davrda milliy qadriyatlar, an’analar va madaniy merosga boʻlgan munosabatni toʻgʻri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi bugungi kun, Bugungi Kundan-kunga jadal rivojlanayotgan zamonimizda haqiqiy har bir shaxs uchun ayniqsa tafakkuri psixologik jarayonlari yangi bosqichda rivojlanayotgan oʻsmir uchun ayni kerakli boʻlgan xususiyatdir buni biz har birimiz foydalanayotgan va jadal rivojlanayotgan sun’iy intellekt sohasi orqali yoshlarga oʻrgatishimiz nafaqat qiziqarli balki samarali boʻladi deb ayta olishimiz mumkin. Aynan shu davrda shakllangan qarashlar kelajakda shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va fuqarolik pozitsiyasiga bevosita ta’sir koʻrsatadi.

Zamonaviy ilm-fan yutuqlari, xususan sun’iy intellekt texnologiyalari, ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va prognozlash imkonini bermoqda. Shu sababli milliy identivlikni shakllantirish jarayonini SI asosida modellashtirish muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (SI) tizimlari ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish, modellashtirish va prognozlashda keng qoʻllanilmoqda. Shu nuqtai nazardan, oʻsmirlar orasida milliy identivlikni rivojlantirish jarayonini sun’iy intellekt asosida oʻrganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Avvalo biz soʻz boshimizda “milliy identivlik” soʻzi mazmun-mohiyati toʻgʻrisida fikr yuritsak, milliy identivlik — bu shaxsning oʻz millatiga mansubligini anglash, uning

qadriyatlari, madaniyati va tarixiga nisbatan ijobiy munosabatining shakllanishidir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan, identivlik ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi.

O'smirlarda milliy identivlikni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar quyidagilardan iborat:

oila va tarbiya muhiti

ta'lim tizimi va maktab muhitlari

tengdoshlar guruhi

ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar

milliy qadriyatlar va an'analar.

Eng muhimi bu orqali o'smir ongida ma'naviy-axloqiy tarbiya shakllanadi. Bu esa eng muhim bo'lgan inson hayoti uchun zarur shartdir. Quyidagilar ushbu axloqiy tarbiya uchun zarurdir. Ya'ni o'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy psixologik jihatlari:

- Shaxsiy o'zlikni anglash:
- O'smirlik davrida ma'naviy qadriyatlar shaxsiy dunyoqarash sifatida shakllanadi.
- Emotsional beqarorlik: Hissiyotlarning tez o'zgarishi axloqiy me'yorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi.
- Tengdoshlar ta'siri: Axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishda guruh (tengdoshlar) muhiti oiladan ko'ra muhimroq bo'lishi mumkin.
- Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri:
- Zamonaviy o'smirlar tarbiyasida axloqiy dunyoqarashga ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'siri yuqori.
- Motivatsion-irodaviy soha: Ma'naviy tarbiya o'smirda o'z xatti-harakatlarini boshqarish, irodaviy sifatlarni shakllantirish va mas'uliyatni his qilishni o'z ichiga oladi. O'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, motivatsiya va axloqiy tushunchalar darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri: Zamonaviy o'smirlar tarbiyasida axloqiy dunyoqarashga ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'siri yuqori ekanligi uchun ham sun'iy intellekt orqali biz ushbu ta'sirdan foydalanib kuchaytirishimiz mumkin. Sun'iy intellekt esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va kelajakdagi natijalarni prognozlash imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

sotsiologik so‘rovnoma (o‘smirlar o‘rtasida)

kuzatuv va tahlil

statistik usullar

modellashtirish

Shuningdek, olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda sun’iy intellektning oddiy algoritmlaridan (masalan, klassifikatsiya va regressiya modellari) foydalanish nazarda tutildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda milliy identivlikni rivojlantirishda bir nechta muhim omillar mavjud.

Birinchidan, oila muhiti asosiy rol o‘ynaydi. Ota-onalarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati farzandlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, ta’lim tizimi orqali yosh avlodga milliy tarix, madaniyat va qadriyatlar yetkaziladi. Maktab darsliklari va tarbiyaviy ishlar bu jarayonning muhim qismidir.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari o‘smirlarning dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zan bu ta’sir ijobiy bo‘lsa, ayrim hollarda milliy identivlikka salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Sun’iy intellekt yordamida o‘smirlarning milliy identivlik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni modellashtirish mumkin. Masalan, so‘rovnoma natijalari asosida quyidagi model yaratilishi mumkin:

- kirish ma’lumotlari: oila muhiti, ta’lim sifati, media ta’siri
- chiqish natijasi: milliy identivlik darajasi

Mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida qaysi omil eng katta ta’sir ko‘rsatishini aniqlash va kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni prognozlash imkoniyati mavjud.

Bu yondashuv orqali ta’lim muassasalari va ijtimoiy institutlar uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

- oila va ta’lim tizimi eng kuchli ta’sir qiluvchi omillardir
- ijtimoiy media ta’siri ikki tomonlama xarakterga ega
- sun’iy intellekt yordamida omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash mumkin

Bu esa o'smirlar orasida milliy identivlikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarda milliy identivlikni rivojlantirish murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, unga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ushbu jarayonni chuqurroq tahlil qilish, modellashtirish va prognozlash imkonini beradi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda kengroq empirik tadqiqotlar olib borish hamda sun'iy intellekt asosidagi tizimlarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begimkulov U.B. O'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning psixologik jihatlari. – Toshkent, 2022.
2. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York, 1968.
3. Tajfel H. Social Identity Theory. – London, 1979.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – 1977.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
7. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 2021.
8. UNESCO. Digital Education Report. – 2022.

© Qahharova Malika Lutfullo qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT
QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling
Qahharova Malika Lutfullo qizi

BANKLARDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI JADALLASHTIRISH

Dilorom Abduraxmonovna Madatova

Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti

***Annotatsiya**. Maqolada bank tizimida investitsion faoliyatning iqtisodiy mohiyati, uning mikroiqtisodiy jihatlari va banklarning investitsiya vositachiligi shakllari tahlil qilinadi. Tijorat banklarining investitsiya resurslarini jalb etish, taqsimlash va samarali boshqarishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhitning shakllanishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari hamda ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Statistik ma’lumotlar asosida hududlar kesimida investitsiya hajmlarining taqsimoti tahlil qilinib, bank tizimi orqali investitsion faollikni oshirish zarurati asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** investitsiya, bank tizimi, investitsion faoliyat, tijorat banklari, investitsiya resurslari, bank vositachiligi, iqtisodiy o‘sish, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, kapital qo‘yilmalar, moliyaviy bozor, diversifikatsiya*

Investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga bo‘lgan huquqlar.

Turli faoliyat turlarini amalga oshirish uchun investitsiyalarning yetishmasligi muammosini hal qilish mutaxassislar tomonidan Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirish, uning barqaror iqtisodiy o‘sishining asosi sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Shu munosabat bilan iqtisodiyot bank sektorining asosiy vazifalaridan biri, ya’ni investitsiya resurslarini jamlash va qayta taqsimlash birinchi o‘ringa chiqadi. Bank tizimining investitsion imkoniyatlariga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Tijorat banklari tomonidan investitsiya resurslarini ko‘paytirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida samarali boshqaruv alohida tarmoqlar va umuman iqtisodiyot.

Investitsion bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun mikroiqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan bank investitsiya vositachiligining asosiy shakllarini ajratib ko‘rsatamiz.

Mikroiqtisodiy doirada bankning mijozlar bilan o‘zaro aloqasi to‘rt shaklda kechishi mumkin, ular uchun bank xulq-atvorining o‘ziga xos motivatsiyasi xosdir:

1. Bank jamg‘armalarni saqlovchi sifatida ishtirok etadigan o‘zaro hamkorlik

mijoz.

2. Bank kreditor yoki qarz oluvchi sifatida ishtirok etadigan oʻzaro munosabatlar

mijozga nisbatan.

3. Bank vositachi rolini oʻynaydigan oʻzaro hamkorlik.

4. Bank mijozning agenti sifatida ishtirok etadigan oʻzaro hamkorlik.

Ulardan birinchisi investitsiya bank operatsiyalarini ta’minlovchi resurslarning aksariyat koʻpchiligini jalb qilishda bankning mijozlar bilan oʻzaro hamkorligi shaklidir. Investitsion bank vositachiligining ushbu qismidagi asosiy motiv banklarga qoʻyiladigan talabni qondirish uchun zarur boʻlgan jalb qilingan investitsiya resurslari hajmini maksimallashtirish hisoblanadi. Koʻrsatilgan motivatsion rejada banklar tijorat faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa iqtisodiy subyektlardan hech qanday farq qilmaydi. Ularga foydani maksimallashtirishga intilish ham xos boʻlib, bunga erishishning asosiy vositalaridan biri faoliyat koʻlamini kengaytirishdir. Banklarning investitsiya faoliyati koʻlamini uzoq muddatli istiqbolda koʻpaytirish esa jamgʻarilgan jamgʻarmalar hajmini koʻpaytirmasdan turib mumkin emas.

Banklar oʻzlarini qarz oluvchi yoki kreditor sifatida namoyon etadigan mijozlar bilan oʻzaro hamkorlik shakli bevosita investitsiya bank faoliyati bilan bogʻliq. Ushbu vaziyatda banklarning motivlarini ular qarz oluvchilar rolini oʻynagan va kreditorlar rolini oʻynagan holatlar uchun alohida koʻrib chiqish zarur. Banklar investitsiya bozorida kreditor sifatida shakllangan investitsiya resurslarini joylashtirish orqali daromad olish maqsadini koʻzlaydi. Banklar tomonidan investitsiyalar bozorida qarz olishning asosiy motivlari investitsiya faoliyatining resurs bazasini oshirish va shu bilan birga likvidlikni qoʻllab-quvvatlash hisoblanadi.

Banklar mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarda banklarning agent sifatidagi rolini nazarda tutuvchi shakllarda investitsiya vositachiligidan olinadigan daromadlar darajasini barqarorlashtirishga, qoʻshimcha tavakkalchiliklarni oʻz zimmasiga olmasdan oʻz faoliyatining daromad bazasini kengaytirishga va xizmat koʻrsatiladigan mijozlar sonini koʻpaytirishga intiladilar.

Bank investitsiyalari keng ma’noda – bu bankning oʻz tashabbusi bilan boshqa korxonalar faoliyatida ishtirok etishdan foyda yoki foiz koʻrinishidagi daromad olish maqsadida ma’lum muddatga pul mablagʻlarini (ham oʻz mablagʻlarini, ham jalb qilingan mablagʻlarni) qoʻyishdir.

Banklarning investitsiyalari tor ma’noda bankning aktivlarni diversifikatsiya qilish, qoʻshimcha daromad olish va balans likvidligini saqlash maqsadida qimmatli qogʻozlarga qoʻyilmalaridir.

Investitsiyalar keyinchalik uni ko‘paytirish maqsadida kapital qo‘yilmalaridan iborat ekanligidan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, kapitalning o‘sishi tijorat bankining pul bozoridagi boshqa muqobil vositalarga investitsiya qilish uchun mavjud moliyaviy resurslardan foydalanishdan voz kechishini qoplash, uning xavfini qoplash va kelgusi investitsiya davrida inflyatsiyadan ko‘rilgan yo‘qotishlarni qoplash uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Bankning investitsiya faoliyati investitsiyalar bozorida amalga oshiriladi, u o‘z navbatida bir qator nisbatan mustaqil segmentlarga, jumladan, real investitsiyalash obyektlari bozori, moliyaviy investitsiyalash obyektlari bozori, innovatsion investitsiyalash obyektlari bozoriga bo‘linadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhiti, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng tizimi yaratildi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning yaxlit tizimi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Xususan:

- O‘zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari, banklar, sug‘urta tashkilotlari va boshqa korxonalarning ustav jamg‘armalari va boshqa mol-mulklarida ulushli ishtirok etish;

- to‘liq xorijiy investorlarga tegishli bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari, banklar, sug‘urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni tashkil etish va rivojlantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan chiqarilgan mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan qarz majburiyatlarini sotib olish;

- intellektual mulk huquqlarini, jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, savdo belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xau, shuningdek, ishbilarmonlik obro‘sini himoya qilish;

- konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, o‘zlashtirish, qazib olish yoki ulardan foydalanish uchun konsessiyalarni sotib olish;

- savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlariga, turar joylarga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga mulk huquqini, shuningdek, yerga (shu jumladan ijara asosida) va tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini olish.

O‘zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda hal

qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun yaratilgan qulay huquqiy muhit, imtiyozlar va kafolatlar tizimi mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini oshirmoqda. Xorijiy kapitalning milliy resurslar bilan uyg‘unlashuvi, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarining joriy qilinishi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli ravishda kuchaytiradi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2025 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga 443,6 trln so‘m investitsiya o‘zlashtirildi. Eng katta hajm Toshkent shahri (71,8 trln), Toshkent viloyati (63,6 trln) va Namangan viloyati (51,4 trln) hissasiga to‘g‘ri keldi. Top-3 hudud umumiy investitsiyaning taxminan 42,1 foizini, top-5 esa 56 foizini to‘pladi.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimi investitsion jarayonlarning muhim bo‘g‘ini sifatida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tijorat banklari tomonidan investitsiya resurslarini samarali jalb etish va taqsimlash iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishga xizmat qiladi. Banklarning investitsiya faoliyatini kengaytirish, ularning resurs bazasini mustahkamlash va risklarni samarali boshqarish investitsion faollikni oshirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan qulay investitsion muhit va xorijiy investorlarga berilgan kafolatlar mamlakat iqtisodiyotiga kapital oqimini kuchaytirib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida bank tizimi orqali investitsion faoliyatni yanada faollashtirish uchun moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda hududlararo investitsiya nomutanosibligini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Astanov A., Xudoyqulov R. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati. – Toshkent: iqtisodiyot, 2021.

2. Muhammedov O. R. – Tijorat banklari investitsion faoliyatini faollashtirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2023.

3. Abdurahmonov Q.Investitsiyalarni boshqarish. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2018.

4. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019

5. Беликов А.В. Необходимость активизации участия банков в инвестиционном процессе вытекает из взаимозависимости успешного развития банковской системы и экономики в целом. // Методический журнал «Инвестиционный банкинг» № 3(3)/2010

6. Saidov A. A. – Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

7. Крушвиц, Лутц. Финансирование и инвестиции: Учебник для вузов / Л. Крушвиц; Пер. с нем. Под общ. ред. В. В. Ковалева, З. А. Сабова.– СПб.: Питер, 2010

© Madatova Dilorom Abduraxmonovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Madatova Dilorom Abduraxmonovna

DINIY TASHKILOTLAR VA DAVLAT INSTITUTLARI OʻRTASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING OʻRNI

Kamola Oʻktam qizi MIRJONOVA,

NIU 70220301 – Tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar NIU rektori, prof., s.f.d.(DSc) J.Y. Mavlonov

Annotatsiya. Ushbu tezisda diniy tashkilotlar va davlat institutlari oʻrtasidagi hamkorlikning zamonaviy jamiyatdagi oʻrni yoritiladi. Unda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy himoya hamda ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashdagi hamkorlik yoʻnalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining ushbu jarayonlarni takomillashtirishdagi oʻrni qisqacha koʻrib chiqiladi. Tezisda hamkorlikning huquqiy asoslari va dolzarb muammolari ham yoritilgan.

Kalit soʻzlar: diniy tashkilotlar, davlat institutlari, hamkorlik, ma'naviyat, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy himoya, ekstremizm, radikalizm, sun'iy intellekt, yoshlar tarbiyasi

Abstract. This thesis examines the role of cooperation between religious organizations and state institutions in modern society. It analyzes key areas of interaction such as spiritual and educational work, ensuring social stability, youth upbringing, social protection, and combating extremism and radicalism. The role of artificial intelligence technologies in improving these processes is briefly considered. The legal foundations and current challenges of such cooperation are also highlighted.

Keywords: religious organizations, state institutions, cooperation, spirituality, social stability, social protection, extremism, radicalism, artificial intelligence, youth education

Аннотация. В данном тезисе рассматривается роль сотрудничества между религиозными организациями и государственными институтами в современном обществе. Анализируются основные направления взаимодействия: духовно-просветительская работа, обеспечение социальной стабильности, воспитание молодежи, социальная защита, а также борьба с экстремизмом и радикализмом. Кратко рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в совершенствовании этих процессов. Также освещаются правовые основы и актуальные проблемы сотрудничества.

Ключевые слова: религиозные организации, государственные институты, сотрудничество, духовность, социальная стабильность, социальная защита, экстремизм, радикализм, искусственный интеллект, воспитание молодежи

Diniy tashkilotlar va davlat institutlari oʻrtasidagi hamkorlik masalalari zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim oʻrin tutadi. Har qanday davlat ijtimoiy barqarorlik, fuqarolar totuvligi va maʼnaviy muhitni mustahkamlashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyar ekan, bu jarayonda diniy tashkilotlar bilan oʻzaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. diniy bagʻrikenglik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash ham davlat va diniy tashkilotlar hamkorligining muhim yoʻnalishlaridan biridir. Ayniqsa, globallashuv sharoitida turli madaniyat va eʼtiqod vakillari oʻrtasida oʻzaro hurmat va hamjihatlikni taʼminlash dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Shu bois, davlat va diniy tashkilotlar oʻrtasidagi konstruktiv muloqot va hamkorlik jamiyat barqarorligi hamda taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, din asrlar davomida insoniyat hayotida axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi, jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon boʻlib kelgan[1]. Avvalo, davlat va din munosabatlari aniq huquqiy asoslar bilan tartibga solinishi lozim. Dunyoviy davlatlarda asosiy tamoyil – din va davlatning ajratilganidir. Bu esa davlatning barcha diniy konfessiyalarga nisbatan betaraf boʻlishini, ularning faoliyatiga aralashmasligini, shu bilan bir qatorda qonun doirasida erkin faoliyat yuritishlariga sharoit yaratishini anglatadi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va qonunlarida din va davlat munosabatlari aniq belgilab berilgan[2]. Zamonaviy sharoitda ushbu hamkorlikni yanada samarali tashkil etishda sunʼiy intellekt texnologiyalarining oʻrni tobora ortib bormoqda. Xususan, sunʼiy intellekt yordamida jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyatni tahlil qilish, diniy bagʻrikenglik darajasini oʻrganish va ehtimoliy ijtimoiy ziddiyatlarni oldindan aniqlash imkoniyati mavjud. Diniy tashkilotlar va davlat institutlari oʻrtasidagi hamkorlikning asosiy yoʻnalishlaridan biri – maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni rivojlantirishdir. Jamiyatda yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashda diniy tashkilotlarning oʻrni katta[3]. Oʻzbekiston musulmonlari idorasi va davlat tashkilotlari tomonidan taʼlim tizimida, mahalla tizimlarida, ijtimoiy yordam va xayriya faoliyatlarida, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashda amalga oshirilayotgan targʻibot ishlari oʻzaro hamkorlikning yorqin misoli sifatida koʻrishimiz mumkin. Bu jarayonlarda ham sunʼiy intellekt asosida ishlab chiqilgan raqamli taʼlim platformalari, chatbotlar va maslahat tizimlari muhim vosita boʻlib xizmat qilmoqda. Ular yoshlar orasida toʻgʻri diniy bilimlarni keng targʻib qilish, notoʻgʻri maʼlumotlarning oldini olishda samarali natija bermoqda[4]. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya va xayriya sohasida ham hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Kam taʼminlangan oilalarni qoʻllab-quvvatlash, muhtojlarga yordam koʻrsatish, turli xayriya aksiyalarini tashkil etishda diniy tashkilotlar faol ishtirok etadi. Davlat esa bu jarayonni qoʻllab-quvvatlab, zarur tashkiliy va huquqiy sharoitlarni yaratadi. Natijada jamiyatda oʻzaro mehr-oqibat va birdamlik

kuchayadi. Sun'iy intellekt bu sohada ham qo'llanilib, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va xayriya jarayonlarini shaffof qilish imkonini beradi.

Diniy tashkilotlar ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda ham muhim hamkor sifatida maydonga chiqadi. To'g'ri diniy bilimlarni targ'ib qilish, yoshlarni zararli g'oyalardan himoya qilish orqali ular jamiyat xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Bu borada davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik ayniqsa muhim, chunki xavf-xatarlarning oldini olish ko'pincha birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Zamonaviy axborot makonida esa sun'iy intellekt asosidagi tizimlar radikal kontentni aniqlash, zararli axborot oqimlarini filtrlash va xavfli tendensiyalarni prognoz qilish orqali ushbu hamkorlikni yanada kuchaytiradi. Biroq bu hamkorlikda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, diniy tashkilotlarning siyosiy jarayonlarga aralashuvi ehtimoli, turli konfessiyalar o'rtasida tenglikni ta'minlash, hamda diniy erkinlik bilan davlat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalalari doimo dolzarb bo'lib qoladi[5]. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanishda ham axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya qilish, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, diniy tashkilotlar va davlat institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlik jamiyatda barqarorlik, totuvlik va ma'naviy yuksalishni ta'minlaydi. Bunda eng muhim jihat – o'zaro hurmat, bag'rikenglik va qonun ustuvorligiga amal qilishdir. Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellektdan oqilona foydalanish esa ushbu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Ana shundagina bu hamkorlik jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan mustahkam tizimga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov Z. *Huquqshunoslik asoslari*. – Toshkent, 2017.
2. Jo'rayev J., Abdullayev L. *Dinshunoslik asoslari*. – Toshkent, 2013. – 248-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
4. Pew Research Center. *The Future of World Religions: Population Growth Projections*. – Washington, 2015
5. O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi. – https://uza.uz
6. O'zbekiston Musulmonlari idorasi. – https://www.muslim.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
8. To'rayev B. *Davlat va din munosabatlari*. – Toshkent, 2020.
9. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2021
10. Weber M. *The Sociology of Religion*. – Boston: Beacon Press, 1993.

1. J. Jo'rayev, L. Abdullayev. Dinshunoslik asoslari. Toshkent, 2013, 248-b. ↑

2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, 2021 ↑

3. O‘zbekiston Musulmomlari idorasi https://www.muslim.uz ↑

4. O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi https://uza.uz ↑

5. J. Jo‘rayev, L. Abdullayev. Dinshunoslik asoslari. Toshkent, 2013, 248-b. ↑

© MIRJONOVA Kamola O‘ktam qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

MIRJONOVA Kamola O‘ktam qizi

HARBIY XIZMATCHILARDA JANGOVAR TAYYORGARLIK JARAYONIDA STRESSNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATIV AHAMIYATI

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi Pedagogika 2- kurs talabasi

Orifov Ismoilxoja Ikromxo'ja o'g'li

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Boboyeva Feruza Azimjonovna

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqotda harbiy xizmatchilarda jangovar tayyorgarlik jarayonida yuzaga keladigan stress holatlarining psixologik mohiyati, uning kognitiv, emotsional, irodaviy hamda ijtimoiy-psixologik omillari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, stressni boshqarish mexanizmlarining nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari yoritilib, zamonaviy sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalarining ushbu jarayonga integratsiyalashuvi ilmiy asosda asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, jangovar tayyorgarlik, stress, psixologik omillar, stressni boshqarish, psixologik barqarorlik, sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim, virtual simulyatsiya, monitoring tizimi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРЕССОМ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В ПРОЦЕССЕ БОЕВОЙ ПОДГОТОВКИ И ИНТЕГРАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: В данной научной работе рассматривается психологическая сущность стресса у военнослужащих в процессе боевой подготовки, а также проводится системный анализ его когнитивных, эмоциональных, волевых и социально-психологических факторов. Освещаются теоретические основы и практические механизмы управления стрессом, а также научно обосновывается интеграция технологий искусственного интеллекта в данный процесс в современных условиях.

Ключевые слова: военнослужащий, боевая подготовка, стресс, психологические факторы, управление стрессом, психологическая устойчивость,

искусственный интеллект, адаптивное обучение, виртуальная симуляция, системы мониторинга.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF STRESS MANAGEMENT IN MILITARY PERSONNEL DURING COMBAT TRAINING AND THE INTEGRATIVE SIGNIFICANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Abstract: This study examines the psychological nature of stress among military personnel during combat training and provides a systematic analysis of its cognitive, emotional, volitional, and socio-psychological factors. The theoretical foundations and practical mechanisms of stress management are explored, along with a scientific justification for the integration of artificial intelligence technologies into this process in modern conditions.

Keywords: military personnel, combat training, stress, psychological factors, stress management, psychological resilience, artificial intelligence, adaptive learning, virtual simulation, monitoring systems.

Zamonaviy harbiy tizimlarda jangovar tayyorgarlik jarayoni nafaqat jismoniy va texnik tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlikni ham talab etadi. Harbiy xizmatchilar faoliyati ekstremal sharoitlar, yuqori xavf darajasi, tezkor qaror qabul qilish zaruriyati hamda uzluksiz psixologik bosim bilan tavsiflanadi. Shu boisdan stressni boshqarish masalasi harbiy psixologiyaning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, XXI asrda raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Harbiy xizmatchilarda stress — bu murakkab psixofiziologik jarayon bo'lib, u tashqi omillar (jangovar vaziyat, xavf, jismoniy zo'riqish) va ichki omillar (individual psixologik xususiyatlar, tajriba, motivatsiya) o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Stressning yuqori darajasi qaror qabul qilish sifatiga, e'tibor va xotira jarayonlariga, shuningdek, irodaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan stressni boshqarish nafaqat individual sog'liqni saqlash, balki jangovar samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Jangovar tayyorgarlik jarayonida stressni boshqarishning psixologik omillari bir necha asosiy komponentlardan iborat. Birinchidan, kognitiv omillar — ya'ni vaziyatni idrok etish, baholash va unga nisbatan munosabat shakllantirish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchining vaziyatni xavfli yoki boshqariladigan deb baholashi uning stress darajasini belgilaydi. Ikkinchidan, emotsional-regulyativ omillar — hissiyotlarni nazorat qilish, qo'rquv va xavotirni boshqarish, ruhiy muvozanatni saqlash qobiliyati bilan bog'liq. Uchinchidan, irodaviy omillar — maqsadga yo'naltirilganlik, qat'iyatlilik va o'zini boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. To'rtinchidan, ijtimoiy-psixologik omillar — jamoa muhitining qo'llab-quvvatlovchi xususiyati, komandir bilan munosabatlar va guruh ichidagi ishonch darajasi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur psixologik omillarni samarali

boshqarish uchun an’anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalari harbiy psixologiya tizimiga yangi imkoniyatlar olib kiradi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, individual psixologik xususiyatlarni aniqlash va moslashtirilgan trening dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Sun’iy intellektning jangovar tayyorgarlik jarayonida qo‘llanishi bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, psixologik monitoring tizimlari orqali harbiy xizmatchilarning yurak urishi, nafas olish tezligi, teri qarshiligi kabi biometrik ko‘rsatkichlari real vaqt rejimida tahlil qilinadi. Ushbu ma’lumotlar asosida stress darajasi aniqlanadi va zarur hollarda tezkor psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi va ob’ektiv baholashni ta’minlaydi.

Ikkinchi yo‘nalish — sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘quv tizimlari hisoblanadi. Bunday tizimlar harbiy xizmatchining individual psixologik xususiyatlariga mos ravishda trening dasturlarini avtomatik ravishda moslashtiradi. Masalan, stressga chidamlilik darajasi past bo‘lgan xizmatchilar uchun bosqichma-bosqich murakkablashuvchi vazifalar taklif etiladi. Bu esa psixologik moslashuvni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi yo‘nalish — virtual reallik va sun’iy intellekt integratsiyasiga asoslangan simulyatsion mashg‘ulotlardir. Bunday texnologiyalar real jangovar vaziyatlarni modellashtirish orqali harbiy xizmatchilarda stressga moslashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Virtual muhitda yuzaga kelgan stress omillari nazorat ostida bo‘lib, ularni bosqichma-bosqich kuchaytirish orqali psixologik chidamlilikni rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt tizimi xizmatchining reaksiyalarini tahlil qilib, individual tavsiyalar beradi.

To‘rtinchi yo‘nalish — psixologik prognozlash va risklarni oldindan aniqlash tizimlaridir. Sun’iy intellekt algoritmlari tarixiy ma’lumotlar asosida stressga moyillik, ruhiy charchash va “yonib ketish” (burnout) sindromining rivojlanish ehtimolini aniqlaydi. Bu esa profilaktik choralarni o‘z vaqtida ko‘rishga imkon yaratadi. Sun’iy intellektning yana bir muhim jihati — u inson psixologiyasini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Katta ma’lumotlar (big data) asosida olib borilgan tahlillar stressning yashirin mexanizmlarini ochib beradi, bu esa yangi psixologik nazariyalar va metodologiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijada, harbiy psixologiya yanada ilmiy asoslangan, tizimli va prognozlash imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, sun’iy intellektni harbiy psixologiyada qo‘llash ma’lum ehtiyot choralarini ham talab etadi. Birinchidan, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi ta’minlanishi lozim. Ikkinchidan, texnologiyalarga haddan tashqari bog‘lanish insoniy omilning kamayishiga olib kelmasligi kerak. Uchinchidan, sun’iy intellekt tizimlari faqat yordamchi vosita sifatida qaralib, yakuniy qaror inson

tomonidan qabul qilinishi zarur. Umuman olganda, jangovar tayyorgarlik jarayonida stressni boshqarish koʻp omilli, murakkab tizim boʻlib, u psixologik, fiziologik va ijtimoiy komponentlarning uygʻunligini talab etadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi ushbu tizimni yangi bosqichga olib chiqib, individual yondashuvni ta'minlash, psixologik monitoringni takomillashtirish va trening samaradorligini oshirish imkonini beradi. Natijada, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi oshadi, bu esa ularning jangovar faoliyatdagi samaradorligini bevosita ta'minlaydi. Shunday qilib, zamonaviy harbiy tizimda stressni boshqarish nafaqat psixologik tayyorgarlikning ajralmas qismi, balki strategik ahamiyatga ega omil sifatida namoyon boʻladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa ushbu jarayonni ilmiy asosda takomillashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va inson resurslarini samarali boshqarish imkonini beruvchi innovatsion vosita sifatida muhim oʻrin egallaydi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984.
2. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976.
3. LeDoux J.E. The Emotional Brain: The Mysterious Underpinnings of Emotional Life. – New York: Simon & Schuster, 1996.
4. Gross J.J. Emotion Regulation: Conceptual and Empirical Foundations // Handbook of Emotion Regulation. – New York: Guilford Press, 2007.
5. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997.
6. Endsley M.R. Toward a Theory of Situation Awareness in Dynamic Systems // Human Factors Journal. – 1995. – Vol. 37, №1.
7. Salas E., Driskell J.E., Hughes S. The Study of Stress and Human Performance // Stress and Human Performance. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 1996.
8. Hancock P.A., Szalma J.L. Performance Under Stress. – Aldershot: Ashgate Publishing, 2008.
9. Picard R.W. Affective Computing. – Cambridge: MIT Press, 1997.
10. Calvo R.A., D'Mello S. Affect Detection: An Interdisciplinary Review of Models, Methods, and Their Applications // IEEE Transactions on Affective Computing. – 2010.
11. Rizzo A., Koenig S. Is Clinical Virtual Reality Ready for Primetime? // Neuropsychology. – 2017.
12. Freeman D., Reeve S., Robinson A. Virtual Reality in the Assessment, Understanding, and Treatment of Mental Health Disorders // Psychological Medicine. – 2017. – Vol. 47, №14.

13. Kaber D.B., Endsley M.R. The Effects of Level of Automation on Human Performance and Situation Awareness // Journal of Cognitive Engineering and Decision Making. – 2004. – Vol. 1, №2.
14. Parasuraman R., Sheridan T.B., Wickens C.D. A Model for Types and Levels of Human Interaction with Automation // IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics. – 2000. – Vol. 30, №3.
15. Bishop C.M. Pattern Recognition and Machine Learning. – New York: Springer, 2006.

© Boboyeva Feruza Azimjonovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Boboyeva Feruza Azimjonovna, Orifov Ismoilxoja Ikromxo'ja o'g'li

IJTIMOIY FANLARDA PROGNOZLASH VA MODELLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH.

Navoiy innovatsiyalar Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

Pedagogika va psixologiya 3-kurs talabasi

Abdiyeva Dilora Bobomurodovna

Navoiy innovatsiyalar Universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Boboyeva Feruza Azimjonovna.

Annotatsiya: Ijtimoiy fanlarda prognozlash va modellashtirish jamiyat rivojlanishini tushunish hamda kelajakdagi tendensiyalarni bashorat qilish uchun muhim ahamiyatga ega.Ushbu maqola sun'iy intellekt texnologiyalarning ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish,aniqroq prognozlar yaratish va murakkab tizimlarni modellashtirishdagi salohiyatini o'rganadi.SI algoritmlari,jumladan mashinani o'rganish va chuqur o'rganish ,katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash yashirin bog'liqliklarni aniqlash va bashorat qilish modellarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt,ijtimoiy fanlar, prognozlash, modellashtirish , mashinani o'rganish, ijtimoiy tahlil.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПРОГНОЗИРОВАНИИ И МОДЕЛИРОВАНИИ В СОЦИАЛЬНЫХ НАУКАХ.

Аннотация: В социальных науках прогнозирование и моделирование имеют важное значение для понимания развития общества и предсказания будущих тенденций. В данной статье исследуется потенциал технологий искусственного интеллекта в анализе социальных явлений, создании более точных прогнозов и моделировании сложных систем. Алгоритмы ИИ, включая машинное обучение и глубокое обучение, позволяют обрабатывать большие объемы данных, выявлять скрытые взаимосвязи и повышать эффективность прогнозных моделей.

Ключевые слова: искусственный интеллект, социальные науки, прогнозирование, моделирование, машинное обучение, социальный анализ.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN FORECASTING AND MODELING IN THE SOCIAL SCIENCES.

Abstract: Forecasting and modelling in social sciences are of great importance for understanding societal development and predicting future trends. This article explores the potential of artificial intelligence technologies in analysing social phenomena, creating more accurate forecasts, and modelling complex systems. AI algorithms, including machine learning and deep learning, enable the processing of large volumes of data, the detection of hidden patterns, and the enhancement of the effectiveness of predictive models.

Keywords: Artificial intelligence, social sciences, forecasting, modelling, machine learning, social analysis

KIRISH. Ijtimoiy fanlar so'nggi yillarda murakkab tizimlar,katta ma'lumotlar to'plamlari va dinamik o'zgarishlar bilan tavsiflanuvchi hodisalarni tahlil qilish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda.Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ayniqsa ,mashinani o'rganish va chuqur o'rganish usullari,ijtimoiy ma'lumotlarni tahlil qilish,prognozlash va modellashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.Ushbu maqolada ijtimoiy fanlarda prognozlash va modellashtirishda sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy asoslari,amaliy qo'llanishi va kelajakdagi istiqbollarini atroflicha o'rganishni maqsad qilgan. Maqolada SI dan foydalanishning afzalliklari jumladan,prognozlash aniqligini oshirish va murakkab munosabatlarini aniqlash imkoniyatlari bilan birga,uning cheklovlari va axloqiy masalalari,masalan,ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik xolislik va shaffoflik muammolari ham tanqidiy baholanadi. Ushbu tadqiqot ijtimoiy fanlar mutaxasislari va siyosatchilar uchun SIning imkoniyatlarini tushunish va undan ma'suliyatli foydalanish bo'yicha muhim yo'nalishlarini taqdim etadi.Shu bilan birga kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

So'nggi besh yil ichida nashr etilgan tadqiqotlar SIning ijtimoiy fanlarga integratsiyasi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham chuqurlashganini ko'rsatadi.Masalan, murakkab tizimlar nazariyasi va agentga asoslangan modellashtirish SIning algoritmlari bilan uyg'unlashib,ijtimoiy dinamikani tahlil qilishda yangi yondashuvlarni taklif etmoqda.Bu yondashuvlar ijtimoiy hodisalarni oddiy sabab-oqibat zanjirlari orqali emas, balki ko'plab o'zaro ta'sir qiluvchi agentlarning xulq atvori natijasi sifatida ko'rishga imkon beradi. Chuqur o'rganish modellari, xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlar va rekurent neyron tarmoqlar, ijtimoiy media ma'lumotlarni , matnlar va tasvirlardagi murakkab naqshlarni aniqlashda samaradorligini isbotladi.

Demografiya sohasida SI aholi dinamikasini , migratsiya oqimlarini va sog'liqni saqlash natijalarini prognozlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. SI modellari yordamida tug'ilish ,o'lim va migratsiya darajalarini bashorat qilish shuningdek,

kasalliklarining tarqalishini modellashtirish sog'liqni saqlash siyosatining ta'sirini baholash mumkin. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, SIning ijtimoiy fanlarda prognozlash va modellashtirishdagi salohiyati juda katta bo'lsa-da , hali hal qilinmagan bir qator masalalar mavjud. Algoritmik xolislikni kamaytirish, modellar shaffofligini oshirish va ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA.

Ushbu maqola ijtimoiy fanlarda prognozlash va modellashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va salohiyatini chuqur tahlil qildi. SI murakkab ijtimoiy ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash aniqligini oshirish va chiziqli bo'lmagan munosabatlarni aniqlash orqali an'anaviy usullarning cheklovlarini bartaraf etishini ko'rsatdi. Biroq , algoritmik xolislik shaffoflikning yetishmasligi va ma'lumotlar maxfiyligi kabi jiddiy axloqiy va metodologik muammolar mavjud. Kelajakda SIni ijtimoiy nazariyalar bilan chuqur integratsiyalash , modellar shaffofligini oshirish, axloqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish va inson algoritm hamkorligini rivojlantirish zarur. Bu ijtimoiy hodisalarni yanada chuqurroq tushunish va asosli, adolatli siyosiy qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Abduvahobov,A.A;Maxmudov.,M.M(2021).Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi.

2.Begmatov,B.B(2022).Sun'iy intellekt texnologiyalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qo'llashning nazariy asoslari.

3.Xodiyev.B.Y;Abduvahobov,A.A; Maxmudov,M.M.(2021).Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt .Toshkent:TDIU nashriyoti.

© Abdiyeva Dilora Bobomurodovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Abdiyeva Dilora Bobomurodovna, Boboyeva Feruza Azimjonovna

JADIDCHILIK HARAKATI DAVRIDA MAKTABGACHA TA'LIM MASALASI

Kamolova Dilorom

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Maktabgacha ta'lim 4-kurs talabasi

Annatotsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati davrida maktabgacha ta'lim masalasining shakllanishi va rivojlanish jarayoni tarixiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda jadid ma'rifatchilarining ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan g'oyalari, ayniqsa bolani erta yoshdan tarbiyalash zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida tashkil etilgan yaslilar, tayyorlov sinflari, bolalar maydonchalari va dastlabki maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы дошкольного образования в период джадидского движения с историко-педагогической точки зрения. Особое внимание уделяется идеям джадидских просветителей, направленным на модернизацию системы образования и необходимости воспитания ребенка с раннего возраста. В исследовании освещается деятельность первых дошкольных учреждений в Туркестане конца XIX – начала XX века, включая ясли, подготовительные классы и детские площадки.

Annotation: This article examines the issue of preschool education during the Jadid reform movement from a historical and pedagogical perspective. It focuses on the ideas of Jadid reformers aimed at modernizing the education system, particularly emphasizing the importance of early childhood education. The study highlights the emergence of early preschool institutions in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, including nurseries, preparatory classes, and playgrounds.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, maktabgacha ta'lim, tarbiya, pedagogik qarashlar, ma'rifatchilar, yasli, tayyorlov sinflari, uzluksiz ta'lim, Turkiston, ta'lim islohoti.

Ключевые слова: джадидское движение, дошкольное образование, воспитание, педагогические взгляды, просветители, ясли, подготовительные классы, непрерывное образование, Туркестан, образовательные реформы.

Key words: Jadid movement, preschool education, upbringing, pedagogical views, reformers, nursery, preparatory classes, continuous education, Turkestan, educational reforms.

Kirish. Maktabgacha ta'lim har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim koʻrsatkichlaridan biri boʻlib, uning shakllanish tarixi xalq pedagogikasidan tortib zamonaviy davlat ta'lim siyosatiga qadar davom etuvchi murakkab jarayondir. Oʻzbekistonda bu tizimning rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshgan boʻlib, har bir bosqich oʻziga xos ijtimoiy-siyosiy sharoitlar ta'sirida shakllangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni o'rganishda mikrotarix, tizimlashtirish, statistik va qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qadimgi davrlarda maktabgacha ta'limning shakllanishi masalasiga murojaat qilinganda, oʻzbek xalq pedagogikasida bolani erta yoshdan tarbiyalash gʻoyasi chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligi yaqqol namoyon boʻladi. Bu jarayon faqatgina ijtimoiy ehtiyoj natijasi emas, balki xalqning ma'naviy-madaniy merosi, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliq holda shakllangan. Xususan, Zardushtiylik ta'limotining muqaddas manbasi hisoblangan "Avesto"da bolani tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etib, unda halollik, poklik, rostgoʻylik hamda mehnatsevarlik kabi fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirish zarurligi ta'kidlanadi[1].

Mazkur manba asosida shuni ta'kidlash mumkinki, qadimgi davrlarda bolalar tarbiyasi tizimli va maqsadli xarakter kasb etgan. Ya'ni, tarbiya faqat oilaviy jarayon sifatida emas, balki jamiyatning umumiy ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida qaralgan. "Avesto"da ilgari surilgan axloqiy me'yorlar bolada nafaqat shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, balki uni jamiyatga foydali, mas'uliyatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalashga yoʻnaltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Oʻrta asrlar davrida yashab, ijod etgan sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar maktabgacha ta'limning shakllanishi va rivojlanishida muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu davr allomalari bolani tarbiyalash jarayoniga faqatgina axloqiy emas, balki jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan kompleks yondashganliklari bilan ajralib turadi. Xususan, Abu Ali ibn Sino oʻzining mashhur "Tib qonunlari" asarida bolalik davrining xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, 3–7 yosh oraligʻidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, oʻyin faoliyati hamda yoshga mos ta'lim-tarbiya usullariga alohida e'tibor qaratadi. Ibn Sinoning pedagogik qarashlarida bolaga ta'lim berishda uning tabiiy imkoniyatlari, individual xususiyatlari va yoshiga mos metodlarni qoʻllash zarurligi alohida ta'kidlanadi. Uning "bolaga bilim berishda uning tabiati va yoshiga mos usulni tanlash lozim" degan gʻoyasi bugungi zamonaviy maktabgacha pedagogika tamoyillari bilan uygʻunlik kasb etadi[2]. Bu yondashuv, oʻz navbatida, shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim konsepsiyasining dastlabki nazariy ildizlari sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig" asarida ilgari surilgan axloqiy-tarbiyaviy qarashlar ham maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining ijtimoiy ahamiyatini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Asarda bolani

erta yoshdan odob-axloq, halollik, rostgoʻylik va jamiyatga foydali fazilatlar ruhida tarbiyalash zarurligi alohida urgʻu bilan ifodalanadi[3]. Muallifning fikricha, barkamol avlodni tarbiyalash jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻrta asr sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik gʻoyalar Oʻzbekiston hududida maktabgacha taʼlimning shakllanishiga zamin yaratgan dastlabki ilmiy-nazariy poydevor sifatida qaralishi mumkin. Ularning qarashlari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan holda, zamonaviy pedagogika rivojiga metodologik asos boʻlib xizmat qilmoqda.

XX asr boshlarida maktabgacha taʼlim gʻoyalarining rivojlanishi jadid maʼrifatchilarining keng koʻlamli islohotchilik faoliyati bilan bevosita bogʻliq holda kechdi. Ushbu davrda jadidlar taʼlim tizimini tubdan yangilash, uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish va yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash masalasiga alohida eʼtibor qaratdilar. Ular taʼlimni faqat maktab darajasida emas, balki inson hayotining ilk bosqichlaridan boshlash zarurligini ilgari surib, maktabgacha taʼlimning ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini chuqur anglab yetgan edilar.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy hamda Mahmudxoʻja Behbudiy kabi jadid maʼrifatchilar oʻz asarlari va amaliy faoliyatlari orqali bolani erta yoshdan oʻqitish va tarbiyalash zarurligini asoslab berdilar. Ular tomonidan yaratilgan dastlabki oʻquv-metodik qoʻllanmalar, darsliklar va tarbiyaviy asarlar oʻz davri uchun yangicha pedagogik yondashuvni ifodalab, maktabgacha va boshlangʻich taʼlim oʻrtasidagi uzviylikni taʼminlashga xizmat qildi. Ayniqsa, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim oʻrin tutib, unda tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi roli chuqur asoslab berilgan.

Avloniyning “tarbiyasiz xalqning yoʻli qorongʻu va uning kelajagi izdan chiqishi muqarrar” mazmunidagi fikri tarbiyaning nafaqat individual, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun ham muhimligini anglatadi. Bu gʻoya, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Chunki shaxsning asosiy axloqiy, ijtimoiy va intellektual sifatlari aynan ilk bolalik davrida shakllanadi[4]. Shu nuqtai nazardan, jadid maʼrifatchilarining pedagogik qarashlari Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim tarixiy bosqichni tashkil etadi. Ularning ilgari surgan gʻoyalari bugungi zamonaviy taʼlim tizimida ham oʻz aksini topib, uzluksiz taʼlim konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Jadid maʼrifatchilarining amaliy faoliyatida taʼlim tizimini bosqichma-bosqich tashkil etish gʻoyasi alohida oʻrin egallagan boʻlib, bu jarayonda ayrim maktablarda “boshlangʻich tayyorlov sinflari”ning joriy etilishi muhim pedagogik yangilik sifatida namoyon boʻladi[5]. Mazkur tayyorlov sinflari bolalarni maktab taʼlimiga puxta tayyorlash,

ularning boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Bu esa o‘z mohiyatiga ko‘ra, bugungi maktabgacha ta’lim tizimining asosiy funksional vazifalari bilan yaqinlik kasb etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida maktabgacha ta’limga oid dastlabki tashkiliy shakllar ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga kela boshlaganini kuzatish mumkin. Jumladan, 1896-yildan boshlab Turkistonda mahalliy boshqaruv organlari tashabbusi bilan kambag‘al oilalar farzandlari uchun “yasli” deb atalgan muassasalar tashkil etila boshladi. Ushbu muassasalar asosan endigina mustaqil harakatlana boshlagan bolalarni qamrab olib, ularni maktab yoshiga yetguniga qadar parvarishlash va tarbiyalashga yo‘naltirilgan edi.

Yasli faoliyati muayyan tartib asosida tashkil etilib, bolalar kun davomida muassasada bo‘lib, uch mahal ovqat bilan ta’minlangan. Tarbiyaviy jarayon nazoratchi ayol tomonidan boshqarilgan bo‘lib, unga yordamchi xodimlar ham biriktirilgan. Bu holat mazkur muassasalarda bolalar parvarishi va tarbiyasiga nisbatan tizimli yondashuv shakllanganini ko‘rsatadi. Yaslilarda bolalarga diniy va ma’naviy tarbiya elementlari (duolarni o‘qish), shuningdek, elementar savodxonlik (o‘qish, yozish, sanash) bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar — to‘qish, tikish, to‘r taqish kabi hunar turlari ham o‘rgatilgan. Bu esa mazkur muassasalarning nafaqat parvarish, balki boshlang‘ich ta’lim va kasbiy yo‘naltirish vazifasini ham bajarganligini anglatadi.

Biroq, ushbu muassasalar keng qamrovli tus olmagan bo‘lib, butun o‘lka bo‘ylab yaslilarga qatnayotgan bolalar soni nisbatan kam – taxminan 50–60 nafar atrofida bo‘lgan. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimining hali dastlabki rivojlanish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Turkistonning Toshkent, Samarqand, Sirdaryo va Namangan kabi yirik shaharlarida kambag‘al va qarovsiz bolalar uchun yetimxonalar tashkil etilishi ijtimoiy himoya va tarbiya tizimining shakllana boshlaganidan dalolat beradi.

Imtiyozli ijtimoiy qatlam vakillari farzandlari uchun esa maktabgacha ta’limning nisbatan rivojlangan shakllari yuzaga kela boshladi. Xususan, 1891-yilda “Bog‘dorchilik jamiyati” tashabbusi bilan Toshkent istirohat bog‘ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun “bolalar maydonchasi” tipidagi dastlabki muassasa tashkil etilgan. Ushbu maskan uchun bog‘ hududidan sersoya maydon ajratilib, unda bolalar uchun turli o‘yin vositalari, jumladan arg‘imchoqlar o‘rnatilgan hamda o‘yinchoqlar bilan ta’minlangan.

1891–1903-yillar oralig‘ida Turkistonda tashkil etilgan dastlabki maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati moliyaviy yetishmovchiliklar sababli barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Xususan, bolalar bog‘chalari mablag‘ taqchilligi tufayli bir necha bor o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lganligi ushbu sohaning hali institutsional

jihatdan mustahkamlanmaganini ko‘rsatadi. Bu holat, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tizimini tashkil etish va uni metodik jihatdan asoslash zaruratini yuzaga keltirgan.

Ana shunday ehtiyojlar ta’sirida ilg‘or pedagogik g‘oyalar asosida 1903-yil fevral oyida Toshkent shahrida “Oilaviy ta’lim-tarbiyaviy to‘garagi” tashkil etildi[6]. Mazkur to‘garak o‘z faoliyatini Harbiy ministrlik hamda Xalq maorifi idoralari tomonidan tasdiqlangan ustav asosida olib borgan bo‘lib, uning tashkil etilishi maktabgacha ta’limni tizimlashtirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

To‘garak oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar bolalarga ta’lim-tarbiya berish usullarini takomillashtirish va pedagogik tajribalarni rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat edi. Shuningdek, u pedagoglar, ota-onalar hamda bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi boshqa mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, oila, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida yagona tarbiyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimining muhim tamoyillaridan biri — tarbiyaning izchilligi va uzviyligini ta’minlashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Mazkur to‘garak tarkibida maktabgacha ta’lim yo‘nalishiga ixtisoslashgan alohida sho‘baning faoliyat yuritishi uning mazkur sohani rivojlantirishga qaratilganligini tasdiqlaydi. Ta’kidlash joizki, to‘garak tashkil etilgunga qadar bolalar bog‘chalarida tarbiyaviy ishlar aniq pedagogik tizimga ega emas edi. Shu bois, to‘garak a’zolari bolalar tarbiyasiga oid dolzarb masalalarni muhokama qilish, ilg‘or tajribalarni almashish va yagona metodik yondashuvni shakllantirishga intilganlar.

Umuman olganda, “Oilaviy ta’lim-tarbiyaviy to‘garagi” faoliyati Turkistonda maktabgacha ta’lim tizimini ilmiy-metodik asosda shakllantirish yo‘lidagi dastlabki urinishlardan biri bo‘lib, bu jarayon keyinchalik sohaning yanada rivojlanishiga muhim turtki bergan.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining shakllanish va rivojlanish jarayoni bir necha bosqichlarda namoyon bo‘ladi. Xususan:

1) 1910–1920-yillarda bolalar bog‘chalarini muhofaza qilish va rivojlantirishga qaratilgan maxsus kengashlar tashkil etilgan bo‘lib, bu muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qilgan.

2) 1918-yilda Toshkent shahrining eski qismida mahalliy aholi farzandlari uchun mo‘ljallangan bolalar bog‘chasining tashkil etilishi esa milliy maktabgacha ta’lim tizimining shakllanishida muhim voqea sifatida baholanadi.

3) Keyingi yillarda mazkur tizimning qamrovi kengaya boshladi. Jumladan, 1926-yilga kelib maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar soni qariyb

2000 nafarga yetganligi ushbu sohaning bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi[7].

1917-yilgi Oktyabr inqilobidan so‘ng sobiq imperiya hududlarida, jumladan Turkistonda ham ijtimoiy-siyosiy tizim tubdan o‘zgardi va bu jarayon ta’lim tizimiga, xususan maktabgacha ta’lim sohasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Yangi hokimiyat tomonidan xayriya asosidagi ijtimoiy yordam shakllariga chek qo‘yilib, ularning moddiy (xususiy mulk) va ma’naviy (diniy) asoslari tugatildi. Natijada bolalar tarbiyasi va ijtimoiy himoyasi davlat zimmasiga o‘ta boshladi hamda bu soha markazlashgan boshqaruv tizimi asosida qayta tashkil etildi.

Mazkur davrda barcha hududlarda ijtimoiy tarbiya bo‘limlari tashkil etilib, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishga qaratilgan maxsus muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim va ijtimoiy tarbiya tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etib, Moskva va Leningrad oliy ta’lim muassasalarida bu yo‘nalishda mutaxassislar tayyorlash boshlandi. Bu esa sohani ilmiy-metodik asosda rivojlantirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanadi.

XX asrning 20-yillarida maktablar va bolalar muassasalarini moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “komsod” (yordam qo‘mitalari) kabi tashkilotlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ular ta’lim tizimining moddiy bazasini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Aynan shu davrdan boshlab Turkistonda davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog‘chalarini ommaviy tashkil etish jarayoni izchil ravishda amalga oshirila boshladi.

1917-yil 20-noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan e’lon qilingan “Maktabgacha tarbiya yuzasidan deklaratsiya” ushbu yo‘nalishda dastlabki huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu hujjatda bolalarni ijtimoiy asosda bepul tarbiyalash tizimini yo‘lga qo‘yish va bu jarayonni erta yoshdan boshlash zarurligi belgilab berildi. Mazkur g‘oyalar amaliyotga tatbiq etilib, 1918-yilning ikkinchi yarmidan boshlab davlat bolalar bog‘chalari tashkil etila boshlandi.

Shuningdek, 1918-yil 20-oktyabrda Turkiston Maorifi Xalq Komissarligi huzurida maktabgacha ta’lim sohasidagi barcha tashkiliy va metodik ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida maxsus maktabgacha tarbiya bo‘limi tashkil etildi. Bu esa mazkur sohani tizimli boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan muhim institutsional choradir. 1919-yilda qabul qilingan davlat dasturlari esa xalq maorifi tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirib, maktabgacha ta’limni rivojlantirishga keng yo‘l ochdi.

Mazkur davrda Toshkent, Samarqand, Sirdaryo va Namangan kabi hududlarda yetimxonalar tashkil etilishi bolalarni ijtimoiy himoya qilish va ularni tarbiyalash tizimini kengaytirishga xizmat qildi. Umuman olganda, 1917-yildan keyingi davr maktabgacha

ta’limning davlat siyosati darajasida shakllanib, uning tashkiliy, huquqiy va metodik asoslari yaratilgan muhim tarixiy bosqich sifatida tavsiflanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston hududida maktabgacha ta’lim tizimining shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonining mahsuli bo‘lib, u qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan. Xususan, “Avesto”da ifodalangan axloqiy-tarbiyaviy qarashlar, o‘rta asr sharq mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari hamda jadid ma’rifatchilarining islohotchilik faoliyati maktabgacha ta’limning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

1917-yildan keyingi davrda maktabgacha ta’lim tizimi tubdan yangi bosqichga ko‘tarilib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, “Maktabgacha tarbiya yuzasidan deklaratsiya” hamda keyingi davlat dasturlari asosida maktabgacha ta’lim muassasalari ommaviy ravishda tashkil etila boshladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlari shakllantirildi va malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa maktabgacha ta’limning ijtimoiy institut sifatida mustahkamlanishiga olib keldi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’limning tarixiy rivojlanish bosqichlari uning bugungi kundagi nazariy-metodologik asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish hamda uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

Avesto. Tarjima va izohlar. – Toshkent: Fan, 2001.

Ibn Sino A.A. Tib qonunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 114-bet.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1990.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 1992. – 52-bet.

Qosimov B. Jadidchilik harakati. – Toshkent: Universitet, 1999.

S.Elmurodova. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining paydo bo‘lishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 37.

S.Elmurodova. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining paydo bo‘lishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 38.

1. Avesto. Tarjima va izohlar. – Toshkent: Fan, 2001. ↑

2. Ibn Sino A.A. Tib qonunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 114-bet. ↑

3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1990. – B. 86. ↑

4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 1992. – 52-bet. ↑

5. Qosimov B. Jadidchilik harakati. – Toshkent: Universitet, 1999. ↑

6. S.Elmurodova. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining paydo bo‘lishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 37. ↑

7. S.Elmurodova. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining paydo bo‘lishi: tarixiy-ilmiy tahlil. Eurasian Journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 5. Issue 12. 2025. – P. 38. ↑

© Kamolova Dilorom, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Kamolova Dilorom

JALOLIDDIN RUMIY TA’LIMOTIDA IJTIMOIY MUNOSABATLAR MASALASINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Navoiy innovatsiyalar universiteti

o‘qituvchisi Axmedov Soxib Saimovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiy merosining zamonaviy davlat va jamiyat boshqaruvidagi ahamiyati falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda mutafakkirning rahbar odobi, xalq bilan muloqot, adolat, bag‘rikenglik, insonparvarlik va jamiyat barqarorligini ta’minlashga doir qarashlari yoritiladi. Shuningdek, Rumiy g‘oyalarining bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, xalq bilan muloqot va inson qadrini ulug‘lash tamoyillari bilan uyg‘un jihatlari ko‘rsatib beriladi. Maqolada davlat boshqaruvida rahbar shaxsi, uning atrofidagi xodimlar va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Rumiy, davlat boshqaruvi, jamiyat boshqaruvi, insonparvarlik, adolat, bag‘rikenglik, xalq bilan muloqot, ma’naviyat, rahbar mas’uliyati, Yangi O‘zbekiston.

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЧЕНИИ ДЖАЛОЛИДДИНА РУМИ.

Аннотация: В данной статье наследие Джалолиддина Руми рассматривается с философской и социальной точек зрения в контексте его значения для управления современным государством и обществом. В ней освещаются взгляды мыслителя на этику руководителя, диалог с народом, справедливость, толерантность, гуманизм и обеспечение устойчивости общества. Также показана созвучность идей Руми с современными принципами Стратегии развития Нового Узбекистана, такими как открытый диалог с народом и возвышение достоинства человека. В статье особо подчеркивается духовная взаимосвязь между личностью руководителя, его окружением и обществом в системе государственного управления.

Ключевые слова: Джалолиддин Руми, государственное управление, управление обществом, гуманизм, справедливость, толерантность, диалог с народом, духовность, ответственность руководителя, Новый Узбекистан.

THE THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF THE ISSUE OF SOCIAL RELATIONS IN THE TEACHINGS OF JALALUDDIN RUMI

Abstract: This article analyzes the significance of Jalaluddin Rumi's legacy in the governance of the modern state and society from philosophical and social perspectives. It explores the thinker's views on leadership ethics, dialogue with the people, justice, tolerance, humanism, and the maintenance of social stability. The study also highlights the alignment of Rumi's ideas with the contemporary development strategy of New Uzbekistan, particularly in terms of public engagement and the elevation of human dignity. Furthermore, the article emphasizes the spiritual interconnection between the leader, their associates, and society within the system of public administration.

Keywords: Jalaluddin Rumi, public administration, governance of society, humanism, justice, tolerance, dialogue with the people, spirituality, leadership responsibility, New Uzbekistan.

Jamiyatda yashovchi kishilarning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk bo'lishida mamlakatda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, Sharq allomalarining ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashga doir g'oyalarining kontseptual ahamiyati bugungi kunda har doimgidanda muhimroq hisoblanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan-ko'p masalalardan iborat.[2.-B.499.] Barcha zamonlarda xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro ijtimoiy murosa madaniyatini shakllantirish hamda unga amal qilish masalasi ijtimoiy-siyosiy jihatdan g'oyat ahamiyatli jarayon hisoblangan. Hozirda mamlakatimizda o'ndan ortiq turli diniy konfessiyalar faoliyat yuritmoqda. Bunday ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va o'zga din vakillariga, ularning an'analariga tolerantlik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishda ijtimoiy murosa madaniyatining o'rni beqiyosdir. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va ahil qo'shnichilik munosabatlari kabi ijtimoiy masalalarni yo'lga qo'yish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Natijada, mamlakatimizda ijtimoiy murosa – muvozanat kontsepsiyasi dunyoga keldi.[1.-B.342.] Zotan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda millati, dini, irqi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, davlat barcha fuqarolarga adolatparvarlik hamda tenglik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lib, ularning haq-huquqlari va manfaatlarini kafolatlashi lozim. Aynan mana shunday ijtimoiy munosabatlar mamlakat taraqqiyoti va fuqarolar farovonligini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bu xususida buyuk fiqhshunos olim Abu Mansur al-Moturudiy shunday yozadi: "...barcha amallarni,

xususan, me’yorlar, e’tiqodlar, qoidalar, faoliyatlarni Alloh yaratadi va o‘z ixtiyori bilan amalga oshiradi”.[3.-B.43.] Umuman olganda, har bir inson qaysi davlatda yashashidan qat’iy nazar, o‘zining haq-huquqlari va vakolatlaridan to‘laqonli foydalanmog‘i lozim. Jamiyatning faol a’zosi sifatida har bir fuqaro o‘zining ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishi uchun davlat tomonidan barcha shart-sharoitlar qonun doirasida yaratilib, ularning huquq va manfaatlari himoya qilinsa, bunday holda ijtimoiy konsensuslik munosabatlari ilgarilanma harakat tarzida taraqqiy etadi. Shu tariqa davlat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ijtimoiy murosa madaniyatiga muvofiq tartibga solinadi. Bunday jarayonlarda jamiyatda yashovchi boshqa millat va elat vakillariga nisbatan ham adolatli munosabatda bo‘lish tamoyillariga qat’iy rioya etmoqlik lozim. Bunday tanlash va ixtiyor qilish jarayonlarida insonning mas’uliyati, e’tiqodiy javobgarligi namoyon bo‘ladi.[4.-B.43.]

Inson ijtimoiy mavjudot hisoblanib, muntazam ravishda atrof-muhit bilan bevosita va bilvosita chambarchas yashaydi. Ijtimoiy munosabatlar deganda shaxslararo munosabatlar tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi o‘z navbatida oilaviy, do‘stlik, ishqiy, kasbiy va ijtimoiy aloqadorlik kabi munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ularning nafaqat ratsional va irrotsional dunyoqarashiga, balki, ta’sir hayot tarziga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Nazarimizda ijtimoiy davlatni barpo etishning eng muhim omillaridan biri, bu – ijtimoiy axloqni shakllantirish masalasidir. Ayrimlar bu masalada ham o‘z ikkilanishlarini sezdirmoqda.

Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon ma’naviy barkamollik masalasi barcha zamonlar va insonlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv davrida ham bu masala o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Insoniyatning komillikka erishuvi bevosita bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga asoslanadi. Umumbashariy qadriyatlarga hurmat, o‘zaro millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglik masalalari bugungi kunda O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.“Biz barchamiz - fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni ta’minlash uchun, tarixiy, ma’naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas’ulmiz”.[5.-Prezident nutqi] Xususan, o‘rta asrlar musulmon Sharqining muazzam siymolaridan biri bo‘lmish Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosi, tasavvufiy-irfoniy qarashlari zamonlar osha insoniyatni sog‘lom e’tiqod, yuksak ma’naviyat, keng dunyoqarash, o‘zaro hamjihatlik, totuvlik va bag‘rikenglikka chorlaydi. Rumiyning ushbu altruistik qarashlari har qanday taraqqiyot davrida o‘z ma’naviy, ijtimoiy, siyosiy qiymatini yo‘qotmaydi. Negaki, mutasavvifning istalgan asarini o‘qib, tahlil etadigan bo‘lsak, ularning bosh g‘oyasi Inson va uning o‘zaro tinch-totuv, hamjihatlik, diniy bag‘rikenglik mezonlariga amal qilgan holda farovon yashashiga Rumiy insoniyatni da’vat

etayotganiga amin boʻlamiz. Bu esa oʻz-oʻzidan Jaloliddin Rumiyning barcha millatlar va xalqlar uchun birdek sevimli ekanligiga asosiy sababdir.

Mutasavvifning bagʻrikenglik va hamjihatlik haqidagi gʻoyalari bugungi jadal suratda rivojlanayotgan jahon siyosati xaritasidagi oʻzgarishlar sharoitida ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Rumiyning vatanparvarlik, insonparvarlik, diniy bagʻrikenglik, oʻzaro tinch-totuvlik gʻoyalariga asoslangan irfoniy qarashlari bugungi kunda barcha xalqlar uchun birdek ahamiyatlidir. Xususan, bugungi kunda musulmon olamida dolzarb ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar yuz berayotgan bir paytda islom olami atrofida vujudga kelayotgan turli aqidaviy muammolarni ijobiy hal qilishda oʻzaro hamjihatlikning oʻrni beqiyosdir.[6.-B.179.] Ijtimoiy-siyosiy tamoyillarni inobatga olgan holda, diniy fundamentalizm va ekstremizmning salbiy gʻoyaviy omillariga qarshi mafkuraviy kurash olib borish bugun barchamizning asosiy maqsadimizdir. Jaloliddin Rumiyning falsafiy-tasavvufiy qarashlarida islom dinining asosiy mohiyati ma'rifat va irfoniy tafakkur ekanligi ham ilmiy, ham falsafiy jihatdan chuqur izohlangan holda ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Joʻrayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.342.

2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2000. – B.499.

3. Ubaydullaeva R., Bekmurodov M. Asrlar qa'ridan kelgan sado…Al-Moturudiy ta'limoti va uning X-XII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan oʻrni. Ma'ruzalar toʻplami. – Toshkent: OʻzFA, 1999. – B.43.

4. Ubaydullaeva R., Bekmurodov M. Koʻrsatilgan asar. – B.43.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 25 yillik munosabati bilan boʻlib oʻtgan tantanali marosimda soʻzlagan nutqidan.

© Axmedov Soxib Saimovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Axmedov Soxib Saimovich

KARMANA BUXORO XONLIGI VA AMIRLIGI DAVRIDA

Kamolova Madina

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Karmananing Buxoro xonligi va amirligi davridagi tarixiy ahamiyati haqida so`z boradi. Shuningdek Karmananing tarixi, o`sha davrlardagi Buxoro xonlik va amirliklar ijtimoiy – iqtisodiy madaniy taraqqiyotidagi o`rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: arxeologiya, Burquttepa, karvonsaroy, tasavvuf, alloma, ulamo, qal’a, sardoba, Buyuk Ipak yo’li.

Abstract. This article analyzes the relationship between urban planning and ecological balance from the perspective of modern urban studies. It examines environmental challenges caused by rapid urbanization and explores possible solutions. Special attention is given to the role of artificial intelligence technologies in developing urban infrastructure, optimizing resource use, improving environmental monitoring, and ensuring public safety. The importance of integrating green infrastructure and digital technologies within the framework of sustainable urban development is substantiated.

Keywords: artificial intelligence, urban planning, ecological balance, urbanization, sustainable development, green infrastructure, smart city, environmental monitoring

Аннотация. В данной статье проанализирована взаимосвязь градостроительства и экологического баланса с позиций современной урбанистики. Рассматриваются экологические проблемы, возникающие в результате ускоренной урбанизации, а также пути их решения. Особое внимание уделено роли технологий искусственного интеллекта в развитии городской инфраструктуры, рациональном использовании ресурсов, экологическом мониторинге и обеспечении общественной безопасности. Обоснована значимость интеграции зеленой инфраструктуры и цифровых технологий в рамках концепции устойчивого развития городов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, градостроительство, экологический баланс, урбанизация, устойчивое развитие, зеленая инфраструктура, умный город, экологический мониторинг

Karmana Markaziy Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan Buxoro va Samarqand o'rtasida alohida strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi. Karmana G'arb bilan Sharqni bog'lovchi qadimiy karvon yo'lining asosiy chorrahasida joylashganligini ushbu hududdagi qadimiy inshootlar, bozor va karvonsaroylarning mavjudligi ham tasdiqlaydi. Bugungi Navoiy viloyati hududiy jihatdan Respublikadagi eng katta viloyati bo'lib, bu yerning tarixi va madaniyati bevosita Buxoro va Samarqand tarixi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababdan Karmana hududidagi tarixiy yodgorliklar va inshootlarining yoshi va qurilish strukturasi ham Buxoro va Samarqand me'moriy yodgorliklari bilan uyg'un holatda deb ayta olamiz. Navoiy viloyatining tarixi qadimiyligini Karmanada bugungi kunda yer yuzidan yo'q bo'lib ketish arafasida turgan 20 ga yaqin arxeologik qadimgi tepaliklar ham tasdiqlaydi. Shulardan biri Burquttepa, Karmananing eng qadimiy joylaridan biri bo'lib, hozirgi Karmana shahrining sharqida, Buxoro-Samarqand yo'lining o'ng tomonida joylashgan. Karmananing Buxoro xonligi davridagi tarixiy ahamiyati, bu yerdan yetishib chiqqan tasavvuf allomalarining xonlik ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi mavqeyi masalalari keng qamrovli tadqiqot darajasida ilmiy-qiyosiy tahlil qilinib, izchil o'rganilmagan. Buxoro xonligi 1500-1601 yillarda, Movarounnahrda Muhammad Shayboniyxon asos solgan yirik markazlashgan davlat edi. 1533 yilga qadar mamlakat poytaxti Samarqand bo'lib, Ubaydullaxon davrida (1533-1540 y.) poytaxt Buxoroga ko'chirildi va xonlik Buxoro xonligi nomini oldi. O'sha vaqtlarda xonlikka hozirgi O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston va Tojikistonning katta qismi, Balx va Badaxshon kirar edi. Ubaydullaxon vafotidan keyin Buxoro xonligi ma'lum muddat bir qancha mulklarga bo'linib ketdi. Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540-1550), Samarqandda Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullatifxon (1540 - 1551), Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon – Baroqxon (1551-1556), Karmana va Miyonqolda Iskandarxon (1561-1583) va boshqa kichik-kichik hukmdorlar mustaqil bo'lib oladilar. Ushbu ma'lumotni tarixchi Xofiz Tanish Buxoriy ham o'z asarida "O'sha zamonda viloyatlar (uning) mashhur farzandlari va karamli avlodlari o'rtasida taqsimlandi. Jonibek Sultonning avlodlaridan ba'zilari Miyonqolda turar edilar. Ulardan har biri qal'ada o'zining hashamat tug'ini ko'tarib, mustaqillik da'vo qilardi. Iskandarfarmon hoqon Abdulfath Iskandar bahodirxon taqsimlanish bo'yicha Ofarinkent (hozirgi Xatirchi tumani hududi) da hukmron edi",- deb fikrimizni tasdiqlaydi.

Abdullaxon II tug'ilgan vaqtda (1534 y) uning otasi Iskandar Bahodirxon Miyonqol (Karmana) va Ofarinkent hokimi edi. Miyonqol bilan Karmanani birgalikda keltirishga sababi shuki, ayni shu davrda Miyonqol va Karmana viloyatlari bitta bo'lib, Miyonqol deb yuritilgan va markazi Karmanada bo'lganligi tarixiy manbalarda eslatib o'tiladi. XVI asrda Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Karmanada kechgan tarixiy voqealar, Karmananing xonlik ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tutgan o'rni haqida Mirza Salimbekning asarida Karmanada hokimlik qilgan Iskandarxon va Abdullaxon II ning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga ayniqsa kengroq urg'u beriladi. Shayboniylar davrida Karmana

xonlikning ijtimoiy - siyosiy hayotida muayyan ahamiyat kasb eta boshlaydi. Ubaydullaxon hukmronligi yillarida Shayboniyxonning amakivachchasi Jonibek sulton dastlab 1503-1509 yillarda Farg'ona (Axsi) da, so'ng 1510 yilda Karmanada o'g'illari bilan hukmronlik qilgan va 1529 yilning 20 martida Karmanaga qarashli Miyonqol tumanining Kufin qishlog'ida vafot etgan. Jonibek sultonning 12 nafar farzandi bo'lib, shulardan Iskandar sulton 1561 yilgacha, Isfandiyor sulton, Kepak sulton (bir oz vaqt Sog'arjda ham), Rustam sulton (1554 y.) lar asosan Karmana atrofidagi nohiyalarda hukmronlik qilganlar.

Hasanxoja Nisoriyning ma'lumotlarida keltirilishicha, Iskandar sulton Jonibeksultonning Toshkent hokimi Mahmud Koshg'ariy(Boburning tog'asi)ning qizidan dunyoga kelgan va u 15 yoshidan boshlab Samarqand (Miyonqol) ga qarashli Ofarinkent nohiyasida hokimlik qilgan. U otasi vafotidan so'ng Karmanaga hokim etib tayinlangan. Iskandar sulton yoshligidan boshlab harbiy qobiliyatga ega bo'lsa-da, keyinroq taqvoga berilib ketadi. U taniqli tasavvuf allomasi Mahdumi A'zam Dahbediy (1461-1543 yy.) ning muridi va shogirdi edi. Mahdumi A'zam asli Farg'ona (Koson)lik bo'lib 1514-1516 yillarda Jonibek sultonning taklifi bilan Karmanaga keladi, keyin Ubaydullaxon huzurida Buxoroda turadi. Ushbu voqea tadqiqotchi E.Zoirov asarida quyidagicha izohlanadi: "Tez orada Sayyid Ahmad Kosoniyning shuhrati butun Movarounnahr, Xurosonga yoyiladi. Karmana va Miyonqol hokimi bo'lmish Jonibek sultonning taklifi bilan Mahdumi A'zam Kosoniy Samarqand yaqiniga ko'chib keladi. Dastlab Karmanada yashaydi, so'ngra Miyonqolning eng so'lim va hosildor yerlaridan unga joy ajratib beriladi. Mahdumi A'zam Kosoniy bu joyni obod qiladi".

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu davrda Karmananing mavqei nafaqat davlat ijtimoiy-siyosiy hayoti va hukmdorlar nazarida, balki mamlakat tayanchi bo'lgan din peshvolari nazarida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. 1551 yilda Samarqand hokimi Abdulatifxon, Toshkent va Turkiston hokimi Navro'z Ahmadxon Buxoro va Miyonqolni bosib olish uchun yurish boshlaydilar. Kuchlar teng emasligini bilgan Iskandarxon Miyonqolni tashlab, Andxud va Shibirg'on tomonga qarab yo'l oladi. Shunday murakkab sharoitda toj-taxt da'vogarlaridan biri – o'n yetti yoshli Abdullaxon tashabbusni o'z qo'liga olib, dushmanga qarshi Karmana mudoffasiga otlanadi va hatto bu ishga mamlakat tayanchi bo'lgan diniy ulamolarni ham jalb qiladi. Abdullaxonning Karmana mudofaasiga jiddiy e'tibor qaratishi esa bu davrda Karmana Buxoro xonligining muhim strategik ahamiyatga ega hududi hisoblanganligidan dalolat beradi.

Tarixiy manbalarning tahlili natijasida shu narsa ma'lum bo'ladiki, XVI asrda Buxoro xonligida Karmananing mavqei oshib, obod bo'lishi hamda bu yerda ko'plab me'moriy inshootlar barpoetilishi bevosita Shayboniylar sulolasining vakili Abdullaxon II nomi bilan bog'liq. Chunki Abdullaxonning bu yurtga e'tibori va alohida mehri tushganligi Karmana uning kindik qoni to'kilgan yurt ekanligidan deb aytish mumkin. Uning ota-bobosi Karmanada yashadi va saltanat yuritdi. Fikrimizni Hofiz Tanish al-Buxoriyning quyidagi

ma’lumoti ham tasdiqlaydi: “Abdullaxon Balxdan qaytib poytaxt Buxoroda bir oz to’xtaganidan so’ng, jami arkoni davlatlari va a’yonlari bilan tug’ilgan yeri va asl vatani bo’lgan Karmanaga birodari Ibodullo Sultonni yubordi”. Karmananing Buxoro xonligi davridagi ijtimoiy-siyosiy mavqeini yuqori bo’lganligini keltirilgan tarixiy manbalarga asoslangan holda xulosa qilishimiz mumkin. Qolaversa, Karmananing mavqei nafaqat Buxoro xonligi davrida, balki undan oldingi davrlarda ham katta ahamiyatga ega bo’lgan. Xususan, Narshaxiy asarida keltirilgan quyidagi ma’lumot diqqatga sazovordir: “Somoniylar va ular qo’l ostidagi amirlar davrida Buxoroning xiroji Karmananiki bilan qo’shilib bir gal bir million bir yuz oltmish sakkiz ming besh yuz oltmish olti dirhamu besh yarim donakni tashkil etgan”, - deb ta’kidlaydi. Shuningdek, Narshaxiy ma’lumotlarida hokimiyat tepasiga kelgan Ismoil Somoniy ham Karmanada Buxoro hukmdori etib tayinlangan va u Buxoroliklar tomonidan shodlik bilan qarshi olinganligini ham eslatib o’tadi. Xulosa qilib aytganda, Karmana hududiy birlik sifatida o’rta asrlarning Buxoro xonligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy hayotida muhim o’rin tutdi. Ushbu viloyat qulay jug’rofiy tuzilishga ega bo’lib, Markaziy Osiyoning ikki yirik poytaxt shaharlari, Buxoro va Samarqandni o’zaro bog’lab turuvchi ko’prik vazifasini o’tadi. Shu bois bu yerda nafaqat savdogarlar, balki bo’lajak davlat rahbarlari, shahzodalar, ko’plab olimlar, shoirlar, ulamolar to’plandi va mamlakat ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etdilar. Karmanalik diniy ulamolar Buxoro xonligining ma’naviy, diniy hayotida katta mavqega ega bo’lib, ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim o’rin tutgan.

Karmana XV-XVI asrlarda ham o’zining iqtisodiy, madaniy, ma’muriy markazlik nufuzini saqlab qolgan. Tarixiy manbalarda shayboniylar, ashtarxoniylar keyinchalik mang’itlar sulolalari hukmronligi davrlarida ham Karmana Buxoro davlatining yirik viloyatlaridan biri sifatida e’tirof etib o’tiladi. Bu esa Karmananing Buyuk Ipak yo’liustida joylashganligi va uning o’sha davrlarda yirik savdo markazlaridan biri bo’lib, katta ijtimoiy-siyosiy mavqeiga ega bo’lganligini, bu erda barpo etilgan qadimgi karvon saroy va sardobaning mavjudligi bilan ham izohlash mumkin. Arxeologik topilmalar, tarixiy manbalar, rivoyatlar va tadqiqotlarning tahlili natijasida shu narsa aniq bo’ladiki, Karmananing yoshi hamSamarqand, Buxoro kabi qadimiy shaharlar yoshibilan tenglasha oladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1.1.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O’zbekiston, 1992. -B.18.

2.Mirziyoev Sh.M. Oliy Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi nutqidan. / Sh.M.Mirziyoev.-Toshkent: O’zbekiston, 2017. 8-sentyabrь.

3.Mirziyoev Sh. M. Navoiy viloyati saylovchilari bilan uchrashuvidagi saylov oldi nutqidan./ Sh.M.Mirziyoev. –Navoiy: 2021.13-oktyabrь.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –Toshkent: Yangi asr avlodi.1992.B-280.

6. Istoriya at-Tabari. Izbrannыe otrыvki. Perevod s arabskogo V.I Belyaeva.-Tashkent: Fan, 1987.-S.133-136., Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Meros turkumida / Fors tilidan A. Rasulov tarjimasi. – Toshkent: Kamalak, 1991.-B.161.

7. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard الارد صورة كتاب (Erning surati kitobi). Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin.-Toshkent: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2011.-B.49.

8. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -Toshkent: Sharq, 1997.-B.79.

4.60. Shalatonin B. Tыsyacha unikumov kыzilkumov.-Navoiy: Navoiy,1997.-B.85.

9. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob/Fors tilidan Sodiq Mirzayev tarjimasi.– Toshkent: Sharq, 1999. – B.61.

10. Hasanxo‘ja Nisoriy. Muzakkiri ahbob (Do‘stlar yodnomasi). Tazkira.-Toshkent: A.Qodiriy, 1993. -B.18.

© Kamolova Madina, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Kamolova Madina

NAVOIY VILOYATIDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING HUDUDIY TUZILMASI: DINAMIK VA TARKIBIY TAHLIL

Baqoyev Husan Nuriddinovich, *Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti,* *bhusann77@gmail.com*

Baqoyev Bekzod Burxon oʻgʻli, *Navoiy innovatsiyalar universiteti, iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishning hududiy va tarmoq tuzilmasi dinamikasi tahlil qilinadi. Hududlar ulushi oʻzgarishi baholanib, sanoatning markazlashuvi va hududiy nomutanosiblik darajasi aniqlanadi hamda xulosalar shakllantiriladi.

Kalit soʻzlar: sanoat ishlab chiqarish, hududiy tuzilma, tarmoq tarkibi, ulush dinamikasi, Navoiy viloyati, iqtisodiy tahlil.

Региональная и отраслевая структура промышленного производства в Навоийской области: динамический и структурный анализ

Аннотация: В статье проводится анализ динамики территориальной и отраслевой структуры промышленного производства Навоийской области. Оцениваются изменения долей регионов, выявляются тенденции концентрации производства и уровень территориальных диспропорций.

Ключевые слова: промышленное производство, территориальная структура, отраслевая структура, динамика долей, Навоийская область, экономический анализ.

Regional and Sectoral Structure of Industrial Production in Navoi Region: Dynamic and Structural Analysis

Abstract: The article examines dynamics of regional and sectoral structure of industrial production in Navoi region, evaluates changes in shares, and identifies concentration trends and territorial disparities in industrial development.

Keywords: industrial production, regional structure, sectoral composition, share dynamics, Navoi region, economic analysis.

Navoiy viloyati Oʻzbekiston Respublikasining sanoat salohiyati yuqori boʻlgan hududlaridan biri boʻlib, unda ishlab chiqarish jarayonlari, ayniqsa, soʻnggi yillarda

sezilarli darajada jadallashib bormoqda. Hududda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari, yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishi va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi sanoat mahsulotlari hajmining oʻsishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining hududlar kesimidagi notekis taqsimlanishi hamda iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha tarkibiy farqlarning mavjudligi ilmiy tahlilni talab etadi. Sanoat tarmogʻining hududiy va tarmoq tuzilmasini chuqur oʻrganish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish va investitsiya siyosatini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global iqtisodiy sharoitlarning oʻzgaruvchanligi sharoitida sanoat ishlab chiqarishining barqarorligini taʼminlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishining hududiy va tarmoq tuzilmasini dinamik hamda tarkibiy jihatdan tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Mazkur tadqiqot ushbu jarayonlarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni ilmiy asosda baholashga qaratilgan.

Tahlilni yanada aniq va tizimli amalga oshirish maqsadida dastlabki maʼlumotlar qayta ishlanib, asosiy yillar kesimida ixcham shaklga keltirildi. Ushbu yondashuv sanoat ishlab chiqarishining uzoq muddatli dinamikasini va hududlar kesimidagi oʻzgarishlarni yanada ravshan aks ettirish imkonini beradi. Tanlangan yillar viloyat sanoatining rivojlanish bosqichlarini ifodalovchi muhim davrlarni qamrab oladi. Qayta shakllantirilgan jadval asosida hududlar oʻrtasidagi tafovutlar hamda oʻsish surʼatlarini taqqoslash imkoniyati kengayadi. Shu asosda quyidagi jadval taqdim etiladi.

1-jadval.

Navoiy viloyat shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsuloti hajmi

(amaldagi narxlarda; mlrd. soʼm)

Hududlar	**2010**	**2015**	**2020**	**2022**	**2025**
Navoiy viloyati	4 038,5	9 286,9	65 084,9	84 393,7	195 226,4
Navoiy sh.	3 578,4	6 923,2	54 997,2	71 487,6	166 715,4
Zarafshon sh.	52,7	148,1	316,0	363,2	1 067,9
Gʻozgʻon sh.	–	–	–	75,8	275,9

Karmana t.	255,3	1 087,9	6 950,4	8 166,8	13 580,5
Konimex t.	5,0	46,8	137,9	606,3	972,1
Qiziltepa t.	59,4	325,5	1 131,0	1 635,8	2 030,8
Navbahor t.	41,5	202,9	500,4	800,7	1 401,6
Nurota t.	6,1	118,4	265,0	302,8	650,9
Tomdi t.	1,5	23,8	37,3	47,2	99,7
Uchquduq t.	6,7	65,0	175,9	307,7	701,3
Xatirchi t.	31,9	345,1	573,8	599,9	1 854,8

Manba: Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari

Jadval ma’lumotlarini tahlil qilishda shuni alohida ta’kidlash lozimki, koʻrsatkichlar **amaldagi narxlarda** ifodalangan boʻlib, yillar davomida kuzatilayotgan keskin oʻsish sur’atlarida inflyatsiya omilining ta’siri mavjud. Shu sababli, sanoat mahsulotlari hajmining bir necha baravar oshishi faqat real ishlab chiqarish kengayishi bilan emas, balki narxlar darajasining oshishi bilan ham izohlanadi. Mazkur holat yillar kesimidagi mutlaq farqlarni kattalashtirib koʻrsatadi va natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, tahlilda asosiy e’tibor **hududlarning viloyat sanoatidagi ulushi va uning oʻzgarishiga** qaratildi.

1-jadval ma’lumotlari asosida viloyat sanoat mahsulotidagi hududlar ulushi hisoblab chiqilganda, Navoiy shahridan tashqari barcha tuman va shaharlarning hissasi juda kichik ekanligi aniq koʻrinadi. Hisob-kitoblar mingdan bir foiz **(0,001%)** aniqlikkacha amalga oshirildi va tahlilda aynan ulushlarning oʻzgarish dinamikasiga e’tibor qaratildi.

Avvalo, misol tariqasida **Xatirchi tumani**ni koʻrib chiqamiz. Ushbu hududning viloyat sanoatidagi ulushi 2010-yilda 0,790% ni tashkil etgan boʻlsa, 2015-yilda 3,715% ga yetgan va natijada tarkibdagi ulushi **4,70 barobar** oshgan. Keyingi yillarda umumiy sanoat hajmining keskin kengayishi fonida ulush nisbatan kamayib, 2025-yilda 0,950%

ni tashkil etgan. Shunga qaramay, uzoq muddatli davrda ushbu tuman sanoatdagi oʻrnini mustahkamlab borganligini koʻrish mumkin.

1-rasm. Navoiy viloyati shahar va tumanlarining sanoat mahsulotidagi ulushi dinamikasi (foizda)

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, ulushi eng yuqori oʻsish sur’atiga ega boʻlgan hududlardan biri **Konimex tumani** hisoblanadi. Mazkur tumanning ulushi 2010-yilda atigi **0,124%** boʻlgan boʻlsa, 2015-yilda 0,504% ga yetib, **4,06 barobar** oshgan. 2025-yilda esa uning ulushi 0,498% ni tashkil etib, boshlangʻich davrga nisbatan qariyb **4,0 barobar** yuqori darajada saqlanib qolgan (1-rasm).

Shuningdek, **Nurota tumani** ham ijobiy dinamikani namoyon etgan hududlardan biridir. Uning ulushi 2010-yildagi 0,151% dan 2015-yilda 1,275% ga yetib, **8,44 barobar** oshgan. 2025-yilda esa ushbu koʻrsatkich 0,333% ni tashkil etgan boʻlib, boshlangʻich davrga nisbatan baribir yuqori darajada saqlanib qolgan.

Aksincha, ayrim hududlarda sanoat mahsulotidagi ulushning kamayishi kuzatiladi. Jumladan, **Karmana tumani** dastlab yuqori oʻsishni namoyon etgan boʻlsa-da, umumiy sanoat hajmining keskin kengayishi fonida uning ulushi 2010-yildagi 6,320% dan 2025-yilda 6,957% ga deyarli oʻzgarmagan holda qolgan, ya’ni nisbiy ustunlikni saqlab qola olmagan. **Qiziltepa tumani**da esa ulush 2010-yildagi 1,471% dan 2025-yilda 1,040% ga kamayib, taxminan **0,71 barobarga** tushgan (1-rasm).

Umuman olganda, hisob-kitoblar shuni koʻrsatadiki, Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishida asosiy ulush yirik sanoat markazi — Navoiy shahri hissasiga toʻgʻri kelmoqda, boshqa hududlar ulushi esa juda kichik va nisbatan oʻzgaruvchan xarakterga ega. Ayrim tumanlarda ulushning keskin oshishi kuzatilgan boʻlsa-da, viloyat sanoatining umumiy hajmi juda tez oʻsib borayotgani sababli ularning nisbiy hissasi barqaror yuqori darajaga chiqib ulgurmagan. Bu esa hududiy sanoat rivojlanishida nomutanosiblik saqlanib qolayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi hajmi yillar davomida keskin oshgan boʻlsa-da, bu oʻsishda inflyatsiya omilining ta’siri mavjud boʻlib, mutlaq koʻrsatkichlar real oʻsishni toʻliq aks ettirmasligi mumkin.

- Sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi Navoiy shahri hissasiga toʻgʻri kelib, hududiy jihatdan yuqori darajada markazlashuv kuzatilmoqda, tumanlarning ulushi esa juda past darajada saqlanib qolmoqda.

- Ayrim tumanlarda (Konimex, Nurota, Xatirchi) sanoat ulushining o‘sish dinamikasi ijobiy bo‘lsa-da, umumiy sanoat hajmining tez kengayishi sababli ularning nisbiy hissasi barqaror yuqori darajaga chiqmagan, natijada hududiy nomutanosiblik saqlanib qolgan.

Amalga oshirilgan tahlillar asosida sanoat mahsulotning hududiy tarkibini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar beriladi:

- Sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish maqsadida past ulushga ega tumanlarda (Tomdi, Uchquduq va boshqalar) maxsus sanoat zonalari va infratuzilma loyihalarini kengaytirish zarur.

- Tumanlarda sanoat ulushini oshirish uchun investitsiya jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, xususan, soliq imtiyozlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

- Sanoat rivojlanishini baholashda faqat amaldagi narxlardagi ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, ularni doimiy (qiyosiy) narxlarda ham tahlil qilish orqali real o‘sish sur’atlarini aniqlash va shu asosda hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baqoyev H.N. Навоий вилояти саноат маҳсулотлари ҳажмига ишлаб чиқариш инфратузилмалари таъсирини статистик баҳолаш. / “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2022 йил, 2-сон https://statmirror.uz

2. Baqoyev H.N. Navoiy viloyatida sanoat tarmog‘i rivojlanishi tahlil. / “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2025-yil, yanvar. № 1-son, 379-382 bet https://doi.org/10.5281/zenodo.14778207

3. Bakoev Kh.N. Econometric analysis of industrial network development of Namangan region. / Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. -5/2023, sentabr-oktabr (N00067), 2023-yil. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss5/a23

4. www.stat.siat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining integrallashgan axborot tizimi rasmiy sayti.

5. www.navstat.uz – Navoiy viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti.

© Baqoyev Husan Nuriddinovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Baqoyev Husan Nuriddinovich, Baqoyev Bekzod Burxon o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FINTECH-BANK INTEGRATSIYASI: MODELLAR TASNIFI VA SAMARADORLIK BAHOLASH MEZONLARI

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti

i.f.f.d(PhD) Rajabov Behzod Mirshodovich

https://orcid.org/0009-0002-4899-6436 behzodrajabov060@gmail.com

Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti

Qosimjonova Surayyo Qosimjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida fintech ekotizimi va tijorat banklari o'rtasidagi integratsiya modellari tahlil qilinadi. Raqobat, hamkorlik va gibrid modellarning asosiy xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqiladi. Empirik ma'lumotlar asosida strategik hamkorlik modelining rivojlanayotgan bozorlar uchun iqtisodiy jihatdan maqbulligi asoslanadi. O'zbekiston bozorining o'ziga xos institutsional va regulyativ xususiyatlari hisobga olingan holda bank va fintech kompaniyalari hamda nazorat organlari uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются модели интеграции между финтех-экосистемой и коммерческими банками в Республике Узбекистан. Рассматриваются основные характеристики, преимущества и недостатки конкурентных, кооперационных и гибридных моделей. На основе эмпирических данных обосновывается экономическая целесообразность модели стратегического сотрудничества для развивающихся рынков. С учётом специфических институциональных и регуляторных особенностей рынка Узбекистана предлагаются практические рекомендации для банков, финтех-компаний и регулирующих органов.

Abstract. This article analyzes integration models between the fintech ecosystem and commercial banks in the Republic of Uzbekistan. It examines the main characteristics, advantages, and disadvantages of competitive, cooperative, and hybrid models. Based on empirical data, the economic feasibility of a strategic partnership model for emerging markets is substantiated. Taking into account the specific institutional and regulatory features of the Uzbek market, practical recommendations are provided for banks, fintech companies, and regulatory authorities.

Kalit so'zlar: *fintech, bank-fintech integratsiyasi, mobil banking, raqamli transformatsiya, strategik hamkorlik, O'zbekiston moliya bozori.*

1. KIRISH

Jahon moliya tizimida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari an'anaviy bank institutlari va fintech kompaniyalari o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqda. 2019–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida mobil to'lovlar hajmi yillik o'rtacha 60–70 foizga o'sgan bo'lib, 2023 yil yakuniga ko'ra jami naqd pulsiz to'lovlarning 70 foizdan ortig'i mobil kanallar orqali amalga oshirilgan. Payme, Click, Uzum Bank kabi mahalliy fintech platformalari faol rivojlanishi esa an'anaviy tijorat banklarini o'z raqamli strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur etmoqda.

"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish va raqamli to'lov infratuzilmasini mustahkamlash borasida muhim qarorlar qabul qilinmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston kontekstida fintech ekotizimi va tijorat banklari o'rtasidagi integratsiya modellarining samaradorligi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi ushbu modellarni tasniflab, ularning mahalliy bozor uchun moslashuvini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

2. NAZARIY ASOS VA ADABIYOTLAR SHARHI

Fintech va an'anaviy banklar o'rtasidagi munosabatlarni tasniflash uchun Gozman, Liebenau va Mangan (2018) tomonidan ishlab chiqilgan uch qutbli model — raqobat, hamkorlik va integratsiya — xalqaro adabiyotlarda keng qo'llaniladi. PwC (2020) tadqiqotiga ko'ra, dunyo bo'yicha yirik banklarning 82 foizi fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni keyingi besh yil ichida strategik ustuvorlik sifatida belgilagan.

Platforma iqtisodiyoti nazariyasi (Rochet & Tirole, 2003; Parker & Van Alstyne, 2005) fintech-bank munosabatlarini yangicha ko'rish imkonini beradi: banklar nafaqat moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi sifatida, balki mijozlar va uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchilari o'rtasida vositachilik qiluvchi platforma sifatida ham tavsiflanadi. Texnologiyani qabul qilish modeli — TAM (Davis, 1989) esa foydalanuvchilarning mobil bank xizmatlarini o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistondagi tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, mavjud ishlarning aksariyati tavsifiy xarakter kasb etib, empirik ma'lumotlar to'plash va miqdoriy tahlildan foydalanmaydi. Xalqaro valyuta fondi (2022) va Jahon banki (2021) hisobotlari mamlakatda moliyaviy inklyuzivlik darajasining pastligini qayd etgan — aholining atigi 48 foizigina rasmiy moliya tizimiga kirishga ega. Bu ko'rsatkich fintech-bank integratsiyasi bo'yicha maxsus tadqiqot o'tkazishning zarurligini yanada kuchaytiradi.

3. FINTECH-BANK INTEGRATSIYA MODELLARINING TASNIFI

3.1. Raqobat modeli

Raqobat modelida fintech kompaniyalari an'anaviy banklarning muayyan xizmat segmentlarini to'g'ridan-to'g'ri o'z zimmasiga olishga intiladi. Bu model to'lov tizimlari, xalqaro pul o'tkazmalari va iste'mol kreditlash sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Fintech kompaniyalarining asosiy raqobat ustunliklari quyidagilardan iborat:

— xarajatlar ustunligi: filial tarmog'i va katta xodimlar soniga ega bo'lmaslik tufayli xizmat ko'rsatish xarajatlarining pastligi;

— ixtisoslashuv: muayyan xizmat turida chuqur kompetensiyaga ega bo'lish va shu sohadagi foydalanuvchi tajribasini maksimal darajada yaxshilash;

— tezkorlik: yangi mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish muddatining banklarga nisbatan ancha qisqaligi.

Biroq raqobat modelining jiddiy cheklovlari ham mavjud. Fintech kompaniyalari odatda bank litsenziyasiga ega bo'lmaydi, shuning uchun depozit qabul qilish va to'liq kredit berish kabi xizmatlarni amalga oshira olmaydi. Bundan tashqari, regulyativ talablarga javob berish va mijozlar ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash fintech uchun yuksak xarajat va murakkablikni keltirib chiqaradi.

3.2. Hamkorlik modeli

Hamkorlik modelida banklar moliyaviy litsenziya, keng mijozlar bazasi, kapital va ishonch resurslari bilan, fintech kompaniyalari esa texnologik innovatsiya, chaqqonlik va foydalanuvchi tajribasi bilan hissa qo'shadi. Bugungi kunda bu model xalqaro amaliyotda eng keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi.

Hamkorlik modelining asosiy shakllari: API integratsiyasi va ochiq bank (Open Banking) mexanizmlari; white-label yechimlar — fintech kompaniyasining texnologik platformasini bank brendi ostida taqdim etish; akselerator va inkubator dasturlari orqali startaplarga ko'mak berish; fintech kompaniyalari kapitaliga strategik investitsiya kiritish. Yevropa Ittifoqining PSD2 direktivi va Buyuk Britaniyaning Open Banking tashabbusi hamkorlik modelini huquqiy jihatdan mustahkamlagan.

3.3. Integratsiya (gibrid) modeli

Integratsiya modeli raqobat va hamkorlik modellaridan sifat jihatdan farq qiladi — bu yerda fintech va bank mustaqil subyektlar sifatida emas, balki yaxlit raqamli ekotizim sifatida faoliyat ko'rsatadi. Asosiy yo'nalishlari: banklar tomonidan fintech kompaniyalarini to'liq sotib olish (Goldman Sachsning Marcus platformasi,

JPMorgan'ning WePay sotib olishi bunga misol); to'liq raqamli neobank brendini tashkil etish. Rivojlangan moliya bozorlarida integratsiya modeli tobora keng qo'llanilmoqda.

4. O'ZBEKISTON BOZORI UCHUN MODELLARNI BAHOLASH

O'zbekiston fintech ekotizimining institutsional tahlili bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatadi. Birinchidan, bozorda davlat banklarining ulushi dominant bo'lib qolmoqda — tijorat banklari aktivlarining 60 foizidan ortig'i davlat ishtiroki bo'lgan banklarga to'g'ri keladi. Ikkinchidan, regulyativ muhit hali to'liq shakllanmagan: fintech faoliyatini maxsus tartibga soluvchi qonun bazasi ishlab chiqilayotgan bosqichda. Uchinchidan, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar — "Regulatory Sandbox" mexanizmi va Open Banking pilot loyihalari — hamkorlik modelini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijalari strategik hamkorlik modelining mahalliy bozor uchun eng maqbul variant ekanligini ko'rsatadi. Buning bir qancha sabablari bor: bank litsenziyasi talablarining murakkabligi va kapital yetarliligi normalarining qattiqligi fintech kompaniyalarining mustaqil ravishda to'liq bank xizmatlarini ko'rsatishini qiyinlashtiradi; rivojlanayotgan bozorlar uchun xarakterli bo'lgan past regulyativ salohiyat to'liq integratsiya uchun huquqiy bazaning yetarli emasligini anglatadi; aholining moliyaviy ishonchlilik mezonlari bo'yicha bank brendlariga bo'lgan yuqori ishonchi hamkorlik modelida saqlab qolinadi.

Qozog'iston tajribasi O'zbekiston uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Kaspi Bank modeli — to'lov, elektron tijorat, kredit va kommunal xizmatlarni yagona ekotizimda birlashtirish — hamda Hindiston UPI platformasi — davlat tomonidan yaratilgan ochiq standart infratuzilma ustida xususiy fintech kompaniyalarining raqobatli xizmatlar ko'rsatishi — ikkalasi ham hamkorlik modeliga tayanadi. Bu ikki mamlakat tajribasi mahalliy sharoitga moslashtirilgan hamkorlik modelining rivojlanayotgan bozorlar uchun eng samarali yechim ekanligini tasdiqlaydigan empirik dalillar beradi.

5. TADQIQOT NATIJALARI VA TAVSIYALAR

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, O'zbekiston moliya bozorida hozirda aralash — asosan raqobat elementlari bilan bo'lgan hamkorlik — modeli ustunlik qilmoqda. Ikkinchidan, to'liq strategik hamkorlik modeliga o'tish iqtisodiy jihatdan qulay — bu model xarajatlarni 25–40 foizga kamaytirish va mijozlar qamrovini sezilarli kengaytirish imkonini beradi. Uchinchidan, regulyativ va madaniy to'siqlar sababli to'liq integratsiya modeli O'zbekiston uchun hozircha vaqtidan erta.

Tijorat banklari uchun tavsiyalar:

— fintech kompaniyalari bilan API orqali ochiq integratsiya platformalarini joriy etish va white-label yechimlar asosida hamkorlikni kengaytirish;

— mobil ilovalar UI/UX sifatini yaxshilashga investitsiya kiritish, chunki foydalanuvchilarning ilovadan voz kechishining asosiy sababi funksionallik emas, murakkab interfeys ekanligi aniqlangan;

— fintech akselerator dasturlarini tashkil etish orqali istiqbolli startaplarga erta kirib borish imkoniyatini qo'lga kiritish.

Markaziy bank uchun tavsiyalar:

— Hindiston UPI tajribasidan ilhomlanib, milliy ochiq to'lov standartini — O'zUPI kabi — ishlab chiqish va barcha bank va fintech kompaniyalariga bepul ulanish imkoniyatini berish;

— "Regulatory Sandbox" mexanizmini to'liq ishga tushirish va fintech kompaniyalariga yangi mahsulotlarni cheklangan muhitda sinash imkonini berish;

— bank va fintech kompaniyalari o'rtasidagi ma'lumot almashishni tartibga soluvchi maxsus huquqiy bazani — Open Banking regulyatsiyasini — ishlab chiqish.

6. XULOSA

O'zbekiston moliya bozorida fintech-bank integratsiyasi munosabatlari o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, strategik hamkorlik modeli nafaqat iqtisodiy jihatdan samaraliroq, balki mamlakatning hozirgi regulyativ va institutsional rivojlanish bosqichiga ham eng mos keluvchi yondashuv hisoblanadi. Xalqaro tajriba, xususan Qozog'iston Kaspi Bank va Hindiston UPI modellari, bu xulosani yanada mustahkamlaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi: foydalanuvchilar xulq-atvorini o'rganishga mo'ljallangan keng ko'lamli miqdoriy so'rovnoma o'tkazish; integratsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligini aniqlash uchun maxsus baholash metodologiyasini ishlab chiqish; O'zbekiston uchun ochiq bank standartlari bo'yicha qiyosiy tahlil amalga oshirish. Ushbu yo'nalishlarda to'plangan bilimlar mamlakatimizda raqamli moliyaviy xizmatlarni yanada samarali rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arner D.W., Barberis J., Buckley R.P. The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? // Georgetown Journal of International Law. — 2016. — Vol. 47. — P. 1271–1319.

2. Davis F.D. Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology // MIS Quarterly. — 1989. — Vol. 13 (3). — P. 319–340.

3. Gozman D., Liebenau J., Mangan J. The Innovation Mechanisms of Fintech Start-ups // Journal of Management Information Systems. — 2018. — Vol. 35 (1). — P. 145–179.

4. Parker G.G., Van Alstyne M.W. Two-Sided Network Effects: A Theory of Information Product Design // Management Science. — 2005. — Vol. 51 (10). — P. 1494–1504.

5. Rochet J.C., Tirole J. Platform Competition in Two-Sided Markets // Journal of the European Economic Association. — 2003. — Vol. 1 (4). — P. 990–1029.

6. Schueffel P. Taming the Beast: A Scientific Definition of Fintech // Journal of Innovation Management. — 2017. — Vol. 4 (4). — P. 32–54.

7. PwC. Emerging Trends in Retail Banking Survey. — London: PricewaterhouseCoopers, 2020.

8. World Bank. Uzbekistan: Digital Financial Services Development Diagnostic. — Washington D.C., 2021.

9. IMF. Digital Money across Borders: Macro-Financial Implications. — Washington D.C., 2022.

10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlari va moliyaviy xizmatlar bozori: 2022 yilgi yillik hisobot. — Toshkent, 2023.

11. Venkatesh V., Davis F.D. A Theoretical Extension of the Technology Acceptance Model // Management Science. — 2000. — Vol. 46 (2). — P. 186–204.

© Rajabov Behzod Mirshodovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Rajabov Behzod Mirshodovich

O‘ZBEKISTONDA SHAHAR INFRATUZILMASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Shohidjon Orifboyevich NAYIMOV,

NIU 70220301 – Tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) dotsent F.I. Fayziyeva

“Kelgusida uy-joy fondini shunday darajaga olib chiqishimiz kerakki, aholining barcha qatlamlari uy-joy sotib olish va bu borada tanlash imkoniyatiga ega bo’lishi lozim”

(Shavkat Mirziyoyev)

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaharsozlik va ekologik muvozanat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy urbanistika nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining shahar infratuzilmasini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik monitoringni takomillashtirish va xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni ochib berilgan. Barqaror shahar rivojlanishi konsepsiyasi asosida yashil infratuzilma va raqamli texnologiyalar integratsiyasining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, shaharsozlik, ekologik muvozanat, urbanizatsiya, barqaror rivojlanish, yashil infratuzilma, aqlli shahar, ekologik monitoring

Abstract. This article analyzes the relationship between urban planning and ecological balance from the perspective of modern urban studies. It examines environmental challenges caused by rapid urbanization and explores possible solutions. Special attention is given to the role of artificial intelligence technologies in developing urban infrastructure, optimizing resource use, improving environmental monitoring, and ensuring public safety. The importance of integrating green infrastructure and digital technologies within the framework of sustainable urban development is substantiated.

Keywords: artificial intelligence, urban planning, ecological balance, urbanization, sustainable development, green infrastructure, smart city, environmental monitoring

Аннотация. В данной статье проанализирована взаимосвязь градостроительства и экологического баланса с позиций современной урбанистики. Рассматриваются экологические проблемы, возникающие в результате ускоренной урбанизации, а также пути их решения. Особое внимание

уделено роли технологий искусственного интеллекта в развитии городской инфраструктуры, рациональном использовании ресурсов, экологическом мониторинге и обеспечении общественной безопасности. Обоснована значимость интеграции зеленой инфраструктуры и цифровых технологий в рамках концепции устойчивого развития городов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, градостроительство, экологический баланс, урбанизация, устойчивое развитие, зеленая инфраструктура, умный город, экологический мониторинг

Bugungi kunda O'zbekiston shaharlarida infratuzilmani modernizatsiya qilish va uni samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonining tezlashishi hamda iqtisodiy faollikning kengayishi shahar tizimlaridan yanada oqilona va tezkor yechimlarni talab etadi. Muammolarga yechim berishni avvalo ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda yondashishni maqsadga muvofiy deb hisoblayman. Ilmiy adabiyotlarda shahar ekologiyasi va yashil infratuzilmaning ahamiyati keng yoritilgan. Jenningsning ilmiy qarashlariga ko'ra, shahar hududlaridagi yashil infratuzilma elementlari aholi salomatligi va ijtimoiy farovonlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi[1]. U yashil hududlarning mavjudligi nafaqat ekologik muhitni yaxshilashini, balki aholining jismoniy faolligini oshirish, ruhiy salomatlikni mustahkamlash va stress darajasini kamaytirishda muhim omil ekanini ta'kidlagan.

Jennifer Wolch o'z tadqiqotlarida shahar ekologiyasi va ijtimoiy tenglik o'rtasidagi bog'liqlikka alohida yondashgan[2]. U yashil infratuzilmani shahar rejalashtirish tizimiga integratsiya qilish ekologik adolatni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biridir deya e'tirof etadi. Wolch "ekologik adolat" tushunchasini rivojlantirib, yashil hududlar va ekologik resurslardan barcha ijtimoiy qatlamlar teng foydalanishi zarurligini tushuntirib beradi. U, shuningdek, noto'g'ri rejalashtirilgan urban rivojlanish ekologik tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini qayd etadi.

Nadja Kabisch esa o'z ilmiy izlanishlarida yashil infratuzilmaning iqlim o'zgarishlariga moslashuvdagi o'rnini chuqur tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, shahar hududlariga yashil elementlarni keng joriy etish mikroiqlimni yaxshilaydi, issiqlik oroli effektini kamaytiradi va atmosfera ifloslanishini pasaytiradi. Kabisch yashil infratuzilmani barqaror shahar rivojlanishining ajralmas qismi sifatida baholab, uni shaharsozlik siyosatiga tizimli ravishda integratsiya qilish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi[3].

Jennings, Larson va Yunlar yashil hududlarning aholining salomatligi va ijtimoiy tenglikka ijobiy ta'sirini ko'rsatganligini tadqiqotlarida isbotlab bergan. Wolch va Nevellar esa ekologik infratuzilmani shahar rejalashtirish tizimiga integratsiya qilish ekologik adolatni ta'minlashda muhim omil ekanligiga e'tibor qaratgan. Kabisch va boshqalar

tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil infratuzilma elementlarining qurilish va urban dizayn jarayonlariga kiritilishi shaharlarning iqlim oʻzgarishlariga moslashuvchanligini sezilarli darajada oshirishi ilmiy dalillab bergan. Mazkur nazariy yondashuvlar asosida soʻnggi yillarda yangi ilmiy yoʻnalish – sun'iy intellekt asosida barqaror shahar boshqaruvi vujudga kelmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari ekologik monitoring, resurslarni optimallashtirish va shahar rejalashtirish jarayonlarida muhim omilga aylanmoqda. Masalan, SI yordamida havo sifati real vaqt rejimida tahlil qilinadi, yashil hududlarning degradatsiyasi kuzatiladi va ekologik xavf-xatarlar oldindan taxmin qilinadi. Bu esa barqaror shahar konsepsiyasining amaliy natijadorligini oshiradi. Shu jarayonda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari shahar infratuzilmasini rivojlantirishda muhim vosita sifatida shakllanmoqda. Sun'iy intellekt, ya'ni inson aqliga xos tahlil qilish, prognozlash va qaror qabul qilish jarayonlarini kompyuter tizimlari orqali bajarish imkonini beruvchi texnologiya, shahar boshqaruvida yangi bosqichni boshlab berdi. Oʻzbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida SI asosidagi yechimlar asta-sekin joriy etilmoqda[4]. Shahar infratuzilmasining eng muhim yoʻnalishlaridan biri transport tizimidir. Aholi zichlashgan hududlarda tirbandliklar muammosi kundan-kunga ortib bormoqda. Sun'iy intellekt esa yoʻl harakati oqimini real vaqt rejimida tahlil qilib, svetoforlar ishini optimallashtirish, tirbandliklarni kamaytirish va harakatni samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Bu nafaqat vaqtni tejashni ta'minlaydi, balki ekologik zararlarni ham kamaytiradi. Kommunal xizmatlar sohasida ham SI muhim omil boʻlib xizmat qiladi . Suv, elektr va gaz tarmoqlarida iste'molni tahlil qilish orqali resurslarni adolatli taqsimlash va yoʻqotishlarni kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, tizimdagi nosozliklarni oldindan aniqlash orqali avariyalar oldi olinadi, bu esa xizmat sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shahar rejalashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining oʻrni tobora jadallashib bormoqda. Aholi sonining oʻsishi, ichki va tashqi migratsiya oqimlari, yer resurslaridan foydalanish darajasi hamda ekologik omillarni kompleks tahlillash orqali yangi turar joy massivlari, transport yoʻllari va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ilmiy asosda joylashtirish imkoniyati yaratiladi. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) qayta ishlash orqali shahar rivojlanishining turli ssenariylarini oldindan prognoz qiladi va eng optimal variantlarni tavsiya etadi. Natijada hududiy rejalashtirishda xatoliklar kamayadi, resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi va shaharlarning tartibli hamda barqaror rivojlanishiga erishiladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalari transport-logistika tizimlarini rivojlantirishda ham muhim rol oʻynaydi. Yoʻl harakati zichligini tahlil qilish, tirbandliklarni oldindan aniqlash va transport oqimini optimallashtirish orqali shahar ichidagi harakat samaradorligi oshiriladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini kamaytirish orqali ekologik holatni ham yaxshilaydi. Xavfsizlik tizimlarida ham sun'iy intellekt keng qoʻllanilib kelinmoqda. Zamonaviy video kuzatuv kameralari va analitik tizimlar yordamida jamoat joylarida yuz berishi mumkin boʻlgan shubhali holatlar real vaqt rejimida aniqlanadi. Yuzni tanish,

harakatni tahlil qilish va xatti-harakatlarni prognozlash texnologiyalari orqali huquqbuzarliklarning oldini olish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa jamoat xavfsizligini taʼminlashda muhim vosita boʻlib xizmat qilib, fuqarolarning shahar muhitiga boʻlgan ishonchini oshiradi[5]. Shu bilan birga, sunʼiy intellekt kommunal xizmatlar boshqaruvida ham samaradorlikni oshiradi. Elektr energiyasi, suv va gaz taʼminoti tizimlarida isteʼmol koʻrsatkichlarini tahlil qilish orqali ortiqcha sarf-xarajatlarning oldi olinadi, nosozliklar esa oldindan aniqlanadi. Bu esa xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash bilan birga iqtisodiy tejamkorlikni ham taʼminlaydi.

Oʻzbekistonda, xususan Toshkent shahrida “aqlli shahar” konsepsiyasi asosida raqamli boshqaruv tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu jarayonda elektron hukumat xizmatlari, aqlli transport tizimlari, raqamli monitoring platformalari va interaktiv xizmatlar keng qoʻllanilmoqda[6]. Bu esa shahar xizmatlarini aholiga yanada oson, tezkor va shaffof shaklda yetkazib berish imkonini bermoqda. Kelgusida sunʼiy intellekt texnologiyalarini yanada keng tadbiq etish orqali shahar infratuzilmasini butunlay raqamlashtirish, ekologik nazoratni kuchaytirish va “yashil shahar” tamoyillarini amalga oshirish mumkin boʻlmoqda. Natijada shaharlar nafaqat texnologik jihatdan rivojlangan, balki ekologik barqaror, xavfsiz va yashash uchun qulay makonga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jennings, V., Larson, L., Yun,. Advancing Sustainability through Urban Green Space: Cultural Ecosystem Services, Equity, and Social Determinants of Health. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2016. 1–17 p.
2. Kabisch, N., Korn, H., Stadler, J., Bonn, A. Nature-Based Solutions to Climate Change Adaptation in Urban Areas. Springer, 2017. 1–290 p.
3. Oʻzbekiston Milliy universiteti. Shahar ekologiyasi va urbanizatsiya jarayonlariga oid magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent, 2020-2023.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. “Jamoat xavfsizligini taʼminlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish boʻyicha uslubiy qoʻllanmalar va hisobotlar”. https://mvd.uz
5. Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi. Rasmiy hisobotlar va tahliliy materiallar. – Toshkent, 2022–2024. https://gov.uz/oz/eco
6. Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. “Raqamli monitoring va video analitika tizimlarini rivojlantirish konsepsiyasi”. https://digital.uz
7. “Raqamli Oʻzbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida. https://lex.uz/doc

8. “Oʻzbekiston Respublikasi qurilish tarmogʻini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. https://lex.uz/docs
9. Wolch, J.R., Byrne, J., Newell, J.P. Urban Green Space, Public Health, and Environmental Justice. Landscape and Urban Planning, 234–244 p.
10. Toshkent arxitektura-qurilish instituti. Shaharsozlik va yashil infratuzilma boʻyicha ilmiy ishlanmalar. – Toshkent, 2021–2023.

1. Karimov A., “Shahar ekologiyasini yaxshilashda yashil hududlarning roli”, Toshkent arxitektura-qurilish instituti, – Toshkent, 2021 ↑
2. Jennings, V., Larson, L., Yun, J. (2016). *Advancing Sustainability through Urban Green Space: Cultural Ecosystem Services, Equity, and Social Determinants of Health*. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2016. 1–17 b. ↑
3. Kabisch, N., Korn, H., Stadler, J., Bonn, A. *Nature-Based Solutions to Climate Change Adaptation in Urban Areas*. Springer Open / Theory and Practice of Urban Sustainability Transitions, 2017. 1–290 b. ↑
4. Wolch, J.R., Byrne, J., Newell, J.P. *Urban Green Space, Public Health, and Environmental Justice*. Landscape and Urban Planning, 2014. 234–244 b. ↑
5. Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi – “Jamoat xavfsizligini taʼminlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish boʻyicha uslubiy qoʻllanmalar va hisobotlar”, – Toshkent, 2022–2024 y. https://mvd.uz ↑
6. Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi – “Raqamli monitoring va video analitika tizimlarini rivojlantirish konsepsiyasi, digital.uz ↑

© NAYIMOV Shohidjon Orifboyevich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

NAYIMOV Shohidjon Orifboyevich

Oʻzbek nasrida Afgʻon urushi mavzusi va undagi mafkuraviy talqin

Aslanov Asatillo Ekramovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti,

Navoiy davlat universiteti doktoranti.

Ikromova Maftuna Asatillo qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti

ANNOTATSIYA: MAZKUR TEZISDA OʻZBEK NASRIDA AFGʻON URUSHI MAVZUSINING BADIIY TALQINI VA UNDAGI MAFKURAVIY YONDASHUVLAR TAHLIL QILINADI. ASARLARDA URUSHNING INSON TAQDIRI, RUHIY KECHINMALAR VA JAMIYAT HAYOTIGA KOʻRSATGAN TAʼSIRI OCHIB BERILADI. SHUNINGDEK, YOZUVCHILARNING USHBU TARIXIY VOQEAGA BOʻLGAN MUNOSABATI, SOVET DAVRI MAFKURASI HAMDA MUSTAQILLIK DAVRI QARASHLARI QIYOSIY OʻRGANILADI. TADQIQOTDA URUSHNING ADABIYOTDA AKS ETISHI ORQALI MILLIY ONG, XOTIRA VA BADIIY TAFAKKUR EVOLYUTSIYASI YORITILADI.

KALIT SOʻZLAR: AFGʻON URUSHI, OʻZBEK NASRI, MAFKURAVIY TALQIN, BADIIY OBRAZ, TARIXIY XOTIRA, SOVET MAFKURASI, MUSTAQILLIK DAVRI, URUSH PSIXOLOGIYASI

ANNOTATION: THIS THESIS ANALYZES THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE AFGHAN WAR IN UZBEK PROSE AND ITS IDEOLOGICAL REPRESENTATIONS. IT EXPLORES HOW LITERARY WORKS DEPICT THE IMPACT OF WAR ON HUMAN DESTINY, PSYCHOLOGICAL EXPERIENCES, AND SOCIAL LIFE. THE STUDY ALSO COMPARES WRITERS' ATTITUDES TOWARD THIS HISTORICAL EVENT WITHIN THE FRAMEWORKS OF SOVIET IDEOLOGY AND POST-INDEPENDENCE PERSPECTIVES. FURTHERMORE, IT HIGHLIGHTS THE EVOLUTION OF NATIONAL CONSCIOUSNESS, MEMORY, AND ARTISTIC THINKING THROUGH THE REFLECTION OF WAR IN LITERATURE.

KEYWORDS : AFGHAN WAR, UZBEK PROSE, IDEOLOGICAL INTERPRETATION, ARTISTIC IMAGE, HISTORICAL MEMORY, SOVIET IDEOLOGY, POST-INDEPENDENCE PERIOD, WAR PSYCHOLOGY.

XX asrning eng murakkab siyosiy voqealaridan biri boʻlgan Sovet-Afgʻon urushi nafaqat harbiy-siyosiy jarayon sifatida, balki insoniyat taqdiriga bevosita taʼsir

koʻrsatgan ijtimoiy hodisa sifatida ham tarixda muhim oʻrin egallaydi. Ushbu urush sobiq ittifoq tarkibida boʻlgan respublikalarga, jumladan Oʻzbekistonga ham bevosita taʼsir koʻrsatgan. Mazkur urush oʻzbek adabiyotida, ayniqsa nasrda, turli shakllarda oʻz aksini topgan. Yozuvchilar ushbu voqealarni bevosita jang sahnalari orqali emas, balki inson taqdiri, ruhiy kechinmalar va jamiyatdagi oʻzgarishlar orqali tasvirlashga harakat qilganlar.

Afgʻon urushining tarixiy mohiyati. Sovet-Afgʻon urushi 1979-yilda boshlangan va 10 yil davom etgan harbiy mojaro boʻlib, u sovet qoʻshinlarining Afgʻonistonga kiritilishi bilan boshlandi. Rasmiy mafkuraga koʻra, bu harakat: doʻst mamlakatga yordam berish, tinchlikni tiklash, sotsialistik tizimni qoʻllab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan deb koʻrsatildi. Biroq amalda bu urush: koʻplab inson qurbonlariga,iqtisodiy yoʻqotishlarga, ruhiy inqirozlarga olib kelgan.

Sovet davri adabiyotida urush talqini. Sovet davrida adabiyot mafkura vositasi sifatida xizmat qilgan. Shu sababli Afgʻon urushi haqidagi asarlar: qahramonlik ruhida yozilgan, askarlar ijobiy obraz sifatida tasvirlangan, urushning salbiy tomonlari yashirilgan. Bu davr asarlarida asosiy gʻoya: “Askarning vazifasi – Vatan va mafkurani himoya qilish”edi.

Adabiyotda urushning yashirin fojeasi. Rasmiy mafkuraga qaramay, ayrim yozuvchilar urushning ichki fojeasini ham sezdirishga harakat qilganlar. Bu: ramziy obrazlar, ichki monologlar, psixologik tasvirlar orqali amalga oshirilgan. Masalan, inson ruhiyatidagi: qoʻrquv, iztirob, yoʻqotish hissi bilvosita ifodalangan. Mustaqillikdan soʻng adabiyotda erkinlik paydo boʻldi va Afgʻon urushi yangicha talqin qilina boshlandi. Endi: urush tanqid qilindi, mafkuraviy yolgʻonlar ochildi, inson qadri ustuvor boʻldi. Bu davrda yozilgan asarlarda urush: fojia, maʼnosiz qurbonlik, siyosiy xato sifatida baholanadi.

Oʻzbek adabiyotida urush mavzusi doimo muhim oʻrin egallab kelgan. Biroq Afgʻon urushi mavzusi boshqa urushlardan farqli ravishda oʻziga xos xususiyatlarga ega. Bu urush: begona hududda olib borilgan, mafkuraviy asosda oqlangan, oddiy askarlar uchun tushunarsiz boʻlgan mojaro sifatida namoyon boʻladi. Shu sababli oʻzbek yozuvchilari bu mavzuni yoritishda anʼanaviy qahramonlik yoʻlidan emas, balki: inson ruhiyati, ichki kechinmalar, jamiyatdagi oʻzgarishlar orqali tasvirlashga koʻproq eʼtibor qaratganlar.

O‘tkir Hoshimov ijodida urush va inson taqdiri. O‘tkir Hoshimov o‘zbek nasrining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlarida urush mavzusi bevosita Afg‘on voqealari bilan bog‘lanmagan bo‘lsa-da, urushning inson hayotiga ta’siri chuqur ochib beriladi.Xususan, Ikki eshik orasi romanida: urush tufayli izdan chiqqan taqdirlar, ruhiy jarohatlar, insoniy qadriyatlarning sinovi tasvirlangan. Bu asarda mafkura ochiq targ‘ib qilinmaydi, aksincha: inson dardi, yo‘qotish hissi, hayotning murakkabligi oldinga chiqadi. Shu jihatdan, yozuvchi urushni emas, balki uning oqibatlarini ko‘rsatadi. Bu esa Afg‘on urushi haqidagi keyingi asarlar uchun muhim badiiy yo‘nalish yaratdi.

To‘g‘ay Murod asarlarida davr fojeasi.To‘g‘ay Murod ijodi o‘zining realizmi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Uning Otamdan qolgan dalalar asarida:

jamiyatdagi inqiroz, insoniy qadriyatlarning yemirilishi, tarixiy adolatsizlik chuqur ifodalangan. Bu asarda Afg‘on urushi bevosita tasvirlanmasa-da, uning mafkuraviy asoratlari seziladi. Xususan: insonlarning ishonchi yo‘qolishi, jamiyatdagi beqarorlik, ma’naviy tushkunlik urush oqibatlari sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi mafkurani ochiq tanqid qilmaydi, lekin badiiy tasvir orqali: tizimdagi muammolarni, insonning ojizligini ko‘rsatib beradi.

Said Ahmad **asarlarida davr ruhiyati.**Said Ahmad ijodi ham o‘zbek nasrida muhim o‘rin tutadi. Uning Ufq trilogiyasida: inson hayoti, jamiyatdagi o‘zgarishlar, davr muammolari keng yoritilgan.

Afg‘on urushi bu asarda markaziy mavzu bo‘lmasa-da, davr ruhiyati orqali uning ta’siri seziladi. Xususan: odamlar orasidagi ishonchsizlik, ijtimoiy ziddiyatlar, ruhiy tanglik ushbu davrning asosiy belgilaridan biri sifatida tasvirlanadi.

Afg‘on urushi qatnashchilari haqidagi asarlar. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek adabiyotida Afg‘on urushi ishtirokchilari hayotiga bag‘ishlangan asarlar paydo bo‘la boshladi. Bu asarlarda: urushning real manzarasi, askarlarning ruhiy holati, jamiyatga moslashish muammosi tasvirlanadi.

Bu turdagi asarlarda mafkura o‘zgaradi: avvalgi qahramonlik o‘rnini fojea egallaydi, ideal obraz o‘rniga oddiy inson chiqadi, siyosiy shiorlar o‘rniga hayotiy haqiqat keladi.

Badiiy talqinning asosiy yo‘nalishlari. O‘zbek nasrida Afg‘on urushi mavzusi quyidagi yo‘nalishlarda yoritilgan:

1. Psixologik yo‘nalish. Qahramonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblar, travmatik xotiralar

2. Ijtimoiy yo‘nalish.Jjamiyatdagi o‘zgarishlar, urushning ijtimoiy oqibatlari,

insonlar o‘rtasidagi munosabatlar

1. **Falsafiy yo‘nalish. H**hayot mazmuni,urush va tinchlik muammosi,inson qadri masalasi
2. **Realizm va hayotiylik**

O‘zbek yozuvchilari Afg‘on urushi mavzusini yoritishda asosan realizmga tayanganlar. Bu: voqealarni bo‘rttirmaslik, hayotiy detallarni aniq berish, inson obrazini tabiiy ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi.

Natijada asarlar: o‘quvchiga yaqin, ishonarli, ta’sirchan bo‘lib chiqadi.

Xulosa. O‘zbek nasrida Afg‘on urushi mavzusi bevosita jang sahnalari orqali emas, balki inson taqdiri va jamiyat hayoti orqali yoritilgan. Yozuvchilar: mafkurani ochiq targ‘ib qilmagan, aksincha, uning oqibatlarini ko‘rsatgan, insoniylikni markazga qo‘ygan. Bu esa o‘zbek adabiyotining insonparvarlik ruhini yana bir bor namoyon etadi.

Sovet davri mafkurasi va uning adabiyotga ta’siri. Sovet-Afg‘on urushi davrida adabiyot davlat mafkurasining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qilgan. Shu sababli yozuvchilar ko‘pincha rasmiy qarashlardan chetga chiqa olmaganlar. Bu davr mafkurasining asosiy xususiyatlari: urushni oqlash, askarni qahramon sifatida ko‘rsatish, siyosiy qarorlarni to‘g‘ri deb talqin qilish. Adabiyotda: “internatsional burch”, “do‘stlik yordami”, “xalqaro birdamlik” kabi tushunchalar faol targ‘ib qilingan. Natijada badiiy asarlar: biryoqlama, ideallashtirilgan, real hayotdan uzoq bo‘lib qolgan.Sovet davrida yozuvchilar: senzura, siyosiy bosim, mafkuraviy talablar ostida ijod qilganlar. Bu holat: haqiqatni to‘liq ifodalashga to‘sqinlik qilgan, urushning salbiy tomonlarini yashirishga majbur qilgan, badiiy erkinlikni cheklagan. Shu sababli ko‘plab yozuvchilar: bilvosita ifoda, ramziy tasvir, yashirin ma’no orqali o‘z fikrlarini yetkazishga harakat qilganlar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, adabiyotda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Endi yozuvchilar: erkin fikr bildirish, tarixiy haqiqatni ochish, mafkurani tanqid qilish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu davrda Afg‘on urushi: siyosiy xato, insoniy fojea, ma’nosiz qurbonlik sifatida talqin qilina boshlandi.

Mustaqillik davri asarlarida quyidagi jihatlar ustun bo'ldi: **Insonparvarlik** inson hayotida eng oliy qadriyat sifatida ko'riladi. Har qanday urush qoralangan.**. Haqiqatga intilish natijasida** voqealar real tasvirlanadi yolg'on mafkura fosh etiladi. **Tanqidiy yondashuv asosida** sobiq tizim kamchiliklari ochib beriladi.Siyosiy qarorlar qayta baholanadi.

Bizga ma`lumki, adabiyotda mafkura va haqiqat o'rtasida doimiy ziddiyat mavjud. Afg'on urushi mavzusida bu ayniqsa yaqqol ko'rinadi: mafkura → urushni oqlaydi,badiiy haqiqat → uning fojeasini ochadi.O'zbek yozuvchilari asta-sekin: mafkuradan uzoqlashib, haqiqatga yaqinlashganlar.

Psixologik tasvir. Afg'on urushi mavzusini yoritishda psixologik tasvir muhim o'rin tutadi. Bu orqali: qahramonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, qo'rquv va iztirob hissi ochib beriladi.

Ichki monolog va ong oqimi.Yozuvchilar ko'pincha: ichki monolog,

xotiralar oqimi usullaridan foydalanganlar. Bu usullar orqali: urush travmasi,

insonning ruhiy parchalanishi ta'sirchan ifodalanadi.

Ramziy obrazlar. Urush ko'pincha bevosita emas, balki ramzlar orqali tasvirlanadi: vayron uy → inson taqdiri, bo'sh dala → yo'qotilgan hayot, sukut → ruhiy iztirob Bu ramzlar mafkurani bilvosita tanqid qilish imkonini beradi. **Realistik tasvir.** O'zbek nasrida realizm yetakchi uslub hisoblanadi. Bu: hayotiy voqealarni aniq berish, sun'iylikdan qochish, oddiy insonni markazga qo'yish orqali namoyon bo'ladi.

Til va uslub. Yozuvchilar: sodda va ravon til, xalqona iboralar, tabiiy dialoglardan foydalanadilar. Bu esa asarni: o'qishli, ta'sirchan, hayotiy qiladi.

Xulosa .O'zbek nasrida Afg'on urushi mavzusi chuqur va ko'p qirrali tarzda yoritilgan. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Dastlabki asarlarda sovet mafkurasi ustun bo'lgan. Keyingi davrda urush tanqidiy ruhda tasvirlana boshlagan. Yozuvchilar inson taqdirini markazga qo'yganlar. Mafkura asta-sekin o'z o'rnini badiiy haqiqatga bo'shatgan. Psixologik tasvir va realizm asosiy uslub sifatida shakllangan. Shunday qilib, Afg'on urushi o'zbek nasrida: tarixiy hodisa emas, balki insoniy fojea sifatida aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 310
2. Умуров Х. Бадиий ижод асослари: – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –120 б.

3.Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – Москва: Флинта, 2011. – 177 с

4. Чернышевский Н.Г. Собрание сочинений: В пяти томах. Том 3. Литературная критика. – Москва: Издательство “Правда”, 1974. – 509 с.

5. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. О литературном герое. Санкт-Петербург: Азбука, 2016. – 704 с.

6. Қуронов Д, Шералиева М, Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.

© Aslanov Asatillo Ekramovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Aslanov Asatillo Ekramovich

SANOATDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH ORQALI TARMOQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH

Urakov Tuxtamurat Muxiddinovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar "

kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish materiallari sanoatida innovatsion faollikni oshirish orqali tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda innovatsion faollik tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va tarmoqlar miqyosida namoyon bo'lish shakllari tahlil qilingan. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar misolida innovatsion faollik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan hamda amaldagi rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligi baholangan. Shuningdek, ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish va xodimlarning innovatsion faol ishtirokini kuchaytirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faollik, qurilish materiallari sanoati, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, texnologik yangiliklar, korxona samaradorligi, rag'batlantirish mexanizmlari, yangi mahsulotlar, sanoat strategiyasi.

Abstract: This scientific study examines the issues of ensuring the competitiveness of the construction materials industry through the enhancement of innovation activity. The research analyses the concept of innovation activity, its structural elements, and the forms of its manifestation at the sectoral level. Based on the example of enterprises producing construction materials, the factors influencing the level of innovation activity have been identified, and the effectiveness of existing incentive mechanisms has been assessed. In addition, the study highlights ways to increase enterprise competitiveness by introducing innovative technologies in production, developing new products, and strengthening the active involvement of employees in innovation processes. Based on the research findings, proposals and recommendations aimed at supporting innovation activity have been developed.

Key words: innovation activity, construction materials industry, competitiveness, innovations, technological advancements, enterprise efficiency, incentive mechanisms, new products, industrial strategy.

Аннотация: В данном научном исследовании рассмотрены вопросы обеспечения конкурентоспособности отрасли строительных материалов за счёт повышения инновационной активности. В работе проанализировано понятие инновационной активности, её структурные элементы и формы проявления на отраслевом уровне. На примере предприятий по производству строительных материалов выявлены факторы, влияющие на уровень инновационной активности, а также дана оценка эффективности действующих механизмов стимулирования. Кроме того, показаны пути повышения конкурентоспособности предприятий за счёт внедрения инновационных технологий в производство, разработки новых видов продукции и активного участия сотрудников в инновационной деятельности. На основе полученных результатов разработаны предложения и рекомендации, направленные на поддержку инновационной активности.

Ключевые слова: инновационная активность, промышленность строительных материалов, конкурентоспособность, инновации, технологические нововведения, эффективность предприятия, механизмы стимулирования, новые продукты, промышленная стратегия.

KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun innovatsiyalarni joriy etish va innovatsion faollikni oshirish muhim omilga aylangan. Ayniqsa, qurilish materiallari sanoati kabi murakkab va texnologik jihatdan rivojlanayotgan sohalarda innovatsion yondashuvlar korxonalar samaradorligini oshirish va bozordagi o'z o'rnini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qurilish materiallari sanoati mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki sifatli va zamonaviy qurilish materiallari infratuzilmani yaxshilash, qurilish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, ushbu sohada innovatsion faollikni rag'batlantirish va samarali boshqarish tizimlarini joriy orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash masalalari, innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va ularning samaradorligi o'rganiladi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilda umumiy qiymati 950 mlrd so'mlik 17 ta loyiha bo'yicha qurilish materiallari ishlab chiqarish va shuning hisobiga import hajmi 86 mln dollarga qisqartirilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, import hajmini o'tgan yilga nisbatan 20 foizga yoki 200 mln dollarga kamaytirish maqsad qilingan.

1-jadval.Asosiy turdagi qurilish materiallarida bo’lgan talab va uning qoplanish dinamikasi

		2020-yil	**2026-yil**				
t/r	**Qurilish materiallari**	**Ishlab chiqarish**	**Ishlab chiqarish**	**2020-yilda nisbatan o’sish**	**Talab**	**Ta’mingan-lik**	**2026-yilda 2020-yilga nisbatan ta’minganlik dinamikasi**
1	Gazbeton bloklari, ming kub m	1 400	7 200	5,1	4 800	150%	2,9 barobar
2	Quruq qurilish aralashmasi,ming tonna	490	2 400	4.9	1 800	133%	1.3 barobar
3	Issiqlik saqlovchi izolyatsiya materiallari, ming tonna	60.2	280	4.7	190	147%	2 barobar
4	O‘ramli yumshoq tom yopqich materiall	13.6	50	3.7	37	135%	1.5 barobar

	ari, mln kv m						
5	Oboy (gulqog‘oz), ming o‘ram	2 000	6 900	3.5	9 000	77%	2.6 barobar
6	Tabiiy pardozbop toshlar (granit, marmar va boshq.), ming tonn	2 040	4 500	2	4 150	108%	1.1 barobar
7	Qurilish oynasi, mln kv m	20.3	50	2.5	45.5	110%	1.6 barobar
8	Ohak , ming tonna	370	700	1.9	490	143%	1.02 barobar
9	Keramik plitkalar, mln kv m	20.6	35	1.7	30.5	115%	1.1 barobar
10	Laminatlangan yog‘och-payraxali plitalar (LDSP), ming kub m	210	430	1.7	820	52%	3.7 barobar
11	Sement,	12 537	20 600	1.6	20 100	103%	1.2 barobar

	ming tonna						
12	Pishgan g‘isht, mln don	1500	300	0.2	300	100%	0.9 barobar

Manba: “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi iqtisodiy tahlil va prognozlashtirish boshqarmasi ma’lumotlari.

Eng muhimi, 2022-yilda investitsiya yo‘nalishi bo‘yicha ham izchil ishlar amalga oshiriladi. Xususan, tarmoq bo‘yicha jami 1 mlrd 400 mln dollarlik, shu jumladan 1 mlrd 160 mln dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish rejalashtirilmoqda. Shundan, Uyushma bo‘yicha Investitsiya dasturiga asosan 369,4 mln dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirish va 1035 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etish ko‘zda tutilgan.Natijada, 1,8 mln tonna sement klinkeri, 29 mln kvadrat metr keramik plitka, 1,1 mln tonna sement, 850 ming kub metr gazobeton bloklari, 300 ming kvadrat metr marmar kompozit plitalar, 3,5 ming tonna burama mixlar, 50 ming tonna temir-beton buyumlari va asfalt, 2,8 mln kvadrat metr keramik plitka va frizlar ishlab chiqarish bo‘yicha quvvatlar yaratiladi.[1]

Shu bilan birga, 2022-yilda 500 mln dollarlik, jumladan, 340 ming tonna sement (20 mln dollar), 80 mln dollarlik PVX profil, truba va plastmassa mahsulotlar, 30 mln dollarlik quruq qurilish qorishmalari va sement mahsulotlari, 15 mln dollarlik qurilish xizmatlari va boshqa turdagi qurilish materiallari eksporti amalga oshiriladi.

Respublikaning 8 ta tumanida xom ashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, laboratoriya tekshiruvidan o‘tkazish, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha bo‘lgan qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi qurilish materiallari klasterlarini tashkil etish hamda 16 ta tuman va shaharlarda boshqa hududlar bilan sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘yish orqali qurilish materiallari ishlab chiqarilishini tashkil etish belgilangan.Shuningdek, har bir hududda kamida bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan tortib, tayyor ko‘p qavatli uy-joylar qurishgacha bo‘lgan qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevral kuni qabul qilingan PQ-139-sonli “Uy-joy qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan ushbu tashkil etiladigan klasterlarni tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash bo‘yicha 2022–2023-

yillarda davlat budjetidan 200 mlrd so‘m, shundan joriy yilda 101 mlrd so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shundan dalolat berdiki, qurilish materiallari sanoatida innovatsion faollikni oshirish korxonalarning bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar va yangi mahsulotlarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, xodimlarning innovatsion faolligini rag‘batlantirish va ularni yangiliklar yaratish jarayoniga faol jalb etish korxonalarning barqaror rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ilg‘or innovatsion yondashuvlardan foydalanish, samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash innovatsion faollikni kuchaytirishda asosiy omillardan biri sanaladi. Bu esa, o‘z navbatida, qurilish materiallari sanoatining umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, sohada investitsiyalarni jalb qilish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etish va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi.

Takliflar:

Ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqaruvchi korxonalar hamkorligini kuchaytirish.

Xodimlar uchun muntazam malaka oshirish va innovatsion treninglar tashkil etish.

Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari va grantlarni kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedov, S. (2020). Qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalar va ularning rivojlanishi. Toshkent: “Ilm-fan” nashriyoti.

2. Karimova, N. (2019). Innovatsion boshqaruv asoslari. Toshkent: “Akademiya” nashriyoti.

3. Islomov, T. (2021). Raqobatbardoshlik va innovatsion faollik: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Texnologiya” nashriyoti.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni No123 (2023). Mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirish dasturi.

5. Mamatqulov, B. (2022). Qurilish sohasida texnologik yangiliklar va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: “Fan va taraqqiyot” nashriyoti.

6. Rasulova, D. (2021). Sanoatda investitsion jarayonlarni boshqarish. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.

1. “Oʻzsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2021-yil yakuniga bagʻishlab oʻtkazilgan OAV kunida taqdim etilagan maʼlumotlar asosida. ↑

© Urakov Tuxtamurat Muxiddinovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Urakov Tuxtamurat Muxiddinovich

SIRKULYAR IQTISODIYOT TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN YASHIL INVESTITSIYA STRATEGIYALARI TAHLILI

Hamroyev Bahodir Baxtiyorovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

“Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar ”

kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yashil investitsiya strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish mexanizmlarini qoʻllash orqali barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda investitsion yondashuvlarning ustunliklari ochib beriladi. Natijalar iqtisodiy va ekologik manfaatlarning uygʻunligini ta'minlashga xizmat qiladi.Kalit soʻzlar: sirkulyar iqtisodiyot, yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, qayta ishlash, yashil texnologiyalar.

Kalit soʻzlar: Yashil iqtisodiyot, yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, qayta ishlash, yashil texnologiyalar.

Abstract: This article examines green investment strategies based on the principles of the circular economy. The study analyzes opportunities for achieving sustainable development through efficient resource utilization, recycling, and reuse mechanisms. Particular emphasis is placed on the implementation of green technologies and the advantages of investment approaches to ensuring environmental safety. The findings highlight the importance of harmonizing economic and environmental interests.

Key words: circular economy, green investments, sustainable development, environmental safety, recycling, green technologies.

Аннотация: В статье рассматриваются стратегии зеленых инвестиций, основанные на принципах циркулярной экономики. Анализируется эффективность использования ресурсов, применение механизмов переработки и повторного использования отходов для достижения устойчивого развития. Особое внимание уделяется внедрению зеленых технологий и преимуществам инвестиционного подхода к обеспечению экологической безопасности. Результаты подчеркивают необходимость согласования экономических и экологических интересов.

Ключевые слова: циркулярная экономика, зеленые инвестиции, устойчивое развитие, экологическая безопасность, переработка, зеленые технологии.

Sirkulyar iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy model sifatida global miqyosda e’tirof etilmoqda. Ushbu model ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarida resurslarning qayta ishlatilishi va qayta tiklanishini rag‘batlantiradi. Yashil investitsiyalar esa sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini amalda qo‘llashda muhim vosita bo‘lib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Ushbu maqola sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yashil investitsiya strategiyalarini tahlil qilish va ularning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik samaradorligini baholashga qaratilgan. Maqolaning maqsadi sirkulyar iqtisodiyot asosida yashil investitsiyalarni rivojlantirishning eng samarali strategiyalarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llarini taklif qilishdan iborat. Tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, yashil investitsiyalarning afzalliklari va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi.

Sirkulyar iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish va tabiiy resurslarni qayta tiklashga asoslangan model sifatida ta’riflanadi. Ushbu kontseptsiya chiziqli iqtisodiyotdan farqli o‘laroq, mahsulotlarning hayotiy siklini uzaytirish, qayta ishlatish va qayta tiklash tamoyillariga asoslanadi. Ellen MacArthur Foundationning ta’sirchan ishlari bu modelni global barqaror rivojlanishning asosiy vositasi sifatida ko‘rsatadi, chunki u iqlim o‘zgarishi va resurslar tanqisligini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. 2015–2020-yillarda sirkulyar iqtisodiyot bo‘yicha adabiyotlarning qisqacha tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu model ekologik va iqtisodiy o‘sishni birlashtirish orqali barqarorlikni ta’minlaydi, ammo ko‘pincha nazariy jihatdan cheklangan va amaliy misollar yetarli emas.

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Sifatli tahlil sirkulyar iqtisodiyot va yashil investitsiyalarga oid mavjud adabiyotlarni, jumladan xalqaro tashkilotlar (masalan, Ellen MacArthur Foundation, BMT) hisobotlari va ilmiy maqolalarni o‘rganishga asoslandi. Miqdoriy tahlil esa yashil investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun statistik ma’lumotlar va iqtisodiy modellashtirish usullarini o‘z ichiga oldi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yashil investitsiya strategiyalari quyidagi yo‘nalishlarda samarali ekani aniqlandi:

Resurslar samaradorligi: Qayta ishlash va resurslarni qayta ishlatishga qaratilgan investitsiyalar chiqindilarni 30–40% ga kamaytirish imkonini bermoqda (Ellen MacArthur Foundation, 2023). Masalan, Yevropa Ittifoqida qadoqlash materiallarini qayta ishlashga

qaratilgan loyihalar yiliga 5 million tonnadan ortiq chiqindini qayta ishlatishga yordam berdi.

Iqtisodiy foyda: Yashil investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shmoqda. Masalan, qayta tiklanadigan energiya sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar global miqyosda 2030-yilga kelib 12 million yangi ish o‘rinlari yaratishi kutilmoqda (IRENA, 2024).

Ekologik ta’sir: Sirkulyar iqtisodiyotga asoslangan loyihalar uglerod chiqindilarini kamaytirishga yordam bermoqda. Xitoyda 2020–2025-yillarda yashil energetika loyihalari orqali CO2 emissiyasi 15% ga qisqargan.Ijtimoiy foydalar: Yashil investitsiyalar mahalliy jamoalarga iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda va aholi turmush sifatini oshirmoqda. Masalan, Afrika mamlakatlarida quyosh energiyasi loyihalari 2 milliondan ortiq uy xo‘jaliklarini barqaror energiya bilan ta’minladi.

SWOT tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil investitsiyalarning asosiy afzalliklari ularning ekologik va iqtisodiy samaradorligida, asosiy to‘siqlar esa moliyaviy resurslarning cheklanganligi va normativ-huquqiy muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligidadir.

Tadqiqot natijalari sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yashil investitsiya strategiyalarining global iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Biroq ularni keng miqyosda joriy etish uchun bir qator muammolar hal etilishi zarur.

Moliyalashtirish masalalari yashil loyihalarning yuqori boshlang‘ich xarajatlari bilan bog‘liq. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modellarini rivojlantirish bu muammoni yengishga yordam beradi. Normativ-huquqiy muhit ko‘pgina mamlakatlarda yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, bu holat investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, qayta ishlash va resurslarni tiklash uchun ilg‘or texnologiyalarga ehtiyoj katta. Xalqaro hamkorlik va texnologiya transferi bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribaga asoslanib, Yevropa Ittifoqining “Yashil kelishuv” (Green Deal) dasturi hamda Xitoyning yashil energetika strategiyalari muvaffaqiyatli amaliy misollar sifatida ajralib turadi. Biroq bu tajribalarni rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llash uchun mahalliy sharoitga moslashtirish zarur.

Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yashil investitsiya strategiyalari ekologik barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanadigan energiya va chiqin dilarni qayta ishlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar global miqyosda iqtisodiy hamda ekologik muammolarni hal etishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, davlatlar sirkulyar iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun normativ-huquqiy bazani mustahkamlashi, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali moliyaviy resurslarni jalb etishi, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishi va tajriba almashuvini rag‘batlantirishi lozim. Kelajakdagi tadqiqotlar esa yashil

investitsiyalarning uzoq muddatli ta'sirini hamda ularning turli iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini oʻrganishga qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ellen MacArthur Foundation. (2023). Circular Economy: A Future for Sustainable Growth.

2. IRENA. (2024). Renewable Energy and Jobs: Annual Review.

3. European Commission. (2020). The European Green Deal.

4. United Nations Environment Programme. (2022). Green Investments for Sustainable Development.

5. World Bank. (2023). Circular Economy and Waste Management: Global Perspectives.

© Hamroyev Bahodir Baxtiyorovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Hamroyev Bahodir Baxtiyorovich

SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING TALABA XULQ-ATVORIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRLARI

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Abduraximova Sarvinoz Sadullayevna

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi o'rni va uning talaba xulq-atvoriga ta'sirini tahlil qiladi. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan sun'iy intelektning ta'lim tizimida foydalanish va ta'limda jarayonida qo'llashning hamda talabalar xulq-atvoriga ijobiy va salbiy tomonlari haqida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, talaba, xulq-atvor, raqamli ta'lim, motivatsiya, akademik halollik, ijobiy va salbiy ta'sir, texnologik qaramlik.

XXI asrda raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar — aqlli tutorlar, adaptiv o'qitish platformalari, chatbotlar va avtomatlashtirilgan baholash vositalari talabalarning o'quv faoliyatiga keng joriy etilmoqda. Bu jarayon nafaqat bilim olish samaradorligiga, balki talaba shaxsining xulq-atvoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi [1]. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida texnologiya va inson xulqi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarning mustaqilligi, mas'uliyati, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga Sun'iy intelektning ta'sirini chuqur tahlil qilish zarur.

Sun'iy intellektdagi tezkor yutuqlar jamiyat va inson hayotining ko'plab jabhalarini o'zgartirdi. Suniy intellekt biznes, sog'liqni saqlash, talim, moliya, transport va ishlab chiqarish kabi turli sohalarda tobora ko'proq qo'llanilmoqda[2].

Bugungi kunda sun'iy intellekt talabalarning nafaqat bilim olish jarayoniga, balki ularning fikrlash uslubi, qaror qabul qilish odatlari va kundalik xulq-atvoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir tashqi tomondan oddiy qulaylikdek ko'rinsa-da, aslida inson psixikasining chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Talaba ongida qanday o'zgarishlar yuz berayotgani va bu o'zgarishlar qanday oqibatlarga olib kelishi masalasi alohida tahlilni

talab qiladi.So‘nggi yillarda sun’iy intellekt inson hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib bordi. Ayniqsa, ta’lim tizimida uning o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu jarayon faqat bilim olish usullarini emas, balki talabalarning fikrlash tarzini, mas’uliyatini, intizomini va umumiy xulq-atvorini ham o‘zgartirmoqda.

Sun’iy intellekt – bu shunchaki texnologik vosita emas, balki yangi ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantiruvchi omildir. Avvalo, sun’iy intellekt talabalarning bilimga bo‘lgan munosabatini sezilarli darajada o‘zgartirdi[3]. Ilgari ma’lumot izlash vaqt va mehnat talab qilgan bo‘lsa, hozir bu jarayon bir necha soniya ichida amalga oshadi. Bu qulaylik talabalarda tezkorlikni oshiradi, lekin shu bilan birga yuzaki o‘rganish xavfini ham tug‘diradi. Talaba chuqur tahlil qilish o‘rniga tayyor javoblarga suyanib qolishi mumkin. Natijada mustaqil fikrlash qobiliyati sustlashishi ehtimoli yuzaga keladi.Boshqa tomondan, sun’iy intellekt individual o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Har bir talaba o‘z tezligi va darajasiga mos materiallar bilan ishlay oladi. Bu esa o‘ziga ishonchni oshiradi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ayniqsa, murakkab mavzularni tushuntirishda sun’iy intellekt yordamchi sifatida samarali bo‘lishi mumkin. Bu holat talabaning ijobiy xulq-atvorini – izlanishga intilish, savol berish va o‘z ustida ishlash kabi sifatlarni rivojlantiradi.Shu bilan birga, sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish mas’uliyatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, topshiriqlarni mustaqil bajarmasdan, to‘liq texnologiyaga yuklash odati shakllansa, bu halollik va akademik intizomga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talaba bilim olish jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lish o‘rniga passiv iste’molchiga aylanib qolishi mumkin. Bu esa uzoq muddatda professional kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Yana bir muhim jihat – sun’iy intellektning talabaning ijtimoiy xulq-atvoriga ta’siri. Raqamli muhitda ko‘proq vaqt o‘tkazish jonli muloqot ko‘nikmalarining susayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Talaba muammolarni insonlar bilan emas, balki texnologiya orqali hal qilishga o‘rganib qoladi. Natijada jamoada ishlash, fikr almashish va empatiya kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalar yetarlicha rivojlanmay qolishi ehtimoli mavjud. Biroq bu jarayoni faqat salbiy tomonlama baholash ham to’g’ri ema. Sun’iy intellekt to‘g‘ri yo‘naltirilganda, talabalarda mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Buning uchun esa ta’lim tizimi va o‘qituvchilar muhim rol o‘ynaydi. Talabaga texnologiyadan qanday foydalanishni emas, balki nima uchun va qachon foydalanishni o‘rgatish zarur,sun’iy intellekt talaba xulq-atvoriga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi[4], u imkoniyatlar eshigini ochadi, lekin shu bilan birga yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bu ta’sirning qanday yo‘nalishda rivojlanishi esa ko‘p jihatdan talabaning o‘ziga, uning ongli tanloviga va ta’lim muhitining qanday tashkil etilganiga bog‘liq. Eng muhim vazifa – texnologiyani boshqarish, unga tobe bo‘lib qolmaslikdir. Psixologik tomonlama qaraydigan bo’lsak har bir talabaning rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatmay qo’ymaydi xoh ijobiy bo’lsin , xoh salbiy.

Ijobiy ta'sirlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Sun'iy intellekt avvalo talabaning bilim olish tezligini oshiradi. Inson miyasi murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashda ko'pincha ortiqcha yuk ostida qoladi. Sun'iy intellect esa bu yukni kamaytirib, ma'lumotlarni soddalashtirib beradi. Natijada talaba asosiy e'tiborini tushunishga va tahlil qilishga qaratadi. Bu jarayon psixologiyada samarali o'rganishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yana bir muhim jihat — mustaqil o'rganish qobiliyatining rivojlanishi. Talaba o'zi xohlagan vaqtda savol berib, javob olishi mumkinligi sababli o'qituvchiga bog'liqlik kamayadi. Bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi va bilim olishni shaxsiy ehtiyojga aylantiradi. Sun'iy intellekt psixologik bosimni kamaytiradi. Ba'zi talabalar o'z savollarini ochiq aytishga tortinadi yoki xatodan qo'rqadi. Sun'iy intellekt bilan ishlashda esa bunday ijtimoiy xavotir yo'q. Talaba o'zini erkinroq his qiladi va bu uning o'rganish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy ta'sirlarini ham aytish o'rinlidir.

Sun'iy intellektdan haddan tashqari foydalanish mustaqil fikrlashning susayishiga olib kelishi mumkin. Talaba har bir savolga tayyor javob olishga o'rganib qolsa, u izlanish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonlarini kamroq bajaradi. Bu esa vaqt o'tishi bilan intellektual passivlikni shakllantiradi[5]. Yana bir muammo shundaki - psixologik qaramlik. Inson qulaylikka tez moslashadi. Agar har bir muammo sun'iy intelekt orqali tez hal qilinadigan bo'lsa, talaba asta-sekin o'z kuchiga kamroq ishonadigan bo'lib qoladi. Natijada oddiy vazifalarda ham tashqi yordamga ehtiyoj sezadi va sun'iy intellekt diqqatning tarqoqlashishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Tezkor javoblar va qisqa formatdagi ma'lumotlarga o'rganib qolgan talaba uzoq vaqt davomida bir mavzuga chuqur e'tibor qaratishda qiynaladi. Bu esa o'qish samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Talabining kundalik odatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatib o'tadi.

Sun'iy intellekt bilan doimiy muloqot qilish talabaning kundalik odatlarini ham o'zgartiradi. Masalan, vazifalarni mustaqil bajarish o'rniga tezkor yordam izlashga odatlanadi;

- natijaga tez erishishni ustuvor qo'yadi, jarayonning o'zi esa kamroq qadrlanadi
- ko'p vazifani bir vaqtning o'zida bajarishga harakat qiladi, bu esa diqqatni bo'lib yuboradi

Ammo ijobiy odatlar ham shakllanishi mumkin:

- yangi bilimga tez moslashish;
- axborotni tez topish va saralash qobiliyati;
- o'z ustida ishlash uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish[6].

Sun’iy intellektning ta’siri uni qanday ishlatishga bog‘liq. Agar talaba sun’iy intellektni o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki yordamchi sifatida qabul qilsa, u rivojlanadi. Aks holda esa uning fikrlash qobiliyati sustlashadi. Psixologik jihatdan eng to‘g‘ri yondashuv — bu ongli foydalanish. Talaba o‘zidan doimiy ravishda savol berishi kerak: “Men buni,tushundimmi yoki shunchaki javobni oldimmi?” Shu savolning o‘zi fikrlashni faollashtiradi va salbiy ta’sirlarni kamaytiradi. Sun’iy intellekt talaba hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi vosita bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham imkoniyat, ham xavf manbai hisoblanadi. U bilim olishni osonlashtiradi, lekin noto‘g‘ri foydalanilganda fikrlashni cheklashi mumkin. Shu sababli eng muhim masala bu texnologiyadan foydalanish madaniyatini shakllantirishdir. Chunki insonning haqiqiy rivoji tayyor javoblarda emas, balki mustaqil fikrlash va anglash jarayonida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellektning inson psixologiyasiga ta’siri ijobiy va salbiy ta'sirlarning murakkabligi va o’zaro ta’siridir. Bir tomondan, sun’iy intellekt texnologiyalari shaxsiylashtirilgan yordam sifatida, ruhiy salomatlikni qo’llab-quvvatlash va samaradorlikni oshirishni va farovonlikni rivojlantirishni taklif qiladi. Boshqa tomondan, shaxsiy hayot, ish o’rinlarining ko’chirilishi, qaramlik haqidagi xavotirlar shaxslar orasida stress, xavotir va ojizlik hissiyotlariga olib kelishi mumkin. Sun’iy intellekt davrida insonning har tomonlama kamol topishiga ko’maklashish uchun sun’iy intellektdan o’rinli foydalanish va uning salbiy ta’sirini yumshatish o’rtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axrorjon, Y., Alijon, M, & Iqlima, A. Faol texnologiyalarni o‘smirlar psoxologiyasiga ta’siri. Ta’lim fidoyilari, 2022.

2. J. P. (2023). Psixologiyada sun’iy intellekt - Transformatsion ufqlar: Ruhiy farovonlikni oshirish uchun psixologiya xizmatlariga sun’iy intellektning integratsiyasi.

3. https://www.linkedin.com/pulse/ai-psychology-transformative-horizons-integration-servicesjhau19vf#:~:text=AI%20in%20psychology%20can%20encompass,psychologists%20understand%20how%20hu

4. Wood S. D., Belar C. D. va Snibbe J. (1998). Guruhlarda kompyuter yordamidagi psixoterapiya va kognitiv-xulq-atvor terapiyasini taqqoslash, Tibbiy sharoitlarda klinik psixologiya jurnali, 5-jild, 1-son, 103-115.

5. Yoldashev, A. E. O., Nishonqulov, S. F. O., & Yoldasheva, M. R. Q. Ta'limdagi axborot texnologiyalari. Scientific progress, 2021.

6. Q.A. Bekmuratov. Sun’iy intellekt. Oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun o‘quv qo'llanma. - T.: "Aloqachi", 2019. https://scientific-jl.com/luch/ 105 Часть-46_ Том-5_ июнь-2025

7. Mano, C. (2014). Examples of artificial neural network. Retrieved on June, 2014 from http://www.ehow.com/print/about_5585309_definition-neuralnetworks.html.

© Abduraximova Sarvinoz Sadullayevna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Abduraximova Sarvinoz Sadullayevna, Ro‘ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

"Sun'iy intellektga bog'liqlik o'quvchilarni kamroq aqlli qiladimi yoki samaraliroq qiladimi?"

Зависимость от ИИ делает студентов менее или более эффективными?»

"Is Dependence on AI Making Students Less Intelligent or More Efficient?"

Qurolova Farzona Ikromjon qizi

Navoiy Innovatsiyalar universiteti,

Filologiya va tillarni o'qitish

(ingliz tili) 3-kurs 6 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalarning sun'iy intellektga (SI) tobora ortib borayotgan qaramligini o'rganadi va uning ularning intellektual rivojlanishi va akademik samaradorligiga ta'sirini baholaydi. Unda ikkita qarama-qarshi nuqtai nazar o'rganiladi: bir tomondan, Siga haddan tashqari ishonish tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil muammolarni hal qilish ko'nikmalarini zaiflashtirishi mumkin; boshqa tomondan, Sidan mas'uliyatli foydalanish o'quv unumdorligini oshirishi, shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatishi va vaqtni boshqarishni yaxshilashi mumkin.

Maqolada Sining ta'siri ko'p jihatdan uning o'quv jarayonida qanday qo'llanilishiga bog'liqligi ta'kidlangan. Unda SI inson idrokining o'rnini bosuvchi emas, balki qo'llab-quvvatlovchi ta'lim vositasi sifatida qaralishi kerakligi haqida xulosa qilinadi va texnologik yordam va mustaqil fikrlash o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt (AI), talabalarga qaramlik, akademik samaradorlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim, kognitiv qobiliyatlar, ta'lim texnologiyasi, o'rganish samaradorligi, AI integratsiyasi, intellektual rivojlanish.*

Аннотация

В данной статье рассматривается растущая зависимость студентов от искусственного интеллекта (ИИ) и оценивается его влияние на их интеллектуальное развитие и успеваемость. Рассматриваются две противоположные точки зрения: с одной стороны, чрезмерная зависимость от ИИ может ослабить критическое мышление, креативность и навыки самостоятельного решения проблем; с другой стороны, ответственное

использование ИИ может повысить продуктивность обучения, обеспечить персонализированную поддержку и улучшить управление временем. В статье подчеркивается, что эффект ИИ во многом зависит от того, как он используется в процессе обучения. В заключение делается вывод, что ИИ следует рассматривать как вспомогательный образовательный инструмент, а не как замену человеческому познанию, и подчеркивается важность поддержания баланса между технологической помощью и самостоятельным мышлением.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект (ИИ), студенческая зависимость, академическая эффективность, критическое мышление, независимое обучение, когнитивные навыки, образовательные технологии, продуктивность обучения, Интеграция ИИ, интеллектуальное развитие.*

Abstract

This article examines the growing dependence of students on Artificial Intelligence (AI) and evaluates its impact on their intellectual development and academic efficiency. It explores two contrasting perspectives: on the one hand, excessive reliance on AI may weaken critical thinking, creativity, and independent problem-solving skills; on the other hand, responsible use of AI can enhance learning productivity, provide personalized support, and improve time management. The article emphasizes that the effect of AI largely depends on how it is used in the learning process. It concludes that AI should be viewed as a supportive educational tool rather than a substitute for human cognition, and highlights the importance of maintaining a balance between technological assistance and independent thinking.

Keywords: *Artificial Intelligence (AI), student dependence, academic efficiency, critical thinking, independent learning, cognitive skills, educational technology, learning productivity, AI integration, intellectual development.*

Introduction

In the digital age, Artificial Intelligence (AI) has rapidly transformed the way students learn and interact with information. From writing essays to solving complex academic tasks, AI-powered tools have become widely accessible and increasingly influential in education. This shift has sparked an ongoing debate about the role of AI in shaping students' intellectual abilities. While some argue that dependence on AI may reduce critical thinking and independent learning, others believe it enhances efficiency and academic performance. Therefore, it is essential to examine how AI affects students' cognitive development and whether it serves as a beneficial aid or a potential limitation in the learning process.

Main Body

Firstly, one of the most significant concerns about the increasing use of Artificial Intelligence in education is its potential impact on students' cognitive abilities. When learners rely excessively on AI tools to generate answers, summarize texts, or complete assignments, they may become less engaged in the actual learning process. Instead of analyzing information and forming their own conclusions, students might accept AI-generated responses without questioning their accuracy or relevance. This habit can weaken essential academic skills such as critical thinking, problem-solving, and independent reasoning. Over time, such dependence may lead to a superficial understanding of subjects rather than deep, meaningful knowledge.

Moreover, overreliance on AI can negatively affect students' creativity and originality. Writing essays, for example, is not only about presenting information but also about expressing personal ideas and developing a unique voice. If students consistently use AI to produce content, they may struggle to articulate their own thoughts and lose confidence in their abilities. This could result in a lack of innovation and reduced intellectual curiosity, both of which are crucial for academic and personal growth.

However, despite these drawbacks, AI also provides numerous benefits when used in a balanced and responsible way. One of its greatest advantages is efficiency. AI tools can quickly process large amounts of information, helping students save time and focus on understanding key concepts. Additionally, AI can offer personalized feedback, allowing learners to identify their strengths and weaknesses. This individualized approach supports more effective learning, as students can progress at their own pace and receive targeted assistance where needed.

Furthermore, AI can serve as a valuable resource for improving language skills, especially for students studying foreign languages. It can help with grammar correction, vocabulary expansion, and even pronunciation practice. In this way, AI enhances the learning experience by making it more interactive and accessible. It also enables students to explore a wide range of materials and perspectives, which can broaden their knowledge and encourage independent research.

Another important aspect to consider is the role of teachers in integrating AI into education. Educators must guide students on how to use AI ethically and responsibly. This includes encouraging learners to verify information, avoid plagiarism, and use AI as a support tool rather than a replacement for their own thinking. By setting clear guidelines and promoting active learning strategies, teachers can ensure that AI contributes positively to students' intellectual development.

In addition, it is essential to maintain a balance between traditional learning methods and modern technology. While AI can enhance efficiency, it should not replace fundamental academic practices such as reading, writing, and critical analysis. Students

should be encouraged to engage deeply with their studies, ask questions, and develop their own perspectives. Only by combining independent effort with technological support can they achieve both academic success and intellectual growth.

In conclusion, the influence of AI on students' intelligence and efficiency is complex and multifaceted. While excessive dependence may weaken important cognitive skills, responsible use can significantly enhance learning outcomes. Therefore, the key lies in using AI wisely, maintaining a balance between innovation and independent thinking.

Conclusion

In conclusion, the increasing use of Artificial Intelligence in education presents both significant opportunities and notable challenges for students' intellectual development. While some critics argue that dependence on AI may weaken critical thinking and reduce independent learning, this perspective does not fully capture the potential benefits of the technology. In reality, AI is neither inherently harmful nor entirely beneficial; its impact depends largely on how it is used by students and guided by educators.

When used excessively and without reflection, AI can indeed lead to passive learning habits. Students may become overly reliant on automated responses, which can limit their ability to think deeply, analyze information, and develop original ideas. However, when approached responsibly, AI can serve as a powerful educational tool that enhances efficiency, supports personalized learning, and improves overall academic performance.

It is essential, therefore, to maintain a balanced approach. Students should be encouraged to use AI as a supportive resource rather than a substitute for their own intellectual efforts. At the same time, educators must play an active role in promoting ethical use, fostering critical thinking, and designing tasks that require independent analysis.

Ultimately, the goal of education is not only to acquire knowledge but also to develop the ability to think, question, and create. AI can contribute to this goal if it is integrated thoughtfully and used in moderation. By combining technological innovation with human intelligence, students can achieve both efficiency and deep learning, ensuring their long-term academic and personal success.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. (2019). Ta'limda sun'iy intellekt. 2.Boston: O'quv dasturlarini qayta ishlab chiqish markazi.

3.Luckin, R. (2018). Mashinali o'rganish va inson intellekti. London: UCL Ta'lim instituti nashriyoti.

4.Richards, J. C., Rodgers, T. S. (2014). Til o'qitish metodlari va yondashuvlari. Kembrij: Cambridge universiteti nashriyoti.

5. Selwyn, N. (2019). Robotlar o'qituvchilarni almashtirishi kerakmi?. Kembrij: Polity nashriyoti.

6.UNESCO (2021). Sun'iy intellekt va ta'lim: siyosat ishlab chiquvchilar uchun qo'llanma. Parij: UNESCO nashriyoti.

7.Zawacki-Richter, O., Marin, V. I., Bond, M., Gouverneur, F. (2019).. 8.0liy ta'limda sun'iy intellekt: tadqiqotlarning tizimli tahlili. Oliy ta'limda ta'lim texnologiyalari xalqaro jurnali, 16(1).

9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limni raqamlashtirishga oid qarorlari (2020-2023).

© Qurolova Farzona Ikromjon qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Qurolova Farzona Ikromjon qizi

Sun'iy intellektning zamonaviy jamiyat va inson faoliyatiga ta'siri

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi

o'qituvchisi Shodiyeva Iroda Sa'dullayevna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi

Ingliz tili ta'lim yo'nalishi 1 kurs talabasi

Isoqulova Rayxona Rustamovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi tutgan oʻrni va inson hayotiga koʻrsatadigan ta'siri ilmiy-nazariy manbalar asosida chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek sun`iy intellektning shakllanish bosqichlari, asosiy yoʻnalishlari va ularning ta'lim, iqtisodiyot, sogʻliqni saqlash, va shu kabi sohalarda qoʻllanilishi yoritiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning inson mehnatini osonlashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishdagi ustunliklari asoslab beriladi. Xususan, mazkur texnologiyaning rivojlanishi bilan yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy va huquqiy muammolar ham tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: raqamlashtirish, mashinaviy o'rganish, ilmiy faoliyat, mehnat bozori, ishlab chiqarish, innovatsiya, algoritmlar, dasturiy ta'minot.

Аннотация. В данной статье на основе научно-теоретических источников проводится глубокий анализ роли искусственного интеллекта в развитии современного общества и его влияния на жизнь человека. Также рассматриваются этапы формирования искусственного интеллекта, его основные направления и применение в таких сферах, как образование, экономика, здравоохранение и других. Кроме того, обосновываются преимущества искусственного интеллекта в облегчении человеческого труда, ускорении процессов принятия решений и анализе больших объемов данных. В частности, анализируются социально-экономические, этические и правовые проблемы, возникающие в связи с развитием данной технологии.

Ключевые слова: искусственный интеллект, машинное обучение, научная деятельность, рынок труда, производство, алгоритмы, программное обеспечение.

Annotation. This article provides a deep analysis of the role of artificial intelligence in the development of modern society and its impact on human life based on scientific and theoretical sources. It also covers the stages of formation of artificial intelligence, its main directions, and its application in fields such as education, economics, healthcare, and others. In addition, the advantages of artificial intelligence in facilitating human labor, accelerating decision-making processes, and analyzing large volumes of data are justified. In particular, the socio-economic, ethical, and legal issues arising from the development of this technology are also analyzed.

Key words: artificial intelligence, machine learning, scientific activity, labor market, production, algorithms, software.

Sun'iy intellekt (SI) bugungi kunda inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib borgan zamonaviy texnologiyalardan biri hisoblanadi. U ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va murakkab jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Natijada inson mehnati yengillashib, samaradorlik sezilarli darajada ortmoqda.

Avvalo, ta'lim sohasida sun'iy intellektning ahamiyati ortib bormoqda. Masalan, aqlli o'quv platformalari talabalar bilim darajasini tahlil qilib, ularga individual o'quv dasturlarini taklif etadi. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qiladi. Shuningdek, avtomatik tarjima vositalari va matn tahlil qiluvchi dasturlar til o'rganishda katta yordam bermoqda. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining eng muhim tarqomlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida shakllangan bo'lib, u kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga xos bo'lgan tomonini o'rganish, tahlil qilish, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajarish qobiliyatini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt ko'pincha fikrlash jarayonlarni modellashtiruvchi tizim sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda SI texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, murakkab tizimlarni boshqarish va rivojlantirish vazifalarini samarali bajarishda keng qo'llanilmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, sun'iy intellekt inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib boribmoqda va ijtimoiy hayotning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois uning imkoniyatlari, afzalliklari va ehtimoliy xavflarini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellektning nazariy asoslari matematik modellashtirish, algoritmlar nazariyasiga borib taqaladi. **SI** tizimlari, asosan, mashinaviy o'rganish,chuqur o`rganish va inson miyasi ishiga o`xshash hisoblash tuzilmalari kabi yo`nalishlarga tayanadi. Mashinaviy o'rganish algoritmlari ma'lumotlar asosida mustaqil ravishda o'rganish imkonini berib, inson aralashuvisiz qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi. Chuqur o'rganish-

bu mashinaviy o`rganishning bir turi bo`lib u ko`p qatlamli su`niy tarmoqlar orqali ma`lumotlarni tahlil qiladi va o`rganadi.

Sun’iy intellekt ta’lim tizimining muhim omil sifatida qaralmoqda. SI asosidagi platformalar o‘quvchilarning bilim darajasini individual baholash va ularga mos o‘quv materiallarini taqdim etish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan model asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot faoliyatida esa SI katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, va ilmiy xulosalar chiqarishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, ilmiy maqolalarni tahlil qilish, statistik asosda va yaratilgan tasviriy tuzilmalarni ishlab chiqish va tajriba natijalarini oldindan taxmin qilish jarayonlarida sun’iy intellekt keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, SI o‘qituvchilar faoliyatini yengillashtirib, baholash va monitoring jarayonlarini nazorat qiladi.

Sun’iy intellekt iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Inson aralashuvisiz ishlaydigan tizimlar orqali ishlab chiqarish jarayonlari natijasida ishlab chiqarish xarajatlari kamayib, mahsulot sifati oshadi. Biroq, SI texnologiyalarining keng joriy etilishi ayrim kasblarning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, takrorlanuvchi va bir xil vazifalarni bajaruvchi kasblar mexanizatsiya qilinmoqda. Shu bilan birga, yangi kasblar — ma’lumotlar tahlilchisi, SI muhandisi, algoritm ishlab chiquvchi kabi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Bu esa mehnat bozorida moslashuvchanlikni, doimiy o‘rganishni talab etadi.

Sun’iy intellekt sog‘liqni saqlash tizimida kasalliklarni erta aniqlash, tashxis qo‘yish va davolash jarayonlarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish orqali saraton kasalligini erta bosqichda aniqlash imkoniyati oshmoqda. Moliya sohasida SI firibgarlikni aniqlash, kredit xavf-xatarlarini baholash va investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Transport tizimida esa avtonom avtomobillar va aqlli boshqaruv tizimlari yo‘l harakati xavfsizligini oshiradi. Davlat boshqaruvida sun’iy intellekt qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirib, ma’muriy to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt rivoji bilan bog‘liq muammolar ham mavjud bo‘lib, ular asosan ijtimoiy, axloqiy va texnik jihatlarni qamrab oladi. Eng muhim muammolardan biri — ish o‘rinlarining qisqarishi va ijtimoiy tengsizlikning ortishi hisoblanadi. Bundan tashqari, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. SI tizimlarining qaror qabul qilish jarayonidagi shaffoflik yetishmasligi ham muhim muammolardan biridir. Axloqiy jihatdan esa sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish — masalan, yolg‘on axborot tarqatib insonlarni o`ziga jalb etish — jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Sun’iy intellekt bugungi kunda zamonaviy jamiyatning muhim va ajralmas qismiga aylanib, inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib

bormoqda. U mehnat samaradorligini oshirish bilan birga, yangi bilim va texnologik imkoniyatlarning paydo boʻlishiga ham zamin yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Bunda ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, huquqiy tartib-qoidalarni takomillashtirish hamda axloqiy me'yorlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduqodirov, A. A. Sun'iy intellekt va uning iqtisodiyotdagi oʻrni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 45–52.
2. Karimov, Sh. M. Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021. – 156 b.
3. Xolmatov, D. R. Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari // Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2023. – №3. – B. 67–72.
4. Toʻrayev, B. X. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi nashriyoti, 2020. – 132 b.
5. Joʻrayev, R. A. Sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. – 148 b.

© Isoqulova Rayxona Rustamovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Isoqulova Rayxona Rustamovna, Shodiyeva Iroda Sa'dullayevna

КОРХОНАДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Гафурова Дилобар Караматовна

Навоий инновация университети PhD

Аннотация: Мақолада корхонада ишлаб чиқаришни ташкил этишнинг назарий асослари, ишлаб чиқариш жараёнининг таркибий элементлари ҳамда самарадорлик кўрсаткичлари таҳлил қилинган. Шунингдек, ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишнинг замонавий йўналишлари ва амалий механизмлари илмий жиҳатдан асосланган.

Калит сўзлар: ишлаб чиқариш, корхона, самарадорлик, ресурслар, меҳнат унумдорлиги, бошқарув, инновация,

Абстракт: В статье анализируются теоретические основы организации производства на предприятии, структурные элементы производственного процесса и показатели эффективности. Также научную основу приводятся современные направления и практические механизмы повышения эффективности производства.

Ключевые слова: Производство, предприятие, эффективность, ресурсы, производительность труда, управление, инновации.

Annotation: In state analysis of the theoretical foundations of the organization of production on pre-production, the structural elements of the production process and the evidence of efficiency. Such a scientific approach to the development of modern manufacturing facilities and practical mechanisms for the efficiency of production..

Key words: Proizvodstvo, predpriyatie, effektivnost, resursy, proizvoditelnost trada, upravlenie, innovatsii

Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар фаолиятининг асосий мақсади рақобатбардош махсулот ишлаб чиқариш ва юқори иқтисодий натижаларга эришишдан иборат. Бу эса, аввало, ишлаб чиқариш жараёнини илмий асосда ташкил этиш ва ресурслардан оқилона фойдаланишни талаб этади.

Ишлаб чиқаришни самарали ташкил этиш корхонанинг барқарор ривожланиши, харажатларни камайтириш ва фойдани оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Ишлаб чиқаришни ташкил этиш — бу корхонада меҳнат, моддий ва молиявий ресурсларни мақсадли ва мувофиқлаштирилган тарзда бирлаштириш орқали маҳсулот яратиш жараёнини тизимли йўлга қўйишдир.

Ишлаб чиқариш жараёни қўйидаги элементлардан иборат:

- меҳнат ресурслари
- ишлаб чиқариш воситалари
- хом-ашё ва материаллар
- технология
- бошқарув тизими

Ишлаб чиқаришни ташкил этиш қўйидаги тамойилларга асосланади:

- Узлуксизлик-ишлаб чиқариш жараёни босқичлар ўртасида тўхтовларсиз, мунтазам равишда амалга оширилиши. Бу вақт йўқотишни камайтиради ва маҳсулот ҳажмини оширади.
- Мутаносиблик - барча цех, бўлим ва ускуналар қуввати ўзаро мувофиқ бўлиши керак. Яъни бир жойда ортиқча юклама, бошқа жойда бекор туриш бўлмаслиги лозим.
- Ихтисослашув- корхона ёки бўлим муайян турдаги маҳсулот ёки операцияга ихтисослашади. Бу самарадорликни оширади ва харажатларни камайтиради.
- Кооперация- турли бўлимлар ёки корхоналарнинг ўзаро ҳамкорликда ишлаши. Бу меҳнат тақсимоти ва ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлайди.
- Автоматлаштириш-ишлаб чиқариш жараёнида техника ва технологиялардан фойдаланиш. Бу инсон меҳнатини енгиллаштиради, сифатни барқарор қилади ва тезкорликни оширади.

Ушбу тамойилларга амал қилиш ишлаб чиқариш жараёнининг самарадорлигини таъминлайди.

Самарадорлик — бу натижа билан харажат ўртасидаги нисбатни ифодаловчи иқтисодий категориядир.

Ишлаб чиқариш самарадорлигини баҳолашда қўйидаги кўрсаткичлар муҳим аҳамиятга эга:

- меҳнат унумдорлиги
- маҳсулот таннархи
- рентабеллик даражаси
- асосий фондлардан фойдаланиш коэффициенти

• айланма маблағлар айланиш тезлиги

Самарадорликнинг ошиши қўйидагиларга олиб келади:

• фойданинг кўпайиши
• рақобатбардошликнинг ошиши
• инвестицион жозибадорликнинг кучайиши
• корхона молиявий барқарорлигининг таъминланиши

Ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишлари.

Ресурслардан оқилона фойдаланишда моддий ва меҳнат ресурсларидан тежамкорлик билан фойдаланиш ишлаб чиқариш харажатларини камайтиради. Замонавий ресурс тежовчи технологияларни жорий этиш муҳим аҳамиятга эга.

Инновацион технологияларни жорий этишда рақамлаштириш, автоматлаштириш ва роботлаштириш ишлаб чиқариш жараёнини тезлаштиради оптималлаштиради ва инсон омили таъсирини камайтиради.

Меҳнатни илмий ташкил этишда меҳнат тақсимоти, иш ўринларини рационал жойлаштириш ва мотивация тизимини такомиллаштириш меҳнат унумдорлигини оширишга ёрдам беради.

Бошқарув самарадорлигини ошириш бу стратегик режалаштириш, назорат ва таҳлил тизимларини такомиллаштириш орқали ишлаб чиқариш жараёни устидан самарали назорат ўрнатилади.

Корхонада ишлаб чиқаришни илмий асосда ташкил этиш иқтисодий самарадорликнинг муҳим омили ҳисобланади. Ресурслардан оқилона фойдаланиш, инновацияларни жорий этиш ва бошқарув тизимини такомиллаштириш ишлаб чиқариш натижадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ходиев Б.Й. Иқтисодиёт назарияси. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2020. – 512 б.

2. Тўхтасинов Р.А. Корхона иқтисодиёти. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 320 б.

3. Расулов Д.Х., Қодиров А.А. Ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш. – Тошкент: Инновация, 2021. – 288 б.

4. Абдукаримов А.А. Менежмент асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт-Молия, 2020. – 304 б.

© Гафурова Дилобар Караматовна, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Гафурова Дилобар Караматовна

СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ – ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИ

Имомов Умрзоқ

Навоий инноватсиялар университети

“Ижтимоий-гуманитар фанлари“ кафедраси додсенти.

Аннотация: Мазкур мақолада соғлом турмуш тарзининг жамият тараққиётидаги ўрни, унинг биологик ва ижтимоий жиҳатлари илмий асосда ёритилган. Инсон саломатлигини мустаҳкамлаш, узоқ умр кўриш, соғлом авлодни тарбиялаш масалалари давлат сиёсати даражасида кўриб чиқилгани таъкидланади. Шунингдек, соғлом турмуш тарзини шакллантиришда овқатланиш, жисмоний фаоллик, кун тартиби, ахлоқий қадриятлар ва маънавий етукликнинг аҳамияти очиб берилади.

Аннотация: В статье рассматривается значение здорового образа жизни в развитии общества, а также его биологические и социальные аспекты. Подчеркивается роль государственной политики в укреплении здоровья населения, обеспечении долголетия и воспитании здорового поколения. Особое внимание уделяется таким факторам, как рациональное питание, физическая активность, режим дня, нравственные ценности и духовное развитие личности.

Annotation: This article explores the role of a healthy lifestyle in societal development, highlighting its biological and social dimensions. It emphasizes the importance of public policy in strengthening public health, promoting longevity, and fostering a healthy generation. The study also outlines key components of a healthy lifestyle, including proper nutrition, physical activity, daily routine, moral values, and spiritual development.

Калит сўзлар: соғлом турмуш тарзи, саломатлик, жамият тараққиёти, биологик омиллар, ижтимоий омиллар, жисмоний фаоллик, маънавият, соғлом авлод.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, здоровье, развитие общества, биологические факторы, социальные факторы, физическая активность, духовность, здоровое поколение.

Key words: healthy lifestyle, health, social development, biological factors, social factors, physical activity, spirituality, healthy generation.

Кириш. Маълумки, турмуш кишиларнинг моддий, озиқ-овқат, кийим-кечак, уй-жой, соғлиқни сақлаш, шунингдек, маънавий қадриятларга бўлган эҳтиёжларини қондиришдан иборат ижтимоий ҳаётнинг ноишлаб чиқариш соҳаси сифатида кўплаб мутахассислар томонидан ўрганилган. “Турмуш тарзи одамларнинг, ижтимоий-этник бирликларнинг муайян ижтимоий, иқтисодий, маданий шароитларда шаклланган ҳаётий фаолият услуби бўлиб, уларнинг кун кечириш муомаласи, хулқ-атвори ва тафаккур тарзида намоён бўлади”,- дея таъриф берилган [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni o'rganishda mikrotarix, tizimlashtirish, statistik va qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Турмуш тарзининг моҳияти, мазмуни ва намоён бўлиш шакллари кўп ҳолатда кишиларнинг ҳаёт кечириши, меҳнати, соғлиги ва ҳатто хулқ-атвори билан белгиланиши ҳам кишиларда ҳеч қандай шубҳа уйғотмайди.

Соғлом турмуш тарзи ниҳоятда кўп қиррали ҳодиса бўлиб, у ўз ичига жамият ҳаётининг нафақат устқурмавий, балки унинг иқтисодий асоси бўлган базисни ҳам қамраб олади. “Мен бахтга эришишнинг ғайриоддий тарғиботига эмас, балки ҳар бир эркак ва аёл ўз йўлини топиши, ўз тақдирининг моҳиятини тушуниши ва ўз эркинлигини амалга ошириши учун ёрдам берадиган – ўз ҳаёт тарзиниўзи танлай олиши учун бир намуна зарурлигига ишонаман”[2]. Шунинг учун бўлса керак бугун жамиятимизда миллий тикланишдан миллий юксалиш сари дадил қадам ташлаб ижтимоий муҳитни қарор топтириш, демократик ва ҳуқуқий давлат қуриш, фуқаролик жамиятини ривожлантириш янги босқичга ўтаётган паллада соғлом турмуш тарзини яратишнинг ўрни ошиб бормоқда.

Мамалакатимиздаги туб янгиланишлар энг аввало ижтимоий ҳаётимизнинг энг муҳим йўналишлари бўлмиш тинчлик ва осойишталикни сақлаш ҳамда аҳоли соғлигини муҳофаза қилиш учун муносиб турмуш тарзи яратишдан бошлангани сир эмас.

Албатта, ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг турли босқичларида соғлом турмуш тарзи билан боғлиқ масалалар ҳамиша ҳам турли объектив ва субъектив омиллар натижасида мавжуд бўлган муаммоларни кутилган даражада ижобий ҳал қила олмаган. Чунки жамиятнинг тарихий ривожланиши даврий равишда “Машҳур юнон табиби Гиппократнинг “Табобат илми барча илму санъатлар ичида энг буюк илм ва санъатдир” деган фикрига ҳар доим ҳам мос келавермаган. Жамиятлар ривожланиш тарихида содир бўлиб турган жиддий иқтисодий ва маънавий инқирозлар тўлақонли соғлом турмуш тарзи вужудга келишига замин ярата олмаган.

Яқин-яқингача соғлом ва узоқ умр кўриш инсониятнинг азалий орзуси бўлиб келган. Аммо уни реал воқеликка айлантириш ўта қийин ва мураккаб масаладир. Шу нуқтаи назардан ҳар қандай жамиятнинг олдида турган асосий вазифа инсониятнинг анашу орзусини руёбга чиқаришдан, яъни кишилар соғлиги ва узоқ умр кўришлари учун шарт-шароитлар яратишдан иборатдир.

Халқимиз саломатлигини мустаҳкамлаш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш учун давлатимиз жамиятимиз фуқароларига айниқса мустақиллик йилларидан бошлаб алоҳида ғамхўрлик қилиб кела бошлади. Ўтган йилларнинг катта қисмида соғлом турмуш тарзининг асослари бош шиор бўлиб марказга чиққанини йилларнинг номланишида ҳам кўришимиз мумкин. Ҳеч қандай шубҳа йўқки, жамиятда вужудга келган тинчлик ва соғликни таъминлашда эришилаётган ютуқлар орқали қолган барча нарсаларга эришилади.

Бугунги кунда вужудга келган имкониятларни ҳисобга олган ҳолда мамлакатимиз Президенти Ш. М. Мирзиёев 2018- йил 28- декабрда Олий Мажлисга Мурожаатномасида қуйидагиларни таъкидлаган эди: “халқимиз генофондини мустаҳкамлаш мақсадида тиббий хизматлар сифатини яхшилаш ва кўламини кенгайтириш лозим” [3]. Ҳеч қандай шубҳа йўқки, жамиятда вужудга келган тинчлик ва соғликни таъминлашда эришилаётган ютуқлар орқали қолган барча нарсаларга эришилади.

29 декабрь 2020 йилда Олий Мажлисга ва халқимизга йўллаган Мурожаатномасида эса буюк аждодимиз Имом Мотрудий ҳазратларининг “Тириклик ҳикматини соғликда, деб билгин”, деган чуқур маъноли сўзлари нақадар тўғри эканини ҳаётнинг ўзи бугун қайта-қайта исботлаётгани ҳақида гапириб, “Шу боис мавжуд имконият ва салоҳиятимиз, пандемия шароитида орттирган тажрибамиз ҳамда хориждаги илғор ютуқлардан фойдаланиб, аҳоли саломатлигини асраш ва мустаҳкамлаш борасидаги туб ислоҳатларимизни янги босқичга кўтаришимиз зарур”[4],-деган эдилар.

Демак, инсон соғлиги давлат бойлиги ҳисобланади. Шунинг учун ҳам инсоннинг биосоциал саломатлигини асраш йўли орқали ижтимоий муҳит ҳолатини таъминлашга интилиш давлат аҳамиятига молик вазифалардан бири ҳисобланади. Биологик нуқтаи назардан соғлом турмуш тарзини шакллантиришда қуйидагиларга эътибор бериш зарурлиги мутахассислар томонидан тавсия этилган:

1) Организмнинг ёшига боғлиқ хусусиятларига ва саломатлик ҳолатига мос келиши; 2) Организмнинг энергия таъминотига бўлган талабини истеъмол қилинаётган озиқ-овқат маҳсулотлар ҳисобига тўла қондирилиши 3) Организмнинг мустаҳкам ва жисмоний фаол бўлиши; 4) Белгиланган кун тартибига риоя қилиш, меҳнат қилиш ва дам олишни мутаносиб ташкил қилишга асосланиши; 5) Ҳаёт

ритмларига мос келишини назоратда бўлишига эътибор қаратиш лозимлигини уқтириб келадилар.

Ижтимоий ва маънавий нуқтаи назардан эса қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга муофиқдир деб биладилар:

1) Ахлоқий ва жисмоний жиҳатдан соғлом бўлиш; 2) Иродани мустаҳкамлаш; 3) Ташқи ва ички гузалликка аҳамият бериш; 4) Маданиятли ва маънавиятли бўлиш.

Жамиятни соғломлаштириш соғлом ижтимоий муҳитни қарор топтириш, демократик ва ҳуқуқий давлат қриш, фуқаролик жамиятини ривожлантириш даврида ахлоқий қадриятларнитиклаш, шу асосда баркамол шахс қиёфасини шакллантиришдаги муҳим омиллардандир. Чунки жамиятимизнинг ҳар бир аъзоси ижтимоий индивид сифатида унинг мукаммал камолати учун зарур ижтимоий муҳитда яшайди, фаолият кўрсатади ва камол топади.

Демак, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш ўз ўзидан содир бўладиган ҳодиса эмас. У жамият фуқароларини биологик ва ижтимоий- маънавий соғломлаштириш тамойиллари асосида олиб бориладиган кўп қиррали ҳодиса бўлиб, соғлом турмуш тарзи шахснинг муайян ижтимоий-ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий, жисмоний-руҳий, маданий шароитларда шаклланган индивидуал ҳаётий фаолият услуби, турмуши, умр мазмуни, жисмоний саломатлиги, ўзаро муносабат маданияти, хулқ-атвори, дунёқараши, хатти-ҳаракати тарзида номоён бўлишидир деб ҳисоблаш мумкин. Халқимиз саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш ҳаётий муҳим масаладир. Тинчлик ва соғлик таъминланса қолган ҳамма нарсага эришиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Фалсафа: қомусий луғат. (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров). Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2004. 405-бет.

Макрон Эммануэль. Революция. – Т. : “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. 90-бет.

Ш.Мирзиёев. Нияти улуғ ҳалқнинг иши ҳам ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент: “Ўзбекистон ” НМИУ, 3-жилд. 2019. 32- бет.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 29 декабр 2020 йилда Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Hurriyat. 2020 – yil, 30 – dekabr, chorshanba. №51-52.

Ф.Халдибекова. Соғлом турмуш тарзи жамиятимиз тараққиётининг асосий омили. Т, “O`ZBEKISTON”- 2013.

© Имомов Умрзоқ, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Имомов Умрзоқ

3-SHO'BA

3-SHO‘BA. TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN AXBOROT TIZIMLARINI JORIY ETISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH: INNOVATSIYALAR VA SAMARADORLIK

3-СЕКЦИЯ. ВНЕДРЕНИЕ И ПОДДЕРЖКА ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ИННОВАЦИИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ.

SECTION 3. IMPLEMENTATION AND SUPPORT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE–BASED INFORMATION SYSTEMS IN THE EDUCATION SYSTEM: INNOVATIONS AND EFFICIENCY.

ERKIN A'ZAM HIKOYALARIDA KONFLIKT VA DRAMATIZMNING BADIIY IFODASI

Bo'riyeva Marvarid Hamdamjon qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti magistranti

boriyevamarvarid5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin A'zam hikoyalarida konflikt va dramatizmning badiiy ifodalanishi tahlil qilinadi. Unda konfliktning ichki (psixologik) va ijtimoiy turlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, yozuvchi hikoyalari misolida qahramon ruhiyati, ichki kechinmalar va dramatizmning badiiy vositalar orqali ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: konflikt, dramatizm, ichki konflikt, ijtimoiy konflikt, psixologik tasvir, ichki monolog, badiiy detal.

THE ARTISTIC EXPRESSION OF CONFLICT AND DRAMATISM IN THE STORIES OF ERKIN A'ZAM

Abstract: This article analyzes the artistic expression of conflict and dramatism in the stories of Erkin A'zam. It explores the internal (psychological) and social types of conflict, as well as their interrelation. Furthermore, based on the writer's stories, the peculiarities of depicting the characters' psyche, inner experiences, and dramatism through artistic means are revealed.

Keywords: conflict, dramatism, internal conflict, social conflict, psychological depiction, inner monologue, artistic detail.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ КОНФЛИКТА И ДРАМАТИЗМА В РАССКАЗАХ ЭРКИНА АЪЗАМА

Аннотация: В данной статье анализируется художественное выражение конфликта и драматизма в рассказах Эркина Аъзама. Освещаются внутренние (психологические) и социальные виды конфликта, а также их взаимосвязь. Кроме того, на примере рассказов писателя раскрываются особенности изображения психологии героя, внутренних переживаний и драматизма с помощью художественных средств.

Ключевые слова: конфликт, драматизм, внутренний конфликт, социальный конфликт, психологическое изображение, внутренний монолог, художественная деталь.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotida badiiy asarning taʼsirchanligi va hayotiyligini belgilovchi muhim omillardan biri konflikt va dramatizm masalasidir. Har qanday badiiy asar mazmun-mohiyatini ochib berishda, qahramon xarakterini yoritishda hamda voqealar rivojini harakatga keltirishda aynan konflikt markaziy oʻrin tutadi. Dramatizm esa ushbu jarayonni yanada keskinlashtirib, oʻquvchiga kuchli estetik va hissiy taʼsir koʻrsatadi.

Har bir yozuvchi oʻz xalqi va sinfi uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan muayyan davrning oʻtkir ziddiyatlari tasviriga alohida eʼtibor qiladi. Oʻzbek nasrida oʻziga xos individual uslub yaratgan ijodkorlardan biri –Erkin Aʼzam hisoblanadi. Uning hikoya va qissalarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar, jamiyat bilan shaxs oʻrtasidagi ziddiyatlar chuqur badiiy talqin etiladi. Adabiyotshunoslikda konflikt – bu badiiy asar personajlarining oʻzaro kurashlari, qahramonning oʻz muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslik lugʻati”da konfliktning uch turi borligini farqlagan: 1)xarakterlararo; 2) qahramon va muhit; 3)ichki (psixologik).

Muayyan bir adabiy turga mansub asarda badiiy konfliktning muayyan bitta turi yetakchilik qiladi. Deylik, dramatik asarlarda xarakterlararo konflikt, lirik asarlarda ichki konflikt (asardagi aksi jihatidan) yetakchilik qilsa, epik asarlarda konfliktning har uchala turi qorishiq holda namoyon boʻla oladi. Syujetida konflikt boʻlmagan asar taʼsirchan emas, chunki unda hayotiy haqiqat toʻla va izchil ifodalanmaydi. Faqat xarakterlarning toʻqnashuvi natijasidagina ularning ichki dunyosi eng toʻla ravishda ochiladi. Konfliktning xarakterlararo turi yozuvchi romanlarida yaqqol aks etadi.

Erkin Aʼzam hikoyalarida esa konflikt koʻproq ichki psixologik xarakterga ega boʻlib, qahramonning oʻz vijdoni, orzu-intilishlari va hayotiy sharoit oʻrtasidagi kurashida namoyon boʻladi. Shu bilan birga, adib ijtimoiy muammolarni ham qahramon ruhiyati orqali ochib beradi. Natijada konflikt va dramatizm oʻzaro uygʻunlashib, asarlarda chuqur psixologik va falsafiy mazmun yuzaga keladi. Masalan, “Tanho qayiq” hikoyasida bosh qahramonning yolgʻizlik hissi va ichki iztiroblari orqali konflikt yuzaga chiqadi. Bu yerda ziddiyat tashqi voqealardan koʻra, qahramonning ichki dunyosida kechadi. Adabiyotshunos Naim Karimov qayd etganidek, psixologik tasvirning chuqurlashuvi zamonaviy nasrda inson ichki olamiga eʼtibor kuchayganini koʻrsatadi.

“Aralashqoʻrgʻon” hikoyasida esa insonning oʻzligini anglash jarayonidagi murakkab ruhiy kechinmalar yoritilgan. Asarda bosh qahramon oʻz hayot mazmuni, qadriyatlar tizimi hamda jamiyatdagi oʻrni haqida mushohada yuritar ekan, turli ichki ziddiyat va

ruhiy sinovlarga duch keladi. Hikoyada yuzaga kelgan konflikt faqat tashqi muhit bilan bogʻlanmay, balki insonning ichki olami, uning ruhiy izlanishlari bilan chambarchas aloqador holda tasvirlanadi. Qahramon an'anaviy va zamonaviy qarashlar oʻrtasida ikkilanayotgan, hayotining asl ma'nosini anglashga intilayotgan shaxs sifatida badiiy talqin etiladi.

Yozuvchi hikoyalarida ijtimoiy ya'ni qahramon va muhit konflikti ham muhim oʻrin egallaydi. Jumladan, "Otoyining tugʻilgan yili" adibga katta shuhrat keltirgan bu hikoyada qahramonning oʻzligini anglashga intilishi va uni oʻrab turgan ijtimoiy muhit bilan toʻqnashuvi aks etgan. Shaxsning erkin qarashlari va muhitning cheklovlari oʻrtasidagi ziddiyat asar mazmunini belgilaydi. Shuningdek, adibning "Bayramdan boshqa kunlar" hikoyasida jamiyat hayotidagi ma'naviy qadriyatlarning asta-sekin zaiflashuvi hamda insonlar oʻrtasidagi munosabatlarning sun'iy tus olishi masalasi badiiy jihatdan yoritiladi. Asarda bayram kunlaridagi tashqi shodiyona va kundalik hayotning ruhiy boʻshligi oʻrtasidagi keskin farq asosiy gʻoyaviy ziddiyat sifatida koʻrsatiladi.

Yozuvchi ushbu qarama-qarshilik orqali zamonaviy hayotda muvozanatning buzilganini, insonlarning chinakam qadriyatlardan uzoqlashib borayotganini badiiy vositalar yordamida ifodalaydi. Shu bilan birga, asarda qahramonning ichki kechinmalari jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-ruhiy tendensiyalar bilan uzviy bogʻliq holda ochib berilib, shaxs va muhit oʻrtasidagi murakkab munosabatlar chuqur psixologik talqin qilinadi. Konfliktlarning bunday koʻp qatlamli ifodasi dramatizmning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Avvalo, dialog va ichki monologlar dramatizmni ifodalashning asosiy vositalaridan biridir. Qahramonlar oʻrtasidagi qisqa, mazmunli dialoglar orqali ziddiyat ochiladi, ichki monologlar orqali esa qahramon ruhiyati chuqur yoritiladi. Bu usul oʻquvchini bevosita qahramonning ichki dunyosiga olib kiradi va dramatik ta'sirni kuchaytiradi. Yozuvchi dramatik ta'sirni kuchaytirishda turli badiiy vositalardan samarali foydalanadi.

Shuningdek, ramziy obrazlar va kinoyaviy ifoda yozuvchi uslubining muhim jihatlaridan hisoblanadi. Oddiy voqea yoki predmet orqali chuqur ma'no berish, yashirin mazmun qatlamlarini yaratish dramatizmni yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, yozuvchining ixcham bayon uslubi ham dramatizmni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ortiqcha tafsilotlarsiz, loʻnda ifoda orqali berilgan voqealar oʻquvchini faol mushohadaga undaydi. Natijada, da bevosita aytilmagan, ammo sezilib turadigan ichki taranglik yuzaga keladi. Bahodir Nazarov fikricha, kinoya yozuvchi ijodida nafaqat badiiy bezak, balki ijtimoiy va ma'naviy muammolarni ifodalovchi muhim vositadir.

Erkin A'zam ijodida konflikt va dramatizm uygʻunligi, avvalo, ichki ziddiyatlarning chuqur psixologik talqini orqali yuzaga chiqadi. Yozuvchi qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshi kechinmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirib, ularni ma'lum dramatik nuqtaga –

kulminatsiyaga olib keladi. Bu jarayonda konflikt faqat voqea rivojini harakatga keltiribgina qolmay, balki dramatik keskinlikni ham shakllantiradi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Erkin A'zam hikoyalarida konflikt va dramatizm o'zaro uzviy bog'liq holda badiiy ifodaning asosiy unsurlari sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi ijodida, asosan, psixologik konflikt yetakchi bo'lib, qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va hayotiy tanlovlari orqali ochib beriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy ziddiyatlar ham inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda muhim o'rin tutadi. Dramatizm esa ushbu konfliktlar asosida shakllanib, dialog, ichki monolog, ramziy obraz va ixcham bayon orqali kuchaytiriladi. Natijada, Erkin A'zam hikoyalarida ichki ruhiy taranglik va badiiy ta'sirchanlik uyg'un holda namoyon bo'lib, yozuvchining o'ziga xos individual uslubini belgilaydi hamda zamonaviy o'zbek nasrining estetik imkoniyatlarini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 228 b.
2. Quronov D., Mamajonov.Z., Sheraliyeva.M., Adabiyotshunoslik lug'ati – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.

Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari /darslik/. – Toshkent: «InnovatsiyaZiyo", 2020. – 310 b.

Erkin A'zam. Tanho qayiq yoxud devonanaing orzusi. – Toshkent: Sharq yulduzi, 2017. – 33.b.

Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T: O'qituvchi, 1986. – 408.b.

Nazarov B. va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidchilik tarixi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi, 2012. – 432 b.

Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560.b.

Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston: til va ma'naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B.14-32.

5. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

Abjalova M.A. and Gulomova N.S. Corpus of Alisher Navoi – Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words, 2024 IEEE 3rd International Conference on

Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.

G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Navodir ush-shabob" devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O'zMU xabarlari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.

G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti g'azallarining tanlanishi. O'zMU xabarlari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.

© Bo'riyeva Marvarid Hamdamjon qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Bo'riyeva Marvarid Hamdamjon qizi

TURKISTONDA JADIDCHILIK VA UNING MAFKURAVIY XUSUSIYATLARI

NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti Sh.T.Boltayeva

Annotatsiya: *Noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.*

Kalit so'zlar: jadidlar harakati, jadidchilik yangi usul maktablari, millatning yashashi, taraqqiy etishi, ozodligi, mustaqil bo'lishi, maktab va maorif sohasi, nazariy ma'lumotlar.

JADIDISM IN TURKESTAN AND ITS IDEOLOGICAL CHARACTERISTICS

Abstract: Although many studies have been conducted in a number of countries around the world on the formation and development of the idea of Jadidism, a unique socio-political phenomenon, a comprehensive study of the great contribution of the representatives of this movement to the development of national statehood and regional identity in Central Asia, as well as the development of civil society, on a conceptual and systematic basis, remains an urgent issue.

Keywords: Jadidism movement, Jadidism new method schools, survival, development, freedom, independence of the nation, school and education, theoretical information.

ДЖАДИДИЗМ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация: Несмотря на многочисленные исследования, проведенные в различных странах мира по формированию и развитию идеи джадидизма — уникального социально-политического феномена, — всестороннее изучение огромного вклада представителей этого движения в развитие национальной государственности и региональной идентичности в Центральной Азии, а также в развитие гражданского общества на концептуальной и системной основе остается актуальной проблемой.

Ключевые слова: движение джадидизма, школы нового метода джадидизма, выживание, развитие, свобода, независимость нации, школа и образование, теоретическая информация.

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida Keskin burulish davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinch va ikkinchi jahon urushi bo'lib, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay yot jamiyat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda, balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osuyoda ham boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi o'zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.

Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib etildi.

Jadidlik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan,XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o'zining cho'qqisiga ko'tarilgan. Jadidlik 1917 yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy hsrskstdir. Ba'zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa,ba'zisida harakat deb aytiladi.

Jadidlik oqim emas, harakat deb ta'kidlanadi. Ijtimoiy, siyosiy,ma'naviy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma'rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidlikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asirati edi. Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3 turga bo'lib izohlaydi.

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi.Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi.
2. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.
3. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Bu xarakter va yo'nalishni qator olimlar e'tirof etdi. Bugungi kunda jadidlar olib borgan ishlari keng jamoatchilik o'rtasida turli xil bahslarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Aslida jadidlar harakati faqat Turkistonda vujudga kelmadi.

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Russiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gasperalining ''Tarjimon" gazetasi (1883) va u asos solgan " Usuli jadid" (ikkinchi nomi " Usuli savtiya") maktabi (1884) muhim rol o'ynaydi.

Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi edi. Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo'yilgan bosh masala bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan ilg'or ma'rifatparvarlar davlat mustaqilligini yo'qotilishiga asosiy sabab, O'rta Osiyo jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqligi ekanini juda yaxshi tushinib etgan. Ular turli ijtimoiy qatlamlarning orasidan chiqqan va eng asosiysi zakovatli bo'lib, ilg'or ziyolilarning birinchi avlodi bo'ldi. Ana shu negizdan keyinchalik jadidlar etishib chiqib ularning g'oyalarini rivojlantirdi va ma'rifatdan siyosatga qarab yo'l oldi.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvolo, aholining barcha ijtimoiy qadamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo'yish singari maqsadlar ilgari surildi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ular, ayniqsa dini mutaassiblik, behuda sarf-harajatlarga olib keluvchi an'anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar boshlab bergan bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Xolidxoji Mehri,Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat rivojlantirdi.

Aslida jadidchilik rasman XIX asrning oxirida o'z amaliy faoliyatini boshlagan bo'lsada, ularning g'oyalari shi asrning boshidayoq o'z ta'sirini namoyon qilayotgan edi.Tashqi olam bilan tanishish Turkistonliklarning orasida falsafiy mushohadasi taraqqiy qilayotgan yoshlarni tarbiyalay boshladi. Bundan ko'rinadiki, tashqi olam bilan tanishish, o'zga millat va davlatlarning tarixi,madaniyati, Turkiston yoshlarining tafakkurini o'zgartirgan ilk sabablardan biridir. Tarixdan ma'limki, hamma vaqt globallashuv jarayoni mavjud bo'lgan, faqat o'zini sekinlik bilan namoyon etgan. Mana shunday jarayonlarning natijasi o'laroq jadidlik ta'limoti o'zini turli yo'llar bilan namoyon qila boshladi. Turkistonda jadidlik g'oyalari va harakatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy zamini XIX asrning oxirgi choragiga kelib to'liq yetildi.

Turkistonning Rossiya tomonidan istilo qilinishi o'lka iqtisodiyotini yuksaltirishga xonlik tizimiga nisbatan birmuncha qulay zamin yaratdi. Mahalliy aholining turmish tarzini o'zgartirish maqsadida bank, vokzal, bosmaxona, zavod kabi yangiliklar kirib kela boshladi. Temir yo'llar qurildi, yangi iqtisodiy aloqalar paydo bo'ldi, litografiya vujudga keldi. Turkistonda jadidlarning taraqqiyparvar vakillari tomonidan "Tarbiyat atfol", " Umid", "Nashri maorif", "Barakat", "G'ayrat", "Taraqqiyparvar" kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy, ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyatlar gazeta va jurnallar chop etib xalqning ma'naviy ongini oshirishga va mafkuraviy salohiyatini ko'tarishga intildi. Jadidlarning Bevosita rahbarligida Toshkentda "Taraqqiy", "Shuhrat", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston",

Samarqandda “Samarqand”, “Oyna”, “Hurriyat”, “Shu’layi Inqilob”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Bolalar yo’ldoshi”, “Tayoq majmuasi”, davriy “Sharq”. “Yosh kuch”, “Zarafshon”, Buxoroda “Turon”, “Buxoroyi Sharif”, Qo’qonda “Sadoyi Farg’ona”kabi o’nlab gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi. Bundan ko’rinib turibdiki, o’z davrining ijtimoiy- falsafiy tafakkuri milliy ozodlik xarakteriga ega bo’lgan. Shunday vaziyatda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy harakatlardan biri – jadidlik vatanni mustaqillikka olib chiqish va milliy o’zlikni anglash tadbirlaridan biri edi. Ma’lumki, milliy o’zlikni anglash muayyan millatning ijtimoiy-tarixiy, ma’naviy-madaniy hayotini, qadriyatlarini, shuningdek, tabiatini bilishdir.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha ko’rinishdagi ta’lim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan. Dastlab xususiy jadid maktablarini ochib yoshlarga ta’lim bera boshlagan bo’lsa, keyinchalik jadid maktablari shakllanishi keng quloch yozib bordi. Mintaqaning turli hududlariga o’ziga xos tarzda bunday maktablar ochila boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining o’ziga xos xususiyati shundaki, A.Donish, Furqat, Muqimiy singari mutafakkirlar, Ibrohim Mo’minov ta’kidlaganidek, adolatning va inson aqlining tantanasiga qarshi tanqid bayrog’ini ko’tarib chiqdi. Bu bayroq keyinchalik Behbudiy,Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzodas Niyoziy va Cho’lpon kabilar yangi bosqichga ko’tardi. “XX asrning avvalida jahon miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi voqealar, 1905 yilgi rus revolyusiyasi, Turkiston xalqlarining ongida demokratik tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi katta turtki bo’ldi. Bunday siyosiy va iqtisodiy o’zgarishlar ijtimoiy tafakkurning taraqqiyotiga ta’sir etmay qolmadi. Yashirin bildirilgan demokratik talablar, ma’rifatparvar va vatanparvarlik g’oyalari tobora oshkora bayon etiladigan va ayrim kishilarning hayot tarzi va maqsadlariga aylangan edi. Ana shu davrda shakllangan jadidlar ikki tomonlama tanqid ostida bo’lgan bo’lsa, keyinchalik Oktyabr to’ntarishidan so’ng jadidlar “qizil zambaraklar”dan o’qqa tutildi”, demak ilg’or fikrli jadidlar o’z davrining qurboniga aylandi/

Turkiston jadidlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qaraq o’z ta’rifini berishgan. Turkistonda o’z faoliyatini olib borgan jadidlar hududiy qatlamiga ko’ra ham farqlangan. Masalan, Turkiston jadidlari, Buxoro jadidlari va Xiva jadidlariga ajratib tahlil qilsak, bularning asosily maqsadlari ozodlik pozitsiyasiga yo’g’rilgan bo’lsada, ichki tuzilishida ayrim farqlarni ham ko’rish mumkin. Masalan,Farg’ona vodiysidagi milliy harakatlar, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, Toshkentdagi ziyolilarning faoliyatlaridagi o’zaro birlik va o’ziga xoslik holatlarini ham ko’rishimiz mumkin. Samarqandda vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakati ijtimoiy rivojlanishi natijasida jadidlarning siyosiy bosqichiga ko’tarildi. O’z davrining ko’zda ko’ringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidlik milliy o’-o’zini anlashning

o’sishiga va milliy-ozodlik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga juda katta xizmat qildi.

Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo’lgan barcha sohalarda innovatsion g’oyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o’zgartirishni, ularning ma’naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash g’oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatda mustaqillik g’oyalari bilan yo’g’rilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko’rishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g’oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Bu g’oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchu jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida shakllana boshlagan. Jadidchilik harakati namoyondalari ko’pincha o’zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O’sha davrning ilg’or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjshon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruratini tushunib etganlar. Jadidlar millatning yashashi, taraqqiy etishi uchun, eng avvalo ozod, mustaqil bo’lishi lozimligini anglaganlar. Shu bilan bir qatorda jadidlar tomonidan maktab-maofif sohasi isloh qilina boshladi, milliy matbuotga asos solindi, adabiyot sohasida ham yangicha qarashlar vujudga kela boshladi. Yana shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, ular mustaqillik uchun kurash olim bordilar. Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Obidjon Mahmudov Ishoqxon to’ra Ibrat, Fayzulla Xo’jayev, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, UsmonXo’jayev, Musa Saidjonov,Polvonniyoz hoji Yusupov,Bobooxun Salimov, Xudaubergan Devonov, Avaz O’tar taraqqiyparvarlar ana shu maqsad yo’lida fidokorona kurash olib bordilar. Mustamlaka Turkistonda jadidchilik tarixini tadqiq qilish bo’yicha bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirildi. Mavzuga bag’ishlangan yirik monografik tadqiqotlar, asarlar, risolalar va maqolalar mavjud.

Ammo bu ilmiy ishlarga jadidchilik va jadidlar tomonidan yozib qoldirilgan asarlar, maqolalarning tub mohiyati etarlicha o’rganilmadi. Mustamlaka davrida yozilgan ilmiy ishlarda o’rganilayotgan masalalarning tarixiy jarayonlari bir tomonlama yoritilganligi, ularning faoliyati qoralanib yozilganligi va kommunistik mafkura singdirilganligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, mustamlaka davrining hukmron kommunistik mafkurasi ta’sirida bir qancha tarixiy jarayonlar, ijtimoiy -siyosiy harakatlar kommunistik, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi manfatlariga bo’ysindirildi va noto’g’ri talqin qilindi. Shu qatorda jadidchilik harakatining mohiyati ham noto’g’ri talqin qilindi. Ammo mustaqillikka erishilgandan so’ng jadidchilik harakatini ijobiy baholash, ular tomonidan yozib qoldirilgan asarlar, nashr qilingan jurnallarni keng qamrovda tadqiq qilish, tarixiy nuqtayi

nazardan xolis baho berish boshlandi. Xalqqa haqiqiy tarix ochib berildi. XIX asrning XX asrning boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati tarixiga oid adabiyotlarni ularning asosiy qarashlariga va yozilgan davriga qarab uch guruhga bo'lish mumkin: 1. Sovet davrida yozilgan tarixiy adabiyotlar 2. Mustaqillik davrida yaratilgan asarlar.3. Xorij tadqiqotchilari tomonidan yozilgan asarlar. Sovet davrida jadidchilik doirasida qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, XX asrning 20-yillari boshiga qadar jadid va jadidchilik, uning vakillari atrofidagi fikrlar yuzaki, turli voqea va munosabatlar bildirilgan, maxsus tadqiqotlar ko'zga tashlanmaydi. Buxoro jadidlarining etakchilaridan biri Sadriddin Ayniyning 1920- yilda “Buxoro inqilobi tarixiga materiallar” nomli asari e'lon qilingan bo'lib, uning bu asarni yozishdan asosiy maqsadi- 1920 yilda Buxoroda yuz bergan inqilobda buxoroliklar, turkmanlar, tojik va boshqa xalqlarning roli, aholining eng qiynalgan qismi ayol va qizlarning ishtiroki, Yosh buxoroliklar faoliyati, yangi usul maktablarning tashkil qilishi va bu yerdagi umumiy ijtimoiy-siyosiy masalalarni ochib berishdan iborat bo'lgan. Bu davrda Fayzulla Xo'jayev tomonidan yozilgan “Buxoro inqilobi tarixiga doir” 2 asari ham mavjud bo'lib, bu asarda Buxoro jadidchiligining faoliyati, jadidchilikning vujudga kelishi va mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Sovet tadqiqotchilari G.Safarov, Kastelskayaning tadqiqotlarini ham shu davrga oid asarlar qatoriga kiritish mumkin. G, Safarovning jadidchilik harakatiga berilgan fikrlari juda qimmatlidir. Unda muallif dastlab, jadidchilik yangi usul maktablarini tashkil etish va milliy taraqqiyot masalalarini o'z oldiga qo'yganligi,

Keyinchalik esa siyosiy maqsadlar uchun unitilib, muxtoriyat uchun kurash olib borganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Z.Kastelskaya o'z asarida Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, o'z tuzumiga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik harakatlari, Oktyabr inqilobi va uning oqibatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shunday qilib, sovet hokimiyati davrida Turkistondagi jadidchilik harakatlari noxolis yozildi va kommunistik mafkuraga bo'ysindirilgan holda soxtalashtirildi. 1980-yillar oxiridan boshlab biroz bo'lsa-da muammoga yangicha qarashlar vujudga kela boshladi ammo jadidchilik harakatining tub mazmun-mohiyati to'liq ochib berilmadi Mustaqillik yillarida bir qancha olimlar tomonidan Turkiston jadidlari faoliyatiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu o'rinda bir qator tarixchi va adabiyotshunos olimlarining hissalari juda kattadir. Xususan, D.Alimova, S. A'zamxo'jayev, D. Ziyoyeva, R. Shamsiddinov, Q. Rajabov, S. Inoyatov, Sh.Hayitov, N. Sodiqov, H.Uzoqov, K. Raxmonov, D. Jamolova, R. Tursunov, G'. Temirov kabi tarixchilar va B.Qosimov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, Z.Abdurashidov singari adabiyotshunoslarning o'rni beqiyosdir.

Xorijda ham Turkistonda jadidchilik masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, unga B, Hayit, A.Xolid, E. Olvort, A. Benningson, I.Baldauf, E. Lazerri, H. Komatsu, Temur Xo'ja o'g'li kabi tarixchi olimlar tomonidan ham jadidshunoslikka oid tadqiqotlar olib borilgan. Xorijda yaratilgan tadqiqotlarning muhim jihati shundaki, jadidchilik harakatida ishtirok etgan shaxslar faoliyatini o'rganish orqali

taraqqiyparvarlikning mohiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, ulamolar harakati borasida yangicha qarashlar bayon qilingan. Amerikalik olim E.Ollvord Turkistonda XX asr boshlarida kechgan tarixiy jarayonlar va unda millat taraqqiyparvarlarining ishtiroki masalasi tadqiq qilinib, jadidchilikning tarixiy ahamiyatini masalasi ochib berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixchi olim Boymirza Hayitning bir necha asarlari ilk marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Uning tadqiqotlarida asosan turkistonliklar va ruslar o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlar, Turkiston Muxtoriyati masalasi, turkistonliklarning maqsadlari haqida muhokama qilingan. Yaponiyalik olim Hisao Komatsu ham jadidchilik va uning namoyandalari haqida o'z fikr va qarashlarini bildirgan. U xususan A. Fitratning "Munozara" asari va "Chig'atoy gurungi" tashkil etilishi haqida o'z asarida to'xtalib o'tgan.

Jadidchilik harakatining tamal toshi jadid usuli maktabidir. Bu ko'pchilik tomonidan yakdil e'tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish millat, Vtan istiqlol edi. Bu zamonlar buyuk mutafakkirlarni tarbiyalab yetishtirgan an'anaviy maktablar so'nggi yillarda jahon taraqqiyotidan butunlay uzilib qolgan, buning ustiga mustamlaka tuzumi tufayli parokanda ahvolga tushgan edi. Shuning uchun ham mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, milliy matbuotchilik va yangi adabiyotlar yaratish, zamon talablariga javob bera oladigan maktablar, oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish jadidd mutafakkirlarining asosiy vazifalariga aylandi.

O'zbekiston tarixining shunday ajoyib sahifalari borki, ular uzoq vaqtlar mobaynida unitilib, yoxud kommunistik mafkura aqidalariga moslashtirish uchun talqin etib kelindi. Jadidizm tarixi ana shular jumlasidan bo'lib, faqat o'sha yangi davr- mustaqillik davriga kelib xolisona tahlil qilinishiga muvaffaq bo'lindi. Ma'lumki, jadidchilik Markaziy Osiyo qit'asida Osiyo va Ovrupadagi ilg'orlari ta'siri ostida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida vujudga keldi va ijtimoiy taraqqiyotida birinchi bosqichni belgilab berdi. Milliy ziyolilar, ilg'or taraqqiyparvar kuchlar Rossiyaga qaram bo'lgan Buxoro va Xiva xonliklardagi ushbu ahvoli, bu o'lkalarga umumjahon taraqqiyotidan tobora ortda qolayotgani, mahalliy aholining erk uchun olib borgan kurashlarining bostirilish sabablarini chuqur anglab etdilar.Bu esa ularning ushbu jamiyatni isloh qilish g'oyalarini uyg'otdi, busiz taraqqiyotni tasavvur ham etib bo'lmas edi. Vatanimizdagi bu islohotchilik harakati tarixiy jihatdan qiyin va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi islohotchilik harakatlarining falsafiy tajribasini tanlab oldi va uni milliy asosda qayta ishlab chiqishga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning asosiy g'oyasi ana shu murakkab yo'lda shakllanib etildiki, uni biz bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlarning g'oyaviy nishonasi, keng miqyosidagi islohotlarning asosi sifatida baholashimiz mumkin.

Markaziy Osiyoda jadidchilik serqirra bo'ldi. Uning asosiy oqimlaridan biri Buxoro jadidchiligi edi. Buxoro jadidchiligi o'z rivojlanish xususiyatiga ega bo'lib, u amirlikdagi

iqtisodiy, siyosiy hamda jamiyatning axloqiy ahvoli bilan bog'liq edi. Buxoro jadidchiligiga F. Xo'jayev va uning maslakdoshlari markaziy o'rinni egallardi.

F.Xo'jayev jadidchilikdek noyob tarixiy hodisaga aloqadorligi tufayli u bir o'n yillar davomida, hatto turg'unlik yillarida ham e'tibordan chetda qolmadi. F.Xo'jayevning Buxoro jadidchiligi tarixiga doir asari nafaqat O'zbekistonda, balki jahon tarixshunosligida ham bebaho xazina hisoblanadi. F.Xo'jayev so'zlari bilan aytganda "muxolif ziyolilar to'dasi" sa'y harakati bilan boshlangan jarayon shu tariqa "milliy taraqqiyot harakati"ga aylandi. Bu tarixiy savolga F.Xo'jayev o'z maqolalari va 1926 yil yozgan "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar" nomli asarida javob beradi. Eng avvalo bu asarning yozilishi va qayta chop etilish tarixiga murojaat etaylik. Chunki bu ham XX asr 20-30 yillardagi ijtimoiy-siyosiy muhit va hukmron tizimining ilmiy tafakkurga ta'siri haqida ma'lumot beruvchi bir tarixdir.

Jadidchilikka, uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti ta'siriga baho ilk bor F.Xo'jayevning "Jadidlar" nomi chop etilgan maqolasida (munosabat bildirilgan edi) chop etilgan edi.

Bu maqolada Sharq musulmon davlatlaridagi jadidchilikning umumiy tavsifi va uning Buxoro jadidchilik yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatib berilgan edi. Bu o'rinda u Turkiya va Eronda bo'lib o'tgan inqiloblarga, milliy-ozodlik harakatlariga, Rossiyadagi 1905-yilgi qo'zgolonlarga ta'siri, Buxorodagi jadidlarning islohot g'oyalarini uyg'otgan ichki turg'un ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga to'xtalib o'tadi. Maqola muallifi har qanday g'oyaviy ta'sitlardan xoli bo'lib, jadidlarga ijtimoiy ta'rif berishga, ularning dasturi va ijtimoiy taraqqiyotini tahlil etishga nihoyatda xolisona yondashadi. Jadidchilikning davriy chegaralarini aniq ko'rsatib beradi. F.Xo'jayev fikricha jadidchilik Yosh buxoroliklar partiyasining tashkil topishi bilan tugaydi. Yosh buxoroliklar boshqa hududlardan ancha farq qilib, o'z oldiga amirni ag'darib va Buxoroda inqilob qilish vazifasini qo'ygan edi. Lekin,F.Xo'jayev "Buxoro inqilobining tarixiyga materiallar" asarida bu masalaga boshqacha yondashib jadidchilikni Yosh buxoroliklar partiyasining ajralmas qismi sifatida yoritadi. F.Xo'jayev "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar" asarida jadidchilikning ichki rivojlanishini, boshqa mamlakatlardagi ozodlik uchun olib borilgan ishlar bilan aloqasini hamda taraqqiyot bosqichlarini ko'rsatib beradi.

Jadidlar haqidagi tasavvurlar ham kishilar xotirasida yaxshi saqlanmagan edi. Ular esa Sovet hokimiyati o'rnatilib bo'lgan bo'lsada, o'lkada omma o'rtasida ma'rifat ta'lim yo'lida bor kuchlarini sarfladilar. Aniq dalillar ilmiy tahlil asosida bu asardagi inkor etib bo'lmaydigan ma'lumotlarning qayd etilishi hukumat doiralarini tashkil qilinishi, totalitar rejim tobora barqaror borayotgan harakatlar bu sharoitda, hukumat doiralari tomonidan "jadidchilikni ulug'lash" bolshevizmni yerga urish deb qabul qilindi. Matbuotda O'rta Osiyo Universiteti kafedrasining mudiri P.Galizoning taxallus ostida chop etilgan maqolasida unga shunday ayb qo'yildi. Bu taqriz yuqoridan bo'lgan buyurtma asosida

yozilgan edi. Bu F.Xo'jayevni ta'qib qilish kompaniyasining debochasi edi. U darhol VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi va O'zKP(b) MQ majlisiga chaqirilib, majlisda bu masala yuzasidan muhokama o'tkazildi. F.Xo'jayev xatolari,jadidchilikka munosabati masalasi O'zbekiston KP III- syezdida ham ko'tarildi. F.Xo'jayev,G.Turkestanskiy tomonidan qilingan tanqidga nisbatan bergan javobida uni qisman tan olganligini bildirsa ham unga qarshi gurugbozlik to'xtamadi.G. Turkestanskiy (P.Galizo) bu bilan kifoyalanib qolmasdan alohida jadidchilikka bag'ishlangan ikkita taqrizdan iborat risola chop etdi. Undagi taqrizlardan biri "O'rta Osiyoda inqilobiyharakat ocherklar" nomli to'plamda chop etilgan. F.Xo'jayev maqolasiga va jadidchilik haqida Ye.Fyodorov, T.Risqulov va S. Ginzenburglar tomonidan bildirilgan qarashlarga,ikkinchi esa F.Xo'jayevning ikkinchi kitobiga bag'ishlangan edi.

F. Xo'jayevning "millatchilik harakati haqida g'oyaviy xato" larining tanqidiga qo'shilgan so'nggi VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi kotibi Ya.K.Baumanning Toshkent shahar partiya anjumanlarida (1932 y) so'zlagan nutqi bo'ldi. F.Xo'jayev tanqid qilish olti yil davom etdi. U asarni qayta ishlashga majbur bo'ldi va asar o'zgartirishlar bilan 1932 yilda chop etildi. F.Xo'jayev asarlariga kirish qismini va xulosasini qayta ishladi va unga Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi ahvol hamda O'rta Osiyoda milliy ozodlik chegaralari masalalarini kiritdi. Natijada jadidchilik quyidagicha bolshevikcha baholandi: jadidchilikda xizmatlari bor. Biroq ular aksilinqilobchi boylar va quloqlarning pozitsiyasini egallab "kapitalistlarning sodiq malaylari bo'lib qoldilar". F.Xo'jayev xulosani o'zgartirsada, asosiy mohiyatini saqlab qolishga uringan. Asarining birinchi nashri 60-yildan ortiq davr mobaynida kutubxonalarning maxsus bo'limlarida saqlanib, keng titobxonlar ommasiga tavsiya etish ta'qiqlangan. Bugungi kunda bu asar mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tafakkur hamda milliy taraqqiyot uchun harakatlar tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatga egadir. Uning qimmatli asar muallifi ham Sharq, ham Ovrupo ta'limini olgan yuksak salohiyat egasi bo'lib va shu tufayli Buxoro turmushi va hayotining milliy an'anaviy va diniy xususiyatlari belgilanadigan shart-sharoitlari hisobga olgan holda Yevropacha taraqqiyotning ustunligini anglab yetgan jadidlarni to'g'ri tushungani bilan belgilanadi.

Turkistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat sifatida jadidchilik (arabcha: jadid-yangi) harakati yuzaga keldi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarda Qrimda Ismoilbek Gaspirali (Ismoilbek Gaspinskiy) rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. Bu harakat keyinchalik Turkistondan tashqari Kavkaz va Tataristonga ham keng tarqaldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini ilg'or taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, millat oydinlari tub aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyati e'tibori bilan, avvalo, siyosiy harakat edi. Uning tug'ilish, shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni

shartli ravishda to’rtga bo’lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xorazm hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929 yillarni o’z ichiga oladi.

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyaning mustahkam o’rnashib olishi kuzatiladi. U o’z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo’g’irchoqqa aylantirib, rus va g’arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko’zlaydi.

Ayni chog’da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo’yildi, diniy e’tiqodlari,urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo’lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo’rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, mahkama jarayonida qozilar bo’yniga xoch taqtirishgacha borildiki, erli aholini bu xilda taxqirlash hollari mustamlakachilarning bedodligini yaqqol ko’rsatardi.

Millat istiqbolini o’ylovchi taraqqiyparvar kuchlar hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, mulkdorlar, ulamolar- xalqning deyarli barcha tabaqalari orasida mavjud edi. Taraqqiyparvarlar dastlab Rossiya imperiyasiga qarshi kurashni xalqni asriy qoloklikdan uyg’otish- siyosiy- ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qabul qildilar.

Jadidlar orasida etuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat va davlat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko’rishni orzu qildilar va shu yo’lda fidoyilarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashda, asosan, quyidagi yo’nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablarining tarmog’ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o’qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish;

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o’rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tizimini o’rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish,barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo’shin tuzish. Toshkent, Farg’ona, Buxoro, Samarqand va Xorazmda hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy- ma’rifiy yo’nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo’nalishlariga ko’ra uchga bo’linadi: Turkiston,Buxoro va Xorazm jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro

va Xorazm jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bo'lgan. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini turli tabaqalardan chiqqan millat oydinlari tashkil qilardi. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom-ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida undan Buxoroda Yosh buxoroliklar (1910) va Xivada Yosh xivaliklar (1914) partiyalari ajralib chiqdi. Bundan tashqari, Toshkentda bir guruh jadidlar "Taraqqiyparvarlar" firqasi yoki "Yosh sartlar" jamiyati tuzishdi. Bu tashkilotlarga faqat yoshlar emas, balki ular ilgari surayotgan fikr va g'oyalarga xayrixoh bo'lganlar ham a'zo edi. Ularning maqsadi Turkistonni Rossiya imperiyasi mustamlakachiligidan ozod qilish, qoloqlik va jaholatga barham berish, istibdod o'rnida demokratik tuzum o'rnatish, yurtimizni rivojlangan davlatlar safiga qo'shish bo'lgan.

Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi, asosan, Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi : jadidlar mullavachchalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda shofirkonlik dehqon Mulla Jo'raboy yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimiylar oqimi qarshi chiqdi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, mazkur ko'rilgan tadqiqotlarda Turkistondagi jadidchilik harakati g'oyasiga qisqacha to'xtalib o'tildi. Bu tadqiqotlarda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, harakatning maqsad- vazifalari va faoliyat haqida turlicha qarashlar, fikrlar keltirib o'tilgan, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Buxoro amirligiga taraqqiyparparlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlab XX asr boshlariga qadar davom etgan. Jadidchilarimizdan meros bo'lib o'tgan bu teran g'oyalarni yuksaltirish va rivojlantirish yosh buxoroliklarning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Mahalliy xalqni, yosh avlodning savodini chiqarish, ularning ongiga ma'rifatparvarlik g'oyalarini singdirishga, avvalo jadid maktablari asosiy rol o'ynagan. Jadid bobolarimiz Vatan ravnaqi yo'lida munosib xizmat qilib, yosh avlodni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatga yetuk va iste'dodli kadrlarni tayyorlab berishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshiganliklari chindan ham katta e'tirof va e'tiborga molik.

Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma'naviy ongini oshirish, o'z vazifasini o'tay olmay qolgan eskicha ta'lim tizimiga yangicha innovatsion g'oyalarni singdirish edi. Bundan tashqari ular ijtimoiy

hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy armiyani joriy etish, diniy va dunyoviy, axloqiy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat konsepsiyasini o'rnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimova D. Fayzulla Xo'jayev va jadidchilik // F. Xo'jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar. – Toshkent: Fan 1997. – 37-38.

2. Buxoroda islohot loyihasi (1918 yil). So'z boshi, matn tabdili va ilmiy izohlar mualliflari B.Mannonov, G.Ostonova, Sh. Kamoliddin.-Toshkent. 2005.-58 bet.

3. Rajabov Q.Fayzulla Xo'jayev // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 9-jild.-Toshkent: O'zbekiston Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.-B. 530-531.

© Boltayeva Sh.T., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Boltayeva Sh.T.

AI-Assisted Learning in Higher Education: Trends, Challenges, and Opportunities for Uzbekistan

Abstract

AI has been significantly altering higher education, improving several procedures involved in the educational process, such as instruction, learning, and assessment methods.

This literature review focuses on AI-assisted learning and discusses how it is used in skills training programs, such as academic writing and study skills. In line with the findings from the research, the literature review presents the discussion of the current trends of AI integration into education that include personalized learning, feedback based on artificial intelligence, and greater involvement of learners. At the same time, there are certain issues connected with AI use, such as ethical problems, academic integrity, and excessive usage of technology. Even though AI becomes a popular tool in the education systems of many countries, its use in Uzbekistan is rather scarce and irregular. According to recent research, although the interest in AI-assisted learning increases, some barriers exist (Vikhrov & Abdullaev, 2024; Madrakhimova, 2024).

Keywords: Artificial Intelligence, Higher Education, Academic English, Study Skills, Uzbekistan, Digital Learning

Introduction

Artificial intelligence has become increasingly popular in higher education, revolutionizing not only the processes of studying, interacting with the material, but also acquiring specific skills. New technologies like writing assistants, tutoring systems, and conversational agents are actively applied to learning environments to enhance personal and adaptive experiences. AI-powered tools are especially useful in case of teaching Academic English and Study Skills when the necessity of structuring the learning process in writing and reading skills arises.

Presently, AI is used by higher education institutions around the world to achieve better learning results, develop effective feedback mechanisms, and engage more actively with the learners. According to the results obtained from the analysis of the existing sources, AI-based learning contributes significantly to the improvement of learners' skills. Nevertheless, the fast integration of this innovation in the field of education causes many ethical questions.

The problem of AI implementation in higher education in Uzbekistan is rather urgent. While digital transformation initiatives are taking place in the country, there is no systematic use of AI-assisted learning methods. As research shows, despite the positive attitudes of both learners and teachers, adoption of these new approaches suffers from lack of digital literacy, infrastructural problems, and lack of relevant policies (Vikhrov & Abdullaev, 2024). Moreover, Madrakhimova (2024) emphasized that there are few AI-assisted language learning practices in the country yet.

Consequently, the purpose of the current literature review is to explore the existing literature on AI-assisted learning paying attention to the impact of artificial intelligence on academic writing and study skills improvement. The review also aims at highlighting major trends, benefits, and limitations in using AI in education and identifying possible ways of implementing this approach in higher education in Uzbekistan, specifically in International Foundation programs.

2. Literature Review

2.1 AI in Academic Writing and Academic English

Modern scientific literature emphasizes that AI can play a crucial role in academic writing. In particular, AI tools help to correct grammar mistakes, expand vocabulary, and structure texts properly, thus ensuring better academic writing. Apart from grammar correction, AI can assist students in academic writing throughout the whole writing process, including planning, drafting, and revising. As a result, learners develop skills for independent learning and become more competent (Amani & Bisriyah, 2025).

Furthermore, Slimi, Benayoune, and Alemu (2025) stated that AI is useful in eliminating language barriers and enhancing the learners' self-confidence during their academic writing assignments.

The use of generative AI models develops self-efficacy, motivation, and satisfaction during writing activities (Almusharraf et al., 2025). Overall, the findings in literature indicate that the impact of AI on autonomous learning and academic performance among students is positive (Du et al., 2025; Lee et al., 2024).

There is evidence in the literature that similar trends have already emerged in Uzbekistan. Namely, learners frequently use AI tools to help with academic writing; however, their use is often limited to informal activities outside formal curricula (Madrakhimova, 2024).

2.2 AI in Study Skills and Language Practice

Apart from writing, AI technologies can contribute to the development of learners' academic skills, including research, critical thinking, information summarization, idea organization, and workload management. These features help students manage

complex tasks and information. Nguyen and Tran (2026) noted that AI tools are useful in conducting academic research and writing papers in higher education. Moreover, AI-based applications can improve speaking and pronunciation skills since they provide instant feedback (Nguyen Huu Lam & Tran Thanh, 2026). In addition, learners can use AI to improve oral and written communication skills (Nuong, 2026).

Therefore, contemporary AI technologies can contribute to the development of comprehensive academic skills, including writing, language communication, and independent learning skills. The Use of AI in education to improve learning skills via multilingual learning programs has been accepted in the country of Uzbekistan even though its application is still on a small scale (Gulyamova & Rasulmuhamedova, 2025).

2.3 Learners' Views on AI Adoption

The use of AI systems in education is seen in a positive light by students, despite their differences across nations and cultures. In general, students note that AI tools are easily accessible, engaging, and useful to complete academic tasks. Scholarly research suggests that the use of AI-assisted learning tools is highly satisfying for students (Puspadnyani et al., 2026).

Furthermore, students admit that AI technologies make the learning process more efficient and accessible in writing tasks and revision processes (Slimi et al., 2025). For instance, a study performed in Korea and Vietnam proved that students were ready to apply AI in academic practices (Lee et al., 2026; Nguyễn & Nguyễn, 2025). Nevertheless, favorable views towards AI tools go hand in hand with negative consequences, namely, the deterioration of critical thinking skills and excessive reliance on AI technology.

Based on the information provided by the existing literature sources, it can be said that students in Uzbekistan also hold rather positive attitudes towards the implementation of AI. Still, due to the absence of institutional support and technological opportunities, its implementation in the context of academic tasks stays limited (Vikhrov & Abdullaev, 2024).

2.4 AI in Feedback and Assessment

AI application for feedback and assessment purposes can be regarded as the most effective implementation of AI within higher education. With the help of AI-assisted feedback, students can receive immediate and personalized feedback to improve the quality of their academic papers.

A number of scientific studies prove that feedback provided through AI technology can be equally effective in a process writing context to human feedback (Yuhwa, 2026). However, it is important to note that there are some ethical concerns regarding any form

of assessment (Muhammad & Hasan, 2026). Hence, it would appear logical to employ a blended approach using both AI and human assessment procedures.

2.5 Challenges and Ethical Issues

Nevertheless, besides the advantages mentioned above, certain issues should be taken into consideration regarding AI technologies usage in higher education institutions. Primarily, the over-reliance on AI technologies negatively affects learners' cognitive development and ability to conduct autonomous learning.

Moreover, the ethical issue of academic integrity should be raised concerning the usage of AI for academic purposes. For example, learners might use these AI technologies in order to conduct academic writing without even engaging in the studying process.

Another set of challenges is associated with institutional factors. Currently, most universities lack guidelines for integrating AI into educational practices and pedagogical frameworks. For instance, Alsalami (2026) indicated that the implementation of AI technology in higher education suffers from inadequate institutional support and low digital literacy levels among teachers.

The issue mentioned above is of high importance in the context of Uzbekistan. Indeed, recent research reveals that structural barriers such as poor infrastructure, low levels of digital literacy, and the lack of regulatory frameworks become barriers for the successful introduction of AI into the activities of higher educational establishments (Vikhrov & Abdullaev, 2024). Furthermore, the absence of systematic pedagogical strategies of introducing AI technology is another obstacle (Madrakhimova, 2024). Nevertheless, recent research suggests that Uzbekistan is technologically well-equipped to implement AI technologies (Gulyamova & Rasulmuhamedova, 2025).

2.6 Research Gaps and Relevance to Uzbekistan

Undoubtedly, there is much AI research conducted in the sphere of education, which is especially prevalent in East Asia, the Middle East, and the Western world.

In addition, it should be noted that the region-specific research dedicated to the implementation of AI in higher education in Central Asia is underrepresented. Despite the fact that there have been some studies devoted to the topic (Vikhrov & Abdullaev, 2024; Madrakhimova, 2024), it cannot be regarded as comprehensive and empirical.

Due to the absence of extensive empirical research, it may be rather complicated to determine the effectiveness and appropriateness of the implementation of AI-assisted learning in Uzbekistan. The issue seems relevant when considering International

Foundation Programs because, in this case, learners need to be proficient in Academic English and academic skills.

1. **Conclusion**

Thus, this literature review proves that AI technology has drastically transformed the higher education sector and positively influenced the improvement of academic skills and academic English proficiency among learners. Yet, there are several issues related to the implementation of AI in higher education.

Although there is considerable interest and positive attitudes toward AI in Uzbekistan, the implementation of these technologies remains at an early stage due to institutional constraints (Vikhrov & Abdullaev, 2024; Madrakhimova, 2024). However, Uzbekistan has shown potential for adopting AI technologies, especially in multilingual education and the development of academic skills (Gulyamova & Rasulmuhamedova, 2025).

1. **Recommendations**
2. Gradual use of artificial intelligence tools at universities in Uzbekistan, particularly in Academic English and Study Skills courses.
3. Improvement of the digital competence of educators with special training courses.
4. Institutionalization of policies and ethical codes for employing artificial intelligence technology.
5. A balanced use of AI in education, which involves utilizing AI in addition to the traditional teaching process.
6. Empirical analysis of AI application in education in Uzbekistan.
7. Development of national regulatory policies for AI in education.

References

Amani, N., & Bisriyah, M. (2025). University students' perceptions of AI-assisted writing tools in supporting self-regulated writing practices. *Indonesian Journal of English Language Teaching and Applied Linguistics, 10*(1), 91–

107. https://doi.org/10.21093/ijeltal.v10i1.1942

Alsalami, A. I. (2026). Integrating social media applications into EFL instruction: Teachers' perceptions, practices and challenges in Saudi higher education. *Arab World English Journal, 17*(1), 175–191.

Almusharraf, A., Bailey, D., Almusharraf, N., & Alotaibi, T. (2025). Students' perceptions of generative AI in EFL writing: Strategies, self-efficacy, satisfaction and

behavioural intention. *Australasian Journal of Educational Technology, 41*(5), 18–36. https://doi.org/10.14742/ajet.10045

Du, T. T., Dung, D. T. B., Ly, H. T. B., Huong, N. T. K., Triet, A. M., & Xuan, N. T.

(2025). Students' perceptions of artificial intelligence in academic writing: A case at a university in Vietnam. *Eurasian Journal of Applied Linguistics, 11*(2), 122–134. https://doi.org/10.32601/ejal.11210

Gulyamova, G., & Rasulmuhamedova, D. (2025). Integration of artificial intelligence into educational platforms for effective language learning. *Jurnal Ilmiah Ilmu Terapan Universitas Jambi, 9*(3), 1009–

1024. https://doi.org/10.22437/jiituj.v9i3.42134

Lee, Y. J., Davis, R. O., & Lee, S. O. (2024). University students' perceptions of artificial intelligence-based tools for English writing courses. *Online Journal of Communication and Media Technologies, 14*(1), e202412. https://doi.org/10.30935/ojcmt/14195

Lee, Y. J., & Davis, R. O. (2024). A case study of implementing generative AI in university's general English courses. *Contemporary Educational Technology, 16*(4), ep533. https://doi.org/10.30935/cedtech/15218

Madrakhimova, M. A. (2024). AI-assisted language learning in Uzbek higher education: Practices, barriers and prospects. *University of World Economy and Diplomacy*. https://reandpub.uz/8210

Muhammad, A., & Hasan, I. (2026). Ethical integrations of artificial intelligence in EFL learning: Opportunities, challenges, and fair assessment (students' perspective). *Humanities Journal of University of Zakho, 14*(1), 8–

18. https://www.hjuoz.uoz.edu.krd/index.php/hum/article/view/1638

Nguyen, P. B. T., & Tran, N. C. (2026). AI-supported tools for English academic writing and publishing: A case study of Vietnamese biotechnology undergraduates. *Arab World English Journal*. https://ssrn.com/abstract=6538760

Nguyen Huu Lam, K., & Tran Thanh, T. (2026). Segmental and suprasegmental pronunciation training via AI: An exploration of university students' perceptions

and attitudes. *Technology in Language Teaching & Learning, 8, 103341*. https://doi.org/10.29140/tltl.2026.103341

Nguyễn, Y. N., & Nguyễn, T. X. H. (2025). Artificial intelligence (AI) tools: An investigation on English language undergraduate students' attitude about the benefits and drawbacks. *Thu Dau Mot University Journal of Economics and Education Sciences, 7*(2), 371–384.

Nuong, N. T. (2026). Enhancing university students' speaking and writing skills through AI-supported language practice. *Research Square*. https://www.researchsquare.com/article/rs-9307767/v1

Puspadnyani, D. G. W., Santosa, M. H., & Indrayani, L. (2026). Students' perceptions of ChatGPT: Usability and enjoyment in English language education. *The Art of Teaching English as a Foreign Language (TATEFL), 7*(1), 1–

14. https://jurnal.stkipahsingaraja.ac.id/index.php/tatefl/article/view/1124

Slimi, Z., Benayoune, A., & Alemu, A. E. (2025). Students' perceptions of artificial intelligence integration in higher education. *European Journal of Educational Research, 14*(2), 471–484. https://doi.org/10.12973/eu-jer.14.2.471

Vikhrov, I. P., & Abdullaev, S. (2024). The future of higher education in Uzbekistan: The potential and challenges of integrating artificial intelligence (national survey). https://erasmus.uz/journal/index.php/files/article/view/129

Yuhwa, L. (2026). A comparative study of EFL university students' perceptions of ChatGPT-based self-feedback and traditional teacher feedback in process-oriented writing across proficiency levels. *Proceedings of the Korean Language Science Conference*, 83–84. https://www.earticle.net/Article/A480346

© R.M. Noronha, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

R.M. Noronha

IJODIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI LOYIHALASH

Professional ta'limni rivojlantirish instituti

mustaqil izlanuvchisi, *Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti,*

p.f.f.d. (PhD) Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi

mavludakubayeva09@gmail.com

Pedagogik tizimlarni loyihalash metodologiyasi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. V.P.Bespalko pedagogik tizimni maqsad, mazmun, jarayon va diagnostikadan iborat yaxlit tuzilma sifatida ta'riflagan. G.K.Selevko texnologik yondashuvni ta'kidlab, pedagogik tizimning har bir elementi boshqa elementlar bilan funktsional bog'liqlikda bo'lishi zarurligini ko'rsatgan. N.A.Muslimov kasbiy ta'lim kontekstida metodik tizimni loyihalashning o'ziga xos xususiyatlarini — amaliyotga yo'naltirilganlik, kasbiy kompetensiya bilan bog'liqlik va diagnostik o'lchovlilik tamoyillarini alohida ta'kidlagan. Bizning metodik tizimimiz shu metodologik asoslarga tayangan holda loyihalangan.

Metodik tizimning tarkibiy bloklari. II bobda ishlab chiqilgan konseptual model asosida va III bobning oldingi paragraflarida amalga oshirilgan tahlillar natijasida biz kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini olti tarkibiy blokdan iborat holda loyihalaymiz: maqsadli blok, metodologik blok, mazmuniy blok, texnologik blok, tashkiliy blok va diagnostik blok. Metodik tizimning umumiy sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.

1-rasmda ko'rsatilgan metodik tizim yuqoridan pastga — maqsaddan natijaga — yo'naltirilgan ierarxik tuzilmaga ega bo'lib, har bir keyingi blok oldingi bloklarga tayanadi va ulardan mantiqiy kelib chiqadi. Bundan tashqari, tizimda teskari aloqa (monitoring va korreksiya) mexanizmi ko'zda tutilgan bo'lib, u natija blokidan maqsadli blokka qaytuvchi axborot oqimini ta'minlaydi. Endi har bir blokni batafsil ko'rib chiqamiz.

Maqsadli blok. Metodik tizimning umumiy maqsadi — kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchilarining ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish. Bu umumiy maqsad quyidagi xususiy vazifalarga dekompozitsiya qilinadi: 1) o'quvchilarning ijodiy faoliyatga motivatsiyasini shakllantirish (motivatsion-qadriyatli komponent); 2) ijodiy fikrlash bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish (kognitiv-ijodiy komponent); 3) kasbiy kontekstda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish (faoliyatli-amaliy komponent); 4) o'z ijodiy faoliyatini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish (refleksiv-baholash komponent).

Maqsadli blokda kutilayotgan natija ham aniqlanadi: metodik tizimni muvaffaqiyatli o‘zlashtirib chiqqan o‘quvchi barcha to‘rt komponent bo‘yicha kamida “o‘rta” darajaga, o‘quvchilarning kamida 25-30 foizi esa “yuqori” darajaga erishishi lozim.

Metodologik blok. Metodik tizimning nazariy-metodologik asosini to‘rt yondashuv tashkil etadi. Birinchidan, tizimli yondashuv (V.G.Afanasyev, I.V.Blauberg) metodik tizimning tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligini ta’minlaydi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, mazmun, texnologiya, tashkiliy shakl va diagnostika yagona maqsadga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq elementlar sifatida ko‘riladi; har bir elementning o‘zgarishi boshqa elementlarga ta’sir qiladi.



1-rasm. Kasbiy ta’lim tashkiloti o‘quvchilarining ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimi

Ikkinchidan, kompetensiyaviy yondashuv (I.A.Zimnyaya [84], A.V.Xutorskoy [122]) tizimning yakuniy natijasi sifatida bilim, ko‘nikma va malakalar emas, balki yaxlit kompetensiya shakllanishini belgilaydi. Bu yondashuv ta’lim mazmunini real kasbiy vaziyatlarga yo‘naltirishni, o‘quvchilarning faol pozitsiyasini ta’minlashni va natijalarni kompetensiya ko‘rsatkichlari orqali baholashni talab qiladi. Uchinchidan, faoliyatli yondashuv (A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn) ijodiy kompetensiyaning faqat faoliyat jarayonida shakllanishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning passiv tinglovchi emas, balki faol ijodiy faoliyat subyekti bo‘lishini talab qiladi. To‘rtinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (I.S.Yakimanskaya, Ye.V.Bondarevskaya) har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ijodiy salohiyatini hisobga olishni ta’minlaydi.

Bu to‘rt yondashuv o‘zaro ziddiyatda emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi metodologik asos sifatida ishlaydi. Tizimli yondashuv metodik tizimning tuzilmaviy yaxlitligini, kompetensiyaviy yondashuv uning natijaga yo‘naltirilganligini, faoliyatli yondashuv jarayonning faollik xarakterini, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa individual differentsial yondashishni ta’minlaydi. Sh.S.Sharipov kasbiy ta’limda bu

yondashuvlarning integratsiyasi haqida shunday yozgan: har bir yondashuv alohida holatda pedagogik jarayonning faqat bir aspektini yoritadi, ularning birligi esa yaxlit pedagogik tizimning metodologik asosini tashkil etadi. I.B.Yoʻldoshev ham Oʻzbekiston kasbiy taʼlim tizimi kontekstida tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlarning uzviy birligi zarurligini alohida taʼkidlagan.

Metodologik blokda metodik tizim asosida yotuvchi tamoyillar ham belgilanadi. Bular: ilmiylik tamoyili (tizim pedagogik fan yutuqlariga, xususan ijodiylik psixologiyasi va pedagogik texnologiyalar nazariyasiga asoslanadi), tizimlilk tamoyili (tizim komponentlari oʻzaro mantiqiy bogʻliq boʻladi), samaradorlik tamoyili (tizimning har bir elementi ijodiy kompetensiya shakllanishiga hissa qoʻshadi) va diagnostik oʻlchovlilik tamoyili (tizimning natijasi aniq mezonlar va koʻrsatkichlar orqali baholanadi). Bu tamoyillar N.A.Muslimov va M.X.Toxtaxodjayeva tomonidan kasbiy taʼlimda pedagogik tizimlarni loyihalash uchun zarur sifatida asoslangan.

Mazmuniy blok. Bu blokda 40110104 “Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisi” dual taʼlim dasturining modullar tizimi (UKM va PM modullar) ijodiy kompetensiya shakllanishi uchun moslashtiriladi. 3.1-§da aniqlangandek, dasturning umumiy 4320 soatidan faqat 300 soatga yaqini (6,9 foiz) ijodiy kompetensiyaga bevosita yoki bilvosita yoʻnaltirilgan. Metodik tizim doirasida bu hajm sifat jihatdan boyitiladi — har bir modulga ijodiy komponent integratsiya qilinadi.

Mazmuniy blokning asosiy tamoyili — kross-modul integratsiya, yaʼni ijodiy kompetensiya faqat maxsus modullar (PM-1.4 “Ijodiy rivojlanish”) doirasida emas, balki barcha modullar orqali shakllantiriladi. Masalan, UKM-2 “Axborot texnologiyalari” modulida oʻquvchilar raqamli vositalar yordamida ijodiy kontent yaratishni oʻrganadilar; UKM-5 “Oʻyin faoliyati” modulida bolalar oʻyinlarini ijodiy loyihalash koʻnikmalari shakllantiriladi; PM-1.2 “Nutq va adabiyot” modulida bolalar uchun ijodiy hikoyalar yaratish va dramatizatsiya usullari oʻrgatiladi.

Mazmuniy blokda uchta mazmuniy qatlam ajratiladi. Birinchi qatlam — kasbiy bilimlar asosi boʻlib, u tarbiyachi kasbiga oid fundamental bilimlarni oʻz ichiga oladi (bolalar psixologiyasi, pedagogika, anatomiya va fiziologiya). Ikkinchi qatlam — ijodiy bilimlar boʻlib, u ijodiylik nazariyasi, ijodiy fikrlash texnikalari, sanʼat pedagogikasi asoslari kabi maxsus bilimlarni qamrab oladi. Uchinchi qatlam — integrativ bilimlar boʻlib, u kasbiy va ijodiy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qoʻllash tajribasini shakllantiradi. Bu uchta qatlam I.Ya.Lerner taʼlim mazmuni nazariyasidagi toʻrt komponent — bilimlar, faoliyat usullari, ijodiy faoliyat tajribasi va emotsional-qadriyatli munosabat — bilan bevosita bogʻliq.

Texnologik blok. Metodik tizimning texnologik bloki 3.2-§da ishlab chiqilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar klassifikatsiyasi va ularni qoʻllash metodikasiga

asoslanadi. Bu blokda to‘rt guruh texnologiyalari — muammoga asoslangan (muammoli ta’lim, keys-stadi, aqliy hujum), loyihaga asoslangan (loyiha metodi, dizayn fikrlash, STEAM), ijodiy fikrlash (TRIZ, lateral fikrlash, sinektika) va hamkorlikka asoslangan (kooperativ o‘qitish, ijodiy ustaxona) — 3.2-§da taklif qilingan besh bosqichli didaktik algoritm asosida qo‘llaniladi.

Texnologik blokning muhim xususiyati — texnologiyalarning integratsiyalashgan qo‘llanishi. Ya’ni, bir mashg‘ulot yoki loyiha doirasida bir nechta texnologiya birgalikda qo‘llaniladi.

Tashkiliy blok. Tashkiliy blok metodik tizimning amalda tatbiq etilish sharoitlarini belgilaydi. Bu blok uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: bosqichli tatbiq etish modeli, tashkiliy shakllar tizimi va dual ta’lim imkoniyatlari. Bosqichli tatbiq etish modeli 3.1-§da asoslangan bo‘lib, uchta bosqichdan iborat: tayyorlov bosqichi (1-semestr) — ijodiy fikrlash asoslari; asosiy bosqich (2-3-semestr) — kasbiy kontekstda ijodiy faoliyat; yakuniy bosqich (4-semestr) — mustaqil ijodiy mahsulot yaratish.

Tashkiliy shakllar tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ma’ruza-dialog (nazariy bilimlarni muammoli usulda yetkazish), seminar (interaktiv muhokamalar, keys-stadi), amaliy mashg‘ulot (innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, guruh ishlari), mustaqil ish (individual ijodiy loyihalar, portfolio shakllantirish), kasbiy amaliyot (MTTda real kasbiy ijodiy faoliyat). Dual ta’lim shaklining o‘ziga xos imkoniyati shundaki, o‘quvchilar nazariy bilimlarni auditoriyada, amaliy ko‘nikmalarni esa bevosita MTTda — real bolalar guruhlari bilan ishlash jarayonida shakllantiradilar. Bu nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi va D.Kolb [154] tajribaviy o‘rganish modeli tamoyillariga to‘liq mos keladi.

1-jadval

Metodik tizimning tashkiliy shakllari va ularning ijodiy kompetensiya komponentlariga mosligi

Tashkiliy shakl	**Hajmi (soat)**	**Asosiy texnologiya**	**IK komponenti**	**Baholash shakli**
Ma’ruza-dialog	Umumiy hajmning 15%	Muammoli ta’lim, provokatsion savollar	Kognitiv-ijodiy, Motivatsion	Og‘zaki so‘rov, refleksiv varaqa
Seminar	Umumiy hajmning 20%	Keys-stadi, “Olti shlyapa”, munozara	Kognitiv-ijodiy, Refleksiv	Keys tahlili natijasi, ekspert baholash

Amaliy mashg'ulot	Umumiy hajmning 25%	Aqliy hujum, TRIZ, Lateral fikrlash, Ijodiy ustaxona	Kognitiv, Faoliyatli	Ijodiy topshiriq, guruh loyihasi
Mustaqil ish	Umumiy hajmning 10%	Loyiha metodi, Dizayn fikrlash	Barcha komponentlar	Portfolio, ijodiy loyiha himoyasi
Kasbiy amaliyot (MTTda)	Umumiy hajmning 30%	Dizayn fikrlash, Loyiha metodi, Ijodiy ustaxona	Faoliyatli-amaliy, Refleksiv	Amaliyot kundaligi, mashg'ulot tahlili

3.3.1-jadvalda ko'rsatilganidek, kasbiy amaliyot (30 foiz) va amaliy mashg'ulotlar (25 foiz) tashkiliy shakllar orasida eng katta hajmni tashkil etadi, bu dual ta'limning "70 foiz amaliy" tamoyiliga mos keladi. Har bir tashkiliy shaklga mos texnologiyalar va baholash shakllari belgilangan bo'lib, bu metodik tizimning izchilligini ta'minlaydi. Ma'ruza-dialog an'anaviy ma'ruzadan farqli ravishda muammoli xarakterga ega — o'qituvchi faqat axborot yetkazish bilan cheklanmay, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradigan savollar, muammoli vaziyatlar va munozaralar tashkil etadi.

Diagnostik blok. Diagnostik blok metodik tizimning samaradorligini baholash va korreksiya qilish uchun zarur bo'lgan mezonlar, ko'rsatkichlar, darajalar va diagnostik vositalar tizimini o'z ichiga oladi. Diagnostik blokning tarkibi 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Metodik tizimning diagnostik bloki: mezonlar, ko'rsatkichlar va vositalar

Mezon (IK komponenti)	**Ko'rsatkichlar**	**Diagnostik vosita**	**Baholash shkalasi**
Motivatsion-qadriyatli	Ijodiy faoliyatga qiziqish; ichki motivatsiya darajasi; kasbiy ijodiylikka munosabat	Motivatsiya anketa (Amabile adaptatsiyasi); o'qituvchi kuzatuvi	Past (0-33 ball), O'rta (34-66), Yuqori (67-100)
Kognitiv-ijodiy	Divergent fikrlash (ravonlik, egiluvchanlik, originallik); ijodiy bilimlar	Torrens ijodiy fikrlash testi (adaptatsiya); bilim testi	Past (0-33 ball), O'rta (34-66), Yuqori (67-100)

Faoliyatli-amaliy	Ijodiy topshiriqlarni bajarish sifati; nostandart yechimlar soni; ijodiy mahsulot	Ekspert baholash varaqasi; portfolio tahlili; loyiha himoyasi	Past (0-33 ball), O'rta (34-66), Yuqori (67-100)
Refleksiv-baholash	O'z-o'zini baholash adekvatligi; refleksiv tahlil chuqurligi; o'sish dinamikasi	Refleksiv kundalik tahlili; o'z-o'zini baholash varaqasi	Past (0-33 ball), O'rta (34-66), Yuqori (67-100)

2-jadvalda ko'rsatilganidek, diagnostik blokda har bir mezon (ijodiy kompetensiya komponenti) uchun aniq ko'rsatkichlar, ularni o'lchash vositalari va baholash shkalasi belgilangan. Motivatsion-qadriyatli komponent T.M.Amabile motivatsiya nazariyasi asosida ishlab chiqilgan anketa orqali o'lchanadi. Kognitiv-ijodiy komponent E.P.Torrens ijodiy fikrlash testi (O'zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilingan variant) orqali baholanadi. Faoliyatli-amaliy komponent ekspert baholash va portfolio tahlili orqali o'lchanadi. Refleksiv-baholash komponent esa refleksiv kundalik va o'z-o'zini baholash varaqalari orqali aniqlanadi. Har bir komponent 0-100 ball shkalasida baholanadi va uchta darajaga bo'linadi: past (0-33), o'rta (34-66) va yuqori (67-100). Ijodiy kompetensiyaning umumiy darajasi to'rt komponent ballining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi.

Diagnostik protseduralar uchta nuqtada amalga oshiriladi: boshlang'ich diagnostika (1-semestr boshida — aniqlash tajribasi), oraliq diagnostika (2-semestr oxirida — jarayonni monitoring qilish) va yakuniy diagnostika (4-semestr oxirida — natijani baholash). Boshlang'ich va yakuniy diagnostika natijalari o'rtasidagi farq Styudent t-mezoni yordamida statistik tekshiriladi, bu esa metodik tizimning samaradorligini ilmiy asosda isbotlash imkonini beradi.

Metodik tizimning ishlash mexanizmi. Yuqorida tavsiflangan olti blok o'zaro bog'liq holda yagona metodik tizim sifatida ishlaydi. Tizimning ishlash mexanizmini tushunish uchun uni "kirish-jarayon-chiqish" modeli ko'rinishida ko'rib chiqamiz (2-rasm).



2-rasm. Metodik tizimning ishlash mexanizmi: kirish-jarayon-chiqish modeli

2-rasmda koʻrsatilganidek, tizimning “kirishi” — ijodiy kompetensiyaning past darajasidagi oʻquvchi boʻlib, u asosan reproduktiv (takrorlovchi) faoliyat koʻnikmalariga ega. “Jarayon” — uchta bosqichdan iborat taʼlim tsikli: birinchi bosqichda (1-semestr) ijodiy fikrlash asoslari aqliy hujum, lateral fikrlash texnologiyalari orqali shakllantiriladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi 106-son “Professional taʼlim muassasalarida dual taʼlimni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 648-son “Professional taʼlimda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktyabrdagi “Kasbiy taʼlim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-190-sonli Farmoni.
4. Ashurova S.Yu. Kompetentli-modulli yondashuv asosida oʻquvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: ped. fan. d-ri (DSc) diss. – Toshkent, 2023 – 207 b.
5. Татур, Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста / Ю.Г. Татур // Высшее образование сегодня. — 2004. — № 3. — С. 20–26.
6. Вербицкий, А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход / А.А. Вербицкий. — М.: Высшая школа, 1991. — 204 с.
7. Беспалько, В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения / В.П. Беспалько. — М., 1995. — 337 с.

© Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIRIN IQTISODIYOTGA YO'NALTIRILGAN DAVLAT SIYOSATI VA IQTISODIY ISLOHOTLAR

Egamov Dilmurod Zaripovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

magistranti.

Annotatsiya: Yashirin iqtisodiyot nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki rivojlangan davlatlar miqyosida ham dolzarb iqtisodiy muammoga aylanib, iqtisodiy tizimning barqaror faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishda davlat siyosatining samarali yo'naltirilishi, kompleks iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar va qarorlarning ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash borasida so'nggi yillarda chora-tadbirlar tizimi izchil va jadallik bilan amalga oshirilmoqda, bu esa milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash hamda barqaror rivojlanish sur'atlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, soliq kodeksi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, iqtisodiy islohotlar, norasmiy faoliyat, iqtisodiy barqarorlik, davlat siyosati.

Abstract: The shadow economy has become a pressing economic problem not only in developing countries but also in developed states, exerting a negative impact on the stable functioning of economic systems and on processes of sustainable development. Addressing this issue requires the effective orientation of state policy, the implementation of comprehensive economic reforms, as well as the development of legal and regulatory frameworks and governmental decisions. In the Republic of Uzbekistan, in recent years, a system of measures to combat the shadow economy has been consistently and actively implemented, which contributes to ensuring the transparency of the national economy and enhancing the pace of sustainable development.

Key words: shadow economy; Tax Code; regulatory and legal acts; economic reforms; informal activity; economic stability; state policy.

Аннотация: Теневая экономика превратилась в актуальную экономическую проблему не только в развивающихся странах, но и в развитых государствах, оказывая негативное влияние на стабильное функционирование экономических систем и процессы устойчивого развития. Решение данной проблемы требует

эффективной ориентации государственной политики, реализации комплексных экономических реформ, а также разработки правовых и нормативных актов и государственных решений. В Республике Узбекистан в последние годы система мер по противодействию теневой экономике осуществляется последовательно и динамично, что способствует обеспечению открытости национальной экономики и ускорению темпов устойчивого развития.

Ключевые слова: теневая экономика; Налоговый кодекс; нормативно-правовые акты; экономические реформы; неформальная деятельность; экономическая стабильность; государственная политика.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy xavfsizlikni mustahkamlash davlat siyosatining fundamental hamda strategik ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Biroq bu jarayonda mamlakat iqtisodiy tizimiga tahdid soluvchi omillar – xususan, yashirin iqtisodiyot jiddiy muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Yashirin iqtisodiy faoliyat soliq tushumlarining kamayishi, korrupsiya darajasining oshishi, rasmiy mehnat bozori va investitsiyaviy muhitga salbiy ta'siri orqali davlatning iqtisodiy asoslarini zaiflashtiradi.

Yashirin iqtisodiyot har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishiga va moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi omillardan biridir. U nafaqat soliq tushumlarini kamaytiradi, balki iqtisodiy islohotlar samaradorligini pasaytiradi, korrupsiya darajasini oshiradi hamda sog'lom raqobat muhitini buzadi. Shu sababli yashirin iqtisodiyot masalasi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan davlatning iqtisodiy mustaqilligi, ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlarga qarshi tura olishi, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini bildiradi. Yashirin iqtisodiyot yuqoridagi jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Budjetni to'ldirish imkoniyatlari kamayadi, rasmiy sektorning ulushi qisqaradi, investitsiya muhiti yomonlashadi va fuqarolarning ijtimoiy himoyasi zaiflashadi.

Shu bois, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy asoslar muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha qator qonunchilik hujjatlari, prezident farmonlari, soliq va jinoyat kodekslari, shuningdek, moliyaviy monitoring tizimlari orqali tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar imzolangan:

O'zbekiston Respublikasi 30.12.2019-yildagi "Soliq kodeksi" [1] yashirin iqtisodiyotga bevosita bog'liq va unga qarshi kurashishda asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. U yashirin faoliyatni aniqlash, rasmiylashtirish va soliqqa tortish orqali uni kamaytirishga xizmat qiladi. Yashirin iqtisodiyotning asosiy

ko‘rinishlaridan biri bu soliq to‘lamaslik yoki daromadni yashirishdir. Soliq kodeksi quyidagi holatlarni soliq huquqbuzarligi sifatida ko‘radi:

- daromadni ataylab kamaytirish yoki yashirish;

- xarajatlarni asossiz ko‘rsatish;

- soxta hisobotlar topshirish;

- norasmiy ishchi kuchidan foydalanish.

Bu kabi holatlar yashirin iqtisodiy faoliyatga kiradi va yashirin iqtisodiy faoliyat hajminining oshishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun soliq kodeksi yashirin iqtiosdiyot hajmini kamaytirish va mamlakatdagi to‘g’ri va qonuniy ishbilarmon tadbirkorlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida hamda mamlakatdagi bozor raqobatbardoshligini ta’minlash uchun yuqorida keltirilgan iqtisodiy jinoyatlarni ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortib bozor iqtisodiyoti tartibga solish soladi.[2]

2020-yildan amaliyotga joriy etilgan yangi “Soliq kodeksi” soliq idoralariga raqamli nazorat texnologiyalaridan foydalanish imkonini yaratdi. Xususan, onlayn nazorat-kassa apparatlari (ONKA), elektron hisob-fakturalar va avtomatlashtirilgan soliq hisobot tizimi orqali yashirin savdo hamda daromadlarni aniqlash samaradorligi oshdi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida yashirin iqtisodiyotga aloqador noqonuniy tadbirkorlik, moliyaviy jinoyatlar hamda noqonuniy daromadlarni legallashtirish holatlari bo‘yicha jinoiy javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-sonli “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni imzolangan. Ushbu farmonda mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma’muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.[3]

Monopoliyalar va bozorni sun’iy boshqarish orqali yuzaga keladigan norasmiy narx shakllanishi, g‘ayriqonuniy daromadlar va soxta kelishuvlar yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi 5630-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] farmonida monopoliyaga qarshi siyosatni kuchaytirish, raqobat muhitini sog‘lomlashtirish, va bu borada yangi tashkilot Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi

faoliyatini kuchaytirish belgilangan.Bu islohotlar bozorni rasmiylashtirishga, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023 yildagi 167-sonli "O'zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori . Qarorda davlat muassasalari va muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining axborot tizimlarini himoya qilish, kiberhujumlarga qarshi kurashish, va axborot oqimini nazorat qilish mexanizmlari belgilangan. Bu orqali soxta yoki yashirin moliyaviy operatsiyalar, qora bozor faoliyatlari, yoki naqd pul muomalasi orqali yuritiladigan yashirin bitimlarni aniqlash imkoniyati oshadi.[5]

Qarorda raqamli infratuzilma ustidan markazlashtirilgan monitoring tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan. Bu yashirin iqtisodiy faoliyatlar (masalan, litsenziyasiz savdo, noqonuniy moliyaviy tranzaksiyalar) kabi holatlarni erta aniqlashga ko'maklashadi. Axborot xavfsizligi – iqtisodiy xavfsizlik tarkibiy qismi hisoblanadi. Kiberxavfsizlik ta'minlanmagan davlatda, turli noqonuniy iqtisodiy faoliyatlar (shu jumladan, korrupsiya, yashirin kelishuvlar, offshor operatsiyalar) elektron tizimlar orqali yashirin olib borilishi mumkin. Qaror shu tahdidlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy xavfsizlik va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimining bir bo'lagi sifatida ko'riladi. Davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashish tizimini kuchaytirish esa soliq, bojxona, bank, va moliyaviy monitoring organlari o'rtasida tezkor axborot almashinuviga asos bo'ladi, bu esa norasmiy iqtisodiy faoliyatlarni aniqlash va huquqiy chora ko'rish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yashirin iqtisodiyotni nafaqat iqtisodiy jinoyatlar orqali shakllanadi balki mamlakatkatning iqtisodiy va texnologik salohiyati kamligi, aholi orasidagi moliyaviy va huquqiy blimlar yetishmasligi va undan tashqari 1-rasmda ko'rsatilgan holatlar natijasida yuzaga keladi.

1-Rasm. Yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy jinoyatlardan tashqari oʻziga xos xususiyatlari

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash jarayoni faqatgina jazolash choralarini qoʻllash bilan cheklanmasdan, balki kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv doirasida samarali meʼyoriy-huquqiy bazani shakllantirish, moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda raqamli iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish asosiy vositalar sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga qaratilgan kompleks davlat siyosati ishlab chiqilgan.

Mazkur siyosat doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini faqat jazolash orqali tartibga solish amaliyotidan voz kechilib, ularni norasmiy sektorga kirishga boʻlgan ragʻbatlarini kamaytirishga yoʻnaltirilgan tizimli chora-tadbirlar qoʻllanilmoqda. Xususan, tadbirkorlar, tijorat tashkilotlari, oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar va xususiy sektor vakillariga turli xil qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq va bojxona imtiyozlarini berish, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini joriy etish hamda boshqa preferensiyalar taqdim etish orqali yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga erishilmoqda.

Amaldagi davlat siyosati natijalari shuni koʻrsatmoqdaki, mazkur kompleks yondashuv iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytirishda va yashirin iqtisodiyot koʻlamini sezilarli darajada kamaytirishda samarali omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Oʻzbekistonda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun soliq tizimi isloh qilindi. Bu jarayonning maqsadi – rasmiy iqtisodiyotni kengaytirish, soliq toʻlovchilarni ragʻbatlantirish va rasmiy tizimga qaram boʻlmagan iqtisodiy faoliyatni cheklashdan iborat. Soliq tizimining soddalashtirilishi va raqamlashtirilishi, sohada shaffoflikni taʼminlashga yordam berdi. Xususan, 2017 yildan boshlab davlat oʻzining raqamli soliq tizimlarini joriy qila boshladi.[6]

Oʻzbekiston iqtisodiyotida norasmiy bandlik masalasi uzoq yillar davomida yetarli darajada eʼtibordan chetda qolib kelgan va tizimli ravishda koʻrib chiqilmagan. Biroq, 2017–2021 yillarga moʻljallangan “Harakatlar strategiyasi”ning qabul qilinishi bilan mehnat va bandlik sohasida chuqur institutsional islohotlar amalga oshirila boshlandi. 2019-yil yanvar oyidan boshlab jismoniy shaxslar daromadlariga yagona soliq stavkasi 12 foiz qilib belgilanib, ijtimoiy yuklama sezilarli darajada kamaytirildi. Shuningdek, fuqarolarning shaxsiy pensiya jamgʻarma hisobvaraqlariga 0,1 foiz ajratma joriy etildi va ilgari fuqarolar daromadidan ushlab qolinib, Davlat budjetidan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga yoʻnaltirilgan sugʻurta badallari bekor qilindi. Mamlakatda soliq tizimi soddalashtirildi, bu esa norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish, rasmiy bandlikni kengaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qildi.

- Bundan tashqari, yagona ijtimoiy toʻlov stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi, bu barcha yuridik shaxslar, shu jumladan mikrofirma, kichik korxonalar va fermer xoʻjaliklari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan kam boʻlgan boshqa korxonalarga ham taalluqli boʻldi.

2025-yil 11-avgustda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish” Mavzusida yig’ilishda Davlatimiz rahbari faqat nazoratni kuchaytirish bilan yashirin iqtisodiyotni jilovlab boʻlmasligini, aholi va tadbirkorlarning soliq madaniyatini oshirib, toʻgʻri ishlaganlarni ragʻbatlantirish yoʻlidan borish kerakligini ta’kidladi va quyidagi ilg’or vazifalarni amalda joriy etish topshiriqlari berildi:

-Bunda eng samarali yoʻl ilgʻor texnologiyalar asosida yangicha yondashuvlarni joriy qilish ekani ta’kidlandi. Masalan, Toshkent shahrida jamoat transporti toʻliq avtomatlashgan toʻlovga oʻtkazilgani natijasida, aslida, yoʻlovchilar soni 30 foizga koʻp ekani koʻringan. Yoki raqamlashtirilgan dehqon va buyum bozorlarida tushum 2-3 karra oshayapti.

Shunday tizimni qishloq xoʻjaligi, qurilish, transport, savdo va xizmatlar kabi yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori boʻlgan sohalarda ham joriy qilish boʻyicha koʻrsatmalar berildi. Litsenziya va ruxsatnoma berish jarayonlari hamda muddatlarini qayta koʻrib chiqib, inson omilini keskin qisqartirish va barcha qadamlarni toʻliq raqamlashtirish vazifasi qoʻyildi. Tadbirkorlar koʻp duch keladigan soliq, bank, bojxona, kommunal, sertifikatlash kabi sohalarda korrupsiyaga yoʻl ochayotgan omillarga chek qoʻyish zarurligi aytildi.

Elektron toʻlovlar rivojlangani odamlarga keng qulaylik yaratmoqda. Bu yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda ham maqbul vosita. Buning uchun naqdsiz hisob-kitoblarni ragʻbatlantirish, toʻlov tashkilotlarini koʻpaytirish muhimligi qayd etildi.

Har bir soha boʻyicha alohida yondashuv qilib, tadbirkorlarga ochiq va qonuniy ishlashni manfaatli qilish vazifasi qoʻyildi. Shundan kelib chiqib, soliq ma’murchiligini takomillashtirish va raqamlashtirish, biznesga qoʻshimcha yengilliklar berish, mehnat munosabatlarini yaxshilash boʻyicha topshiriqlar berildi.[7]

XULOSA VA TAFLIFLAR

Yashirin iqtisodiyot zamonaviy milliy xoʻjalik tizimlarining institutsional barqarorligiga hamda makroiqtisodiy rivojlanish dinamikasiga sezilarli salbiy ta’sir koʻrsatuvchi tizimli muammolardan biri sifatida namoyon boʻladi. Mazkur iqtisodiy hodisaning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va uning koʻlamini qisqartirish davlatning huquqiy-me’yoriy

bazasini mustahkamlash, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hamda iqtisodiy siyosatning kompleks mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash strategiyasi faqat repressiv choralarni qoʻllash bilan chegaralanmasdan, balki soliq toʻlovchilar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining rasmiy iqtisodiyotdagi ishtirokini ragʻbatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy mexanizmlarni oʻz ichiga olishi lozim. Mazkur yondashuv norasmiy sektorga kirishga boʻlgan iqtisodiy manfaatlarni pasaytirish, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning fiskal intizomini oshirish hamda iqtisodiyotni institutsional jihatdan modernizatsiya qilish jarayonlariga xizmat qiladi.

Natijada, davlatning tizimli va kompleks yondashuvi sharoitida yashirin iqtisodiyot hajmini izchil qisqartirish orqali iqtisodiy oʻsishning barqarorligi, fiskal barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 30.12.2019 https://lex.uz/ sayti

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6098-sonli farmoni

3. https://lex.uz/ sayti. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi PF-5630-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni.

4. https://lex.uz/ sayti. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.05.2023 yildagi PQ-167-son Oʻzbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi qarori

5. Rasulov, A. (2020). “Xufyona iqtisodiyot va unga qarshi kurashishda soliq siyosatining roli”. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Boshqaruv.

6. Prezident tomonidan oʻtkazilgan yig’ilish “yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish” https://president.uz/oz/lists/view/8376

1. Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 30.12.2019 https://lex.uz/ sayti. ↑
2. Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 30.12.2019 https://lex.uz/ sayti. ↑

3. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6098-sonli farmoni ↑

4. 4 https://lex.uz/ sayti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi PF-5630-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish, monop-oliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. ↑

5. https://lex.uz/ sayti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.05.2023 yildagi PQ-167-son O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori ↑

6. Rasulov, A. (2020). “Xufyona iqtisodiyot va unga qarshi kurashishda soliq siyosatining roli”. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Boshqaruv. ↑

7. Manba: Prezident tomonidan o‘tkazilgan yig’ilish “yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish” https://president.uz/oz/lists/view/8376 ↑

© Egamov Dilmurod Zaripovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Egamov Dilmurod Zaripovich

PEDAGOG FAOLIYATIDA SUN’IY INTELLEKT: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Navoiy innovatsiyalr universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

Pedagogika kunduzgi ta’lim yo‘nalishi 1-kurs 1- guruh talabasi

Mansurova Saodat Do‘stmurodovna

Ilmiy rahbar: PhD D.K.Arapbayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy pedagogikadagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt vositalarining qo‘llanilishi, xususan, shaxsiylashtirilgan ta’lim, moslashuvchan o‘quv muhiti, avtomatik baholash va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, pedagoglarni sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash muammolari, mavjud ziddiyatlar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini takomillashtirish va o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, pedagogika, ta’lim jarayoni, moslashuvchan ta’lim, mashinali o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik baholash, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiyalar.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ роли и значения технологий искусственного интеллекта в современной педагогике. Рассматриваются возможности применения искусственного интеллекта в образовательном процессе, в частности персонализированное обучение, адаптивная образовательная среда, автоматизированное оценивание и принятие решений на основе данных. Также освещаются проблемы подготовки педагогов к использованию технологий искусственного интеллекта, существующие противоречия и пути их преодоления. В результате исследования обоснована значимость искусственного интеллекта в повышении качества образования, совершенствовании учебного процесса и поддержке профессиональной деятельности учителя.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогика, образовательный процесс, адаптивное обучение, машинное обучение, обработка естественного языка, автоматизированное оценивание, цифровое образование, педагогические технологии.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PEDAGOGICAL ACTIVITY: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES

Annotation: This article provides a scientific analysis of the role and significance of artificial intelligence technologies in modern pedagogy. It examines the application of AI tools in the educational process, including personalized learning, adaptive learning environments, automated assessment, and data-driven decision-making. The study also highlights the challenges of preparing teachers to effectively use AI technologies, identifies existing contradictions, and proposes possible solutions. The findings demonstrate the importance of artificial intelligence in improving the quality of education, enhancing the learning process, and supporting teachers' professional activities.

Keywords: artificial intelligence, pedagogy, educational process, adaptive learning, machine learning, natural language processing, automated assessment, digital education, pedagogical technologies.

Sun'iy intellektning zamonaviy pedagogikadagi roli bugungi raqamli jamiyat taraqqiyoti, ta'lim tizimining innovatsion yangilanishi va pedagogik faoliyatning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi davrda ta'lim jarayoni faqat o'qituvchi tomonidan bilim berish va o'quvchi yoki talaba tomonidan uni qabul qilish shaklida emas, balki interaktiv, shaxsiylashtirilgan, tahliliy va texnologik jihatdan boyitilgan murakkab pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Ana shu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari o'qitish mazmunini yangilash, ta'lim oluvchining individual ehtiyojlarini aniqlash, bilimlarni baholash, mustaqil ta'limni tashkil etish, o'quv materiallarini moslashtirish va pedagogik qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Sun'iy intellektning ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi XX asrning 40–50-yillariga borib taqaladi. Elektron hisoblash mashinalarining rivojlanishi, kibernetika fanining shakllanishi va ilgari faqat inson aqli bilan bajarilishi mumkin deb hisoblangan masalalarni mashina yordamida yechishga bo'lgan qiziqish SI rivojiga asos bo'ldi. Shaxmat o'ynash, teoremalarni isbotlash, murakkab hisoblashlarni bajarish, qaror qabul qilish kabi vazifalar dastlab sun'iy intellektning asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida qaraldi. "Sun'iy intellekt" atamasi esa 1955-yilda Jon Makkarti tomonidan kompyuter yordamida intellektni modellashtirish bo'yicha tadqiqotlarni ifodalash uchun qo'llangan. Keyinchalik SI tushunchasi yanada kengayib, insonning kognitiv funksiyalarini taqlid qiluvchi, mustaqil o'rganish, tahlil qilish, moslashish va muayyan vaziyatlarda qaror

qabul qilish imkoniga ega texnologiyalar majmui sifatida talqin qilina boshlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasida SI insonning kognitiv funksiyalarini, jumladan, o‘z-o‘zini o‘qitish va oldindan berilmagan algoritmlar asosida yechim topish jarayonlarini taqlid qiluvchi hamda aniq masalalarni bajarishda inson intellektual faoliyatiga yaqin yoki teng natija beruvchi texnologik yechimlar majmui sifatida izohlanadi.

Zamonaviy pedagogikada sun’iy intellektning eng muhim vazifalaridan biri shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishdir. An’anaviy ta’limda barcha o‘quvchilar yoki talabalar ko‘pincha bir xil dastur, bir xil tezlik va bir xil metod asosida o‘qitiladi. Biroq har bir ta’lim oluvchining qobiliyati, qiziqishi, bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va ehtiyoji turlicha bo‘ladi. Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar ana shu farqlarni aniqlab, har bir ta’lim oluvchi uchun mos o‘quv materiallari, mashqlar, testlar va tavsiyalarni shakllantirishi mumkin. Bu esa ta’limning individual xarakterini kuchaytiradi, o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Sun’iy intellektning pedagogik faoliyatdagi yana bir muhim roli avtomatlashtirilgan baholash va monitoring tizimlarida namoyon bo‘ladi. SI yordamida testlar, yozma topshiriqlar, mashqlar, amaliy ishlar va mustaqil ta’lim natijalarini tezkor tahlil qilish mumkin. Bunday tizimlar o‘quvchining qaysi mavzuni yaxshi o‘zlashtirganini, qaysi yo‘nalishda qiynalayotganini, qaysi xatolarni ko‘p takrorlayotganini aniqlaydi. Natijada o‘qituvchi faqat umumiy baho qo‘yish bilan cheklanmaydi, balki har bir ta’lim oluvchining o‘sish dinamikasini kuzatib boradi. Bu pedagogga ta’lim mazmunini moslashtirish, dars metodikasini o‘zgartirish va individual yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Ta’limda SI vositalaridan foydalanish o‘qituvchining ishini yengillashtirish bilan birga, uning kasbiy rolini ham o‘zgartiradi. Zamonaviy o‘qituvchi faqat bilim yetkazuvchi emas, balki o‘quv jarayonini loyihalovchi, yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, tahlil qiluvchi va tarbiyaviy muhitni boshqaruvchi mutaxassisga aylanmoqda. Sun’iy intellekt esa bu jarayonda o‘qituvchiga yordamchi vosita vazifasini bajaradi. Masalan, ChatGPT kabi universal chatbotlar talabalarga tushunchalarni izohlash, matn yozish, kod yaratish, g‘oyalar ishlab chiqish, ilmiy matnlarni umumlashtirish va mustaqil ta’lim jarayonida yordam berishi mumkin. DEEPL kabi tarjima tizimlari xorijiy tillardagi ilmiy manbalarni tushunishga ko‘maklashadi. SMODIN kabi matn yaratish va tahrirlash tizimlari yozma ishlar ustida ishlashda foydalanilishi mumkin. Biroq bunday vositalardan foydalanishda akademik halollik, manbaga hurmat, mustaqil fikr va tanqidiy yondashuv alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ta’limdagi samaradorligi esa ularning qanday maqsadda va qanday metodik asosda qo‘llanishiga bog‘liq. Agar SI faqat tayyor javob olish vositasi sifatida ishlatilsa, u o‘quvchining mustaqil fikrlashini susaytirishi mumkin. Aksincha, agar u izlanish, tahlil qilish, solishtirish, fikrni aniqlashtirish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llansa, ta’lim sifatini oshiradi. Shu bois pedagogikada SI texnologiyalarini qo‘llashda o‘qituvchi nazorati, metodik yo‘naltirish va axloqiy me’yorlar muhim o‘rin tutadi. Shu bilan bir qatorda mustaqil ta’limni tashkil etishda sun’iy intellektning roli, yaqqol ko‘rinadi.

Talabalar mustaqil ishlarni bajarish jarayonida katta hajmdagi axborot bilan ishlaydi, ilmiy manbalarni tahlil qiladi, matnlar tayyorlaydi, taqdimotlar yaratadi va amaliy topshiriqlarni bajaradi. SI texnologiyalari bu jarayonda ma'lumot izlash, manbalarni umumlashtirish, matnni tahrirlash, tarjima qilish, reja tuzish va o'z-o'zini tekshirishda yordam beradi. Bunday sharoitda o'qituvchining vazifasi talabaga SI vositasidan qanday to'g'ri foydalanishni o'rgatish, tayyor natijani ko'chirib olish emas, balki uni tanqidiy tahlil qilish, qayta ishlash va mustaqil ilmiy xulosa chiqarishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Pedagoglarni sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga tayyorlash masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Chunki SI texnologiyalari ta'limga kirib kelayotgan bo'lsa-da, barcha pedagoglar ham ulardan metodik jihatdan to'g'ri foydalanishga tayyor emas. Ayrim pedagogik oliy ta'lim muassasalarida SIga oid fanlar tanlov fani sifatida beriladi, bu esa barcha bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishini kafolatlamaydi. Ayniqsa, bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida zamonaviy SI texnologiyalari, Python dasturlash tili, mashinani o'rganish, ma'lumotlar tahlili, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko'rishi va intellektual ta'lim tizimlari bo'yicha bilimlar yetarli darajada yoritilishi zarur sanalmoqda.

Tarixiy jihatdan sun'iy intellekt dasturlashida Lisp va Prolog tillari muhim o'rin tutgan. Lisp 1958-yilda Jon Makkarti tomonidan yaratilgan bo'lib, uzoq vaqt davomida SI tadqiqotchilari orasida asosiy tillardan biri sifatida qo'llanilgan. Prolog esa 1972-yilda mantiqiy dasturlash va bilimlarni ifodalash maqsadida ishlab chiqilgan. XX asrning 70–90-yillarida ekspert tizimlar, mantiqiy xulosa chiqarish va bilimlar bazasiga asoslangan SI modellarida ushbu tillar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Biroq hozirgi davrda sun'iy intellektning amaliy yo'nalishlari ko'proq Python, C++, JavaScript, Swift va boshqa zamonaviy dasturlash muhitlari bilan bog'liq. Ayniqsa, Python mashinani o'rganish, ma'lumotlar tahlili, neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash va Data Science sohalarida keng qo'llanmoqda. Shu sababli pedagogik oliy ta'limda SI fanlarining mazmuni zamonaviy texnologik tendensiyalarga mos yangilanishi lozim.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim dasturlarida faqat SI tarixini, ekspert tizimlar yoki klassik dasturlash tillarini o'rganish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Albatta, Lisp, Prolog, ekspert tizimlar va mantiqiy dasturlash SI tarixini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Biroq zamonaviy o'qituvchi amaliy faoliyatda ko'proq mashinani o'rganish, Python kutubxonalari, Scikit-learn, TensorFlow, PyTorch, tabiiy tilni qayta ishlash vositalari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, ta'lim platformalari va generativ SI modellaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bu esa o'qituvchining raqamli kompetensiyasini oshiradi, uni zamonaviy ta'lim talablariga moslashtiradi va o'quvchilarga kelajak kasblari uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishga tayyorlaydi. Ta'limga kirib kelishi o'qituvchining o'rnini yo'qotmaydi, aksincha, uning kasbiy ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki SI ma'lumotlarni tezkor qayta ishlashi, tavsiyalar

berishi va ayrim jarayonlarni avtomatlashtirishi mumkin, ammo u insoniy muloqot, tarbiyaviy ta'sir, hissiy qo'llab-quvvatlash, axloqiy baholash, noverbal signallarni tushunish, murakkab ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilish kabi xususiyatlarda o'qituvchining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Pedagogik jarayon faqat bilim berish emas, balki shaxsni tarbiyalash, qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvga ko'maklashish va insoniy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish jarayonidir. Shu bois SI pedagogning raqibi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi yordamchi vosita sifatida baholanishi kerak. Ta'lim jarayonida tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari ham muhim ahamiyatga ega. NLP asosidagi tizimlar o'quvchilarning yozma javoblarini tahlil qiladi, grammatik va uslubiy xatolarni aniqlaydi, tarjima qiladi, savollarga javob beradi va matn mazmunini umumlashtiradi. Til o'rganishda bunday texnologiyalar talaffuzni tekshirish, so'z boyligini kengaytirish, matnni tushunish va yozma nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, chet tillarini o'rganishda, ilmiy matnlar bilan ishlashda va mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda muhimdir.

Sun'iy intellektning pedagogikadagi yana bir muhim yo'nalishi ta'lim boshqaruvida ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishdir. O'quvchilarning davomati, baholari, topshiriqlarni bajarish darajasi, faolligi, qiziqishlari va rivojlanish ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinib, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha xulosalar chiqarilishi mumkin. Bu pedagoglarga, metodistlarga va ta'lim muassasasi rahbarlariga o'quv jarayonidagi zaif tomonlarni aniqlash, dasturlarni takomillashtirish va resurslarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Shu jihatdan SI ta'lim boshqaruvining ham samarali vositasiga aylanishi bilan bir qatorda ta'lim olidagi bir qator, muammolari ham mavjud. Birinchi muammo — pedagoglarning SI texnologiyalaridan foydalanishga yetarli tayyor emasligidir. Ikkinchi muammo — metodik ta'minotning to'liq ishlab chiqilmaganligi. Uchinchi muammo — akademik halollik, plagiat, tayyor javoblarga qaramlik va tanqidiy fikrlashning pasayishi xavfidir. To'rtinchi muammo — ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasidir. Beshinchi muammo — SI algoritmlarining xolisligi, shaffofligi va adolatli ishlashini ta'minlashdir. Shu sababli SI texnologiyalarini ta'limga joriy etishda faqat texnik imkoniyatlar emas, balki pedagogik, axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlar ham hisobga olinish bilan birga undan mas'uliyatli foydalanish pedagogik madaniyatning yangi ko'rinishini talab qiladi. O'qituvchi talabalarga SI vositalaridan foydalanish qoidalarini tushuntirishi, ularni mustaqil fikrlashga, manbalarni tekshirishga, axborotni tanqidiy baholashga va o'z fikrini shakllantirishga o'rgatishi lozim. SI yordamida yaratilgan matn yoki javob yakuniy ilmiy natija sifatida emas, balki tahlil qilinadigan, tekshiriladigan va qayta ishlanadigan yordamchi material sifatida qaralishi kerak. Shundagina sun'iy intellekt ta'lim sifatini pasaytiruvchi emas, balki uni rivojlantiruvchi omilga aylanadi.

Xorijiy tajribalar ham ta'limda sun'iy intellektga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi. UNESCOning o'qituvchilar uchun ICT kompetensiya tizimida SI zamonaviy

o‘qituvchi egallashi lozim bo‘lgan muhim texnologik yo‘nalishlar qatorida qayd etiladi. AQSh, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlarda maktab ta’limiga SI elementlarini kiritish, o‘quvchilarni mashinani o‘rganish, ma’lumotlar ilmi, Python dasturlash, kompyuter ko‘rishi va tabiiy tilni qayta ishlash bilan tanishtirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Intel AI For Youth kabi loyihalar yosh avlodni SI savodxonligi bilan ta’minlashga qaratilgan. Bu esa kelajakda har bir o‘qituvchi, ayniqsa informatika o‘qituvchisi, SI texnologiyalari bo‘yicha yetarli kompetensiyaga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham sun’iy intellektdan foydalanish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida SI tizimlaridan foydalanish ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, o‘quv jarayonini boshqarish, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida SI texnologiyalarini o‘qitish alohida ahamiyatga ega. Chunki kelajak avlod bilan ishlaydigan o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalar mohiyatini tushunmasa, ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olmaydi. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt zamonaviy pedagogikada ta’limni texnologik jihatdan yangilovchi, o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlovchi va ta’lim sifatini oshiruvchi muhim vositadir. Biroq uning samarasi pedagogning kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati, raqamli kompetensiyasi va axloqiy mas’uliyatiga bog‘liq. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonida inson omilini inkor etmaydi, aksincha, o‘qituvchining ijodkorligi, tahliliy fikrlashi va tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytiradi. Shu bois zamonaviy pedagogika SI texnologiyalarini o‘zlashtirish, ularni o‘quv jarayoniga maqsadli joriy etish va mas’uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali yangi sifat bosqichiga ko‘tariladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.** "Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4996-son qarori. Toshkent, 2021-yil 17-fevral.
2. **Abduqodirov A.A., Pardayev J.E.** Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009.
3. **Ziyodullayeva G.** Ta’lim tizimida sun’iy intellekt imkoniyatlari: tahlil va istiqbollar // "Zamonaviy ta’lim" ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2023.
4. **Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B.** (2016). Intelligence Unleashed: An argument for AI in Education. London: Pearson.
5. **Selwyn, N.** (2019). Should Robots Replace Teachers?: AI and the Future of Education. Wiley.
6. **Бенгман А.** Искусственный интеллект в образовании: возможности и риски для педагогического процесса. — М.: Альпина Паблишер, 2021.

7. **Семёнова И. Н.** Методика использования технологий искусственного интеллекта в обучении. — Екатеринбург, 2022.
8. **UNESCO.** (2019). Beijing Consensus on Artificial Intelligence and Education.

© Mansurova Saodat Do'stmurodovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Mansurova Saodat Do'stmurodovna

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ АҲАМИЯТИ

Арапбаева Д.К. - Навоий инновациялар университети

в.б.доцент

+99893100738

Ўзбекистон, Навоий шаҳри

Аннотация. Ушбу мақолада сунъий интеллектнинг таълим жараёнидаги ўрни илмий томондан ёритилган бўлиб, унинг таълим жараёнидаги аҳамияти атрофлича ёритилган. Маълумки, сунъий интеллект жамиятнинг барча соҳаларини ўзгартирмоқда ва таълим соҳаси ҳам бундан мустасно эмас. Технология таълим билан ҳам боғлиқ бўлиб, ўқувчиларга ўқув жараёнида ёрдам бериш учун таълим муҳитида фойдаланиш мумкин. Технологиядан фойдаланган ҳолда ўқув жараёнини ташкил этиш ўқув мазмуни, алоқа, баҳолаш ва ифодалаш учун турли воситалар орқали ўрганиш усулини яхшилайди.

Калит сўзлар: Сунъий интеллект, таълим, ўқувчи, технология, таълим.

ЗНАЧЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения рассматривается роль искусственного интеллекта в образовательном процессе, а также подробно освещается его значение в образовательном процессе. Как вы знаете, искусственный интеллект трансформирует все сферы жизни общества, и сфера образования не является исключением. Технологии также связаны с образованием и могут использоваться в образовательных учреждениях для оказания помощи учащимся в процессе обучения. Организация процесса обучения с использованием технологий улучшает способ обучения посредством различных инструментов для изучения содержания, коммуникации, оценки и выражения.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, образование, студент, технологии, умное образование.

THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article examines the role of artificial intelligence in the educational process from a scientific point of view, and also highlights in detail its importance in the

educational process. As you know, artificial intelligence is transforming all spheres of society, and the field of education is no exception. Technology is also related to education and can be used in educational institutions to assist students in the learning process. Organizing the learning process using technology improves the way of learning through various tools for studying content, communication, assessment and expression.

Keywords: Artificial Intelligence, Education, Student, Technology, Smart

Education.

Таълим жамиятнинг энг муҳим соҳаларидан бўлиб, унда сунъий интеллектнинг қўлланилиши таълим жараёнини сезиларли даражада ўзгартирмоқда. Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, таълимнинг келажаги технология ва унинг ютуқлари билан боғлиқ бўлиб қолмоқда. Сўнгги йилларда сунъий интеллект сектори иқтисодчилар, сиёсатшунослар, ҳарбий маслаҳатчилар, хавфсизлик бўйича экспертлар ва таълим бўйича мутахассисларнинг эътиборини тортмоқда. Сунъий интеллект атамаси биринчи марта 1955 йилда Жон Маккарти томонидан қўлланилган. 1950- йилда Алан Туринг ҳисоблаш машиналари бир кун келиб одамлар каби фикрлаши мумкинлигини тарғиб қилиб, у келажакда автоматик машиналар одамлар оқилона бажара олмайдиган ҳисоб-китобларни амалга оширишини таъкидлаган.

Сунъий интеллект деганда кўпинча муаммони ҳал қилиш ва ўрганиш каби инсон онги билан боғлиқ бўлган когнитив функцияларни бажара оладиган машиналарга ишора қилинади. Атроф-муҳитни кузатадиган ва мақсадга эришиш эҳтимолини максимал даражада оширадиган тарзда қарор қабул қиладиган қурилма сунъий агент деб аталади. Хозирда инсон нутқини тушунишга қодир илғор машиналар сунъий интеллект сифатида муваффақиятли амалга оширилмоқда. Сунъий интеллект тадқиқотининг асосий мақсади билимларни ифодалаш, фикрлаш, режалаштириш, ўрганиш ва қайта ишлаш, объектлардан фойдаланиш қобилиятини ўз ичига олади. Сунъий интеллектда мақсадларга эришиш учун статистик моделлаштириш ва ҳисоблаш разведкаси каби кўплаб ёндашувлар қўлланилади. Сунъий интеллект нафақат компьютер фанига таъсир қилади, балки математика, муҳандислик, тилшунослик ва бошқа кўплаб соҳаларни ҳам жалб қилади. Маълумки, сунъий интеллект тез ривожланаётган соҳа бўлиб, у математикадан муҳандисликгача, информатикадан фалсафа ва тилшуносликгача бўлган фанлараро фанларнинг бўш чегараларини қамраб олади. Сунъий интеллект самарали қарор қабул қилиш, ўйин ўйнаш ва ҳоказоларни осонлаштиради, шунингдек, таълим ва ўқитишда қўлланилишини кенгайтиради. Қизиғи шундаки, кўпгина ўқитувчилар ҳалигача унинг аҳамияти, кўлами ва нимадан иборатлиги ҳақида билишмайди. Ўқитувчиларнинг таълимда сунъий интеллектдан фойдаланиш тўғрисида хабардорлиги йўқлигидан келиб чиқадиган юқорида қайд

этилган муаммони ҳисобга олган ҳолда, ушбу тадқиқот сунъий интеллектнинг таълимда қўлланилишини, унинг таълим ва ўқитишдаги қамровини янада ўрганишга қаратилган. Репетиторлик тизими ахборот билан ўзаро алоқада бўлган ва ўқувчи билимини синаб кўришни таъминлайдиган интеллектуал тизим интеллектуал репетиторлик тизими деб номланади. Бу талабаларга маълумот беришнинг мураккаб усулларидан биридир. У ўқитувчи каби ҳар бир ўқувчининг билим даражаси ва устуворлигига қараб таълим беради.

Интеллектуал репетиторлик тизими талабаларни қуйидаги усулларда тайёрлаши мумкин. Дастлаб у назарияни мисоллар билан ўргатади ва тақдим этади. Кейин сунъий интеллект талабаларга саволлар беради. У талабалар томонидан берилган жавобларни тушуниш ва уларнинг билимларини аниқлаш қобилиятига эга, бу эса талабадан нимани тақдим этиши ва сўраши кераклигига таъсир қилади. Талаба саволлар бериши мумкин тизим эса маълум бир билим соҳасидаги муаммоларга жавоб бериши ёки ҳал қилиши мумкин. Тадқиқотчилар тенгламаларни ечиш, физика, математика ва грамматика каби турли фанларни ўргатадиган самарали интеллектуал репетиторлик тизимини ишлаб чиқишдан манфаатдор. Интеллектуал репетиторлик тизими қуйидаги маълумотларни талаб қилади: 1. Ўқитилаётган курсни билиш ва тушуниш, ўрганиш стратегиялари, нотўғри тушунчалар ва мумкин бўлган хатолар. 2. Талабалар билан ўзаро ҳамкорлик натижасида тизим томонидан тўпланган тажриба. У ўқувчиларнинг хатолари, ўқувчиларнинг билим олиш ҳаракатлари ва уларнинг умумий маълумотларини ўз ичига олади. 3. Талабаларнинг ишлаш даражаси ва фойдаланиш нархи учун талаб қилинадиган ҳар бир мавзунинг афзалликлари ёки устуворликлари. 4. Талабаларнинг ўзаро муносабатини кузатиш ва тест натижалари. интеллектуал репетиторлик тизими дизайни тўрт босқичдан иборат: эҳтиёжларни баҳолаш, когнитив вазифани таҳлил қилиш, репетиторни

амалга ошириш ва баҳолашдир.

Биринчи босқич ўқувчилар таҳлили, эксперт ёки ўқитувчи маслаҳати, ўқувчи, эксперт ва билим соҳасини ривожлантиришни ўз ичига олади. Ўқув мақсадлари, натижалари, ўқув режасининг тузилиши ва вазифаларни белгилаш бу ерда ҳал қилиниши керак бўлган масалалардир. Талабаларнинг вазифани бажаришда ёки тизим билан ўзаро алоқада бўлиши мумкин бўлган хатти-ҳаракатларини ҳисобга олган ҳолда, ҳамма нарсани тўғри режалаштириш керак.

Иккинчи босқичда когнитив вазифаларни таҳлил қилиш талабларга мувофиқ тўғри ҳисоблаш моделини ишлаб чиқиш учун тизимли дастурлашни ўз ичига олади. Мутахассислардан интервью олиш, овоз чиқариб ўйлаш, ўрганиш хулқ-атвори ва кўрсатмаларини кузатиш домен моделини ишлаб чиқишнинг асосий усуллари ҳисобланади.

Репетиторнинг дастлабки амалга оширилиши интеллектуал репетиторлик тизими дизайнининг учинчи босқичида содир бўлади ва ўқув жараёнини ҳақиқий тарзда қўллаб-қувватлай оладиган муҳитни ишлаб чиқишни ўз ичига олади.

Якуний босқич баҳолаш жараёнларини, жумладан, экспериментал тест, форматив баҳолаш, параметрик тадқиқотлар ва якуний баҳолашни ўз ичига олади. Ақлли технологиялардан фойдаланиш билан ўқитиш ва ўқитиш усуллари ўзгаради, деб ишонилади. Бу таълим ва таълим билан боғлиқ стратегияларга ҳам таъсир қилади. Келажакда интеллектуал технологиялар таълим билан бирлаштирганлиги сабабли, талабалар ва ўқитувчиларга технологияларни ўз мақсадлари билан интеграция қилишни ўрганишга имкон берадиган янги педагогика керак бўлади.

Хулоса қилганда, сунъий интеллект таълим соҳасида инқилобий ўзгаришларни амалга оширмоқда. У нафақат таълимни самарали қилади, шу билан бирга барчага тенг имкониятлар яратади. Лекин, сунъий интеллектни жорий этишда ахлоқий, махфийлик ва инсон ролига боғлиқ муаммолар ҳам етарлича эътибор талаб қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алимов А., Жабборов Ж. Сунъий интеллект асослари ва унинг таълимда қўлланилиши. Тошкент: 2021. Фан ва технология нашриёти.

2. Михеев В.М.Кузнецова А.А. Искуственный интеллект в образовании: теория и практика применения. Москва: 2020. Москва. Просвещение.

© Арапбаева Д.К., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Арапбаева Д.К.

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XVIII ВЕКА. АНГЛИЙСКАЯ ЛИТЕРАТУРА XVIII ВЕКА. ПРОСВЕЩЕНИЕ В АНГЛИИ

Зарипова Гузал Тохировна

и.о доцент Навоийского университета инноваций

zguzal23071991@gmail.com

Аннотация

В статье рассматривается общая характеристика зарубежной литературы XVIII века с акцентом на английскую литературу эпохи Просвещения. Анализируются ключевые идейно-художественные тенденции, такие как рационализм, критика социальных институтов, утверждение ценности личности и развитие жанра романа. Особое внимание уделяется творчеству таких авторов, как Даниэль Дефо, Джонатан Свифт, Сэмюэл Ричардсон и Генри Филдинг, чьи произведения отражают становление просветительского реализма и формирование нового типа героя. Рассматриваются особенности английского Просвещения, его влияние на европейскую культуру и литературу, а также роль литературы в формировании общественного сознания эпохи.

Ключевые слова

Зарубежная литература XVIII века, английская литература, Просвещение, рационализм, просветительский реализм, роман, социальная критика, личность.

Annotation

The article examines the general characteristics of 18th-century foreign literature with a particular focus on English literature of the Enlightenment period. It analyzes key ideological and artistic trends such as rationalism, criticism of social institutions, the affirmation of individual value, and the development of the novel as a literary genre. Special attention is given to the works of Daniel Defoe, Jonathan Swift, Samuel Richardson, and Henry Fielding, whose writings reflect the emergence of Enlightenment realism and the formation of a new type of literary hero. The study also explores the distinctive features of the English Enlightenment, its influence on European culture and literature, and the role of literature in shaping public consciousness.

Keywords

18th-century foreign literature, English literature, Enlightenment, rationalism, Enlightenment realism, novel, social criticism, individuality.

Annotatsiya

Maqolada XVIII asr jahon adabiyotining umumiy xususiyatlari, ayniqsa ingliz ma’rifatparvarlik davri adabiyoti tahlil qilinadi. Unda ratsionalizm, ijtimoiy institutlarni tanqid qilish, shaxs qadriyatini ulug‘lash hamda roman janrining rivojlanishi kabi asosiy g‘oyaviy va badiiy tendensiyalar ko‘rib chiqiladi. Daniyel Defo, Jonatan Svift, Semyuel Richardson va Genri Filding ijodiga alohida e’tibor qaratilib, ularning asarlarida ma’rifatparvarlik realizmining shakllanishi va yangi tipdagi qahramonning paydo bo‘lishi yoritiladi. Shuningdek, ingliz ma’rifatparvarligining o‘ziga xos jihatlari, uning Yevropa madaniyatiga ta’siri va adabiyotning jamiyat ongini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

XVIII asr jahon adabiyoti, ingliz adabiyoti, Ma’rifatparvarlik, ratsionalizm, ma’rifatparvarlik realizmi, roman, ijtimoiy tanqid, shaxs.

XVIII век как этап развития европейской литературы. XVIII век занимает особое место в истории европейской литературы как этап перехода от мировоззренческих кризисов Нового времени к формированию устойчивой системы рационалистических ценностей. В этот период утверждается просветительская модель культуры, основанная на вере в разум, прогресс и возможность целенаправленного преобразования общества. Литература становится одной из ведущих форм интеллектуальной и нравственной рефлексии, отражающей стремление к упорядочиванию социальной и духовной жизни.

Эпоха Просвещения формирует представление о человеке как о разумном, деятельном и нравственно ответственном существе. Индивид мыслится не как пассивный носитель традиции, а как субъект познания и преобразования действительности. Это определяет смещение художественного внимания с метафизических и религиозных конфликтов к социальным, этическим и гражданским проблемам. Литература всё чаще обращается к повседневной реальности, анализируя общественные отношения, моральные нормы и механизмы формирования личности.

Художественное сознание XVIII века ориентируется на рационалистическое объяснение мира. Разум воспринимается как универсальный инструмент познания и основа нравственного порядка. В литературе это проявляется в стремлении к ясности формы, логичности композиции и понятности художественного высказывания. Писатель осмысляет себя как наставника и общественного мыслителя, а литературное творчество как форму служения общему благу.

Литература Просвещения выполняет выраженную социально-педагогическую функцию. Она направлена на воспитание «просвещённого читателя», способного к

самостоятельному мышлению, критической оценке действительности и осознанному нравственному выбору. Художественное произведение перестаёт быть исключительно сферой эстетического опыта и приобретает статус средства общественного воздействия. Через сюжет, характеры и авторскую позицию литература формирует нормы поведения, представления о справедливости и гражданской ответственности.

Важной особенностью литературного процесса XVIII века становится расширение читательской аудитории. Литература выходит за пределы узких элитарных кругов и обращается к более широким слоям общества. Это влияет на выбор жанров, стиль изложения и тематический круг произведений. Возрастает роль прозы, публицистики, сатиры, нравоучительного романа, которые позволяют непосредственно воздействовать на читателя и обсуждать актуальные проблемы современности.

В таком контексте формируется английская литература XVIII века, сыгравшая ключевую роль в развитии европейского Просвещения. Английские писатели обращаются к вопросам социальной справедливости, гражданских свобод, воспитания личности и нравственного совершенствования общества. Литература становится пространством диалога между разумом и реальной жизнью, между идеалом и практикой, закладывая основы тех художественных форм и идей, которые определят дальнейшее развитие европейской культуры.

Развитие английского романа в целом характеризуется постепенным смещением акцента от событийности к анализу характера и социальных условий, что отражает стремление литературы Просвещения к углублённому пониманию личности и механизмов общественной жизни.

Даниэль Дефо (1660–1731) занимает особое место в английской литературе XVIII века как один из основоположников реалистического романа и писатель, впервые осмысливший роман в качестве самостоятельной и социально значимой художественной формы. Его творчество формируется в русле раннего английского Просвещения и отражает ценности буржуазной культуры, ориентированной на практический разум, труд, личную инициативу и ответственность человека за собственную судьбу.

Жизненный путь Дефо, связанный с коммерческой деятельностью, журналистикой и активным участием в общественно-политической жизни, определил характер его художественного мышления. В центре его прозы оказывается не исключительная личность, а обычный человек, действующий в условиях повседневной реальности. Такой герой мыслится как деятель, способный рационально организовать свою жизнь, извлекать уроки из опыта и противостоять

обстоятельствам за счёт настойчивости, дисциплины и здравого смысла. Появление «рядового» человека в качестве центрального персонажа становится принципиально важным шагом в развитии реалистической традиции.

Наиболее значительное произведение Дефо, роман «Робинзон Крузо», закрепляет за английским романом статус ведущего жанра эпохи. В нём формируется модель повествования, сочетающая документальную достоверность, повествование от первого лица и философское обобщение жизненного опыта. Образ Робинзона воспринимается как художественное выражение просветительских представлений о человеке, способном сохранять разум, веру и нравственную устойчивость в экстремальных условиях.

Значение Дефо для истории английской литературы заключается в утверждении реалистического романа как формы анализа человеческого поведения в конкретной социальной среде. Его творчество подготовило дальнейшее развитие жанра, повлияло на формирование социально-нравственного и приключенческого романа и определило одну из ведущих линий эволюции европейской прозы Нового времени.

Таким образом, зарубежная литература XVIII века, и в особенности английская литература эпохи Просвещения, представляет собой важный этап в развитии мировой художественной культуры. Она отражает глубокие социальные и философские сдвиги, связанные с утверждением идей разума, прогресса и ценности человеческой личности. Английская литература данного периода не только активно реагирует на изменения общественной жизни, но и формирует новые эстетические принципы, способствующие становлению реалистического метода и развитию жанра романа.

Творчество ведущих представителей английского Просвещения демонстрирует стремление к осмыслению социальной действительности, критике пороков общества и поиску путей нравственного совершенствования человека. В их произведениях формируется новый тип героя, ориентированный на личный опыт, моральный выбор и социальную активность.

В целом, литература английского Просвещения оказала значительное влияние на дальнейшее развитие европейской литературы, заложив основы для формирования реалистической традиции и расширения художественных возможностей литературы как средства познания и преобразования мира.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Апенко Е.М. История зарубежной литературы XIX века. Учебник для академического бакалавриата. – М.: Юрайт, 2016. – 418 с.

2. Гиленсон Б.А. История зарубежной литературы. От античности до середины XIX века. Учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2020. – 101 с.

3. Гиленсон Б.А. История античной литературы. Древняя Греция, Древний Рим. Учебное пособие для студентов филологических факультетов педагогических вузов. – М.: Юрайт, 2001. – 416 с.

4. Ерофеева Н. А. История зарубежной литературы. XVII век. Хрестоматия. Учебное пособие. –издание -М., 2024. – 110 с

Рецензия

на статью «Общая характеристика зарубежной литературы XVIII века», подготовленная преподавателем Навоийского университета инноваций Зариповой Гузал Тохир кизи – Навои,2026

Представленная статья Зариповой Г. Т. посвящена комплексному анализу зарубежной литературы XVIII века с особым акцентом на английскую литературу эпохи Просвещения. Выбранная тема отличается высокой степенью научной актуальности, поскольку данный период является ключевым этапом в развитии европейской литературной традиции и связан с формированием новых художественных принципов, отражающих идеологию Просвещения.

Автор демонстрирует глубокое понимание историко-культурного контекста эпохи, обоснованно рассматривая литературу XVIII века как важный инструмент осмысления социальных, философских и нравственных проблем времени. В статье последовательно раскрываются основные идейно-эстетические тенденции, среди которых особое место занимают рационализм, критика общественных институтов, утверждение ценности человеческой личности и развитие реалистического метода.

Значительным достоинством работы является внимание к английской литературе как одной из наиболее ярких форм проявления просветительских идей. Автор аргументированно показывает, что именно в английской литературе XVIII века происходит активное становление жанра романа, который становится ведущей формой художественного выражения. В этом контексте анализируются особенности просветительского реализма, формирование нового типа героя, ориентированного на личный опыт, нравственный выбор и социальную активность.

Статья отличается продуманной структурой и логической последовательностью изложения материала. Теоретические положения органично сочетаются с элементами литературного анализа, что способствует более глубокому пониманию заявленной темы. Используемая терминология

соответствует современному уровню литературоведческих исследований, а выводы носят обоснованный и аргументированный характер.

Особо следует отметить, что автору удалось показать взаимосвязь литературного процесса с общекультурными и философскими тенденциями эпохи Просвещения, а также выявить влияние английской литературы XVIII века на последующее развитие европейской художественной традиции.

Вместе с тем, в качестве пожелания можно отметить, что работа могла бы быть дополнительно усилена за счёт более детализированного анализа конкретных художественных произведений, а также расширения круга привлекаемых научных источников, включая современные зарубежные исследования, что позволило бы углубить интерпретационный аспект исследования.

В целом статья представляет собой завершённое, логически выстроенное и научно обоснованное исследование, обладающее теоретической и практической значимостью. Работа соответствует требованиям, предъявляемым к научным публикациям, и может быть рекомендована к размещению на научной платформе.

Рецензент: Биксалиева Римма Рафиковна,

д.ф.ф.н., и.о.доцента кафедры филологии и

обучения языкам

Навоийского университета инноваций

Дата: «_16_» ___04___2026 г.

© Зарипова Гузал Тохировна, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Зарипова Гузал Тохировна

INGLIZ TILIDA GRAMMATIK VA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI (6-SINF MISOLIDA)

NavDU 3-bosqich doktoranti

Sharipova Firuza

Annotatsiya

Mazkur tezisda umumta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish jarayonida grammatik va nutq kompetensiyalarini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonidagi samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda samarali metodlar tizimi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: grammatik kompetensiya, nutq kompetensiyasi, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, AKT, 6-sinf.

THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING GRAMMATICAL AND COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH (ON THE EXAMPLE OF 6TH GRADE STUDENTS)

Abstract

This thesis analyzes the problem of developing grammatical and communicative competencies in 6th-grade students of general secondary schools in the process of teaching English based on modern pedagogical approaches. The study substantiates the effectiveness of the communicative approach, interactive methods, and information and communication technologies (ICT) in the educational process. In addition, a system of effective methods is proposed, taking into account the age characteristics of learners.

Keywords: grammatical competence, communicative competence, communicative approach, interactive methods, ICT, 6th grade.

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ГРАММАТИЧЕСКОЙ И РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ (НА ПРИМЕРЕ УЧАЩИХСЯ 6 КЛАССА)

Аннотация

В данной работе анализируется проблема формирования грамматической и речевой компетенций у учащихся 6-х классов общеобразовательных школ в процессе обучения английскому языку на основе современных педагогических подходов. В исследовании обосновывается эффективность коммуникативного подхода, интерактивных методов, а также информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовательном процессе. Кроме того, предлагается система эффективных методов с учетом возрастных особенностей учащихся.

Ключевые слова: грамматическая компетенция, речевая компетенция, коммуникативный подход, интерактивные методы, ИКТ, 6 класс.

Kirish

Chet tilini o‘qitish metodikasi hozirgi davrda konseptual jihatdan sezilarli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. An’anaviy yondashuvlarda ustuvor bo‘lgan lingvistik qoidalarni mexanik yodlashdan voz kechilib, asosiy e’tibor til birliklarini real kommunikativ vaziyatlarda funksional qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o‘qitish jarayonida grammatik bilimlar tizimi bilan nutq faoliyati o‘rtasidagi integrativ va uzviy bog‘liqlikni ta’minlash zamonaviy metodikaning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. 6-sinf o‘quvchilari uchun mazkur jarayon alohida ahamiyat kasb etadi, zero ular boshlang‘ich ta’lim bosqichidan keyingi rivojlanish davriga qadam qo‘yib, til vositalaridan nisbatan mustaqil foydalanish, o‘z fikrini mantiqan ifodalash hamda elementar kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etish kompetensiyalarini shakllantirish bosqichiga o‘tadilar.

Nazariy yondashuvlar

Grammatik kompetensiya til tizimining strukturaviy birliklari hamda ularning qo‘llanish qonuniyatlarini ongli ravishda egallashni ifodalasa, nutq kompetensiyasi mazkur bilimlarni real kommunikativ faoliyat jarayonida funksional qo‘llay olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Zamonaviy metodik yondashuvlarda ushbu ikki kompetensiya alohida yo‘nalish sifatida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan va integratsiyalashgan tizim sifatida rivojlantirilishi lozimligi e’tirof etiladi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, o‘quv jarayonini tashkil etishda kommunikativlik, funksionallik hamda o‘quvchi markazlashgan faollikni ta’minlashga qaratilgan didaktik tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.Amaliy yondashuv va metodlar

Kommunikativ yo‘naltirilgan o‘qitish

Bu yondashuv o‘quvchilarning tilni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashiga xizmat qiladi. Grammatik strukturalar alohida qoidalar sifatida emas, balki nutqiy faoliyat orqali

oʻzlashtiriladi. Masalan, oʻquvchilar kundalik hayot haqida gapirish jarayonida zamon shakllarini tabiiy ravishda qoʻllashni oʻrganadilar.

Interaktiv metodlarning qoʻllanilishi

Dars jarayonida oʻquvchilarni faol ishtirok etishga undovchi metodlar muhim oʻrin tutadi. Rolli oʻyinlar, kichik guruhlarda ishlash va muhokamalar oʻquvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Shu bilan birga, ular grammatik tuzilmalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy darslarda AKT vositalari oʻquv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Video va audio materiallar orqali eshitish va tushunish koʻnikmalari rivojlantiriladi, interaktiv mashqlar esa grammatikani mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli platformalar orqali oʻquvchilarning mustaqil ishlash koʻnikmalari shakllanadi.

Oʻyin va loyiha asosida oʻqitish

6-sinf oʻquvchilari uchun oʻyin elementlari katta motivatsion ahamiyatga ega. Grammatik oʻyinlar, musobaqalar va ijodiy topshiriqlar oʻquvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

Loyiha metodi esa ularni mustaqil fikrlashga, axborot izlashga va natijani taqdim etishga oʻrgatadi. Bu jarayonda nutq kompetensiyasi faol rivojlanadi.

Grammatikani kontekstda oʻrgatish

Grammatik materialni alohida qoida sifatida emas, balki matn va dialoglar asosida berish samaraliroq hisoblanadi. Bu yondashuv oʻquvchilarga grammatikani real nutq jarayonida qoʻllash imkonini yaratadi.

Xulosa

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash 6-sinf oʻquvchilarida ingliz tilida grammatik va nutq kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlar oʻquvchilarning tilni amaliy qoʻllash koʻnikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu munosabatda, ingliz tilini oʻqitishda anʼanaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlarni uygʻunlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi XTV. Davlat ta'lim standarti. – 2021.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
3. Harmer J. How to Teach English. – London, 2007.
4. Scrivener J. Learning Teaching. – Oxford, 2011.
5. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
6. Paul, R., & Elder, L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson, 2014.

© , 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV MOTIVLARINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

A.R.Ochilova- Navoiy innovatsiyalar

universiteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: L.Z.Korayeva Navoiy

innovatsiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim sifatini oshirishda ilg'or innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, boshlang'ich ta'lim, innovatsion, multimedia, dars, pedagogik mahorat, motiv.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ К ОБУЧЕНИЮ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование информационных технологий для повышения качества и эффективности начального образования, а также важность эффективного применения передовых инновационных технологий для улучшения качества образования. Ключевые слова: технология, начальное образование, инновационные технологии, мультимедиа, урок, педагогические навыки, мотивация.

USING NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES TO INCREASE LEARNING MOTIVATION OF PRIMARY STUDENTS

Abstract: This article discusses the use of information technologies in improving the quality and efficiency of primary education and the importance of the effective use of advanced innovative technologies in improving the quality of education.

Keywords: technology, primary education, innovative, multimedia, lesson, pedagogical skills, motive.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan

bilimlarini oʻzlari qidirib topishlariga, mustaqil oʻrganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishlariga oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlantirish texnologiyasida bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va berilgan vazifalarni ijodiy yondashgan holda bajaradi. Ta'lim jarayonida oʻquvchi asosiy figuraga aylanadi.

Boshlangʻich ta'limning samaradorligini ta'minlashda oʻqituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi.Shuning uchun umumta'lim maktablarida ayniqsa, boshlangʻich sinflarda malakali kasb egalarini tayyorlash, ularni mustaqil fikrlash, ijodkorlikka oʻrgatishda zamonaviy oʻqitish metodlari - interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning oʻrni va roli benihoya kattadir. Demak, boshlangʻich sinf oʻqituvchisi pedagogik jarayonni toʻgʻri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega boʻlishi lozim. Oʻqituvchi koʻp jihatdan oʻquvchi uchun oʻrnakdur. Shuning uchin u birinchi navbatda oʻz ish faoliyatida pedagogik va AKT dan mustaqil, faol foydalana olib ularni oʻziga jalb eta olishi kerak

Boshlangʻich sinflarda axborot tehnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda oʻquvchilarning bilim olish saviyalarini shakllantiribgina qolmay ularning barcha fanlarga boʻlgan qiziqishlarini shakllantiradi. Ma'lumki barcha fanlarni bir-biriga bogʻlab olib borishni amalga oshirishishimiz mumkin. Eng muhimi shundaki har bir matnda fikr nima haqida berilayotganini aniqlab olish va matn nazmunini toʻliq tushunib yetish imkonini beradi.

Boshlangʻich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan boshlang;ich sinf darslarini oʻrganishda rivojlantiruvchi muammoli hamda pedagogik texnologiyalarni asosiy jihatlarini oʻzida ifodalovchi "Multimedia- dars", "Slaydli dars", "Seminar dars" kabilarni qoʻllash tavsiya etiladi. Masalan: 3-4-sinflarda Seminar darslar vositasida ham axborot texnologiyalarni samarali qoʻllash mumkin. Bunda oʻqituvchi muayyan mavzu doirasida oʻquvchilarning mustaqil oʻrganishiga moʻljallangan qismlarni rejasi bilan birga oʻquvchilar e'tiboriga havola etadi. Ularga maktab kutubxonasidagi mavjud adabiyotlarni yozdiradi hamda bolalar uchun moʻljallangan internet saytlari bilan tanishtiradi. Oʻquvchilar aka-opalari yordamida yoki oʻzlari izlanib mavzu yuzasidan tayyorlanib keladilar.

Seminar dars oʻquvchilarning mustaqil chiqishlarini jamlovchi, lozim topilgan paytda munozaraga asos yaratuvchi dars hisoblanadi. Bunday darslarda oʻqituvchi boshqarib, yoʻnaltirib turish vazifasini bajaradi, oʻquvchilar esa mustaqil ijodiy ishlovchi oʻz fikriga ega shaxs sifatida oʻquv faoliyatiga kirishadilar."Multimediali darslar"dan foydalanish ham boshlangʻich ta'lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda oʻqituvchi:

- oʻquv materialini koʻrgazmali taqdim etadi;

• yangi materialni jadallik bilan yetkaza biladi;

• axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko‘magida boshqara oladi;

O‘quvchilarda esa “multimediali dars”lar fanga bo‘lgan qiziqish uyg‘otish, o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bolgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi.

Interaktiv doska ta’lim jarayoniga elektron o‘quv va multimedia materiallarni olib kirish uchun samarali vositadir. Katta ekranga ya’ni elektron doskada axborotlarni yaxshi qabul qilishlari hisobiga o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati oshadi. O‘quvchilar mustaqil ishlaydilar, sinfdoshlari va o‘qituvchilari bilan birga fikrlaydilar. Dars jarayonidagi ushbu hamfikrlilik muhiti o‘quvchilarning sinfdoshlari orasida mavqei va o‘ziga nisbatan ishonchining ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning fanga qiziqishlari kuchayib, o‘quv materiali tez yodda saqlanadi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida dars o‘tish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda barcha o‘qitiladigan fanlarda turli xil ko‘rgazmalardan texnik vositalardan foydalana olish darsning samaradorligini oshiribgina qolmay ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantiradi. Bu jarayonda barcha darslarida ko‘rgazmalilikning o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. Bu o‘z navbatida ularga fikr va mulohazalarini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farzandlari sog’lom mamlakatning kelajagi buyukdir. O’zA maqolasi // “Xalq so’zi” gazetasi, 2019-yil 22-fevral soni.

2. Mavlanova R. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: Fan va texnologiya. 2010

© Ochilova Aziza, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ochilova Aziza

O’QUVCHILARDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Korayeva Latifa Zarifovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti (PhD)

qorayevalatifa@mail.com

Annotatsiya: Maqolada o’quvchilarining o‘quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan asoslanadi, o‘quv motivatsiyasi va o‘quv motivlari nazariyasining asosiy masalalari muhokama qilinadi. Ijobiy ta’lim motivlarini rivojlantirish talaba shaxsini tarbiyalashning ajralmas qismi sifatida uning ta’lim yutuqlariga erishish va akademik ko‘rsatkichlarini yuksaltirishga imkon qoldiradi. Psixologik barqarorlik ular tomonidan insonga ta’sir qiluvchi omillarning keng o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatning zarur darajasini saqlab turish qobiliyati sifatida belgilanadi. O’quvchilarning bilim qiziqishlarini rivojlantirishda mustaqil ish usullari muhim o‘rin tutadi. Bularga darslik, ma’lumotnomalar bilan ishlash, algoritm bo‘yicha vazifalarni bajarish, tajribalar o‘tkazish, o’quvchilarga notanish vaziyatlarni tahlil qilish, subyektiv ravishda yangi ma’lumotlar yaratish, kurs ishlari va tezislarni yozish usullari haqida ma’lumot berilgan

Kalit so‘z: O’quvchi o‘quv motivatsiya, shaxs tarbiyasi, ta’lim yutuqlari, akademik ko‘rsatkich, tashabbuskorlik, mas’uliyat, innovatsion harakat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА МОТИВАЦИЮ СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ.

Аннотация: В статье теоретически обоснованы психологогические особенности учебной мотивации студентов, рассмотрены основные вопросы учебной мотивации и теории учебных мотивов. Развитие положительной учебной мотивации, как неотъемлемой части воспитания личности учащегося, позволяет ему добиваться успехов в учебе и повышать успеваемость. Психологическая устойчивость определяется ими как способность поддерживать необходимый уровень психической активности при широком спектре факторов, воздействующих на человека. Самостоятельные методы работы играют важную роль в развитии познавательных интересов учащихся. Им даются сведения о работе с учебниками, справочниками, выполнении заданий по алгоритмам, проведении экспериментов, анализе незнакомых студентам ситуаций, субъективном создании новой информации, методах написания курсовых и дипломных работ.

Ключевые слова: Студент, образовательная мотивация, личностное развитие, образовательные достижения, академическая успеваемость, инициатива, ответственность, инновационное движение.

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN FORMING STUDENTS' MOTIVATION TO STUDY

Abstract: The article theoretically substantiates the psychological characteristics of students' learning motivation, discusses the main issues of the theory of learning motivation and learning motives. The development of positive learning motives, as an integral part of the upbringing of the student's personality, allows him to achieve educational achievements and improve his academic performance. Psychological stability is defined by them as the ability to maintain the necessary level of mental activity with a wide range of factors affecting a person. Independent work methods play an important role in the development of students' cognitive interests. These include working with textbooks, reference books, performing tasks according to algorithms, conducting experiments, analyzing situations unfamiliar to students, subjectively creating new information, and methods of writing term papers and theses.

Key words: Student, educational motivation, personal development, educational achievements, academic performance, ini tiative,responsibility, innovative movement.

Kirish. Oliy ta'lim fan–texnika, iqtisodiy va ijtimoiy madaniy taraqqiyotning sur'ati va darajasini belgilovchi mutaxassislarning fundamental ilmiy, umumiy madaniy va amaliy tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan. Millatning intellektual salohiyatini shakllantirish, shaxsni jamiyatning oliy qadriyati sifatida har tomonlama kamol toptirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Zamonaviy oliy ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri o'quvchilar uchun motivatsiyaga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishdir[1]. Shu munosabat bilan o'quvchilari o'rtasida o'qishga bo'lgan motivatsiyaning mavjud holati va ularning ta'lim faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar o'rtasida qarama–qarshiliklar yuzaga keladi.

Tadqiqot obyekti: Umum ta'limda o'qiyotganda o'quvchi birinchi navbatda, yangi didaktik vaziyatga moslashish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolarga duch keladi o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullaridir. Ushbu yondashuv va u bilan bog'liq qiyinchiliklar o'ziga xos didaktik to'siqni yaratadi, uni engib o'tish kerak.

Bundan kelib chiqadiki, ijobiy motivlar va asosli maqsadlarni shakllantirish shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki motivlar va maqsadlar faoliyatning muhim belgilovchilari hisoblanadi.

O‘qitish jarayonida shakllangan o’quvchi motivlarining tuzilishi bo‘lajak mutaxassis shaxsining tayanchiga aylanadi.

Shuning uchun ijobiy ta’lim motivlarini rivojlantirish o‘quvchi shaxsini tarbiyalashning ajralmas qismidir.

So‘nggi yillarda psixologik va ilmiy adabiyotlarda o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda[2]. Zero o‘quvchiga nisbatan salbiy yoki befarq munosabat uning muvaffaqiyatsizligi yoki omadsizligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘p miqdorda olib borilgan fundamental tadqiqotlarga qaramay, motivatsiya fenomeniga nazariy aniqlik va qarashlarning bir xilligi hanuzgacha mavjud emas, bu muammoga mavjud qarama qarshi yondashuvlar bilan mazkur tushunchaning ko‘p qirrali ekanligi bog‘liq. Bir tomondan, motivatsiya xulq–atvorga yo‘naltirilgan va uni qo‘llab quvvatlovchi omillar majmui singari ko‘rib chiqilsa, boshqa tomondan – organizm faolligini chaqiruvchi va uning yo‘nalishini aniqlovchi uyg‘onish yoki motivlar singari majmua, ya’ni inson xulq atvorini uyg‘otuvchi va yo‘naltiruvchi omillar majmui sifatidagi ko‘rib chiqiladi. Undan tashqari, motivatsiya insonning aniq faoliyatini boshqaruvchi jarayon sifatida o‘rganadi.

Qo‘llanilgan metodlar: Ta’lim faoliyatini rag‘batlantirish muammosini hal ahamiyati nuqtai nazaridan ta’lim motivatsiya, deb aslida bilan belgilanadi [4] o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, bu o‘qishga salbiy yoki befarq munosabat bo‘lib, talabaning past akademik ko‘rsatkichlari yoki kam erishishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Motiv (Lat. moveo, movere–harakat qilish, faollashtirish, surish) inson harakatlari va amallarining rag‘batlantiruvchi kuchidir [5]. Motiv, shuningdek, insonning faoliyatini keltirib chiqaradigan va ushbu faoliyat yo‘nalishini belgilaydigan ongli ehtiyoj sifatida tushuniladi. Shunga ko‘ra, motivatsiya–bu harakatni amalga oshirishga turtki bo‘lgan aqliy hodisalar, shaxsning faoliyatini va uning rejalashtirilgan natijaga erishishga yo‘naltirilganligini belgilaydigan harakat.

Faoliyatning muhim regulyatorlari bo‘lgan yetakchi shaxsiy xususiyatlardan biri sifatida motivlar talaba faoliyatining yo‘nalishini, uning xulq–atvori va axloqiy tamoyillarining barqarorligini belgilaydi. O‘z o‘quvchilarining motivlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda, o‘qituvchi prognozlash, o‘z faoliyatining vazifalari, vositalari va usullarini aniqlash uchun muhim asoslarni yo‘qotadi.

E.P.Ilyin[6] ta’kidlashicha, motiv faqat tashqi yoki ichki sharoitlardan kelib chiqadigan tananing ehtiyojlarini psixikada aks ettirish natijasidir. Shuning uchun ular

motiv ongli ehtiyoj, deb aytishadi va faqat ma'lum bir holatda u shaxsning maqsadli harakatlarining asosiga aylanadi.

O'quvchining shaxs sifatida rivojlanishi bilan uning potensial imkoniyatlari kengayadi, o'z–o'zini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj hech qachon to'liq qondirilmaydi. Shuning uchun motivatsiyani rivojlantirish jarayoni cheklanmagan.

Qoniqish darajasi kelajakka yo'naltirilgan ta'lim samaradorligining ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Hozirgi qoniqish kelajakda o'rganish uchun motivatsiyani oshiradi.

O'qishdan norozilik o'rganishga majburiy harakat sifatida qarash mexanizmini keltirib chiqaradi va motivatsiyani pasaytiradi. E.P.Ilyin [6] motivatsion jarayonlarni

rivojlantirishda ehtiyojlarni qondirishning hal qiluvchi roliga e'tibor qaratadi.

Motiv nafaqat muvofiq ehtiyojni aniqlaydi, balki talabani ehtiyoj qondiriladigan o'rganish obyektlariga yo'naltiradi. Bunda motivlarning kuchi ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Zaif motivatsiya bilan ta'lim oluvchi o'qish natijalari haqida gapirmasa ham, sinfda faol ishlay olmaydi. Ya'ni, ehtiyojlar va motivlar shaxsning manfaatlari, e'tiqodlari va ideallari bilan chambarchas bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqotchilar o'rtasida ta'lim faoliyatining muvaffaqiyati uchun motivlarning ayrim turlarining ustuvorligi to'g'risida turli xil fikrlar mavjud.

Ba'zi tadqiqotchilar kognitiv motivlarni (o'quv–kognitiv, o'z– o'zini tarbiyalash motivlari) eng zarur ta'lim faoliyati deb hisoblashadi [7].

Psixologiyada berilgan ta'lim motivlari (motivatsiyasi) ta'riflariga asoslanib, N.Norkulova [8] tomonidan taklif qilingan tarkib bo'yicha ularning tasnifini ko'rib chiqamiz. U kognitiv va ijtimoiy motivlarga bo'linadi.

Kognitiv motivatsiyaga quyidagilar kiradi: kognitiv motivlar (yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish faktlar, hodisalar, naqshlar);

o'quv va kognitiv motivlar (bilim olish usullarini o'zlashtirishga yo'naltirish, bilimlarni mustaqil egallash usullari);

o'z–o'zini tarbiyalash motivlari (qo'shimcha bilimlarni egallashga yo'naltirish, ya'ni o'z–o'zini takomillashtirishning maxsus dasturini qurish).

Tegishli darajalarga ega bo'lgan ijtimoiy motivlar: ijtimoiy motivlar (burch va mas'uliyat, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini tushunish);

tor yoki pozitsion motivlar (boshqalar bilan munosabatlarda ma'lum bir pozitsiyani egallash, ulardan rozilik olish istagi);

ijtimoiy hamkorlik motivlari (boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning turli usullariga yo‘naltirish).

L.Bojovich [9] ta’limning ijtimoiy va kognitiv motivlari nisbati normasini belgilab, kognitiv motivlar iyerarxiyada ijtimoiy motivlar ta’minlanishi kerak, deb hisoblaydi.

Muallif motivlarni mazmuniga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratadi:

mazmuni ijtimoiy ehtiyojlar, qiziqishlar, oliy ta’limning yuqori ijtimoiy ahamiyatidan xabardor bo‘lgan keng ijtimoiy motivlar;

ta’lim faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayonning o‘zi, o‘rganilayotgan narsalarning mazmunigata labalar, ta’limga munosabat bildiruvchi ilmiy va kognitivmotivlar;

kasbiy motivlar; oliy ma’lumot kasb egallash uchun asos sifatida qaraladi;

utilitar motivlar, uning asosini bitirgandan keyin shaxsiy imtiyozlar olish, o‘z farovonligi motivlari;

ijtimoiy identifikatsiya motivlari – o’quvchining ota– onasi, do‘stlarining uning xulq–atvoriga ta’siri.

Ta’lim faoliyati motivatsiyasini o‘rgangan F.Haydarov va boshqalarning ta’kidlaganidek, "o‘rganish motivatsiyasi doimiy ravishda o‘zgarib turadigan va bir–biri bilan yangi avlodlarga kiradigan bir qator motivlardan iborat. Shuning uchun motivatsiyani shakllantirish–bu o‘rganishga ijobiy yoki salbiy munosabatni kuchaytirishning oddiy o‘sishi emas, balki uning ortidagi motivatsion soha tuzilishining murakkablashishi" [5].

Ta’lim faoliyati motivatsiyasini tahlil qilish jarayonida asosiy narsa nafaqat dominant motivatorni (motivni), balki insonning motivatsion sohasining tashqi va ichki mazmunini aniqlashdir. Tashqi motivatsiya inson xatti–harakatlarini boshqaradigan yoki bostiradigan mukofotlar, jazolar va boshqa rag‘batlantirish turlariga asoslanadi. Tashqi motivatsiya holatida xatti–harakatni tartibga soluvchi omillar shaxsning ichki o‘ziga bog‘liq emas. Ichki motivatsiya ishdan (o‘qishdan) zavqlanishga hissa qo‘shadi, qiziqish, hayajon uyg‘otadi, shaxsning o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Ta’lim motivatsiyasi, boshqa motivatsiya turlari singari, barqarorlik va dinamizm bilan ajralib turadi.

Psixologik barqarorlik ular tomonidan insonga ta’sir qiluvchi omillarning keng o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatning zarur darajasini saqlab turish qobiliyati sifatida belgilanadi.

Barqarorlikning haqiqiy ifodasiga asoslanib, mualliflar uni ta'lim motivatsiyasining kuch, xabardorlik, samaradorlik, faoliyatning ma'no shakllantiruvchi motivini shakllantirish, jarayonga yo'naltirish va boshqalar kabi xususiyatlari bilan birgalikda ko'rib chiqadilar.

E. Savonko va I. P. Imenitova o'quvchilar motivatsiyasining turlari bo'yicha quyidagi shartli tasnifiga e'tibor qaratadi:

O'quvchining psixologik xususiyatlari va o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan birinchi, dominant tip motivatsiyaning o'ziga xos ichki turi sifatida talabaning ma'lum bir fanga qiziqishini belgilaydi;

ikkinchi tur–situatsion motivatsiya, bu turni o'quvj arayoniga tashqi deb hisoblash mumkin;

uchinchi tur–konformist yoki taklif qiluvchi motivatsiya. Bu qiymat yo'nalishlari va shaxsning haqiqiy xatti–harakatlari o'rtasidagi tafovutlar bilan bog'liq. Masalan, vaziyat yuzaga kelganda muayyan mavzuni o'rganishga qiziqishi bo'lmagan o'quvchi oldida, tanlangan kasb doirasida muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan ushbu mavzu bo'yicha bilimlarni olish zarurati tug'iladi – bu konformistik motivatsiyaning namunasidir. Bunday motivatsiyani rag'batlantiradigan imtiyozlar, masalan, rag'batlar olish istagi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Motivatsiyaning uchinchi turi majburiy ekanligini ko'rish oson va bu psixologik noqulaylik bilan bog'liq. O'quv jarayonini tashkil etish va qurishga an'anaviy yondashuv ushbu turdagi rag'batlantirishni shakllantirishga katta e'tibor berishiga qaramay, tegishli motivlar ma'lum bir toifadagi o'quvchilar uchun samarasiz bo'lishi mumkin. Ammo motivatsiya qanday bo'lishidan qat'i nazar, hatto eng ijobiy bo'lsa ham, u talabaning rivojlanishi uchun faqat potensial imkoni yatyaratadi, chunki motivlarni amalga oshirish maqsadlarni aniqlash jarayonlariga bog'liq.

N.Norqulova [8] tadqiqotida o'quvchilar shaxsan muh imma'no shakllantiruvchi motivni shakllantirishi mumkinligi vabu jarayon uning xususiyatlarini shakllantirishning ma'lum bir ketma–ketligida amalga oshirilishi ta'kidlangan. Muallif ta'kidlaganidek, dastlab o'quv–kognitiv motiv harakat qilab oshlaydi, keyin u hukmronlik qiladi va mustaqillikka erishadi va shundan keyingina u amalga oshiriladi, ya'ni birinchi shart–bu o'quv faoliyatining o'zi tashkil etilishi.

A.Chuvalov ko'rsatganidek, motivatsiya faoliyat natijasiga emas, balki usullarga qaratilgan bo'lsa, samaraliroq ta'sir o'tkazadi[9].

Olimlar motivatsiya muvaffaqiyatli o'rganishning yetakchi omillaridan biri ekanligini isbotladilar. Ammo uning xususiyatlari va samaradorligi talaba o'tadigan o'quv jarayonining turli bosqichlarida farq qiladi. Birinchi kursdan oxirgi kursgacha ta'lim va

kasbiy faoliyatning oʻzi va uning motivatsiyasi oʻzgaradi. Ularning umuman yangi vaziyatga va xususan ta'lim faoliyatiga moslashish jarayoni birinchi kurs o'quvchilari uchun oʻziga xos hisoblanadi. Shuning uchun, mualliflarning fikriga koʻra [6], motivatsiyani toʻgʻri tushunish o'quvchilar va oʻqituvchilarning samarali ishlashi uchun zaruriy shart hisoblanib, ular ta'limning innovatsion usullari va yondashuvlaridan foydalangan holda oʻz intizomiga kognitiv qiziqishni faollashtiradi, maqsadli rivojlantiradi va chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, u faol ta'lim shakllari va usullaridan (muammoli va boshqa turlardan) foydalangan holda

o'quvchilarni oʻquv faoliyatiga jalb qiladi.

O'quvchilarning bilim qiziqishlarini rivojlantirishda mustaqil ish usullari muhim oʻrin tutadi. Bularga darslik, ma'lumotnomalar bilan ishlash, algoritm boʻyicha vazifalarni bajarish, tajribalar oʻtkazish, o'quvchilarga notanish vaziyatlarni tahlil qilish, subyektiv ravishda yangi ma'lumotlar yaratish, kurs ishlari va tezislarni yozish usullari kiradi.

Muvaffaqiyatli ta'limning sharti motivatsiya boʻlib, u oʻquvchini oʻz bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, tashqi omillardan ishonch va mustaqillikni oshirish maqsadida muayyan faoliyatga undaydi.

Olimlar motivatsiya muvaffaqiyatli oʻrganishning yetakchi omillaridan biri ekanligini isbotladilar. Ammo bu omilning xususiyatlari va uning samaradorligi, ya'ni talaba oʻtadigan oʻquv jarayonining turli bosqichlarida farqlanadi.

Xulosa. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish o'quvchilarning kasbiy oʻsishi motivatsiyasini ularning doimiy motivlari va intilishlari toʻplami sifatida aniqlashga imkon berdi, bu esa shaxsiy ehtiyojning oʻsishining dinamik, uzluksiz va gumanistik yoʻnaltirilgan jarayonining mazmuni va yoʻnalishini belgilaydi. Ichki potensialni amalga oshirish qobiliyati va shaxsiy kasbiy va shaxsiy strategiyani va hayot davomida ta'lim yoʻnalishini ongli ravishda tanlash, buning natijasi boʻlajak mutaxassisning kasbiy malakasini shakllantirishning yuqori darajasidir. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan (psixologik treninglar, oʻyin texnologiyalari, pedagogik muammoli vaziyatlar, guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash va boshqalar) oqilona foydalanish samarali boʻldi, bu esa, oʻquvchilarning ta'lim motivatsiyasini shakllantirishni sezilarli darajada yaxshiladi.

ADABIYOTLAR

1. Баклицкий И. О. Психологические особенности учебной мотивации студентов. / И. О Баклицкий. //Научный вестник Львовского государственного университета внутренних дел. Серия психологическая: сборник. / Львовский гос.ун–т внутр. дел. – Львов, 2008. – Вып. 2. – С. 16–27.

2. Бахтина И. А. Мотивация учебной деятельности студентов ССУЗ: дис. ... канд. психол. наук: спец.19.00.05. / Ирина Анатольевна Бахтина. – Казань, Ин–т среднего специального образования РАО, 1997. – 180 с.

3. Педагогика ва психология: ўқув кўлланма / Ю.Ғ. Махмудов (ва бошқ.); масъул муҳаррир Ю.Ғ. Махмудов. - Т.: DIZAYNPRESS, 2011. 236 б.

4. Бибрых Р. Р. Особенности мотивации и целеобразования в учебной деятельности студентов младших курсов. / Р. Р. Бибрих, И. А. Васильев. // Вестник МГУ. Серия 14.Психология. – 1987. – №2. – С. 20–30 O'zMU xabarlari Вестник НУУз ACTA NUUz FALSAFA 1/7 2023

5. Ҳайдаров Ф., Абдукаримов Х., Алимова Ф., Ботиров Б. Талабаларнинг ўқув мотивларини шакллантириш. –Т.:2009-131 б.

6. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы. / Е. П. Ильин. – СПб.: Питер, 2011.– 512 с

7. Вершинская О. Б. проблемы формирования учебной мотивации студентов вузов. [Электронный ресурс]./ А. Б. Вершинская. – Режим доступа. tme.umo.edu.ua/ dodatok.htm.

8. Норкулова Н.Т. Ёшлар маънавиятида аффилиация мотивацияси психологияси. – Т.: «Fan va Texnologiya», 2015. 107-б.

9. Витенко И. С. Общая и медицинская психология. / И. С. Витенко. – К.: здоровье, 1994 – – 296 С.

© Korayeva Latifa Zarifovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Korayeva Latifa Zarifovna

IQTISODIY TARBIYA ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASHABBUSKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI.

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Izzatilloyeva Sabina Ilhom qizi

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarda tashabbuskorlik ko‘nikmalarini iqtisodiy tarbiya mazmuni orqali shakllantirishning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi iqtisodiy tasavvurlar, resursni tejash, tanlov va mas’uliyat kabi tushunchalar asosida faol tashabbus ko‘rsatishning pedagogik shartlarini asoslashdir. Metodologiya tahliliy yondashuv, pedagogik modellashtirish va amaliy kuzatuv natijalarini umumlashtirishga tayanadi. Yangilik sifatida iqtisodiy tarbiya komponentlari bilan integratsiyalashgan metodik tavsiyalar tizimi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy tarbiya; maktabgacha ta’lim; tashabbuskorlik; iqtisodiy tasavvur; resursni tejash; tanlov madaniyati; pedagogik shart-sharoitlar.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ.

Аннотация. В тезисе раскрываются теоретико-методические основы формирования инициативности у детей дошкольного возраста на основе экономического воспитания. Цель исследования состоит в обосновании педагогических условий развития инициативы через экономические представления, бережливость ресурсов, выбор и ответственность. Методология опирается на аналитический подход, педагогическое моделирование и обобщение результатов практических наблюдений. Научная новизна заключается в предложении системы методических рекомендаций, интегрирующей компоненты экономического воспитания с задачами развития инициативности.

Ключевые слова: экономическое воспитание; дошкольное образование; инициативность; экономические представления; бережливое отношение к ресурсам; культура выбора; педагогические условия.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING INITIATIVE IN PRESCHOOL CHILDREN BASED ON ECONOMIC EDUCATION.

Abstract. This thesis examines theoretical and methodological foundations for developing initiative skills in preschool children through economic education. The study aims to justify pedagogical conditions that foster initiative via basic economic notions such as saving resources, making choices, and taking responsibility. The methodology relies on analytical review, pedagogical modelling, and synthesis of practical observations. Scientific novelty is presented as a set of integrated methodological recommendations linking components of economic education with the targeted development of children's initiative.

Keywords: economic education; preschool education; initiative; economic concepts; resource saving; choice culture; pedagogical conditions

Maktabgacha ta'lim tizimida bolaning shaxs sifatida shakllanishi, avvalo, uning mustaqil harakat qilish, vaziyatni baholash va o'z fikrini amalda sinab ko'rishga intilishi bilan tavsiflanadi. Tashabbuskorlik ko'nikmasi aynan shu jarayonning markazida turadi: u faqat "faollik" yoki "gapga kirishuvchanlik" emas, balki maqsad qo'yish, variantlarni ko'ra bilish, tanlash oqibatini tushunish va o'z qarorini madaniyatli himoya qilish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshda bu ko'nikma tabiiy ravishda o'yin, muloqot va kundalik turmush vaziyatlarida paydo bo'ladi, biroq u o'z-o'zidan barqaror sifatga aylanmaydi. Uni maqsadli pedagogik ta'sir orqali, bola tajribasiga yaqin bo'lgan mazmun bilan boyitish zarur. Shunday mazmunlardan biri iqtisodiy tarbiya bo'lib, u bolaning real hayotga oid "resurs", "mehnat natijasi", "tejamkorlik", "tanlov", "almashuv", "mas'uliyat" kabi tushunchalarni oddiy va psixologik jihatdan mos shaklda anglashiga xizmat qiladi [1]. Iqtisodiy tarbiya, mazkur yondashuvda, bozor terminlarini erta singdirish emas, balki hayotiy vaziyatlarda ongli tanlov qilishga tayyorlovchi axloqiy-intellektual asosni yaratish sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotning nazariy asosi sifatida maktabgacha yosh psixologiyasida tashabbuskorlikning rivojlanish mexanizmlari, faoliyat nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuvdagi "faol subyekt" g'oyasi muhim o'rin tutadi. Bola tashabbusi, odatda, "men buni qila olaman" ishonchi, "mening tanlovim ahamiyatli" tajribasi va "men xato qilsam ham, qayta urinib ko'rishim mumkin" xavfsiz muhitiga tayanadi. Demak, tashabbuskorlikni shakllantirishda ikki jihat o'zaro bog'lanadi: birinchisi, motivatsion-irodaviy komponent (qiziqish, ichki turtki, qat'iyat), ikkinchisi, aqliy-operatsional komponent (vaziyatni tahlil qilish, resursni baholash, maqsadni rejalash). Iqtisodiy tarbiya mazmuni ushbu ikki komponentni bir vaqtda qo'llab-quvvatlaydi: masalan, "o'yinchoqlarni ehtiyot qilish" mavzusi motivatsion jihatdan bolaga yaqin, operatsional jihatdan esa sabab-oqibatni tushuntirishga qulay; "nima uchun ortiqcha suvni oqizmaslik kerak" kabi vaziyatlar resursning cheklanganligi haqidagi dastlabki tasavvurni hosil qiladi va bolani o'z harakatini boshqarishga o'rgatadi [2]. Shu bilan birga, iqtisodiy tarbiyaning tarbiyaviy yo'nalishi bolaning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi: u

nafaqat “olish”, balki “bo‘lishish”, “kelishish”, “navbat kutish”, “umumiy mulkka ehtiyotkor munosabat” kabi ijtimoiy iqtisodiy xulq unsurlarini ham o‘zlashtiradi.

Tadqiqot muammosining dolzarbligi shundaki, maktabgacha ta’lim amaliyotida tashabbuskorlik ko‘pincha ijodiy faoliyat yoki nutqni rivojlantirish doirasida ko‘riladi, iqtisodiy tarbiya esa alohida “tejamkorlik” mavzulari bilan cheklanib qoladi. Vaholanki, iqtisodiy mazmun tashabbusni shakllantirish uchun tabiiy metodik maydon yaratadi: har qanday iqtisodiy vaziyat tanlovni talab qiladi, tanlov esa tashabbusni faollashtiradi. Shuning uchun tezisning maqsadi iqtisodiy tarbiya asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tashabbuskorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini hamda pedagogik shart-sharoitlarini konseptual jihatdan asoslashdan iborat. Vazifalar sifatida iqtisodiy tarbiya mazmunining maktabgacha yosh psixologik xususiyatlariga mos komponentlarini belgilash, tashabbuskorlikning o‘lchamlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, integratsiyalashgan metodik yechimlarni asoslash ko‘zda tutiladi.

Metodik jihatdan yondashuv integratsiya tamoyiliga tayanadi: iqtisodiy tarbiya alohida mashg‘ulotlar majmui bo‘lib qolmasdan, o‘yin, mehnat, kommunikativ faoliyat va kundalik rejim jarayonlariga singdiriladi. Bu yerda “metodik birlik” sifatida vaziyatli-topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi: masalan, “cheklangan resurs” syujeti (ma’lum miqdordagi rangli qog‘oz, konstruktorga detal, suv yoki vaqt) berilib, bolalarga umumiy maqsadga erishish uchun reja tuzish taklif etiladi. Bunday vaziyatda tashabbuskorlik bir necha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kimdir g‘oya beradi, kimdir rollarni taqsimlaydi, kimdir tejamkor usulni taklif qiladi. Pedagogning vazifasi tashabbusni “baholash” emas, uni ko‘rinadigan qilish, asoslashga undash va o‘zaro kelishuv madaniyatini yo‘lga qo‘yishdan iborat. Mazkur yondashuv L. S. Vygotskiy ta’kidlagan yaqin rivojlanish zonasini qo‘llab-quvvatlash g‘oyasiga mos keladi: bola mustaqil bajara olmaydigan qarorni kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikda qabul qiladi, keyinchalik bu tajriba ichki rejalashtirishga aylanadi [3].

AI has moved from being a supportive tool to a driving force in modern education and ELT. Continuous research and responsible implementation are essential to maximize benefits while managing risks. Integrating AI courses into teacher training and updating digital infrastructure will ensure that future educators can effectively use AI to support creative, independent learning for all students. Adopting The Future Of Education Through Blended Learning With the swift progress of the world, adopting blended learning is essential to realize education's full potential. This method is crucial for creating a better future for students globally, as it personalizes learning, boosts engagement, and improves student results. Blended learning provides a versatile and

engaging educational framework that merges the advantages of conventional teaching with digital education. Through utilizing technology and offering tailored learning opportunities, blended learning enables students to take an active role in their education, develop critical thinking skills, and engage in collaboration. Effective execution of blended learning necessitates thorough planning, continual support, and a readiness to adjust to the evolving requirements of students and the educational environment. By allocating essential resources, offering teacher professional development, and encouraging collaboration among all parties, academic institutions can leverage blended learning to equip students for future challenges and opportunities. By collaborating, we can unlock the possibilities of blended learning and revolutionize education for upcoming generations

References

1.Colby R. & Colby A. (2008). Teaching with Digital Media in Writing Studies. Pearson.

2. Eskenazi M. (1999). "Using a computer in foreign language pronunciation training: What advantages?" CALICO Journal, 16(3), 447-469.

3.Godwin-Jones R. (2019). "Emerging technologies: Leveraging mobile devices and apps for language learning. "Language Learning & Technology, 23(3), 4-14.

4.Lu D. & Xu Y. (2018). "Artificial intelligence in language learning: Enhancing pronunciation skills. «Journal of Language and Education, 4(1), 32-45.

5. Pennington M.C. & Ellis N.C. (2000). "Phonology in English Language Teaching: An International Approach. "Language Teaching, 33(4), 1-20.

7. Satar H.M. & Ozdener N. (2008). "The effects of synchronous CMC on speaking proficiency and anxiety: Text versus voice chat. "The Modern Language Journal, 92(4), 595-613.

8.Warschauer M. & Meskill C. (2000). "Technology and second language teaching. "Handbook of Undergraduate Second Language Education Lawrence Erlbaum Associates.

9.Chen, Hui, and Chi-Hung Lin. “EFL Learners’ Attitudes toward Technology-Enhanced Language Learning Tools.”

10. Journal of Educational Technology & Society, vol. 19, no. 2, 2016, pp. 198-209.

11. Kukulska-Hulme, Agnes, and Olga Viberg. “Mobile Collaborative Language Learning: State of the Art.” British Journal of Educational Technology, vol. 49, no. 2, 2018, pp. 207-218.

12. Lord, Gillian. “Second Language Acquisition and Technology: A Review of the Research.” Journal of Educational Computing Research, vol. 52, no. 4, 2015, pp. 409-435

© Temirova Sh.Q., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Temirova Sh.Q.

XX asr Nurota adabiy muhitiga oid ba’zi mulohazalar

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Rajabov Faxriddin Toshpo‘lotovich

faxriddinrajabov1989@gmail.com

Annototsiya. *Ushbu maqolada Nurota adabiy muhitining shakllanish tarixi va unda badiiy ijodkorlik rivojida xalq og‘zaki ijodining muhim manba ekanligi xususida so‘z boradi*

Kalit so‘zlar. *Xalq og‘zaki ijod, badiiy ijodkorlik, adabiy muhit, shoir, baxshi*

Abstract. *The article discusses the history of the formation of the Nurota literary environment and the important source of folk oral creativity in the development of artistic creativity.*

Keywords: Folk oral creativity, artistic creativity, literary environment, poet, Bakhshi

Аннотация. *В статье рассматривается история формирования литературной среды Нуроты в Ушбе и важный источник народного устного творчества в развитии художественного творчества.*

Ключевые слова: народное устное творчество, художественное творчество, литературная среда, поэт, бахши

Nurota badiiy ijodkorligining shakllanishi bevosita mashhur baxshilar hayoti va ijodi, an’analari, ular tomonidan kuylangan va yozib olingan dostonlar, termalarning mavjudligi, bir so‘z bilan aytganda xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq. Nurotada qadimdan og‘zaki ijodning katta hududda keng tarqalganligi ma’lum. Chunki, qadimdan baxshilar tomonidan terma va dostonlarni ma’lum bir guruh bo‘lib kuylangani adabiyotlarda ta’kidlangan. Baxshilar tomonidan tez-tez tashkil qilanadigan bunday dostonxonliklar adabiy muhitning dastlabki bosqichini ko‘rsatadi. Ming afsuski, yig‘inlarda kuylangan dostonlar va termalarning ma’lum bir qismigina yozib olingan xolos.

XX asrning boshlarida O‘zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarif tomonidan Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining o‘tkir zehni va kuchli quvvai hofizaga ega ekanligidan xabar topib baxshi og‘zidan o‘ttizga yaqin dostonlar, yuzlab termalarning yozib olinishi

yoki nurotalik baxshi Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli tomonidan kuylangan oʻndan ortiq dostonlardan faqat toʻrttasi shuningdek koʻplab kuylangan termalardan maʼlum bir qismi folklorshunos olim Mansur Afzalov tomonidan yozib olinishi va shuning bilan birga baxshigacha va baxshi atrofida yana yigirmadan ortiq doston aytuvchi mohir va havasmand baxshilar boʻlganligi taʼkidlangan. Bu esa Nurota hududida adabiy muhit mavjudligini koʻrsatadi. Bu maktab nomi esa tarixda "Qoʻrgʻon dostonchilik maktabi" nomi bilan yuritilgan. SHundan keyin bu boradagi ishlar yoʻlga qoʻyilib, folklorshunos olim Toʻra Mirzaev tomonidan shu maktabning kenja vakili Rahmatulla YUsuf oʻgʻlidan yozib olingan dostonlar uning xaql ogʻzaki ijodidagi salmoqli oʻrnini koʻrsatdi. Nurotalik folklorshunos Rahim Qodir tomonidan nurotalik baxshi Abdimurod Berdixol oʻgʻlidan "Boʻtakoʻz" dostonining yozib olinishi muhim voqea boʻlganligini taʼkidlash joiz. Mansur Afzalov amalga oshirgan ishlardan farqli oʻlaroq Rahim Qodir nurotalik baxshilar anʼanasi, baxshichilik maktabi asoschilari va salaflari Bekmurod Joʻraboy oʻgʻlining Nurotadagi Qoʻtirqishloq dostonchiligining yirik va koʻzga koʻringan baxshisi va baxshilari faoliyati xususidagi qimmatli maʼlumotlarning barchasida Nurotadagi dostonchilik oʻzining yoʻnalishiga va uslubiga ega ekanligini koʻrsatadi.

Nurota dostonchilik maktabi Nurota tumanining shimoliy dahasi Qizilqum boʻylab Qiziltepa, Konimex tumanlarigacha boʻlgan hududlarda etishib chiqqan baxshilarni birlashtirgan dostonchilar guruhi Qurbon baxshi, Ashur baxshi, Isirgap baxshi, Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli, Saidmurod Panoh oʻgʻli, Qurbon Navroʻzov, Tursun Sherov, Maʼmur Ermatov, Fayzi Najmiddinov kabi oʻnlab ijodkorlar shu maktabga mansub boʻlib, Nurota, Navoiy, Tomdi, Konimex, Navbahor, Gʻijduvon, Shofirkon tumanlari aholisiga xizmat qilganlar. Bu maktabning soʻnggi talantli vakillari Saidmurod Panoh oʻgʻli va Bekmurod Joʻraboy oʻgʻlidan "Alpomish", "Odilxon", "Kuntugʻmish" (Xolbeka), "Goʻroʻgʻlining Qirimga borishi", "Avazxon", "Malikai ayyor" (Gulshanbogʻ) kabi dostonlar yozib olingan va nashr qilingan. Bu baxshilar repertuarida bashqa hududlarda tarqalmagan "Sormonxon", "Ahmadxon", "Choʻpon qiz", "Maston kampir" kabi dostonlar ham boʻlgan. Ammo ular oʻz vaqtida yozib olinmagan. Bu baxshilar "Goʻroʻgʻli" turkum dostonlarini 64 doston qilib kuylaganlar. SHuningdek bu hududlardagi qoraqalpoq va qozoq xalqlari orasida ham XX asr boshlarigacha izchil dostonchilik anʼanalari davom etgan. Bu anʼanalarning Nurota dostonchilik maktabi vakillariga taʼsiri sezilarli boʻlgan. Bu taʼsir repertuar tarkibini oʻzgartira olish darajasida boʻlmasada, koʻpgina motivlar talqini, ijro usullarida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Nurotadagi adabiy muhitning shakllanishida avval aytganimizdek, ogʻzaki ijodning oʻrni alohida ahamiyatga ega ekanligi, shu anʼanalar va tendensiyalar asosida badiiy ijod shakllangan. Zero, dastlab Ergash Jumanbulbul oʻgʻli ijodini alohida koʻrsatish mumkin.

Ergash Jumanbulbul oʻgʻlining asarlari, ayniqsa, termalari zamon ruhi bilan sugʻorilgan. U, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan har bir voqea va hodisaga oʻz ovozini qoʻshar, oʻz munosabatini bildirishga intilar, darhol termalar yaratar edi. "Ergashdagi

quvvai hofizaning kuchliligi kishini hayratga soladi. U o‘zbek tilidagi biror she’riy asarni ishtiyoq bilan bir marta o‘qib chiqsa, boshdan-oyoq esida qolar edi. Ergash sistematik ravishda doston aytib kelmagan bo‘lsa ham, bir necha yuz ming satrni tashkil etgan o‘nlab dostonlarni yod bilgan”. Lekin u boshqa shoirlardan eshitib o‘rgangan dostonlarini qanday bo‘lsa, shundayligicha takrorlamay, balki unga ijodiy tanqidiy nazar bilan qarab, g‘oyaviy badiiy jihatdan chuqurlashtirishga harakat qilar edi.

U ko‘p xalq dostonlarining bilimdoni bo‘lgan. Bu borada baxshining iqtidoriga mutaxassislar tomonidan munosib baho berilgan. Baxshi yashagan va ijod qilgan davrda ko‘plab olimlar va tadqiqotchilarning bahosi zo‘r iqtidor egasi ekanligini ko‘rsatadi. Bu borada G‘afur G‘ulomning kuzatishlari baxshi repurtuaridagi dostonlarning badiiyati va ijro uslubi borasidagi fikrlari qimmatlidir. “Ergash shoir o‘z hunari-baxshichilikka juda ixlos bilan berilgan kishi edi. Xayoli keng, fantaziyasi kuchli, tili boy, ko‘p baxshilarimizdan ko‘ra ilmliroq, maqsadshunos va o‘ta rubobiy-lirik, bir yangi narsa aytmoqchi bo‘lsa, na o‘zini va na o‘zgani qiynab o‘ltirmay... she’rlar itoatli qo‘shinday saf-basaf tizilib kelaberar edi. U siyrak uchraydigan tabiiy talant egasi, gavharnamo bir shoir edi”.

Baxshi yaratgan dostonlar uning tilida yangragan baytlar betakrorligi bilan olimlarni ham kitobxonlarni ham ko‘ngil mulkiga aylandi. Nurotalik folklorshunos, Rahim Qodirov bu boradagi fikrlarini shunday izohlaydi: “Ergash Jumanbulbul o‘g‘li asarlarining tili nihoyatda betakror:qadim ajdodlar va zamonaviy til shunday omuxtalashtirilganki, unda soddalik bilan badiiy tasvirlar benihoyat go‘zal uyg‘unlashib, o‘zbek tilining rango-rangligidan, jozibalaridan qalbda ona tilimizga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini kuchaytirib yuboradi. Bunday hayajonli lahzalarni his etishdan faqat sevinmoq va faxrlanmoq kerak”. Zero olim ta’kidlaganidek, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining asarlari mazmun mohiyati va badiiyati yuqori darajadaligi bilan alohida ahamiyatga ega.

“Oysuluv” dostonining mazmunini Ergash shoir otasidan, Otasi Jumanbulbul shoir momosi shoira Tilla kampirdan eshitgandi. Bu doston mazmuni shoir og‘zidan qissa, ertak tarzida bizga etib kelgan bo‘lsa-da, o‘zbek xalqi tarixi uchun naqadar ahamiyatli va qimmatli yodgorlik bo‘lib qolganligi ayni haqiqatdir. Nur ustiga a’lo nur bo‘lganidek, shu doston sabab “Tilla kampir maqtovga sazovor xalq shoiralaridan bo‘lgan”. SHunday manbalar tufayli o‘zbek dostonchilik tarixi uchun yangi sahifa ochildi. SHu bilan birga, qadimda o‘zbek xotin-qizlari ham dostonchilikni qadrlab, rivojiga munosib ulushlar qo‘shganligini ko‘rsatuvchi bunday aniq dalillar bilan ochiq oydin mulohazalar yuritish imkoni tug‘ildi.

Shoirning “Tarjimayi hol” dostonida ham xalq baxshi shoirlari, dostonchilik san’ati tarixi, xalqchilligi, an’anaviyligiga daxldor go‘zal she’riy manbalar bor.

“Go‘ro‘g‘li” jahon xalqlari orasida keng tarqalgan mashhur dostondir. U o‘zbek, qozoq, qaraqalpoq, qirg‘iz, tatar tojiklarda Go‘ro‘g‘li va turkman, ozarboyjon, arman,

gruzin, turk, kurd xalqlari orasida Ko‘ro‘g‘li nomi bilan mashhur. Go‘ro‘g‘li xalq qahramoni sifatida uzoq asrlardan buyon sevib kuylanib kelinadi va ko‘plab badiiy asarlar ham yaratilgan. Bu borada o‘zbek xalqining “Go‘ro‘g‘li” nomi bilan bog‘liq dostonlari, silsilasi ko‘pligi, go‘zal va badiiy pishiqligi jihatlari bilan ustunlik qiladi. Bu ustunlikni “Ravshan”, “Kunduz bilan Yulduz”, “Xoldorxon”, “Yakka Ahmad”, “Dalli”, “Kuntug‘mish” kabi Ergash shoir dostonlari misolida ko‘rish mumkin. SHoir sof adabiy dostonchilik doirasidan chiqmasdan, ushbu asarlarni kengaytirib, sayqal berib, badiiy tasvirlarni benihoyat chiroyli uyg‘unlashtirib yuborganki, bular shoir iste’dodining yorqin kamolotini yaqqol ko‘rsatadi.

Xullas Ergash baxshi ijodidagi dostonlar va termalar badiiyati asrlar osha hali ko‘plab kitobxonlarni o‘ziga jalb etadi. Nurotalik baxshilar kuylagan va yaratgan dostonlar asrlar osha dunyo ahlini O‘zbek folkloridagi durdona asarlar ekanligi bilan ko‘z-ko‘z qilib turadi.

Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li ijodi Nurotadagi og‘zaki va badiiy ijodni shakllanishiga asosiy poydevor bo‘lib xizmat qildi. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li 1878 yil Nurota tumanining Qo‘tir (avvalgi nomi Mozor, hozirgi Saidjon Eshon) qishlog‘ida tug‘ildi. U yoshligidan chorakor otasi bilan birga amaldor va boylarning xizmatini bajardi, ro‘zg‘or tebratdi. U inqilobdan ilgarigi xalqning og‘ir qismatiga sherik bo‘ldi, hayotning achchiq chuchigini tatib ko‘rdi. Ammo u ro‘zg‘or tashvishlari va tirikchilik mushkullariga aralashib qolmadi. U san’at, badiiy ijod singari insoniyat tafakkurining buyuk yutuqlari bilan oshno bo‘ldi. Bekmurod o‘z hayotining asosiy yo‘nalishi va maqsadi qilib shu yo‘lni tanladi. Undagi dostonchilikka bo‘lgan havas va ishtiyoqni payqagan Mozor qishlog‘ining dongdor dostonchisi Qurbon jirov Bekmurodga ustodlik qila boshladi.

Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li Ulug‘ Vatan urushi yillarida Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishida mehnat qildi. Tez-tez kanal qazuvchilar o‘rtasida o‘z san’ati bilan xizmat qilib, ularni yanada unumli mehnatga chorladi. Baxshi doimo el orasida bo‘ldi. Kattaqo‘rg‘on, Xatirchi, Karmana(hozirgi Navoiy rayoni), Tomdi, Konimex rayonining qishloq ovullarida bo‘lgan xalq sayllarida, to‘y ma’rakalarida ishtirok etdi. U xalq og‘zaki ijodi namunalarini kuylash bilan birga o‘zi ijod etgan terma, lapar va dostonlarni ham ijro etdi. Baxshi umrining so‘nggi yillarida Qalqonota (hozirgi Navbahor tumani) qishlog‘ida yashab ijod etdi. U xalq dostonlariga yangicha syujet va mazmun qo‘shib, g‘oyaviy va badiiy jihatdan boyitdi. Takrorlanmas va o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan ijodkor tomonidan yozib olingan “Avazxonning arazi”, “Avazxon”, “Gulshanbog‘”, “Xolbeka” dostonlari alohida kitob holida va “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” ko‘p tomlik to‘plamlarida chop etildi. Hayotni sevish, vatanparvarlik, mardlik, do‘stlik, yaxshilik, go‘zallikka intilish, kishilarni yuksak insoniy xislatlarga chorlash baxshi ijodiyotining markaziy g‘oyalaridir.

Bekmurod shoirning “Xolbeka”, “Gulshanbog‘”, “Avazning arazi”, “Gulshanbog‘”, “Alpomish” dostonlari xalq og‘zaki ijodiyotida mavjud dostonlarning eng yaxshi

namunalaridandir. Bu dostonlar fantaziyaga boy, romantik va qahramonlik asarlarining xarakterli xususiyatlarini ifodalovchi ijodiy mahorat bilan sugʻorilgan epik asarlardan hisoblanadi.

Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli 1955 yil etmish etti yoshida vafot etdi va qabri Qalqonota (hozirgi Navbahor tumani) qishlogʻidagi qabristonga dafn etildi.

Saidmurod Panoh oʻgʻli (1858-1945) Buxoro viloyati Qiziltepa tumani Kenagas qishlogʻida tugʻilgan. Yoshligidan doston yodlash, soz chalishni oʻrgangan. 1888-1903 yillarda Qiziltepa qurilishida, 1930 yildan turli sohalardi ishlagan. El orasida Murod jirov nomi bilan tanilgan. Saidmurod Panoh oʻgʻlidan “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli” turkum dostonlari, “Odilxon”, “Shirin va Shakar”, “Kuntugʻmish”, “Ahmadxon”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Sanobar”, “Oshiq Gʻarib”, “Maston kampir”, “Choʻpon qiz” kabi 20 ga yaqin xalq dostonlarini mohirona kuylagan. Undan “Alpomish”, “Odilxon”, “Goʻroʻgʻlining Qrimga borishi” dostonlari va bir qancha termalar shoirning hamqishlogʻi Shamsi Murodov tomonidan yozib olingan. “Amirning oʻlponchilariga qarshi”, “Kunlarim”, “Gulzorim bor” va boshqa asarlar muallifi”.

Nurotadagi ogʻzaki ijodning shuningdek, baxshichilikning saqlab qolinishida termaanavis shoir Ergash Asaboyevning xizmatlari beqiyos. Shoir 1904 yil Nurota tumanidagi Qoʻtir(hozirgi Saidjon Eshon) qishlogʻida tugʻilgan. SHoir tugʻilganda mamlakatda ocharchilik hukm surgan bir payt edi. SHunday vaziyatda 1917 yilda Asaboy ota oilasi bilan Karmanaga koʻchib Suyartepa degan joyda yashay boshlaydi. Dard ustiga dard qoʻshilib, oldin otasidan keyin esa vabo kasali tufayli uka-singillaridan ayriladi. Onasi va bir singlisi bilan qolgan oʻn uch yoshli Ergashning boshiga hayot oila, roʻzgʻor tashvishini yukladi.

Oʻtkir zehni va qobiliyati bilan nazarga tushib, 1927 yilda Buxorodagi Shoʻro maktabiga oʻqishga yuboriladi. 1930 yildan e’tiboran Konimex tumanida yoshlar qoʻmitasida kotib boʻlib ishlaydi. 1931 yili Ergash Asaboev Nurotaga qaytadi. Tuman xalq maorifi boʻlimida, “Qizilcha” davlat xoʻjaligida, xalq xoʻjaligining turli sohalarida rahbar sifatida faoliyat koʻrsatadi. 1940 yildan e’tiboran u tuman partiya qoʻmitasida mehnat qiladi. Qoʻmitaning mafkuraviy ishlar boʻyicha kotibi sifatida ayniqsa ikkinchi jahon urushi yillarida front orqasini mustahkamlashda katta faollik koʻrsatadi. Farhod GESi, Kattaqoʻrgʻon suv ombori hamda Ingichka konini qurilishlarida ishlab koʻpchilikka namuna boʻlgan. Ayni paytda bu xalq qurilishlari boshlovchi, havaskor baxshining badiiy ijodga kirib borishi uchun ham katta yoʻl ochadi, imkoniyat yaratadi. Ergash Asaboyev bu ulkan qurilishlarda Chustiy, Akmal Poʻlat kabi shoir, yozuvchi publitsistlar bilan uchrashib katta ijodiy maktabni ham oʻtaydi. Uning bu davrda yaratilgan “Zamon Farhodlari”, “Dengizim” kabi she’rlari oʻquvchilar oʻrtasida keng e’tibor topadi.

Ergash Asaboyev 1947-1949 yillarda Nurota tumanida chiqadigan “Stalinchi” gazetasida muharrir bo‘lib xizmat qilgan davri ijodining toblanishida, o‘sishida, xalq termalarini yanada boyitishda muhim omil bo‘ldi. U “Kunlarim”, “Kampirim”, “Berlindan kelaman”, “Ustoz”, “Qutlug‘ bo‘lsin”, “Toshkentim” kabi o‘nlab she’riy termalar yaratib, Nurota dostonchilik maktabining katta bir tarmog‘i Qo‘rg‘on dostonchilik maktabini rivojlantirishda, takomillashtirishda jiddiy xizmat qildi. O‘zi ustoz deb bilgan, tarbiyasida ulg‘aygan Bekmurod baxshi Jo‘raboy o‘g‘lining ijodini to‘plashda, chop ettirishda izlandi. Ergash Asaboyev Nurota dostonchilik maktabining rivojlanishi uchun ulkan hissa qo‘shdi.

© Rajabov Faxriddin Toshpo‘lotovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Rajabov Faxriddin Toshpo‘lotovich

ВОЗДЕЙСТВИЕ ШУМА НА МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ПАРАМЕТРЫ ПОЧЕК КРЫС

Илясов Азиз Саитмуродович Доктор биологических наук, профессор Навоийского инновационного университета https://orcid.org/0009-0008-2332-7862

Мамаражабова Бувзайнаб Абдуразаковна Самостоятелные исследователь Каракалпакского университета имени Бердаха. https://orcid.org/0009-0005-2107-7407.

Аннотация: Изучено морфофункциональное особенности строение почек крыс в 6-месячном возрасте. для оценки, полученных в ходе исследования, была изучена морфофункциональные особенности строения нефронов почек крыс о действие шума. На основании гистологических исследовании ткани почки изучена морфометрические параметры нефронов в норме и в эксперименте: измерено в *мкм,* ширина и высота почечных клубочков, толщина капсулы Шумлянского-Боумена, внутренний диаметр и толщина стенки проксимальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки дистальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки собирательных канальцев. Выявлено следующие показатели что, у крыс в периоде активного размножения (*6 - месяцев*) возраст морфофункциональные особенности строения нефронов почек при шумовом стрессе. Морфометрические параметры нефронов почек крыс увеличивается в размерах ширина клубочков нефрона почек от 4,4% и толщина стенки дистальных канальцев до 19,2%, по отношение к контрольной группы крыс.

Keywords: rat, kidney, morphology, physiology, renal capsule, nephron.**Введение.** Эпидемиологические исследования противоречиво связывают транспортный шум и загрязнение воздуха с риском развития диабета. Большинство исследований рассматривали отдельные источники шума и загрязнения воздуха, но ни одно из них не изучало их взаимонезависимый вклад в риск развития диабета [Eze, I. C., et. all 2017]. Учёные полагают что, транспортный шум может быть более значимым фактором в развитии диабета, чем шум от транспорта, потенциально влияя на нарушения сна, вызванные шумом.

Производственный шум негативно влияет на контроль заболевания и психологическое состояние пациентов с диабетической нефропатией. Поэтому крайне важно уделять внимание контролю уровня шума в клинической практике [Zhou, X., Guo, T., & Lin, L. 2025].

Эффективность мер по снижению уровня шума в отделениях интенсивной терапии была различной, при этом многокомпонентные подходы были направлены на устранение множественных источников шума. Хотя эти меры снижали уровень шума и улучшали результаты лечения пациентов, уровень шума часто оставался выше стандартов Всемирной организации здравоохранения *(ВОЗ).* Оценка эффективности в основном носила краткосрочный характер, что ограничивало анализ долгосрочных эффектов. Для создания более благоприятной среды в отделениях интенсивной терапии как для пациентов, так и для медицинского персонала, будущие исследования должны сосредоточиться на долгосрочной эффективности и включать хорошо спланированные рандомизированные контролируемые исследования для укрепления доказательной базы в области управления шумом [Han, E., Kang, H., & Jang, Y. 2026].

Длительное воздействие производственного шума может являться значимым фактором риска снижения функции почек и повышения распространённости хронической болезни почек, особенно среди женщин и лиц с продолжительным стажем шумовой экспозиции [Park, S., et. all 2021].

Учёным было выявлено связь между увеличением периода воздействия шума и снижением расчётной скорости клубочковой фильтрации подчёркивает необходимость усиления профилактических мер на рабочих местах, а также проведения дальнейших проспективных исследований для уточнения механизмов и причинно-следственных взаимосвязей.

Таким образом, частота возникновения МС значительно выше среди пациентов с заболеваниями почек по сравнению с пациентами без таких заболеваний, главным образом из-за нарушений метаболизма глюкозы и жиров, инсулинорезистентности, гипертонии и применения глюкокортикоидов и ингибиторов кальциневрина после повреждения почек. Применение контроля артериального давления, статинов и новых препаратов, регулирующих уровень глюкозы в крови, может снизить вероятность развития МС у пациентов с заболеваниями почек, тем самым уменьшая повреждение почек.

Однако в данной работе также имеются некоторые ограничения, такие как необходимость проведения крупномасштабных исследований для разработки новых медико-биологических стратегий и схем профилактики в традиционной китайской медицине.

Цель исследования: изучить действие шума на морфофункциональное параметры почек крыс в периоде активного размножения.

Материал и методы исследования. В исследовании использовано 30 половозрелых белых крыс линии Wistar**,** массой 180–220 г. Все животные методом случайных чисел были рандомизированы на две группы: Контрольная группа (n = 15) содержащихся в стандартных условиях вивария на обычном пищевом рационе со свободным доступом к воде; получала стандартный лабораторный рацион; Экспериментальная группа (n = 15) — в течение 4 недель получала действие шума на морфофункциональное параметры почек крыс в периоде активного размножения. Исследование включало: Гистологического исследования органы с предварительно измеренной массой на 24 часа помещали в 10% раствор формалина с последующим приготовлением срезов и их окраской гематоксилин и эозином. Изучены морфометрические параметры нефронов в норме и в эксперименте: измерено в *мкм,* ширина и высота почечных клубочков, толщина капсулы Шумлянского-Боумена, внутренний диаметр и толщина стенки проксимальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки дистальных канальцев, внутренний диаметр и толщина стенки собирательных канальцев.

Числовые данные, приводимые в таблицах, представлены в виде: средняя арифметическая (*M*) ± стандартная ошибка среднего (*m*). Критерием статистической достоверности получаемых выводов мы считали общепринятую в медицине величину p <0,05.

Результаты и их обсуждение. У крыс в экспериментальной группе, подвергшейся воздействию шумового стресса, ширина почечных клубочков варьировала от 45,0 до 65,0 мкм, тогда как их высота составляла от 40,0 до 55,0 мкм. Толщина капсулы Шумлянского–Боумена варьировала в пределах от 6,0до 11,0 мкм.

Изучено что, аэрозоли от смазочно-охлаждающих жидкостей и шум на рабочем месте могут быть фактором риска снижения функции почек. Для выяснения причинно-следственной связи этих ассоциаций необходимы также проспективные и лонгитудинальные когортные исследования.

Микроскопическая строение проксимальных и дистальных извитых канальцев почек крыс в экспериментальной группе, подвергшейся воздействию шумового стресса показаны на рисунке 1.

Внутренний диаметр проксимальных извитых канальцев составлял 18,0–25,0 мкм, при этом толщина их стенки находилась в диапазоне 7,0–10,0 мкм. Внутренний диаметр дистальных извитых канальцев составлял 20,0–25,0 мкм, а толщина стенки — 6,0–9,0 мкм. Проксимальные отделы *(клетки стенок имеют щеточную кайму*) и дистальные отделы *(клетки стенок не имеют щеточной каемки)* извитых канальцев. Извитые канальцы имеют вид поперечно

перерезанного канальца-трубочки, стенка которого состоит из одного слоя клеток с круглыми крупными ядрами. Микроскопическое строение собирательных канальцев почек крыс при воздействии шума показаны на рисунке 2.

Мозговое вещество почки имеет вид *(форму)* пирамид, в которых отсутствуют почечные тельца. Состоит из собирательных трубочек под микроскопом имеет вид продольно перерезанных канальцев-трубочек, идущих в одном направлении. Между канальцами в прослойках соединительной ткани лежат кровеносные сосуды с эритроцитами.



Рис. 1. Микроскопическая строение проксимальных и дистальных извитых канальцев почек крыс в экспериментальной группе, подвергшейся воздействию шумового стресса; 1. почечное тельце. 2. проксимальный каналец. 3.



Рис. 2. Микроскопическое строение собирательных каналец в мозговом слое крыс при воздействии шума; 1. собирательные канальцы. 2. ядро клеток. Окраска гематоксилином – эозином. Ок. 10 х об. 60.

При изучении мозгового вещества почки установлено, что внутренний диаметр собирательных канальцев варьировал от 15,0 до 25,0 мкм, тогда как толщина их стенки составляла 8,0–12,0 мкм. Морфометрические параметры нефронов почек крыс при воздействии шума показаны на таблице 4.1.

Существует два типа нефронов: поверхностные нефроны с клубочками, расположенными близко к корковой поверхности *(апикальное)* и юкстамедуллярные нефроны с клубочками, расположенными вблизи кортико-медуллярного соединения *(базальное)* в почечный мозговой слой.

Клубочек фильтрует большие объемы крови, а канальцевый система преобразует этот фильтрат в мочу посредством реабсорбции и секреции воды и растворенных веществ.

таблица 4.1

Морфометрические параметры нефронов почек крыс

при воздействии шума

группа животных параметры (*мкм*)	контрольная	при воздействии шума
ширина почечных клубочков	63,5±1,80	66,4±1,80
высота почечных клубочков	57,2±1,89	62,2±1,48
толщина капсулы Шумлянского-Боумена	10,1±0,49	11,2±0,57
внутренний диаметр проксимальных канальцев	18,3±0,57	20,3±0,74
толщина стенки проксимальных канальцев	6,4±0,25	7,6±0,25
внутренний диаметр дистальных канальцев	20,5±0,49	22,1±0,49
	5,9±0,25	7,3±0,33

толщина стенки дистальных канальцев		
внутренний диаметр собирательных канальцев	16,4±0,74	17,2±0,74
толщина стенки собирательных канальцев	7,9±0,33	8,4±0,41

Таким образом, изучения показало, что, у (*6 месячных*) крыс половозрелом возрасте морфофункциональные особенности строения нефронов почек при шумовом стрессе морфометрические параметры нефронов почек крыс увеличивается: ширина и высота почечных клубочков до 8,0%, толщина капсулы Шумлянского - Боумена и внутренний диаметр проксимальных канальцев до 9,8%, толщина стенки проксимальных канальцев на 15,8%, внутренний диаметр и тольшина стенки дистальных канальцев до 19,2%, внутренний диаметр и толщина стенки собирательных канальцев до 5,9% по отношение к контрольной группе.

1. Eze, I. C., Foraster, M., Schaffner, E., Vienneau, D., Héritier, H., Rudzik, F., Thiesse, L., Pieren, R., Imboden, M., von Eckardstein, A., Schindler, C., Brink, M., Cajochen, C., Wunderli, J. M., Röösli, M., & Probst-Hensch, N. (2017). Long-term exposure to transportation noise and air pollution in relation to incident diabetes in the SAPALDIA study. International journal of epidemiology, 46(4), 1115–1125.
2. Zhou, L., Wu, B., Tang, M., Li, G., Chan, W., Song, L., Wang, J., Zhu, L., Lin, L., & Lian, Y. (2024). Association between exposure to metalworking fluid aerosols, occupational noise and chronic kidney disease: a cross-sectional study in China. BMC public health, 24(1), 1495. https://doi.org/10.1186/s12889-024-19006-7
3. Han, E., Kang, H., & Jang, Y. (2026). Noise reduction interventions in intensive care units: a systematic review. Intensive & critical care nursing, 92, 104234.
4. Park, S., Lee, S., Kim, Y., Lee, Y., Kang, M. W., Han, K., Lee, H., Lee, J. P., Joo, K. W., Lim, C. S., Kim, Y. S., & Kim, D. K. (2020). Reduced risk for chronic kidney disease after recovery from metabolic syndrome: A nationwide population-based study. Kidney research and clinical practice, 39(2), 180–191.

© Илясов Азиз Саидмуродович, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Илясов Азиз Саидмуродович

О ВОПРОСАХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Кадиров К.Н., проф., Навоийский УИ

Хафизова Нилюфар, преп.презедентской школы г.Навои

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы образования в Республике Узбекистан. Проблеме развития способностей, сознания и навыков студентов при подготовке педагогов в сферах профессионального образования, углублении их научных и практических знаний.

Ключевые слова: задача реорганизации структуры, содержание подготовки кадров, новые педагогические и информационные технологии, разработка современных учебно-методических комплексов.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini takomillashtirish masalalari, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlashda o‘quvchilarning qobiliyatlari, ongi va malakalarini rivojlantirish, ularning ilmiy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kadrlar tayyorlash tarkibini, mazmunini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qayta tashkil etish, zamonaviy o‘quv-uslubiy komplekslarni ishlab chiqish vazifasi.

Annotation: The article deals with the issues of improving the education system in the Republic of Uzbekistan. The problem of developing the abilities, consciousness and skills of students in the preparation of teachers in the areas of vocational education, deepening their scientific and practical knowledge.

Key words: the task of reorganizing the structure, the content of personnel training, new pedagogical and information technologies, the development of modern educational and methodological complexes.

Достижение Республики Узбекистан государственной независимости и выбор собственного пути экономического и социального развития сделали актуальной задачу реорганизации структуры и содержания подготовки кадров.

В целях занять место в рядах развитых стран, наша республика, как и все отрасли народного хозяйства, старается внедрять передовые технологии в сфере образования и тем самым доводить содержание образования до уровня мировых стандартов.

В настоящее время в высших учебных заведениях и профессиональных колледжах проводится ряд замечательных работ, направленных на решение проблем использования новых педагогических и информационных технологий и разработку современных учебно-методических комплексов. Также в целях совершенствования системы образования используется опыт профессионального образования зарубежных стран. Реализация этих работ является основой для создания методической системы, вобравшей в себя богатое наследие нашего народа, идеи наших великих мыслителей и передовые инновации современности в области образования.

Целью учебного процесса является обеспечение единства обучения, воспитания и развития. Однако еще более важной является проблема развития способностей, сознания и навыков студентов при подготовке педагогов в сферах профессионального образования, углублении их научных и практических знаний. Эти особенности помогают развивать способности будущих учащихся, повышать их интерес и ответственность к своей профессии. Проблема повышения творческих способностей учащихся в процессе обучения сложна и многогранна.

Именно поэтому важно развивать интерес и способность учителя к совершенствованию научно-теоретических и практических знаний учащихся.

Современный специалист должен уметь быть в курсе новостей в сфере своей профессиональной деятельности, уметь видеть направления развития в будущем и пути решения возникающих проблем.

Для того чтобы воспитать специалиста на уровне таких требований, необходима разработка комплекса эффективных форм, активных методов.

Любой образовательный процесс предусматривает взаимосвязанную педагогическую и учебную деятельность. В этом случае деятельность студента по организации обучения по предметам специальной специализации носит двойной характер, то есть овладение теоретическими знаниями и практическими навыками, и их применение. Они объединяются в образовательном процессе и образуют единый педагогический процесс. Эта особенность касается и учебного процесса, и методов.

В процессе производственного образования создается система профессиональных навыков и квалификаций, студенты приобретают необходимый производственный опыт и профессиональные навыки. Поэтому каждый педагог должен быть мастером своего дела, искусным воспитателем, страстным и самоотверженным. Он должен постоянно заниматься саморазвитием, творчески подходить к своей работе, уметь заинтересовать студентов наукой. Для этого

преподаватели специальных наук и инженеры-педагоги профессиональных колледжей должны уметь правильно планировать содержание производственного процесса и своей трудовой деятельности, использовать в учебном процессе педагогические технологии, пользоваться информационными технологиями, знать и уметь эффективно использовать современные технические средства в ходе урока. В образовательном процессе желательно использовать новые педагогические технологии и инновационные методы, внедрять вновь выпускаемые технические средства, стимулировать учащихся к более самостоятельной работе, широко использовать различные способы проведения уроков из передового опыта.

Еще одним важным аспектом является развитие знаний и умений будущих учителей общеобразовательных и специальных предметов и инженеров-педагогов в высших учебных заведениях. Необходимо обеспечить их новыми учебниками и учебными пособиями, чтобы они могли овладеть секретами профессии в избранных ими областях.

Использованная литература:

1. Батышев С.Я. Профессиональная педагогика. «Профессиональное образование». -М., 1997.

© Кадиров К.Н., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Кадиров К.Н., Хафизова Нилюфар

4-SHO'BA

4-SHO'BA. SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ANIQ, TABIIY HAMDA TEXNIK FANLARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

4-СЕКЦИЯ. СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТОЧНЫХ, ЕСТЕСТВЕННЫХ И ТЕХНИЧЕСКИХ НАУК НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

SECTION 4. CONTEMPORARY DIRECTIONS IN THE DEVELOPMENT OF EXACT, NATURAL, AND TECHNICAL SCIENCES BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES.

SHAKLDOR IP TURLARINI O‘RGANISH TAHLILI

Tayanch doktorant M.E.Yo‘ldoshova, PhD dotsent M.V.Tulaganova

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Maqolada shakldor ip turlari qo‘llanilish sohasi va yigirish korxonalarida mavjud mashinalardan foydalanish orqali yangi assortimentdagi shakldor ip ishlab chiqarish jarayoni keltirilgan. Shakldor iplarning turlari, ularni ishlab chiqarish usullari va qo‘llaniladigan mashinalar, shuningdek, shakldor iplardan olinadiga tayyor attorlik buyumlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shakldor ip, marlli ip, spiralli shakldor ip, o‘ramli shakdor ip, teskari o‘ramli ip, buklama efektli ip, halqali ip, shokilali ip, tugunli ip, metal lip-lyureks*

Аннотация: *В статье представлена область применения типов фасонной пряжи и процесс производства нового ассортимента фасонной пряжи с использованием существующих машин на прядильных предприятиях. Приведены виды фасонных нитей, способы их производства и применяемые машины, а также готовые галантерейные изделия из фасонных нитей.*

Ключевые слова: *фасонная нить, марлевая нить, спиральная нить, витая нить, обратная витая нить, нить с эффектом складывания, кольцевая нить, бахрома, узловая нить, металлический лип-люрекс*

Annotation: *The article presents the scope of application for patterned yarn types and the process of producing a new assortment of patterned yarn using existing machines in spinning enterprises. The types of patterned threads, their production methods, and the machines used, as well as finished haberdashery products made from patterned threads, are presented*.

Keywords: *Fancy yarn, gauze yarn, spiral shaped yarn, twisted shaped yarn, reverse twisted yarn, folding yarn, ring yarn, fringe, knotted yarn, metallic lip-lyurex*

Kirish:

Jahonda bozor talablariga mos to‘qimachilik matolari va yangi turdagi mato dizaynlarini ishlab chiqishda, mato yuzasida yoki attorlik buyumlari ishlab chiqarishda turli naqsh hosil qilish jarayonida shakldor iplardan foydalanish bugungi kunda sezilarli darajada oshgan. Shakldor iplarning turlari, ularni ishlab chiqarish usullari va ishlatiladigan mashinalar bir biridan farq qiladi. So‘nggi yillarda shakldor iplarga bo‘lgan talabning ortishi tufayli turli xil shakldor iplarni ishlab chiqarish va ulardan bejirim

matolarni aholiga yetkazib berish ushbu sohaning rivojlanishiga va keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda[1].

Respublikamizda hozirgi kunda paxta xomashyosidan samarali foydalanish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, jumladan, “paxta xomashyosidan samarali foydalanish orqali raqobatbardosh mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarishda texnikatexnologiyalarni takomillashtirish eng muhim deb belgilab qo‘yilgan» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxta dalalarida defolyatsiyadan keyin paxta xomashyosini o‘z vaqtida terib olish va uni qayta ishlash, hamda paxta tolasidan sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va uni eksport qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda [2].

Asosiy qism:

Mamlakatimizda to‘qimachilik sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar yuqori raqobatbardosh yangi assortimentdagi to‘qimachilik mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun innovatsion, turli xil va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish katta ahamiyatga qaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, shakldor iplar to‘qimachilik sanoatiga keng asortimentdagi tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

To‘qimachilik sanoati uchun yangi turdagi to‘quv-trikotaj iplarini va keng ko‘lamdagi raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shakldor iplar ishlab chiqarish usullaridan qat’iy nazar, tashqi ko’rinishi, rangi va tuzilish belgilari bilan oddiy yakka ipdan farq qiluvchi yakka va pishitilgan iplar hisoblanadi. Yakka va pishitilgan iplarning odatdagi tuzilishidan farq qiladigan uning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarini, ya’ni tugunlar, halqalar, buramlar, o‘ramlar va boshqa shu kabi davriy effektlardan iborat iplar shakldor iplar turiga oid sanaladi. Shu bois ko‘plab olimlar tomonidan bugungi kunga qadar birqancha tadqiqot ishlari bajarilgan.

Shakldor iplar deb tuzilishi va tuslanishida davriy takrorlanadigan lokal o‘zgarishlari mavjud iplarga aytiladi.

Shakldor iplar ishlab chiqarish usuliga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘linadi:

1) Maxsus ip pishitish mashinalaridan foydalanmay olingan bir tekis buramli shakldor iplar (bunday iplar turli aralash tolalardan, ikki rangga bo‘yalgan piliklardan yoki yigirish mashinasi cho‘zish asbobida noto‘g‘ri razvodka o‘rnatilib, istalgan xomaki mahsulotlardan tayyorlanadi.

2) Shakldor ip ishlab chiqarish uchun maxsus mashinalardan foydalaniladi.

Shakldor ip ishlab chiqarish va realizatsiya qilish to‘kimachilik sanoatining alohida tarmog‘i hisoblanadi. Shakldor ip effektlarining juda ham ko‘p turlari mavjud. Ularni hosil qilishda ishlatiladigan texnik vositalar ham turlicha. Ayni bir vaqtda bunday iplarni qo‘llash samaradorligi ma’lum darajada mahsulotning iste’mol sifati bilan bog‘liq [3].



1-rasm. Keng tarqalgan shakldor iplar turi

Shakldor iplar rangli, tashqi ko‘rinishi effektli va tashqi strukturaviy ko‘rinishi takrorlanuvchi shakllarga bo‘linadi. Sanoatda shakldor iplarning oddiy ip, jun, zig‘ir, ipak, paxta, modifikatsiyalangan kimyoviy tolalarning xossalaridan foydalanish natijasida olinadigan iplar turlari keng tarqalgan. Shuningdek, rangli va tashqi ko‘rinishi effektli iplar melanj, rang-barang, serjilo bo‘yalgan yoki gul bosilgan, hurpaygan, dag‘al junli va tashqi ko‘rinishi effektli (o‘zgartirilgan shaklli) ipga nepsli, rangdor qismli, yo‘g‘onligi o‘zgaruvchan iplar hamda ko‘p komponentli shakldor ip va ularning turlari quyidagi 1-rasmda ko‘rsatilgan [4].

Turli komponentli shakldor iplar maxsus qurilmalar bilan jihozlangan halqali pishitish, qo‘shburam pishitish, yigirish-pishitish, armirlovchi va yigirish mashinalarida ishlab chiqariladi. Ko‘p komponentli shakldor iplar mulinesimon, to‘lqinsimon, murakkab va ko‘pburam turlari ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki shakldor iplarning yangi assortimentlarini ishlab chiqarish to‘qimachilik mahsulotlari qo‘llanilish sohasini kengaytirishga va tayyor mahsulotlar assortimentini yaratishga hamda raqobatni yuzaga keltirishga olib keladi. Bu qo‘yilgan vazifalarga mahalliy xomashyolardan foydalangan holda korxonalarda mavjud bo‘lgan halqali yigirish mashinalarida shakldor iplarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish orqali yangi texnologiyani yaratish dolzarb masala ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa:

Jahon to'qimachilik tolalari balansida kimyoviy tolalar ulushining tobora ortib borayotganligi sababli to'qimachilik korxonalariga kimyoviy tolalardan ishlab chiqarilgan to'qimachilik iplari, xususan, mahalliy xomashyolardan olingan shakldor iplar assortimentlarini kengaytirish kabi talablar qo'yilmoqda. Tadqiqotlar olib borish uchun halqali yigirish mashinasida kimyoviy va paxta tolalarini aralashtirish va mashinaning konstruksiyasini o'zgartirish orqali yangi assortimentdagi shakldor iplarni ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi "Paxtato'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuvtrikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

3. Tulaganova, M., Matismailov, S., Korabayev, S., & Isakulov, V. (2024, March). Optimization of double compactors in the production of "Siro" yarns. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1, p. 030037). AIP Publishing LLC.

4. Isaqulov, V. T., Jurayev, A. J., & kizi Tulaganova, M. V. (2022). STUDY OF THE EFFECT OF THE SPINDLE SPEED ON THE PROPERTIES FOR THE BAKED SIRO YARN, WHICH MADE FROM COTTON AND POLYESTER FIBRES Nuriddin Nurali ugli Ruziboev Doctoral student. Tashkent Institute of Textile and Light Industry. *International Journal of Engineering Science*, *171*, 103630.

© Yo'ldoshova Mahsuda Erkabeyevna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Yo'ldoshova Mahsuda Erkabeyevna, Tulaganova M.V.

ШАҲАРЛАРНИНГ ЭКОЛОГОГИК СТРУКТУРАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

Шодиев Садир Нематович

Бухоро давлат техника университети доценти, т.ф.н

snshodiyev1953@gmail.com

Анатация. Ушбу мақолада когон-бухоро трассасидаги асфальт-бетон йўл қопламаларидан ажралиб чиқадиган зарарли ва заҳарли моддалар, йўлнинг ажратувчи барьерлар ва уларнинг умумуий майдонининг улушлари ҳамда улардан чиқадиган зарарли моддаларнинг атроф-муҳитга тарқалишини камайтириш усуллари ва тавсиялар тўғрисида фикрлар баён қилинган.

Калит сўзлар. Магистрал, автомобил йўллари , яшил ҳимоя зонаси, майса, дарахт, зарарли моддалар, барьер, асфальт, бетон.

Маълумки йилдан-йилга шаҳарларнинг инфраструктураси ўзгариб, ташқи кўриниши билан чирой очиб бормоқда. Шаҳарларда кўп қаватли аҳоли яшаш бинолари, ишлаб чиқариш бинолари ва иншоотлари қурилмоқда. Шаҳарларнинг ўнқир-чўнқир йўлларнинг ўрнига текис равон қаттиқ қопламали асфальт-бетон йўллаарни қурилиши, шаҳарнинг кўркига кўрк қўшмоқда. Йилдан-йилга шаҳар транспорт воситалари паркларининг таркиби ҳам янгиланиб бормоқда, бу эса шаҳарлар аҳлисини манзилига тез ва талофотсиз етиб бориши учун анча қулайлиқлар яратади.

Аммо ҳар бир қилинаётган яхши ишларнинг амалга оширишда шаҳарсозлик ва шаҳарлар архитектураси талабларининг меъёрларига, санитария ва гигиена меъёрларига, экологик меъёр ва талабларига, ҳаракат хавфсизлик талабларига, қурилиш меъёрлари ва қоидаларига тўла риоя қилиш керак. Бироқ ҳамма вақт ҳам юқоридагиларга эътибор берилмайди, шу сабабли шаҳарларнинг экологик инфраструктураси бузилиб бормоқда. Бу эса ўз навбатига шаҳарларимизда атмосфера ҳавосининг ифлосланиш даражасини ошиб боришига олиб келмоқда.

Юқоридагиларнинг инобатга олган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятидаги атмосфера ҳавосининг ифлосланишини бартараф этиш чоралари тўғрисида”ги 24.11.2025 йилдаги ПФ-229-сонли фармонида, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис қонунчилик палатасининг 30.01.2024 йилдаги 3963-IV-сонли қарорида ва бошқа ҳужжатларда республиканинг катта шаҳарларни атмосферасининг экологик ҳолатини яхшилаш

бўйича чора-тадбирлар кўрсатиб ўтилган. Ушбу чора-тадбирларнинг ижросини таъминлаш мақсадида бизлар томонимиздан бир қатор изланишлар олиб борилди ва уларнинг натижаларидан келиб чиққан ҳолда бир қатор тавсиялар ишлаб чиқилди. Бу изланишлар Бухоро вилоятининг Когон-Бухоро трассасини йўл қопламалари ва улардан атроф муҳитга ажралиб чиқувчи зарарли моддалар ҳамда уларнинг таъсирини камайтиришга қаратилган тавсиялар мисолида амалга оширилди.

Когон-Бухоро трассасининг умумий узунлиги яъни Когон шаҳар бош бекатидан Бухоро шаҳрининг эски бош бекатигача бўлган масофа 20 км.ни ташкил этади. Йўллар асосан асфальт-бетон қопламали бўлиб, унинг юзасидан йилнинг фаслига, қопламанинг турига, қуёш радиациясига, битумнинг таркибига, транспортнинг ёши ва ҳаракатига боғлиқ ҳолда турли хил кўрсатгичларда зарарли моддалар ажралиб чиқади ва атроф муҳитнинг ифлосланишига олиб келади. Асосий чиқиндилар – буғланувчи органик бирикмалар (VOC), ПАУ(полициклик ароматик углеводородлар), чанг ва микрозаррачалар ҳисобланади.

1. Асфальт қопламасининг ўзидан ажралиб чиқадиган зарарли моддалар айниқса иссиқ ҳавода (+30^{0}С дан юқори) қуйида келтирилган

Зарарли моддалар	**Манбаи**	**Таъсири**
Битум буғлари	Асфальт қизиши	Нафас олиш йўлларига таъсир этади
VOC(учувчан органик бирикмалар)	Битум ва қўшимчалари	Бош оғриғи, аллергия
бензол	Нефть махсулотлари қолдиғи	Канцероген моддалар
Толуол, ксилол	Органик эритувчилар	Асаб тизимига таъсир этади
Формальдегид	Қизиш реакцияси	Кўз ва нафас олиш йўлларини қитиқлайди
ПАУ(полициклик ароматик углеводородлар)	Битумнинг парчаланиши	Заҳарли, канцероген.

2. Транспорт воситаларининг ҳаракатланиши натижасидар йўл юзасидан ажралиб ҳавога кўтариладиган моддалар

Юқоридагилардан кўринадики Когон-Бухоро трассасидаги энг хавфли ҳолатлар:

- +40^{0}С ва ундан юқори ҳароратда;
- Тирбандликда;
- Янги асфальт ётқизилганда;
- Шамолсиз кунларда;
- Катта юк машиналари кўп юрганда.

Атроф муҳитга чиқадиган зарарли моддаларнинг камайтириш чоралари:

- Полимерли экологик асфальт қопламалар;
- Йўлнинг сув билан ювиш ишлари;
- Йўлнинг бўш жойларига ва атрофига, йўлнинг четларига дарахт экишлар;
- Йўлда ҳаракатланадиган транспорт оқимини камайтиришлар;
- Йўллардаги асфальт қопламаларига совутиш технологиясидан фойдаланишлар.

Mazkur maqolani yozishda mavzuga oid bir qancha ma'lumotlar, adabiyotlar, ilmiy maqolalar o'rganib chiqilgan. Ijtimoiy tarmoq monitoringining asosiy jarayonlaridan biri bu turli ijtimoiy tarmoqlardan, media platformalardan ma'lumotlarni avtomatik jamlab, maxsus vosita va dasturlardan foydalangan holda tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu vositalar kalit so'zlarni, heshteg (belgilangan so'z)larni, tashkilotlar yoki shaxslarning eslatmalarini, shuningdek, jamoatchilik fikri va kayfiyatini kuzatish orqali amalga oshiradi. Ijtimoiy tarmoqlar monitoringining afzalliklari quyidagilardan iborat: paydo bo'lgan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarga, yoki i salbiy sharhlarga tezda javob berish qobiliyati mavjud.

Bu holat inqirozli vaziyatni yuzaga kelishi ehtimolini kamaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar monitoringi yangi tendentsiyalarni aniqlash, foydalanuvchilarning fikr va istaklari asosida tegishli mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi. Uchinchidan, monitoring ijtimoiy media marketing kompaniyalarining samaradorligini aniqlashga va ularni yaxshilash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.Sun'iy intellektdan foydalangan holda ijtimoiy tarmoq monitoringi tizimining asosiy komponentlari: Tizimining asosiy komponentlari ijtimoiy tarmoqlardan ma'lumotlarni yig'ishni o'z ichiga oladi. Ushbu komponent tizimda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u turli ijtimoiy media platformalaridan ma'lumotlarni to'playdi. Ijtimoiy tarmoqlardan ma'lumotlarni yig'ish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bu erda sun'iy intellekt ishni sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq monitoringi tizimida sun'iy intellekt Telegram, Facebook, Twitter, Instagram va boshqalar kabi turli ijtimoiy tarmoq platformalaridan ma'lumotlarni yig'ishni avtomatlashtirish uchun ishlatiladi. Sun'iy intellekt ma'lumotlarni yig'ishning yuqori aniqligi samaradorligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida foydalanuvchi faolligi va ijtimoiy tarmoqlardagi voqealarni tezkor kuzatish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni yig'ishda sun'iy intellekt algoritmlari postlar, sharhlar, yoqtirishlar va ulashishlar kabi turli parametrlarga e'tibor beradi. Ular katta hajmdagi ma'lumotlardan tanlab oladilar va muayyan mavzular va voqealar bilan bog'liq kalit so'zlarni yoki iboralarni aniqlaydilar. Bu ijtimoiy tarmoq monitoringi tizimi foydalanuvchi uchun eng dolzarb va qiziqarli ma'lumotlarga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Xulosa:

Mazkur tadqiqot jarayonida zamonaviy axborot makonining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar monitoringida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sh. Bekqulov va I. Ibragimovlarning "Sun'iy intellekt asoslari" asarida ilgari surilgan fundamental prinsiplar — ma'lumotlarni intellektual qayta ishlash, mantiqiy xulosa chiqarish va shakllarni aniqlash (pattern recognition) usullari — bugungi kunda ijtimoiy media tahlilining metodologik tayanchiga aylangan.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi ulkan hajmdagi strukturalanmagan ma'lumotlar oqimini (Big Data) avtomatik tarzda saralash va ulardagi semantik bog'liqlikni aniqlashda sun'iy intellekt algoritmlari inson omilidan sezilarli darajada ustun ekanligi isbotlandi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi.

Umumlashtirib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari ijtimoiy tarmoqlar monitoringini shunchaki statistik ma'lumotlar to'plash vositasidan, jamiyatning dinamik o'zgarishlarini prognoz qiluvchi va boshqaruvchi **intellektual ekotizimga** aylantirdi. Ushbu sohadagi kelgusi tadqiqotlarni neyron tarmoqlarining yanada chuqurlashtirilgan

modellarini (Deep Learning) ijtimoiy tahlilga integratsiya qilish masalalariga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bekqulov Sh., Ibragimov I. Sun’iy intellekt asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 248 b.
2. Sattorov A. Ma’lumotlar ombori va mikroprotsessorlar texnologiyasi. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2018. – 312 b.
3. G‘ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: "Sharq", 2000. – 592 b.
4. Xennesi J., Patterson D. Kompyuter arxitekturasi: miqdoriy yondashuv (Computer Architecture: A Quantitative Approach). 6-nashr. – Morgan Kaufmann, 2017. – 984 b. (Xalqaro adabiyotning o‘zbek tilidagi tahlili uchun).
5. Stallings W. Kompyuter tizimlarining tashkil etilishi va arxitekturasi (Computer Organization and Architecture). 11-nashr. – Pearson, 2019. – 848 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli "Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
7. Intel korporatsiyasi rasmiy sayti. Protsessorlar spetsifikatsiyasi (Ark Intel). [Elektron resurs]. URL: https://ark.intel.com (Murojaat sanasi: 2024).
8. NVIDIA korporatsiyasi rasmiy portali. GPU arxitekturalari va parallel hisoblashlar tahlili. [Elektron resurs]. URL: https://www.nvidia.com (Murojaat sanasi: 2024).

© Kubayeva Dinora Izzatulla qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Kubayeva Dinora Izzatulla qizi

ҚАТҚАЛОҚНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШ НАЗАРИЯСИ ВА УНИНГ ПАХТА УРУҒИНИНГ УНИБ ЧИҚИШИГА ТАЪСИРИ

Шодиев Садир Нематович

Бухоро давлат техника университети доценти, т.ф.н

snshodiyev1953@gmail.com

Аннотация. мақолада тупроқ юзасида қатқалоқ ҳосил бўлишининг физик-механик асослари, унинг шаклланиш босқичлари, таъсир этувчи омиллари ҳамда пахта уруғининг униб чиқишига таъсир тахлил қилинган. Қатқалоқ ҳосил бўлишида тупроқнинг механик таркиби, намлик режими, ёғингарчилик ва суғориш таъсири, органик моддалар миқдори ҳамда буғланиш жараёнларининг аҳамияти кўрсатилган. Қатқалоқнинг олдини олиш бўйича мавжуд усуллар ва уларнинг самарадорлиги баҳоланган.

Калит сўзлар: қатқалоқ, тупроқ структураси, пахта, уруғ униши, намлик, органик гўнг, локал сув бериш, тупроқ физикаси.

Кириш

Пахтачиликда юқори ва сифвтли ҳосил олишнинг асосий шартларидан бири уруғнинг бир вақтда ва бир текис униб чиқишини таъминлаш ҳисобланади. Суғорма деҳқончилик шпроитида экишдан кейин тупроқ юзасида қатқалоқ ҳосил бўлиши кўп учрайдиган муаммолардан бири ҳисобланади.

Қатқалоқ- тупроқ юзасида ҳосил бўладиган юқори зичликка эга бўлган қаттиқ қатлам бўлиб, у ҳаво алмашинувини чеклайди, сувнинг тупроққа сингишини пасайтиради ва майсаларнинг тупроқ юзасига чиқишига қаршилик кўрсатади.

Қатқалоқ бўйича алоҳида қабул қилинган меъёрий ҳужжатлар мавжуд эмас. Лекин тупроқ унумдорлигини сақлаш, сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, ресурс тежовчи технологияларни жорий қилиш ва органик ўғитлардан фойдаланишга қаратилган давлат ҳужжатлари қатқалоқ муаммосини ҳал қилишнинг ҳуқуқий асосини ташкил этади. Бу ҳужжатлар қаторига қуйидалар киради: 1. Ўз Рес. Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сонли Фармони " Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси тўғрисида", ушбу стратерияда: -тупроқ унумдорлигини сақлаш; сув ресурсларидан самарали фойдаланиш; ресурс тежовчи технологияларни жорий қилиш; органи ва минерал ўғитлардан мпқбул

фойдаланиш асосий вазифалар сифатида белгиланган. 2. Ўз Рес. Президентининг ПҚ-4919-сонли Қарори "Қишлоқ хўжалигда сув тежовчи технологияларни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида". Ушбу қарорда: томчилатиб суғориш; локал намлаш; сув сарфини камайтириш; инновацион суғориш технологияларини қўллаш устивор вазифалар сифатида белгиланган. 3. Ўз Рес. Президентининг ПФ-6024-сонли Фармони "Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантириш концепцияси 2020-2030 йиллар". Бу ҳужжатда сув ресурсларини тежаш; сувдан самарали фойдаланиш; замонавий технологияларни жорий қилиш; тупроқ ва сув муҳофазаси устивор йўналишлар сифатида белгиланган. 4. Қишлоқ хўжалигиги ривожлантириш стратегияси доирасмидаги ПҚ-4575-сонли Қарор " Стратерия вазифаларини амалга ошириш чора-тадбирлари". Ушбу ҳужжатда: инновацион агротехнологиялар; тупроқ унумдорлигини ошириш; аграр илм-фан ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий этиш вазифалари белгилланган. 5. Пахтачилик соҳасида бозор тамойилларини жорий қилиш бўйича қарорлар. Ушбу қарорларда: пахта ҳосилдорлигини ошириш; ресурс тежамкор технологияларни жорий қилиш; инновацион техникалардан фойдаланиш вазифалари белгиланган. 6. 2030 йилгача Экологияни муҳофаза қилиш концепциясида: ер ресурсларини муҳофаза қилиш; тупроқ деградациясини камайтириш; органик технологияларни ривожлантириш каби вазифалар белгиланган. Ўзбекистон Республикасининг " Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида"ги Қонунида: сувни муҳофаза қилиш; сувдан оқилона фойдаланиш; сув тежовчи технологияларни жорий қилишлар асосий вазифаларга киради.

Давлат раҳбариятининг қарорлари ва меъёрий ҳужжатлари нинг таҳлили шуни кўрсатадики:

1. Сув ресурсларини тежаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган.

2. Тупроқ унумдорлигини сақлаш устивор вазифа ҳисобланади .

3. Органик ўғитлардан самарали фойдаланиш қўллаб-қувватланмоқда.

4. Инновацион қишлоқ хўжалиги техникаларини яратиш ва жорий қилиш давлат сиёсатига мос келади.

5. Қатқалоқнинг олдини олишга қаратилган локал сув сепиш ва органик гўнг сепиш технологияси юқоридаги барча стратерик ҳужжатлар талабларига мувофиқ келади.

Айниқса оғир механик таркибли бўз тупроқларда қатқалоқ ҳосил бўлиши пахта майсаларининг 20-50% гача кам чиқишига сабаб бўлиши мумкин.

Қатқалоқ ҳосил бўлиш назариясининг ривожланиши.

Қатқалоқ ҳосил бўлиш жараёни тупроқ физикаси соҳасида узоқ йиллардан бери ўрганиб келинмоқда.

Н.М.Орлов, David Hillel ва Rattan Lal ишларида тупроқ структурасининг бузилиши ва юза қатламининг зичланиши қатқалоқ шаклланишининг асосий сабаби сифатида кўрсатилган.

Олимларнинг фикрига кўра, қатқалоқ ҳосил бўлиши тупроқ заррачаларининг қайта жойлашиши ва цементланиши натижасида содир бўлади.

Қатқалоқ ҳосил бўлиш механизми

Қатқалоқ ҳосил бўлиш жараёни шартли равишда тўрт босқичдан иборат.

1-босқич. Тупроқ агрегатларнинг парчаланиши.

Суғориш ёки ёмғир таъсирида тупроқ агрегатлари емирилади. Натижада:

-лой заррачалари ажралиб чиқадт;

-тупроқ ғоваклари қисман ёпилади;

-структура бузилади.

2- босқич. Заррачаларнинг кўчиши

Сув таъсирида майда заррачалар пастки қатламларга ҳаракат қилади.

Бу жараён:

-колматация;

-ғовакларнинг тўлиб қолиши каби ҳодисаларни келтириб чиқаради.

3-босқич. Буғланиш жараёни

Сувнинг буғланиши натижасида тупроқ юзасидаги заррачалар бир-бирига яқинлашади.

Бу босқичда капилляр кучлар таъсири ортиб боради.

4-босқич. Қатқалоқ шаклланиши

Буғланиш тугагач тупроқ юзасига қаттиқ қатлам ҳосил бўлади.

Ушбу қатламнинг қалинлиги одатда: 0,5-2,5 см оралиғида бўлади.

Қатқалоқ ҳосил бўлишига таъсир қилувчи омиллар

Тупроқнинг механик таркиби

жадвал-1

Тупроқ тури	Қатқалоқ ҳосил бўлиши
Қумлоқ	Паст
Қумоқ	Ўртача
Ўрта бўз	Юқори
Оғир бўз	Жуда юқори

Лой фракцияси ортиши билан қатқалоқ ҳосил бўлиши кучаяди.

Намлик

Қатқалоқ мустаҳкамлиги намликка тескари пропорционал боғланган.

A 6,0

k 0,6

$y=Ae^{-kt}=6e^{-0,6t}$

Бу ерда:

-қатқалоқ мустаҳкамлиги;

W- намлик:

k-эмпирик коэффициент.

Органик моддалар миқдори

Органик моддалар:

-структура ҳосил қилади;

-ғовакликни оширади;

-сувни ушлаб туради.

Гумус миқдори ортиши билан қатқалоқ ҳосил бўлиши камаяди.

Қатқалоқнинг пахта уруғига таъсири

Қатқалоқнинг асосий зарари майсаларнинг ер юзасига чиқишига қаршилик кўрсатишидир.

Тажрибалар натижасида қуйидаги қонуният кузатилган

жадвал-2

Қатқалоқ қалинлиги (см)	Униб чиқиш (%)
0,5	95
1,0	80
1,5	60
2,0	40
2,5	25

Қатқалоқнинг олдини олиш усуллари

Механик усуллар

-бороналаш;

-юмшатиш;

-қатқалоқ синдиргичлар.

Камчилиги-қўшимча энергия талаб қилади.

Агротехник усуллар

-пушта экиш;

- оптимал суғориш;

-қатор оралиғини юмшитиш.

Органик мульчалаш

Гўнг, компост ва органик қолдиқлардан фойдаланиш орқали:

-буғланиш камаяди;

-тупроқ структураси сақланади;

-қатқалоқ ҳосил бўлиши пасаяди.

Локал сув бериш

Уруғ атрофида оптимал намлик сақланиши туфайли қатқалоқнинг мустаҳкамлиги камаяди.

Қатқалоқ ҳосил бўлишининг физик назарияси.

Бу назарияга кўра қатқалоқ тупроқ агрегатларининг парчаланиши натижасида ғосил бўлади.

Жараён қуйидагича вужудга келади:

1. Сув томчилари тупроққа урилади.

2. Агрегатлар емирилади.

3. Майда лой заррачалари ажралади.

Қатқалоқ ҳосил бўлишнинг биринчи шарти:

$$E_к=m^2/2$$

Бу ерда:

E_k-сув томчисининг кинетик энергияси;

m-сув томчисининг массаси;

-сувнинг тушиш тезлиги.

Томчи энергияси ошиши билан туроқ структураси тезроқ бузилади.

Капилляр назарияси.

Бу назарияга кўра қатқалоқ сув буғланиши натижасида пайдо бўлади.

Тупроқдаги сув молекулалари юқорига ҳаракат қилиб буғланади. Бу вақтда капилляр босим пайдо бўлади:

P=

Бу ерда

P-капилляр босим;

сувнинг сирт таранглиги;

r-капилляр радиуси.

Капилляр босим заррачаларни бир-бирига тортиб, қатқалоқ ҳосил қилади.

Коллоид-кимёвий назарияси.

Тупроқ таркибидаги лой минераллари ва коллид заррачалар муҳим аҳамиятга эга.

Айниқса: -монтмориллонит; гидрослюда; каолинит.

Лой заррачалари қуриш вақтида бир-бири билан боғланиб цементланади. Натижада юзада қаттиқ қатлам пайдо бўлади. Бу назария оғир бўз тупроқларда қатқалоқнинг кучли ҳосил бўлишини яхши тушинтиради.

Тупроқ механикаси назарияси.

Н.М.Орлов ишларига кўра қатқалоқ тупроқнинг юза қатламидаги зичланиш жараёни ҳисобланади. Қатқалоқнинг мустаҳкамлиги қуйидагиларга боғлиқ: ҳажмий массага; намликка; ғовакликка; механик таркибга.

Мустаҳкамлик:

f(,W,n)

Бу ерда:

ажмий масса;

W-намлик;

n-ғоваклик.

Гидрологик назарияси

Бу назария қатқалоқни сув ҳаракати билан боғлайди. Сув тупроққа сингганда:

Майда заррачаларни пастга олиб кетади;

Ғовакларни тўлдиради;

Фильтрация коэффициентини пасайтиради.

Натижада юза қатлами зичлашади.

Энергетик назарияси

Қатқалоқ ҳосил бўлиши энергия алмашинув жараёни ҳисобланади.

Сув томчиларининг энергияси:

Тупроқ структурасини бузишга;

Заррачаларни кўчиришга;

Зичлашга сарфланади.

Қатқалоқ қанчалик мустаҳкам бўлса, уни синдириш учун шунча кўп энергия талаб қилинади.

Агрофизик назарияси

Бу назарияга кўра қатқалоқ:

Тупроқ намлиги;

Гумус миқдори;

Структура коэффициенти билан боғлиқ. Гумус кўпайиши билан:

-агрегатлар мустаҳкамлиги ортади;

-қатқалоқ камаяди.

Шу сабабли органик гўнг қатқалоққа қарши энг самарали воситалардан бири ҳисобланади.

Қатқалоқ ҳосил бўлишнинг умумий назарий модели

Қатқалоқ мустаҳкамлигига таъсир қилувчи асосий омиллар:

f(M,W,R,O,T)

Бу ерда:

M-механик таркиб;

W-намлик;

R-ёмғир ёки сув таъсири;

O-органик моддалар;

T-ҳорарат.

Амалий кўринишда:

a+bM-cO-dW+eT

Муаллифнинг илмий гипотезаси

Таҳлиллар асосида қуйидаги гипотеза илгари сурилади:

Пушта устига пахта экиш жараёнида локал сув бериш ва унинг ортидан органик гшнг ёки қум-гўнг аралашмасини сепиш натижасида тупроқ юзасидаги капилляр боғланишлар сусаяди, структура барқарорлиги ортади ва қатқалоқ ҳосил бўлиши сезиларли даражада камаяди.

Хулоса

1. Қатқалоқ тупроқ структурасининг бузилиши натижасида ҳосил бўлади.

2. Қатқалоқ ҳосил бўлишига тупроқ таркиби, намлик, буғланиш ва органик моддалар таъсир кўрсатади.

3.Қатқалоқ пахта кўчат (майса)ларининг чиқишини 20-70% гача камайтириши мумкин.

4. Органик гўнг ва локал сув бериш қатқалоқ мустаҳкамлигини камайтирувчи муҳим омиллар ҳисобланади.

5. Пушта ҳосил қилиш, уруғ экиш, локал сув бериш ва органик гўнг сепишни бирлаштирган комплекс агрегат қатқалоқнинг олдини олишнинг истиқболли йўналиши ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. В.П.Горячкин. Теория сельскохозяйственнқх машин.

2. Н.М.Орлов. Механика почв.

3. David Hillel/ introduction to Soil Physics.

4. Rattan Lal. Soil Degradation and Restoration.

5. FAO. Soil Management Guidelines/

6. USDA. Soil Quality Assessment Manual.

© Шодиев Садир Нематович, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Шодиев Садир Нематович

“Konchilik korxonalari shamollatish qurilmalarining energiya sarfini real vaqtda bashorat qiluvchi va ventilyatorlar aylanish tezligini avtomatik moslovchi sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv modeli”

Zoxidov Odil Umirzokovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti

Ergashev Yoqubjon Hamro o'g'li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi va
Navoiy innovatsiyalar universiteti o’qituvchisi
Umarova Shahina Shuhrat qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada konchilik korxonalarida qo‘llaniladigan shamollatish qurilmalarining energiya samaradorligini oshirish muammosi ko‘rib chiqilgan. Ma’lumki, konchilik sanoatida shamollatish tizimlari umumiy energiya iste’molining 30-50% gacha qismini tashkil etadi. An’anaviy boshqaruv usullari (doimiy to‘liq quvvat rejimi, vaqt-releli boshqaruv, qo‘lda boshqaruv) kon ichidagi havo sifati, gaz kontsentratsiyasi va ishchilar sonining real vaqtda o‘zgarishiga moslasha olmaganligi sababli energiya va resurslarning haddan tashqari sarflanishiga olib keladi.Muammoning yechimi sifatida maqolada sun’iy intellektga asoslangan adaptiv boshqaruv modeli taklif etilgan. Taklif etilayotgan model LSTM (Long Short-Term Memory) turidagi chuqur neyron tarmog‘iga asoslangan bo‘lib, quyidagi parametrlarni real vaqtda qayta ishlaydi: metan (CH_4) va uglerod oksidi (CO) kontsentratsiyasi, harorat, nisbiy namlik, ishchilar soni (harakat sensorlari orqali), hamda ventilyatorlarning joriy aylanish tezligi. Ushbu kirish ma’lumotlari asosida model kelgusi 5-30 daqiqa oralig‘idagi energiya sarfini bashorat qiladi va bashorat natijasiga ko‘ra ventilyatorlar aylanish tezligini avtomatik ravishda moslaydi.

Kalit so‘zlar: *konchilik, shamollatish, energiya tejamkorligi, LSTM, sun’iy intellekt, adaptiv boshqaruv.*

Har qanday konchilik korxonasida xavfsizlik va samaradorlikning asosiy shartlaridan biri – bu toza havo bilan ta’minlashdir. Kon ostida ishlaydigan odamlar kislorodga muhtoj, shuningdek, yer ostidan chiqadigan metan, karbonat angidrid va boshqa zaharli gazlar doimo nazorat ostida bo‘lishi kerak. Shu sababli, shamollatish tizimlari har bir konning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ammo bu tizimlarning bir katta kamchiligi bor – ular juda ko‘p elektr energiyasini iste’mol qiladi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, konlarda ishlatiladigan energiyaning deyarli yarmi aynan

shamollatish qurilmalariga sarflanadi.Hozirgi kunda ko‘plab konlarda shamollatish tizimlari oddiy va qo‘pol usulda boshqariladi. Ko‘pincha ventilyatorlar butun kun davomida bir xil kuchda ishlaydi – xoh kon ichida odam bo‘lsin, xoh bo‘lmasin. Ba’zi konlarda esa ventilyatorlar faqat smena vaqtiga qarab yoqiladi yoki o‘chiriladi. Yana bir usul bor – gaz kontsentratsiyasi xavfli darajaga yetganda ventilyatorlar avtomatik ravishda to‘liq quvvatga o‘tadi. Har uchala usulning ham o‘ziga xos muammolari bor.

Birinchi usul (doimiy ishlash) xavfsizlik nuqtai nazaridan yaxshi, lekin energiya bekorga sarflanadi. Ayniqsa, tunda yoki dam olish kunlarida kon ichida hech kim bo‘lmasa ham ventilyatorlar to‘liq quvvatda aylanib turadi.

Ikkinchi usul (vaqt bo‘yicha boshqarish) biroz tejamkor, ammo kon ichidagi havo sifati vaqtga qarab emas, balki real holatga qarab o‘zgaradi. Masalan, smena tugashiga bir soat qolganida gaz kontsentratsiyasi ko‘tarilishi mumkin, ammo vaqtli tizim buni hisobga olmaydi.

Uchinchi usul (sensorli boshqaruv) esa faqat “biror narsa noto‘g‘ri bo‘lganda” reaksiya bildiradi, ya’ni oldindan hech narsani bashorat qila olmaydi. Natijada, nosozlik yoki gaz to‘planishi sodir bo‘lgandan keyingina chora ko‘riladi.

Yaqin yillarda sun’iy intellekt sohasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan, vaqt bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish va kelajakni bashorat qilishga ixtisoslashgan LSTM (Long Short-Term Memory) nomli neyron tarmoqlari juda yaxshi natijalar ko‘rsatmoqda. Bunday tarmoqlar o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarni “eslab qoladi” va ular asosida keyingi bir necha daqiqada nima bo‘lishini taxmin qila oladi. Agar bu texnologiyani kon shamollatish tizimlariga qo‘llasak, ventilyatorlar qancha energiya sarflashini oldindan bilish va shunga mos ravishda ularning tezligini sozlash mumkin bo‘ladi. Biz konchilik korxonalaridagi shamollatish qurilmalarining energiya sarfini real vaqtda bashorat qiladigan va ventilyatorlarning aylanish tezligini avtomatik ravishda moslab turadigan sun’iy intellekt modelini taklif qilmoqchimiz. Model kon ichidagi havo sifati, gazlar kontsentratsiyasi, harorat, namlik va ishchilar soni kabi oddiy parametrlardan foydalanadi. Shu ma’lumotlar asosida u kelgusi 5-30 daqiqada energiya sarfi qanday bo‘lishini taxmin qiladi va shunga qarab ventilyatorlarni tezroq yoki sekinroq aylantiradi. Tabiiyki, xavfsizlik birinchi o‘rinda – agar metan gazi miqdori xavfli darajaga yetsa, model barcha bashoratlarni bekor qilib, ventilyatorlarni to‘liq quvvatga o‘tkazadi.

Taklif qilinayotgan tizim oddiy qilib aytganda – “aqlli ventilyator boshqaruvi”. Ya’ni, ventilyatorlar endi bir xil kuchda doim aylanib qolmaydi yoki vaqtga qarab ishlamaydi. Ular kon ichida nima bo‘layotganiga qarab o‘z kuchini o‘zi moslab turadi. Buning uchun tizim bir nechta sensorlardan ma’lumot oladi va sun’iy intellekt yordamida qaror qabul qiladi.

Tizim to‘rtta asosiy qismdan iborat:

Birinchi qism – sensorlar. Konning turli joylariga gaz analizatorlari, harorat va namlik oʻlchagichlar, shuningdek, odam bor-yoʻqligini aniqlaydigan sensorlar oʻrnatiladi. Ular doimiy ravishda maʼlumot toʻplaydi.

Ikkinchi qism – maʼlumot yigʻuvchi blok. Sensorlardan kelayotgan maʼlumotlar bir joyga toʻplanadi va kompyuter tushunadigan shaklga keltiriladi. Masalan, har xil oʻlchov birliklaridagi maʼlumotlar bir xil koʻrinishga oʻtkaziladi.

Uchinchi qism – sunʼiy intellekt modeli (LSTM). Bu modelning “miyasi” hisoblanadi. U oʻtmishda boʻlgan voqealarni tahlil qilib, keyingi bir necha daqiqada energiya sarfi qanday oʻzgarishini bashorat qiladi.

Toʻrtinchi qism – qaror qabul qilish bloki. Bashorat natijasiga qarab, bu blok ventilyatorlarning tezligini qanchaga oshirish yoki kamaytirishni hal qiladi va ventilyatorlarga buyruq yuboradi.

Model quyidagi oltita asosiy parametrni kuzatib boradi:

Parametr	**Nima uchun muhim?**
Metan gazi (CH_4) miqdori	Eng xavfli gaz – portlashi mumkin. Agar koʻpaysa, ventilyator tezligini oshirish kerak.
Uglerod oksidi (CO) miqdori	Zaharli gaz. Odamlar uchun xavfli.
Kon ichidagi harorat	Harorat koʻtarilsa, havo almashinuvi yaxshilanishi kerak.
Havoning namligi	Namlik yuqori boʻlsa, ishchilarga ogʻir boʻladi va ayrim jihozlar zanglaydi.
Ishchilar soni	Qancha koʻp odam boʻlsa, shuncha koʻp kislorod kerak va shuncha koʻp karbonat angidrid chiqadi.
Ventilyatorning hozirgi tezligi	Hozir qanday ishlayotganini bilish kerak, chunki keyingi qadam shunga bogʻliq.

Model shu olti parametrga qarab, **kelgusi 5-30 daqiqada energiya sarfi qancha boʻlishini** bashorat qiladi. Soʻngra shu bashorat asosida ventilyator tezligini oʻzgartirish haqida qaror chiqaradi.

Vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan ma’lumotlarni tahlil qilish uchengina LSTM nomli neyron tarmoq juda qulay. Oddiy neyron tarmoqlar vaqt o‘tishi bilan avvalgi ma’lumotlarni “unutib qo‘yadi”. LSTM esa maxsus “eslab qolish” mexanizmiga ega. Masalan, agar bir soat oldin metan gazi ko‘tarila boshlagan bo‘lsa, LSTM buni eslab qoladi va keyingi bashoratlarida shuni hisobga oladi.LSTMning yana bir yaxshi xususiyati – u uzoq muddatli va qisqa muddatli bog‘liqliklarni farqlay oladi. Masalan, har kuni ertalab smena boshlanganda ishchilar soni ko‘payadi – bu uzoq muddatli takrorlanuvchi holat. Ammo biror kuni gaz quvuridan metan chiqib ketsa – bu qisqa muddatli favqulodda holat. LSTM ikkalasini ham tushunadi.

Modelning ishlash bosqichlari

1-bosqich – Ma’lumot yig‘ish. Sensorlar har 5 soniyada bir marta ko‘rsatkichlarni markaziy kompyuterga yuboradi. Bu juda tez-tez degani, shuning uchun tizim kon ichidagi eng kichik o‘zgarishlarni ham o‘tkazib yubormaydi.

2-bosqich – Ma’lumotlarni tartibga keltirish. Sensorlar har xil birliklarda ma’lumot beradi. Masalan, metan ppm (milliondan bir qism), harorat esa gradusda. Kompyuter bu ma’lumotlarni bir xil shkalaga keltiradi, aks holda model chalkashib ketadi.

3-bosqich – Bashorat qilish. LSTM modeli so‘nggi 30 ta vaqt oralig‘idagi ma’lumotlarni tahlil qiladi va kelgusi 10 daqiqada energiya sarfi qanday bo‘lishini hisoblab chiqadi.

4-bosqich – Qaror qabul qilish. Bashorat qilingan energiya sarfi normal qiymatdan 10% yuqori bo‘lsa, bu “haddan tashqari ko‘p energiya ketayapti, ventilyator tezligini pasaytirish kerak” degan signaldir. Agar normal bo‘lsa, hech narsa o‘zgarmaydi. Agar juda past bo‘lsa, ventilyatorni tezlatish kerak (chunki havo yetishmayotgan bo‘lishi mumkin).

5-bosqich – Xavfsizlik nazorati. Bu eng muhim qism. Agar metan gazi miqdori 1% dan oshib ketsa, modelning barcha bashoratlari bekor qilinadi va ventilyatorlar darhol to‘liq quvvatga o‘tkaziladi. Chunki xavfsizlik energiya tejashdan muhimroq.

6-bosqich – O‘rganish. Model har 10 daqiqada yangi ma’lumotlar bilan qayta o‘rgatiladi. Ya’ni, u doimiy ravishda o‘rganib, yaxshilanib boradi. Qaysi qarorlari to‘g‘ri chiqqan bo‘lsa, ularni eslab qoladi, noto‘g‘ri chiqqanlarini esa takrorlamaydi.

Modelni kompyuterda sinovdan o‘tkazganimizda (ya’ni, real kon ma’lumotlari bilan “virtual” sinash) quyidagi natijalarni oldik:

Energiya tejalishi: An'anaviy usulga nisbatan energiya sarfi taxminan 20% ga kamaydi. Ya'ni, agar kon shamollatishga oyiga 100 million so'm sarflasa, 20 million so'm tejab qoladi.

Ventilyatorlarning ishlash vaqti: Ventilyatorlar endi doim to'liq quvvatda aylanmagani uchun ularning dvigatellari kamroq qiziydi va kamroq eskiradi. Natijada, ularning ishlash muddati taxminan 15% ga uzayadi.

Xavfsizlik: Metan gazi xavfli darajaga yetgan holatlar an'anaviy tizimga qaraganda deyarli ikki barobar kam kuzatildi. Chunki model gaz ko'tarilishini oldindan sezib, chora ko'radi.

Texnik xizmat: Ventilyatorlar kamroq ishlagani va kamroq buzilgani uchun ularni ta'mirlash va texnik ko'rikdan o'tkazish oyiga ikki marta emas, bir marta yetarli bo'ladi. Bu ham pul va vaqt tejalishi degani.

Albatta, bu tizimni bir kunda o'rnatib bo'lmaydi. Ammo qiyinchiliklar unchalik katta emas:

Sensorlar – aksariyat konlarda gaz, harorat sensorlari allaqachon mavjud. Faqat ishchilar sonini hisoblaydigan sensor qo'shish kerak (bu oddiy harakat detektori yoki kon qopqonlaridagi o'tish hisoblagichi bo'lishi mumkin).

Kompyuter – oddiy ofis kompyuteri ham yetarli. Kuchli superkompyuter kerak emas.

Dasturiy ta'minot – LSTM modelini yozish uchun Python dasturlash tili va TensorFlow yoki PyTorch kutubxonalari ishlatiladi. Bu bepul va ochiq manbali dasturlar.

Ventilyatorlarni ulash – ventilyatorlarning tezligini dastur orqali boshqarish imkoniyati bo'lishi kerak (ya'ni, chastota o'zgartirgich – frequency converter). Agar konlarda bunday qurilma bo'lmasa, o'rnatish kerak. Bu eng katta xarajat bo'lishi mumkin, lekin bir martalik xarajat bo'lib, keyin energiya tejalishi hisobiga tezda qoplanadi.

Xulosa: Biz taklif qilayotgan model – bu konlardagi ventilyatorlarni aqlli boshqarish tizimi. U oddiy sensorlardan ma'lumot oladi, LSTM neyron tarmog'i yordamida kelgusi energiya sarfini bashorat qiladi va shunga qarab ventilyator tezligini avtomatik moslab turadi. Modelning asosiy afzalliklari:

- Energiyani tejaydi (taxminan 20%);
- Ventilyatorlarning ishlash muddatini uzaytiradi;
- Xavfsizlikni yaxshilaydi (gaz ko'tarilishini oldindan sezadi);
- Konchilarning ish sharoitini yaxshilaydi.

Albatta, tizimni oʻrnatish uchun dastlabki xarajatlar kerak (chastota oʻzgartirgichlar, qoʻshimcha sensorlar). Lekin tejalgan energiya hisobiga bu xarajatlar odatda 6-12 oy ichida qoplanadi. Keyingi yillarda esa sof foyda keltiradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Smith, J., & Johnson, M. (2021). Mine ventilation energy consumption: A comprehensive review. International Journal of Mining Science
2. Karimov, A. Sh. (2022). Konchilik korxonalarida energiya samaradorligini oshirish yoʻnalishlari. Konchilik xabarnomasi
3. Wang, L., Zhang, Y., & Li, X. (2020). LSTM-based prediction model for industrial fan energy consumption. IEEE Transactions on Industrial Informatics
4. Toshpoʻlatov, B. R. (2023). Kon ostida shamollatish tizimlarini avtomatlashtirish muammolari. Texnika fanlari jurnali
5. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. (1997). Long short-term memory. Neural Computation
6. Kim, D., & Lee, S. (2022). Deep learning for time series prediction in industrial applications. Journal of Industrial AI
7. Rahimov, U. T. (2021). Konchilik korxonalarida raqamli texnologiyalarni qoʻllash istiqbollari. Innovatsion texnologiyalar
8. Brown, R., & Wilson, T. (2019). Adaptive control systems for underground mine ventilation. Mining Engineering

© Zoxidov Odil Umirzokovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Zoxidov Odil Umirzokovich, Ergashev Yoqubjon Hamro o'g'li, Umarova Shahina Shuhrat qizi

УДК: 616.441-008.61+616.45+616-08-035

МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПАРЕНХИМАТОЗНЫХ СТРУКТУР СЕЛЕЗЕНКИ КРЫС

Ильясов Азиз Саидмуратович – д.б.н., профессор Навоийский Инновационный Университет (Навои, Узбекистан) https://orcid.org/0009-0008-2332-7862

Раджабов Ахтам Болтаевич - доктор биологических наук, заведующий кафедрой анатомии и клинической анатомии Бухарского государственного медицинского института, г. Бухара, Республика Узбекистан; radjabov.axtam@bsmi.uz; https://orcid.org/0000-0003-2945-8560

Бозоров Илхомжон Холмуродович соискатель Бухарского государственного медицинского института, врач – реаниматолог. г. Бухара, Республика Узбекистан.

Аннотация В эксперименте на 42 белых беспородных крысах трех возрастных периодов: 3, 6, и 12-месячного с применением гистологических и морфометрических методов с последующим статистическим анализом установлено, что в различных возрастных периодах происходят сваи особенности морфологических перестроек селезенки животных. Белая пульпа селезенки животных в различные периоды постнатального онтогенеза представлена хорошо выраженными лимфатическими узелками и периартериальными лимфатическими влагалищами, у животных репродуктивного периода среди лимфатических узелков преобладают узелки с герминативными центрами, у крыс периода выраженных старческих изменений превалируют инволютивные изменения. Морфометрический анализ селезенки у потомства крыс всех групп позволил выявить гипотрофические процессы в белой пульпе селезенки. Значительные изменения структуры белой пульпы селезенки крыс периода выраженных старческих изменений протекают на фоне инволютивных процессов.

Ключевые слова: крысы, селезенка, белая и красная пульпа, гистология, морфометрия, лимфоидный коэффициент, фолликулярный коэффициент.

Введение. Иммунная система человека и животных является одной из наиболее чувствительных систем организма, которая быстро реагирует на внешние воздействия. Несмотря на наличие многочисленных современных исследований, посвященных строению селезенки под влиянием внешних факторов [Лебединская Е.А. и др. 2011., Макалиш Т.П. 2013., Драндрова Е.Г., и др. 2015],

вопросы морфофункциональных изменений лимфоидных образований селезенки в возрастном аспекте остаются недостаточно изученными.

К клеткам ретикулярной зоны лимфоидных узелков селезёнки относятся интердигитальные и фолликулярные дендритные клетки. Дендритные клетки миелоидного происхождения *(интерстициальные ДК)* располагаются преимущественно в маргинальной зоне белой пульпы, коже и слизистых оболочках в незрелом виде. Последние располагаются в центрах размножения лимфоидных узелков и участвуют в дифференцировке В-лимфоцитов. Интердигитальные дендритные клетки находятся в периартериолярных лимфоидных влагалищах и участвуют в дифференцировке Т-лимфоцитов [Стручко Г.Ю., и др. 2014].

Дендритные клетки в случае антигенной стимуляции они становятся зрелыми и мигрируют в Т-зависимые зоны белой пульпы, становясь интердигитальными дендритными клетками [Буклис Ю.В. 2010]. Здесь они активируют "наивные" Т-хелперы и вместе с ними стимулируют цитотоксические CD8+Т-лимфоциты и В-клетки. Кроме того, присутствие дендритных клеток необходимо для перехода плазмобластов в плазматические клетки, поэтому они способны влиять на синтез антител В-лимфоцитами.

Дендритные клетки играют важную роль в обеспечении противоопухолевого иммунитета как напрямую путем поглощения опухолевых клеток и процессинга их антигенов Т-лимфоцитам, так и опосредованно путем индукции цитотоксических лимфоцитов [Драндрова Е.Г., и др. 2013].

По мнению ученых, важнейшую роль в обеспечении адекватного иммунного ответа на различные антигены играет селезенка, так как именно в ней происходят окончательная антигензависимая дифференцировка В и Т-лимфоцитов, превращение В-лимфоцитов в плазмоциты и накопление клеток-памяти.

Поэтому углубленное изучение селезенки потомства крыс представляется нам весьма актуальным.

Цель исследования: изучить особенности морфофункционального строения селезенки белых беспородных крыс в различные периоды постнатального онтогенеза.

Материал и методы исследования. Материалом для исследования послужили 42 белых беспородных крыс трех возрастных периодов: 3, 6, и 12-месячного которые содержались в стандартных условиях вивария. После вскрытия брюшного полости крыс фрагменты селезенки фиксировали в жидкости Буэна, парафиновые срезы толщиной 4–6 мкм окрашивали гематоксилин-эозином.

Гистологическое и морфометрическое исследования проводили с помощью анализатора изображений, состоящего из микроскопа Olympus CX-41 с цифровой камерой Olympus SP 500UZ и персонального компьютера. При этом на фронтальных срезах селезенки, произведенных на уровне ее ворот, определяли относительную площадь белой и красной пульпы. (в %), диаметры лимфатических узелков *(в мкм),* герминативных центров *(в мкм),* ширину мантийной, краевой и периартериальной зон лимфатических узелков *(в мкм).* Окраска гематоксилином и эозином для оценки общегистологической картины и *Оценка морфологических индексов* – для характеристики. Морфофункционального состояния структур селезенки изучено по В.П. Волкову; (2015).

Стромально-паренхиматозное отношение (СПО) – характеризует отношение стромы и функционально иммуноактивного компартмента паренхимы селезёнки. Рассчитывается по формуле: **$СПО=(S_{СТ}/S_{БП})\times 10$**, где $S_{СТ}$ – площадь стромы, $S_{БП}$ – площадь белой пульпы, 10 - произвольный коэффициент, необходимый для получения удобных конечных не слишком больших цифровых величин.

Фолликулярный коэффициент (ФК) – показывает общий объем функционирующих лимфоидных структур селезенки: $ФК=(S_{БП}\times D_{ЛУ})/200$, где $D_{ЛУ}$ – диаметр лимфоидных узелков, 200 – произвольный коэффициент.

Герминативно-фолликулярный индекс (ГФИ) – показывает степень развития герминативных центров и выраженность гуморального иммунного ответа: $ГФИ=(D_{ГЦ}/D_{ЛУ})\times 100$, где $D_{ГЦ}$ – диаметр герминативных центров.

Лимфоидный коэффициент (ЛК) – для оценки соотношения В- и Т- зависимых зон: $ЛК=D_{ЛУ}/L_{ПАЛМ}$, где $L_{ПАЛМ}$ – ширина периартериальных лимфоидных муфт.

Все данные обрабатывались статистически с помощью лицензионного пакета программ MS Office 2007. Полученные цифровые данные выражали в виде средней арифметической со средней ошибкой M±m. Достоверность результатов оценивали по t-критерию Стьюдента.

Результаты и их обсуждение. Изучение гистологических препаратов селезенки крыс контрольных групп позволило установить определенные взаимоотношения ее структурно-функциональных зон.

Селезенка животных имеет хорошо выраженную соединительнотканную капсулу и трабекулы, содержащие кровеносные сосуды. Паренхима органа представлена красной и белой пульпой. В состав красной пульпы входят синусоидные капилляры и селезеночные тяжи. Белая пульпа состоит из

многочисленных лимфатических узелков и периартериальных лимфатических влагалищ.

Морфометрические показатели белой пульпы селезенки животных контрольных групп соответствующих возрастных периодов представлены в таблице 1.

Таблица 1

Динамика массы тела и селезенки крыс

в постнатальном периоде развития

(M±m)

возраст **параметри**	**3 месяцев** **(n=15)**	**6 месяцев** **(n=13)**	**12 месяцев** **(n=14)**
масса крыс, г	180,0 - 210,0 195,3±16,5	215,0 - 255,0* 230,2±19,0	250,3 - 290,0* 261,5±22,0
масса селезенки, мг	690,2 – 782,6	810,5 – 890,6	920,7-998,0
относительная масса селезенки, мг/г	3,7±0,12	2,8±0,13	2,7±0,14

*Примечание: * – p <0,05.*

В селезенке крыс контрольной группы хорошо визуализируются структуры белой пульпы *(лимфоидные узелки, периартериолярные лимфоидные муфты, маргинальная зона)* и красная пульпа. В периартериолярных лимфоидных влагалищах обнаруживаются Т-лимфоциты *(Т-зона).*

Лимфоидные узелки, занятые В-лимфоцитами, находящимися на разных этапах дифференцировки *(В-зона),* чаще имеют правильную овальную или округлую форму, их число с увеличением возраста крысят несколько уменьшается. Центры размножения *(герминативные центры),* образованные интенсивно пролиферирующими крупными В-лимфоцитами, выявляются лишь во вторичных лимфоидных узелках на протяжении всего периода наблюдения.

В этой зоне располагаются Т- и В-лимфоциты, макрофаги, ретикулярные клетки, моноциты и эозинофилы. Здесь происходит кооперация и взаимодействие этих клеток, активация В-лимфоцитов и их дифференцировка в плазмоциты.

Морфометрические показатели белой и красной пульпы селезенки крыс показано в таблице 2.

Таблица 2.

Морфометрические показатели

белой и красной пульпы селезенки крыс (в %)

(M±m)

возраст **показатели**	**3 месяцев**	**6 месяцев**	**12 месяцев**
площадь белой пульпы ***(*** $S_{БП}$ ***)***	39,0-44,0	48,0-55,0*	50,0-56,0
площадь красной пульпы *(* $S_{КП}$ *)*	52,0-58,0	54,0-58,0	60,0-67,0
площадь стромы ($S_{СТ}$)	6,0-8,0	7,0-8,0	8,0-10,0
Стромально-паренхиматозное отношение *(СПО)*	82,5-152,5	83,8-136,0	96,2-110,0
коэффициент отношение белой пульпы с красной	*1: 1,33(±0,38)*	*1:1,12(±0,42) **	*1:1,25 (±0,41)*

Примечание. Статистическая значимость различий: * – p <0,05.

Показано, что именно маргинальная зона участвует в иммунном ответе, являясь местом захвата инородных включений и иммунных комплексов из крови. Уточнено, что число В-лимфоцитов в этой зоне в 2–3 раза больше, чем в лимфоидных узелках.

В литературе имеются данные о том, что способность захватывать антигены напрямую зависит от присутствия в маргинальной зоне В-клеток [Капитонова М.Ю. 2011]. Увеличение ширины маргинальной зоны возможно как за счет Т- так и за счет В-лимфоцитов.

Также имеются сведения об усилении миграции незрелых лимфоцитов тимуса в селезенку при развитии опухоли [Драндрова Е.Г., и др 2015., Капитонова М.Ю. 2011], по данним авторов количество клеток белой пульпы селезенки, экспрессирующих CD79α *(В- лимфоцитов),* у 3-месячных крыс опытной группы сокращается на 27,0%, у 12-месячных на 35,0%, что может привести к уменьшению антителообразования и снижению интенсивности гуморального иммунного ответа.

У крыс периода выраженных старческих изменений контрольной группы селезенка визуально сохраняет типичную структуру, однако появляются морфологические признаки, которые можно отнести к разряду инволютивных. Так, наблюдается значительное уменьшение относительной площади белой пульпы по сравнению с данными животных предыдущих возрастных периодов.

Морфометрические показатели паренхиматозных структур селезенки крыс показано в таблица 3.

Центральные артерии лимфатических узелков имеют более толстые стенки, вероятно, за счет развития склеротических изменений. Соединительнотканные трабекулы хорошо выражены, их толщина увеличена, что соответствует возрастной норме.

Таблица 3.

Морфометрические показатели

паренхиматозных структур селезенки крыс

возраст показатели		**3 месяцев**	**6 месяцев**	**12 месяцев**
Площадь	лимфоидных узелков, 103	81,0-532,0	528,0-581,0	491,0-549,0
	герминативных	45,0-61,0	54,0-68,0	48,0-57,0

	центров, 103			
Диаметр	лимфоидных узелков (*Dлу*)	475,0-561,0	478,0-511,0	501,0-574,0
	герминативных центров (*Dгц*)	193,0-221,0	168,0-199,0	160,0-190,0
Ширина	периартериальных муфт (*Lпм*)	90,0-112,0	86,0-100,0	81,0-98,0
	маргинальных зон	95,0-116,0	89,0-106,0	83,0-101,0

Выявленные структурные изменения селезенки животных периода полового созревания свидетельствуют о гипоплазии белой пульпы, которую некоторые авторы связывают с учащением случаев апоптоза и уменьшением уровня пролиферации клеток в ответ на воздействие неблагоприятного фактора [Михайлова М.Н., и др. 2012].

Таким образом морфометрический анализ селезенки у крыс всех групп исследования позволил выявить гипотрофические процессы в белой пульпе селезенки. Наиболее выраженные изменения зафиксированы к 3 месяцам жизни крыс.

Белая пульпа селезенки у животных контрольных групп в различные периоды постнатального онтогенеза представлена хорошо выраженными лимфатическими узелками и периартериальными лимфатическими влагалищами, у животных репродуктивного периода среди лимфатических узелков преобладают узелки с герминативными центрами, у крыс периода выраженных старческих изменений протекают на фоне инволютивных процессов.

ВИВОДИ.

1. Морфометрический анализ селезенки у потомства крыс всех групп исследования позволил выявить значительно уменьшается общая доля белой пульпы, увеличивается доля стромального компонента к 3 месяцам жизни крыс.
2. Белая пульпа селезенки у животных в различные периоды постнатального онтогенеза представлена хорошо выраженными лимфатическими узелками и периартериальными лимфатическими влагалищами, у животных репродуктивного периода среди лимфатических узелков преобладают узелки с герминативными центрами, у крыс периода выраженных старческих изменений превалируют инволютивные изменения.
3. Значительные изменения структуры белой пульпы селезенки крыс периода выраженных старческих изменений протекают на фоне инволютивных процессов.

Список литературы

1. Драндрова Е.Г., Стручко Г.Ю., Меркулова Л.М. Иммуногистохимические исследования клеточного состава тимуса при канцерогенезе в условиях врожденного иммунодефицита. Современные проблемы науки и образования. 2015; 3.URL: http://www.science-education.ru/123- 19825.
2. Стручко Г.Ю., Меркулова Л. М., Кострова О.Ю. Морфофункциональные изменения селезенки и тимуса крысят, родившихся от спленэктомированных крыс-самок. Успехи современного естествознания. 2014; 9: 70–72.
3. Буклис Ю.В. Исследование иммунных структур селезенки в условиях хронического радиационного воздействия на организм // Морфология. — 2010. — Т. 137, № 4. — С. 42.
4. Капитонова М.Ю. Влияние гомо и гетеротопических стрессоров на иммуноморфологию лимфоидных органов // Морфология. — 2011. — Т. 140, № 5. — С. 90–91.
5. Макалиш Т.П. Морфофункциональные особенности селезенки при воздействии на организм факторов различного генеза // Таврический медико-биологический вестн. — 2013. — Т. 16, № 1. — С. 265–269.
6. Лебединская Е.А. Морфологические изменения лимфоидных и паренхиматозных органов мышей на фоне введения иммуномодуляторов бактериального происхождения // Морфология. — Т. 140, № 5. — 2011. — С. 97.

7. Драндрова Е.Г., Стручко Г.Ю., Михайлова М.Н. Влияние иммунодефицитной беременности на противоопухолевый иммунитет потомства // Успехи современного естествознания. 2013. № 9. С. 84–86.
8. Михайлова М.Н., Стручко Г.Ю., Меркулова Л.М., Кострова О.Ю., Рузавина О.М. Морфофункциональное состояние селезенки потомства спленэктомированных крыс-самок // Цитоморфометрия в медицине и биологии: фундаментальные и прикладные аспекты: материалы V Всерос. науч. практ. конф. М., 2012. С. 96–97.

© Ильясов Азиз Саидмуратович, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ильясов Азиз Саидмуратович

MAVZU: DINAMIK YUKLANISH OSTIDAGI ORTOTROPIK SILINDRIK QOBIQLARNING KUCHLANGANLIK -DEFORMATSIYALANGANLIK HOLATINI TAHLILI

Xalilov SH.F., Navoiy innovatsiyalari universiteti, PhD f-m,f.n,

Mirzaqobilova L.N., Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur tezisda ortotropik materiallardan tayyorlangan silindrik qobiqlarning dinamik yuklanish sharoitidagi mexanik xatti-harakati o'rganilgan. Qobiq nazariyasi asosida deformatsiya, kuchlanish va egilish momentlari aniqlanadi. Dinamik yuklanish natijasida hosil bo'ladigan inertsiya kuchlari hamda ularning qobiq mustahkamligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ortotropik qobiqlarni loyihalash, ularning ishonchliligini oshirish hamda tebranish jarayonlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *ortotropik material, silindrik qobiq, dinamik yuklanish, inertsiya kuchlari, tebranish, deformatsiya, kuchlanish.*

Kirish

Silindrik qobiqlar aviatsiya, energetika, mashinasozlik hamda kosmik texnika sohalarida keng qo'llaniladigan muhim konstruktiv element hisoblanadi. Amaliy sharoitda bunday konstruktsiyalar ko'pincha tebranish, impuls hamda akustik yuklanishlar kabi dinamik ta'sirlar ostida ishlaydi.

Ortotropik materiallardan tayyorlangan qobiqlarda elastik xossalar turli yo'nalishlarda farq qiladi. Shu sababli bunday konstruktsiyalarning deformatsiya va kuchlanish holatini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Nazariy qism

Ortotropik materiallarning elastik xossalari.

Ortotropik materiallarda elastiklik xossalari uchta asosiy yo'nalish bo'yicha farqlanadi: , , .

Har bir yo'nalish uchun elastiklik modullari va Puasson koeffitsientlari turlicha qiymatga ega. Ortotropik material uchun kuchlanish tenglamalari quyidagicha ifodalanadi:

bu yerda:

- *— elastiklik modullari*
- *— Puasson koeffitsientlari*
- *— siljish moduli*

Silindrik qobiqning geometrik modeli.

Silindrik qobiq quyidagi geometrik parametrlar bilan tavsiflanadi:

- *R — qobiq radiusi*
- *L — qobiq uzunligi*
- *h — qobiq qalinligi*

Qobiqning siljish funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

Deformatsiya tenglamalari:

bu yerda

- *u, v — siljish komponentlari.*
- *w — qobiqning radial siljishi.*

Dinamik muvozanat tenglamasi.

Silindrik qobiqning dinamik muvozanat tenglamasi quyidagicha yoziladi:

Egilish qattiqligi:

bu yerda:

- *— material zichligi*
- *— tashqi yuklama*

Hisob-kitoblar.

Qobiq deformatsiyasi.

Silindrik qobiqning tebranishdagi siljish funksiyasi:

bu yerda

- *— maksimal amplituda*
- *— uzunlik boʻyicha toʻlqin soni*
- *— aylana boʻyicha toʻlqin soni*

• *— burchak chastotasi*

Dinamik inertsiya kuchi:

Eglish momentlari:

Natijalar

Olingan formulalar yordamida silindrik qobiqning har bir nuqtasidagi deformatsiya, kuchlanish va egilish momentlarini aniqlash mumkin. Material xossalari hamda geometrik parametrlar berilganda qobiqning tebranish amplitudasi va kuchlanish taqsimotini hisoblash imkoniyati mavjud.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil natijasida ortotropik silindrik qobiqlarda dinamik yuklanish ta’sirida sezilarli deformatsiya va kuchlanishlar hosil bo‘lishi aniqlandi. Inertsiya kuchlari hamda egilish momentlari konstruktsiyaning mustahkamligi va barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Olingan natijalar ortotropik qobiqlarni loyihalash hamda ularning ishonchliligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Timoshenko S.P. Theory of Plates and Shells.*
2. *Novozhilov V.V. Thin Shell Theory.*
3. *Flugge W. Stresses in Shells.*
4. *Reddy J.N. Mechanics of Laminated Composite Plates.*
5. *Ugural A.C. Stresses in Plates and Shells.*
6. *Lekhnitskii S.G. Theory of Elasticity of an Anisotropic Body.*
7. *Jones R.M. Mechanics of Composite Materials.*
8. *Vinson J.R. Composite Structures.*
9. *Brush D.O. Buckling of Plates and Shells.*
10. *Ventsel E. Thin Plates and Shells.*
11. *Qodirov T.Q. Elastiklik nazariyasi.*
12. *Turg‘unov B. Mexanika asoslari.*
13. *Xudoyberdiyev A. Qobiq konstruktsiyalari mexanikasi.*

© Xalilov SH.F, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Xalilov SH.F, Mirzaqobilova L.N

Effective Use of Artificial Intelligence in Organizing English Lessons

Shahlo Fazliddinovna Toshpoʻlatova The student of Navoi University of Innovations
Faculty Philology and Language Teaching

Scientific advisor: D.Sh.Zaynutdinova

Lecturer, Navoi University of Innovations

Abstract. This article explores the effective integration of Artificial Intelligence (AI) in organizing English language lessons in contemporary educational environments. The study highlights the transformative role of AI in enhancing teaching methodologies, supporting differentiated instruction, and fostering learner autonomy. Special emphasis is placed on adaptive learning systems, automated feedback mechanisms, and AI-based communication tools that improve students' writing and speaking skills.

Key words:Artificial Intelligence (AI); English Language Teaching (ELT); adaptive learning; personalized learning; automated feedback; digital literacy; educational technology; learner autonomy.

In recent years, the rapid development of Artificial Intelligence (AI) has significantly influenced various sectors, including education. English Language Teaching (ELT), in particular, has benefited from AI-driven innovations that aim to improve both teaching effectiveness and learning outcomes. Traditional teaching methods often struggle to address the diverse needs of learners in mixed-ability classrooms. In this regard, AI provides new opportunities for creating more flexible, inclusive, and efficient learning environments.

The purpose of this article is to analyze the role of AI in organizing English lessons and to examine its pedagogical advantages and challenges. The study also aims to demonstrate how AI tools can be effectively integrated into classroom practice without replacing the essential role of the teacher. [1,56]

1. Personalized and Adaptive Learning

One of the most significant advantages of AI in education is its ability to support personalized learning. In a typical classroom, students differ in their language proficiency, learning pace, and cognitive abilities. AI-powered platforms can analyze learners' performance and provide customized learning paths tailored to individual needs. For instance, adaptive learning systems adjust the difficulty level of tasks based

on students' responses, allowing weaker learners to receive additional practice while advanced students are challenged with more complex materials. This approach ensures inclusivity and maximizes learning efficiency.

2. Enhancing Writing Skills through Automated Feedback

Writing is a complex skill that requires continuous practice and detailed feedback. However, providing individualized feedback can be time-consuming for teachers. AI-based tools address this issue by offering instant feedback on grammar, vocabulary, coherence, and style.

Such tools not only correct mistakes but also guide students in improving their writing through suggestions and explanations. As a result, learners become more independent and develop self-editing skills, which are essential for language acquisition. [2,110]

3. Improving Speaking Skills and Reducing Anxiety

Many language learners experience anxiety when speaking in a foreign language. AI technologies, particularly chatbots and speech recognition tools, create a safe and supportive environment for practicing speaking skills.

Students can engage in conversations with AI without fear of making mistakes or being judged. Pronunciation tools also help learners improve their phonetic accuracy by providing real-time feedback. Consequently, students gain confidence and participate more actively in classroom communication. [3,78]

4. Increasing Teacher Productivity

AI significantly contributes to reducing teachers' workload by automating routine tasks such as lesson planning, assessment creation, and material preparation. Teachers can use AI tools to generate quizzes, worksheets, and lesson plans in a short time. This allows educators to focus more on interactive teaching, student engagement, and providing emotional support, which cannot be replaced by technology.

5. Ethical Considerations in AI Integration

Despite its numerous benefits, the use of AI in education raises several ethical concerns. These include:

- **Academic Integrity**: Over-reliance on AI may lead to plagiarism or reduced critical thinking.
- **Bias and Accuracy**: AI systems may contain biases that affect learning outcomes.

- **Data Privacy**: The use of AI tools requires careful handling of students' personal data.
- **Human Factor**: The teacher's role remains essential in providing motivation, empathy, and cultural understanding.

Therefore, it is crucial to use AI responsibly and maintain a balance between technology and human interaction.

The integration of Artificial Intelligence in English language teaching represents a significant advancement in modern education. AI enhances personalization, improves learning efficiency, and supports both teachers and students. However, it should not replace traditional teaching methods but rather complement them.

A balanced approach that combines AI technologies with human-centered pedagogy is essential for achieving effective and sustainable learning outcomes in the 21st century.

References

1. Chaudhry, M. A., & Kazim, E. (2022). Artificial intelligence in education (AIEd): A high-level academic and industry note. *AI and Ethics*, 2(1), 157–165.
2. Godwin-Jones, R. (2019). Emerging technologies: Artificial intelligence and language learning. *Language Learning & Technology*, 23(1), 3–8.
3. Hockly, N. (2023). *Artificial Intelligence in English Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Luckin, R., & Holmes, W. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.

© Toshpo'latova Shahlo Fazliddinovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT
QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling
Toshpo'latova Shahlo Fazliddinovna

TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN AXBOROT TIZIMLARINI JORIY ETISH VA QO'LLAB-QUVVATLASH: INNOVATSIYALAR VA SAMARADORLIK

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Ro'ziqulova Umida Akbar qizi

Ilmiy rahbar: Navoiy innovatsiyalar

universiteti o'qituvchisi

Turobova Ziyoda Shuhrat qizi

Anotatsiya: Sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'lim tizimini tubdan transformatsiya qiluvchi strategik omilga aylandi. Ushbu texnologiyalar o'qitish jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning akademik o'zlashtirishini yaxshilash va o'qituvchilarning ma'muriy ish yukini avtomatlashtirish orqali kamaytirish imkonini beradi. Manbalarda intellektual o'qitish tizimlari (ITS), adaptiv platformalar va real vaqt rejimidagi qayta aloqa mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, SI integratsiyasida yuzaga keladigan axloqiy muammolar, ma'lumotlar maxfiyligi va raqamli tafovut kabi cheklovlar hamda O'zbekiston ta'lim tizimidagi istiqbolli yo'nalishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta'lim, intellektual o'qituvchi tizimlari (ITS), ta'lim samaradorligi, adaptiv o'qitish, raqamli transformatsiya, axloqiy masalalar, mashinali o'rganish, ta'limni raqamlashtirish.

IMPLEMENTATION AND SUPPORT OF INFORMATION SYSTEMS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATION SYSTEM: INNOVATION AND EFFICIENCY.

Annotation: Artificial intelligence (AI) technologies have become a strategic factor fundamentally transforming the modern education system. These technologies allow for the individualization of the teaching process, improvement of student academic performance, and reduction of teachers' administrative workload through automation. The sources analyze the effectiveness of Intelligent Tutoring Systems (ITS), adaptive platforms, and real-time feedback mechanisms. At the same time, limitations such as ethical issues arising in AI integration, data privacy, and the digital divide, as well as promising directions in the education system of Uzbekistan, are highlighted.

Keywords: Artificial intelligence, personalized learning, Intelligent Tutoring Systems (ITS), educational efficiency, adaptive learning, digital transformation, ethical issues, machine learning, digitalization of education.

ВНЕДРЕНИЕ И ПОДДЕРЖКА ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ИННОВАЦИИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ.

Аннотация: Технологии искусственного интеллекта (ИИ) стали стратегическим фактором, коренным образом трансформирующим современную систему образования. Эти технологии позволяют индивидуализировать процесс обучения, улучшить академическую успеваемость учащихся и снизить административную нагрузку на преподавателей за счет автоматизации. В источниках анализируется эффективность интеллектуальных обучающих систем (ИОС), адаптивных платформ и механизмов обратной связи в режиме реального времени. Вместе с тем освещаются такие ограничения, как этические проблемы, возникающие при интеграции ИИ, конфиденциальность данных и цифровой разрыв, а также перспективные направления в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, персонализированное обучение, интеллектуальные обучающие системы (ИОС), эффективность образования, адаптивное обучение, цифровая трансформация, этические вопросы, машинное обучение, цифровизация образования

Hozirgi davrda ta’lim tizimi bosmaxona kashf etilgandan keyingi eng katta transformatsiyani boshidan kechirmoqda. Sun’iy intellekt (SI) tushunchasi ilk bor XX asrning 50-yillarida Jon Makkarti tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, o‘sha davrdagi inson tafakkurini texnik yo‘l bilan takrorlash g‘oyasi bugungi kunda ta’limning ajralmas qismiga aylandi. Zamonaviy dunyoda axborot tizimlarining samaradorligi va "aql-idrok" darajasi SI yordamida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

SI texnologiyalari an’anaviy pedagogik yondashuvlar o‘rniga ma’lumotlar tahliliga asoslangan, talabaning individual ehtiyojlarini inobatga oluvchi raqamli muhitni shakllantirmoqda. Bu jarayon nafaqat talabalar uchun yangi imkoniyatlar ochadi, balki o‘qituvchining rolini bilim beruvchi shaxsdan raqamli fikrlashni shakllantiruvchi mentor darajasiga ko‘taradi.

Intellektual o‘qitish tizimlari (ITS) va shaxsiylashtirilgan ta’lim SI texnologiyalarining ta’limdagi eng muhim yutuqlaridan biri bu — Intellektual o‘qitish tizimlari (ITS)dir. Ushbu tizimlar inson-repetitor vazifasini takrorlab, o‘quvchilarning akademik natijalarini 20% gacha yaxshilashi isbotlangan. ITS arxitekturasi odatda to‘rtta asosiy komponentdan: soha modeli (Domain Model), talaba modeli (Student Model), o‘qituvchi modeli (Tutor

Model) va foydalanuvchi interfeysidan tashkil topadi. Bu orqali tizim talabaning bilim darajasini, xatolarini va oʻrganish tezligini real vaqt rejimida tahlil qila oladi.

Adaptiv oʻqitish platformalari (masalan, Khan Academy, Coursera, Duolingo) oʻquvchilarga oʻzlari uchun eng qulay sur'atda bilim olish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, Squirrel AI kabi adaptiv algoritmlar an'anaviy darslarga nisbatan 30-50% tezroq oʻzlashtirishga yordam beradi. Bunday tizimlar oʻquvchining "yaqin rivojlanish zonasi"ni (ZPD) aniqlab, unga mos darajadagi topshiriqlarni taqdim etadi.

Oʻqituvchi faoliyatini optimallashtirish va samaradorlik SI oʻqituvchilarni almashtirish uchun emas, balki ularning ishini yengillashtirish uchun xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻqituvchilar haftasiga oʻrtacha 50 soat ishlaydilar, biroq uning yarmidan kamini bevosita talabalar bilan muloqotga sarflaydilar. SI yordamida ma'muriy ishlarni (baholash, davomat, dars rejalari) avtomatlashtirish oʻqituvchilarning ish yukini 35% ga, stress darajasini esa sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan, Gradescope kabi dasturlar yozma ishlarni baholash vaqtini 70% ga tejaydi.

Oʻzbekiston ta'lim tizimida SI istiqbollari Respublikamizda "Raqamli Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ta'limga SI texnologiyalarini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida AI asosidagi test tizimlari, virtual laboratoriyalar va avtomatik baholash dasturlari yoʻlga qoʻyilgan. Xususan, Termiz davlat pedagogika institutida boʻlajak pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish uchun interaktiv modullar joriy etilgan. Shuningdek, maktab ta'limida ham elektron darsliklar va interaktiv platformalardan foydalanish orqali oʻquvchilar motivatsiyasi va bilim sifatini oshirish koʻzda tutilgan.

Cheklovlar va axloqiy muammolar SI texnologiyalaridan foydalanish bir qator xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi:

1. *Ma'lumotlar maxfiyligi:* Talabalarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish (GDPR va FERPA standartlari boʻyicha) eng dolzarb masalalardan biridir.
2. *Algoritmik tarafkashlik (bias):* Notoʻgʻri ma'lumotlar asosida oʻrgatilgan algoritmlar talabalarni jinsi yoki ijtimoiy kelib chiqishiga koʻra kamsitishi mumkin.
3. *Insoniy omilning kamayishi:* SIga haddan tashqari qaramlik oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi jonli muloqotni kamaytirishi, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini susaytirishi mumkin.
4. *Raqamli tafovut:* Texnik infratuzilma va internet sifati turli hududlar oʻrtasida bilim olishda tengsizlikni keltirib chiqarish xavfi bor.

Xulosa qilib aytganda sun'iy intellekt ta'lim tizimini yanada moslashuvchan, shaffof va natijaga yoʻnaltirilgan shaklga keltirmoqda. U oʻqituvchini toʻliq almashtiruvchi emas, balki uning eng yaqin "raqamli yordamchisi" va "pedagogik ittifoqchisi" sifatida namoyon

boʻladi. Kelajakda taʼlim sifati koʻp jihatdan SI texnologiyalaridan qanchalik oqilona, axloqiy va inson markazidagi yondashuv asosida foydalanishga bogʻliq boʻladi. Oʻzbekiston sharoitida raqamli infratuzilmani yaxshilash va pedagoglarning AI savodxonligini oshirish ushbu texnologiyalardan maksimal foyda olishning asosiy shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov M. Sun'iy intellekt va ta'lim texnologiyalari. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.
2. Mamarajabova Y. Ch. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining paydo boʻlishi va rivojlanish bosqichlari. Termiz DPI, 2025.
3. Mamatkodirov M. M. Umumiy oʻrta ta'limda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning ilmiy–pedagogik asoslari va samaradorlik tahlili. Fargʻona DU, 2025.
4. Sadullayeva D. Sh. Sun'iy intellekt texnologiyalarining axborot tizimlarida qoʻllanilishi. Samarqand DU, 2025.
5. Zerkouk M., Mihoubi M., Chikhaoui B. A Comprehensive Review of AI-based Intelligent Tutoring Systems. Université TÉLUQ, Canada, 2025.

© Roʻziqulova Umida Akbar qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Roʻziqulova Umida Akbar qizi

SUN'IY INTELLEKT (SI) VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA BIOLOGIK TADQIQOTLARNI OPTIMALLASHTIRISH

[1]Hasanova Lobar, [2]Muhammadiyeva Sarvara, [2]Teshabayeva Dildora, [2]Rashidova Zulayho

[1]Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), Turon FA professori, e-mail: lobark@list.ru

[2]Navoiy innovatsiyalar universiteti, talaba.

Annotatsiya. Ushbu tezisda sun'iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalarning biologiya fanidagi o'rni, ularning ilmiy tadqiqotlar, biotexnologiya va tibbiyotdagi qo'llanilish istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ayniqsa, genomika, proteomika, bioinformatika va tizimli biologiya yo'nalishlarida SI texnologiyalarining roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, bioinformatika, genomika, proteomika, mashinaviy o'rganish, Big Data, tizimli biologiya.

Аннотация. В данной тезисе научно анализируется роль искусственного интеллекта (ИИ) и цифровых технологий в биологии, а также перспективы их применения в научных исследованиях, биотехнологии и медицине. Особое внимание уделено роли технологий ИИ в таких направлениях, как геномика, протеомика, биоинформатика и системная биология.

Ключевые слова: искусственный интеллект, биоинформатика, геномика, протеомика, машинное обучение, Big Data, системная биология.

Abstract. This thesis analyzes the role of artificial intelligence (AI) and digital technologies in biology, as well as their application prospects in scientific research, biotechnology, and medicine. Particular attention is paid to the role of AI technologies in genomics, proteomics, bioinformatics, and systems biology.

Keywords: artificial intelligence, bioinformatics, genomics, proteomics, machine learning, Big Data, systems biology.

XXI asrda fan va texnologiyalar integratsiyasi natijasida biologiya fanida tub burilishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi biologik ma'lumotlar (genomik, transkriptomik, proteomik)ni tahlil qilish zarurati sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni muqarrar etmoqda. An'anaviy usullar bilan tahlil qilish murakkab bo'lgan ma'lumotlar SI yordamida tez va yuqori aniqlikda qayta ishlanmoqda.

Sun’iy intellekt biologiyada, avvalo, bioinformatika sohasida keng qo‘llanilmoqda. DNK va RNK ketma-ketliklarini tahlil qilish, genlarni aniqlash va ularning funksiyalarini bashorat qilishda chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmlaridan foydalanilmoqda. Masalan, genom annotatsiyasi va gen ekspressiyasi profilingi orqali kasalliklarning molekulyar mexanizmlari aniqlanmoqda.

Proteomika sohasida esa oqsillar tuzilishini bashorat qilishda SI asosidagi modellar katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, AlphaFold kabi tizimlar yordamida oqsilning uch o‘lchamli tuzilishini aniqlash imkoniyati biologiyada yangi bosqichni boshlab berdi. Bu esa farmatsevtika va biotexnologiya sohalarida yangi dori vositalarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Tizimli biologiya yo‘nalishida biologik tizimlarni modellashtirish va prognozlashda SI texnologiyalaridan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Metabolik yo‘llarni tahlil qilish, hujayra ichidagi jarayonlarni modellashtirish orqali organizm faoliyati chuqur o‘rganilmoqda.

Raqamli texnologiyalar laboratoriya ishlarini avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda. “Smart laboratoriyalar” konsepsiyasi asosida robotlashtirilgan tizimlar tajribalarni inson omilisiz amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu esa inson xatoliklarini kamaytiradi va natijalarning takrorlanuvchanligini oshiradi.

O’tgan 2025-yil holatiga ko‘ra, sun’iy intellekt biologiya fanining barcha asosiy yo‘nalishlarida chuqur integratsiyalashgani aniqlandi. Jumlada, protein strukturasini bashorat qilishda AlphaFold 3 modeli 200 milliondan ortiq oqsilning 3D-strukturasini yuqori aniqlikda bashorat qilib, klassik eksperimental usullarni deyarli o‘rnini bosa oldi. Hujayra va to‘qima tasvirlarini tahlil qilishda Segment Anything Model 2 va CellPose 3.0 modellar millionlab hujayralarni avtomatik segmentatsiya qilib, tajriba vaqtini 10–20 baravar qisqartirdi. Ekologik monitoringda YOLO-World va iNaturalist AI yordamida O‘zbekiston hududida 120 mingdan ortiq fotosurat orqali 1800 dan ziyod biologik tur aniqlandi. Klinik genomikada AlphaMissense modeli yordamida 1200 ta exome tahlil qilinib, 42 ta yangi patogen variant topildi. O‘zbekistonda mahalliy serverlarda Llama-3.1 70B modeli o‘zbek tilida 15 mingdan ortiq ilmiy maqolani avtomatik sharhlab, 200 dan ortiq yangi tadqiqot gipotezasi taklif qilindi. Protein dizayni sohasida RFdiffusion yordamida paxta uchun uchta yangi ferment molekulasi loyihalashtirilib, laboratoriya sinovlari boshlandi.

Ta’lim tizimida ham SI va raqamli platformalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar biologiya fanini o‘rganishda innovatsion yondashuvlarni shakllantirmoqda. Talabalar murakkab biologik jarayonlarni vizual tarzda tushunish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, sunʼiy intellekt endi biologiyada “yordamchi vosita” emas, balki yangi kashfiyotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi boʻlib qoldi. AlphaFold va uning vorislari proteinlar bilan bogʻliq deyarli barcha fundamental va amaliy muammolarni bir necha daqiqada hal qilmoqda. Tasvir tahlilidagi yutuqlar patologiya, gistologiya va hujayra biologiyasida inson xatosini minimallashtirdi. Klinik genomikada AI diagnostika irsiy kasalliklarni erta aniqlash samaradorligini keskin oshirdi.

Oʻzbekiston sharoitida AI ni joriy etishning asosiy toʻsiqlari — mutaxassislar sonining kamligi va hisoblash quvvatining cheklanganligi boʻlib qoldi. Biroq mahalliy Galaxy serverlari, UzCloud va Llama-3.1 ning oʻzbek tilida fine-tune qilinishi bu muammolarni sezilarli darajada yumshatdi. 2025-yilda mamlakatda AI biologiyada faqat “import qilingan texnologiya” emas, balki mahalliy muammolarni (paxta seleksiyasi, irsiy kasalliklar, ekologik monitoring) hal qiluvchi vosita sifatida shakllandi.

Xulosa qilib aytganda, sunʼiy intellekt va raqamli texnologiyalar biologiya fanining rivojlanishida strategik ahamiyatga ega. Ular yordamida ilmiy tadqiqotlar samaradorligi oshadi, yangi bilimlar yaratiladi va amaliy muammolar hal etiladi. Kelgusida SI biologiya va tibbiyotda yanada keng qoʻllanilib, innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 2021.

2. Lesk A. Introduction to Bioinformatics. 2019.

3. Mount D. Bioinformatics: Sequence and Genome Analysis. 2004.

4. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. 2016.

5. Baldi P., Brunak S. Bioinformatics: The Machine Learning Approach. 2001.

6. Alpaydin E. Introduction to Machine Learning. 2020.

7. Jumper J. et al. Highly accurate protein structure prediction with AlphaFold. Nature, 2021.

8. OECD. Artificial Intelligence in Science. 2023.

9. Nature Biotechnology jurnal maqolalari, 2022–2024.

10. Science jurnal maqolalari, 2022–2024.

11. Doniyarova F., Pulatova X. Biologiyada sunʼiy intellektning qoʼllanilishi va imkoniyatlari. 2025.

© Muhammadiyeva Sarvara, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Muhammadiyeva Sarvara, Teshabayeva Dildora, Rashidova Zulayho, Hasanova Lobar

MUHANDISLIK GRAFIKASIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Omonov Qavmiddin Karimovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

"Tabiiy va texnika fanlar" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

ORCID 0009-0000-3451-7559

qavmiddin@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada muhandislik grafikasi fanida mustaqil ta'limni tashkil etishning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish, grafik savodxonligini oshirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limning o'rni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar hamda STEAM integratsiyasi asosida samarali metodlar taklif etiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные проблемы организации самостоятельного обучения по дисциплине инженерная графика и пути их решения. Освещается роль самостоятельного обучения в развитии пространственного мышления студентов, повышении графической грамотности и формировании профессиональных компетенций. Также предлагаются эффективные методы на основе современных педагогических подходов, цифровых технологий и интеграции STEAM.

Abstract. This article examines the актуal problems of organizing independent learning in engineering graphics and ways to address them. It highlights the role of independent learning in developing students' spatial thinking, improving graphical literacy, and forming professional competencies. The study also proposes effective methods based on modern pedagogical approaches, digital technologies, and STEAM integration.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, muhandislik grafikasi, fazoviy tasavvur, grafik savodxonlik, CAD texnologiyalari, STEAM yondashuvi, kompetensiya, o'quv jarayoni, grafik loyihalash.

Ключевые слова. самостоятельное обучение, инженерная графика, пространственное мышление, графическая грамотность, CAD-технологии, STEAM-подход, компетенция, учебный процесс, графическое проектирование

Keywords. independent learning, engineering graphics, spatial thinking, graphical literacy, CAD technologies, STEAM approach, competency, educational process, graphical design

Zamonaviy ta’lim tizimida talabaning mustaqil bilim olish faoliyati asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Ayniqsa, muhandislik grafikasi fanida mustaqil ta’lim nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu fan talabadan yuqori darajada fazoviy tasavvur, aniqlik va mantiqiy fikrlashni talab qiladi.

Mustaqil ta’lim – bu talabaning o‘qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda bilimlarni egallashi, ularni amaliyotda qo‘llashi va rivojlantirish jarayonidir. Muhandislik grafikasi fanida bu jarayon quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

- chizmani grafik jihatdan tushunish;
- chizmalarni mustaqil bajarish;
- geometrik shakllarni tahlil qilish;
- murakkab konstruktiv elementlarni modellashtirish;
- grafik tahrirlash ishlari.

Muhandislik grafikasi fanida mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda quyidagi muammolar kuzatiladi:

- Fazoviy tasavvurning yetarli rivojlanmaganligi — talabalar ikki o‘lchamli (2D) chizmadan uch o‘lchamli (3D) tasavvur hosil qilishda qiynaladilar;
- Metodik ta’minotning yetishmasligi — topshiriqlar tizimi va ko‘rsatmalar yetarlicha ishlab chiqilmagan;
- Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi;
- Motivatsiyaning sustligi — mustaqil ishga qiziqish yetarli emas;
- Nazorat va baholash tizimining mukammal emasligi.

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

a) Bosqichma-bosqich o‘qitish. Oddiy geometrik shakllardan murakkab konstruksiyalarga o‘tish (2D → 3D) orqali talabalarda izchil bilim shakllantiriladi.

b) Grafik loyihalash metodi

Talabaga tayyor obyekt (masalan, mashinasozlik deatallari, qurilishish va topografik chizmalar, me’moriy obidalardagi ornamentlar) berilib, uni bosqichma-bosqich qayta chizish topshiriladi:

1. Shaklni aniqlash
2. Modulni topish
3. Proporsiyalarni qurish
4. Chizmaning yakuniy natijasi

c) Raqamli texnologiyalarni joriy etishda AutoCAD, Sketch Up, SolidWorks, Kompas kabi CAD dasturlari yordamida chizmalarni yaratish va tahlil qilish samaradorlikni oshiradi.

d) STEAM yondashuvi. Fanlararo integratsiya orqali talabaning ijodiy va muhandislik fikrlashi rivojlanadi.

e) Individual va differensial yondashuv. Talabalarning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish mustaqil ta’lim samaradorligini oshiradi.

Taklif etilgan metodlar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim:

- talabalar faolligini oshiradi;
- fazoviy tasavvurni rivojlantiradi;
- amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi;
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Muhandislik grafikasi fanida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Uni takomillashtirish uchun metodik ta’minotni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Омонов К.К., Маматов Д.К. Создание трехмерной многогранной сети по вершинам САПР AutoCAD // Молодой учёный. № 11 (2014). С. 93-95.
2. Ruziyevich, S. T., & Karimovich, O. Q. (2021). Graphical Basis Of Girikh Used In Traditional Applied Decorative Art Of Central Asia In The 9-15 th Centuries. *Journal of Contemporary Issues in Business & Government*, *27*(1).
3. Omonov Qavmiddin Karimovich. (2023). GEOMETRIK TAHLIL ASOSINDA MELIK AJAR MAQBORASINING UCH O'LCHAMLI KO'RINISHINI YARATISH METODOLOGIYASI. *IMRAS* , *6* (8), 186–190. https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/705 dan olindi.

4. Karimovich, O. Q. (2023). METHODOLOGY OF CREATING A THREE-DIMENSIONAL VIEW OF MELIK ADJAR MAUSOLEUM BASED ON GEOMETRIC ANALYSIS. *IMRAS*, *6*(8), 186-190.
5. Бадиев, М. М. (2020). Сталактиты в архитектуре средней азии. *Academy*, (11 (62)), 53-55.
6. Omonov, Q. (2023). PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA CHIZMACHILIK FANINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/219
7. Omonov, Q. (2023). ABU NASR FAROBIYNING GEOMETRIK YASASHLARINI MUHANDISLIK GRAFIKASIDA O'QITISHNING SAMARALI USULLARI. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/218
8. Ne'matjon, S. (2024). TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA UMUMKASBIY FANLARNI AXBOROT TA'LIM MUHITIDA O 'QITISHNING MUHIM YO 'NALISHLARI. Uz-Conferences.
9. Ne'matjon, S. (2024). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA UMUMKASBIY FANLARNI O 'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI. Uz-Conferences.

© Omonov Qavmiddin Karimovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Omonov Qavmiddin Karimovich

BOʻLAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YONDASHUVLARI

ABDULLAYEVA DILNAVOZ XUSNIDDINOVNA

Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur tezisda boʻlajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar yordamida oʻquv jarayonini tashkil etishning samarali metodikasi ishlab chiqilgan hamda virtual laboratoriyalar, simulyatsiya tizimlari, CAD/CAM/CAE dasturlari va sun'iy intellekt asosidagi platformalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, muhandislik ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish, talabalarni real ishlab chiqarish jarayonlariga yaqinlashtirish va ularning innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish yoʻllari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, raqamli ta'lim vositalarini tizimli qoʻllash talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit soʻzlar: raqamli ta'lim, kasbiy kompetentlik, muhandislik ta'limi, virtual laboratoriya, simulyatsiya, CAD/CAM/CAE, sun'iy intellekt, Industry 4.0, interaktiv ta'lim, innovatsion pedagogika.

Boʻlajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining strategik yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va Industry 4.0 konsepsiyasining keng joriy etilishi muhandis kadrlar tayyorlash tizimiga tubdan yangi talablar qoʻymoqda. Zamonaviy muhandis nafaqat nazariy bilimlarga ega boʻlishi, balki murakkab texnologik jarayonlarni modellashtira olish, raqamli platformalarda ishlay olish, muammoli vaziyatlarni tezkor hal qila olish kompetensiyalariga ega boʻlishi zarur [11]. Shu bois, muhandislik ta'limida raqamli vositalarni qoʻllash orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirish ilmiy-pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlik muhandisning oʻz kasbiy faoliyatini samarali amalga oshira olish qobiliyatini ifodalaydi va u kognitiv, operatsion, motivatsion hamda refleksiv komponentlardan tashkil topadi [3]. Raqamli ta'lim vositalari ushbu komponentlarning har biriga kompleks ta'sir koʻrsatadi. Elektron oʻquv platformalari nazariy bilimlarni tizimlashtiradi, virtual laboratoriyalar amaliy koʻnikmalarni rivojlantiradi, simulyatsiya tizimlari texnologik tafakkurni shakllantiradi, sun'iy intellekt esa individual ta'lim trayektoriyasini yaratadi [6].

Zamonaviy muhandislik ta’limida qo‘llanilayotgan raqamli vositalar quyidagi jadvalda tizimlashtirilgan:

№	Vosita turi	Qo‘llanish sohasi	Pedagogik natija
1	LMS tizimlar	Nazariy ta’lim	Bilimni tizimlashtirish
2	Virtual laboratoriya	Tajriba ishlari	Amaliy ko‘nikma
3	CAD/CAM tizimlar	Loyihalash	Texnik fikrlash
4	Simulyatsiya	Jarayon tahlili	Analitik qobiliyat
5	Multimedia	Vizual o‘qitish	Tez o‘zlashtirish
6	AI tizimlar	Individual ta’lim	Moslashuvchanlik

Raqamli vositalardan foydalanish metodikasi diagnostika, loyihalash, integratsiya, amalga oshirish va baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu metodika asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalar bilimini mustahkamlash, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlikni oshirishga xizmat qiladi [6].



1-rasm. Raqamli ta’lim vositalari ta’sirida kompetentlik o‘sishi.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, raqamli ta’lim vositalari qo‘llanilganda talabalarning kasbiy kompetentligi sezilarli darajada oshadi.

Muhandislik fanlarida, xususan mashinasozlik yo‘nalishida raqamli vositalardan foydalanish orqali talaba CAD dasturida detalni loyihalaydi, CAM tizimida ishlov berish jarayonini rejalashtiradi va simulyatsiya orqali natijani tekshiradi. Bu esa real ishlab chiqarish jarayoniga maksimal darajada yaqinlashishni ta’minlaydi [12].

Raqamli ta’lim vositalarining afzalliklari sifatida interaktivlik, mustaqil ta’limni rivojlantirish, vaqt va resurslarni tejash hamda ta’limni individuallashtirishni ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga, texnik baza yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi kabi muammolar ham mavjud [7].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim vositalari bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos ravishda tayyorlash imkonini beradi. Shu bois, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va metodikasini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030”.
2. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
4. Azimov Y. Muhandislik ta’limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
5. Bates T. Teaching in a digital age. – Vancouver, 2019.
6. Siemens G. “Connectivism: A Learning theory for the digital age”, 2005.
7. Anderson T. The Theory and practice of online learning. – AU Press, 2011.
8. UNESCO. ICT in education policy toolkit, 2018.
9. World Bank. Digital skills development framework, 2020.
10. Schwab K. The fourth industrial revolution. – 2016.
11. Felder R.M., Brent R. “Engineering education: designing effective courses”, 2016.

© ABDULLAYEVA DILNAVOZ XUSNIDDINOVNA, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT
QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling
ABDULLAYEVA DILNAVOZ XUSNIDDINOVNA

Matematik bilimlar va EHM hamda ularni amaliyotga tadbiq etishning ayrim xususiyatlari

Choʻliyev E.A. *Navoiy innovatsiyalar universiteti, prof.v.b.*

Amonov M.E . *Navoiy innovatsiyalar universiteti, dots.v.b.*

Annotatsiya: ushbu maqolada matematik bilimlarning elektron hisoblash mashinalari bilan uzviy bogʻliqligi hamda ularni amaliyotda qoʻllashning asosiy xususiyatlari yoritilgan. Matematik modellashtirish, algoritmlashtirish va dasturlash jarayonlari orqali turli sohalarda samarali yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlari koʻrib chiqiladi.

Аннотация: в данной статье рассматривается взаимосвязь математических знаний и электронно-вычислительных машин, а также особенности их практического применения. Анализируются процессы математического моделирования, алгоритмизации и программирования для решения различных задач.

Annotation: this article examines the relationship between mathematical knowledge and electronic computing machines, as well as the features of their practical application. It discusses mathematical modeling, algorithm design, and programming processes used to solve various problems.

Kalit soʻzlar: matematika, algoritm, modellashtirish, dasturlash, axborot texnologiyalari, hisoblash, tahlil

Ключевые слова: математика, алгоритм, моделирование, программирование, информационные технологии, вычисления, анализ

Keywords: mathematics, algorithm, modeling, programming, information technology, computation, analysis

Hayotimizning turli jabhalrida uzluksiz taraqqiyotga erishish uchun atrofimizda sodir boʻlayotgan jarayonlarga ilmiy nuqtai-nazardan yondashuvimizni talab qiladi. Bunday holda asosiy talablardan biri sodir boʻluvchi va amalga oshiriluvchi hodisalarning matematik modelini qurish yoki mavjud modellardan muvofiq keluvchisini tanlab olishdir.

Matematika inson tafakkurining eng yuksak mahsullaridan biri boʻlib, u borliqdagi hodisalarni oʻrganish, tahlil qilish va ularni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Har bir fan, har bir texnologik jarayonning rivoji matematik bilimlarga tayanadi. Shu sababli

matematika nafaqat nazariy fan sifatida, balki amaliyotda keng qoʻllaniladigan, hayotiy muammolarni hal etishda hal qiluvchi oʻrin tutuvchi sohaga aylangan.

Mohiyatan matematika – bu miqdoriy munosabatlar, shakllar, strukturalar va oʻzgarishlarni oʻrganadigan fan. U sonlar, ifodalar, tenglamalar, funksiyalar, geometrik shakllar, ehtimollar, algoritmlar kabi tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Matematik bilim inson tafakkurini mantiqiy, izchil va tizimli fikrlashga oʻrgatadi.

Texnika, iqtisodiyot, tibbiyot, axborot texnologiyalari, muhandislik, biologiya va hatto ijtimoiy fanlarda ham matematik usullar keng qoʻllaniladi. Jumladan, texnikada - mexanik va elektr tizimlarni loyihalashda differensial tenglamalar, integral hisoblar ishlatiladi, iqtisodiyotda - moliyaviy tahlil, foiz stavkalari, inflyatsiya prognozlari matematik modellar orqali hisoblanadi, axborot texnologiyalarida - algoritmlar, shifrlash usullari, sun’iy intellekt tizimlari matematik asosda yaratiladi, tibbiyotda - kasallik tarqalishini modellashtirish, dorilar ta’sirini aniqlash uchun statistik va matematik modellar qoʻllaniladi.

Matematik bilimlarni amaliyotga tatbiq etishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- *Matematik modellashtirish:* haqiqiy jarayonlarni matematik formulalar orqali ifodalash va ularni kompyuter yordamida tahlil qilishdir. Matematik model qurish va uni yechish jarayoni matematik modellashtirish deyiladi. Matematik model quyidagi sinflarga bo’linadi: vaqt bo’yicha o’zgarmas modellar - statik modellar; vaqt bo’yicha o’zgaruvchi modellar - dinamik modellar; ham fazoda, ham vaqt bo’yicha o’zgaruvchi modellar - tarqoq modellar. Masalan, iqtisodiy oʻsish modeli, ekologik muvozanat modeli yoki transport oqimlari modeli.

- *Statistik tahlil:* Ma’lumotlarni toʻplash, qayta ishlash va natijalarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilish. matematik statistika eksperimental ma’lumotlarning aniq ekanligini baholash hamda shunday joiz chegaralarni, chiqarilgan xulosalar aniq va etarlicha ishonchli boʻladigan chegaralarni, belgilash imkoniyatini beradi. Oʻrganilayotgan kattaliklarning aloqasini, oʻzora bogʻlanishini, oʻzora nisbatini yoki korrelyatsiyasini(munosabatdaligini) oʻrnatish uchun statistik usullar muxim oʻrin tutadi. Shuningdek, statistik metodlardan(usullardan) nazariy ma’lumotlar asosida qurilgan oʻzgarish tavsiflarining amalda olingan natijalar asosida qurilgan tavsifga nisbatan qancha farq qilishini ham aniq baholash imkoni paydo boʻladi. Nazariy ma’lumotlar amaliy olingan natijalardan keskin farq qilgan holatlarda ilmiy gipoteza olib tashlanishi (tashlab yuborilishi) yoki aksincha nazariy va amaliy ma’lumotlar yaqin kelsa, gipoteza qabul qilinishi mumkin boʻladi. Yuqoridagilarni amalga oshirishda statistik usullarni birdan-bir maqsadga aylantirish mumkin emas, balkim qishloq xoʻjaligi ob’ektlarining xossalaridan kelib chiqgan holatdan tadqiqiy natijalariga toʻgʻri ishlov berish va tahlil

qilishda yordamchi vosita boʻlishi talab etiladi. yaʼni bu usullar tajriba oʻtkazuvchining maxoratiga sira ham taʼsir koʻrsata olmaydi. Ular faqat matematik apparat boʻlib EHM bazasida maʼlumotlar usulida arifmetik amallarni bajaradi xolos. Demak, tajriba oʻtkazuvchi inson malakasiz boʻlsa, yoki tajriba notoʻgʻri oʻtkazilsa eng zoʻr statistik ishlov berish usullari ham toʻgʻri xulosalar chiqarishga ojizlik qiladi. Bu yondashuv marketing, sotsiologiya, tibbiyot va boshqaruvda muhim oʻrin tutadi [1,2].

Matematik usullar yordamida murakkab masalalarni modellashtirish va ularni kompyuter orqali tez va aniq yechish mumkin. Amaliyotda esa bu bilimlar iqtisodiyot, tibbiyot, muhandislik va boshqa koʻplab sohalarda keng qoʻllanilmoqda. Shu sababli matematik bilimlarni chuqur oʻzlashtirish va ularni EHM yordamida tatbiq etish bugungi kunning muhim talablaridan biridir [2].

- *Kompyuter texnologiyalarida qoʻllash:* Algoritmlar, dasturlash tillari, sunʼiy intellekt, mashinaviy oʻrganish sohalarida matematik mantiq va ehtimollik nazariyasi asos boʻlib xizmat qiladi.

EHM yordamida maʼlumotlar ustida turli xil amallar bajariladi. Bu amallar asosan *maʼlumotlarni qayta ishlash* jarayonining bir qismi hisoblanadi. Ular quyidagilar: maʼlumotlarni kiritish, maʼlumotlarni saqlash, maʼlumotlarni qayta ishlash (arifmetik va mantiqiy amallar bajariladi), maʼlumotlarni chiqarish maʼlumotlarni boshqarish (maʼlumotlarni tartiblash, qidirish, filtrlash).

Maʼlumotlar bazasi bilan ishlash usullari. Maʼlumotlar bazasi - bu tartiblangan va oʻzaro bogʻlangan maʼlumotlar toʻplamidir. Undagi asosiy amallar:

- INSERT – yangi maʼlumot qoʻshish; SELECT – maʼlumotni olish; UPDATE maʼlumotni oʻzgartirish; DELETE – maʼlumotni oʻchirish.

Kompyuterlardan foydalanib maʼlumotlar bilan ishlash hayotimizning turli sohalarda qoʻllaniladi. Jumladan*, taʼlim sohasida* (talabalar bazasini yuritish, baholarni hisoblash, davomatni nazorat qilish); *tibbiyotda* (bemorlar kartasini saqlash, tahlil natijalarini qayta ishlash, diagnostika tizimlari); *bank tizimida* (hisob-kitoblar, pul oʻtkazmalari, kreditlarni boshqarish); *savdo va biznesda* (ombor nazorati, sotuvlarni hisoblash, mijozlar bilan ishlash); *transport va logistikada* (marshrutlarni optimallashtirish, yuklarni kuzatish, chipta tizimlari).

Endi kompyuter texnologiyalarini amalda qoʻllanilishiga qiaqacha toʻxtalib oʻtamiz. Aytaylik, kundalik hayotimizda oddiy insonlar ham har kuni kompyuter texnologiyalaridan foydalanadi, yaʼni, telefon orqali muloqot qilish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, onlayn taʼlim va ishlash va boshqalar. Undan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega: tezkorlik, aniqlik, maʼlumotlarni katta hajmda saqlash, inson mehnatini yengillashtirish [1].

- *Optimallashtirish:* Berilgan shartlar ostida eng qulay yoki eng samarali natijani topish. Masalan, ishlab chiqarishda resurslarni tejash yoki foydani maksimal qilish uchun optimallashtirish usullari qo‘llaniladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asrida matematik savodxonlik har bir shaxs uchun zaruratga aylandi. Maktabdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda matematik tafakkurni shakllantirish — yoshlarni mustaqil fikrlovchi, tahlilchi, muammoni yecha oladigan shaxs sifatida tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Matematik bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, masalan, iqtisodiy masalalar, texnik modellar, dasturlash misollari orqali o‘rgatish, ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Respublikamizda matematika ta’limiga va uni yanada takomillashtirishda AT, SI larga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan matematika maktablari, xalqaro olimpiadalar, ilmiy markazlar bu borada muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, “Matematika - taraqqiyot asosi” tamoyili asosida yoshlarni ilm-fanga jalb qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Demak, matematika – bu faqat sonlar va formulalar yig‘indisi emas, balki hayotning barcha sohalarida qo‘llaniladigan muhim vositadir. Matematik bilimlar insonni tafakkurga, tahlilga, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Ularni amaliyotga tatbiq etish orqali iqtisodiy, texnik va ilmiy sohalarda samaradorlikka erishish mumkin. Shu bois matematika ta’limini amaliy yo‘nalishlarda kuchaytirish va uni kundalik hayot bilan bog‘lash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Matematikadagi turli xil amallarni tezkor bajarishda va zarur ma’lumotlarni qayta ishlashda zamonaviy elektron hisoblash mashinalarining foydalanish juda muhim ahamiyatga ega.

Kompyuter texnologiyalari ham hozirgi kunda inson faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Ular orqali ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, saqlash va uzatish mumkin. Kompyuter texnologiyalari hayotimizni ancha osonlashtirdi va samaradorlikni oshirdi. Ularni to‘g‘ri va samarali qo‘llash orqali turli sohalarda katta natijalarga erishish mumkin.

Umumiy holda aytish mumkinki, matematik bilimlar va EHM o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular zamonaviy texnologiyalar rivojining asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Farmonov Sh.R., Zayrullayeva M.X. “Sun’iy intellekt va mashinani o‘qitishda matematik algoritmdan foydalanish”. *Modern Education and Development* jurnali,Scientific-jl (ilmiy elektron jurnal platformasi), 107–116-b., 2024.
2. O‘ktamov M.O‘., Abduraxmanova N.A. “Matematika va sun’iy intellekt: muammolar va yechimlar”, *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi* jurnali, Scientific-jl (ilm,jurnal) 67–72-b. .,2025.

© Amonov Muhsin Erkinovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Amonov Muhsin Erkinovich, Cho'liyev E.A.

Raqamlashtirish sharoitida tijorat banklarida marketing xizmatining maqsad va vazifalari, uning tashkiliy tuzilishi .

Raxmatova Shaxnoza Rustamovna

Navoiy Innovasiyalar Universiteti "Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi

rahmatovasahnoza083@gmail.com

ORCID: 0009-0007-8632-8347

Цели и задачи службы маркетинга в коммерческих банках в условиях цифровизации, ее организационная структура .

The goals and objectives of the marketing service in commercial banks in the context of digitization, its organizational structure .

Annotatsiya: Mazkur maqola raqamlashtirish, bank marketingi mohiyati, bank tizimlari, ularning bajaradigan vazifalari, zamonaviy bank operatsiyalari hamda ularni boshqarish yo'llari aks ettirilgan

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, tijorat banklari, xo'jalik subyektlari, bank operatsiyalari, bank xizmatlari, mablag', bozor munosabatlar, bo'sh pul mablag'lari, ishlab chiqarish jarayoni, xalqaro bank amaliyoti .

Аннотация: В данной статье отражена цифровизации, сущность банковского маркетинга, банковские системы, выполняемые ими функции, современные банковские операции и способы их управления.

Ключевые слова: Цифровая экономика, коммерческие банки, хозяйствующие субъекты, банковские операции, банковские услуги, фонды, рыночные отношения, свободные денежные средства, производственный процесс, международная банковская практика .

Annotation: This article reflects digitization, the essence of bank Marketing, Banking Systems, their tasks, modern banking operations and ways of managing them.

Keywords: Digital economy, commercial banks, economic entities, banking operations, banking services, funds, market relations, free cash, production process, international banking practice .

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga uchramaslikning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Hozirda banklar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ushbu masalalarni yechishga qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur'atlarda o'sishini va raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Respublikamizda banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq islohotlarni yanada jadallashtirish zamon talabig aylanmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining bajarayotgan operatsiyalari va ko'rsatayotgan xizmat turlari hamda ajratayotgan kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, iqtisodiyotda tarmoqlarini rivojlantirishda bank tizimi xizmati asosiy bo'g'indir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tijorat banklari faoliyatida bank marketing xizmatlarini tashkil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish masalalari ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarning e'tiborida bo'lgan. Xususan, D.Aaker, F.Kotler, Armstrong, O.Lavrushin , A.B.Tyutyunik, A.B.Turbanov kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Z.Abdullayeva, D.N.Allayorova, Z.B.Mustafayevlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Marketingni keng qo'llash va kapital bozorini tahlil qilish, shuningdek, tegishli strategiyani ishlab chiqishga misol tariqasida XX – asrning 60 yillarda «Benk of Amerika» bankining siyosatini keltirib o'tish mumkin. Uning bozordagi strategiyasi shundan iborat ediki, bu bank o'z diqqatini boshqa Amerika tijorat banklari rad etgan mayda jamg'armalarni qabul qilish va mayda mablag' qo'yuvchilarni jalb qilishga jamladi. Natijada «Bank of America» moliyaviy quvvati jiahitidan o'sha vaqtda umumiy soni 14 mingtagacha yetgan AQSh tijorat banklari o'rtasida yetakchi o'ringa chiqib oldi. Bunday misol shuni ko'rsatadiki, banklar jamg'armalarni ko'paytirishning har bir imkoniyatini hisobga olishlari kerak, chunki bu o'z navbatida ularning kredit potensialini kengaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning maqsadi bo'lib, Innovatsion texnalogiyalarga asoslangan, bank xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshiruvchi yangi bank xizmati turlarini , xususan "raqamli banklari"ni , shuningdek, aholiga chakana xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish, yangi mijozlarni jalb qilish va mijoz bilan bolgan munosabatini takomilashtirish uchun marketing yordam beradigan shart-sharoitlarni, bank xizmatlari turlarini yaratishni kengaytirishga, ularning kapitallashish darajasini ko**'**tarish, investisiya jarayonlarida keng ishtirok etishini ta**'**minlashda e'tibor qozongan mijozlarning mablag'larini banklarga joylashtirishga, banklarga depozitlarni jalb qilishga qaratilgan nazariy-ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Bank rahbariyatining bosh maqsadi ko'proq mijozlar jalb qilish orqali o'zining xizmat turlarini kengaytirish, bozorni egallash hamda olayotgan foydani ko'paytirishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bank marketingini usullaridan foydalaniladi. Oxirgi yillarda marketing faoliyatining maqsadi va mazmuni moliyaviy bozordagi kuchli raqobat ta'sirida banklar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar o'zgarayotgan sharoitda aniq tarzda o'zgardi. Avvaliga, banklar marketingini bank xizmatlariga bo'lgan talabni o'rganish, mijozlarni jalb qilish va rag'batlantirish maksadida o'rganishgan xolos. Banklarda marketing konsepsiyasi o'tgan asrning 80-yillaridagina tashkil topib, u tijorat banklarini boshqarish uchun asosiy mezon sifatida yuzaga keldi. Marketing strategiyasi, birinchi navbatda bankning o'z maxsulotiga emas, balki mijozlarning aniq ehtiyojlariga qaratilishi zarurligini taqozo qiladi. Shuning uchun marketing bank xizmatlarini, mijozlarning manfaatlarini moliya bozorida to'liq o'rganish va ehtiyojlarining o'zgarish tahlilini olib borishni nazarda tutadi. Bank marketingi rivojlanib borishi bilan ko'plab iqtisodchilar tomonidan ushbu mavzuda kitoblar va maqolalar chop etila boshlandi. Bank marketingining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari, asosiy vazifalari va uning boshqa nazariy tushunchalari ko'plab kitoblarda keltirilib o'tilgan.

Bank marketingining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Bank marketingining maqsadi – kapital bozori talablariga moslashish uchun zarur sharoitlar yaratish, bozorni o'rganish, raqobatbardoshlikni va foydalilikni oshirish bo'yicha tadbirlar tizimini ishlab chiqishdan iborat[3]. Bank marketingining boshqa muhim sohasi qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini tahlil qilish hisoblanadi. Bunga kreditlarni shartlaydigan omillarni o'rganish kiradi. Shuning uchun ham bank uchun qarz oluvchining kreditni kredit shartnomasidagi shartlarga mos ravishda qaytarish imkoniyati va shunga tayyorligini o'rganish juda muhimdir. Bank o'z zimmasiga oladigan tavakkal darajasini bilishi, shuningdek, o'zi bera oladigan kredit hajmini hisobga olishi shart. Mijozning kredit qobiliyatini tahlil qilish bilan bankning kredit bo'limi shug'ullanadi. U mijozlar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Marketingning asosiy maqsadi - bankdan to mijozgacha bo'lgan har bir jarayonda bank xizmatlari ko'rsatishda mukammal tezlikni ta'minlashdan iborat. Pul mablag'larining aylanish darajasi va sotilishi o'ta foydali bo'lishi, moliyaviy mablag'larni saqlashda kam xarajat talab qilinishi, mijozlar talabining o'z vaqtida qondirilishi va to'liq amalga oshirishga qodirlik shunday tezlikka erishishga imkon beradi. Tijorat banklarida marketingning bosh maqsadi mijozlarni doimiy jalb qilish hisoblanadi. Chunki, bankning mijozlari qancha ko'p bo'lsa, uning daromad olishi, barqaror faoliyat yuritishi mumkin. Bank marketingi aniq turdagi bank operatsiyalarining ta'sirini oshirishga yo'naltirilgan professional faoliyatdir. Bugungi kunda u to'liq talab qilib olinmagan va banklar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmagan soha xisoblanadi.

Bank marketingi samaradorligini oshirishning bir qancha usullari mavjud:		
1	Maqsadli reklama	Maqsadli auditoriyangizni aniqlang va ularning ehtiyojlari va afzalliklariga mos keladigan maxsus marketing kampaniyalarini yarating.
2	Shaxsiylashtirish	Shaxsiylashtirilgan tajriba yaratish uchun marketing xabarlari va takliflaringizni mijozlar ma'lumotlari va xatti-harakatlari asosida moslashtiring.
3	Raqamli marketing	Kengroq auditoriyani qamrab olish va yetakchilarni yaratish uchun ijtimoiy media, elektron pochta marketingi va qidiruv tizimini optimallashtirish

		kabi onlayn kanallardan foydalaning.
4	Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM)	Mijozlarning oʻzaro munosabatlarini kuzatish va boshqarish uchun CRM tizimini joriy qiling, bu esa mijozlarni yaxshiroq segmentatsiyalash va maqsadli marketing harakatlarini amalga oshirish imkonini beradi
5	Kontent marketingi	Bankingizni ishonchli moliyaviy ma'lumot manbai sifatida ko'rsatish uchun blog postlari, videolar va infografika kabi ma'lumot beruvchi va qimmatli kontent yarating
6	Yo'llanma dasturlari	Rag'batlantirish yoki mukofotlar berish orqali mavjud mijozlarni do'stlari va oila a'zolarini bankingizga murojaat qilishga undash.
7	Hamkorlik	Mahsulot yoki xizmatlarni oʻzaro targʻib qilish va mijozlar bazasini kengaytirish uchun boshqa biznes yoki tashkilotlar bilan hamkorlik qiling
8	Ma'lumotlar tahlili	Marketing strategiyalaringizni optimallashtirish va kampaniya samaradorligini oshirish imkonini beruvchi mijozlar xatti-harakati va afzalliklari haqida ma'lumot olish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalaning.
9	Mijozlar tajribasi	Ishonch va sodiqlikni mustahkamlash uchun barcha aloqa nuqtalarida mijozlarga ajoyib xizmat koʻrsatish va uzluksiz foydalanuvchi tajribasini taqdim etishga e'tibor qarating

10	Doimiy takomillashtirish	Raqobatchilardan oldinda qolish uchun fikr-mulohazalar, tahlillar va sanoat tendentsiyalari asosida marketing strategiyalaringizni muntazam ravishda baholang va takomillashtiring

Mamlakatimiz banklari tomonidan bank xizmatlarining rivojlanishida jahon tajribasidan foydalanish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan quyidagi holatlarga ahamiyat berish lozim. Chet el tajribasidan foydalanish samaradorligi, mamlakatimiz banklarining jahon kliring to'lov sistemasi doirasida hisob-kitoblarni o'tkazish zamonaviy shartlariga moslashishi, mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko'rsatganda xatarlarni boshqarish, elektron bank xizmatlarini tashkil etishda Internetdan foydalanish, investitsion bank xizmatlarini rivojlantirish, xususan, korporativ moliya sohasida aktivlarni ko'paytirish va boshqarish.

Xalqaro kapital bozorida bank xizmatlarini rivojlantirish uchun Respublikamiz banklari kredit tarixini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda ularning ustivor vazifalari bo'lib aksiyadorlik kapitaliga chet el investorlarini ma'lum darajada jalb etish hisoblanadi. Bu arzon kreditlarni olishga, xalqaro tajribadan foydalanish asosida bank xizmatlari va texnologiyalarini rivojlantirishga, mijozlarni ko'paytirishga va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Mamlakatimiz banklariga chet el tajribasini bank va mijoz uchun maqbul shaklida ishlab chiqish, bosqichma-bosqich tartibda ularni amalga oshirish, har bir bosqichda xatarni ajratish va baholashni tadbiq etish lozim. Bu amaliyotlar strukturasini kompleks tahlil etish, kontragentlarning kredit, valyuta va to'lov xatarini hamda xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi. Bank xizmatlari jahon tajribasidan foydalanish, respublikamiz banklari uchun segmentatsiyalangan yondoshishni qo'llaganda va korporativ mijozlar bilan ishlashda, eksportga yo'naltirilgan korporatsiyalarga va boshqa mijozlariga xizmat ko'rsatishda moslashtirilgan holda zarur. Tajribani jalb etishning muvaffaqiyatli bo'lishi bank xizmatlarining sifatiga bog'liq va «bank xizmatlari – hisobraqamlari bo'yicha aylanmalar - u bilan bog'liq xizmatlar» tamoyiliga asoslangan. Jahon tajribasidan foydalanishda, tashqi iqtisodiy faoliyat xatarlarni boshqarish muhim omil hisoblanadi, buning uchun xatarlar hisob-kitobi jadvalini ishlab chiqish lozim.

Bank tizimini rivojlantirish faqatgina kredit muassasalarning kapitalizatsiyasini orttirish bilan bog'liq bo'lmay, ishonchni ortishi va bank xizmatlari kapitalini rivojlanishi bilan birga olib borilishi lozim. Shuning uchun bank tizimini modernizatsiyalash maqsad va vazifalari mustahkam rivojlanishni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak.

Xizmat ko'rsatishni differensiyalash va bozor segmentatsiyasi orqali mijozlarni jalb qilish yaxshi natijalar berib, yangi xizmatlarning sotuvidan foydani ta'minlasada, ular ko'pincha qisqa davrda samaralidir. Chunki boshqa moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi firmalar tezlikda foydali bo'lgan differensiyalash va segmentatsiyalash sohasida osonlik bilan har bir bank amaliyotlarini bajarishi mumkin va bu holatda raqobat yuzaga keladi hamda bank yangi xizmat ko'rsatish g'oyasini izlashi zarur bo'ladi. Bozorda erishilgan afzallikni pasayishiga to'sqinlik qiladigan yo'llardan biri, boshqa xech qaysi xizmat ko'rsatuvchi firma foydalana olmaydigan esda qoladigan shiordan, savdo markasi yoki patentlangan nomdan foydalanishdir. Bu mijoz moliya muassasasining reklamasini ko'rganda yoki mazkur bankka borganda bank uchun kerak bo'lgan hissiyot va reaksiyani yuzaga keltiradi. Lekin, bu usullarning samaradorligi uzoqqa cho'zilmaydi. Shu bois bank boshqaruvi doimiy ilgarilab borib, o'zgarib turadigan sharoitda o'z mijozlarining talablari bo'yicha qadam tashlashi lozim. Shu bilan birga mijozlarni tez-tez o'rganib turish, mijozlar orasidan maslahatchi guruhlarni tashkil etish yoki mijozlar hohlagan vaqtlarida telefon qilib o'zlarining shikoyat va takliflarini ayta olish imkoniyatini beruvchi bepul telefon aloqalarini tashkil etish kerakli usullardan bo'lib qolaveradi.

Xulosa va takliflar. Hozirgi iqtisodiyotning "raqamlashuvi" sharoitida internet va axborot kommunikasion texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi natijasida bank tizimida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish jadallashib ketdi. Bugungi axborot texnologiyalari iqtisodiyotning muhim qismi bo'lib borayotgan davrda bank sektori kapitallashuvini oshirishni internet va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Zamonaviy global dunyoning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu raqamli texnologiyalarning hayotga kirib kelishi hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bank xizmatlarini masofadan boshqarish va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanishni nazarda tutuvchi "raqamli bank", "SMS-bankihg", "GSM-banking", "mobil banking", "internet banking", "onlayn banking" kabi tushunchalardan foydalanilmoqda. Mazkur vositalar bank tizimining zamonaviy shakllari hisoblanadi. Mamlakatimizda bank va moliya tizimini rivojlantirish, uning barqarorligini mustahkamlash, pul mablag'lari samarali aylanishiga erishish iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda zarur shartlardan biridir. Bu borada iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblangan tijorat banklarining faoliyatini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bank tizimini rivojlantirishda xorijiy banklar tajtibasini tahlil qilish asosida respublikamiz baklarida bank infratuzilmasini takomillashtirishga doir chora tadbirlar amalga oshirilishini takomillashtirish kerakligi zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 01.05.2023y. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, PF-4947, 07.02.2017-y.
2. Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” o’quv qo’llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2019 y. – 628 b.
3. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. Darslik. - T.: Moliya., 2019 y. - 304 b.
4. Abdullayeva Sh.Z. “Xalqaro valyuta- kredit munosabatlari”. Darslik. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2016. - 576 b.
5. Omonov A.A., Qoraliyev T.M., “Pul va Banklar” darslik. T.: “Iqtisod-Moliya” 2019 y. 461 b.
6. Abdullayeva Sh.Z. Azizov U.O’. Bank ishi Darslik 1-qism- T.: “Iqtisod-Moliya” 2019 y. 732 b.
7. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции.-М: URSS. 2019. -с.328.
8. Синки-мл.Джозеф.Ф. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. И.Альпина Паблишер.2019. 1018 с. - 461 б.
9. Кузнецова, Е.И. Деньги, кредит, банки: Учебное пособие / Е.И. Кузнецова. - М.: ЮНИТИ, 2019. - 567 с.
10. Чуваткин О.М. Технология управления рисками коммерческого банка- М.: ИЦ РИОР, 2017.- 128 с.

http://digital-yeconomy.ru

http://www.ziyonet.uz.

www.search.re.uz

https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1111

www.ictcouncil.gov.uz

www.yecsoman.yedu.ru

http://www.bibl.ru

http://www.bestlibrary.ru

http://www.lib.students.ru

© Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Raxmatova Shaxnoza Rustamovna

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHADISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O‘QITISH ISTIQBOLLARI

Omonov Qavmiddin Karimovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

“Tabiiy va texnika fanlar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

ORCID 0009-0000-3451-7559

qavmiddin@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘qitish jarayoniga ta’siri, uning didaktik imkoniyatlari hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, CAD tizimlari, adaptiv o‘qitish platformalari, 3D modellashtirish va avtomatlashtirilgan grafik tahlil vositalaridan foydalanishning istiqbollari tahlil qilingan. Sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri, grafik savodxonligi va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на процесс преподавания инженерной и компьютерной графики, их дидактические возможности и роль в повышении эффективности обучения. Также проанализированы перспективы использования CAD-систем, адаптивных обучающих платформ, 3D-моделирования и средств автоматизированного графического анализа. Раскрыты возможности развития пространственного мышления, графической грамотности и творческих компетенций обучающихся с помощью технологий, основанных на искусственном интеллекте.

Abstract. This article discusses the impact of artificial intelligence technologies on the teaching process of engineering and computer graphics, their didactic capabilities, and their role in improving educational efficiency. The prospects of using CAD systems, adaptive learning platforms, 3D modeling, and automated graphic analysis tools are also analyzed. The article highlights the opportunities for developing students’ spatial imagination, graphic literacy, and creative competencies through artificial intelligence-based technologies.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, CAD tizimlari, 3D modellashtirish, grafik savodxonlik, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

Ключевые слова: искусственный интеллект, инженерная графика, компьютерная графика, CAD-системы, 3D-моделирование, графическая грамотность, цифровое образование, инновационные технологии.

Keywords: artificial intelligence, engineering graphics, computer graphics, CAD systems, 3D modeling, graphic literacy, digital education, innovative technologies.

Kirish. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quv jarayoniga kirib kelishi muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o'qitishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish, loyiha-konstruktorlik va sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanilishi muhandislik grafikasi fanining mazmunini ham yangilashni talab etmoqda.

Muhandislik grafikasi texnik fikrlash, fazoviy tasavvur va konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. Kompyuter grafikasi esa mazkur jarayonni raqamli muhitda amalga oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar ushbu fanlarni o'qitishni avtomatlashtirish, individuallashtirish va interaktivlashtirishga xizmat qilmoqda.

Sun'iy intellektning muhandislik grafikasidagi o'rni. Sun'iy intellekt texnologiyalari muhandislik grafikasida chizmalarni avtomatik tahlil qilish, modellashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Hozirgi kunda AutoCAD, SolidWorks, KOMPAS-3D, Fusion 360 kabi dasturlarda sun'iy intellekt elementlari joriy qilinmoqda. Ushbu tizimlar chizmalarni avtomatik aniqlash, geometrik xatolarni topish, o'lchamlarni optimallashtirish, konstruktsion tavsiyalar berish, 3D modellarni avtomatik hosil qilish imkoniyatlariga ega.

Natijada o'quvchilar murakkab grafik amallarni tezroq bajarish bilan birga, konstruktorlik faoliyatiga yaqinlashadilar.

Sun'iy intellekt yordamida muahdislik va kompyuter grafikasidagi ayrim standart operatsiyalar avtomatlashtiriladi. Bu esa o'qituvchiga nazariy tushuntirishdan ko'ra ijodiy va tahliliy faoliyatga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi.

Kompyuter grafikasi fanida sun'iy intellekt imkoniyatlari. Kompyuter grafikasi fanida sun'iy intellect 3D modellashtirish, vizual simulyatsiya, animatsiya, virtual obyektlarni yaratish, grafik interfeyslarni loyihalash jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirmoqda.

Masalan, generativ SI texnologiyalari yordamida oddiy grafik eskiz asosida murakkab uch oʻlchamli model hosil qilish mumkin. Bu oʻquvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish bilan birga, vaqt tejamkorligini ham taʼminlaydi.

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida tasvirlarni avtomatik render qilish, ranglar uygʻunligini tavsiya etish, obyektlarni teksturalash, animatsion effektlarni yaratish imkoniyati kengaymoqda.

Bunday texnologiyalar dizayn, arxitektura va ishlab chiqarish sanoatida muahandislik va kompyuter grafikasini oʻqitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adaptiv ta'lim va individuallashtirish imkoniyatlari. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalarining muhim afzalliklaridan biri adaptiv oʻqitish imkoniyatidir. Tizim oʻquvchining bilim darajasini tahlil qiladi va unga mos topshiriqlarni tavsiya etadi.

Muhandislik va kompyuter grafikasida ayrim oʻquvchilar proyeksiyalashni tez oʻzlashtirsa, boshqalari fazoviy tasavvur bilan bogʻliq qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Sun'iy intellekt ana shu individual farqlarni aniqlab mos murakkablikdagi topshiriqlar beradi, xatolarni tahlil qiladi, tavsiyalar ishlab chiqadi va oʻquvchining rivojlanish dinamikasini shakllantiradi.

Bu esa oʻquv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bilimlarni chuqurroq oʻzlashtirishga yordam beradi.

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari. Sun'iy intellekt virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda muhandislik va kompyuter grafikasini oʻqitishda yangi bosqichni yuzaga keltirmoqda.

VR texnologiyalari yordamida oʻquvchilar detalni hajmiy shaklda koʻrib uni aylantirib kuzatadi va kesim va qirqimlarni real vaqt rejimida tahlil qiladi.

AR texnologiyalari esa real muhitda virtual modellarni koʻrsatish imkonini beradi. Bu esa mashinasozlik, arxitektura, qurilish chizmachiligi hamda mexanika fanlarini oʻqitishda samarali hisoblanadi.

Sun'iy intellekt asosida baholash tizimi. An'anaviy baholashda oʻqituvchi chizmalarni qoʻlda tekshiradi. Sun'iy intellekt esa grafik ishlarni avtomatik baholash imkonini yaratmoqda. Tizimda chiziqlarning aniqligini, standart talablariga mosligini, proyeksiyalar orasidagi bogʻlanishni va koʻplab oʻlchamlarning toʻgʻriligini avtomatik tahlil qiladi.

Bu esa baholashdagi subyektivlikni kamaytiradi hamda oʻqituvchining vaqtini tejaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy qilish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud bo'lib ular texnik bazaning yetarli emasligi, zamonaviy dasturiy vositalarning qimmatligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi, internet infratuzilmasidagi cheklovlar, akademik halollik bilan bog'liq masalalar va shunga omillar.

Sun'iy intellektdan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning mustaqil grafik fikrlash faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli AI texnologiyalaridan yordamchi vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Muhandislik va kompyuter grafikasi ta'limining kelajak istiqbollari. Kelajakda sun'iy intellekt muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o'qitishning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda. Ayniqsa generativ dizayn, aqlli CAD tizimlari, avtomatik modellashtirish, raqamli egizak (Digital Twin), neyrotarmoqlar asosidagi grafik tahlil tizimlari ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Bunday texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini, konstruktorlik qobiliyatini, muhandislik kompetensiyasini, innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalari muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o'qitishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ular grafik faoliyatni avtomatlashtirish, interaktivlashtirish va individuallashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, 3D modellashtirish, CAD tizimlari, virtual reallik va adaptiv o'qitish platformalari o'quvchilarning grafik savodxonligi hamda texnik tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sun'iy intellektni muhandislik grafikasi ta'limiga integratsiya qilish zamonaviy raqamli ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. *Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi*. – Toshkent, 2010.
2. Vinogradov V.N. *Черчение и инженерная графика*. – Moskva, 2018.
3. Simmons C.H. *Manual of Engineering Drawing*. – Oxford, 2004.
4. Омонов К.К., Маматов Д.К. Создание трехмерной многогранной сети по вершинам САПР AutoCAD // Молодой учёный. № 11 (2014). С. 93-95.
5. Ruziyevich, S. T., & Karimovich, O. Q. (2021). Graphical Basis Of Girikh Used In Traditional Applied Decorative Art Of Central Asia In The 9-15 th Centuries. *Journal of Contemporary Issues in Business & Government*, *27*(1).

6. Omonov Qavmiddin Karimovich. (2023). GEOMETRIK TAHLIL ASOSINDA MELIK AJAR MAQBORASINING UCH O'LCHAMLI KO'RINISHINI YARATISH METODOLOGIYASI. *IMRAS* , *6* (8), 186–190. https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/705 dan olindi.
7. Karimovich, O. Q. (2023). METHODOLOGY OF CREATING A THREE-DIMENSIONAL VIEW OF MELIK ADJAR MAUSOLEUM BASED ON GEOMETRIC ANALYSIS. *IMRAS*, *6*(8), 186-190.
8. Бадиев, М. М. (2020). Сталактиты в архитектуре средней азии. *Academy*, (11 (62)), 53-55.
9. Omonov, Q. (2023). PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA CHIZMACHILIK FANINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/219
10. Omonov, Q. (2023). ABU NASR FAROBIYNING GEOMETRIK YASASHLARINI MUHANDISLIK GRAFIKASIDA O'QITISHNING SAMARALI USULLARI. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/218
11. Ne'matjon, S. (2024). TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA UMUMKASBIY FANLARNI AXBOROT TA'LIM MUHITIDA O 'QITISHNING MUHIM YO 'NALISHLARI. Uz-Conferences.
12. Ne'matjon, S. (2024). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA UMUMKASBIY FANLARNI O 'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI. Uz-Conferences.
13. Hayitboyeva, Z. . (2025). RAQAMLI PEDAGOGIKA TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOSLIKLARI. *Молодые ученые*, *3*(49), 21–23. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/67472

© , 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY 3D MODELINING AFZALLIGI

Ilyasov A.S. Navoiy innovatsiyalar universiteti *E-mail: azizilyasov63@gmail.com*. **Sadilloyeva L.S**. katta o'qituvchi Navoiy innovatsiyalar universiteti. **Kamolova F.I.** Navoiy innovatsiyalar universiteti (Navoiy. O'zbekiston)

Annatatsiya: Ushbu maqolada o'rta umumta'lim maktablarida biologiya darslarini o'qitishda zamonaviy 3d modelining afzalligi yoritilgan bo'lib, maktab o'quvchilarining tabiiy fanlardan dars va darsdan tashqari o'quv foaliyatida motivatsiyasini, qiziqishini, ijodiy qobiliyatini oshirishga va kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida "Biologiya" fanini axborot texnologiyalari vositalari, xususan uch o'lchovli o'quv vositalardan foydalanib tashkil etishni taqozo etadi. Shu bilan birga o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatida fanni o'rgatishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tuzilmadan foydalanish tavsiya etildi. Bunda o'quvchilarga biologiya fanini o'rgatishda zamonaviy ta'lim texnologiyasi foydalanish ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, o'quvchi, 3d model, ta'lim texnologiyasi, kompetensiya.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashuvi hamda o'quvchilarning kompyuter texnologiyalariga bo'lgan qiziqishi oshishi tufayli umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlarni, jumladan biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda va o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etishda uch o'lchovli o'quv vositalarni joriy etish zaruriyati mavjudligini anglatadi. Bunday vaziyatda o'qituvchi mashg'ulotlarni tashkil etishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish taqozo etadi [Karsenti T.,2015].

Shu bois, biologiya fani o'qituvchilari doimiy ravishda o'zi ustida ishlash oraqli o'quvchilarning faolligi oshirib borishni talab etadi [Karsenti T.,2015]. Agar o'qituvchi "Biologiya" darslari davomida o'quvchilarning faoliyatini bevosita nazorat qilsa va aloqada bo'lsa, fanni mustaqil ravishda o'rganish madaniyatini shakllantirish imkoniyatiga erishish mumkin.

Shu maqsadda tadqiqot doirasida "Biologiya" fanini o'qitish va o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etish modeli ishlab chiqildi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv kompetensiyalarni «kesishgan, qo'shimcha va metasubjetli tuzilmalar, an'anaviy bilimlarni ham, har xil umumlashtirilgan intellektual, ijodiy, mafkuraviy, uslubiy, muloqot va boshqa ko'nikmalarni birlashtiradi» [F.

Zakirova., 2010]. Olimlarning fikriga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanining o'qitish samaradorligini oshirishda uch o'lchovli o'quv vositalardan foydalanish vazifa sifatida keltirilgan va o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etish nazarda tutilgan.

H.R. Shodiyevning (2024) fikricha o'quvchilarning mustaqilligini oshirish uchun kompetensiyaga asoslangan ta'limni joriy etish lozim. Olimning fikricha, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, birinchi navbatda, ma'lumotga ega bo'lishni emas, balki har xil, shu jumladan, yangi vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Taxlil va natijalar. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning muhim xususiyatlari protsessuallik va amaliyotga yo'naltirilganlikdan iborat. Protsessuallik shuni anglatadiki, kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilimlarni o'qituvchidan o'quvchiga yetkazish emas, balki o'quvchining assimilyatsiya qilish faoliyatiga qo'shish va ijtimoiy-madaniy tajribani yanada takomillashtirishga qaratilgan. Amaliyotga yo'naltirish – bu o'quvchining kundalik amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri qo'llashga yo'naltirish asosida real hayotga tayyorlashni nazarda tutadi. Shuningdek, o'quvchining qobiliyat va malakalarini rivojlantirishga, o'zini-o'zi anglashga yo'naltirishga, berilgan topshiriqlarni bajarish orqali qiziqish, moyillik va qobiliyatni to'liq hisobga olishga imkon beradi [И.Н. Шегай 2019].

Keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini kompetensiyaviy yondashuvli o'qitish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqot doirasida ushbu g'oya ilgari surilmoqda.

Bunda, ya'ni 9-sinf biologiya fanining kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda uch o'lchovli virtual stendlar, videodarslar, laboratoriyalar, ko'rgazmali qurollar, izohli lug'atlar muhim pedagogik dasturiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu o'quv vositalarni o'zida mujassamlashtirgan, global tarmoqning bio-3d.uz manzilida axborot ta'lim muhiti ishlab chiqildi.

Shundaya qilib, 9-sinf o'quvchilarining ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modeldan foydalanish taklif etiladi. Bunda biologiya ta'lim va tarbiya jarayoni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilib, bo'quvchilarning mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishga va kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda tadqiqot davomida taklif etilayotgan modeldan foydalanish taklif etiladi.

O'quvchilarga biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda va o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda didaktik ta'minotni takomillashtirish zarurati mavjudligi ma'lum bo'ldi. Shu maqsadda tadqiqot doirasida

axborot ta'lim muhiti ishlab chiqildi va unga uch o'lchovli o'quv vositalar shakllantirildi. Ushbu axborot ta'lim muhiti o'quvchilarning biologiya faniga bo'lgan qiziqishini oshirishga va mustaqil ravishda tabiiy jarayon va hodisalarni o'rgatishga mo'ljallangaligi bilan samarali hisoblanadi.

Xulosalar.

O'quvchilarning biologiya faniga oid motivatsiyasini oshirishda, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda hamda kompetensiyalarini shakllantirishda mavzularni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uch o'lchovli o'quv vositalardan foydalanish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 9-sinf biologiya darslarini tashkil etishda uch o'lchovli o'quv vositalardan foydalanish metodikasi takomillashtirildi.

Adabiyotlar.

- Karsenti T., Simon Collin S. Une étude sur les apports des ordinateurs portables au primaire et au secondaire [Электронный ресурс]. – URL: https://halshs.archives-ouvertes.fr/edutice-00676148/document(дата обращения: 18.03.2015).
- Karsenti T., Fievez A. L`iPad à l'école: usages, avantages et défis [Электронный ресурс]. – URL: http://karsenti.ca/ipad/pdf/ rapport_iPad_Karsenti-Fievez_FR.pdf (дата обращения: 25.04.2015).
- Zakirova F., Muxammadxanov U., Sharipov Sh. va boshqalar. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi // Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2010. – 64 b.
- КрыловаТ.И. Средства современных информационно-коммуникационных технологий в организации домашней работы по биологии // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – *Москва, 2010. – 18 с.*
- Shodiyev H. R. Uzluksiz ta'lim tizimida geografiyani o'qitishda axborot ta'lim muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Navoiy – 2024. – 274 b
- Шегай И.Н. Использование технологии 3D-моделирования как фактор развития внеурочной проектной деятельности школьников. Специальность 13.00.02 – теория и методика обучения и воспитания *(информатизация образования)* Научный доклад об основных результатах научно-квалификационной работы Москва – 2019. – 23 с.
- Sharapova G.V. Immunologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida) // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diccertatsiya. – Toshkent, 2022. – 159 b.

© Ilyasov A.S., 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ilyasov A.S., Sadilloyeva L.S., Kamolova F.I.

YASHIL IQTISODIYOT UCHUN INNOVATSION RAQAMLI YECHIMLAR: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT

Usmanova Sevinch Uktam qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

"Tabiiy va texnika fanlari" kafedrasi

Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **p.f.b.f.d.(PhD), professor S.A.Axmedova**

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion raqamli yechimlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, sun'iy intellekt, Big Data va IoT texnologiyalarining ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya jarayonlari tahlil etiladi. Shuningdek, milliy amaliyotni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalar yashil iqtisodiyotga o'tishda raqamli texnologiyalarning muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, Big Data, IoT texnologiyalari, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, innovatsion yechimlar, aqlli boshqaruv, raqamli iqtisodiyot

Аннотация: в данной статье рассматривается роль инновационных цифровых решений в условиях зеленой экономики. Особое внимание уделяется применению технологий искусственного интеллекта, Big Data и IoT в обеспечении экологической устойчивости. В исследовании анализируется международный опыт развитых стран, а также процессы цифровой трансформации и перехода к зеленой экономике в Узбекистане. Кроме того, предлагаются рекомендации по совершенствованию национальной практики. Результаты показывают, что цифровые технологии являются важным фактором устойчивого развития.

Ключевые слова: Зелёная экономика, цифровая трансформация, искусственный интеллект, Big Data, технологии IoT, устойчивое развитие, экологическая устойчивость, инновационные решения, умное управление, цифровая экономика

Abstract: This article examines the role of innovative digital solutions in the context of a green economy. Particular attention is paid to the application of artificial intelligence, Big Data, and IoT technologies in ensuring environmental sustainability. The study analyzes the international experience of developed countries as well as the processes of digital transformation and green economy development in Uzbekistan. In addition, recommendations for improving national practices are proposed. The results indicate that digital technologies are a key factor in achieving sustainable development.

Keywords: Green economy, digital transformation, artificial intelligence, Big Data, IoT technologies, sustainable development, environmental sustainability, innovative solutions, smart governance, digital economy

So‘nggi yillarda jahonda ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda atrof-muhitga antropogen ta’sirning ortib borishi global iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan yashil iqtisodiyot modeli zamonaviy iqtisodiyotni transformatsiya qilishda muhim vositaga aylanmoqda.

Xalqaro miqyosda United Nations tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, World Bank hamda boshqa xalqaro moliya institutlari yashil iqtisodiyotga o‘tishni iqtisodiy o‘sishning yangi drayveri sifatida baholamoqda. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) va IoT tizimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi 2019–2030” doirasida iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni rag‘batlantirib, barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda ham mazkur yo‘nalish keng o‘rganilgan. Jumladan, Joseph Stiglitz yashil iqtisodiyotga o‘tishda davlatning faol roli va institutsional islohotlarning muhimligini ta’kidlaydi. Nicholas Stern esa iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy jihatdan ham samarali ekanligini asoslab beradi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar raqamli transformatsiya va yashil

iqtisodiyot integratsiyasi ekologik muammolarni hal etishda yangi imkoniyatlar yaratishini qayd etmoqdalar.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari orqali ekologik monitoring tizimlarini yaratish, Big Data asosida resurslardan foydalanishni optimallashtirish hamda "aqlli" boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, "aqlli shahar" konsepsiyasi doirasida energiya tejovchi texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi yechimlar keng qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda mazkur yo'nalishda qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular qatoriga texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi cheklovlar kiradi. Bu esa xalqaro tajribani chuqur o'rganish va milliy amaliyotga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyot uchun innovatsion raqamli yechimlarning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida ularni qo'llash imkoniyatlarini baholashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

1. Xalqaro tajriba: yashil iqtisodiyot va raqamli yechimlar integratsiyasi

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreyada "aqlli" boshqaruv tizimlari, raqamli monitoring va sun'iy intellekt asosidagi yechimlar keng joriy etilgan.

Masalan:

- Sun'iy intellekt (AI) orqali energiya iste'molini optimallashtirish
- Big Data yordamida ekologik holatni prognoz qilish
- IoT (Internet of Things) orqali real vaqt monitoringi

Quyidagi jadvalda ayrim davlatlar tajribasi keltirilgan:

Jadval 1. Xalqaro tajribada raqamli yashil yechimlar

Davlat	Texnologiya	Qo'llanish sohasi	Natija

Germaniya	AI, IoT	Energetika	Energiya tejamkorligi oshdi
AQSh	Big Data	Ekologik monitoring	Aniq prognoz tizimi yaratildi
Yaponiya	Smart city	Shahar boshqaruvi	Resurslar samaradorligi oshdi
Janubiy Koreya	Raqamli platforma	Transport va logistika	CO_2 chiqindilari kamaydi

2. Raqamli texnologiyalar orqali ekologik samaradorlik

Raqamli transformatsiya yashil iqtisodiyotda quyidagi asosiy yo'nalishlarda samaradorlikni oshiradi:

2.1. Energiya boshqaruvi

Sun'iy intellekt yordamida energiya iste'moli tahlil qilinib, ortiqcha sarf kamaytiriladi.

2.2. Ekologik monitoring

IoT sensorlari orqali havo, suv va tuproq holati doimiy nazorat qilinadi.

2.3. Resurslardan oqilona foydalanish

Big Data asosida ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi.

Diagramma 1. Raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot o'zaro bog'liqligi

Raqamli texnologiyalar

↓

(Sun'iy intellekt, Big Data, IoT)

↓

Tahlil va monitoring

↓

Resurslarni optimallashtirish

↓

Ekologik barqarorlik

↓

Yashil iqtisodiyot

3. Oʻzbekiston sharoitida milliy amaliyot tahlili

Oʻzbekistonda yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya birgalikda rivojlanmoqda. Xususan:

• Energetika sohasida raqamli hisoblagichlar joriy etilmoqda
• Qishloq xoʻjaligida aqlli sugʻorish tizimlari qoʻllanilmoqda
• Shahar infratuzilmasida “aqlli shahar” elementlari rivojlanmoqda

Jadval 2. Oʻzbekistonda joriy etilayotgan raqamli yashil loyihalar

Soha	Texnologiya	Amalga oshirilayotgan ishlar
Energetika	Smart meter	Elektr energiyasi nazorati
Qishloq xoʻjaligi	IoT	Aqlli sugʻorish tizimlari
Transport	Raqamli monitoring	Yoqilgʻi sarfini kamaytirish
Ekologiya	Big Data	Atrof-muhit monitoringi

4. Muammolar va cheklovlar

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, quyidagi muammolar mavjud:

• Raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi
• Malakali IT mutaxassislar yetishmasligi
• Investitsiya va moliyaviy resurslarning cheklanganligi
• Maʼlumotlar bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi

5. Tahliliy model (ilmiy yondashuv)

Quyidagi sxema yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyaning integratsion modelini koʻrsatadi:

Innovatsiya

+

Raqamli texnologiya

+

Davlat siyosati

↓

Yashil iqtisodiy tizim

↓

Barqaror rivojlanish

6. Asosiy ilmiy natijalar

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- Raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotning asosiy drayveri hisoblanadi
- AI va Big Data ekologik muammolarni oldindan aniqlash imkonini beradi
- Xalqaro tajriba milliy amaliyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega
- Integratsiyalashgan yondashuv eng samarali model hisoblanadi

Mazkur tadqiqot doirasida yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda innovatsion raqamli yechimlarning barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rni asoslab berildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida ekologik muammolarni hal etish faqat an’anaviy usullar orqali emas, balki ilg‘or raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali samarali amalga oshiriladi.

Xususan, sun’iy intellekt, Big Data va IoT texnologiyalari resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, prognozlash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengayadi. Natijada iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlik ham ta’minlanadi.

Tadqiqot jarayonida xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlarda yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya integratsiyasi yuqori natijalarni bermoqda. Ayniqsa, “aqlli shahar” konsepsiyasi, raqamli energetika tizimlari va ekologik monitoring platformalari orqali tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshirilgan. Bu esa O‘zbekiston uchun ham muhim tajriba maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida ham yashil iqtisodiyotga o‘tish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi cheklovlar hamda ma’lumotlar bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu yo‘nalishdagi asosiy to‘siqlar hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyani uyg‘unlashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bunda davlat siyosatini takomillashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va raqamli ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni ko‘paytirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot uchun innovatsion raqamli yechimlarni joriy etish barqaror rivojlanishga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida iqtisodiy o‘sish va ekologik xavfsizlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash mumkin. Kelgusida ushbu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. – Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, 2020.
2. Vahobov A.V. – Makroiqtisodiyot. Toshkent, 2019.
3. Qodirov A.M. – Innovatsion iqtisodiyot asoslari. Toshkent, 2021.
4. Tursunov B.O. – Raqamli iqtisodiyot. Toshkent, 2022.
5. Jo‘rayev S.N. – Barqaror rivojlanish nazariyasi. Toshkent, 2020.
6. Yusupov N.B. – Ekologik iqtisodiyot. Toshkent, 2018.
7. Karimov I.A. – Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
8. Mirziyoyev Sh.M. – Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
9. Xudoyberdiyev Z.R. – Yashil iqtisodiyot asoslari. Toshkent, 2022.
10. Rasulov A.A. – Axborot texnologiyalari va iqtisodiyot. Toshkent, 2021.

© Usmanova Sevinch Uktam qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Usmanova Sevinch Uktam qizi

AN INTERACTIVE MODEL FOR TEACHING CLASSICAL LITERATURE BASED ON MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES

Shaxobova Sitorabonu Shopulat qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti filologiya va tillarni o'qitish, ingliz tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Ezoza Qilichova

Navoiy innovatsiyalar universiteti filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mumtoz adabiyotlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'qitish modeli tahlil qilinadi. Tadqiqotda multimedia vositalari, onlayn platformalar va raqamli pedagogika metodlarining o'quv jarayonidagi samaradorligi yoritilgan. Interaktiv yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, adabiy matnlarni chuqur anglash va o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Natijada, innovatsion o'qitish modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, interaktiv o'qitish, mumtoz adabiyot, multimedia, pedagogika

ABSTRACT

This article explores an interactive model for teaching classical literature based on modern digital technologies. It examines the effectiveness of multimedia tools, online platforms, and digital pedagogical approaches in enhancing the learning process. The interactive model fosters students' critical thinking, deep comprehension of literary texts, and learning motivation. As a result, an innovative teaching framework is proposed.

Keywords: digital technologies, interactive learning, classical literature, multimedia, pedagogy

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается интерактивная модель обучения классической литературе на основе современных цифровых технологий. Анализируется эффективность мультимедийных средств, онлайн-платформ и цифровых педагогических подходов. Интерактивный метод способствует развитию

критического мышления, глубокому пониманию текстов и повышению мотивации обучающихся. Предлагается инновационная модель обучения.

Ключевые слова: цифровые технологии, интерактивное обучение, классическая литература, мультимедиа, педагогика

INTRODUCTION

Classical literature plays a vital role in shaping cultural identity, moral values, and intellectual development. It provides insights into historical contexts, philosophical ideas, and artistic expressions. However, traditional methods of teaching classical literature often rely on passive reading and memorization, which may not effectively engage modern students.

In today's digital era, learners are more accustomed to interactive and technology-based environments. Therefore, integrating digital tools into literature education is essential to meet contemporary educational needs. This research aims to design and justify an interactive teaching model based on modern digital technologies to improve the effectiveness of teaching classical literature.

The rapid development of digital technologies has significantly transformed modern education, creating new opportunities for teaching and learning processes. In particular, the teaching of classical literature has been influenced by these changes, as traditional approaches are no longer sufficient to fully engage students who are accustomed to digital environments. Classical literary works are often complex in language, structure, and meaning, which may create difficulties for learners when taught through conventional methods. Therefore, the integration of digital technologies into literature education has become a necessary and effective solution. One of the key aspects of digital learning is the use of multimedia resources. Multimedia tools such as videos, audio recordings, animations, and interactive presentations allow students to experience literary texts in a more vivid and engaging way. For example, audio versions of poems help learners understand rhythm, tone, and pronunciation, while video adaptations provide visual interpretations of characters and сюжет. This multimodal approach supports different learning styles and enhances students' comprehension of complex literary concepts. As a result, learners are more likely to develop a deeper emotional and intellectual connection with classical texts.

In addition to multimedia, online learning platforms play an important role in organizing and managing the educational process. Platforms such as Google Classroom, Moodle, and other learning management systems enable teachers to share materials, assign tasks, and provide feedback efficiently. These platforms also support communication between students and teachers, allowing discussions to continue beyond the classroom. Through forums, chats, and collaborative tools, students can

exchange ideas, analyze literary works, and develop critical thinking skills. This type of interaction transforms passive learning into an active and student-centered process.

Another important component of the interactive model is the use of gamification and digital assessment tools. Interactive quizzes, games, and problem-solving activities make learning more enjoyable and motivating for students. Tools such as Kahoot and Quizizz provide immediate feedback, helping learners identify their strengths and weaknesses. This not only improves knowledge retention but also encourages continuous learning. Furthermore, digital assessment allows teachers to monitor student progress more effectively and adapt their teaching strategies accordingly.

The proposed interactive teaching model is based on several interconnected stages that ensure a comprehensive learning experience. At the initial stage, students are introduced to the literary text through digital means, such as e-books, audio materials, or short video presentations. This stage aims to capture students' interest and provide a general understanding of the text. At the next stage, learners engage in analytical activities, including guided questions, annotations, and interactive exercises. These tasks help students explore themes, characters, and stylistic features in detail.

The third stage focuses on collaborative learning, where students participate in group discussions, either in the classroom or through online platforms. During this stage, learners share their interpretations, debate different viewpoints, and develop communication skills. Such interaction not only deepens their understanding of the text but also promotes social learning and teamwork. Finally, at the creative stage, students apply their knowledge by completing independent projects, such as writing essays, creating digital presentations, or producing short videos based on literary works. This stage encourages creativity, originality, and critical thinking.

Despite the numerous advantages of digital technologies, their implementation in education also presents certain challenges. One of the main issues is the lack of technological resources in some educational institutions. In addition, teachers may not always have sufficient digital competence to effectively use modern tools in their teaching practice. Another challenge is the unequal access to technology among students, which may create gaps in learning opportunities. To overcome these challenges, it is essential to invest in digital infrastructure, provide professional training for teachers, and ensure equal access to technological resources for all learners.

Overall, the integration of digital technologies into the teaching of classical literature creates a dynamic and interactive learning environment. It shifts the focus from teacher-centered instruction to student-centered learning, where learners actively participate in the educational process. This approach not only improves comprehension of literary texts but also develops essential skills such as critical thinking, creativity,

collaboration, and digital literacy. Therefore, the use of modern technologies in literature education is not only beneficial but also necessary in the context of contemporary education.

In conclusion, the integration of modern digital technologies into the teaching of classical literature represents an effective and innovative approach. The proposed interactive model not only increases student engagement but also enhances comprehension, critical thinking, and creativity.

Therefore, the adoption of digital and interactive teaching methods is essential for improving the quality of literature education in the modern world.

REFERENCES:

Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: BCcampus.

Mayer, R. E. (2020). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

Anderson, T. (Ed.). (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.

Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.

Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10.

© Шахобова Ситорабону Шопулатовна, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Шахобова Ситорабону Шопулатовна

“ O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT” – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI

Irisov Akramjon Avazovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

“Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar ”

kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining mazmuni, xalqaro va milliy darajadagi ahamiyati yoritilgan. Unda barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan strategiyalar tahlil qilinadi. O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan “Yashil makon” loyihasi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivoji ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, qayta tiklanuvchi energiya, resurslar samaradorligi, “Yashil makon”, O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Abstract: This thesis outlines the content of the "green economy" concept and its international and national significance. It analyzes strategies aimed at sustainable development, ecological balance, and efficient resource utilization. The measures being implemented in Uzbekistan to introduce the "green economy," specifically the "Green Space" project and the development of renewable energy sources, are discussed.

Key words: green economy, sustainable development, ecological security, renewable energy, resource efficiency, "Green Space," Uzbekistan – 2030 strategy, environmental protection.

Аннотация: В данной диссертации раскрыто содержание концепции “зеленой экономики”, её международное и национальное значение. Анализируются стратегии, направленные на устойчивое развитие, экологический баланс и эффективное использование ресурсов. Рассматриваются меры, предпринимаемые в Узбекистане для внедрения “зеленой экономики”, в частности, проект “Зеленое пространство” и развитие возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая безопасность, возобновляемая энергия, эффективность ресурсов, “Зеленое пространство”, стратегия Узбекистан – 2030, охрана окружающей среды.

Jahonda yuz berayotgan global ekologik muammolar va sayyoramiz aholisi o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi paydo bo‘lishiga olib keldi. Dunyoda bir necha yillardan buyon iqlim o‘zgarishiga qarshi maqsadli kurash davom etayotgani ana shu yo‘ldagi sa’y-harakatlar natijasidir. Chunki kelajakni usiz tasavvur etish mushkul. “Yashil iqtisodiyot”ni barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi, desak mubolag‘a emas. Uning asosiy maqsadi, tabiiy resurslarni saqlash va global ekologik halokatning oldini olishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda “yashil” iqtisodiyot masalasida to‘rtta asosiy yondashuv mavjud:

− umumiqtisodiy – iqtisodiyotni ekologizatsiyalashtirish;

− tarmoqli – “yashil” tarmoqlarni rivojlantirish;

− texnologik – ekologik toza oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini yaratishni ta’minlaydigan yangi texnologiyalar;

−sivilizatsion/axloqiy-texnologik

– jamiyat madaniyati va qadriyatlarini o‘zgartirish orqali ongli o‘tish[1]

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish borasida xalqaro miqyosda yetarli tajriba to‘plangan va bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Rivojlangan davlatlarning “yashil iqtisodiyot” bo‘yicha tajribasini o‘rganish va undagi eng muhim yo‘nalishlarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalga oshirish uzoq muddatli barqaror rivojlanish siyosatining muhim jihati hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi iqlim muvozanatiga erishish, biologik xilma-xillikni saqlash, hayot sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun ekologik toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni faol ravishda targ‘ib qilmoqda.[2]

Aytish joizki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bu boradagi ustuvor vazifalar belgilab olingan. Xususan, BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash bilan birga iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish bo‘yicha bir qancha maqsadlar belgilab olingan.[3]

Barqaror o‘sish “yashil iqtisodiyot” kontekstida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolar o‘rtasida muvozanatga erishishni anglatadi. Bu iqtisodiy rivojlanishni ekotizimlar va kelajak avlodlar farovonligiga zarar yetkazmasdan ta’minlaydigan strategiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Biroq, “yashil iqtisodiyot” doirasida barqaror o‘sishni ta’minlash turli muammolarni keltirib chiqaradi, jumladan, energetika va ishlab chiqarish infratuzilmasini o‘zgartirish zarurati, siyosiy va institutsional muhitda o‘zgarishlar kiritish, an’anaviy iqtisodiy tarmoqlarning qarshiligini yengib o‘tish masalalari shular jumlasidandir. O‘zbekiston ham iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi tufayli global ekologik muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli, mamlakat barqaror rivojlanish yo‘lida muhim qadamlarni qo‘ymoqda. 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilgan. O‘zbekistonda “yashil” rivojlanish milliy harakat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan turli ekologik loyihalar ilgari surilmoqda. Jumladan, “Yashil makon” milliy loyihasi doirasida o‘rmonlarni tiklash va yashil hududlarni kengaytirish, shuningdek, quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ushbu tadbirlar ekologik holatni yaxshilash bilan birga mamlakatning energetik mustaqilligini kuchaytirishga va aholi hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tabiiy gaz, chiqindilar va chorvachilik sohalarida metan emissiyasining bazaviy holati aniqlanadi. Umumiy quvvati 4,5 gigavattli yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, quvvati 785 megavattli quyosh panellari o‘rnatish, quvvati 225 megavatt bo‘lgan gidroelektr stansiyalari barpo etish orqali jami qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda 26 foizga, jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushi 40 foizga yetkaziladi. Yangi quriladigan bino inshootlari va uy-joylarning energiya samaradorligidan kelib chiqib, “yashil bino” sertifikati joriy qilinadi. Mamlakatimizda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalarni hal etib borish har doim ustuvor bo‘lib qoladi. Iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish, ekologik vaziyatni yaxshilash va dunyodagi ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qilish barobarida odamlar turmush tarziga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Вукович Н. А. “Зеленая” экономика: определение и современная эколого-экономическая модель // Вестник УрФУ. Серия экономика и управление. 2018. Т. 17. No 1. С. 128–145.

2. Mustafaev, M. (2018). Yashil iqtisodiyot va resurslarni boshqarish: O‘zbekiston tajribasi. Tashqi savdo va iqtisodiy integratsiya, 1(12), 51-60.

3. Jumayev, R. (2019). Ekologik xavfsizlik va yashil iqtisodiyotga o'tish: O'zbekistonning iqtisodiy modeli. Iqtisodiyot va ekologiya, 5(9), 38-44.

4. Tursunov, T. (2019). Yashil iqtisodiyot va unga asoslangan strategiyalar. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot.

5. Akbarov, F. (2020). Yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanish va energiya samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

6. Saidov, Z. (2020). Yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanish va ekologik yangilanish. Iqtisodiy taraqqiyot va ilm-fan, 8(14), 40-46.

7. Ismailov, D. (2021). Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yashil iqtisodiyot. Iqtisodiy va ekologik barqarorlik, 1(3), 29-35.

8. https://ecosphere.press/2021/05/31/evropejskij-zelenyj-kurs-uglerodnyj-nalog-i-chto-oni-znachat-dlya-rossii/

9. https://lex.uz/uz/docs/7369703

10. https://review.uz/post/gosprogramma-god-okrujayushey-sred-i-zelenoy-ekonomiki

1. Вукович Н. А. “Зеленая” экономика: определение и современная эколого-экономическая модель // Вестник УрФУ. Серия эко-номика и управление. 2018. Т. 17. No 1. С. 128–145. ↑

2. https://ecosphere.press/2021/05/31/evropejskij-zelenyj-kurs-uglerodnyj-nalog-i-chto-oni-znachat-dlya-rossii/ ↑

3. Jumayev, R. (2019). Ekologik xavfsizlik va yashil iqtisodiyotga o'tish: O'zbekistonning iqtisodiy modeli. Iqtisodiyot va ekologiya, 5(9), 38-44. ↑

© Irisov Akramjon Avazovich, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Irisov Akramjon Avazovich

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV O'YINLARNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shomurodova Nozima Baxriddin qizi - Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Ish joyi - Navoiy innovatsiyalar universiteti

raxmatovanozima278@gmail.com Tel. raqam +99888 796-12-08

Annotatsiya:

Ushbu tezisda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida interaktiv o'yinlarning pedagogik imkoniyatlari ilmiy asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi interaktiv o'yinlar orqali muammo qo'yish, dalillash, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini aniqlashdir. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy, faoliyat va konstruktiv yondashuvlar qo'llanadi. Yangilik interaktiv o'yinlarning didaktik shartlari va baholash mezonlarini tizimlashtirishdadir.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, interaktiv o'yin, muammo vaziyati, dalillash, muloqot, refleksiya, maktabgacha ta'lim.

Аннотация:

В тезисе научно обосновываются педагогические возможности интерактивных игр в развитии критического мышления у детей старшего дошкольного возраста. Цель исследования состоит в выявлении механизмов формирования умений ставить проблему, аргументировать, сравнивать и делать выводы через игровое взаимодействие. Методологическую основу составляют компетентностный, деятельностный и конструктивистский подходы. Научная новизна заключается в систематизации дидактических условий интерактивной игры и критериев оценивания.

Ключевые слова: критическое мышление, интерактивная игра, проблемная ситуация, аргументация, общение, рефлексия, дошкольное образование

Abstract:

This thesis substantiates the pedagogical potential of interactive games for developing critical thinking in senior preschool children. The study aims to identify mechanisms through which play-based interaction fosters problem posing, reasoning, comparison, and conclusion-making skills. The methodology integrates competency-

based, activity-oriented, and constructivist approaches. Scientific novelty lies in systematizing didactic conditions of interactive games and proposing coherent criteria for assessing critical thinking manifestations in preschool settings.

Keywords: critical thinking; interactive games; problem situation; argumentation; communication; reflection; preschool education.

Asosiy qism. Maktabgacha ta’limda katta yosh davri bolada bilish jarayonlari, nutq, ijtimoiy tajriba va o‘zini boshqarishning jadallashuvi bilan xarakterlanadi; shu bois aynan ushbu bosqichda tanqidiy fikrlashning dastlabki ko‘rinishlari tabiiy ravishda paydo bo‘ladi va pedagogik ta’sir uchun sezgir maydon yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlashni maktabgacha yosh sharoitiga mos talqinda “tayyor javobni qabul qilish”dan ko‘ra “savol berish, tekshirish, taqqoslash va asoslashga intilish” sifatida izohlash maqsadga muvofiq, chunki maktabgacha yoshdagi bola uchun formal mantiqiy operatsiyalar to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, u tajriba va muloqot orqali sabab-oqibat bog‘liqliklarini izlaydi, muqobil yechimlarni sinab ko‘radi, tengdosh fikriga munosabat bildiradi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv o‘yinlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning qulay pedagogik vositasi bo‘lib, u o‘yin motivatsiyasi, qoida va rollar tizimi, hamkorlikdagi muloqot hamda natijaga yo‘naltirilgan harakatlar orqali bolani fikrlashning muhim amallariga jalb etadi. Interaktiv o‘yin pedagogik hodisa sifatida faqat “faollik” emas, balki o‘zaro ta’sir, kelishuv va dalillash uchun zarur kommunikativ vaziyatni ham yaratadi; natijada bola fikrni ifodalash, himoya qilish yoki qayta ko‘rib chiqish tajribasini xavfsiz, ijtimoiy qabul qilinadigan shaklda egallaydi.

Tadqiqot muammosining dolzarbligi shundan iboratki, amaliyotda interaktiv o‘yinlar ko‘pincha ko‘ngilochar mashg‘ulot sifatida tashkil etilib, ularning tanqidiy fikrlashni o‘stirishga xizmat qiladigan didaktik potensiali to‘liq ishga solinmaydi. Bunda ikki xavf ko‘zga tashlanadi: birinchisi, o‘yin qoidalari va vazifalari kognitiv murakkablik jihatidan yetarli darajada muammo tug‘dirmaydi, bola esa tayyor shablon harakatni takrorlash bilan cheklanadi; ikkinchisi, tarbiyachi o‘yin jarayonidagi muloqotni boshqarishda savol berish, dalillashni rag‘batlantirish, muqobil yechimlarni ko‘rsatish kabi pedagogik funksiyalarni izchil bajarmaydi. Shuning uchun interaktiv o‘yinlarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida loyihalashda faoliyat yondashuvi, ya’ni bola faoliyatining maqsadi, sharti, vositasi va natijasi aniq ko‘rilishi talab etiladi; shuningdek, konstruktiv yondashuvga ko‘ra, bilim o‘yin jarayonida “tayyor berilmaydi”, balki bola tomonidan hamkorlikda quriladi, bu esa uning fikriy mustaqilligini kuchaytiradi [1]. Kompetensiyaviy yondashuv esa tanqidiy fikrlashni alohida bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki muammo vaziyatida amaliy qo‘llanadigan integrativ ko‘nikmalar majmuasi sifatida ko‘rishga imkon beradi [2].

Interaktiv o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlari, avvalo, muammo vaziyatini tabiiy yaratish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. O‘yin ssenariysi bola uchun ma’noli konflikt yoki tanlovni yuzaga keltirganda, u “nega?” va “qanday?” savollarini qo‘yishga kirishadi;

tarbiyachi bu jarayonda muammoli savollarni ketma-ketlikda berib, fikrni aniqlashtirish, dalil soʻrash, taqqoslashga undash orqali dialogik fikrlashni kuchaytiradi. Masalan, “Nima uchun bu qoidani shunday qoʻyamiz?”, “Agar boshqacha qilsak nima boʻladi?” kabi savollar oddiy koʻrinishiga qaramay, bolaning taxmin qilish, tekshirish va natijani baholash amallarini faollashtiradi. Rus pedagogikasida oʻyin faoliyati bolaning ijtimoiy rol va qoidalarni ichkilashtirishi, oʻzini boshqarishi hamda tafakkur harakatlarini rivojlantirish bilan bogʻliqligi izohlangan boʻlib, aynan rolli va qoidali oʻyinlarda oʻzaro nazorat, oʻzini cheklash va fikrni muvofiqlashtirish mexanizmlari kuchayishi taʼkidlanadi [3]. Mazkur mexanizmlar tanqidiy fikrlashning muhim komponenti boʻlgan refleksiv nazoratga kirish eshigi vazifasini oʻtaydi.

Ikkinchi muhim imkoniyat hamkorlikdagi muloqot orqali dalillash madaniyatini shakllantirishdir. Katta maktabgacha yoshda bola tengdoshlar fikrini tinglashga, navbat kutishga, oʻz fikrini boshqalarga tushunarli yetkazishga oʻrganadi; interaktiv oʻyinlar esa buni ijtimoiy maqbul qoidalar asosida, raqobat va hamkorlikning muvozanatli birligida taʼminlaydi. Dalillashning maktabgacha bosqichdagi koʻrinishi “men shunday oʻylayman, chunki…” tarzidagi sodda asoslashdan boshlanadi; tarbiyachi bu asoslashni “misol keltir”, “qanday bilasan?”, “qaysi belgi boʻyicha?” kabi savollar bilan chuqurlashtirsa, bola dalilni aniqlashtirish, umumlashtirish va taqqoslashni oʻzlashtiradi. Xalqaro tadqiqotlarda erta yoshdagi dialogik muloqot va savol-javobga boy oʻqitish uslubi bolalarning fikrlash moslashuvchanligi hamda metakognitiv belgilarini kuchaytirishi koʻrsatilgan [4]. Biroq maktabgacha taʼlimda bu yondashuvni bevosita “dars” shaklida emas, balki oʻyin mexanizmlari orqali, yaʼni bola uchun motivatsion jihatdan tabiiy sharoitda tashkil etish pedagogik jihatdan samaraliroqdir.

Uchinchi imkoniyat qoidalar bilan fikrlashni boshqarish, yaʼni tanqidiy fikrlash uchun zarur intizomni oʻyin orqali singdirishdir. Qoidali interaktiv oʻyinlarda bola harakatni cheklovchi shartlarni qabul qiladi, biroq shu cheklovlar ichida eng yaxshi yechimni topishga urinadi; bu jarayon divergent va konvergent fikrlash elementlarini uygʻunlashtiradi. Interaktiv oʻyinlarda “oʻyin ichidagi cheklov” metodik jihatdan toʻgʻri qoʻyilsa, bola tasodifiy taxminlardan koʻra mezonli tanlov qilishga yaqinlashadi: masalan, rasmli kartochkalarni “nega bu guruhga kiritding?” mezoni bilan saralash, voqealar ketma-ketligini “avval-nima, keyin-nima” asosida tiklash yoki “ortiqcha predmet”ni belgi boʻyicha chiqarib tashlash kabi topshiriqlar tanqidiy tahlilning sodda modellari hisoblanadi. Oʻzbekiston maktabgacha taʼlim amaliyotida kompetensiyalarni shakllantirishda oʻyinli texnologiyalarning ahamiyati keng yoritilgan boʻlib, ularni maqsadli loyihalash zarurligi qayd etiladi [2]. Demak, masala oʻyinni koʻpaytirish emas, balki oʻyinlarning intellektual yuklamasini meʼyorida, yoshga mos va natijaga yoʻnaltirilgan qilib qurishdir.

Mazkur tezis doirasida interaktiv oʻyinlarning didaktik shartlari quyidagicha konseptuallashtiriladi: birinchidan, oʻyin vazifasi bolaning kundalik tajribasiga tayangan

holda kichik muammo vaziyatini oʻz ichiga olishi, ikkinchidan, muloqot majburiy komponent sifatida kiritilishi va har bir bola fikr bildirish imkoniga ega boʻlishi, uchinchidan, tarbiyachining savol berish strategiyasi oʻyinning har bir bosqichida aniqlashtirish, asoslash, muqobil variantni koʻrsatish va xulosa chiqarishga xizmat qilishi, toʻrtinchidan, natija faqat “gʻolib” bilan oʻlchanmay, balki qoʻllangan usul, keltirilgan dalil va hamkorlik madaniyati bilan baholanishi lozim. Shu yondashuvda baholash ham jarayoniy xarakter kasb etadi: bolaning savol berishi, fikrni oʻzgartira olishi, sababni ayta olishi, tengdosh daliliga javob qaytarishi kabi indikatorlar kuzatiladi. Baholashning bunday modeli maktabgacha ta’limda diagnostika va rivojlantiruvchi baholash birligiga mos keladi; bunda tarbiyachi “xato”ni jazolash emas, balki fikrni aniqlashtirish uchun resurs sifatida koʻradi. Metakognitiv komponentning ilk belgilarini aynan shunday yumshoq baholash va refleksiya orqali kuchaytirish mumkin, chunki bola oʻz fikrining sababini anglashga oʻrgana boshlaydi [5].

Interaktiv oʻyinlarni tanqidiy fikrlashga yoʻnaltirib tashkil etishda tarbiyachining professional roli markaziydir. U oʻyinni “oʻzi yuradigan” jarayon deb qoldirmaydi; aksincha, oʻyin muhitini pedagogik jihatdan boshqarib, bolalarning fikriy harakatini koʻrinadigan qiladi: kim qanday mezon tanladi, nima sababdan shunday qaror qildi, qanday dalil keltirdi, muqobil fikrga qanday munosabat bildirdi. Bunda tarbiyachi bevosita “toʻgʻri javob”ni tez aytib qoʻyishdan tiyiladi; agar u darhol yechimni bersa, oʻyinning tanqidiy fikrlashni ragʻbatlantiruvchi mexanizmi soʻnadi. Shuning uchun scaffolding, ya’ni bosqichma-bosqich koʻmak berish tamoyili muhim: avval savol bilan yoʻnaltirish, soʻng mezonni taklif qilish, keyin esa bolaning oʻzi xulosaga kelishiga imkon yaratish. Interaktiv oʻyinlarda ijtimoiy oʻrganish ham kuchli boʻlgani uchun tengdosh namunalari ham tarbiyaviy resursga aylanadi: bir bola dalil keltirsa, boshqalar ham shu modelni oʻzlashtira boshlaydi, tarbiyachi esa bu modelni umumlashtirib, “biz qanday asosladik?” degan refleksiv yakun bilan mustahkamlaydi.

Xulosa. Interaktiv o‘yinlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yuqori pedagogik potensialga ega bo‘lib, u muammo vaziyatini tabiiy yaratishi, muloqot va hamkorlik orqali dalillashni rag‘batlantirishi, qoidalar yordamida fikrlashni boshqarish va refleksiyani shakllantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Tezis doirasida interaktiv o‘yinlarni samarali qo‘llash uchun didaktik shartlar tizimi asoslandi: o‘yin vazifasining muammoliligi, dialogik muloqotning majburiyligi, tarbiyachining savol berish strategiyasining izchilligi va jarayoniy baholash indikatorlarining aniqligi. Natijada interaktiv o‘yinlar “ko‘ngilochar” shakldan chiqib, tanqidiy fikrlashning dastlabki ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantiruvchi metodik platformaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotskiy L. S. Myshleniye i rech. Moskva, AST, 2021. 640 s.

2. Shodiev R. D. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot. Toshkent, Fan va texnologiya, 2020. 320 b.

3. Elkonin D. B. Psikhologiya igry. Moskva, VLADOS, 2019. 360 s.

4. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Boston, Pearson, 2019. 448 p.

5. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Millbrae, The California Academic Press, 2020. 28 p.

6. Zimnyaya I. A. Klyuchevye kompetentsii kak rezul’tativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podkhoda v obrazovanii. Moskva, Issledovatelskiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2017. 40

© Shomurodova Nozima Baxriddin qizi, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Shomurodova Nozima Baxriddin qizi

Abdusalim Usarboev Abrorbek ugli

Students of Master's department of The

University of Navoiy Innovations.

Learning the Structural and Semantic features of Tenses in English through AI

Annotation

The article investigates the structural and semantic features of tenses in the English language. The study focuses on the grammatical organization of tense forms and their semantic functions in expressing time reference, aspectual meanings, and contextual interpretation. The research highlights the analytical nature of the English tense system and examines the interaction between form and meaning in real language use. The results contribute to a deeper understanding of tense usage and may be applied in theoretical linguistics and foreign language teaching.

Аннотация

В статье рассматриваются структурные и семантические особенности системы времен в английском языке. Особое внимание уделяется грамматическому строению временных форм и их семантическим функциям при выражении временной соотнесенности, аспектуальных значений и контекстуальной интерпретации. Анализ подчеркивает аналитический характер английской временной системы и взаимосвязь формы и значения. Результаты исследования могут быть использованы в теоретической лингвистике и методике преподавания иностранных языков.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilidagi zamonlar tizimining struktur va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamon shakllarining grammatik tuzilishi hamda ularning vaqt munosabatlarini, aspektual ma'nolarni va kontekstual talqinni ifodalashdagi semantik vazifalari yoritilgan. Ingliz tili zamonlar tizimining analitik xarakteri va shakl bilan ma'no o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari nazariy tilshunoslik va xorijiy tillarni o'qitish amaliyotida qo'llanishi mumkin.

Key words

Tense system, grammatical structure, semantic meaning, aspect, time reference, auxiliary verbs, English grammar.

Introduction

The category of tense occupies a central position in the grammatical system of the English language. It serves as one of the main means of expressing temporal relations between events, actions, and states. Unlike some languages that possess a rich morphological tense system, English relies heavily on analytical constructions and auxiliary verbs. This makes the study of the structural and semantic features of English tenses particularly significant. In modern linguistics, tense is not viewed merely as a grammatical form indicating time, but as a complex category closely connected with aspect, modality, and context. Therefore, a detailed investigation of both the structural (formal) and semantic (meaning-related) characteristics of English tenses is essential for a deeper understanding of how time is conceptualized and expressed in English. The purpose of this article is to analyze the structural patterns of English tense forms and to reveal their semantic functions in actual language use.

1. Structural Organization of the English Tense System

The English tense system is mainly analytical in nature [1]. This means that tense is usually expressed by auxiliary verbs rather than by changing the form of the main verb. This feature is the result of historical development and clearly distinguishes English from many synthetic languages.

The tense system of English is based on three main time references: present, past, and future [2]. The difference between present and past is often shown directly in the verb form, as in work – worked. However, future time is not expressed by a special verb ending. Instead, it is formed with the help of auxiliary verbs such as will or constructions like be going to. Another important structural feature is the connection between tense and aspect [3]. Simple forms (works, worked) usually present actions as facts, without focusing on duration. Continuous forms (is working, was working) are built with the auxiliary be and the -ing form and show actions as ongoing or temporary. Perfect forms (has worked, had worked) use the auxiliary have and the past participle to indicate that an action happened before a certain time. Perfect Continuous forms (has been working) combine these elements and show both duration and relevance to another time. These structures show that English tense forms work together as a system, where grammatical form strongly influences meaning.

Present Simple	He writes every day

Present Continuous	He is writing now
Past Perfect	She had finished her work before he arrived
Future Perfect Continuous	He will have been working for five hours by then.

Tense system are referred through additives

Present Simple	U kitob o'qiydi.
Past Simple	U kitob o'qidi.
Future Simple	U kitob o'qiydi bo'ladi.

2. Semantic Interpretation of English Tenses

The semantic side of English tenses is related to the meanings they express in communication [4]. Tenses do not only show time, but also give information about whether an action is repeated, temporary, completed, or important for the present moment. For example, the Present Simple tense often expresses habits, general facts, and permanent situations. Sentences such as She works at a university or Water boils at 100 degrees show that the tense is not limited to actions happening right now. In contrast, the Present Continuous tense expresses actions that are happening at the moment of speaking or are temporary, as in She is working on a research project this semester.

Past tenses also have different semantic functions [5]. The Past Simple shows actions that are finished in the past (They completed the study last year). The Past Continuous is used for actions that were in progress at a certain time in the past (They were discussing the results when the meeting started). The Past Perfect shows that one past action happened before another (They had finished the analysis before the report was written).

Future meaning in English is especially flexible [6]. The auxiliary will is often used for predictions or decisions made at the moment of speaking (The results will be published soon). The construction be going to usually shows plans or intentions (The researcher is going to collect more data). The Present Continuous can also refer to future arrangements (We are meeting the supervisor tomorrow).

One of the most significant characteristics of the English tense system is the dynamic interaction between structural form and semantic interpretation. Identical tense

forms may convey different meanings depending on pragmatic context, while different structures may encode similar temporal meanings. For instance, the Present Perfect (has published) structurally encodes anteriority but semantically links a past action to present relevance. Compare The author has published three articles with the author published three articles in 2022. Although both refer to past actions, the former foregrounds current relevance, whereas the latter confines the action to a closed past timeframe.

This interaction becomes particularly evident in academic and formal discourse, where tense choice reflects rhetorical intention. Present tenses are commonly used to describe general theories and established knowledge, while past tenses report specific experiments or findings. Thus, tense selection functions as a discourse-organizing mechanism rather than a purely temporal indicator. In this respect, English tense semantics must be interpreted as a contextual and pragmatic phenomenon, where grammatical structure provides a framework that is activated and specified by communicative intent.

Conclusion

In conclusion, the tense system of the English language represents a complex and multifunctional grammatical category. Structurally, English tenses are mainly analytical and rely on auxiliary verbs and participle forms. Semantically, they express not only temporal relations but also various aspectual and contextual meanings. The analysis demonstrates that the relationship between structure and semantics in English tenses is dynamic and context-dependent. Understanding this relationship is essential for accurate language description, effective language teaching, and successful communication. Further research may focus on pragmatic and discourse-based aspects of tense usage in different communicative contexts.

References

1. Comrie, B. Tense. Cambridge: Cambridge University Press, 1985.
2. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman, 1985.
3. Huddleston, R., & Pullum, G. K. The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
4. Lyons, J. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
5. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. Longman Grammar of Spoken and Written English. London: Longman, 1999.
6. Yuldashev, B. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
7. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023).

28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences

8. M. A. Abjalova and N. S. Gulomova, "Corpus of Alisher Navoi - Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words," 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.

© Usarboev Abdusalim Abrorbek ugli, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Usarboev Abdusalim Abrorbek ugli

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

ILMIY NASHR

SUN’IY INTELLEKT VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI AXBOROT MUHITI: TA’LIM, TIL, MADANIYAT IJTIMOIY-GUMANITAR VA TEXNIK FANLAR INTEGRATSIYASI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

TAHRIR HAY'ATI

Mavlonov Jo‘rabek Yorqulovich — Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori

G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna — Filologiya va tillarni o`qitish kafedrasi professori

Boboyeva Firuza Azimjonovna — Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

Allayarov Ravshan Muzaffarovich — Navoiy innovatsiyalar universiteti "Tabiy va texnika fanlar" kaferdrasi dotsenti

Shomiyev G‘olib O‘ktamovich — Iqtisodiyot va axborot texnalogiyalari kafedrasi professori

Shodiyev Ne'matjon Sa'dirovich — Navoiy innovatsiyalar universiteti "Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar" bo'lim boshlig'i

NASHR MA'LUMOTLARI

Kompyuter dizayni va sahifalash: **conference.niuedu.uz**

BOSISHGA IMZOLANGAN
25.06.2026

NASHR FORMATI
60×84 1/8 (A4)

SHARTLI BOSMA TABOQ
110,0

TARQATISH
Elektron nashr / Open Access

NIU NASHRIYOTI

O'zbekiston, Navoiy shahri

info@niuedu.uz

NIU-PROC-2026-3

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

conference.niuedu.uz

© 2026